

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

A K A D E M I Y A

R. X. DUSHANOV, B. N. SIRLIYEV

PEDAGOGIKA. PSIXOLOGIYA

MA’RUZALAR KURSI

Toshkent 2017

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Tahririyat-noshirlik hay‘atida ma‘qullangan

Mas‘ul muharrir

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti «Pedagogika va umumiy psixologiya» kafedrasini mudiri, psixologiya fanlari doktori, professor **N. S. Safoyev**

Taqrizchilar:

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti «Pedagogika va psixologiya» kafedrasini mudiri, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent **D. N. Arziqulov**;

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Harbiy va avtomobil tayyorgarligi kafedrasini dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi **A. A. Kochkarov**

Dushanov R. X., Sirliyev B. N.

D 95 **Pedagogika. Psixologiya:** Ma‘ruzalar kursi / R. X. Dushanov, B. N. Sirliyev; mas‘ul muharrir p.f.d., prof. N. S. Safoyev – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – 312 b.

Mazkur ma‘ruzalar kursi yangi ta‘lim standartlari hamda «Pedagogika. Psixologiya» fanining o‘quv dasturi asosida tayyorlangan bo‘lib, unda ushbu fanning predmeti, metodlari, vazifalari, obyekti va subyekti, qonuniyatlari, fan sifatida shakllanishi va rivojlanish bosqichlari hamda ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining pedagogik-psixologik jihatlari, turli toifadagi shaxslarni o‘rganish va ularga ta‘lim-tarbiya berishda pedagogika va psixologiya fanlarining o‘rni yoritilgan. Shuningdek, ma‘ruzalar kursida mavzular bo‘yicha savol va topshiriqlar berilgan bo‘lib, bu tinglovchilarning bilimlarini oshirish va mustahkamlashga qaratilgan.

Tinglovchi va kursantlarga, tadqiqotchilar hamda professor-o‘qituvchilarga mo‘ljallangan.

BBK 7700+88ya73

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurish, inson mohiyatini yangidan kashf qilish, uning o‘zligini anglash imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va ma’naviy-intellektual, aqliy-amaliy rivojlanishi uchun yangidan-yangi shart-sharoitlar yaratish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Jamiyat ma’naviyatini shakllantirishga bevosita ta’sir qiladigan omillardan biri ta’lim-tarbiya hisoblanadi. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridan butun davlat miqyosida ta’lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o‘rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezildi. «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqish bilan bog‘liq jarayon uzoq yillar mobaynida bu sohada talay muammolar yig‘ilib qolganligini ko‘rsatdi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi»¹, degan dono fikrlari naqadar to‘g‘ri ekanligini bugungi kunda hayotning o‘zi tasdiqlamoqda. Ta’lim va tarbiyaga yangicha yondashish pedagogika va psixologiya fanlarining obyektini va predmetini kengaytirdi. Endilikda pedagogika va psixologiya fanlari nafaqat ta’lim-tarbiya jarayonini nazariy, amaliy-metodik ta’minlovchi, balki komil inson shakllanishi, rivojlanishi kabi sohalarni o‘z ichiga qamrab olgan fan sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ham ta’lim-tarbiya masalalariga katta e’tibor qaratib, «oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha murakkab vazifalar turibdi»², deb ta’kidladi.

Komil inson tarbiyasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyektini va obyektini sifatida qaraladi. Ma’lumki,

¹ *Каримов И. А.* Юксак маънавият – енгилмас куч . – Т., 2008. – Б. 62.

² *Мирзиёев Ш. М.* Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. – Т., 2017. – Б. 45 .

pedagogika va psixologiya fanlari yetuk mutaxassislarning shakllanishida ta'lim-tarbiyaning inson rivoji, shaxs kamoli va ta'lim tizimi o'z ichiga olmaydigan etnik, tarixiylik, mustaqillik, tabiiy-ekologik, ruhiy-hissiy bilish, rivojlanish hamda komillik omillariga suyanadi. Bundan tashqari, ushbu fanlar oldiga yangicha fikrlash, yangicha tafakkur, milliy mafkura-ning keng qamrovli sifatlarini shakllantirish vazifalari ham qo'yildi.

Pedagogika va psixologiya fanlari yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda hayotning barcha sohalarini, jabhalarini qamrab olmaganida, u komil inson tarbiyasida juda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan asosiy ijtimoiy fan mavqeini egallay olmagan bo'lar edi. Shuning uchun ham yangi ta'lim konsepsiyasi va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilandi.

Chunki ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.

Shu ma'noda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad – barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish.

Ushbu ma'ruzalar kursi aynan mana shu maqsadni ko'zda tutgan bo'lib, Davlat ta'lim standartlari hamda pedagogika, psixologiya fanlari-ning o'quv dasturlari asosida tayyorlandi. Uni tayyorlashda olimlar Z. S. Zaripov, I. Ismailov, R. M. Mahmudov, B. M. Umarov va boshqalar-ning ilmiy ishlaridan keng foydalanildi.

1-mavzu. PEDAGOGIKA FANINING PREDMETI, UNING ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDA TUTGAN O‘RNI

Ichki ishlar organlarida «pedagogik jarayon» tushunchasi va uning tarkibiy qismlari.

Profilaktik faoliyatni tashkil etishda pedagogik bilimlarning ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilish siyosati.

Ichki ishlar organlarida «pedagogik jarayon» tushunchasi va uning tarkibiy qismlari

XXI asrga kelib ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql-zakovati, ma’naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo‘lmoqda. Shuning uchun insonparvarlik bozor iqtisodiyoti asosidagi huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurilishining bosh mezoni sifatida qabul qilinmoqda.

Ijtimoiy fanlar tizimida pedagogikaning tutgan o‘rni shu bilan belgilanadiki, u shaxsni shakllantirish, rivojlantirish, tarbiyalash, ma’lumotli qilish va o‘qitish (ta’lim berish)ni nazarda tutadi.

Shaxs turli omillar ta’sirida shakllanadi. Tarbiya esa shaxsni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi omillardan biridir. Tarbiyachi turli vosita va usullar orqali muayyan maqsadni ko‘zlagan holda tarbiyalanuvchilarda ma’lum ijobiy xislatlarni shakllantiradi, rivojlantiradi.

Insoniyat jamiyatining turli bosqichlarida ta’lim-tarbiya muassasalarini yaratish, yosh avlodlarni o‘qitish va tarbiyalash sohasidagi tajribalarni nazariy jihatdan anglash, umumlashtirish va hayotga tatbiq qilish jarayonida pedagogika fani paydo bo‘la boshladi. Pedagogika ta’lim-tarbiyaning maqsadi, vazifalari, davlat ta’lim standartlari, ta’lim va tarbiyaning usullarini tashkil etish shakllari, umuman, uning qonuniyatlari haqida bilim, ma’lumot beradigan fanga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunida (1997) ta’limning davlatimiz ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor yo‘nalish deb e’lon qilinishi pedagogika fani zimmasiga katta mas’uliyat, ulug‘vor vazifalarni yukladi. Jumladan, boy ilmiy, ma’naviy, madaniy, diniy merosimizni qayta tiklanishi ularni hozirgi zamon ruhi, talabi bilan uyg‘unlashtirish, faqat shaxsiy, milliy manfaat kasb etib qolmasdan, umumjahon ma’naviy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilmoqda.

Har bir mustaqil fan o‘z predmeti (mavzusi) va metodologik asoslariga ega. Pedagogika fani ham boshqa fanlar singari shakllangan va uzoq tarixiy

davrni bosib o'tgan bo'lib, u avvalo, jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida yuzaga kelgan.

«Pedagogika» atamasi yunoncha «paydogogos» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «bola yetaklovchi, tarbiyalovchi» degan ma'noni bildiradi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, qadimgi Yunonistonda o'z xo'jayinining bolalarini sayr qildirgan, ehtiyot qilgan tarbiyachini «pedagog» (bola yetaklovchi, tarbiyalovchi) deb atashgan. Keyinchalik esa maxsus o'qigan va pedagoglikni o'ziga kasb qilib olgan kishilarni pedagog deb atay boshlashgan.

Pedagogikaning rivojiga IX–XVI asrlar (Sharq uyg'onish davri)da yashab ijod etgan Al-Buxoriy, At-Termiziy, Abu Nosir Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk daholar, XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Said Ahmad, Yevropa davlatlarining buyuk mutafakkir va pedagog olimlaridan YA. Komenskiy, J. Russo, I. G. Pestolotssi, A. Disterveg, K. D. Ushinskiy, A. S. Makarenko, J. Lokk, J. Dyui, E. Torndayk, S. T. Shatskiy, B. Blumlar ulkan hissa qo'shdilar.

Pedagogika fanining metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi-ning amaldagi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Islom Karimovning asarlari tashkil etadi («metodologiya» so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, metod os o'rganish yo'li, nazariya va logos ta'limot ma'nolarini anglatadi).

Pedagogika yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun ta'lim-tarbiyaning mazmuni, umumiy qonuniyatlari va ularni amalga oshirish yo'llarini o'rgatuvchi fandır.

Pedagogika fanining predmeti ta'lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyat-lari, mazmuni, prinsiplari, metodlari, vositalari hamda jamiyatning moddiy va ma'naviy rivojida shaxsning kamolot uyg'unligi hisoblanadi.

Pedagogika fanning asosiy vazifasi shaxsni barkamol inson qilib tarbiyalash, kasbiy qobiliyatlarni shakllantirish, aqliy, amaliy imkoniyat-larini ro'yobga chiqarish hamda intellektual jihatdan rivojlanishini ta'minlash, o'zi tanlagan muta xassisligi bo'yicha faoliyat ko'rsatishi uchun tarbiyaviy-didaktik shart-sharoit yaratishdan iborat.

Fanning obykti tarbiyalanuvchi shaxslardir.

Pedagogika fanining mazmun-mohiyatini boyitishda quyidagi metod-lardan foydalanish mumkin:

1. Pedagogik kuzatish usuli.
2. Suhbat usuli.
3. So‘rovnoma, test usuli.
4. Faoliyat natijalarini tahlil qilish usuli.
5. Eksperiment, tajriba, sinov usuli.
6. Statistik ma’lumotlarni tahlil qilish usuli.

Demak, pedagogika fani asosan shaxsni *shakllantirish, rivojlantirish, ta’lim va tarbiya* berish bilan shug‘ullanadi.

Ichki ishlar organlarida pedagogik jarayon – maxsus tashkil etilgan yoki etiladigan, xodimlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi tizimli tarbiyaviy faoliyati. Bu faoliyat tarbiyaning mazmuni, shakllari va usullarini to‘liq qamrab oladi. Ichki ishlar organlarida pedagogik jarayon deganda asosan tarbiya obyekti va subyekti o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni tushunamiz.

Ichki ishlar organlarining xodimlari olib boradigan har qanday pedagogik jarayon axloqiy qadriyatlar, huquqiy normalar asosida olib boriladi. Shuningdek, ichki ishlar organlarida pedagogik jarayon asosan tarbiyaviy-profilaktik ishlarga, tarbiyasi og‘ir, tarbiyaga muhtoj bo‘lgan shaxslar bilan ishlashga qaratiladi.

Ichki ishlar organlari faoliyatida pedagogik jarayonning tarkibiy qismi asosan shaxsni *o‘qitish va tarbiyalash* hisoblanadi. O‘qitish va tarbiyalash jarayoni, shaxsning ongi va ruhiyatiga ta’sir etish kuchiga ega, bu ta’sir orqali shaxslar o‘zini o‘zi boshqaradi, tarbiyalaydi. Tarbiyalanayotgan shaxs xatti-harakatida ijobiylik yuzaga kelsa, ta’sir darajasining natijasi namoyon bo‘ladi. Bu jarayon tarbiyalanayotgan shaxslar dunyoqarashida o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi, bu o‘zgarishlar esa uning xulq-atvorida, shaxslararo munosabatlarida ko‘rinadi. Shu ma’noda ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy faoliyatida pedagogik jarayonning tarkibiy elementlari fuqarolar bilan bo‘ladigan tarbiyaviy-profilaktik suhbatda, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda jinoiy jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarni tarbiyalashda namoyon bo‘ladi.

Har qanday shaxs muayyan ijtimoiy muhitda yashar ekan, o‘sha muhitga moslashadi. Pedagogikaga oid adabiyotlardan, hayot tajribasidan ma’lumki, tarbiya hech qachon silliq kechmaydi, balki u turli to‘siqlardan iborat. Bu to‘siqlardan o‘tishda katta iroda talab etiladi.

Kasbiy pedagogika pedagogika fanining tarkibiy qismi bo‘lib, u bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganiladi. Kasbiy pedagogika – ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan olib boriladigan tarbiyaviy jarayon. Bu jarayonda nafaqat ichki ishlar xodimlari, balki o‘zini o‘zi boshqarish organlari,

mahalla faollari hamda butun jamoatchilik faol ishtirok etib, ichki ishlar organlari xodimlariga amaliy yordam ko'rsatadilar.

Ichki ishlar organlari xodimlari pedagogik faoliyatining o'ziga xos tomoni turli toifadagi huquqbuzar va jinoyatchi shaxslarni tarbiyalashda qiyinchiliklarning yuzaga kelishidir. Chunki salbiy dunyoqarashdagi shaxslarning ongini o'zgartirish ancha qiyin bo'lib, pedagogik mahorat va sabr-toqatni talab etadi. Ko'pincha dunyoqarashi salbiy, ijtimoiy ongi past rivojlangan shaxslarning ichki hissiyotlarini boshqarishi qiyin kechadi. Buning asosiy sabablaridan biri shaxsni o'rab turgan salbiy fikr-mulohazali shaxslar mavjudligi hamda muhitning ta'siridir. Negaki, ijtimoiy muhit inson ongini belgilaydi. Bunday toifadagi shaxslarda egoizm, dag'allik, qo'pollik kabi salbiy illatlar keng ildiz otgan bo'lib, bu ularni nafaqat tarbiyalash, balki kamchiliklarini to'g'rilash uchun doimiy nazorat qilish va alohida hisobga olish talab etiladi. Bu o'ziga xos murakkab pedagogik-profilaktik jarayon bo'lib, u profilaktika inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu jarayon xodimdan pedagogik bilim, mahorat, hayotiy tajriba, ko'nikma va malakani talab etadi.

Shaxslarni tarbiyalash va to'g'ri yo'lga yo'naltirish, boshqa ijtimoiy fanlar singari, pedagogika fanining ham asosiy vazifalaridan biridir.

Ichki ishlar organlari faoliyatida shaxslarni tarbiyalashning o'ziga xos qiyin tomoni mavjud. Tarbiya obyekti bo'lgan shaxslar bilan ishlashda ko'p hollarda pedagogik jarayonni qiyinlashtiradigan holatlarga, masalan, bir necha marotaba qamalib chiqqan retsdiv jinoyatchilar bilan tarbiyaviy profilaktik ishlarni olib borishga to'g'ri keladi.

Shu nuqtai nazardan, muqaddam sudlangan shaxslarni to'g'ri yo'lga yo'naltirish, tarbiyalash jarayonida ularning individual xususiyatlarini, ichki kechinmalarini ham inobatga olish zarur. Nafaqat jazoni ijro etish joylaridagi shaxslarni, balki yashash, ishlash, dam olish, o'qish joylarida ham shaxslarni tarbiyalash pedagogik jarayon sifatida qaraladi. Ayniqsa, tarbiyasi og'ir shaxslarni tarbiyalash jarayonini profilaktika inspektorlarining ish faoliyatida kuzatishimiz mumkin. Ular o'zlariga biriktirilgan hududlarda doimiy ravishda tarbiyaviy jarayon bilan shug'ullanib boradilar.

Mehnat-axloq pedagogikasi mahkum shaxslarning axloqini qayta o'zgartirish profilaktikasiga qaratilgan bo'lsa, kasbiy pedagogikada tarbiya jarayoni ancha kengroq tushunchada bo'lib, tarbiya obyektida chegara yo'q. Bu ikki fan bir-birini to'ldiradi va boyitib boradi.

Ichki ishlar faoliyatida shaxsni tarbiyalash mohiyatidan kelib chiqqan holda tarbiya obyekti o'rganiladi va ta'sir qilish, tarbiyalash yo'llari izlanadi. Har qanday tarbiyaning samarasi obyekt bilan subyekt o'rtasida bir-birini to'g'ri tushunish va bir-biriga o'zaro yordam asosida yuzaga keladi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga oladigan bo'lsak, pedagogika fanining ichki ishlar organlari faoliyatidagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat deb hisoblash mumkin:

- jinoyatlarning oldini olish maqsadida aholining barcha tabaqalari o'rtasida tarbiyaviy profilaktik ishlarni olib borish;
- jinoyat sodir etishga moyil va ozodlikdan mahrum etish joylaridan bo'shatilgan shaxslarga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatish va ular bilan individual tarbiyaviy-profilaktik ishlarni olib borish;
- kasbiy pedagogikaning eng samarali tarbiyaviy usullaridan foydalanilgan holda jinoyatchilikka qarshi kurashish;
- voyaga yetmagan tarbiyasi og'ir shaxslar bilan profilaktik va pedagogik ishlarni olib borish va hokazo.

Profilaktik faoliyatni tashkil etishda pedagogik bilimlarning ahamiyati

Ichki ishlar organlarining profilaktik faoliyatida pedagogik bilimlarning roli borasida to'xtalar ekanmiz, o'z navbatida shuni aytish zarurki, hayotni tartibga soluvchi va uni boshqaruvchi faqat qonunlar emas, balki boshqa axloqiy, ma'naviy, tarbiyaviy qadriyatlar, masalan, jamoat fikri, urf-odatlar, an'analar, guruhlararo, shaxslararo munosabatlar ham mavjud bo'lib, ularni o'rganish va anglash juda katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, aholiga pedagogik va psixologik ta'sir etuvchi omillar ham mavjud. Bu omillar orqali shaxslarning qanchalik tarbiyalanganligini aniqlash mumkin. Chunki inson ongi va qarashlarini o'zgartirish uning e'tiqodiga, dunyoqarashiga bog'liq bo'lib, ular muayyan qadriyatlar va hayotiy mezonlarni shakllantirish, singdirish orqali amalga oshiriladi.

Ichki ishlar organlarining profilaktik faoliyatida pedagogik ishlarning ahamiyati to'g'risida yuqorida to'xtaldik. Hozirgi vaqtda tarbiyaviy ishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Zero, jinoyatga yo'l qo'ygandan ko'ra, uning oldini olgan afzal.

Psixolog B. M. Umarovning fikricha, «tarbiyaviy ishlarni olib borishning maqsadi va vazifasi bilan profilaktik chora-tadbirlar o'rtasida tafovut bo'lmasligi kerak. Ular bir-birini to'ldiruvchi va davom ettiruvchi xususiyatga ega bo'lishi lozim»¹.

Ichki ishlar organlari xodimlari olib boradigan pedagogik ishlar quyidagi yo'nalishlarda bo'lishi mumkin:

¹ *Умаров Б. М. Ўзбекистонда вояга етмаганлар жиноятчилигининг ижтимоий-психологик муаммолари. – Т., 2008. – Б. 182.*

– voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinadigan jinoyatlarning oldini olish maqsadida ularning yashash, ishlash va dam olish joylaridagi profilaktik tarbiyaviy ishlar;

– xulq-atvorida jamiyatga zid qarashlar bo‘lgan shaxslar bilan bo‘ladigan yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlar;

– retsivist jinoyatchilar bilan yakka tartibda olib boriladigan qayta tarbiyalash ishlari;

– barcha tabaqadagi shaxslar o‘rtasida amalga oshiriladigan huquqiy pedagogik tarbiyaviy ishlar;

– voyaga yetmaganlar o‘rtasida olib boriladigan ichkilikbozlik va giyohvandlikka qarshi kurash ishlari;

– shartli ravishda hukm qilinganlar va hukmni o‘tashdan ozod qilinganlar ustida ma’lum muddat davomida va yetarli darajada tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish va hokazolar.

Ichki ishlar xodimlari kasbiy faoliyatlarida pedagogik-profilaktik ishlarni qonun doirasida va huquqiy tarbiyaga tayangan holda olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Negaki huquqiy va hayotiy dalillarga asoslanmagan har qanday tarbiyaviy jarayon ijobiy samara bermasligi mumkin. Shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan olib boriladigan har qanday tarbiyaviy-profilaktik ishlarda aholining qaysi tabaqaga mansubligi, ularning bilim saviyasi, milliy urf-odatlar va an‘analari hisobga olinishi zarur.

Rus olimi G. A. Avanesov ta’kidlaganidek, «tarbiya va profilaktikani bir-biridan ajratib bo‘lmaydi, tarbiyaga profilaktik xizmat ham taalluqli, profilaktik xizmatga tarbiya ham bevosita taalluqlidir»¹.

Aholi orasida tarbiyaviy profilaktik ishlarni olib borishda bir necha marotaba sudlangan shaxslar, xavfli retsivistlarni hisobga olish, ular ustidan doimiy ma’muriy nazorat o‘rnatish va tarbiyaviy ishlarni olib borish kerak. Chunki ular hududdagi vaziyatga ta’sir etuvchi ijtimoiy salbiy qilmishlarni sodir etishlari mumkin.

Hududdagi vaziyatga ta’sir qiluvchi pedagogik omillarga quyidagilar kiradi:

– aholining bilim saviyasi, tarbiyalanganlik hamda madaniyat darajasi;

– shu hududda joylashgan o‘quv yurtlaridagi tarbiya jarayonining holati;

– fuqarolar madaniy dam olishining tashkil etilishi;

– aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibot va tarbiyaviy ishlarning holati va ularning samaradorligi;

¹ *Аванесов Г. А. Введение в курс профилактики правонарушений. – М., 1998. – С. 460.*

– aholining ijtimoiy qatlamlari o‘rtasida tarbiyaning samarali usullaridan foydalanish;

– profilaktika inspektorlarining madaniyat muassasalari tomonidan uyushtirilayotgan huquqiy-tarbiyaviy tadbirlarda qatnashishi;

– hududdagi janjalkash, nosog‘lom oilalar va tarbiyasi og‘ir voyaga yetmagan shaxslar bilan ishlashda ularga individual yondashish.

Profilaktika inspektori hududidagi huquqbuzar shaxslar bilan ishlashda tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanmish yakka tartibdagi tarbiyaga alohida e‘tibor qaratishi lozim. Chunki huquqbuzar shaxslarni, ular orasidagi liderlarni aniqlash va ularni ajratib olish ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatini yengillashtiradi. Biroq xodimlar huquqbuzar shaxslarning ijobiy tomonlarini ham topa bilishlari va ularni rag‘batlantirishlari kerak, bu ular faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Profilaktika inspektorining pedagogik faoliyati ijtimoiy hayot jarayonida davlat tomonidan qabul qilingan qonun va qarorlarni o‘z hududida targ‘ib va tashviq qilishda, hududidagi jinoyat sodir etishga moyil fuqarolarni hisobga olish va jinoiy jazoni o‘tab kelgan shaxslarni qayta tarbiyalashda hamda nosog‘lom oilalar bilan profilaktik ishlarni olib borishda katta rol o‘ynaydi.

Ichki ishlar organlarining profilaktik faoliyatida pedagogika fanining asosiy maqsadi jinoyatchilikning oldini olish, tarbiyasi og‘ir shaxslarni tarbiyalash va favquloddagi holatlarni bartaraf etishdan iborat. Binobarin, tarbiyaviy profilaktik faoliyat har bir ichki ishlar organi xodimi faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining profilaktik faoliyati quyidagi bir qator o‘ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- huquqiy-tarbiyaviy profilaktik tadbirlar;
- profilaktik faoliyatning turli ko‘rinishlari va uning tarbiyaviy xarakteri;
- profilaktika inspektorlarining hokimiyat vakolatiga egaligi;
- voqea sodir etilgan joyni ko‘zdan kechirishda yuqori mas‘uliyat bilan yondashish;

- fuqarolar bilan tarbiyaviy-profilaktik ishlarni olib borishda jamoat tashkilotlari va institutlarining vakillari hamda mahalla faollari bilan doimiy aloqalarni tashkil etishi.

Ichki ishlar tizimida tarbiyaviy profilaktik faoliyat asosan fuqarolar, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari vakillari, mansabdor shaxslar bilan faol kommunikativ munosabatlarga kirishish orqali olib boriladi. Bu esa o‘z navbatida, ichki ishlar organlari xodimlarining kommunikativ va pedagogik qobiliyatlarini hamda fuqarolar bilan munosabatda ularning huquq-

larini qonun, qonunosti aktlariga rioya etgan holda tashkil etishlarini talab etadi.

Profilaktika inspektori uchun quyidagi pedagogik-psixologik sifatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- kasbiy kuzatuvchanlik;
- ziddiyatli holatlarda o'zini, xatti-harakatlarini boshqara olish qobiliyati;
- o'z atrofiga insonlarni jamlash va ularning ishonchiga kira olish qobiliyati;
- insonlar hayotiga e'tiborli bo'lishi va ularning xatti-harakatlarini kuzata olishi;
- o'z fikrini himoya qila olish;
- voqea-hodisalarning xayoliy obrazini xotirasida fikran qayta tiklash;
- qarama-qarshi ma'lumotlardan to'g'ri xulosa chiqara olish uquvining mavjudligi;
- insonning tashqi ko'rinishi va xatti-harakatlarini esda saqlab qolish;
- begona insonlar bilan tez aloqa o'rnatish qobiliyati.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ichki ishlar organlari xodimlarining profilaktik faoliyatni samarali olib borishlariga to'sqinlik qiladigan omillar ham mavjud. Bular: individualizm; shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy o'zaro harakatlar tizimini buzuvchi ijtimoiy begonlashish; peshqadamlikka (liderlikka) intilishning kuchliligi; faoliyat maqsadiga erishish motivlarining past darajasi; irodaviy jarayonlar va irodaviy intilishlarning yetarli darajada emasligi; tarbiyaviy og'ishlarning mavjudligi va boshqalar.

Profilaktika inspektori kundalik faoliyati mobaynida fuqarolar bilan munosabatga kirishadi, ularning ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqadi, ziddiyatli holatlarni bartaraf etadi va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

Profilaktik faoliyatning obyektlari asosan oddiy fuqarolar, nosog'lom oilalar, voyaga yetmaganlar, o'z xulq-atvori va faoliyatini o'zgartirishga, tibbiy, ijtimoiy, pedagogik yordamga muhtoj bo'lgan fuqarolar tashkil etadi.

Profilaktika inspektorlarining faoliyatini umumiy va yakka tartibdagi tarbiyaviy-profilaktik usullarga ajratish mumkin.

Umumiy profilaktik usullar huquqbuzarlikning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini o'rganish orqali olib boriladi. Umumiy profilaktik faoliyatning ko'rinishi sifatida huquqiy tarbiyaviy targ'ibot va tashviqot ishlari nazarda tutiladi.

Yakka tartibdagi profilaktik usullar esa bir maqsadga qaratilgan, ya'ni shaxs ongiga psixo-pedagogik ta'sir etish, undagi mavjud salbiy xislatlarni (jamiyatga qarshi fikr va maqsadlar, salbiy odat va motivlar va boshqalar) bartaraf etish bo'yicha irodaviy sifatlariga ta'sir etish va ayni paytda

qonunga itoatkorlik, ijobiy fazilatlar ko‘rinishidagi xulq-atvor ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Yakka tartibdagi profilaktik tadbirlarni amalga oshirishning quyidagi elementlari mavjud:

- shaxslarni o‘rganish va ma’lumotlarni tekshirish hamda ularni operativ-profilaktik hisobga qo‘yish;

- maishiy turmush sohasidagi qonunga xilof xatti-harakatlarni o‘rganib, shaxslarga ta’sir etish;

- hisobga olingan shaxslarni doimo yashash sharoitini va fe’l-atvorini kuzatib borish hamda nazorat etish;

- maishiy sohadagi nizoli vaziyatlar paydo bo‘lishiga omil bo‘luvchi ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish va uni huquqbuzarlikka ko‘chishining oldini olish;

- jabrlanuvchilarga profilaktik ta’sir etish (viktimologik effektga erishish yo‘lida);

- vaqti-vaqti bilan yakka tartibdagi profilaktik tadbirlar natijalarini tekshirish va ularni tahlil qilish.

Ichki ishlar organlarida shaxs tarbiyasining huquqiy tuzilishi asosini qonunga itoatkorlik va qonuniylikka undaydigan kuch tashkil etadi. Bular:

- *ma’naviy va moddiy ehtiyojlar rivojlanishidagi uyg‘unlik*, ya’ni kriminogen og‘ishlarning yo‘qligi (alkogolizm, giyohvandlik, kleptomaniya, o‘g‘irlikka moyillikdan iborat ruhiy kasallik, jinsiy buzuqlik va hokazo);

- *huquqiy ong* – huquqiy qarash, g‘oyalar, ishonchlar, adolat orzusi, qonuniylik, teng huquqlilik, huquqiy birlik, majburiyat va hokazo;

- *huquqiy qarashlar* – jamoa, guruhning bir a’zosi bo‘lgan inson jamiyat hayotida yuzaga keladigan huquqiy savollarga sinchkovlik va diqqat bilan qiziqishi va uni hal etishda qonuniylikka itoat etishi;

- *qonuniylikni va huquqiy tartib-intizomni mustahkamlashga ko‘maklashish va qonuniy harakatlarni amalga oshirishdagi qiziqish va ehtiyojlar*, ya’ni huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, oilada, ishda va atrofdagi kishilarni huquqiy norma va talablarga rioya etishlarini ta’minlash;

- *huquqiy motivlar* – shaxsni qonuniy xatti-harakatlarni ifoda etishga undaydigan kuch.

Shuningdek, profilaktik faoliyat jarayonida psixo-pedagogik ta’sir etishda profilaktika inspektori:

- 1) kasbiy faoliyatida pedagogik ta’sir etish usullarini qo‘llashda shaxsning aniq o‘ziga xos individual xususiyatlarini hisobga olishi;

- 2) psixologik-pedagogik ta’sir etish uchun inson ruhiyatining umumiy qonuniyatlari va rivojlanish darajasini bilishi;

3) ta'sir etish jarayoni, uning elementlari, oqibatlarini oldindan rejalashtirish va bashorat qila olishi;

4) shaxsning ijobiy ta'sirlanishini rag'batlantirib borishi;

5) pedagogik-psixologik ta'sir etishda inson huquqlari poymol etilishiga yo'l qo'ymasligi;

6) shaxsga pedagogik ta'sir etishni rejalashtirganida barcha xatti-harakatlari tizimi aniqlanishi va hisobga olinishi;

7) tarbiyaviy profilaktik ishlarni olib borishda tashqi ta'sir etuvchi omillarni hisobga olishi;

8) shaxsning hissiy holatini hisobga olgan holda tarbiyaviy ta'sir etishni amalga oshirishi;

9) ta'sir etish jarayonida shaxsning pedagogik-psixologik faolligini ta'minlashi zarur.

Ayniqsa, maishiy turmush sohasidagi jinoyatlar profilaktikasi jarayonida pedagogik aspektlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki maishiy turmush sohasida sodir etiladigan jinoyatlarning pedagogik tavsifi o'ziga xos murakkabdir. Uning murakkabligining belgisi jinoyatlarning ma'lum bir vaqt va masofa oralig'ida sodir etilishidir. Amaliyot tajribalariga tayanadigan bo'lsak, maishiy turmush sharoitida yuzaga keladigan nizolar asosan uzoq vaqt davomida yetilib, vaqtida tor chegarada bo'lgan bo'lsa-da, asta-sekin kuchayib borishi yoki dabdurustdan kuchayishi kabi-larni o'z ichiga oladi. Vaqti-vaqti bilan takrorlanib turadigan kriminogen – nizoli vaziyatlar o'rtacha 33%ni tashkil etib, yarim yildan uch yilgacha, 63% holatlarda esa uch yildan sakkiz yilgacha va undan ko'p vaqtda yuzaga keladi. Maishiy turmush sohasidagi jinoyatlarning 85%ni erkaklar sodir etadi¹.

Maishiy turmush sohasidagi munosabatlar asosida sodir etiladigan jinoyatlarning umumiy profilaktikasi aholi orasida targ'ibot va tashviqot ishlari orqali amalga oshiriladi. Buning uchun ko'rgazmali targ'ibot vositalaridan, turli pedagogik-psixologik ta'sir etish usullaridan keng foydalaniladi. Targ'ibot va tashviqot ishlari huquqiy va ma'naviy-axloqiy mavzular-dagi ma'ruza, uchrashuvlar, yashash va ishlash joylarida o'zini o'zi bosh-qarish jamoalari faollari ishtirokidagi muhokamalar, televideniye ko'rsatuvlari va radio eshittirishlarida ishtirok etish hamda chiqishlar orqali amalga oshiriladi.

Yuqorida ta'kidlangan tadbirlar mazmuni oilada va maishiy sohalarda qonunga itoatkorlik, xatti-harakatlari axloqiy normalarga mos keladigan

¹ Криминология: Дарслик / Профессор З.С.Зарипов тахрири остида. – Т., 2007. – Б. 398–399.

huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa bilimlarni fuqarolarning ongiga to'g'ri ta'sir qiladigan tarzda maqsadli amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Maishiy turmush sohasida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda yashash joylarida tashkil etiladigan tarbiyaviy profilaktik ishlar muhim o'rin tutadi va bunda dam olish jarayonlarini samarali tashkil etish lozim. Bu tadbirlarni ham umumijtimoiy chora sifatida asosan joylardagi hokimiyatlar faoliyatlari bilan uzviy bog'liq tarzda kompleks yondashuv asosida amalga oshirish talab etiladi.

Voyaga yetmaganlar orasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish uchun profilaktik ishlarini tashkil etishning pedagogik asoslari:

- oiladagi ko'ngilsiz voqealar profilaktikasi;
- maktabdagi ko'ngilsiz voqealar profilaktikasi;
- o'smirlarga ba'zi guruhlarning salbiy ta'sir etishining oldini olish;
- tarbiyasi qiyin o'smirda o'zini o'zi tarbiyalash va o'zini namoyon etishini shakllantirish.

Voyaga yetmaganlar bilan ishlash inspektori profilaktik ishlarining asosiy maqsadi yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilikni tarbiyaviy ta'sir etishning turli usullarini qo'llash orqali oldini olishga qaratilgan. Tarbiyaviy ta'sir etish usullari yakka tartibda, guruhliy va ommaviy ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Yakka tartibda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar voyaga yetmaganlar bilan ishlashning asosiy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Unga ko'ra, voyaga yetmaganlarni hisobga olish, uni ichki ishlar organlari bo'limlariga chaqirish, ishga joylashtirish, o'quv muassasalariga qaytarish, maxsus o'quv maskanlariga joylashtirish, sport va boshqa seksiya, to'garaklarga jalb etish va rasmiy ogohlantirish kabi harakatlar amalga oshiriladi.

Guruhliy ko'rinishdagi ishlarni olib borishda tarbiyaviy profilaktik tadbirlarning obyekti nosog'lom oilalar va voyaga yetmaganlar guruhlari hisoblanadi.

Umumiy profilaktika choralari asosan beqaror oilalarning salbiy ta'sirini neytrallashtirish, tarbiyaga muhtoj o'smirlarga davlat va jamoat yordamini ko'rsatish (vasiylik va homiylik o'rnatish, mehribonlik uyi, maktab-internatga yuborish, o'qishga yoki ishga joylashtirish), voyaga yetmaganlarga ta'lim-tarbiya berish bilan shug'ullanuvchi muassasalar faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish, o'smirlarning dam olishini oqilona tashkil etish, voyaga yetmaganlar qonunlarga rioya etishi ustidan nazorat olib borish va hokazolarni nazarda tutadi.

Ommaviy ko'rinishdagi ishlar profilaktika inspektorlari tomonidan ommaviy axborot vositalari, ya'ni radio, televideniye va matbuotda

chiqishlar va omma oldidagi suhbatlar, hududdagi ta'lim muassasalari va boshqa turli tashkilotlardagi uchrashuvlar orqali amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirish jarayonida ularning yoshga oid o'ziga xos sifatlarni va oilaviy sharoitida ma'naviy qadriyatlarning shakllanganlik darajasini inobatga olishi kerak. Shuning uchun yuqorida ta'kidlanganidek, o'smir va bolalarni o'rab turgan mikromuhitdagi salbiy ta'sirlarni bartaraf etish zarur bo'ladi. Voyaga yetmaganlar bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni amalga oshirish huquqiy, ma'naviy, axloqiy, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali amalga oshiriladi.

Voyaga yetmaganlar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirish usullari turlicha bo'lib, ulardan suhbat keng tarqalgan ommaviy usul hisoblanadi. Yakka tartibda profilaktik suhbatni amalga oshirish jarayonida ularning psixologik o'ziga xosligini, ya'ni ko'ngli nozikligi, salga xafa bo'laverish, jizzakilik, qo'rquv va tashvishga beriluvchanligi, g'azablanish, qasoskorlik, tajovuzkorlik, taqlid qilishga moyilligi va boshqalarni inobatga olish darkor.

Muqaddam sudlanganlar bilan profilaktik ishlarni olib borishda quyidagi pedagogik omillarni hisobga olish kerak:

- shaxsini har tomonlama va sinchiklab o'rganish (ijobiy sifatlarini aniqlash maqsadida);

- o'zlarini yaxshi tutishlari uchun maxsus va pedagogik vaziyatlarni tashkil etgan holda ta'sir etishni amalga oshirish;

- bu toifa shaxslarning xatti-harakatlari ustidan sinchkovlik bilan pedagogik nazoratni amalga oshirish kerak, xulqida biror-bir ijobiy sifat paydo bo'lganini sezish asosiy maqsad hisoblanadi;

- mehnat tarbiyasida ma'naviy rag'batlantirish usulidan foydalanish;

- muqaddam sudlanganlarni to'g'ri yo'lga solish jarayonidagi holatlarni tanlash va ularni tahlil etish;

- muqaddam sudlangan shaxslarni mehnat faoliyatga jalb etish.

Alkogolizm va giyohvandlikning oldini olish bo'yicha profilaktik faoliyatni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- nosog'lom oilalar bilan profilaktik ishlarni olib borish;

- sog'lom turmush tarzi va uning afzalliklari haqida ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

- maktablarda alkogolizm va giyohvandlikka qarshi tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish;

- psixolog, pedagog, tibbiyot xodimlarning tadbirlarda ishtirok etishi;

- huquqni muhofaza qilish organlarining huquqiy targ'ibot ishlarini amalga oshirishda ishtirok etishi.

Profilaktik faoliyatni umumiy, yaxlit tizimda tashkil etish, tabiiyki, jamoatchilik fikri va aholining tashabbuskorligini e'tibordan chetda qoldirmaslikni taqozo etadi.

Shu sababli profilaktik ishlarni olib borishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- turli huquqbuzarliklar va salbiy xatti-harakatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni hisobga olish;

- shaxsning ma'naviy shakllanishida muhim o'rin tutuvchi ijtimoiy hayot tarzi va muhit (oilal, maktab, ish joyi, dam olish joylari va h.k.)ning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;

- jinoiy xatti-harakatlar va kriminogen vaziyatni bartaraf etish maqsadida turli ijtimoiy tuzilmalarni profilaktik tadbirlarga jalb etish;

- har bir tadbirning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda turli soha vakillari ishtirokida tarbiyaviy chora-tadbirlar belgilanish.

Profilaktika inspektorining tarbiyaviy ta'sir etishi bir qator sifatlariga bog'liq bo'ladi:

- 1) tashqi qiyofasi;

- 2) tashabbuskorligi;

- 3) obro'-e'tiborga egaligi;

- 4) demokratligi;

- 5) eshitish qobiliyati;

- 6) faoliyatni haqqoniy baholash va qabul qilishi;

- 7) mas'uliyati.

Profilaktika inspektorlari aholi bilan hamkorlikda faoliyat olib borish uchun muloqotda quyidagilariga e'tibor berishi lozim:

- suhbatdoshiga tushunarli bo'lgan so'z va ifodalarni tanlash, uning fikrlarini diqqat bilan tinglash;

- huquqbuzar bilan muloqot davrida aniq, qisqa va xushmuomalalik bilan suhbat olib borish;

- suhbatdosh tomonidan berilayotgan axborotga qiziqish bilan munosabat bildirish. Agar xodimga berilayotgan axborot tushunarsiz bo'lsa, u holda aytilgan fikrlarni va ba'zi jummalarni takrorlash xushmuomalalik bilan so'raladi;

- suhbat davomida salbiy ta'sir etuvchi omillarga e'tibor qaratmaslik (qo'ng'iroqlar, begonalarning yo'lakda yurishi va boshqalar);

- suhbatdoshning mimika, jestlar va reaksiyalariga e'tibor berish.

Suhbatdosh fikrlarini tugatgach, olingan ma'lumotlar umumlashtiriladi, tahlil qilinadi, aniq dalillar oydinlashtiriladi, zarur bo'lgan vaqtda dalillar bilan hujumga o'tiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilish siyosati

O‘zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo‘lga kiritgach, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub islohotlarni amalga oshira boshladi. Totalitar usuli asosida ish yuritayotgan xalq ta’limi tizimida ham so‘nggi o‘n yilliklar davomida yuzaga kelgan muammolarni hal etish vazifasi respublika hamda mutasaddi tashkilotlarning ta’lim tizimida ham jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga undadi. Bu boradagi sa’y-harakatlarning samarasi sifatida 1992-yil iyul oyida mustaqil O‘zbekistonning ilk «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning mazmunida respublika ta’lim tizimi, uning asosiy yo‘nalishlari, maqsad, vazifalari, ta’lim bosqichlari va ularning mohiyati kabi masalalar o‘z ifodasini topgan edi.

1997-yil yanvar oyiga kelib, «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va unda ilgari surilgan g‘oyalarning amaliyotga tatbiqi, mavjud ahvol, yutuq va kamchiliklar tahlil etildi. O‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra, ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar aksariyat o‘rinlarda chuqur ilmiy asosga ega emasligi ma’lum bo‘ldi. Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning maxsus farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiquvchi maxsus komissiya tarkibi tayinlandi. 1997-yilning iyul oyida har ikki me’yoriy hujjat mazmuni o‘rganilib chiqildi va umumxalq e’tiboriga havola qilindi. Muhokama jarayonida bildirilgan fikr-mulohazalar mas’ul komissiya tomonidan o‘rganildi. Umumxalq muhokamasidan o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 1997-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilindi.

Mazkur hujjat respublika ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini ochib beruvchi muhim hujjatdir. Unda ta’lim sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi inson o‘zining har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoiti, ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirishdan iborat ekanligi qayd etib o‘tildi.

1997-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilingandan buyon o‘tgan davr mobaynida yangi o‘quv rejalari, dasturlari, darslik va qo‘llanmalar yaratildi. Zamonaviy didaktik talablar ta’limni tashkil etish yo‘llari, metod va vositalarini aniqlash, o‘quv yurtlarida attestatsiya o‘tkazish va akkreditatsiyalash ishlari amalga oshirildi. Mazkur davrda respublika mehnat bozori (eng avvalo, qishloq

joylarida mehnat bozori)ni shakllantirishning hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda hunar-texnika ta'limi qayta tashkil etildi.

Fan va ta'lim sohasida xalqaro aloqalar yo'lga qo'yildi hamda bu boradagi dastlabki yutuqlar qo'lga kiritildi.

Mutaxassislar tayyorlash hamda ta'lim-tarbiya tizimi jamiyatda bo'layotgan islohot, yangilanish jarayonlari talablari bilan bog'landi.

Ushbu holatlar mamlakat istiqboli uchun xizmat qiluvchi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va jahon miqyosidagi ta'lim tizimi yutuqlari asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri olib borish mahoratiga ega bo'lgan istiqbolli vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilganligidir.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi kadrlar tayyorlash **milliy modelini** ro'yobga chiqarishni har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutdi. «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining **maqsadi** ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iborat edi.

Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish quyidagi **vazifalar** hal etilishini talab etadi:

– ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;

– kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

– ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'naviy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

– ta'lim va kadrlar tayyorlash ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkeriditatsiya qilish sifatida baho berishning xolis tizimini joriy etish;

– kadrlar tayyorlash sohasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish va hokazolar.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich amalga oshirilib borildi. Har bir bosqich muayyan vazifalarni hal etishni nazarda tutdi. Bu vazifalar quyidagilardan iborat:

Birinchi bosqich (1997–2001-yillar) – mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

Ikkinchi bosqich (2001–2005-yillar) – milliy dasturni to‘liq ro‘yobga chiqarish.

Mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda aniqliklar kiritish.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) – to‘plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik tavsifda ekanligi. Davlatimizda tashkil etilayotgan ta’lim va tarbiya jarayonida shaxsning ornomusi, qadr-qimmatini, ma’naviy hamda ma’rifiy huquqlarini hurmat qilish, uning iqtidori va qobiliyatini namoyish etish uchun imkoniyat yaratish, shuningdek xohish-istagi va ehtiyojlarini inobatga olish masalalari nazarda tutiladi.

2. Ta’limning uzluksizligi va izchilligi. Ta’lim jarayoni didaktik xarakter kasb etib, o‘quvchilarga berilayotgan bilim va shakllantirilayotgan ko‘nikma va malakalarning uzluksiz, doimiy ravishda shakllanishini ta’minlaydi. Uzluksiz va izchillik ma’lumotlar, hodisalar va fan asoslarini o‘rganishning tartibga solinishini, avvalgi va keyingi materiallar o‘rtasida ketma-ketlikni ta’minlashni anglatadi. Har bir o‘quv fani muayyan mantiqiy izchillikda o‘qitilishi lozim. Mazkur prinsip shu holatni ifoda etishga xizmat qiladi

3. Umumiy o‘rta, shuningdek o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limining majburiyligi. Mazkur prinsip O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limini olishning respublika fuqarolari uchun shartligini ifodalaydi. Respublika hududida umumiy o‘rta, shuningdek o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi bepul bo‘lib, ularning faoliyatini tashkil etish respublika va mahalliy budjet mablag‘lari hamda budjetdan tashqari

mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalariga o'quvchilar tanlov asosida qabul qilinadilar.

4. *O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishini, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi.* Ushbu prinsip o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishini o'quvchining o'z qiziqishi, ehtiyoji hamda layoqatiga mosini (muayyan mutaxassislikda ixtisoslashtirilgan akademik litsey yoki ma'lum kasb-hunar kollejida tahsil olishni) erkin tanlash huquqiga egaligini ifoda etadi.

5. *Ta'lim tizimining dunyoviy tavsifda ekanligi.* Ushbu prinsip respublika hududidagi mavjud ta'lim muassasalarida yoshlarga dunyoviy tavsifdagi ilmiy bilimlarni berishni nazarda tutadi. Ta'lim muassasalarida janggari, buzg'unchilik, shuningdek milliy nizolar hamda diniy adovatlarni keltirib chiqarishga xizmat qiluvchi g'oyalarning targ'ib etilishi, ularning yoshlar ongiga singdirilishi qonun yo'li bilan taqiqlanadi. Yoshlarga diniy bilimlarni berish davlat akkreditatsiyasidan o'tgan (Respublika Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan) hamda diniy ta'lim-tarbiya berish huquqiga ega ta'lim muassasalari bilan birga, maxsus diniy ma'lumotlarga ega, ushbu faoliyat bilan shug'ullanish huquqini olgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

6. *Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi.* Respublika fuqarolari istalgan ta'lim muassasalari (ta'lim muassasasi Nizomida ko'zda tutilgan talablarga muvofiq)da O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1999-yil 16-avgustda qabul qilingan «Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori, bu borada o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari to'g'risidagi Nizom asosida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari tomonidan ishlab chiqilgan DTS (Davlat ta'lim standartlari) talablariga muvofiq ta'lim olish huquqiga egadirlar.

7. *Ta'lim dasturini tanlashga yagona tabaqalashtirilgan yondashuv.* Ta'lim bo'yicha yaratilgan dasturlar orasidan o'quv dasturini yaratishga qo'yiladigan talablarga muvofiq yaratilgan hamda eng maqbul deb topilgan dasturni tanlab olish asosida ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Muayyan ta'lim muassasalari mutaxassislik, kasb-hunar ta'limi xususiyatlaridan kelib chiqib, ma'lum mutaxassislik va kasb-hunar ta'limining o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda yaratgan dasturlar asosida ta'lim jarayonini tashkil etishlari mumkin.

8. *Bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish.* Ta'limni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad yosh avlodga chuqur bilim berish, ulardagi

mavjud layoqat va iste'dodlarni rivojlantirishdan iboratdir. Bugungi kunda jamiyatimizda yoshlar orasidan bilimli, iqtidorli o'quvchilar (talabalar)ni aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilmoqda Ushbu maqsad yo'lida faoliyat olib boruvchi qator jamg'armalar, chunonchi iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi «Umid» va «Ulug'bek» jamg'armalari tashkil etildi. Mazkur jamg'armalarning homiyligida yuzlab ta'lim beruvchi va talabalar yetakchi xorijiy mamlakatlarda ta'lim olish huquqiga ega bo'ldilar.

9. *Ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.* Samarali ta'limni tashkil etish jamiyat taraqqiyotini, millat va xalqning kelajagini ta'minlaydi. Shu bois ta'limni tashkil etish nafaqat davlat, balki umumxalq ishidir. Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ota-onalar qo'mitalari, o'quvchilar o'z-o'zini boshqarish organlarining kuchi va imkoniyatlaridan, xususan, otaliq (homiy) tashkilotlarning moliyaviy, ma'naviy qo'llab-quvvatlashlari evaziga ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. Ushbu prinsip mana shu g'oyani ochib berishga xizmat qiladi.

10. *Ta'lim tizimi muayyan jamiyatda ijtimoiy-tarixiy jarayonda tarkib topgan ma'lum talablar asosida boshqariladigan hamda bir-biri bilan bog'langan barcha tipdagi o'quv-tarbiya muassasalarining yig'indisidan iborat ekanligi.* O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzluksiz bo'lib, mazkur tizim doirasida faoliyat yurituvchi muassasalar ta'limni bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun xizmat qiladilar.

Shuning uchun har qanday davlat (jamiyat) o'z fuqarolarining yashashi, mehnat qilishi, mamlakat iqtisodi va salohiyatini ro'yobga chiqarishi, uni namoyon eta bilishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib berish mas'uliyatini o'z zimmasiga oluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Uzluksiz ta'lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, davlat ta'lim standartlari, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ta'lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasb-hunar ma'lumotlarini o'zlashtiradi, komil inson va malakali mutaxassis sifatida aks etishi lozim bo'lgan sifatlarga ega bo'lib, unda muayyan dunyoqarash shakllanadi. Bu esa shaxs kamolotida muhim ahamiyatga egadir.

Demak, uzluksiz ta'lim milliy modelning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Unga ko'ra mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining faoliyati davrning izchilligi asosida ta'minlanadi. Uzluksiz ta'lim quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

– maktabgacha ta'lim;

- umumiy o‘rta ta’lim;
- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi;
- oliy ta’lim;
- oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;
- kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta’lim.

Shunisi diqqatga sazovorki, «Ta’lim to‘g‘risi»dagi qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy modelimiz chuqur falsafiy ma’noga egaligi bilan xalqaro miqyosda tan olindi va o‘z o‘rnini topdi.

Masalan, 1998-yil Avstraliyada kelgusi asr ta’limi istiqbollari bag‘ishlangan xalqaro anjumanda ta’limni rivojlantirishga qaratilgan maxsus davlat dasturi faqat ikki mamlakat AQSH va O‘zbekistonda mavjudligi ta’kidlandi.

Anjuman qatnashchilari O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlisi IX sessiyasida so‘zlagan nutqining asosiy mazmuni bilan tanishdilar.

Quvonarli jihati shundaki, anjuman ishtirokchilari mamlakatimizda ishlab chiqilgan yangi ta’lim tizimi konsepsiyasining har tomonlama puxta o‘rganilganligi, uning amalga oshirilishi esa dunyoning ko‘pgina davlatlaridagi kadrlar tayyorlash sohasida kechayotgan o‘zgarishlarga munosib hissa qo‘shishini e’tirof etishdi.

O‘zbekiston xalqi o‘z oldiga huquqiy demokratik jamiyat qurish maqsadini qo‘ygan. «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hayotga tatbiq etilishi xalqaro hamjamiyatda o‘z o‘rnimizni mustahkamlashga olib keldi. Chunki bugungi dunyoda davlatlarning rivojida, mavqeda hal qiluvchi omil harbiy qudratda emas, balki intellektual salohiyat, fikr, aql, ilg‘or texnologiyalar ekanligini hayotning o‘zi isbotlab turibdi. Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan aytilgan «Kuch – bilim va tafakkurda» degan hikmat bugun va ertangi kun uchun aytilgandir.

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yil 17-fevral kuni «***Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti***» mavzusida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqidan iqtibos keltiramiz: «O‘zbekistonda aholisining qariyb 35 foizini 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar, 62 foizdan ziyodini esa 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etishini hisobga oladigan bo‘lsak, bu islohotlarning roli va ahamiyati o‘z-o‘zidan tushunarli va ravshan bo‘ladi.

Qabul qilingan dasturga muvofiq, mamlakatimizda 9+3 sxemasi bo'yicha 12 yillik umumiy majburiy bepul ta'lim tizimi joriy etildi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan modelning prinsipial xususiyati shundaki, umumta'lim maktabidagi 9 yillik o'qishdan so'ng o'quvchilar keyingi 3 yil davomida ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda tahsil olib, ularning har biri umumta'lim fanlari bilan birga mehnat bozorida talab qilinadigan 2–3 ta mutaxassislik bo'yicha kasb-hunarlarni ham egallaydi.

O'zbekistonda ta'lim sohasini rivojlantirish va isloh yetishga yo'naltirilayotgan yillik xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10–12 foizini tashkil etayotgani va bu tizimning davlat budjeti xarajatlaridagi ulushi 35 foizdan ortiqni tashkil etishi o'z-o'zidan mazkur sohaga qaratilayotgan ulkan e'tiborning yaqqol tasdig'i hisoblanadi».

O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 24-iyuldagi «Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-dekabrda «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori talablari ijrosini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimida oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog xodimlar tayyorlash ishlarini takomillashtirish hamda sifatini oshirish maqsadida katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti tashkil qilindi va bu bilan bir qator muammolar hal etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida «Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz»¹, degan edi.

Xulosa qilib aytganda, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi barkamol inson va shu asnoda ongli jamiyat shakllanishiga, ya'ni yangicha ong, tafakkurga ega shaxslarning ko'payishiga olib keldi.

¹ *Мирзиёев Ш.М.* Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганнинг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги «Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови» номли маърузаси // Халқ сўзи. – 2016. – 7 дек.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Islom Karimov qaysi asarlarida ta'lim tizimini isloh qilish muammosiga atroflicha to'xtalgan?
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining asosiy maqsadi va prinsiplari, ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplariga nimalar kiradi?
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning maqsadi, vazifalari va bosqichlari, kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari, uzluksiz ta'limni yaratish va rivojlantirish prinsiplari, uzluksiz ta'lim tizimi va turlarini aytib bering.
4. Pedagogikaning fan sifatida shakllanish bosqichlarini ayting.
5. Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida pedagogik bilimlarning o'rnini qanday?
6. Markaziy Osiyo allomalarining pedagogik qarashlari haqida ma'lumot bering.
7. Ichki ishlar organlari xodimlarining profilaktik faoliyatni tashkil etishlarida pedagogik jarayonning o'ziga xosligi nimada?
8. Pedagogikaning asosiy kategoriyalarini aytib bering.
9. Profilaktik faoliyatni tashkil etishda pedagogik bilimlar qanday ahamiyatga ega?
10. Ichki ishlar organlari faoliyatida pedagogik jarayon deganda nimani tushunasiz?

2-mavzu. FUQAROLARNI HUQUQIY TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI VA HUQUQIY TARG‘IBOT

Aholining siyosiy-huquqiy madaniyatini oshirishda huquqiy tarbiyaning o‘rni.

Ichki ishlar organlari xodimlari aholi oldida so‘zga chiqishlarining pedagogik asoslari.

Axborot-psixologik xavfsizlik.

Aholining siyosiy-huquqiy madaniyatini oshirishda huquqiy tarbiyaning o‘rni

Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashda aholini *siyosiy-huquqiy* jihatdan savodli qilish, *madaniyatini oshirish va huquqiy ongini shakllantirish* katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyat darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o‘rganish ishini yaxshilash haqida»gi (1997-yil 25-iyun) farmoniga ko‘ra, hokimiyat va ichki ishlar organlarining yuqori malakali huquqshunos kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, zamonaviy bilimlar asosida huquqshunos xodimlarning kasbiy tayyorgarligi hamda ularni qayta tayyorlashni tubdan yaxshilash, shuningdek huquqshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning saviyasini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining «Huquqiy ma’rifat targ‘iboti markazini tashkil qilish va huquqiy adabiyotlarni aholiga yetkazib berishni yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida»gi (1997-yil 22-iyul) qarori aholining huquqiy savodxonligini oshirish va huquqiy madaniyatini shakllantirishda muhim qadam hisoblanadi. Aholining siyosiy-huquqiy savodxonligini oshirish va huquqiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi» esa ayni vaqtida qabul qilingan hujjatdir.

Shaxsni huquqiy tarbiyalash muammosi bir qancha fanlarning, jumladan, kriminologiya, jinoiy jazoni ijro etish psixologiyasi va kasbiy pedagogika fanining o‘rganish obyekti hisoblanadi. Fuqarolarni huquqiy tarbiyalash – qonunni bilish, uni hurmat qilish, boshqalardan ham qonunga rioya qilib yashashni talab qiluvchi shaxslarning tarbiyalash, demakdir.

Huquqiy tarbiya mohiyatiga ko‘ra, maxsus tashkil etilishi yoki shaxsning o‘zi huquqiy bilimlarini ta’lim va mustaqil ish faoliyatida, eng asosiysi, hayotiy tajribalari asosida boyitib borishi mumkin. Maxsus tashkil etilgan huquqiy-tarbiyaviy jarayon shaxslarning huquqiy faoliyatini bir maqsadga yo‘naltiradi.

Huquqiy tarbiyaning asosida qonunga rioya qilib yashash, uni hurmat qilish, shaxsda huquqiy madaniyatni shakllantirishdek muhim vazifa yotibdi. Huquqiy tarbiya asosan huquqiy targ'ibotga, huquqiy xabarga suyangan holda shakllanadi. Huquqiy tarbiya oila, bog'cha, maktab, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari hamda ishlab chiqarish jamoalarida shakllantirilib boriladi. Huquqiy tarbiyani maxsus huquqiy bilimlarga ega shaxslar, ya'ni huquqshunos nazariyachilar, amaliyotdagi huquqni muhofaza qiluvchi shaxslar olib borsalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Huquqiy targ'ibot asosida huquqiy tarbiyaning belgilari mavjuddir.

Shaxslarni huquqiy tarbiyalash va ushbu faoliyat samaradorligini oshirish quyidagicha olib boriladi:

- ichki ishlar organlari xodimlarining huquqiy, o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni tashkil qilishning shakl va usullarini aniq belgilash;
- ichki ishlar organlari xodimlarining pedagogik mahoratini ilmiy asosda takomillashtirib borish.

Shaxslarni huquqiy jihatdan tarbiyalashda ichki ishlar organlari xodimlari uchun pedagogik jarayonning obyekt, predmetidan tashqari, uning kategoriyalarini bilish ham foydadan xoli emas.

Ichki ishlar organlari faoliyatidagi pedagogik jarayonning maqsad va vazifalari haqida gapirganda, huquqiy tarbiyadagi pedagogik jarayon nima, degan savol tug'iladi. Huquqiy tarbiyaning pedagogik jarayoni tarbiyaning barcha kategoriyalari yig'indisidir.

Huquqiy tarbiya keng va tor ma'nolarda tushuniladi. Keng ma'nodagi huquqiy tarbiya shaxsning oila va bog'chada bilim olishi, o'qishi, o'zining huquqiy bilimlarini mustaqil boyitishi, umuman, o'z ustida mustaqil ishlashi orqali olinadigan huquqiy bilimlarining yig'indisidir.

Tor ma'nodagi huquqiy tarbiya shaxsning yuridik o'quv yurtlarida oladigan huquqiy bilimlari yig'indisini bildiradi. Huquqiy tarbiya – shaxsning bir maqsad yo'lida, ongli ravishda jamiyat taraqqiyoti va siyosatidan kelib chiqib olib boradigan tizimlashgan ijobiy faoliyati. Shaxsning o'z-o'zini huquqiy tarbiyalashi ongli ravishda, bir maqsad yo'lida, o'z fe'l-atvorida ijobiy huquqiy yo'nalishni shakllantirishidir. Bu ijobiylik davlat tomonidan belgilab qo'yilgan qonun-qoidalarga zid bo'lmasligi, eng asosiysi, axloq normalaridan chetga chiqmasligi kerak. Bu bilan shaxs o'zining xatti-harakatlarini boshqara olishi mumkin. Sharq xalqlarining hayotida shunday ijtimoiy omillar mavjudki, ular shaxsning turmush tarzini tartibga soladi, uni boshqaradi. Bular – jamoatchilik fikri, an'analar, mish-mish gaplar, guruhlararo va shaxslararo munosabatlardir. Shaxslarning huquqiy jihatdan tarbiyalanishida huquqiy ong muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday huquqiy tarbiyaning asosida shaxsning huquqiy ongi yotadi, huquqiy

ongning to'g'ri shaklanishi, shaxslarning axloqi va ruhiyatiga huquqiy pedagogik ta'sir ko'rsatadi. Bu omillarda shaxslarning qanchalik tarbiya ko'rganligi bilinadi va bunda shaxsning tarbiyaga moyilligi bor-yo'qligini aniqlash mumkin bo'ladi.

Huquqiy targ'ibot va ta'lim ishlarini olib borishda ichki ishlar organlari xodimlari, ayniqsa, profilaktika inspektorlari qo'yidagi omillarni hisobga olishlari kerak:

1) profilaktika inspektorlari o'z hududlarida huquqbuzarliklarning ahvoli qay darajada ekanligini bilgan holda aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot va tarbiya ishlarini olib borishlari;

2) jinoyatchilik va huquqbuzarlikka qarshi kurashishda fuqarolarning qay darajada faolligi va bu ishga qanchalik hissa qo'shayotganligi bilan qiziqib, o'rganib borishlari;

3) jinoiy jazoni o'tab qaytgan shaxslarning qonunga qay darajada rioya qilib yashayotganliklarini aniqlab, ularni o'z vaqtida ma'muriy nazoratga olishlari;

4) fuqarolarning arizalarini diqqat bilan o'rganib chiqib, tegishli choralarni ko'rib borishlari;

5) yangi samarali qonunlar, qarorlar va normativ hujjatlarni hayotga o'z vaqtida tatbiq eta bilishlari;

6) o'z xizmat vazifalarini bajarishlarida qonunga qat'iy rioya qilishlari;

7) fuqarolar o'rtasida huquqiy mavzulardagi chiqishlarida o'zlarining notiqliklari, nutqlarining ravonligi bilan ajralib turishlari lozim.

Lekin shu bilan birga, aholining yashash, ishlash va dam olish joylarida operativ vaziyatga va aholining huquqiy ongiga ta'sir qiluvchi ba'zi bir omillar mavjud, bular:

– o'sha hududda yashovchi aholining huquqiy savodxonligi va umumiy madaniyati darajasi;

– o'sha hududda joylashgan oliy, o'rta maxsus o'quv yurtlari va muassasalarida olib boriladigan huquqiy targ'ibot va huquqiy tarbiyaning ahvoli;

– o'sha hududdagi aholining bo'sh vaqtlari va madaniy dam olishining qay darajada tashkil etilganligi;

– jamoat tashkilotlarida, madaniyat muassasalarida uyushtirilayotgan yoki uyushtirilgan huquqiy tarbiya va targ'ibot tadbirlarining ahvoli;

– ichki ishlar organlari xodimlarining aholining yashash joylarida nosog'lom oilalar hamda tarbiyasi qiyin yoshlar bilan ishlashlari va ular bilan yakka tartibdagi ishlarni qay darajada yo'lga qo'yganliklari;

– profilaktika inspektorlari muayyan huquqbuzarlikka oid dalillar bilan aholi orasida chiqishlar qilishlari.

Профилактика инспектори jinoyat sodir qilishda gumon qilinayotgan shaxslarning faoliyati bilan qiziqib, ular to'g'risida aholidan ba'zi bir ma'lumotlarni bilib oladi. U gumon qilinuvchilarning kimlar bilan aloqada bo'lishi, xulq-atvori, aholining jinoyat haqidagi xabarga munosabatlarini o'rganadi.

Bugungi kunda huquqiy tarbiya va huquqiy targ'ibot masalasiga yanada mas'uliyat bilan yondashish talab etilmoqda. Ayniqsa, voyaga yetmaganlar o'rtasida olib boriladigan huquqiy-tarbiyaviy ishlarning susayib ketganligi, huquqiy tarbiya va targ'ibot ustidan nazoratning bo'shligi, aholini huquqiy bilimlar bilan ta'minlash yetarli darajada olib borilmayotganligi uchun ham mavjud muammolarning o'z yechimini topishi qiyin kechmoqda. Yoshlarning ko'plab huquqbuzarlik va jinoyatlarni sodir etish holatlari, giyohvandlik va ichkilikbozlikka berilish, diniy aqidaparastlik yoki turli zararli oqimlar, guruhlar ta'siriga tushib qolishlari kabi salbiy holatlar hali ham uchrab turibdi. Bunday muammolar va kamchiliklarni bartaraf etish, «voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning nazoratsiz, qarovsiz qolishi hamda ular o'rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish choralarini amalga oshirish, voyaga yetmagan yoshlarning ongini, tafakkurini shakllantirish va yuksaltirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida ma'naviyat va ma'rifat ishlarini jonlantirish»¹, davr talabidir.

Huquqiy tarbiya orqali har bir shaxsning huquqiy ongi o'sadi va axloqida ijobiylik yuzaga keladi. Har qanday huquqiy tarbiya va huquqiy targ'ibot milliy g'oya va g'oyaviy-siyosiy tarbiyaga asoslanadi. Ichki ishlar organlari xodimlari zimmalaridagi huquqiy targ'ibot va huquqiy tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishlari, nafaqat xodimlarning yuksak darajadagi huquqiy bilimlari, balki ularning g'oyaviy e'tiqodi, uyushganligi, intizomi, umumiy yuksak kasbiy tayyorgarlik holatlari bilan ham bog'liqligidan guvohlik beradi².

Huquqiy tarbiya ishlari hech qachon huquqiy axborotsiz olib borilmaydi, huquqiy axborot esa huquqiy bilimlar manbaiga suyangan holda olib boriladi va targ'ib qilinadi. Huquqiy targ'ibot turli vositalar orqali amalga oshiriladi, televideniye, radio va matbuot ana shunday vositalar hisoblanadi. Huquqiy targ'ibot mazmunga boy bo'lsa, hech qachon o'z kuchini yo'qot-

¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Вояга етмаганлар ишлари бўйича комиссиялар фаолиятини такомиллаштириш ҳақида»ги қарори // Халқ сўзи. – 2000. – 28 сент.

² Таджиханов У. Ички ишлар идоралари фаолиятида ҳуқуқий маданият ва қонунга итоатгўйлик. – Т., 1995. – Б. 78.

maydi. Aholining huquqiy ongiga ta'sir qilishda huquqiy targ'ibot yangidan-yangi dalillarga asoslansa, uning dolzarbligi kuchayadi. Televideniye bugungi kunda, nafaqat huquqiy targ'ibot ishlarini olib borishda eng kuchli qurol, balki barcha yangiliklarni aholiga manzur bo'ladigan shaklda yetkazib beradigan vosita hamdir. Turli mualliflarning huquqiy targ'ibotga turlicha yondashuvlarini ilmiy tahlil etib, huquqiy targ'ibot ommaviy-mafkuraviy ishning muayyan turidan iborat, degan xulosaga kelish mumkin.

Huquqiy targ'ibot – og'zaki, yozma, ko'rgazmali yo'nalishlarda olib boriladi. Uchala yo'nalish ham bir-birini mazmunan boyitadi va to'ldiradi. Huquqiy targ'ibot ishlari shaxslarning huquqiy bilimlarga qiziqishlarini o'rgan-gan holda olib boriladi. Shunday huquqiy normalar mavjudki, bu normalar aholiga ommaviy ravishda yetkaziladi. Bunday targ'ibot ishlari o'zining oldiga kimlarnidir huquqiy jihatdan tarbiyalashni maqsad qilib qo'ymaydi, balki huquqiy bilimlarni fuqarolarning barcha qatlamlari o'rtasida targ'ib qilish bilan birga, ularning huquqiy hissiyotiga ham ta'sir qiladi. Har qanday huquqiy targ'ibotning samarasini huquqiy targ'ibotning mazmuni belgilaydi.

Huquqiy targ'ibot ishlari ommaviy ravishda, yakka tartibda va guruhlar o'rtasida tashkil etiladi. Ommaviy shakldagi targ'ibot aholining barcha tabaqalariga bir xil usulda ta'sir etadi, auditoriyadagi shaxslarning jinsi va yoshi hisobga olinmaydi. Auditoriyaning huquqiy xabarni qanday qabul qilishi ma'ruzachining notiqlik san'atiga, dalillarni joyiga qo'yib ishlatishi, huquqiy savodxonligi va tayyorgarligiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Tinglovchi shaxslar huquqiy xabarni o'zlarining yashash, turmush tarzidan kelib chiqib qabul qiladilar. Auditoriyada o'tirgan turli tabaqadagi shaxslar oldida jonli chiqish qilish har qanday huquqshunosning qo'lidan kelaver-maydi. Notiq noto'g'ri chiqish qilsa yoki sal noto'g'ri huquqiy xabar bersa, albatta, auditoriyada aks-sado yuzaga keladi. Notiqni auditoriyadan haydab chiqarish holatlari ham bo'lishi mumkin. Bunday holatlar amaliyotda, ijti-moiy turmush tarzimizda ham uchrab turadi.

Guruhlar o'rtasidagi huquqiy targ'ibot, o'z mohiyatiga ko'ra, omma-viy-huquqiy targ'ibotdan farq qiladi, chunki guruhlar o'rtasidagi huquqiy targ'ibotda auditoriyadagi shaxslar ma'ruzachiga bemalol, tortinmay savol beradilar. Shuningdek, auditoriyadagi shaxslarni munozaraga undash, ma'ruzachi dunyoqarashini ularning dunyoqarashi bilan taqqoslash mumkin. Guruhlar o'rtasida olib boriladigan huquqiy targ'ibotning yana bir o'ziga xos tomoni shundaki, bu guruhlarga huquqiy bilimlarga qiziqishlari bir xil shaxslar yig'iladi. Masalan, jinoiy jazoni ijro etish joylaridagi shaxslar guruh-guruhga bo'linib olishlari va bir guruhning ikkinchi bir guruh bilan dunyoqarashlari to'g'ri kelmasligi oqibatida sodir etiladigan jinoyatlarning oldi olinadi.

Shaxslar o'rtasida huquqiy targ'ibot ishlarini huquqshunoslar, tarbiyachilar, mahalla oqsoqollari, profilaktika inspektorlari olib boradilar.

Yakka tartibda huquqiy targ'ibot ishlarini olib borish ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:

1) bevosita huquqiy targ'ibot ishlari tashkil etiladi, bunda targ'ibotchi subyekt ataylab, maxsus huquqiy targ'ibot ishlarini olib boradi, bunday ishlarni amalga oshirishda psixologik aloqa va ziddiyatli holatlarga duch keladi;

2) huquqiy targ'ibot ishlari bilvosita olib boriladi, masalan, hayotiy voqea-hodisalarni gapirib berish orqali shaxslar huquqiy jihatdan tarbiyalanadi. Ichki ishlar organlarining xodimlari hududida sodir etilgan huquqbuzarliklar, jinoyatlar va ularning oqibatlari nimalarga olib kelganligi haqida gapirib, tushuntirib berish orqali har bir shaxsning huquqiy ongiga ta'sir etadilar.

Muomala usuli orqali olib boriladigan huquqiy targ'ibot subyekt shaxsning nutqi, bilim darajasi va muomala jarayonida qo'llaydigan huquqiy atamalar va ularga qanday izoh berishiga ham bog'liq bo'ladi.

Huquqiy tarbiya va targ'ibotni yakka tartibda olib borishda profilaktika inspektoriga tushgan arizalar ham o'ziga xos xabar manbai hisoblanadi. Negaki, oilasi tinch bo'lgan shaxs, agar o'z oilasi, qo'ni-qo'shnisidan ko'ngli to'q bo'lsa, hech qachon profilaktika inspektoriga shikoyat bilan murojaat qilmaydi.

Yakka tartibda huquqiy targ'ibot ishlarini olib borishda profilaktika inspektoriga quyidagi omillar turtki bo'lishi mumkin: oilalarda qaynona-kekinlar o'rtasida janjallar sodir bo'lganda; erning xotiga yoki xotinning erga rashki kuchli bo'lganda; oilalardagi yashash joylarining torligi va hokazo. Bunday holatlarda fuqarolar o'rtasida oila huquqi bo'yicha huquqiy bilimlar targ'ibot qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot ishlarini olib boruvchi ichki ishlar organlari xodimlarini ikki toifaga, ya'ni kasbiy barkamol, o'z ishini yaxshi biladigan, kasbiy faoliyati jarayonida bilimlarini mustahkamlab boradigan xodimlar va o'z ustida ishlaymagan, bor bilimlari bilan cheklanib qolgan, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olmaydigan xodimlarga bo'lish mumkin. *Birinchi toifa* xodimlarning huquqiy targ'ibot va huquqiy-tarbiyaviy ishlarida muntazamlilik, chuqur ma'no mavjud. *Ikkinchi toifa* xodimlarning faoliyati esa har qanday huquqiy targ'ibot va tarbiya ishlarining orqaga ketishiga olib keladi.

Huquqiy targ'ibot ishlarini olib borishda ichki ishlar organlari xodimlari uchun ishontirish usuli kuchli va eng katta qurol hisoblanadi. Ishontirish usuli kasbiy pedagogikada o'ziga xoslikka ega bo'lib, shaxslar

psixologiyasiga ta'sir etadi. Shaxs tarbiyaviy ishlarni olib borishda uning natijasini ko'ra bilishi kerak. Agar tarbiyaviy ishlarning natijasi ko'rinmas ekan, tarbiyaviy faoliyatning hech qanday samarasi bo'lmaydi.

Huquqiy tarbiya shaxs tarbiyasining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiyaning umumiy qonuniyatlariga bo'ysunadi. Shu ma'noda tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari – aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya bilan bir qatorda, huquqiy tarbiya ham shaxs hayotida asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

Huquqiy tarbiya huquqiy ongini, qonunlarga itoatkor xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarni shakllantiruvchi, tizimli, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning aniq maqsadga qaratilgan birgalikdagi faoliyatidir. Huquqiy targ'ibot shaxslarning huquqiy ongini oshiradi, qonunlarga itoatkorlik ruhida tarbiyalash uchun xizmat qiladi. Umuman, ong huquqiy, siyosiy, ma'naviy omillar bilan belgilanadi.

O'z navbatida, huquqiy ongning ham o'ziga xos tarkibiy belgilari mavjud, ular quyidagilardan iborat:

- huquqni bilish;
- huquq haqidagi tasavvur;
- amaldagi huquqqa bo'lgan munosabat;
- huquqqa qo'yiladigan asosiy talablar;
- huquqiy ko'rsatmalarning ijro etilishga bo'lgan munosabat.

Huquqiy targ'ibot olib boruvchi shaxslar, avvalo, qonunlarning mohiyatini tushunib yetishlari, so'ngra targ'ib qilishlari kerak. «Targ'ibot» lotin tilidagi «propaganda» so'zidan olingan bo'lib, «tarqatish» degan ma'noni bildiradi va keng ma'noda oladigan bo'lsak, shaxsning shakllanishiga bevosita ta'sir etadigan tushuncha sanaladi. Ichki ishlar organlari xodimlari, shuningdek sudyalari, prokurorlar, nazariyotchi olimlar huquqiy targ'ibot va tashviqot jangchilari hisoblanadilar.

Huquqiy targ'ibotning mohiyatiga nazar soladigan bo'lsak, *birinchidan*, huquqiy targ'ibotning mazmunini davlatimizdagi qabul qilingan qonunlar tashkil qiladi. *Ikkinchidan*, huquqiy targ'ibot qonunlarimiz va ularning mohiyatini keng omma orasida yoyishni nazarda tutadi.

Huquqiy targ'ibot huquqiy tarbiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, aholining barcha qatlamlari orasida amalga oshiriladi va joylarda qonunchilikka so'zsiz rioya qilishga undaydi.

Huquqiy tarbiyaning asosiy maqsadi – shaxslarni jinoyat sodir etishdan qaytarish, ularga qonun, jinoyat, jazo nima ekanligi, jinoyatning oqibatlarini nimalarga olib kelishini tushuntirish, ular ongida qonunlarimizga hurmat, uni buzmaslik, aksincha, hamma vaqt qonunlarga qat'iy amal qilish, huquqiy bilimlarni takomillashtirib borish bilan birga, qonunbuzar-

liklarga nisbatan murosasizlikni o'rgatishdan iborat. Bu esa komil insonni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy tarbiyaning obyektini alohida olingan shaxs, guruh yoki jamoa bo'lishi mumkin. Huquqiy tarbiyalash tarbiyaning turli usullar, masalan, o'qitish, tashviqot, yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlar orqali amalga oshiriladi. Yuridik sohada huquqiy tarbiyaning quyidagi shakllari mavjud: huquqiy ta'lim; huquqiy targ'ibot; huquqiy tashviqot. Ularni amalga oshirishda turli shakllardan: og'zaki, yozma, ommaviy axborot vositalari orqali tarbiyalash va hokazolardan foydalanish mumkin. Shaxsni huquqiy jihatdan tarbiyalashning shakllari va usullari har xil bo'lishi mumkin, lekin maqsad bitta. Huquqiy targ'ibotning eng ko'p qo'llanadigan usuli og'zaki usuldir, chunki og'zaki huquqiy targ'ibot barcha qatlamdagi shaxslarga, yoshi, jinsi, kasbidan qat'i nazar, bir xilda yetkazib beriladi. Shuningdek, ko'rgazmali vositalar orqali aholining huquqiy ongiga yetkazib beriladigan qonun-qoidalar ham mavjud. Masalan, yo'l harakati xavfsizligi qoidalari asosan belgilar orqali ommaga yetkaziladi. Huquqiy targ'ibot huquqiy tarbiyaning boshqa shakllaridan ajralib qolgan emas, balki huquqiy tarbiya butun jamiyatimizda mavjud bo'lgan tarbiyalarning mazmunini to'ldiradi.

Ichki ishlar organlari xodimlari aholi oldida so'zga chiqishlarining pedagogik asoslari

Muomala va notiqlikni san'at darajasiga ko'tarish uchun eng avvalo, psixologiya va mantiq fanlarini puxta egallash lozim. Mantiq fikrlash qonunlarining usul va vositalarini o'rgatuvchi fan hisoblansa, psixologiya ana shu usul va vositalardan unumli foydalanish va shaxsga ta'sir etish texnikalarini o'rgatuvchi fanlar sirasiga kiradi. Ma'lumki, ichki ishlar organlari xodimlarining o'zaro va fuqarolar bilan bo'ladigan munosabatlari IIVning tegishli nizom, buyruq va ko'rsatmalari bilan qat'iy tartibga solingan. O'zbekiston Respublikasi IIVning 2016-yil 30-mayda qabul qilingan «Ichki ishlar organlari xodimlarining odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi 82-sonli buyrug'ida: *«Xodimlarning o'z hamkasblari bilan so'zlashish odobi va muomalasi xodimning xizmatdoshlar orasidagi nufuzini belgilaydi. Xodim xizmatdoshlari bilan kattalarga hurmat, kichiklarga izzat va tengdoshlariga ehtirom tarzida samimiy so'zlashadi. O'zaro muloqotda kamtar, muloyim, bosiq, vazmin va samimiy bo'ladi. So'zlarni aniq, ravon va tushunarli talaffuzda, shoshilmasdan, ifodali bayon etadi. Hamkasblari va boshliqlariga ularning unvonini aytib murojaat qiladi. Rahbarlar tomonidan berilgan topshiriqlarni diqqat bilan*

tinglaydi. Boshliqlari va o'zidan katta unvondagi xodimlar bilan munosabatda o'zini vazmin tutadi»¹, deyilgan. Bu talablarni bajarish har bir xodimning burchi va kasbiy madaniyatining asosi ekanligini unutmazlik lozim.

Ichki ishlar xodimi nutqida har bir so'z mantiqan asoslangan taqdir-dagina uning ta'siri kuchli bo'ladi. Nutqni to'g'ri ifodalash uchun fikrlar aniq va bir-biriga izchil bog'langan bo'lishi lozim. Fikr yuritilayotgan mavzudan chetga chiqmaslik zarur, fikr tiniq, mazmunida mantiqiy ziddiyatlar va mujmal gaplar bo'lmasligi kerak.

Ichki ishlar organlari xodimlarining mantiqiy fikrlash usullariga *solishtirish (taqqoslash)*, *tahlil (analiz)*, *sintez*, *mavhumlash (abstraksiyalash)*, *umumlashtirish* kabilarni kiritish mumkin va ularning nutq faoliyatini to'g'ri tashkil etishdagi o'rni juda muhimdir.

Solishtirish (taqqoslash) usuli yordamida xodim taqqoslanadigan buyum, narsa, hodisa va voqea haqidagi fikrlar uchun muhim ahamiyatga ega belgilarni aniqlaydi.

Tahlil (analiz) mantiqiy usul bo'lib, uning yordamida xodim ishga tegishli buyum, hodisa, voqea va jarayonlarni fikran qismlarga bo'lib, xususiyatlarini va muhim belgilarini ajratadi.

Tahlil asosida ajratilgan qismlar *sintez usuli* yordamida fikran birlashtiriladi va bir butun holga keltiriladi.

Mavhumlash (abstraksiyalash) usulida xodim ishga tegishli narsa, hodisa, voqea va jarayonlarning muhim xususiyatlarini fikran qismlarga ajratadi va ikkinchi darajalilarini chetlashtiradi.

Umumlashtirish usuli yordamida xodim ishga tegishli jinsdosh narsa, hodisa, voqea va jarayonlarning umumiy xususiyatlarini fikran birlashtiradi.

Ushbu usullardan unumli foydalangan holda fikr yuritish har bir xodimni o'z sohasi yo'nalishida olib borayotgan xizmatini to'g'ri tashkil etishi va fikr-mulohazalarini mantiqan izchil bayon etishiga asos bo'ladi.

Ichki ishlar organlari xodimlari fuqarolar bilan tushuntirish ishlarini olib borishda quyidagi usullardan foydalanishlari maqsadga muvofiq.

1. *Ko'rsatish* – idrok etilayotgan predmet bilan bevosita tanishishning eng sodda usuli. Xodim o'z nutqini ko'rgazmali qurol bilan asoslasa, fikri fuqarolar ongiga chuqur yetib borishiga erishadi. Xususan, yo'l-patrul xizmati xodimlari, yong'in xavfsizligi, profilaktika inspektorlari va boshqa xizmat xodimlari fuqarolarga u yoki bu masalada tushuntirish ishlarini olib borishida ko'rgazmalilik usulidan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

¹ Ишлар органлари ходимларининг одоб-ахлоқ қоидалари ҳақидаги қўлланма. – Т., 2016. – Б. 7.

2. *Tasvirlash* – fikr yuritilayotgan u yoki bu voqeaning belgilarini birma-bir sanab ko‘rsatish. Tasvirlash sodir etilgan jinoyat tafsilotlarini to‘g‘ri tahlil qilishiga yordam beradi.

3. *Aqliy xulosa* – u yoki bu turdagi muhokamalardan hukm chiqarish. Aqliy xulosaning uch turi mavjud: *deduktiv, induktiv va analogiya*.

Deduktiv xulosada fikr umumiydan xususiya, induktiv xulosada fikr xususiya umumiylikka, analogik xulosada esa fikr xususiya umumiylikka qarab boradi. Mazkur xulosa chiqarish usullari tergovchi uchun jinoyat ishini ochishda tasmollar tuzishda muhim hisoblanadi.

4. *Isbot, ishontirish, dalillash* har bir fikrning muhim belgisidir. Har qanday mantiqiy dalil uch qismdan iborat bo‘ladi: tezis, asos (dalil yoki sabab), muhokama.

Isbot tezisining haqiqatligini asoslab berish uchun bir qancha zarur qoidalarga rioya etish zarur:

- tezis aniq va ravshan ta’riflangan bo‘lmog‘i lozim;
- isbotning boshidan oxirigacha tezis aynan bir xil bo‘lishi kerak;
- tezisni mustahkamlash uchun keltirilgan dalillar shubhadan xoli, chin dalillar bo‘lishi shart;

- dalillar tezis uchun yetarli asos bo‘lishi kerak;

- dalillar rostligidan qat’i nazar, mustahkam qayd etilishi kerak.

Ushbu mantiqiy va psixologik qoidalarni bilish har bir ichki ishlar xodimi uchun zarur hisoblanadi. Buni egallash uchun esa til, ya’ni grammatika qoidalarini, mantiq va psixologiya fanlarini yaxshi bilish.

Bundan tashqari, ichki ishlar organlari xodimlari nutq so‘zlaganda bir qator qoidalarga amal qilishlari kerak bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2016-yil 30-maydagi «Ichki ishlar organlari xodimlarining odob-axloq haqidagi qo‘llanma» e’lon qilingan 82-buyrug‘ining 45-bandida shunday deyiladi: «Har bir xodim fuqarolar bilan samimiy munosabatda bo‘lishi, ularning murojaatini diqqat bilan eshitishi, vakolati doirasida ko‘rib chiqishi va masalasini hal qilishga intilishi zarur. Fuqarolar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning qonunga zidligini tushuntiradi hamda qonunda belgilangan chorani qo‘llash masalasini hal etadi». Xuddi shu buyruqning 50-bandida esa, «ichki ishlar organlari xodimi aholi bilan aloqani mustahkamlab, takomillashtirib boradi. Ichki ishlar organlari xodimi degan yuksak nomni yodda saqlagan holda, xizmat vazifasiga doir ish yurituvini davomida hamda insoniylik burchini bajarish vaqtida fuqarolardan turli ko‘rinishdagi hadya va sovg‘alarni olishi taqiqlanadi»¹, deb ta’kidlab

¹ Ишлар органлари ходимларининг одоб-ахлоқ қоидалари ҳақидаги қўлланма. – Т., 2016. – Б. 9.

o‘tilgan. Yuqorida qayd etilganlarga asoslanib, ichki ishlar organlarining xodimlari bir qator qoidalarga qat’iy amal qilishlari lozim. Bu qoidalar orqali har qanday auditoriyani, mehnat jamoasi va turli toifadagi shaxslarni o‘ziga jalb qila olish va ular bilan munosabatga kirishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Umuman, har qanday targ‘ibot, jumladan huquqiy targ‘ibot bilan shug‘ullanuvchilar quyidagi qoidalarga e’tibor qaratishlari zarur:

1. Har doim erkin so‘zlashga intiling, so‘zlashdan oldin hayajonlanmaslikka harakat qiling. Chunki erkin so‘zlagan odam hayajonlanmaydi.

2. Nutq so‘zlashdan oldin puxta tayyorgarlik ko‘ring. Yaxshi tayyorgarlik a’lo nutq garovidir. Nutq qisqa bo‘lsin, shunda unga tayyorlanish imkoniyati ko‘payadi.

3. Har qanday nutqning davomiyligi 20 daqiqadan oshmasin. Undan oshib ketsa, zerikarli bo‘ladi.

4. Gapirib o‘ylamang, balki o‘ylab gapiring.

5. Ko‘proq tinglang, shunda ko‘p narsani bilib olasiz. Tinglay olish ham san’at. «So‘z – kumush, sukunat – oltin» naqliga amal qiling.

6. O‘zingizda qat’iyatni shakllantirish uchun ko‘proq mashq qiling. Eng avvalo o‘z yaqinlaringiz, hamkasblaringiz olida nutq so‘zlab ko‘ring.

7. Biror-bir joyda nutq so‘zlaydigan bo‘lsangiz kamroq ovqatlaning, chunki ko‘p ovqatlanish fikrlashni susaytiradi.

8. Omma oldida so‘zlashdan oldin uning taxminiy ssenariysini rejalashtirib olgan yaxshi. Ammo tashqi ta’sirlarni ham inobatga olish zarur. Masalan, nutq so‘zlaganingizda sizga tasodifan savol berishlari mumkin. Shuning uchun gapirayotgan gapingizdan qanday xulosalar chiqishi mumkinligini oldindan anglab oling.

9. Siz qanday auditoriyada nutq so‘zlashingiz mumkinligini oldindan bilganingiz ma’qul. Chunki ularning yoshi, kasb-kori, yashash joyi, ehtiyojlarini oldindan bilish nutqingizning jonli chiqishiga asos bo‘ladi.

10. Har doim reglamentga rioya qiling. Buning uchun nutqingizni keng va tor shakllarini o‘ylab qo‘yganingiz ma’qul. Bunda ko‘proq statistik ma’lumotlar va kam ishlatiladigan murakkab terminlardan foydalanishga harakat qiling.

11. Shuni yodda tutingki, har qanday nutqning boshi, o‘rtasi va oxiri bo‘ladi. Eng asosiysi, siz nutqingizni qanday tugatish haqida o‘ylang.

12. Siz notiqsiz, birinchi jumlaning va nutqning xulosa qismini o‘ylashga majbursiz, qolgan gaplarni o‘z yo‘nalishida bog‘lab ketaverishingiz mumkin.

13. Rasmiy hujjatlarni, notanish matnlarni o‘qib berishingiz mumkin. Nutqning boshqa turlari esa o‘qilganlarni mustahkamlaydi. Ya’ni yuqorida

ko'rsatilgan matnlardan tashqari qo'shimcha nutq matnini yozish shart emas. Chunki yozgan matningiz gapirishingizni qiyinlashtiradi. Tajribasiz notiq yozilganlardan nimanidir tushirib qoldirishdan qo'rqib, battar xatoga yo'l qo'yishi mumkin.

14. Ommaviy tadbirlarda nutq so'zlashdan oldin tashqi ko'rinishingizga e'tibor bering. Iloji boricha dadil, vazmin va qomatni tik tutib gapirishga harakat qiling.

15. Siz hayajonlansangiz hayajonlansangiz aslo qo'rqmang, har qanday aqlli odam omma oldiga chiqqanida hayajonlanishi tabiiy, siz hayajonni so'zlarga, emotsiyaga o'tkazishga harakat qiling va ma'ruzangiz emotsional va jozibali bo'lishiga intiling.

16. Juda qattiq hayajonlanish zararli. Undan qochish kerak. Chiqish qilishdan oldin yaxshi narsalar haqida o'ylang va nutq mazmunidan o'zingizni chalg'iting. Auditoriya haqida o'ylab vahima qilmang. Agar buni ilojini topa olmasangiz yoki chalg'ish yordam bermasa, qo'llaringizni yelka kengligiga qo'yib, barmoqlaringizni buking. So'ngra sakrab, bir qancha harakatlar qilib, orqaga chayqaling. Agar buni ham ilojini topa olmasangiz oyoqlaringiz barmoqlarini kuchli harakat qildiring.

17. Nutq oldidan va gapirayotgan paytingizda suv ichmang, suv yuragingizga keraksiz yuk bo'ladi va ovozingizni bo'g'adi. Chiqish qilish oldidan keraksiz gaplardan gaplashmang.

18. Gapirish vaqti kelganda tashqi ko'rinishingizni to'g'rilab, dadil qadamlar bilan nutq so'zlash lozim bo'lgan joyni egallang.

19. Ustingizdagi kiyim-kechaklaringiz keng yoki o'ta tor bo'lmasin, poyafzalingiz oyoqlaringizni siqib qo'ymasin, galstugingiz bo'yningizni bo'g'ib qo'ymasin. Liboslaringizdagi kenglik va torlik erkin gapirishingizga va o'zingizni erkin tutishingizga xalaqit beradi.

20. O'zingizni to'g'ri tuting, yelkangizni biroz buring. Iyagingizni biroz ko'tarib boshingizni to'g'ri tuting. Oyoqlaringiz yelka kengligida bo'lsin. Qo'llaringizni qorin ustida siqib ushlamang, buklamang, barmoqlaringizni chalkashtirmang, qo'llarni orqaga qilmang, cho'ntakka tiqmang, oyoqlaringizni chalishtirmang.

21. Notiq qotib turmasligi, qo'llarini erkin tutishi, gapirayotgan paytda qo'llarini silkitmasligi, juda qotirib gavgaga yopishtirib ham turmasligi lozim. Gapirish tempini, ovozini mazmunga qarab o'zgartirib turishi kerak. Nutq yumshoq va ishonchli bo'lishi, lekin juda cho'zilib ketmasligi kerak.

22. Gapirayotganda og'izni me'yorida ochib gapirish, me'yorida nafas olish va chiqarish lozim. Ovozni auditoriyaning katta-kichikligiga qarab moslash, o'ta baland ovozda qichqirib gapirmaslik kerak.

23. Ovozni yuqoriga va pastga yoʻnaltirmang, tinglovchilarga toʻgʻri yoʻnaltiring.

24. Imkoni boricha mikrofondan foydalanmang, mikrofon auditoriya-dagilar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻlanishga xalaqit qiladi.

25. Auditoriyaga tabassum bilan yuzlaning, ular diqqat bilan sizga qaramoqda. Ularga kuchli nazar va xushkayfiyat bilan boqing.

26. Oz fursat jimlik saqlang. Agar shovqin boshlansa, jimlikni choʻzing va birdan auditoriyaga qattiq nazar tashlang.

27 Nutqingizni yumshoq va yengil qilib boshlang. Kuchli zarb bilan boshlamang, boʻlmasa nutqingizni yakunlashga kuchingiz yetmay qoladi, tinglovchilarning ham toqati toq boʻladi.

28. Gapirayotganingizda unutmang, nimani yozsangiz ham sigʻdiraveradigan qogʻozga emas, sizni eshitishni istagan odamlarga murojaat qilyapsiz.

29. Oʻzingizni tutib, ishonch bilan gapirsangiz sizni hamma zavq bilan tinglaydi.

30. Temp oraliqini saqlagan holda baland ovozda gapiring. Keng va muhim maʼlumotni qisqa vaqtga sigʻdirishga urinmang. Shoshib gapirgan notiq maʼlumot berishdan qoʻrqadi va minbardan tushirib yuborishlarini kutadi.

31. Gapirayotgan vaqtingizda auditoriyani kuzating. Tinglovchilarning diqqati sizga qaratilgan. Biroq nutqingiz davomida bir shaxsga hadeb murojaat qilavermang, chunki har bir tinglovchi qaysi nuqtaga qarayotganingizni, kimga qarab gapirayotganingizni kuzatib turibdi.

32. Katta auditoriyadan qoʻrqmang, kichik auditoriyadan qoʻrqing. Auditoriya qancha katta boʻlsa, ishontirish shuncha oson boʻladi.

33. Ortiqcha gapirmang. Notiq nimaiki gapirsa, omma shuni gapiradi, nimani oʻylasa, shuni oʻylaydi. Shuning uchun notiq nima gapirishini hamisha oʻylab gapiradi. Lekin u nimani oʻylasa, hammasini gapira olmaydi. Gapirib ulgurmaydi.

34. Iloji boricha qisqa gapiring, nutqning ommabop jaranglashi tinglovchilarning butun borligʻiga taʼsir qiladi. Ayni damda tinglovchilar aytilayotgan narsalarning oʻzlari uchun eng kerakli ekanligini anglaydi.

35. Iloji boricha adabiy tilda gapirishga odatlaning, chet el soʻzlaridan imkon darajasida kamroq foydalanishga harakat qiling.

36. Bir soʻzni qayta-qayta takrorlashdan qoching, bu yomon illat.

37. Nutqingizni soʻz bilan emas jumla bilan bezashga odatlaning. Jumlar bir-biriga mantiqan bogʻlansin. Boshlagan jumlangizni yakuniga yetkazing. Gapirayotgan jumlaringizning uzun-qisqaligini auditoriya va xonaning kengligiga qarab tuzing. Auditoriya qancha katta binoda boʻlsa,

gapirayotgan jummlaringizning o‘rtacha uzunligi shuncha qisqa bo‘lishi kerak.

38. Nutqda so‘z va jimlikning (pauza) o‘rni galma-galdan almashinib turishi kerak. Jim turish so‘z va jumlaning tuzilishiga vaqt ajratish demakdir. Jim turishda auditoriyaning sizning fikrlaringizga berayotgan bahosini anglaysiz. Ammo to‘g‘ri kelgan joyda tinimsiz jimlik ham yarashmaydi. Jimlik auditoriyadan javob kutayotgan pay-tingizda kerak.

39. Ommabop nutq ohangga bog‘liq, ohang jummlarga a‘zo bo‘lgan so‘zga sayqal beradi. Nutq mazmuniga notiqning munosabatini belgilovchi ohang tabiiy va ishonchli bo‘lishi kerak. Ohangni hech qachon jummlarning oxiriga surmang.

40. Notiq ommabop nutq so‘zlayotganda o‘zini bulbulday his etmasligi kerak. Siz odamlarning foydasiga gapiryapsiz, o‘zingizni ko‘z-ko‘z qilish uchun emas. Shuning uchun hamma vaqt nutqingiz ustida ishlang, uning auditoriyaga ta‘sirini kuzating. Odamlarning ma‘lum guruhi sizni qo‘llash-qo‘llamasligini aniqlang. Ular sizga e‘tiborli yoki parishonxotir, qiziqib eshityapti yoki ahamiyat bermayapti, do‘stona yoki zo‘rma-zo‘raki tinglayotganini kuzating. Notiq gapirayotganda auditoriyada nima bo‘layotganini ko‘rib turishi lozim va o‘z vaqtida auditoriya holatini izga solib turish kerak.

41. Agar auditoriyada shovqin ko‘tarilsa, ovozingizni balandlatmasdan, aksincha, pasaytiring yoki jimgina auditoriyaga diqqat bilan qarang.

42. Zaldagi qochiriq gaplardan qo‘rqmang. Nutq so‘zlayotganingizda diskussiyaga yo‘l qo‘ymang. Mo‘ljaldagi gaplaringizning hammasini ayti-shingiz shart. Nutq davomidami yoki undan keyinmi, sizga berilgan savol-larga javobni aniq, tushunarli, qisqa qiling, to‘liq javob berish shart emas.

43. Har qanday nutqning yakuni dadil va mustahkam bo‘lsin. Yakunlovchi ohangda ovozni ko‘tarib, kerakli gaplarning hammasini aytganingizni sezdiring, auditoriyaning diqqat-e‘tibori uchun minnatdorchilik bildi-rishni unutmang.

Notiq nutqi mantiq qoidalariga muvofiq bo‘lishi uchun quyidagi talab-larga javob berishi lozim:

- nutq aniq, ravshan bo‘lishi;
- nutqda fikr (bayon) izchilligi saqlanishi;
- nutq jarayonida fikrda ziddiyat bo‘lmasligi;
- fikrlar dalillar asosida bo‘lishi kerak.

Mazkur talablar rasmiy mantiqning to‘rt asosiy qonuni: e‘tirof, qarama-qarshilik, uchinchisini inkor etish va yetarli asos qonunlari bilan cham-barchas bog‘liq.

Siz mana shu yuqorida sanab o‘tilgan mantiqiy-psixologik qoidalarga har doim ham amal qila olmasligingiz mumkin. Ammo har doim yodingiz-

da bo'lsin: odamlar sizni kiyimingizga qarab kutib oladi va aqlingizga, ya'ni gap-so'zingizga qarab kuzatadi.

Ma'lumki, har qanday nutqiy faoliyat avvalo og'zaki nutq orqali amalga oshadigan jarayon hisoblanadi. Og'zaki nutq esa ikki ko'rinishda sodir bo'ladi. Birinchisi, *oddiy so'zlashuv*, ikkinchisi esa *adabiy til* normalariga qat'iy amal qilgan holda adabiy so'zlashuv nutqi ko'rinishida bo'ladi.

Oddiy so'zlashuv sheva ta'sirida bo'lgan kundalik so'zlashuvning o'zi. Bu so'zlashuvda nutq bazasini adabiy til tashkil etmaydi. Adabiy so'zlashuv nutqi adabiy til madaniyatiga, adabiy til normalariga asoslanib nutq so'zlashdir. Adabiy tilda so'zlash adabiy tilda yozishga nisbatan ancha murakkab kechadi. Buning sabablari quyidagicha: og'zaki nutqda albatta shevaning ta'siri bo'ladi, juda bo'lmaganda notiqning talaffuzida seziladi; og'zaki nutqda yozma nutqqa nisbatan o'ylash, fikr yuritish imkoniyati, vaqti kam bo'ladi. Chunki og'zaki nutq tezkor jarayon, boshni qashlab o'tirishga vaqt yo'q; og'zaki nutqda talaffuz, ohang, imo-ishora vositalaridan foydalansa bo'ladi; og'zaki nutqning muvaffaqiyatli chiqishi notiqning kayfiyatiga, sog'ligiga, auditoriyadagi vaziyatga juda bog'liq; notiq so'zlayotganda o'z nutqiga yozma nutqidagidek yetarli e'tibor bera olmaydi.

Shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, matn asosida nutq so'zlashning ijobiy va salbiy tomonlari bor. Ijobiy tomoni notiq o'z fikrlarini oldindan o'ylab tayyorlagan matnga asos qilib oladi, fikrlarining mantiqan birligini ta'minlaydi. Faktik va fikriy xatolarga yo'l qo'ymaydi. Salbiy tomoni esa tinglovchilar nazarida bilimsizday, fikr yuritishni eplay olmaydiganday ko'rinadi. Notiq va tinglovchilar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ancha susayadi.

Matnsiz nutq so'zlash notiqning xotirasi o'tkirligi, matn mazmunini chuqur o'zlashtirib olganini ko'rsatadi. O'ziga ishongan notiqgina matnsiz nutq so'zlay oladi. Bu notiqning mazkur san'atni mukammal egallab olganligidan, bu sohada u erishgan mahoratdan darak beradi.

Axborot-psixologik xavfsizlik

Ma'lumki, XXI asr – axborot texnologiyalari asri deb bejiz aytilmaydi. Shu o'rinda, Akinavada 2000-yil 22-iyulda jahonning rivojlangan 8 mamlakati tomonidan imzolangan Global axborot jamiyati xartiyasini eslash maqsadga muvofiq. Mazkur xartiya yangi asrda jahon hamjamiyati rivojlanishining muhim omili bo'lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hisoblanishidan yaqqol dalolat beradi. Ilmiy texnika taraqqiyoti insoniyat va jamiyat moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi. Yangi texnologiyalar jamiyat a'zolari turmushini istalgan mahsulot bilan ta'minlash, sanoat, xizmat sohasini jadal rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish imkonini beradi.

Kishilar o'rtasida xabar yetkazishni ta'minlashga qodir hisoblash texnikasi, axborot-aloqa tizimi, Internet, shuningdek boshqa axborot texnologiyalari inson va jamiyat hayoti hamda faoliyatida axborotning ahamiyatini keskin oshirib yubordi. Hozirgi kunda ijtimoiy-texnikaviy rivojlanish bilan ijtimoiy-siyosiy rivojlanish o'rtasida mutanosiblik mavjud bo'lgan jamiyatgina har tomonlama uyg'un rivojlanishi mumkin. Shuning uchun har qanday jamiyat o'zining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa axborotga bo'lgan talab hamda ehtiyojini to'liqroq qondirishga intiladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bugunga kelib ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish, ijtimoiy rivojlanishning miqyosi mazkur sohalarda to'plangan va almashinayotgan axborotlar, ularning almashinish sur'ati va o'zlashtirilish tezligi bilan belgilanadi.

Mana shuning uchun ham mazkur muammolarni o'rganishda axborotning: shakli va mohiyati; axborot xavfsizligini ta'minlash; ochiq axborot tizimlarining o'ziga xosligi; shaxs, jamiyat va davlat axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash manbalari va turlari; axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlashning ahamiyati va tamoyillari; OAV va axboriy qarama-qarshilik; axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashda asosiy yo'nalish va usullar; ochiq axborot tizimlarida shaxsning o'z-o'zini himoya qilishi; jamoatchilik fikri va jamiyat axboriy-psixologik xavfsizligi; O'zbekiston OAVlari va jamiyatning psixologik xavfsizligi kabi mavzularini oydinlashtirish talab etiladi.

Ochiq axborot tizimlari (OAT)ga axborot agentliklari, gazeta va jurnallar, radio, televideniye, audio va video mahsulotlar kiradi. Internet, matbuot xizmati, jamoatchilik bilan aloqalar, davlat, jamoatchilik va boshqa tashkilotlar va muassasalar, reklama agentliklari tuzilmalar ham shular jumlasidandir.

Vaqtli matbuot, axborot tarqatishning audio va video vositalari, axborot agentliklari, internet-jurnalistika OAVlari hisoblanadi. OAV axborot tarqatishning asosiy qismini tashkil etadi.

Axborot moddiy dunyoning organizmda yoki organizmlar jamoasida aks etgan hamda ular tomonidan atrof-muhit o'zgarishlariga moslashish uchun foydalaniladigan moddiy dunyo obyektlarining aksidir. U ma'lumotlar, xabarlar shaklida namoyon bo'ladi. Ma'lumotlar moddiy dunyo obyektlari aksi natijada hosil bo'ladi. Xabarlar esa boshqa xabar yetkazish uchun yuzaga keladi.

Ochiq axborot tizimlarida «xabar» atamasi kishilar, ijtimoiy guruhlar, umuman, jamiyat qurshab turgan olamda mo'ljal topa bilishi uchun ijtimoiy ahamiyatga ega xabar ma'nosini beradi. Shuningdek, muayyan jamiyatning ijtimoiy tabiatini belgilab beradigan ma'naviy qadriyatlarni qaror toptirish uchun xizmat qiladi.

Jamiyatning axborot xavfsizligi uning ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy sohalariga, madaniy qadriyatlariga, insonlar xulq-atvorini ijtimoiy tartibga soluvchilarga, axborot infratuzilmalariga va bular yordamida uzatilayotgan xabarlariga zarar yetkazish mumkin emasligidan iboratdir.

Davlatning axboriy xavfsizligi predmeti axborot va jamiyat axborot infratuzilmalaridan tashkil topgan jamiyat ishlarini boshqarishni bajarish bo'yicha davlat faoliyatiga zarar yetkazish mumkin emasligidan iborat.

Tazyiq o'zaro munosabatlar obyektlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni obyektlardan birining salbiy tomonga kuch bilan o'zgartirish kiritish maqsadida zarar yetkazish yo'li bilan hal etish usulidir.

Milliy manfaatlarga tazyiq deganda, mamlakat milliy manfaatlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi milliy qadriyatlar va milliy turmush tarziga xavf tug'diruvchi shart-sharoitlar majmui tushuniladi.

Axborot sohasidagi milliy manfaatlarga tazyiq deganda, axborot sohasida va manfaatlarni amalga oshirish bo'yicha faoliyatda milliy manfaatlar obyektlariga zarar yetkazish xavfini tug'diruvchi shart-sharoitlar majmui angasqiladi. Ya'ni axboriy faoliyat sohasida inson va fuqaro huquqiy mavqei amalga oshirishga, axborotlar, axboriy infratuzilmaga, shuningdek mazkur obyektlar bilan bog'liq milliy manfaatlarni amalga oshirish bo'yicha faoliyatga zarar yetkazish tazyiqidir.

Axborot sohasida shaxs va jamiyat manfaatlariga tazyiq deganda, inson va fuqaroning ochiq axborotga ega bo'lishi, qonun bilan taqiqlanmagan faoliyatni amalga oshirishda foydalanishga bo'lgan huquqini cheklash tushuniladi. Bular esa shaxsiy xavfsizlik ma'naviy va aqliy rivojlanishni ta'minlovchi axborotlar hisoblanadi. Bundan tashqari, individual, «virtual axborot» maydonini, uning ruhiy faoliyatga ta'sir etish texnologiyalaridan foydalanish imkonini shakllantirish hisobiga jamoatchilik ongini chalg'itish imkonini kengaytirish shaxsning manfaatlariga bo'lgan eng xavfli tajovuz hisoblanadi.

«Axboriy qurol»ni tarqatish va bu sohada «qurollanish poygasi»ni kuchaytirish ham axborot sohasidagi davlat manfaatlari uchun xavf manbai hisoblanadi. Bunday xavflar davlat siri hisoblangan, boshqa maxfiy axborotlardan iborat bo'lgan ma'lumotlarga qonunga xilof ravishda ega bo'lishdan iboratdir. Bularning oshkor bo'lishi, shubhasiz, davlat manfaatlariga zarar yetkazadi.

Axboriy qarama-qarshilik – auditoriyaga dunyodagi biror hodisaga nisbatan munosabatda bo'lishga o'z qarashlari, fikrini tiqishtirish hamda qarshi tomon g'oyasi va nuqtai nazarini inkor etish roli bilan ta'sir etishga intilish.

Axboriy psixologik kurash – boshqa mamlakat yoki mamlakatlarda mavjud ijtimoiy tuzumni bo‘shashtirish, jamiyat axloqini izdan chiqarish, rivojlanish milliy dasturiga putur yetkazish, o‘z qadriyatlari va turmush tarzini to‘g‘ridan-to‘g‘ri eksport qilish maqsadida axborot xizmati va qo‘poruvchilik bilan shug‘ullanuvchi xizmatlarning o‘zaro hamkorligidir.

Topshiriq – individning e‘tibor qaratishiga, munosabat bildirishiga, jumladan kelayotgan axborotga ham psixologik jihatdan tayyor ekanligi. Psixologik jihatdan topshiriq u yoki bu qarorga kelish yo‘lida shakllanadi. Bunda muayyan holat bilan unga bog‘liq turli faktorlar hisobga olinadi.

Omma ongiga u yoki bu qadriyatlarning psixologik jihatdan ta‘sir ko‘rsatishida axboriy vositalaridan foydalanish – axborot manipulatsiyasi yoki axborot ishlatib maqsadga erishish hisoblanadi. Bunda ko‘pchilik o‘zi anglamagan holda, hatto o‘zlarining manfaatlariga zid bo‘lsa ham ta‘sir qilish manbaiga, obyektiga aylanganliklarini bilmaydilar.

Axborot (lotincha «informatio») – tushuntirmoq, bayon etmoq) zamonaviy fan va siyosatning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, dastlab kishilar tomonidan og‘zaki, keyinroq yozma yoki boshqa shakllarda uzatilgan ma‘lumot. XX asrning o‘rtalaridan boshlab insonlararo, inson-avtomat, avtomat-avtomat o‘rtasidagi ma‘lumot hamda hayvonlar va o‘simliklardagi signal almashinuvi, hujayradan-hujayraga muayyan belgilarning uzatilishi va shu kabilarni anglata boshladi.

Ijtimoiy hayotga tatbiq etadigan bo‘lsak, axborot kishilar, predmetlar, faktlar, hodisalar, jarayonlar va shu kabilar haqidagi ma‘lumotlar majmuini anglatadi.

Axborot resurslari – muayyan (kutubxona, arxiv, fond, ma‘lumotlar banki kabi) axborot tizimlaridagi alohida hujjatlar va hujjatlar majmui.

Axborotlashuv jarayoni jamiyatdagi iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. G‘arb sotsiologlari fikriga ko‘ra, axborotlashgan jamiyat:

- texnika sohasida ishlab chiqarish, iqtisodiyot, ta‘lim va maishiy hayotga axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi;

- iqtisodiy hayotda axborotning tovarga aylanishi;

- ijtimoiy hayotda axborot turmush, hayot darajasi o‘zgarishining asosiy omiliga aylanishi;

- siyosiy sohada keng miqyosda fikr almashishga zamin yaratuvchi xilma-xil axborotlarni erkin olishga yo‘l ocqilishi;

- madaniyat sohasida axborot almashinuvi davr ehtiyojlariga javob beradigan normalar va qadriyatlarning shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Ayni paytda axborotlashgan jamiyat:

– uyda ishlashning kengayishiga, transport harakatining kamayishiga va buning oqibatida tabiatga tushadigan «yuk»ning keskin qisqarishiga olib keladi;

– ish kunining qisqarishi, odamlarning uyda ko‘proq bo‘lishiga, oilaviy muhitning barqaror bo‘lishiga zamin yaratadi;

– keyingi yuz yilliklarda kishilar shahar yashash va ishlash uchun eng qulay makon, degan xulosaga keldilar. Axborotlashuv jarayoni esa, qishloqdan turib ham butun olam bilan muloqot qilish, eng obro‘li tashkilotlarda ishlash, shahar aholisi bahramand bo‘layotgan madaniyat yutuqlaridan bahramand bo‘lish imkonini yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, nisbatan osuda va tinch bo‘lgan, tabiatga yaqin qishloqlarga qaytish yoki u yerda doimiy qolish uchun zamin yaratadi;

– masofaviy ta‘lim bilim olishning eng qulay shakliga aylanish barobarida, aholining keng qatlamlari uchun hatto eng elitar oliy o‘quv yurtlari eshiklarining ochilishiga zamin yaratadi. Sodda qilib aytganda, ma‘lumotlilik ko‘p darajada insonning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lib qoladi.

Mutaxassislar fikriga ko‘ra, bugungi kunda jamiyatda aynan axborotni olish, unga yo‘l topish sohasida keskin bo‘linish, tabaqalashuv sodir bo‘lmoqda.

Iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma‘rifiy va boshqa sohalardagi axborotlar ta‘sirlashuvi ijtimoiy hayotning mazmunan boyishi, takomillashuvining muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda axborot almashinuvi insoniyat taraqqiyotining muhim shartiga aylandi, deyish mumkin.

Shubhasiz, zarur axborotlarga ega bo‘lish davr talabi. Biroq bugungi kunda shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat va davlatning o‘zi haqida axborotlarni tarqatishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buning ikki asosiy jihati mavjud. Birinchidan, masalan, Internet tarmog‘i imkoniyatlari kengayib borayotgan hozirgi davrda undan mamlakatimizning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rnini mustahkamlashda keng foydalanish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta‘kidlaganlaridek, «bu borada ishni to‘g‘ri tashkil etish uchun Internetdan samarali foydalanish, uni o‘zimizning ma‘lumotlar bilan to‘ldirish kerak... Bizning zaif tomonimiz shundaki, Internetda O‘zbekiston bilan bog‘liq ma‘lumotlar juda kam. Nega deganda, bizda bu jarayonning texnikasi va texnologiyasi talab darajasida emas, milliy qadriyatlarimiz, tarix va merosimiz, bugungi fan, san‘at va adabiyotimizning eng yaxshi namunalarini Internetga kiritish dasturi ishlab chiqilmagan»¹.

¹ Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Т., 2005. – Б. 301–302.

Ikkinchi muhim jihati shundaki, yurtimiz hayotiga doir ayrim noxolis, tor doiradagi manfaatlardan kelib chiqib tarqatilayotgan ma'lumotlarga javoban axborotlarni global miqyosda targ'ib-tashviq etish tashqi axborot xurujlariga qarshi o'ziga xos qalqon vazifasini bajaradi. Bu esa turli geosiyosiy manfaatlar doirasidagi axborot xurujlari ta'sirini kamaytirish va milliy axborot makoni xavfsizligi ta'minlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Buning uchun kishilarda axborot iste'moli madaniyatini yuksak darajada shakllantirishga erishish zarur. Shundagina ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashish, ularni noto'g'ri talqin etishning oldi olinadi. Eng muhimi axborot iste'moli madaniyatiga ega inson, jamiyat, xalq va millat g'arazli manfaatlar doirasidagi geoxabarlar ta'siriga tushib qolmaydi. Albatta, axborot iste'moli madaniyatining shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tizimli ravishda sa'y-harakatlarni olib borishni taqozo etadi.

Axborot iste'mol madaniyati ham madaniyatning boshqa shakllari kabi bir qator funksiyalarni bajaradi. Kommunikativ, regulativ (tartibga solish), axborot, aksiologik (baholash) kabi funksiyalar shular jumlasidandir. Biz tahlil etayotgan muammo doirasida axborot iste'moli madaniyatining aksiologik funksiyasi alohida ahamiyatga ega. Masalan, Internet orqali juda ko'p ijobiy ma'lumotlar bilan birga, Sharq madaniyatiga, xususan, kishilarimiz xulqu odobiga salbiy ta'sir etuvchi axborotlar ham uzatilayotgani, tabiiyki, kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimizning g'oyaviy tarbiyasiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish orqaligina bunday ta'sirlarning oldini olish mumkin. Shuningdek, «biz ba'zan G'arb madaniyati to'xtovsiz kirib kelayotgani haqida taassuf bilan gapiramiz. Bu shunday kuchli oqimki, unga qarshi chiqish juda mushkul. Buning faqat bitta yo'li bor. U ham bo'lsa, Internetga o'zimizga mos ma'lumotlarni o'z vaqtida kiritishdan iborat. Hamma gap mazkur resursdan kim va qanday maqsadlarda foydalanishida»¹.

Shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari, jamoatchilik fikri va mamlakat ma'naviy yuksalishiga axborotning tahdidi. Axborot tahdidi shunday universal xarakterga egaki, uning barcha sohalarga: shaxs dunyoqarashiga, jamiyat barqarorligiga, davlat tinchligiga, jamoatchilik fikrini chalg'itishga va oxiri oqibatda har bir mamlakatning ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy yuksalishiga ham jiddiy salbiy ta'sir qilish imkoniyati bor. Chunki axborotning jamiyat, tashkilot, oila, shaxs ongiga kirib kelishi uncha ham ko'zga tashlanmaydi. Ijobiy va salbiy axborotni farqlash, yaxshi ma'lumotni

¹ Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Т., 2005. – Б. 304.

o'zlashtirish va zararlisini rad etish uchun inson ongi rivojlangan, uning o'zi esa mustahkam irodaga ega bo'lishi zarur. Har qanday mamlakat aholisining asosiy qismi esa bunday imkoniyatga ega emas. Shuning uchun axborot-psixologik barqarorlikka birinchi o'rinda axborot tarqatuvchilar, ya'ni davlat tuzilmalari xizmatchilari, jurnalistlar, pedagoglar, jamoat tashkilotlari xodimlari va boshqalar ega bo'lishi shart.

Bu haqda Birinchi Prezident Islom Karimov: «Ma'rifatparvarlik biz uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, yo'qotmaydi ham. Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakgina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi. Agar shu muammoni yechmasak, barcha toat-ibodatlarimiz bir pul: taraqqiyot ham, kelajak ham, farovon hayot ham bo'lmaydi»¹, degan edi.

Axborot – psixologik ta'sir vositasi sifatida. Inson uchun axborot eng ta'sirchan vosita, chunki uning ongi bor. Mantiqiy isbot, qolaversa, axborot yetkazishning eng oddiy usullari shu qadar katta kuchga egaki, unga hech kim hech narsani qarshi qo'ya olmaydi. Shuning uchun targ'iboti haddan tashqari kuchli mamlakatning aholisi fanatiklarga o'xshaydi. Masalan, Gitler davridagi nemis byurgerlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Insonning tabiati shunday yaratilganki, u axborotni qabul qilmasdan, uni tushunishga harakat qilmasdan yashay olmaydi. Har bir odam ma'lumotni ko'radi, eshitadi, o'qiydi va eng muhimi, doimo, uzluksiz ravishda, kechayu kunduz unga yetib boradigan axborotning ta'sirida yashaydi. Shuning uchun axborot yordamida kimgadir ruhiy ta'sir qilmoqchi bo'lganlarga o'sha odamning psixologiyasi, agar ushbu inson axborotni o'ylamasdan qabul qilaversa, ko'maklashadi.

Shaxs axborot-psixologik xavfsizligiga tahdidning manbalari va umumiy tavsifi: tashqi va ichki tahdid, uning tuzilishi hamda mohiyati. Yuqorida aytganimizdek, shaxs tomonidan axborotni qabul qilishning hal etuvchi mezonini bu insonning ongliligidir. Mazkur ongdan foydalanib, mantiqiy isbot yordamida odamga xohlagan, eng noma'qul g'oyani ham «to'g'riligini» isbotlash mumkin, bu qiyin emas. Buning uchun dalillarni ustalik bilan tanlab, isbotlash jarayonini yaxshi tuzish kifoya. Demak, axborot-psixologik xavfsizlikka tahdidning birinchi manbai insonning o'zidir.

Undan tashqari, boshqa manbalar ham bor. Ular, eng avvalo, tashqi va ichki tahdidlar sirasiga aholini axborot bilan ta'minlashning huquqiy va iqtisodiy asoslari yetarli emasligi, fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanmayotganligi va fuqarolarning davlat va nodavlat tashkilotlariga murojaat-

¹ *Каримов И.А.* Миллий истиқлол мафқураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. – Т., 2000. – Б. 23–24.

lari javobsiz qolib ketishi, axborot bozori qanday rivojlanishi davlat tomonidan nazorat qilinmasligi, fuqarolar davlat tuzilmalari faoliyati haqida yetarli axborot ola olmasligi hamda yuqori tashkilotlar tomonidan qabul qilingan qarorlar ularga tushuntirib berilmasligi va boshqalar kiradi.

Shaxs ruhiyatining bioijtimoiy tabiati, uning xususiyati, shakllanishi va boshqariluvchi, kishining shaxsiy tavsifi va axborot-psixologik xavfsizlik tahdidi tizimida uning ahamiyati. Inson ruhiyati bioijtimoiy tabiatga ega ekanligini ko'pchilik bilsa-da, bu holatga va bundan kelib chiqadigan oqibatlariga uncha ham e'tibor berilmaydi. Bioijtimoiy tabiat esa inson xulqi va ongi uchun yetakchi omil. Demak, keng auditoriya bilan ishlash jarayonida psixologiya qonunlarini bilmasdan samarali faoliyat ko'rsatib bo'lmaydi. Inson psixologiyasining negizini biologik fazilatlar tashkil etadi, odatda biologik jihatdan tinch bo'lgan oddiy odam ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishga qodir. Zigmund Freyd, Karl Yung kabi faylasuf-psixologlar isbotlab bergani bo'yicha, inson ongining fundamentini ongsiz biologik xususiyatlar (shaxsiy va jamoaviy ongsizlik) tashkil etadi. Axborot xavfsizligi sohasida ixtisoslashayotgan mutaxassislar buni e'tiborga olishlari zarur.

Masalan, har bir insonning xulqi, nuqtai nazari va pozitsiyasi turli axborot yordamida har xil boshqarilishi mumkin. Siyosatshunoslar yoki jurnalistlar bir voqeani, bitta fakti shunday talqin qila oladiki, undan keng auditoriya ijobiy yoki salbiy xulosa chiqarishi odatiy hol bo'lib qolgan. Shunday ekan, axborot-psixologik xavfsizlik tahdidi tizimida faoliyat ko'rsatadigan O'zbekiston OAV ular uchun eng muhim omillar bo'lgan tezkorlik va haqiqatgo'ylik prinsiplari asosida ish olib borishlari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat axborot-psixologik xavfsizligiga tahdidning manbalari. Bunday manbalar ko'p, ularning asosiy qismi shaxs axborot-psixologik xavfsizligiga tahdidning manbalari tarkibida keltirildi. Qo'shimcha ravishda butun jamiyat va millatga xavf solayotgan manbalarni keltirish mumkin, masalan, millatchilik, shovinizm, imperiyaviy tafakkur, mafkuraviy ekspansionizm va boshqa shu kabi illatlarni qo'zg'atuvchi davlatlar, tashkilotlar va shaxslardir¹.

Axborotda hududiy munosabatlar: axborot olish hududini ta'minlash; shaxsiy hayot va oila siri, sirli yozishmalar daxlsizligini ta'minlash. Eng avvalo aytish kerakki, axboriy xurujni hududiy jihatdan oltita asosiy turga ajratish mumkin: 1) umumsayyoraviy (bir qutbli, ya'ni «odnopolyarniy») dunyoni tashkil etishga harakat qiluvchi davlatlar tomonidan amalga oshiri-

¹ Qarang: Пахрутдинов Ш. Тараққиётга таҳдид: назария ва амалиёт. – Т., 2006. – Б. 73.

ladi); 2) qit'aviy (Osiyo yoki boshqa qit'aga nisbatan); 3) regionli (o'zaro chegaradosh, masalan, Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan); 4) davlat (O'zbekiston)ga nisbatan; 5) mintaqaviy (masalan, Farg'ona vodiysi); 6) mahalliy (viloyat, shahar, tumanga nisbatan).

Tabiiyki, har bir davlat o'z axborot hududini o'zi tashkil etadi. Boshqa davlat tomonidan ushbu mamlakat hududida intensiv ravishda axborot tarqatish axboriy xuruj hisoblanadi, bunday harakat ushbu davlatni o'z axboriy makonini haqli ravishda himoya qilishga undaydi. Himoya qilinadigan sohalarga davlat va jamiyat manfaatlaridan tashqari, shaxsiy hayot daxlsizligini, oilani asrash va sirli yozishmalarni asrash ham kiradi.

Axborot-psixologik xavfsizlikni shaxsga ta'sir etuvchi vosita va usullari. Axborotni qabul qilish, qayta ishlash, tarqatish mexanizmlari, jamiyatdagi transformatsiya va uning qaytalanishi. Axborot-psixologik xavfsizlikning shaxsga ta'sir etuvchi vosita va usullari aslida ko'p, lekin an'anaviy ravishda ular uchta asosiy turga bo'linadi: davlat yetkazadigan, OAV va norasmiy muloqotdagi axborot. Norasmiy axborot – shaxsning mahalla, ish joyi, o'rtoqlari, transport vositalarida, jamoat joylarida eshitgan ma'lumoti.

Insonning axborot bilan ishlashi bir nechta asosiy bo'g'inni tashkil etadi, ular quyidagidan iborat: 1) ma'lumotni qabul qilish, anglab olish va eslab qolish; 2) axborotni anglash va eslab qolish jarayonida, materialni qabul qiluvchining bilimi va psixologiyasidan kelib chiqqan holda, qayta ishlash va yangilangan axborotni xotirada saqlash; 3) axborotni tarqatish.

Har bir bosqichning o'z qoidalari bor va ularga rioya qilmagan odam ushbu faoliyatda inqirozga uchrashishi aniq. Axborotni qabul qilish eng oddiy narsa, lekin bu yerda ham, agar eshitish, ko'rish yoki o'qib olish uchun yetarli sharoit bo'lmasa, keng omma ma'lumotni tushunmaydi va eslab qola olmaydi. Axborotni anglashga kelsak, auditoriya vakillari turli ijtimoiy qatlamlarga tegishli bo'lishi tufayli ular barcha axborotni eslab qola olmaydi, shuning uchun xorijiy shovvoz jurnalistlar o'z xabarlarini iloji boricha sodda, qisqa va aniq tarzda uzatishga harakat qiladi, materialning asosiy g'oyasini esa bir necha marta takrorlaydi. Ular har bir fuqaro eshitgan yangiligini o'zi yashaydigan sharoitga qiyoslab tushunishini juda yaxshi biladi va uzatiladigan ma'lumotlarni aynan ushbu talabga moslashtirib tarqatadi. Shu bois axborot xavfsizligi sohasidagi mutaxassislar yuqorida keltirilgan qonuniyatlarni e'tiborga olib ishlashlari zarur.

Axborotni tarqatish mexanizmi esa katta tizim orqali amalga oshiriladi, bular matbuot, radio, televideniye va internet. Bu haqda biz keyingi ma'ruzada to'xtalamiz.

Shaxs axborot-psixologik xavfsizligiga tahdidning shakllanish omillari, uning ta'sir doirasi kengayishi. Zamonaviy bosqichda shaxsning axboriy-

psixologik xavfsizligiga tahdidlarning ko‘lami ancha keng bo‘lib, ular ichida asosiylar deb quyidagilarni keltirish mumkin: *birinchisi*, shaxs qadr-qimmatini poymol qilmaslik, fikr va so‘z erkinligi, adabiy, badiiy va ilmiy ijod erkinligi; *ikkinchisi*, shaxsiy hayotning daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sir himoyasi; *uchinchisi*, ommaviy axborot vositalari erkinligi, har bir kishi ularda qonun doirasida o‘z fikrini ayta olishi. Mutaxassislarning kuzatishlariga ko‘ra, OAVda fuqarolar o‘z fikrlarini erkin aytishlari davlat uchun xavfli emas, odamlar esa ularning so‘zini boshqalar ham eshitishini xohlaydi va shunga intiladi; *to‘rtinchisi*, ma’naviy qadriyatlarga, xalqning urf-odatlarini, jamiyatning madaniy merosiga kimdir tomonidan hujum qilinishi.

OAV axborot-psixologik urushni olib borish vositasi sifatida. Afsuski, ayrim OAV bugungi kunda shunday vositaga aylanganlar. Ushbu urushda OAVning o‘rni va rolini aniqlash uchun eng avvalo axboriy-psixologik urush ma’nosini anglab olish zarur. «Axborot urushi» iborasining asoschisi fizik olim Tomas Ron hisoblanadi, 1976-yilda u axborotni harbiy kuchlarning eng zaif bo‘g‘ini deb ta’riflab, ushbu masalaga barcha davlat miqyosidagi mas’ul kishilarning e’tiborini qaratdi. Shundan beri mazkur iboraning ahamiyati kundan kunga ortib kelmoqda.

Bevosita axborot urushi ta’rifiga quyidagi iqtibosni keltirmoqchimiz: «Axborot urushi deb, ijtimoiy, siyosiy, etnik va boshqa tizimlarning moddiy yutuqqa ega bo‘lish maqsadida bir-biriga ochiq va yashirin maqsadli axboriy ta’sirlarga aytiladi. Shu bilan bir qatorda, axborot urushi deb yanada raqib ustidan axboriy hukmronlikka erishish va shuning evaziga unga moddiy, mafkuraviy yoki boshqacha zarar yetkazish uchun davlatning harbiy kuchlari, hukumati hamda xususiy tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar va operatsiyalar majmuasiga aytiladi»¹.

Turli OAV (televideniye, radio, davriy matbuot)ning o‘ziga xos psixologik ta’siri. Har bir OAV auditoriyaga o‘ziga xos ta’sir etish kuchiga ega. Internetgacha ularning ichida eng samaralisi televideniye edi. Chunki u tomoshabinga uch yo‘l bilan, ya’ni tasvir, ovoz va mantiq orqali axborot yetkazadi. Shuning uchun televideniye ommaviy ravishda tarqalganidan keyin besh-o‘n yil ichida besh yuz yillik tarixga ega bo‘lgan matbuotdan o‘zib ketdi. Radio ham katta kuchga ega, negaki u ovoz va mantiq orqali ta’sir ko‘rsatadi. Uning afzalligi – jonli ovoz yordamida auditoriya bilan muloqot qilish, bunday usul axborot manbai bilan tinglovchi o‘rtasidagi masofani yo‘qotadi. Inson ovozi, uning yurakdan chiqishi, undagi hayajon va samimiylilik radioning imkoniyatini keskin oshiradi.

¹ Qarang: *Манойло А.В., Петренко А.И., Фролов Д.Б. Государственная информационная политика в условиях информационно-психологической войны. – М., 2006. – С. 203.*

Psixologik ta'sir texnologiyasi. Yuqori texnologiya va ommaviy kommunikatsiya. Psixologik ta'sir inson axborotni qabul qilish yo'llari bilan bog'liq: ko'rish, eshitish, ta'mini bilish, hidini sezish, qo'l bilan tegish, fikrlash va hokazo. Axborot xavfsizligi masalasiga kelganda psixologik ta'sir ko'proq OAV yordamida amalga oshiriladi, shu bois ular mutaxassislar tomonidan tinmay mukammallashtirilmoqda. Natijada rivojlangan mamlakatlar matbuot, radio va televideniyaning barcha imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtirgan Internetdek yuqori texnologiyaga ega bo'ldilar.

Internet ommaviy kommunikatsiya ta'sirini eng baland pog'onaga ko'tardi. Saytga joylashtirilgan ma'lumot bir zumda butun dunyo bo'yicha tarqalib ketadi. Uning adadi (tiraji) esa cheksiz. OAVning roli Internetgacha ham kuchli bo'lgan, endi esa ularning ta'siri tasavvur qilib bo'lmaydigan darajaga yetdi. OAVdan tashqari Internet reklama, ma'lumotlar yetkazish, elektron pochta xizmatlarini ham bajaradi. Eng qulayi shundaki, Internetda ma'lumot juda ko'p, u arzon va o'ta tezkor.

Axborot urushini aniqlash. Axborot urushi tarkibi: psixologik, elektron va dezinformatsion; axborot hujumi va uning turlari (to'g'ridan-to'g'ri, aylanma); axborot tizimining ishdan chiqishi. Axborot urushining ta'rifini biz yuqorida keltirgan edik. Ushbu fikrni davom ettiramiz. Axborot urushining xususiyatlari quyidagilardan iborat: *birinchidan*, axborot qurolini ishlab chiqish unchalik ham qimmat emas va bu ishni turli soha mutaxassislari bajarishi mumkin; *ikkinchidan*, chegaralarning nisbiyligi: davlatlar, qonuniy va noqonuniy harakatlar, harbiy va noharbiy janglar o'rtasida va hokazo; *uchinchidan*, hujumning oldini olishning ilojsizligi; *to'rtinchidan*, zararni hisoblab chiqishning murakkabligi; *beshinchidan*, harbiy bloklar, birlashmalar tuzish qiyinligi va hokazo.

Axborot quroli, uning o'ziga xosligi, zamonaviy dunyoda uni qo'llash imkoniyati va ko'lami. Axborot qurolining keng va tor ma'nolari bor. Keng ma'noda axborot quroli raqibni kerakli yo'nalishda fikrlashga undaydigan, uning nuqtai nazarini o'zgartirishga qodir va kerakli axborot yordamida amalga oshiriladigan harakatlar. Tor ma'noda axborot quroli raqibning axborot zaxiralari ustidan nazoratni ta'minlaydigan va uning telekommunikatsiyalari tizimlariga zarar yetkaza oladigan texnikaviy usullar va texnologiyalar. Demak, axborot quroli – raqibning axborot va boshqaruv tizimlariga ta'sir etuvchi maxsus moslama va vositalar. Tabiiyki, axborot texnologiyalari rivojlangan mamlakatlar tomonidan bunday quroldan foydalanish imkoniyatlari juda keng.

Axboriy qarama-qarshilikning maqsadi, vosita va shakllari, uni nazorat etish, jamiyatning umumiy holatiga keltiradigan psixologik zararlari.

Axboriy qarama-qarshilikning maqsadi – dunyoviy (global) axborot maydonida milliy manfaatlar himoyasini ta'minlash. Mazkur maqsadga erishish esa turli mamlakatlar tomonidan turlicha amalga oshiriladi. Texnologik kuchli davlatlar hukmronlik qilishga intiladi. Rivojlanayotgan davlatlar esa o'zini himoyalashga harakat qiladi. Ikkala tomon ham o'ziga qulay keladigan usullardan foydalanadi.

Ommaviy kommunikatsiya – xorij OAVda axborot ekspansiyasidan himoyalash, fikrlash va o'zini tutish vositasi sifatida. Xorijiy OAV ekspansiyasidan himoyalash uchun eng qulay choralardan biri – mahalliy OAV. O'zbekiston sharoitida buning uchun milliy gazeta, radio va televideniymizning imkoniyatlari bor, faqat ulardan samarali foydalanishimiz zarur. Bunda bosh omil va mustahkam fundament milliy istiqloq g'oyasidir.

Jamoa ruhiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari. Axborot manipulyatsiyasi, uning maqsad va vazifalari, qoida, usul va shakllari. Jamoatchilik fikriga ta'sir etuvchi axborotning ijtimoiy fenomeni. Ommaviy auditoriyaga psixologik ta'sirning usul va shakllari. Alohida bir odamning ruhiyati jamoa ruhiyatiga teng emas, albatta. Eng qizig'i shundaki, jamoa ruhiyatida ongsizlik darajasi balandroq. «Um xorosho, dva luchshe (bir aql yaxshi, ikki aql yanada yaxshi)» degan rus maqoli OAV xabarlarini ommaviy qabul qilinishiga to'g'ri kelmaydi. Ommaviy taassurotda OAV tomonidan aytilgan gaplarga birdan ishonish, vahimaga tushish, salbiy informatsiyaga ko'proq berilish kayfiyatlari ancha kuchli. Buni Karl Yung «jamoaviy ongsizlik» («kollektivnoye bessoznatelnoye») deb ta'riflagan va bugungi kunda ushbu psixologik kategoriyani topib, uni isbotlab berilgani Yungning buyuk kashfiyoti deb hisoblanadi.

Umuman olganda, axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi qanday paydo bo'ldi? Uning hayotiyligi, insoniyat taqdiriga daxldorligi nimada? Ana shunday savol tug'ilishining o'zi muammoning dolzarbligini va o'ta keskinligini ko'rsatadi. Bizningcha, axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi quyidagilarda namoyon bo'ladi.

*Birinchi*dan, axborot-psixologik xavfsizlik – bevosita inson ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali uni o'z aqidalaridan, muqaddas ideallaridan, e'tiqodidan ayiradigan buzg'unchi g'oyalardan asrash. Demak, axborot-psixologik xavfsizlikka ehtiyoj, eng avvalo, bevosita inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, jumladan urf-odatlar, an'analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlar vorisiyligi, millatning istiqboli bilan bog'liq qadriyatlarga ma'naviy-ruhiy ta'sir, buzg'unchi g'oyalar va tajovuzkor mafkuralarning mavjudligidan kelib chiqadi.

*Ikkinchi*dan, axborot-psixologik xavfsizlikka rioya qilinmasa, unga nisbatan ta'sirchan choralar ko'rilmasa, buzg'unchi g'oyalar milliy qad-

riyatlarni barbod etish orqali tarixan mavjud bo'lgan xalqlar va millatlarni genotsidga olib kelishi muqarrar.

Uchinchidan, tig'iz axborotlashgan jamiyatda axborot orqali zamonaviy ruhiy ta'sir texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotganligi shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishiga u yoki bu tarzda kuchli ta'sir o'tkazadi. Jamoatchilik fikrining qay darajada shakllanganligiga, jamiyatning siyosiy ongi, huquqiy bilimlari saviyasi, ma'naviy-ma'rifiy darajasiga qarab jamiyat taraqqiyotga yoki tanazzulga yuz tutishi muqarrar.

To'rtinchidan, ijtimoiy fikrni shakllantirishda axborotning ta'siri, axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari va vositalarining tobora kengayib borayotganligini nazarda tutsak, axborot-psixologik xavfsizlik muammosi yana ham keskinlashadi.

Beshinchidan, mazkur atamaning mohiyati shundaki, u inson, jamiyat tushunchalari doirasidan chiqib, yaxlit insoniyat, butun kishilik taqdiri bilan bog'liq global masalalarni ham qamrab oladiki, natijada hozirgacha mavjud global muammolarning eng tajovuzkori, eng buzg'unchisi yoki aksincha, eng tashabbuskori bo'lib qolishi muqarrar. Bu holat xalqaro siyosatda, davlatlararo, mintaqalararo muammolarni hal etishda buyuk davlatchilik shovinizmi avj olishi mumkin bo'lgan holatlarda yana ham xavfliroq mohiyat kasb etadi. Bu ko'proq an'anaviy siyosiy muvofiqlashtirish tajribalaridan kengroq foydalanishni taqozo etadi. Ya'ni sharqona munosabatlar ilmi, mulohazalilik, mushohadalik, har qanday voqea va hodisalarga aql-idrok yo'rig'i bilan yondashish tamoyili ustuvor bo'lmog'i lozim.

Axborot siyosatini tig'iz axborotlashgan jamiyat shakllanayotgan bir paytda hozirgi zamonaviy talablardan kelib chiqib yangilash, modernizatsiyalash zarur.

Axborot orqali yuzaga kelgan psixologik mojarolar sharoitida davlat axborot siyosatining vazifasi jamiyatni salbiy axborot-psixologik xurujdan ishonchli saqlash, qat'iy himoya qilish mexanizmini yaratish bilan belgilanadi.

Har bir yangi axborot-psixologik mojaro himoya qilinayotgan jamiyat uchun yangi tahdidlarni keltirib chiqarishi ham mumkin. Demak, tahdid qancha ko'p bo'lsa, qo'rquv, hadik va ishonchsizlik shuncha ko'payadi. Ana shunday ma'naviy, ruhiy, ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqib, jamiyat kayfiyatini muvofiqlashtirib, yo'naltirib, boshqarib turish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oltinchidan, axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi ma'lum bir xalq, millat, mamlakat hayotida jiddiy ijtimoiy xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan tinchlik va barqaror taraqqiyot yo'lida unumli foydalanish, uni boshqarish, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarga siyosiy tus bermaslik usullardan foydalanishni talab etadi.

Bizning nazarimizda axborot-psixologik xavfsizlik bevosita siyosiy mojarolarning oldini olish, eng avvalo, insonning o'zini o'zi tushunishi va fuqarolararo munosabatlarni yuksak ma'naviy-ma'rifiy mezonlar asosida shakllantirish, axborot quolidan zamonaviy insonparvar tafakkurni, ijodkorlik ruhini, yaratuvchilik qobiliyatini, bunyodkorlik imkoniyatlarini shakllantirishni taqozo etadi.

Axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi ana shu tarzda ma'naviy-axloqiy mezonga aylanadi. Erkin shaxs va ozod kishilik jamoasi bo'lgan fuqarolik jamiyati sharoitida axborot-psixologik xavfsizlikning o'ziga xos tizimlari shakllanmog'i lozim. Bu bevosita OAV faoliyati va unda xizmat qiladigan axborot oluvchi, saqlovchi va tarqatuvchi xodimlarning siyosiy saviyasiga, kasb mahoratiga va eng muhimi, fuqarolik pozitsiyasiga, jamiyat ishiga daxldorlik tuyg'usiga bog'liq. Zotan, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning bosh mezoni va asosiy tayanchi – millatparvarlik, vatanparvarlik, fidokorlik tuyg'usi!

Albatta, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos asoslari bor. Bular:

birinchidan, tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlanganlik. Zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan yetarli darajada qurollanish;

ikkinchidan, mustahkam moddiy-moliyaviy asoslarga ega bo'lish. Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladigan soha xodimlarining moddiy manfaatdorligini oshirish;

uchinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalarini boshqaradigan, undan samarali foydalana oladigan, zamonaviy bilimlarga ega, har tomonlama keng fikrlaydigan qobiliyatli kadrlarni tayyorlash.

Demak, axborot xuruji tobora avj olib borayotgan, yakka tartibda har bir fuqaro, har bir inson ongiga kuchli ta'sir o'tkazayotgan, keng miqyosda olganda esa jamiyat taraqqiyoti va millat taqdirini hal qilishga qodir, global miqyosda esa butun insoniyat hayotini kafolatlaydigan, uning taraqqiyoti yoki tanazzulini belgilashga qodir bo'lgan tig'iz axborot tizimini boshqarish, tartibga solish, undan foydalanish me'yorlarini ishlab chiqish hozirgi zamonning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Shaxs ongida g'oya va fikrning paydo bo'lishi. Mafkura va psixologik xavfsizlik muammolari. Jahon hamjamiyatining mustaqil O'zbekistonni tan olishi, davlatimizning keng tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyati o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlari va imkoniyatlari tiklanishiga, o'zini boshqa xalqlar orasida to'la huquqli millat sifatida anglab yetishiga keng imkon yaratmoqda. Tobora kengayib borayotgan xalqaro aloqalar jahon madaniyatini yanada chuqurroq bilish, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish uchun qulay zamin yaratmoqda. Bu esa o'z navbatida, o'zbek

xalqining turli faoliyat sohalarida iste'dodi rivojlanishiga, uning tadbirkorlik va kirishimlilik, bir qancha chet tillarni va kompyuter texnologiyalarini tez o'rganib olish kabi iqtidorlarni ro'yobga chiqishiga, xorij mamlakatlari-ga borish, ular bilan aloqalar o'rnatish, dunyo standartlari bo'yicha oliy o'quv yurtlarida tahsil olish imkonini berdi. Ana shu aloqalar tufayli milliy mehmonnavozlik va saxovat an'analari yanada rivojlandi.

Aloqalarning kengayishi haqiqiy ma'naviy va madaniy qadriyatlarni munosib baholash imkonini berdi. Hozirgi yoshlar, ularning ota-onalari ham uchragan kinoni ko'rib, duch kelgan maza-matراسi yo'q kitoblarni o'qib ketayotgani yo'q Ataylab yurtimizga olib kelinayotgan G'arbning sun'iy lashtirilgan san'atidan, «keng iste'mol»dagi madaniyatidan norozilik bizning xalq bilan bo'layotgan deyarli barcha uchrashuvlarimizda sezilib turibdi. Bunday mahsulotning ilgarigi «man etilgan ne'mat»ga xos «lazzati», jozibadorligi deyarli qolmagan. Hozirgi kunda xorijning madaniy qadriyatlaridan foydalanishga ancha jiddiy va tanlab yondashish ehtiyoji kuchayib bormoqda. Lekin ochiq ommaviy axborot vositalari orqali tinimsiz ma'lumotlar quyulib kelayotgan sharoitda ongi hali shakllanib ulgurmagan farzandlarimiz uchun tahdid ham, ataylab uyushtirilayotgan mafkuraviy tajovuzlar ham bor.

Darhaqiqat, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, «milliy g'oya va istiqbol mafkurasini haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, serqirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi hali-hanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizga tasavvur qilishimiz kerak, deb o'ylayman. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no-mazmunini teran anglab yetishga xizmat qiladi. Bu mafkura xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning sha'nu sharafi, or-nomusi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayan-gan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalar tizimidir».

Davlatimiz rahbarining ko'rsatmalari va istiqbolli g'oyalaridan kelib chiqib, hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o'sib-unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida *mafkuraviy immunitet* hosil qilish muhim ahamiyat kasb etgan vazifalardan biridir. Bu ishni bamisoli niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog'bondek noziklik va mehr bilan, oqilona yo'l tanlash orqali amalga oshirish lozim.

Ochiq axborot kommunikatsiya tizimida insonning axborot tahdidlarini baholash va xavfsizlikni ta'minlash imkoniyatlari. Shaxs turli mafkuraviy tahdidlardan qanday saqlanishi mumkin? Ushbu masalaga oydinlik kiritish uchun avvalo «egotsentrizm» tushunchasiga izoh berish darkor. «Ego-tsentrizm» lotincha «ego» – men va «centrum» – doira markazi so'zlaridan

olingan bo‘lib, o‘z fikr-o‘ylari, manfaatlari doirasida qotib qolgan insonning atrof-muhit va odamlarga oid o‘z bilimlari va o‘zgalarga munosabatini o‘zgartira olmasligini bildiradi. Psixologiyada egotsentrizmning bir qancha turlari mavjud. Ular bilishga oid, axloqiy, kommunikativ va boshqalarga biror ma’lumot berish jarayonida ularning fikri bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslikdir. Nazarimizda, zamonaviy informatsion xurujlar mualliflarida aynan shu kabi egotsentrizm kuzatiladi va ular o‘zlariga o‘xshash faqat o‘z manfaatigina ko‘zlaydigan avlod ongini qamrab olishga harakat qiladi. Shuning uchun ham shaxsga psixologik himoya zarur. Psixologik himoya bo‘lishi uchun esa shaxsda mustaqil fikr bo‘lishi lozim.

Demak, bugun ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan, lekin ming afsuski, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lmaganlar bilan ishlashda quyidagilarga e’tibor qaratish kerak:

birinchidan, xulq-atvordagi xatoliklar eng avvalo noto‘g‘ri fikrlashning oqibati bo‘lgani uchun talabalarning negativ fikrlash tarzi sxemasini o‘zgartirish;

ikkinchidan, fikrlash tarziga ta’sir ko‘rsatish uchun pedagoglar o‘zlarining tushuntirish usullarini, tarbiya metodlarini o‘zgartirishlari lozim. Ya’ni ilgari yuqori tonda, direktiv ohangda, «katta roli»dagi talaba bilan muloqot qilgan pedagog, endi kerak bo‘lsa, «tengma-teng», demokratik ohangda, bosqichma-bosqich xatti-harakatlarni birgalikda tahlil etishga o‘tishlari;

uchinchidan, o‘quvchi-talabaning o‘z-o‘zini idrok qilishini, o‘ziga beradigan bahosini o‘zgartirish, ya’ni talabani ijobiy ishlarga yo‘naltirish orqali o‘ziga bo‘lgan qarashini o‘zgartirishga erishish;

nihoyat, shunday vaziyat yaratish lozimki, o‘quvchi ijobiy tajriba orttirsin, ya’ni o‘ziga, oilasiga yoki sinfdosh do‘stlariga, maktabiga manfaati tegib, olqish olsun. Buning uchun ularni jamoat ishlariga keng jalb etish amaliyotini kengaytirish, bu ishdan manfaatdorligini oshirish lozim.

Demak, ta’lim va tarbiya jarayonida har bir pedagog yoshlarning mustaqil fikrlashlari uchun sharoit yaratishi kerak, aks holda uning ongi tayyor shablonlar, stereotiplarga shu qadar o‘rganadiki, oxir-oqibat ular har qanday bid’at yoki yot g‘oyalarga ergashib ketaveradigan bo‘lib qoladi. Darsni tashkil etishning noan’anaviy usullariga keng yo‘l ochish, mashg‘ulotlarda o‘quvchilar bilan interfaol muloqotni tashkil etish ularning miyasi yaxshiroq ishlashi, qiziqishlari ortishi va mustaqil fikrlashlariga yordam beradi.

Psixologik manbalardan yana shu narsa ma’lumki, yoshlar mustaqil fikrlashlari uchun ta’lim jarayonining o‘zida joriy etilgan tartiblarda byurokrtiyani minimallashtirishga erishish kerak. Chunki eski ta’lim

tizimi o'qituvchining aytganini, u yozgan ma'ruza matnini aynan ko'chirib yozib kelish, aytib berishni talab qilardi. Bu holat miyani avtomatik tarzda ishlashiga, bir xil qolipda bo'lishiga o'rgatadi. Bunday miyada albatta o'ziga xos vakuum hosil bo'ladiki, bu vakuumga keyinchalik boshqa yot g'oya va tushunchalar juda tez singadi, chunki miya deyarli tormozlangan bo'lib, har qanday boshqa xabar uning miyasiga oson kirib oladi.

Turli axborot-psixologik vaziyatlarda shaxsning ijtimoiy xulqi. Psixologik himoya tushunchasi. Ochiq axborot kommunikatsiyasi jarayonida yoshlar ongiga ta'sir etayotgan yot g'oyalarga qarshi himoya vositalarini ishlab chiqishdan avval yoshlarning ijtimoiy xulqida ko'zga tashlanadigan eng muhim holatlardan biri – tashvishlanish, nimadandir cho'chish va shu tufayli ijtimoiy munosabatlardan o'zini olib qochishga intilish hislari namoyon bo'lishini o'rganish kerak. Chunki agar psixologik himoya holatining mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu shaxs ichki kechinmalarini ifodalovchi shunday holatki, unda odam ichki ruhiy mo'tadillikni asrash uchun o'zidagi xavotirlanish, qo'rquv va hadiksirashlarini bosishga, ulardan xalos bo'lishga intiladi. Psixologik himoya shaxsni turli salbiy ta'sirlardan asrashga, psixologik diskomfortni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shunday holatlarda odam shaxslararo munosabatlarda o'zini boshqacharoq tutadigan bo'lib qoladi. Psixologlar himoya mexanizmlariga odatda quyidagilarni kiritadilar:

- ochiq his-kechinmalarni bosish, ko'tarmaslikka urinish;
- rad etish, ya'ni noma'qul ma'lumotni ochiq rad etish, qo'shilmaslik;
- proyeksiya – o'zidagi hissiyot va kechinmalarni tashqi obyektlarga ko'chirish orqali paydo bo'lgan holatning sabablarini tashqaridan qidirishga moyillik;
- identifikatsiya – o'zini axborot egasiga o'xshatish, uning o'rniga o'zini qo'yish orqali qadriyatlarni rad etish yoki tanqidsiz o'zlashtirish;
- regressiya – ilgari hayotida, masalan, yoshligida bo'lib o'tgan qaysidir voqeaga qaytish, ularning yaxshi va ma'qullarini yana xotirada tiklash va xulqda qaytarish orqali o'zida psixologik himoya yoki oqlovni tashkil etish:
- yolg'izlanish – jamiyatdan o'zini olib qochish, o'zidagi o'zgarishlarni boshqalarga bildirmaslikka intilish (ayrim talabalar o'qishga bormay qo'yadilar);
- ratsionalizatsiya – mulohaza va fikr yuritish orqali o'zida himoya instinktlarini hosil qilish;
- konversiya – muloqotdagi qandaydir to'siqlar yoki baryerlarni olib tashlash uchun kutilmagan usullarni qo'llash, masalan, xavotirli informatsiyani yumor bilan almashtirish yo'li.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy takomili, o'zini o'zi himoya qilish va boshqarish imkoniyatlari. Ochiq axborot xurujlari vaziyatida shaxsning o'zini o'zi himoya qilishini boshqarishda ayrim jihatlarga alohida e'tibor berish lozim. Avvalo, har bir inson uchun mustaqil fikr zarurligini ta'kidladik. Mustaqil fikrga ega insongina o'ziga nisbatan qaratilgan yaxshi yoki yomon ma'lumotning mohiyatiga yetishi va unga nisbatan adekvat reaksiya ko'rsatishi, himoya mexanizmlarini ishga solishi mumkin.

Ikkinchidan, yoshlar turli yot va bemaza axborot xurujlariga berilmashligi uchun biz ularda milliy g'ururni tinmay tarbiyalashimiz va bunda har bir fan predmeti va tarbiyaviy muloqotlardan oqilona foydalanishimiz zarur. Masalan, 2006-yilning o'zida nishonlangan qator tantanalar, jumladan Ma'mun Akademiyasi va uning nima uchun aynan O'zbekiston hududida tashkil etilganligiga yoshlar e'tiborini qaratish va ularni ochiq fikr almashinuviga chorlash ularda milliy g'ururni uyg'otadi.

Milliy g'urning ahamiyati shundaki, bunday sifati bor inson boshqarlarga qul bo'lishni xohlamaydi, jumladan axborot xurujlariga tobe bo'lmaydi.

Uchinchidan, milliy g'ururi bor insonda imon, insof va diyonat tushunchalarini shakllantirish mumkin. Chunki inson qalbi bilan bog'liq bu qadriyatlar Internet va ochiq axborotlar olamida adashtirmaydigan «kompas» vazifasini o'taydi. Hozirgi zamonda «Internet» shunday o'rmonki, unda kompassiz yurib bo'lmaydi.

To'rtinchidan, oliy o'quv yurtlarida professor-o'qituvchilarning obro'e'tibori, ular aytadigan har bir so'zning aniq mo'ljalli bo'lishini ta'minlash zarur. O'qituvchi axborot qanday bo'lishidan qat'i nazar, u qabul qiluvchi insonning izmida bo'lishi, uning manfaatiga xizmat qilishi kerakligini, buning uchun yovuz niyatli, yot g'oyalarni targ'ib etuvchilarning asl niyatlarini, ular sa'y-harakatlarining oqibati nima bilan tugashini ochiq aytishi lozim.

Shunday qilib, axborot xurujlariga qarshi turishning psixologik yo'llarini har bir talaba ongiga singdirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun quyidagilarni yodda tutish lozim:

1) aslida ataylab ta'sir etishga mo'ljallangan xabarni shaxs darrov qabul qilmaydi. Chunki birinchidan, unda ilgaridan psixologik himoya mavjud, ikkinchidan, har qanday yangi narsaning singib ketishida muayyan axborot to'siqlari ham bo'ladi;

2) bunday sharoitda «uchinchi shaxs ta'siri» (effekt tretyego litsa) ro'y beradi. Buning ma'nosi shuki, shaxs «bu xabarga hamma ishonaversin, menga ta'sir qilmaydi» deb o'ylaydi, lekin shunday fikrlashi orqali ma'lum ma'noda u axborot ta'siriga tushib qolgan bo'ladi. Yuqoridagi fikrni o'zi uchun har ehtimolga qarshi xayolidan o'tkazadi;

3) ishontiruvchi chaqiriqlarga, masalan, reklama orqali yetkazilayotgan xabarlarga yosh bolalar juda o'ch bo'ladi va aynan ular ota-onani ko'ndiradi. 90% onalar aynan reklama qilingan mahsulotlarni bolalariga olib beradi. Xuddi shunday «Internet»ga ulanish, uyida zamonaviy kompyuterga ega bo'lish fikri ham bolalardan chiqadi, bunga ota-onani ko'ndiradilar ham. Shu ma'noda yoshlar eng himoyalanganlar toifasiga kiradi;

4) xabarning asl maqsadi aslida ma'lumot berish emas, balki ishontirish ekanligini tushunish kerak. Odamning ma'lumotlilik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning turli xabarlarga ishonqiramay munosabatda bo'lishi ham yuqori bo'ladi. Lekin xabarga ishonqiramay qarashimiz uni qabul qilish yoki qilmasligimizni bildirmaydi. Agar biz ochiqchasiga yoshlarga «bu axborot manbaiga ishonmanglar, ular ataylab yolg'on ma'lumot bermoqda» desak, bu narsa ularning shu axborotni qabul qilmasliklarini kafolatlamaydi. Lekin «ogohlantirilgan odam qurollangan, muhofazali bo'ladi» degan tamoyildan kelib chiqib, birinchi ogohlantirishdan so'ng, yana o'z fikrimizni faktlar bilan asoslasak, ulardagi immunitet kuchliroq bo'ladi. Lekin shuni nazarda tutish lozimki, ogohlantirish muddati ham rol o'ynaydi. Masalan, eksperimentlarda bir hafta avval ogohlantirishning ta'siri uzoqroq muddatdan ko'ra kamroq ekanligi ma'lum bo'lgan yoki uyda xoli, komfort sharoitda qabul qilingan ta'sir bilan odamlar orasida, ko'pchilikning ichida yomon xabarni qabul qilish farqlanadi, chunki yolg'iz uydagi ta'sir skeptizmni kuchliroq namoyish etishi kuzatilgan.

Ikkinchi tomondan, bevosita axborotni qabul qilish arafasidagi ogohlantirishlar qarshi argumentlar ishlab chiqish vaqtini kamaytiradi, undan sal avvalroq ogohlantirish esa inson miyasida ma'lumotni qayta ishlashga imkon beradi;

5) tanish narsalar haqida ma'lumotga ega bo'lgan odamni ishontirish tezroq amalga oshadi. Lekin samarali taktikalardan biri – axborot kanallari orqali berilayotgan ma'lumotlar ortiqchasiga jamiyat manfaatlariga zid ekanligi, ularning adolatsiz, xudbinlarcha uzatilayotganligi, nimalaridir qonunga xilof ekanligini qayd etishdir. Ya'ni tarbiyachi, o'qituvchining ochiq tarzda o'z noroziligini bayon etishi, targ'ibotchi fikriga qarshi chiqishidir.

Ta'lim bilan qamrab olinmagan aholiga ziyolilar orqali sog'lom g'oyalarni yetkazish usullari. Milliy g'oya mamlakatimizda istiqomat qilayotgan salkam 30 million aholiga maqsad-muddaolari, istiqbolda tinch va farovon yashashiga kafolat beruvchi kuch bo'lib, u millatni millat, xalqni xalq etib birlashtiruvchi kuchli omildir. Bugungi kunda milliy g'oya, milliy mafkura targ'iboti bilan keng jamoatchilik shug'ullanmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimida bir qator ilmiy manbalar, darsliklar yaratilib, o'quv jarayonlarida qo'llanilmoqda va yoshlarni o'z Vataniga sodiq, mard,

fidoyi, yuksak ma'naviy fazilatlar egasi bo'lishga undamoqda. Lekin mamlakatimizda ta'lim tizimi bilan qamrab olinmagan aholiga ham milliy g'oyani singdirish zarurati bor. Ta'lim bilan qamrab olinmagan aholi ongida milliy g'urur, vatanparvarlik, yurtga sadoqat, xalq ishiga kamarbastalik xislatlarini shakllantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biridir.

Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotni oila, mahalla, keng jamoatchilikka axborot tarmoqlari, notiqlik klublari, jamoat tashkilotlari orqali uzatish mumkin. Bizning ijtimoiy xulq-atvorimiz, xatti-harakatlarimiz dunyoqarashimiz bilan belgilanadi. Targ'ibot va tashviqot ham ta'lim-tarbiyaning bir ko'rinishidir, agar u to'g'ri targ'ib qilinsa, insonlarni buzg'unchi g'oyalardan asraydi, ularning dunyoqarashlarini o'zgartiradi.

Ijtimoiy so'rovlar orqali jamoatchilik fikrini o'rganib, ularning bildirgan fikr-mulohazalari asosida mafkuraviy targ'ibotni olib borish mumkin. Jamoatchilik fikrini o'rganayotganda asosan uchta omilga ahamiyat berish kerak. Birinchi omil – so'rovda ishtirok etayotganlarni mazkur so'rovdan ijtimoiy manfaatdorligi, ikkinchi omil – *bahs-munozaraga sabab bo'ladigan vaziyat*, uchinchi omil – ishtirok etayotganlarning mazkur fikrga nisbati aniq fikrlari bo'lishi kerak.

Targ'ibot va tashviqotning samarali vositalaridan biri ommaviy axborot vositasidir. Ommaviy axborot vositalari keng jamoatchilikka tez va kuchli ta'sir eta oladi. Chunki har bir oila ommaviy axborot vositalari xabarlaridan foydalanadi va insonlarning ma'lumot olish manbai bo'lgan bu vosita orqali xalqimizga milliy g'oyalarni singdirish qulayroqdir.

Biz har kuni ishonarli ma'lumotlarga boy xabarlarga duch kelamiz, ulardan unchalik muhim bo'lmagan qismi ham ta'sir etishi mumkin. Biror-bir xabar, g'oya insonning xulq-atvorini o'zgartirishi uchun *psixologik ta'sir etishning* olti bosqichi amalga oshishi lozim:

- 1) xabar, g'oya auditoriyaga berilishi;
- 2) berilgan xabar, fikr auditoriyaning diqqatini jalb qilishi;
- 3) auditoriya xabar, fikrning mohiyatini tushunishi;
- 4) berilgan xabardan yangi g'oya sifatida xulosa chiqarish;
- 5) yangi g'oyani yodda saqlab qolish;
- 6) yodda saqlangan g'oyani o'zining xulq-atvorida qo'llay olish kerak.

Urf-odatlar, milliy qadriyatlarimiz orqali ham xalqimizga milliy g'oyani targ'ib etish mumkin. O'zbek oilalarining o'ziga xos milliy qadriyatlari mavjudki, bu odatlar yer kurrasining hamma yerida ham topilavermaydi. Masalan, oddiy ovqatlanish madaniyatini olaylik, hamma oila a'zolari jam bo'lgandan so'ng dasturxonga taom tortiladi. So'ng taomga birinchi bo'lib oilaning kattasi buva, buvi, ota ketma-ketligida qo'l uzatiladi. Oddiy

kundalik davom etadigan bu jarayonda ham kattalarni hurmat qilishga, sabr-qanoatli bo'lishga undaladi.

Axborot xavfsizligini masalasida jamoatchilik fikrini shakllantirish jarayonlarida milliy mentalitetni o'zgarayotgan zamon mantig'iga muvofiq ravishda o'zgartirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Birinchi Prezidentimizning «Tafakkur» jurnali bosh muharririga bergan intervyusi hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati majlisida so'zlagan nutqlari va boshqa chiqishlarida yosh avlod tabiatida shijoat, tashabbuskorlik, yangilikka intilish singari fazilatlarini shakllantirish xususida to'xtalgan edilar. Bu esa millat mentaliteti tarkibida mustaqillik, individual rivojlanishga erisha bilish xususiyatlarini rivojlantirishni ham tabiiy ravishda taqozo etadi. Axborot xavfsizligini ta'minlash, mafkuraviy ta'sirdan ogohlik masalasida faoliyat dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish zarurati kun tartibiga chiqadi.

Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashdan maqsad quyidagilardan iboratdir:

- xalq, fuqaro, ijtimoiy guruhlar va siyosiy elita ruhiyatiga ta'sir o'tkazishning oldini olish;

- geosiyosiy raqiblar tomonidan siyosiy elita doirasida va xalq orasida axborot idrok qilinishini manipulatsiya qilish harakatlariga qarshi turish;

- axborot makonida (global, regional, MDH davlatlari orasida) milliy qarashlarni, maqsadlarni tatbiq eta olish;

- O'zbekiston jamiyatini milliy xavfsizlikning muhim muammolariga munosabatini doimiy monitoring qilib borish (ijtimoiy fikr diagnostikasi);

- diniy-madaniy sohada tazyiq o'tkazmoqchi bo'lgan davlatlar ekspansiyasiga qarshi tura olish.

Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash vazifalari va yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasining axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash sohasida yuzaga kelgan vaziyat zudlik bilan quyidagi vazifalar yechimini talab qiladi:

- ushbu sohada davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini va bu siyosatni amalga oshiruvchi mexanizmlar va tadbirlarni ishlab chiqarish;

- axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash tizimini yaratish va takomillashtirish;

- ushbu soha dasturini yoki konsepsiyasini ishlab chiqish.

Yuqorida keltirilganlardan xulosa qiladigan bo'lsak, hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan axborot texnologiyalari davrida har xil salbiy informatsion xurujlardan o'zimizni o'zimiz himoya qilishimiz, ya'ni o'z uyimizni o'zimiz asrashimiz kerak bo'ladi. Zero, ogohlik davr talabidir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi»ning ahamiyati, uni hayotga tatbiq etishning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya o‘rasidagi o‘zaro bog‘liqlik nimalarda namoyon bo‘ladi?
3. Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining pedagogik mexanizmlariga nimalar kiradi?
4. Huquqiy tarbiya tushunchasi va mazmunini aytib bering.
5. Ichki ishlar organlari xodimlarining huquqiy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish shakllari va usullari nimalardan iborat?
6. Huquqiy tarbiyaga tabaqalashgan va yakka tartibda yondashish hamda uni aholining turli guruhlar bilan o‘tkazishning o‘ziga xosligi nimalarda ko‘rinadi?
7. Huquqiy targ‘ibotning vazifalari, xususiyatlari, mazmuni hamda qiyosiy samaradorligi haqida aytib bering.
8. Aholi o‘rtasida va mehnat jamoalaridagi huquqiy targ‘ibot qanday amalga oshiriladi?
9. Ichki ishlar organlarining ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorligi qanday natijalarni beradi?
10. Axborot xavfsizligi. Uni ta‘minlashga qaratilgan asosiy yo‘nalishlar, psixologik shart-sharoitlar, maqsad va vazifalar nimalardan iborat.

3-mavzu. YAKKA TARTIBDA HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISHDA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TA'SIR ETISH USULLARINI QO'LLASH

Ichki ishlar organlari faoliyatida psixologik-pedagogik ta'sir ko'rsatish mexanizmi.

Psixologik-pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari va yo'llari.

Psixologik-pedagogik usullarning tanlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Ichki ishlar organlari faoliyatida psixologik-pedagogik ta'sir ko'rsatish mexanizmi

Har qanday huquqbuzarlikning oldini olishda shaxsga ijobiy psixologik-pedagogik ta'sir ko'rsatilmagan ekan, tarbiyaviy ishlarda samaradorlik bo'lmaydi.

Psixologik-pedagogik ta'sir etish usullarini qo'llashdan asosiy **maqsad** – tarbiyalanayotgan shaxslarga yakka tartibda psixologik-pedagogik ta'sir etish orqali ularning ichki ruhiy olamiga ijobiy ta'sir ko'rsatish va jamiyat uchun foydali ishga jalb qilishdir.

Psixologik-pedagogik ta'sir etish mavjud ruhiy-tarbiyaviy usullar yig'indisi emas, balki tarbiyachining tarbiyalanuvchi ongiga ijobiy ta'siri, muomalasidir. Har bir shaxsga psixologik-pedagogik ta'sir etish maqsadli bo'lib, unga erishish uchun mavjud barcha chora-tadbirlar ko'riladi. Shaxslarga yakka tartibda psixologik-pedagogik ta'sir etishda har doim ham ijobiy natijaga erishish mumkin, deb ayta olmaymiz. Chunki ayrim shaxslarda salbiy jihatlari ustun bo'ladi, masalan, janjal chiqarishga moyillik, boshqalarni tushunishni xohlamaslik va hokazo. Pedagogikada huquqbuzarlikning oldini olishning *psixologik-pedagogik ta'sir etish prinsiplari* mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Psixologik-pedagogik ta'sir etishni shaxsning o'ziga xos sifatlarini hisobga olgan holda amalga oshirish.

2. Psixologik-pedagogik ta'sir etish uchun inson psixologiya-sining umumiy qonuniyatlarini va rivojlanish darajasini bilish.

3. Ta'sir etish jarayoni, uning elementlari, oqibatlarini oldindan rejalashtirish va bashorat qila olish.

4. Shaxsning ijobiy ta'sirlanishini rag'batlantirib borish.

5. Ta'sir etishda inson huquqlarini poymol etmaslik.

6. Shaxslarga ta'sir etishni rejalashtirganda barcha xatti-harakatlar tizimini aniqlash va hisobga olish.

7. Shaxsga ta'sir etish jarayonida tashqi ta'sir etuvchi omillarni hisobga olish.

8. Ta'sir etish shaxsning hissiy holatini hisobga olgan holda amalga oshirilishi.

9. Ta'sir etish jarayonida ta'sir yo'llanayotgan shaxsning psixologik faolligini ta'minlash va hokazo.

Huquqbuzarlarga psixologik-pedagogik ta'sir etish quyidagi tomonlari bilan ajralib turadi:

- aniq maqsadga yo'naltirilganligi;

- shaxsga ta'sir etish samaradorligi, imkoniyatining kuchliligi;

- ta'sir etishning qulayligi, ya'ni har qanday vaqtda, joyda, sharoitda olib borishning mumkinligi.

Ichki ishlar organlari xodimlari psixologik-pedagogik ta'sir etish usullari (ishontirish, rag'batlantirish va majburlash)ni qo'llashda ta'lim-tarbiya jarayonining quyidagi tarkibiy qismlariga e'tibor qaratishlari muhimdir:

- tarbiyalanayotgan shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini (temperamet, xarakter, qobiliyat va boshq.) chuqur o'rganish;

- tarbiyalanuvchi shaxs bilan tarbiyaviy profilaktik ishlarni olib borish dasturini tuzish;

- tarbiyalanuvchi shaxsga psixologik-pedagogik ta'sir etishning usuli va vositalarini to'g'ri tanlash;

- olib borilgan tarbiyaviy-profilaktik faoliyat natijalarini muntazam kuzatish va nazorat qilish.

Tarbiya tizimida ichki ishlar organlari xodimlarining psixologik-pedagogik faoliyatini shaxslarning ruhiyatiga og'zaki, yozma va multimedia vositalari orqali ta'sir etish hamda shaxslarning intellektual darajasi va uni rivojlantirishga pedagogik faoliyatni yo'naltirish orqali olib borish yaxshi samara beradi. Huquqbuzarliklarning oldini olish ishlarini tashkil etishning psixologik-pedagogik asoslari haqida to'xtaladigan bo'lsak, avvalo, sodir etilgan huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida ularning toifalarini tavsiflab, har bir guruh yo'nalishiga mos profilaktika ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik biz kattalarning ularni tarbiyalashda yo'l qo'ygan jiddiy xato-larimiz oqibatidir. Shuning uchun ham ruhiy va ma'naviy jihatdan shaxs sifatida shakllanmay qolib, jinoyat sodir etgan yoshlarimizni jamiyatga qaytarish, avvalo, biz – ota-onalar va davlatning zimmasiga tushadi¹.

¹ Qarang: *Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак.* – Т., 2002. – Б. 41.

Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida»gi qonuni qabul qilinishi voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi borasida muhim huquqiy poydevor bo'ldi. Qonunning 8-moddasiga binoan ushbu toifadagi voyaga yetmaganlar bilan profilaktika ishlari quyidagi tizim asosida amalga oshiriladi:

- voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar;
- ichki ishlar organlari;
- ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari;
- sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari;
- vasiylik va homiylik organlari;
- mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari.

Mazkur tizim faoliyatini samarali tashkil etishda mahallaning imkoniyatlari nihoyatda katta.

Voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'yicha inspektorning tarbiyaviy-profilaktik ishlari turli usullarni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Tarbiyaviy ta'sir etish usullari yakka tartib, guruhiy va ommaviy ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

O'z navbatida shuni ta'kidlab o'tish joizki, yakka tartibdagi huquqbuzarlikning oldini olish va shaxslarga psixologik-pedagogik ta'sir etishda ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy jihatdan bunday tarbiyaviy faoliyatga tayyor emasliklari ham ularning tarbiyaviy ta'sir etish usullaridan to'la foydalana olmasliklariga sabab bo'ladi. Bunday hol iloji boricha takrorlanmasligi kerak, agar qayta takrorlansa, keyingi safar tashkil etiladigan tarbiyaviy profilaktik tadbirga fuqarolar kelmasliklari ham mumkin yoki kelganlarida ham ijobiy emas, balki salbiy fikr bilan qaytib ketadilar, o'zlarida tarbiyaning hech qanday ta'sir kuchini sezmaydilar.

Bunday paytlarda tarbiyachi shaxs bilimli, notiqlik san'atini mukammal egallagan (auditoriyani o'ziga jalb qila olishi), amaliy tajribaga ega, auditoriyaning kayfiyatini tez ilg'ay olish xislatlariga ega bo'lishi kerak.

Xodimlar tomonidan tarbiyaviy-profilaktik ishlarni olib borishda kuzatish usuli juda qo'l keladi, chunki birinchi uchrashganlarida xodim doimo o'ziga xos, hech kim bilan tenglashtirib bo'lmaydigan shaxsdek tuyuladi. Ichki ishlar organlarining xodimlari tarbiyaviy-profilaktik ishlarni olib borishda ana shunday to'siqlarni yo'q qila olish san'atini egallaganliklari bilan ham ajralib turishlari lozim. Tarbiyaviy-profilaktik ishlarni olib borishda obyekt bilan subyekt o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri tarbiyaviy ta'sir etish ishlari olib boriladi. Bunda, dastlab tarbiyaviy jarayon ataylab olib

borilmayotgandek tuyuladi, lekin har qanday uchrashuv va tadbirning asosida o'ziga xos tarbiya, ta'sir etish hamda uning elementlari mavjud bo'ladi.

Jinoyatlarning oldini olish ishlari ikki tomonlama – umumijtimoiy hamda pedagogik, ya'ni maxsus tashkil etilgan tadbirlar orqali olib boriladi. Yakka tartibdagi huquqbuzarliklarning oldini olish haqida YU. V. Soloponovning fikri o'ziga xos. Uning fikricha, shaxsning sudlanganligi – bu uning uchun o'ziga xos sinov muddati hisoblanadi, chunki shaxs jazoni o'tab, o'zini erkin hayotga moslashganligini ko'rsata bilishi kerak¹.

Yuqorida to'xtalib o'tganimizdek, yakka tartibdagi huquqbuzarliklarning oldini olish va psixologik-pedagogik ta'sir etishda rag'batlantirish hamda ishontirish usullari muhim hisoblanadi.

Eng asosiysi – shaxslarga ushbu psixologik-pedagogik usullarni qo'llash orqali ichkilikbozlikka, tekinxo'rlikka, shuningdek, jamoat tartibini saqlash va retsidiv jinoyatchilikka qarshi to'la ma'nodagi kurash tadbirlarini amalga oshirish mumkin.

Psixologik-pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari va yo'llari

Yakka tartibdagi huquqbuzarliklarning oldini olish va shaxslarga psixologik-pedagogik ta'sir etishda tarbiya obyekti doimo tarbiyalanuvchi shaxslar, ularning qiziqishi, dunyoqarashi, psixologiyasi va axloqi bo'ladi. Boshqacha aytganda, ichki ishlar organlari xodimlarining tarbiya obyekti alohida shaxslar, bir guruh shaxslar, mehnat jamoalari, oilalar bo'lishi mumkin. Shu o'rinda aytish mumkinki, tarbiyalanuvchilar o'rtasida tarbiyaviy ish olib borishda, eng avvalo, kimga qanday tarbiyaviy ta'sir etish zarurligini bilish kerak, degan fikr mavjud. Ushbu fikr juda to'g'ri va ayni paytda juda dolzarb.

Psixologik-pedagogik ta'sir etish choralarini qo'llashning bevosita ijrochilari qo'yidagilar hisoblanadi:

- fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari;
- yarashtirish komissiyalari;
- xotin-qizlar qo'mitalari;
- davlat korxonalar, muassasalari rahbarlari, xodimlari, jamoat tashkilotlarining a'zolari, jinoyatlar profilaktikasini o'z ijtimoiy burchi sifatida amalga oshiradigan fuqarolar tashkil qiladi.

Psixologik-pedagogik ta'sir etish choralarini samarali yo'lga qo'ya oladigan tarbiyachi ijobiy natijalarga erisha oladi. E'tiborli tomoni shunda-

¹ Солопов Ю. В. Основания профилактического воздействия. – М., 2009. – Б. 54.

ki, shakllanib borayotgan shaxsning psixologik o'ziga xosligini o'rganish va shaxsga psixologik-pedagogik ta'sir etish usuli va vositalari qo'llashda inobatga olinishi kerak. Masalan, muntazam ravishda spirtli ichimlik suiiste'mol qiladigan va shu asosda oilada janjal qo'zg'atadigan shaxs ham, manfaatparastlikka moyil va ishlab chiqarishdagi mayda o'g'riliklar evaziga o'z ehtiyojlarini qondirishdan toymaydigan shaxslar ham pedagogik-psixologik ta'sir choralari muhtojdir. Shu nuqtai nazardan, ularga nisbatan qo'llaniladigan psixologik-pedagogik ta'sir choralari turlicha bo'lishi kerak.

Ta'kidlash joizki, psixologik-pedagogik ta'sir etish choralari individuallashtirish, profilaktik ta'sir ko'rsatilishi lozim bo'lgan shaxslarni aniqlash singari, xulq-atvorni prognozlash (bashorat qilish) asosiga quriladi. Xususan, ilgari firibgarlik harakatlari sodir etgan shaxslar bunday harakatlarni yana sodir etishga juda moyil ekanliklari aniqlangan. O'g'irlik qilganligi uchun sudlangan shaxs ushbu jinoyatni yana sodir etishi ehtimoli juda yuqori. Jinoyatlar profilaktikasi subyektlari bunday qonuniyatni bilgani holda o'z faoliyatlarini «umuman» emas, balki muayyan qilmishlarning oldini olishga qaratishlari kerak.

Yakka tartibdagi tarbiyaviy profilaktik ishlarni amalga oshirishda psixologik-pedagogik ta'sir etish choralari qaysi vazifalarni bajarishga qaratilganligiga va mazmuniga qarab uch toifaga bo'lish mumkin:

- axborot choralari;
- ta'sir choralari;
- nazorat choralari.

*Axborot choralari*ga psixologik-pedagogik ta'sir ko'rsatilishiga muhtoj shaxslarni aniqlash hamda ular bilan ishlashni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plashga qaratilgan choralari kiradi.

Psixologik-pedagogik ta'sir choralari yakka tartibdagi profilaktikaning o'ziga xos o'zagini tashkil qiladi. Aynan ular profilaktika qilinayotgan shaxs ijtimoiylashuvdagi nuqsonlarni bartaraf etish va bu bilan uni jinoyat sodir etishdan to'xtatib qolishga qaratilgan.

*Nazorat choralari*ning vazifasi psixologik-pedagogik ta'sir choralari qanday natijalar berganligini aniqlash va shunga ko'ra ko'rsatilgan tarbiyaviy choralari yetarli deb topish yoxud qo'shimcha ta'sir choralari belgilashdan iborat.

Psixologik-pedagogik ta'sir etish chorasini qo'llash lozim bo'lgan shaxslarni aniqlamay va har tomonlama o'rganmay turib bunday ta'sir ko'rsatilishini rejalashtirish va amalga oshirish ijobiy samara bermaydi.

Psixologik-pedagogik ta'sir etish usullari sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- ishontirish;
- rag‘batlantirish;
- majburlash.

Ishontirish – profilaktika qilinuvchiga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishning asosiy metodi. Tarbiyalash – ishontirishdir. Ishontirish ish va so‘z orqali amalga oshiriladi. Ishontirish usuli sof tarbiyaviy xususiyatga ega bo‘lib, ular profilaktika qilinayotgan shaxsning huquqlarini aslo cheklamaydi. Jinoyatlarning yakka tartibdagi profilaktikasida qo‘llaniladigan odatdagi ishontirish choralariga suhbatlar, jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalaridagi muhokamalar, jamoat tarbiyachilari, murabbiylar tayinlash kabilar kiradi.

Rag‘batlantirish – profilaktik ta’sirning muhim metodlaridan bo‘lib, shaxsning ijobiy qarashlari, xizmatlarini takomillashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Rag‘batlantirish moddiy yoki ma’naviy bo‘lishi mumkin. Rag‘batlantirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad profilaktika qilinayotgan shaxsning ijtimoiy muhit bilan munosabatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va jinoiy niyatidan qaytarishdan iborat. Masalan, profilaktika qilinayotgan shaxsni ishga joylashtirishning o‘zi yetarli emas, unga jamoa bilan til topishi, uning to‘la huquqli a‘zosiga aylanishida ko‘maklashish zarur. Profilaktika qilinayotgan shaxsni guruhning salbiy ta’siridan saqlab qolish uchun uni nafaqat guruhdan ajratib olish, balki unga ijobiy ta’sir ko‘rsata oladigan guruhga kirishishiga imkoniyatlar yaratish zarur bo‘ladi.

Majburlash – profilaktika qilinuvchiga tarbiyaviy ta’sirning istisno tariqasidagi yordamchi usuli. U faqat boshqa usullar samara bermaganida qo‘llaniladi. Jumladan, muqaddam sudlanganlar profilaktik xarakterdagi suhbatlardan xulosa chiqarmay, salbiy xulq-atvorini namoyish etib, huquqbuzarliklarni davom ettirsa, unga nisbatan ma’muriy nazorat o‘rnatiladi, majburiy davolash muassasasiga yuboriladi va hokazo.

Yakka tartibdagi profilaktika ta’siri ostiga tushuvchi shaxsga (obyekt) nisbatan ta’kidlab o‘tilgan usullarni qo‘llashda quyidagilar inobatga olinishi shart:

- 1) birinchi navbatda huquqbuzarlik va jinoyat sodir etishi mumkin bo‘lgan, shuningdek salbiy xulq-atvor va odatlarga ega shaxslarni aniqlash;
- 2) aniqlangan shaxslarni profilaktik hisobga qo‘yish;
- 3) profilaktika qilinayotgan shaxsning ijtimoiy-demografik, axloq normalarining buzilishi, tarbiyaviy jarayoni, boshqa shaxslar bilan munosabati, ma’naviy sifatlari, psixologik jihatlarini har tomonlama o‘rganish.

Pedagogik adabiyotlarda tarbiya usullaridan eng ko‘p tarqalgani mehnat qilishga undash bo‘lib, u mehnatga jalb qilish orqali amalga oshiriladi. Mehnat qilish esa jinoyatlarning oldini olishning o‘ziga xos usuli. Barcha huquqbuzarliklarning asosini bekorchilik tashkil etadi. Shuning uchun ham

yakka tartibda huquqbuzarliklarning oldini olishda ichki ishlar organlari xodimlari doimo diqqat-e'tiborlarini ushbu toifa shaxslarga qaratishlari kerak bo'ladi.

O'tkazilgan psixologik-pedagogik ta'sir choralari samarasi va profilaktik tadbirlarning natijalarini: birinchidan, shaxsning ijtimoiy turmushida ijobiy o'zgarishlarning yuzaga kelishida; ikkinchidan, uning ijtimoiy faolligida; uchinchidan, shaxsning o'zi doimo faol, boshqalarni ham faollikka jalb etishida ko'rishimiz mumkin.

Odamlar bir-birlari bilan munosabatga kirishar ekan, ularning asosiy maqsadlari o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni fikr-g'oyalariiga ko'ndirish, harakatga chorlash, qarashlarini o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. *Psixologik ta'sir* turli vositalar yordamida insonlarning fikr, hissiyot va xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatishdir. Ijtimoiy psixologiyada psixologik ta'sirning uchta asosiy vositasi farqlanadi.

1. *Verbal ta'sir* – so'z va nutq orqali ko'rsatiladigan ta'sir. Bunda asosiy vosita so'z hisoblanadi. Ma'lumki, nutq – so'zlashuv, o'zaro muomala jarayoni bo'lib, uning vositasi so'zlar yig'indisi hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham odam o'zidagi barcha so'z boyligidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarni topib, shaxsga ta'sir ko'rsatishni xohlaydi.

2. *Paralingvistik ta'sir* – nutqni bezovchi, uning ta'sirini kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar majmui. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyatsiya, tovushlar, to'xtalishlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. Shunga qarab, masalan, do'stimiz bizga biror narsani va'da berayotgan bo'lsa, biz uning qay darajada samimiyligini bilib olamiz. Kuyib-pishib, ochiq yuz va dadil ovoz bilan «Albatta, bajaraman!» desa, ishonamiz, albatta.

3. *Noverbal ta'sir* – nutqsiz ta'sir etish. Bunga suhbatdoshlarning bir-birlariga nisbatan tutgan o'rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilish, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib (yoki susaytirib), suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, muloqotdagi xarakterli jihat shundan iboratki, suhbatdoshlar o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatmoqchi bo'lishganda, dastavval nima deyish, qanday so'zlar vositasida ta'sir etishni o'ylaydi. Aslida esa, o'sha so'zlar va ular atrofidagi harakatlar muhim rol o'ynar ekan. Amerikalik mashhur olim Megrabyan formulasiga ko'ra, birinchi marta ko'rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo'lishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38% va noverbal harakatlar 58% gacha ta'sir qilar ekan, keyinchalik bu munosabat o'zgarishi mumkin,

albatta. Lekin xalq ichida yurgan «Ust-boshga qarab kutib olishadi, aqlga qarab kuzatishadi», degan maqol haqiqatga yaqinroq.

Muloqotning qanday kechishi va kimning ko‘proq ta‘sirga ega bo‘lishi sheriklarning rollariga ham bog‘liq. *Ta‘sirning tashabbuskori* – bu shunday sherikki, unda ataylab ta‘sir ko‘rsatish maqsadi bo‘ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida ta‘kidlangan vositalardan foydalanadi.

Agar boshliq ishi tushib, biror xodimni xonasiga taklif etsa, u o‘rnidan turib kutib oladi, iltifot ko‘rsatadi, xol-ahvolini ham quyuqroq so‘raydi va so‘ngra asosiy maqsadga o‘tadi.

Ta‘sirning adresati – ta‘sir yo‘naltirilgan shaxs. Lekin tashabbuskorning suhbatga tayyorgarligi yaxshi bo‘lmasa yoki adresat tajribaliroq sherik bo‘lsa, u tashabbusni o‘z qo‘liga olishi va ta‘sir kuchini qayta egasiga qaytarishi mumkin bo‘ladi.

Yakka tartibda huquqbuzarlikning oldini olishda psixologik-pedagogik ta‘sir choralarining o‘rni beqiyos. Jumladan, jinoyatlar sodir etilishining oldini olish borasida psixologik-pedagogik usullarni amaliyotda qo‘llash mobaynida uni to‘g‘ri tanlash va qo‘llay olish nihoyatda muhim hisoblanadi. Chunki to‘g‘ri tanlangan psixologik-pedagogik ta‘sir ko‘rsatish usullari amaliyotda shaxslarning axloqida ijobiylik yuzaga kelishiga ijobiy ta‘sir etadi. Bunday ijobiylik shaxsning jinoyat sodir qilishi yoki huquq normalarini buzishining oldini oladi, hatto boshqalardan ham jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etmaslikni talab qilish darajasigacha yetadi. «Har qanday aqlli odam kasalni tuzatishdan avval, kasal bo‘lmaslikning harakatini qiladi», degan mashhur hikmat jinoyatga qarshi kurashgandan ko‘ra, sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatning oldini olgan yaxshi, degan fikrni tasdiqlaydi.

Psixologik-pedagogik ta‘sir etish usullari kasbiy faoliyatni tartibga solish bilan birga, shaxslarni har qanday boshqa salbiy harakatlardan ham qaytaradi. Bu jamiyat rivojida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Masalan, jinoiy jazoni o‘tayotgan shaxslar, nafaqat aynan sodir etgan jinoyatlari uchun jazo o‘tayapmiz deb o‘ylaydilar, balki boshqa jinoyat sodir etmaslik, uni sodir etgan shaxsning qilmishi aslo kechirilmasligini ham anglab yetadilar.

Ichki ishlar organlari faoliyatida psixologik-pedagogik ta‘sir etish usullarining o‘ziga xos qonuniyatlari mavjud. Xodimlar jamoat tartibini saqlash faoliyatini tashkil qilishda mahoratli, tajribali psixolog-pedagoglarning yordami va tajribasiga ehtiyoj sezadilar. Ular yakka tartibdagi profilaktik tadbirlardan tashqari, bog‘cha, maktab, bolalar uylarida ham o‘ziga xos pedagogik-profilaktik yo‘nalishdagi tadbirlarni olib boradilar. Profilaktika inspektorlari nafaqat o‘zlarining ma‘muriy hududlaridagi fuqarolarning yoshini, millatini, qiziqishini, hayot tarzini, balki ularning bilim saviyasi va tarbiyalanganlik darajasini ham o‘rganadilar.

Yakka tartibdagi tarbiyaviy-profilaktik ishlarni olib borishda tanlangan psixologik-pedagogik ta'sir etish usullari doim ham o'z samarasini beradi, deyish qiyin. Chunki uning samaradorligi bevosita tarbiyalanuvchining individual xususiyatiga, psixologik holati va psixik jarayonlariga bog'liq. Bundan tashqari, tarbiyasi og'ir, hayot tajribasi faqat salbiy oqibatlar bilan to'la shaxslar ham jamiyatimizda yetarli, bunday shaxslarni qayta tarbiyalash dastlabki tarbiyadan bir necha bor qiyin jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham tarbiya faqat qonunlarga, normativ hujjatlarga suyangan va asoslangan holda olib boriladi deyish butunlay to'g'ri emas, negaki, bu jarayon shaxs va uning faoliyati bilan bog'liq bo'lgani uchun bu yerda, albatta, pedagogik va psixologik nuqtai nazardan shaxsga ta'sir etuvchi turli an'ana va urf-odatlarining ahamiyatini ta'kidlab o'tish kerak.

Huquqbuzarlar bilan yakka tartibda tarbiyaviy ishlarni olib borishda psixologik-pedagogik ta'sir etish usullarini qo'llashda psixologiya va pedagogika fanining prinsiplariga suyaniladi. Bu prinsiplar – determinizm, obyektivlik, to'g'riso'zlik, maqsadga intilish, reja asosida tarbiyaviy ishlarni olib borish, masalaga alohida-alohida va yakka tartibda yondashish, ishonch, qat'iyatlilik asosida talab qilish, yaxshilik qila olish, ishbilarmonlik va hokazo.

Ichki ishlar organlari xodimlari huquqbuzar shaxslarni tarbiyalashda ularning bilim saviyasi, onglilik darajasini hisobga olishishlari zarur. Onglilik esa shaxsning tarbiyalanganlik darajasini ko'rsatadi.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkin: *birinchidan*, ichki ishlar organlari xodimlari yakka tartibdagi huquqbuzarliklarning oldini olishda psixologik-pedagogik ta'sir etish usullarini to'g'ri tanlashi va ularni amaliyotda qo'llay olishlari zarur; *ikkinchidan*, ichki ishlar organlari xodimlari psixologik-pedagogik ta'sir etish usullarini qo'llashda psixologik-fiziologik mezonlarni inobatga olishlari kerak. Bu mezonlar bo'lsa o'z-o'zidan IIO xodimining amaliyotdagi faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Jinoyatchilikning oldini olishda bir qancha vazifalar hal qilinadi. Bu vazifalar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Psixologik-pedagogik usullarning tanlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Huquqbuzarlikning oldini olishda eng qiyin jarayon psixologik-pedagogik tarbiyaviy ta'sir etish usullarini to'g'ri tanlash hisoblanadi. Chunki har qanday tartibdagi tarbiyaviy ta'sir etish o'ziga xos tarbiya usulini qo'llashni talab qiladi.

Tarbiyaviy ishlarni olib borishda psixolog-pedagog nazariyotchilar ilmiy kuzatishlarining ham o'z o'rnini bor. Masalan, amaliyotda tarbiyaviy ishlarni

olib boruvchi ichki ishlar organlari xodimlari qo'llamayotgan usullarni nazariyachilar aniqlashlari va xodimlarga o'sha usullarni qo'llab ko'rishni tavsiya etishlari mumkin.

Huquqbuzarlikning oldini olish asosini tashkil qiluvchi psixologik-pedagogik tarbiyaviy ta'sir etish usullari ijtimoiy munosabatlarga kirishganda o'z kuchini, ta'sirini ko'rsatsagina o'z vazifasini bajaradi.

Psixologik-pedagogik ta'sir etish usullarini to'g'ri qo'llay olish turli shakllarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, huquqiy normalarga rioya qilish, ularni amaliyotda qo'llash. Eng asosiysi, u shaxslarning xatti-harakatida nimalar mumkin yoki mumkin emasligini aniqlab, ko'rsatib beruvchi qurol hisoblanadi;

ikkinchidan, huquqbuzar shaxsning huquqiy normalardan hayotda va amaliyotda foydalanishi, bu esa ularni amaliyotga tatbiq etish deb qaraladi;

uchinchidan, shaxs xatti-harakatlarida ijobiylikni ta'minlash, bu shaxs o'z burchini amalga oshirishida namoyon bo'ladi;

to'rtinchidan, shaxs xulqida huquq normalari va qonunlarni qo'llash madaniyati, bunda qonun chiqarishning o'zi birdan-bir maqsad emas, balki har qanday normativ hujjat kabi huquq normalari ham turmushda to'la ma'noda qo'llanilgandagina o'z natijasini beradi.

Yakka yoki umumiy tartibdagi profilaktik tadbirlarni amalga oshirish hozirgi kunda respublikamizda jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashishda juda qo'l keladi. U jamiyatni huquqiy jihatdan boshqarish qonuniyatiga bo'ysunadi. Qonun buzilishining oldini olish huquqiy normalarga, qonunga to'la rioya qilish orqaligina amalga oshiriladi.

Qonun, aholining talab va istaklaridan kelib chiqib, o'z vaqtida qabul qilinsagina doimo ijroda bo'ladi. Profilaktik tadbirlar ham aholi o'rtasida izchil ravishda olib borilsa, ko'zlangan maqsadga erishiladi. Profilaktik tadbirlarning bajarilishi va profilaktik qonunlarga amal qilinishi doimo davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishga muhtojdir.

Yoshlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishda ularni mehnatsevarlik, sabr-toqat, sabot-matonat, do'stlik va birdamlik ruhida tarbiyalash juda muhim bo'lib, bu oila baxti hamda bola kelajagining mustahkam zaminidir. Shuning uchun ham har bir ota-ona o'z farzandini yoshligidan o'ziga mos ishlarga jalb qilishlari lozim.

Ota-ona bolasining ishini ko'rib, uning qilgan mehnati oila uchun qanchalik foydali ekanligiga baho bersa, bolani mehnat qilishga qiziqtirsa bu ham rag'batlantirish, ham pedagogikada tarbiyaning bir turi hisoblanadi.

Ba'zi ota-onalar tarbiyada o'ta qattiqqo'llikni qo'llab, farzandlariga yaxshi tarbiya bermoqchi bo'ladilar. Bu usul orqali bolalarni tarbiyalash

to'g'ri emas, chunki bunday tarbiyalangan bolalar ota-onaning mehri va erkinlikni sezmasliklari sababli, ko'pincha qo'pol muomalali va chehrasida kulgi bo'lmay, bemehr bo'lib yetishadilar. Bolalarning bunday holati bilan jinoyatning o'rtasi bir qadamni tashkil etadi.

Jinoyatchilikning oldini olish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bir qator vazifalardan tashkil topgan. Shulardan birinchisi, jinoyatchilikning yo'nalishiga, tuzilishiga, darajasiga, sabab va sharoitlariga ta'sir qilish hisoblanadi. Jinoyatlarning oldini olish – bu jinoyatlarning oldini olish subyektlarining jamiyatga zid yo'nalishlari, g'ayriijtimoiy hayot tarzi, salbiy xulq-atvori va odatlari oqibatida jinoyat sodir qilishga moyil shaxslarni aniqlash va ular tomonidan jinoyat xatti-harakatlar sodir qilinishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ularga nisbatan tarbiyaviy va boshqa turdagi ta'sir ko'rsatuvchi chora-tadbirlarni amalga oshirishdir.

Jazoni o'tab qaytgan shaxslar sodir etadigan jinoyatlarning oldini olishda, avvalo, ular bo'sh vaqtlarini qanday, qayerda o'tkazishlari va qanday mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlari o'rganiladi. Shularni o'rganish asosidagina yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlarni olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday shaxslarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etilishiga ichki ishlar organlari xodimlarining yetarli, kerakli darajada e'tibor bermasligi esa tarbiyada kamchiliklarga, eng asosiysi, jazoni o'tab qaytgan shaxslar ustidan o'rnatiladigan nazoratning pasayishiga olib keladi. Bunday hol jazoni o'tab qaytgan shaxslarning jamiyatga zid psixologiyaga ega kishilar bilan umumiy til topishishlariga yordam beradi, bu jarayonni tezlashtiradi.

Jinoyatlarning oldini olish pedagogika, kasbiy psixologiya, pedagogika fanlari bilan uzviy bog'liqdir. Chunki jinoyatlarning oldini olishda dastlabki faoliyat – bu shaxsda endigina jamiyatga zid salbiy yo'nalish kurtaklari shaklanayotgan davrda, shaxsning umuminsoniy, axloqiy me'yorlardan chetga chiqishining boshlanish vaqtida amalga oshiriladi. Me'yorlardan chetga chiqishning oldini olish pedagogika fanining vazifasiga kiradi.

Yakka tartibdagi psixologik-pedagogik ta'sir choralari to'g'ri tanlash va qo'llash huquqbuzarliklarning oldini olishdagi tarbiyaviy profilaktik ishlarining asosini tashkil qiladi.

Uning quyidagi turlari mavjud :

1) umumiy; 2) maxsus; 3) huquqni himoya qiluvchi va huquqni tartibga soluvchi; 4) protsessual; 5) boshqaruvchi.

Yakka tartibda huquqbuzarlikning oldini olish uchun jinoyat va jinoyat-protsessual qonunlarni takomillashtirish zarur. Bu muammoni yuristlar, nazariyotchilar, amaliyotchilar, psixologlar, pedagoglar hamkorlikda hal qilishlari kerak bo'ladi.

Ma'lumki, pedagogik muloqotda asosiy maqsad tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish hisoblanadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishiga bog'liq. Fuqarolar bilan muomala jarayonida ularning gapirishiga sharoit yaratish muhimdir. Mashhur amerikalik notiq, sotsiolog Deyl Karnegi «Yaxshi suhbatdosh – yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir», deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi.

Mutaxassislarning aniqlashlaricha, ishlayotgan odamlar vaqtining 45% tinglash jarayoniga ketar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo'ladiganlar 35–40 % oylik maoshlarini odamlarni «tinglaganlari» uchun olar ekanlar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kommunikatsiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko'proq foyda keltiradi.

Shuning uchun bo'lsa kerak, nemis faylasufi A. Shopengauer: «Odamlarni o'zingiz to'g'ringizda yaxshi fikrga ega bo'lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang», deb yozgan ekan. Darhaqiqat, agar siz kuyunib gapirsangiz-u, suhbatdoshingiz sizni tinglamasa, boshqa narsa bilan ovora bo'laversa, undan ranjiysiz, nafaqat ranjiysiz, balki u bilan aloqani ham uzasiz. O'qituvchi gapirayotgan paytda uni tinglamaslik odobsizlikning eng keng tarqalgan ko'rinishi deb baholanishini bilasizmi? Nima uchun biz ko'pincha yaxshi gapiruvchi, so'zlovchi bo'la olamiz-u, yaxshi tinglovchi bo'la olmaymiz? Psixologlarning fikricha, bunga asosiy xalaqit beruvchi narsa – bu bizning o'z fikr-o'ylarimiz va xohishlarimiz og'ushida bo'lib qolishimizdir. Shu bois ba'zan rasman sherigimizni tinglayotganday bo'lamiz, lekin aslida xayolimiz boshqa yerda bo'ladi.

Tinglashning ham xuddi gapirishga o'xshash texnikasi, usullari mavjud. Ularning turi ham ko'p, lekin asosan biz kundalik hayotda uning ikki usulini qo'llaymiz: *so'zma-so'z qaytarish* va *boshqacha talqin etish*. *Birinchi*, suhbatdosh so'zlarining bir qismini yoki yaxlitligicha qaytarish orqali suhbatdoshni qo'llab-quvvatlashni bildiradi. *Ikkinchi* usul esa suhbatdoshimiz so'zlarini tinglab, undagi asosiy g'oyani o'zimizning talqinimizda ifoda etish. Ikkala usul ham suhbatdosh uchun muhim, chunki u sizning tinglayotganingizni, hattoki undagi g'oyalarga qarshi emasligingizni bildiradi.

Demak, aslida suhbatdosh shaxsi yetakchi, u suhbatning mutlaq hokimi degan tasavvur unchalik to'g'ri emas. Yaxshi tinglashda ham shunday kuch borki, u suhbatdoshni sizga juda yaqinlashtiradi, ishonchini orttiradi. Muloqot jarayonidagi eng qimmatli narsa – bu mantiqiy axborotning o'zi. Tinglayot-

gan suhbatdosh ma'noli, yaxshi dialogdan faqat yaxshi, foydali ma'lumot oladi. Gapirgan esa, aksincha o'zidagi borini berib, gapirmaydigan suhbatdoshdan «teskari aloqani» olib ulgurmay, hech narsasiz qolishi ham mumkin. Shu tufayli, muloqotga o'rgatishning muhim yo'nalishlaridan biri suhbatdoshni faol tinglashga, bunda barcha paralingvistik va noverbal omillardan o'rinli foydalanishga o'rgatishdir.

Professional tinglash texnikasiga quyidagilar kiradi:

Faol holat. Bu, agar kreslo yoki divan kabi mebel bo'lsa, unga bemaolol yastanib yoki yotib olmaslik, suhbatdoshning yuzidan tashqari joylariga qaramaslik, mimika, bosh chayqash kabi harakatlari bilan uning har bir so'ziga qiziqayotganligingizni bildirishni nazarda tutadi.

Suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish. Bu nafaqat suhbatdoshni o'ziga jalb qilib, balki keyin navbat kelganda o'zining har bir so'ziga uni ham ko'ndirishning samarali yo'lidir.

O'ychan jimlik. Bu suhbatdosh gapirayotgan paytda yuzda mas'uliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali o'zingizning suhbatdan manfaatdorligingizni bildirish yo'li.

Agar biz suhbatdoshimizni yaxshi, diqqat bilan tinglasak, bu bilan biz unda o'z-o'ziga hurmatni ham tarbiyalaymiz. Demak, tinglash jarayoni ko'pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas. Muloqotning samarali bo'lishida tinglashning ahamiyati nihoyatda katta. Chunki tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar, g'oyalar shakllanishiga sharoit yaratadi. Ma'ruzachi professorning har bir chiqishi va ma'ruzasini talabalar diqqat bilan tinglasa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi.

Agar muloqot jarayonida ishtirok etuvchi ikki jarayon – gapirish va tinglashning o'zaro ta'sir uchun teng ahamiyatini nazarda tutsak, bu jarayon qatnashchilarining psixologik savodxonligi va muloqot texnikasini egallashining ahamiyatini anglash qiyin bo'lmaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada odamlarni samarali muloqotga ataylab o'rgatishga juda katta e'tibor beriladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Yakka tartibda huquqbuzarliklarning oldini olishda pedagogik ta'sir etish usullari nimalardan iborat?
2. Pedagogik ta'sir etish tushunchasi, uning umumiy tuzilishi va mexanizmlariga ta'rif bering.
3. Shaxsga tarbiyaviy-profilaktik ta'sir etishning qonuniyligi va unga yo'l qo'yilishi bilan bog'liq muammolarni aytib bering.

4. Tarbiyaviy ta'sir etish usullari tushunchasi va ularni ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida samarali qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari nimalardan iborat.

5. Profilaktik xizmat vazifalarini hal etishda majburlash, ishontirish, rag'batlantirish kabi usullarni qo'llash va ulardan unumli foydalanish samaradorligi nimalarga bog'liq?

6. Ichki ishlar organlari xodimlarining huquqbuzar shaxslarga pedagogik ta'sir etishiga qo'yiladigan talablarni ayting.

7. Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan huquqbuzarlar va boshqa shaxslarga ta'sir etishning qanday maqbul usullari mavjud?

4-mavzu. VOYAGA YETMAGAN HUQUQBUZARLAR BILAN ISHLASHNING PEDAGOGIK JIHATLARI VA OILAVIY NOTINCHLIKLARNI OLDINI OLISH

O‘smirlik yoshi va o‘smirlar jinoyatchiligining psixologik xususiyatlari.

Voyaga yetmaganlarning normadan og‘uvchi xulqi bo‘yicha zamona-viy perventiv-korreksion (oldini olish va tuzatish) amaliyot.

Oilaviy notinchlik va uning jinoiy xulq shakllanishiga ta‘siri.

Nosog‘lom, muammoli hamda huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan oilalar bilan ishlashning pedagogik xususiyatlari.

O‘smirlik yoshi va o‘smirlar jinoyatchiligining psixologik xususiyatlari

O‘smirlik yoshi inson shaxsi shakllanadigan davr hisoblanadi. Ushbu bosqichda shaxs nihoyatda o‘zgaruvchan bo‘lib, o‘zini nazorat qilish yetarli rivojlanmaganligi bois, yuzaga keladigan «ijtimoiy turg‘unlik» tufayli jamiyatga moslashuv nuqsonlari g‘ayriijtimoiy qilmishlar ko‘rinishida nisbatan oson namoyon bo‘ladi. Ba‘zan esa barqaror xulq-atvor sifatida mustahkamlanadi, vaqt o‘tgan sari tuzalishi qiyin bo‘lib boradi. Inson o‘z hayotidagi eng jiddiy qarorlarni, masalan, kasb tanlash, oila qurish va shu kabilarni aynan mana shu yoshda, ya‘ni o‘zining hayot tajribasi eng kam bo‘lgan yoshda qabul qiladi. Agar u o‘zi qabul qilgan qarorining keyinchalik muvaffaqiyatsiz deb baholaydigan bo‘lsa, u holda bu ishonchsizlik uning xulq-atvoriga nihoyatda yomon ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘smirlik yoshining klassik tadqiqotlariga nazar soladigan bo‘lsak, unda turli xil nazariyalar, farazlar va fundamental izlanishlar borligini ko‘rish mumkin. O‘smirlik yoshiga xos yorqin psixologik konsepsiyalardan biri XX asrning boshlarida L. S. Vigotskiy tomonidan yaratilgan madaniy-tarixiy nazariya bo‘lib, unda o‘smir psixologiyasidagi barqaror va tarixiy o‘zgaruvchanlik, uning fenomenlariga oid ilmiy konsepsiyalarning interpretatsiyasi berilgan.

O‘smirlik davrining yirik tadqiqotchilaridan yana biri – nemis faylasufi va psixologi E. Shpranger o‘smirlik yoshi qizlarda 14–21, o‘g‘il bolalarda 13–19 yoshlargacha davom etishini, uning birinchi bosqichi 14–17 yoshlarga to‘g‘ri kelib, bu yoshda bolalikdan kutilish sodir bo‘lishini ta‘kidlaydi.

O‘smirlik yoshini «pubertat davr» deb atagan SH. Byuler ishlarida ushbu davrning biologik mohiyati ochib berilgan. Pubertat davr biologik o‘sish davri hisoblanib, jinsiy yetilish o‘z nihoyasiga yetadi, ammo jismoniy

rivojlanish davom etadi. U pubertat davrni ikkiga: psixik va jismoniy davrlarga ajratadi. O'smirning yetilishiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki qo'zg'atuvchilar undagi o'zidan o'zi qoniqish va xotirjamlikni izdan chiqarib, uni o'zga jinsni qidirishga undaydi. Biologik yetilish o'smirni izlanuvchan qilib qo'yadi va uning «men»ida «u» bilan uchrashish istagi tug'iladi. Sh. Byuler psixik pubertatlikni tanadan farqlashga harakat qiladi. Uning fikricha, jismoniy yetilish o'g'il bolalarda o'rtacha 14–16, qiz bolalarda esa 13–15 yoshlarga to'g'ri keladi. Albatta, bunday farqlashlarda shahar va qishloq, alohida mamlakatlar va hatto iqlimning ta'siri ham hisobga olinadi. Pubertatlikning quyi chegarasi 10–11 yosh, yuqori chegarasi 18 yosh bo'lishi kerak. Shu ma'noda o'smirlik yoshi dunyoqarash, e'tiqod, nuqtai nazar, prinsip, o'zligini anglash, baholash va hokazolar shakllanadigan davr hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bola kattalarning ko'rsatmalari yoki o'zining tasodifiy, beixtiyor orzu-istaklari bilan harakat qilsa, o'smir o'z faoliyatini muayyan prinsip, e'tiqod va shaxsiy nuqtai nazar asosida tashkil qila boshlaydi.

O'smirlik yoshining psixologik xususiyatlari alohida namoyon bo'lganda ular «o'smirlik kompleksi» va uning kechishi bilan bog'liq tarz-dagi xulq-atvor buzilishi – «pubertat inqiroz» degan nom oladi. Adabiyotlar tahlilining ko'rsatishicha, mazkur holat ikkiga – «inqiroz» va «stabil» (muqim)ga ajratiladi. Inqiroz holati o'tkinchi xususiyatga ega bo'lib, ularni 1 yosh, 3 yosh, 7 yosh va 13 yoshda ko'rish mumkin. O'smirlik yoshidagi inqirozning keskin o'tish davri 12–16 yosh bo'lib, uning ikki fazasi mavjud va ular negativ (13–14 yosh) va pozitiv (15–16 yosh) deb ataladi. Umuman, o'smir shaxsida juda qisqa vaqt oralig'ida shiddatli, hattoki ba'zan fojiali tarz-dagi o'zgarishlar seziladi. Inqiroz eski va yangi psixologik o'zgarishlarning to'qnashuvi bo'lib, yaxlit holda qaraganda pozitiv qayta qurilishlar xarakterini belgilab beradi. O'smirlik davrining pubertat inqirozlarini konstruktiv baholanishini D. Ye. Elkonin (1972-y.), V. V. Davidov (1974-y.), A. N. Leontev (1975-y.) ishlarida ko'rish mumkin.

O'smir inqiroz doirasiga qirishi bilan uning rivojlanishida psixologik siljishning ayrim o'ziga xos keskin ko'rinishlari: inqiroz boshlanishi va tugashining noaniqligi; tarbiyasida qiyinchilik; rivojlanishning negativ xususiyat kasb etishi kabilar namoyon bo'ladi. Ayrim xorij psixologlari o'smirlik davri inqirozlarining ildizlarini quyidagicha talqin qiladilar.

Masalan, Z. Freydning fikricha, o'zini o'zi sevish, E. Erikson aynanlik inqirozi, E. Doych ijtimoiy omil inqirozi, avlodlar orasidagi nizolar va hokazolarda deb tushuntirishadi.

O'smir shaxsining tarkib topishida axloq, o'ziga xos ong alohida ahamiyat kasb etadi. O'smir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof-muhitga,

ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Chunki o'smirda muayyan narsalarga munosabat shakllangan bo'ladi.

O'smirlarning ko'pchiligi qat'iyatlilik, kamtarlik, mag'rurlik, samimiylik, mehribonlik, dilkashlik, adolatlilik kabi ma'naviy-axloqiy tushunchalarni to'g'ri anglaydilar. Ularning turmush tajribasida, fan asoslarini egallashlari natijasida barqaror e'tiqod va ilmiy dunyoqarash tarkib topadi, shular zamirida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi. O'smirlarning ideallari negizida orzu, maqsad va ularni ro'yobga chiqarish rejalari namoyon bo'la boshlaydi. Muayyan kasbga mayl va qiziqish tug'iladi. Orzu-istaklar rang-barangligi bilan bir-biridan keskin ajralib turadi.

O'smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim xislat – voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Kattalik hissi ijtimoiy-axloqiy sohada, aqliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, ko'ngil ochish jarayonida xulq-atvorning tashqi shakllarida o'z ifodasini topadi. O'smir o'z kuchi va quvvatining chidamliligi ortayotganini va bilim saviyasi kengayayotganligini anglay boshlaydi. Bularning barchasi unda kattalik hissini rivojlantiradi.

O'smirlarning jismoniy o'sishi va jinsiy yetilishi ularning psixikasida keskin o'zgarishlarni vujudga keltiradi. O'quv fanlarining ko'payishi, axborotlar tarmog'ining kengayishi ularning fikr yuritishini jadallashtiradi. Tafakkurning rivojlanishi intellektni qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitadi.

O'smirning eng muhim xususiyatlaridan biri – mustaqil fikrlashidir. Bu esa uning aqliy faoliyatida yangi davr boshlanganini bildiradi.

O'smirlik davrida ular tomonidan sodir etiladigan har qanday xatti-harakat aktlari: aksilijtimoiy xulq-atvor, pedagogik qarovsizlik, moslasha olmaydigan xulq, axloqsiz xulq, deviant xulq, autodestruktiv (o'zini o'zi fosh qilish) xulq va hokazolar o'tish davrining o'ziga xos odat tusiga kirib qolgan tartib shakli sifatida tan olinadi. Ko'pgina adabiyotlar tahliliga ko'ra, IQ (intellekt)ning ko'rsatkich darajasi qanchalik past bo'lsa, tarbiyasi «qiyin»lik darajasi shunchalik yuqori ko'rsatkichga ega. Shu sababli, IQ (intellekt) tarbiyasi «qiyin»lik ko'rsatkichi sifatida ma'lum darajada ijtimoiy ma'no kasb etuvchi psixologik jarayon bilan aloqador¹.

O'smirlarda birinchi jinoiy harakatlarini amalga oshirgunlaricha, dastlab, uydan so'roqsiz chiqib ketish, uyga kelmay qolish, ota-ona va kattalarning pand-nasihatlariga quloq solmaslik kabi odatlarga berilganliklari ma'lum bo'lgan. O'smirlarda uydan chiqib ketish odati ko'pincha 14–15 yosh davriga to'g'ri kelgan².

¹ Qarang: *Тўлаганова Г. К.* Тарбияси қийин ўсмирлар. – Т., 2005. – Б. 19.

² Qarang: *Умаров Б. М.* Ўзбекистонда вояга етмаганлар жиноятчилигининг ижтимоий-психологик муаммолари. – Т., 2008. – Б. 71.

Shu ma'noda o'smir shaxsi g'ayriqonuniy xatti-harakatlarining psixologik mazmun va mohiyatida ularning qarashlari va qiziqishlari yotadi. Psixologik nuqtai nazardan qarashlar inson xulq-atvori hamda uning mazmunini belgilaydi. Shaxsning o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishda faolligini ta'minlashda namoyon bo'ladi va o'smirlarda jinoiy xulqning kelib chiqishida ishtirok etadi. Boshqacha aytganda, o'smirni jinoiy harakatga yo'naltiruvchi ichki kuch vazifasini bajarib, jinoiy xulqning paydo bo'lishiga va uning amalga oshirilishiga xizmat qiladi. O'smirlarda yuzaga kelgan qonunbuzarlik xulqi o'z navbatida uning jinoiy harakatni amalga oshirish davrida qanday nuqtai nazarni egallaganligi, o'smirning huquqiy, axloqiy me'yorlari, umumjamiyat manfaatlarini mustahkamlash va himoyalashga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Bir xildagi pozitsiya (nuqtai nazar) tashqi, axloqiy, huquqiy talab va me'yorlarni, umuminsoniy qadriyatlarni hamda maqsad va vazifalarni mensimaslik, muqarrar axloqiy va ma'naviy e'tiqodning mavjud emasligi hamda muayyan salbiy hissiyotlarning hukm surishi bilan jinoiy xulq-atvorning paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

O'smirlar tomonidan sodir etilgan jinoiy xatti-harakatlarning ixtiyoriy yoki boshqa ta'sirlar asosida amalga oshirilganligi o'rganilganda o'smirlarning 56,48 foizi jinoiy harakatlarni o'z ixtiyori bilan sodir etganligini, 10,64 foizi tengqurlari ta'siri natijasida, 8,24 foizi kattalarning ta'sirida 4,39 foizi yaqin qarindoshlari, 11,84 foizi ilgari sudlangan kriminal xulqli kishilar ta'siri natijasida sodir etilganligi kuzatilgan¹.

Jinoiy harakatlarni sodir etish niyati o'smirlarda muayyan vaziyatlarining ta'siri natijasida to'satdan paydo bo'lishi kuzatilgan. Bunda o'smirlarning yosh xususiyatlari, qat'iy hayotiy qarashlarining mavjud emasligi, axloqiy va huquqiy me'yorlarning shakllanmaganligi sabab bo'ladi. O'smirlik yoshiga xos hissiy beqarorlik, qo'zg'aluvchanlik, tez ta'sirlanuvchanlik xususiyatlari va yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni to'g'ri baholay olish qobiliyatining yetishmasligi, o'ylagan niyatlarini amalga oshirish hissining kuchliligi ularda g'ayriqonuniy harakatlarni amalga oshirish to'g'risidagi niyatlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

O'smir nima uchun jinoyatchi bo'lib qolganligini anglab yetish uchun eng avvalo uni qurshab olgan ijtimoiy muhit, shart-sharoit va uning o'smir shaxsiga qanday ta'sir etganligini tahlil qilish lozim. Ichki psixologik sabablar, salbiy shaxs sifatlar, ya'ni noqonuniy xulq, qat'iy hayotiy maqsadlarning yo'qligi, tashqi salbiy muhit va oilada tarbiyaning yaxshi emasligi o'smirde jinoiy xulqning shakllanishiga qulay imkoniyat yaratadi.

¹ Qarang: Умаров Б. М. Ўзбекистонда вояга етмаганлар жиноятчилигининг ижтимоий-психологик муаммолари. – Т., 2008. – Б. 163.

O'smirlarda jinoiy xulqning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi bir qator ijtimoiy-psixologik omillar mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

– ota-onalar, pedagoglarning bolalar va o'smirlarning yosh hamda individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olmasliklari yoki psixologik savodsizlik;

– oilada noaxloqiy munosabatlar va nosog'lom psixologik muhitning mavjudligi, oilaviy nizolarning ko'pligi hamda oilada bolaga nisbatan e'tiborning pastligi.

– maktab jamoasining, pedagoglarning o'smirlar o'rtasida yuzaga kelgan nizoli, muammoli vaziyatlarga barham berishda nomaqbul usullarni qo'llashlari;

– referent guruhlarining bolalar va o'smirlarga salbiy ta'sir etishi;

– o'smirlarning bo'sh vaqtlarini tartibsiz va mazmunsiz o'tkazishlari¹.

Shu sababli, har bir yosh davrida noaxloqiy yoki jinoiy xulq motivlari o'ziga xos tarzda bir-biridan farqlanishini hisobga olish kerak bo'ladi.

O'smirlarning jamiyatga zid xulq-atvor tushunchasini tahlil qilar ekanmiz, uning quyidagi ko'rinishlariga alohida e'tibor berishimiz kerak:

1) jamoat tartibi va axloqiy talablarni buzish (noaxloqiy xulq-atvor);

2) turli xildagi mayda qonunbuzarliklar (qonunga xilof xatti-harakat);

3) qonuniy talablarni buzish, jinoyat sodir etish (jinoiy xatti-harakat) kabilar.

Jamiyatga zid xulq-atvorning barcha turlari bir-biri bilan uzviy bog'liqligini kuzatish mumkin. Shuning uchun huquqbuzarliklarning oldini olish samaradorligini oshirish, unga sharoit yaratayotgan, jamiyatga ziyon yetkazayotgan sabablar bilan kurashni kuchaytirish davr talabidir.

Voyaga yetmagan jinoyatchi shaxs shakllanish yo'lining birinchi bosqichi tarbiyasining og'irligidadir. Tarbiyasi og'irlikning ijtimoiy ildizlarini bolaning oilasi va uni o'rab turgan muhitdan izlash lozim. Tarbiyasi og'ir o'smir o'z qilmishlarni tashqi ta'sir ostida amalga oshiradi. Uning xatti-harakatlari o'zgarishi muhitga bog'liq. Bu yerda huquqbuzarliklarning oldini olishning umumiy subyektlari (o'quv muassasalari, mahalla, keng jamoatchilik) tarbiyaviy ta'sirining o'z vaqtida bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Voyaga yetmagan shaxslar nafaqat dars jarayonida, balki darsdan tashqari vaqtlarda ham ota-onalarining nazorati va tarbiya ta'siri ostida bo'lishlari kerak. Tahlil etilgan ijobiy natijalar shundan dalolat beradiki, qayerda pedagogik jamoalar bunday javobgarlikni o'z zimmalariga olib,

¹ Qarang: *Алемаксин М. А. Психолого-педагогические проблемы предупреждения педагогической запущенности и правонарушений несовершеннолетних. – Воронеж, 1982. – С. 94.*

o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etgan bo'lsa, o'sha yerda qonunbuzarliklar juda kam sodir etiladi.

Oila hamda o'quv-tarbiya muassasasi nazoratidan chetda qolish yoshlarda javobgarlik hissini sezmaslik va beboshlikni yuzaga keltiradi. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olishning zamonaviy sharoitida asosiy diqqat-e'tibor ular tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini oluvchi dastlabki profilaktika masalalariga qaratilgan bo'lishi kerak.

Voyaga yetmaganlar bilan amalga oshiriladigan profilaktik choralar umumtarbiyaviy, jinoiy va qonuniy choralar ta'sirini birlashtiruvchi omil hisoblanadi. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishning bosh mezonini shaxsning yoshligidan buzilmasligini ta'minlashda va undagi ayrim salbiy ko'rinishlarni o'z vaqtida to'g'rilab, kelgusidagi sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarning oldini olishdan iboratdir.

Hozirgi paytda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish dolzarb muammolardan biridir. Chunki kelajakning davomchilari aynan o'sib kelayotgan yosh avlodidir, ular davlatning kelajagini belgilaydi. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish uchun, avvalo, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash va bartaraf etish maqsadga muvofiqdir. Buni amalga oshirishda joylarda umumiy profilaktikadan unumli foydalanish va yoshlar tarbiyasiga bevosita mas'ul shaxslar va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni yaxshi yo'lga qo'yish ijobiy natijalarni beradi.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik – nazoratsiz, qarovsiz qoldirish demakdir. Aksariyat voyaga yetmaganlar nazoratsizlik oqibatida jinoyat yo'lga kirishi ma'lum. Voyaga yetmaganlar nazoratsizligining oldini olish uchun, birinchi navbatda, ular tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning ijtimoiy va psixologik tomonlarini mukammal o'rganish talab etiladi.

Voyaga yetmaganlarga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, bunday xususiyatlar ularning axloqida, xatti-harakatlarida va jamoa o'rtasidagi munosabatlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ular tomonidan turli ko'rinishdagi huquqbuzarliklar sodir etilishida voyaga yetmaganlarning psixologik tuzilishi ham asosiy o'rinni egallaydi.

Har bir profilaktika inspektori o'z hududida voyaga yetmaganlarning soni, ular haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishlari uchun fuqarolar va ota-onalar bilan hamkorlikdagi ishlarni yaxshi yo'lga qo'ysalar natijalar ham ijobiy bo'ladi. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olishda profilaktika inspektorlari tarbiyaning turli usul va shakllardan foydalanadilar. Profilaktika inspektori umumiy va yakka tartibdagi profilaktik ishlarni normativ-huquqiy hujjatlarga binoan va alohida reja asosida amalga oshirishlari kerak.

Umumiy profilaktikada ogʻzaki, koʻrgazmali va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, shuningdek oʻquv yurti jamoalari, yoshlar bilan ishlashga masʼul tashkilotlar bilan hamkorlik yaxshi samara beradi. Bu borada ichki ishlar organlari xodimlari tashkilotlar bilan oʻzaro fikr va maʼlumotlar almashishlari, profilaktik faoliyatni olib borishda talab va ehtiyojlarni inobatga olishlari maqsadga muvofiqdir.

Yakka tartibdagi profilaktika faoliyati asosan avval jinoyat, huquqbuzarlik sodir etgan va jinoyat sodir etishga moyil voyaga yetmaganlar ongida ijobiy xislatlarni shakllantirishga qaratiladi. Bu jarayonga psixologlarni jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishda yakka profilaktik choralar tarbiyasi ogʻir va huquqbuzarlik sodir etishga moyil voyaga yetmaganlarga, voyaga yetmaganlar tarbiyasiga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi yoshi katta shaxslarga va voyaga yetmagan farzandlarining tarbiyasi bilan shugʻullanmaydigan ota-onalar hamda ularning oʻrnini bosuvchi shaxslarga nisbatan olib boriladi. Ularga nisbatan voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish boʻlimlarida profilaktik hisob yuritiladi, profilaktika inspektorlari esa ular haqidagi maʼlumotlarni yigʻadi va MTP pasportiga ularning roʻyxatini kiritadi.

Voyaga yetmaganlar, ularning tarbiyasi bilan shugʻullanmaydigan ota-onalarni profilaktik hisobga olishda IIB boshligʻining qarori, sud organlari ajrimi, tergov organlari qarorlari, hokimliklar qoshidagi «Voyaga yetmaganlar ishlari bilan shugʻullanuvchi komissiyalar»ning qarorlari asos boʻladi.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olishda profilaktika inspektorlari ijobiy natijalarni qoʻlga kiritishlari va samaradorlikka erishish uchun voyaga yetmaganlar bilan bevosita tarbiyaviy ishlarni yuritishga masʼul boʻlgan boshqa subyektlar bilan oʻzaro hamkorlikni yaxshi yoʻlga qoʻyishlari kerak.

Tahlillarning koʻrsatishicha, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning oldini olish va unga qarshi kurashda, birinchi navbatda, oila axloqini qadriyatlarimizga moslashtirish kerak boʻladi.

Tadqiqotlar natijasiga koʻra, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining 47% ota-onaning salbiy taʼsiri yoki befarqligi natijasida, 14,8 % oilada hamjihatlikning yoʻqligida va 23,5 % kattalarning loqaydligi tufayli sodir etilishi kuzatilgan¹.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olish muammosi na faqat respublikamizda, balki dunyo miqyosida ham dolzarb boʻlib turibdi. Sodir etilgan qilmishning sabab va motivi, uning vujudga kelish shart-

¹ Qarang: Душанов Р. Х. Жиноятчи шахс психологияси. – Т., 2011. – Б. 37.

sharoitlari, shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlash huquqbuzarliklarni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chiqarilgan adolatli hukm aybdorni qayta tarbiyalash va ijtimoiy jihatdan tuzalishida alohida ahamiyatga egadir. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning oldini olishda samarali usullarni qo'llash, ya'ni ularning bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishlarini ta'minlash, kasbga o'rgatish, o'quv muassasalariga joylashtirish, hunar va bilim egallashlarini ta'minlash ishlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar jamoat tashkilotlari, maktab, o'quv muassasalari va boshqa davlat organlari bilan hamkorlikni to'g'ri tashkil etish, profilaktik chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish zarur.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishda quyidagi sabab va sharoitlarni bartaraf etishga e'tibor qaratish lozim:

1) o'smir shaxsining shakllanishiga salbiy ta'sir qiluvchi sabablarni bartaraf etish;

2) voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishiga imkon beruvchi sabab hamda shart-sharoitlarni bartaraf etish;

3) voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi retsidivlashishining oldini olish.

Respublikamizda yosh avlodni tarbiyalash masalasiga huquqiy tartibni mustahkamlash sohasidagi asosiy vazifalardan biri sifatida alohida e'tibor qaratiladi.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarni umumiy profilaktikasida tarbiyaviy choralar, yakka (individual) profilaktikasida esa boshlang'ich profilaktika choralari yetakchi o'rinda turadi. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari umumiy profilaktikasi to'rtta asosiy subyekt tomonidan, ya'ni oila, maktab, mehnat jamoasi va turar joyda olib boriladi. Bu subyektlar profilaktikasi-ning mazmuni doimiy ravishda bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak.

Profilaktika inspektorlari tomonidan voyaga yetmaganlarni turli to'garaklarga jalb etish, ular o'rtasida sport musobaqalarini tashkil etish kabi ishlarni yo'lga qo'yish voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishda samarali natijalarni beradi.

Huquqiy tarbiya murakkab jarayon bo'lib, yoshlar ongida faqat javobgarlik hissini emas, balki qonunlarni tushunib yetish va ularni hurmat qilish ruhini shakllantirishni taqozo etadi. Bu boradagi ishlarni amalga oshirishda umumta'lim muassasalari asosan profilaktika inspektorlarining ko'magiga suyanadilar.

Mehnat jamoasida esa yosh avlodni mehnatga, jamoaga bo'lgan mehrini kuchaytirish, uning to'laqonli a'zosi ekanligini his etishiga ko'nikma hosil qildirish juda muhimdir. Bunda mehnat jamoalari ma'muriyati-

ning o'rnini beqiyosdir. Ularning voyaga yetmaganlarga mehnat qonunchiligiga binoan imtiyozlar yaratishi, o'qish uchun sharoitini yetarli ta'minlashi yoshlarning jamoaga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi va qonunlarga hurmatini yanada oshiradi. Bu boradagi ishlarda ham mehnat jamoalari profilaktika inspektorlarining ko'magiga suyanishlari maqsadga muvofiqdir. Chunki ba'zi holatlarda mehnat jamoalari bilan profilaktika inspektorlari huquqbuzarlik yoki muqaddam jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarni ishga joylashtirish, kasbli qilish borasida hamkorlik qiladilar.

Shuningdek, profilaktika inspektorlari «Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari», barcha manfaatdor tashkilot va muassasalar, jumladan ta'lim, mehnat va bandlik, oila va yoshlar, ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport qo'mitalari, prokuratura, sud, adliya, vasiylik va homiylik organlari, narkologik dispanserlar bilan aloqalarini yanada yaxshilashi va hamkorlikdagi faoliyatlarini samarali amalga oshirishlari voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olishda muhim omil sanaladi.

Voyaga yetmaganlarning normadan og'uvchi xulqi bo'yicha zamonaviy perventiv-korreksion (oldini olish va tuzatish) amaliyot

Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning oldini olish va ularni qayta tarbiyalashda psixologiya va pedagogika fanlarining o'rnini va roli beqiyos. Psixologik-pedagogik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, profilaktik chora-tadbirlarni yaxshilash orqali har 10 ta jinoyatdan 7 tasining oldini olish mumkin ekan. Jinoyatchilikning oldini olish, ayniqsa, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish masalasiga har qachongidan ham ko'proq e'tibor qaratilishini davrning o'zi talab qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi 2016-yil 24-avgust, «Xuquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi 2014-yil 14-may va «Voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining profilaktikasi to'g'risida»gi 2010-yil 29-sentabr qonunlarida voyaga yetmagan huquqbuzarlarga maxsus tarbiya muassasalarida ijtimoiy yordam ko'rsatish zarurligi o'z aksini topgan.

Shu ma'noda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda eng avvalo jinoiy xulqning ijtimoiy-psixologik, pedagogik va kriminologik xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

Voyaga yetmaganlarda ilk marotaba jinoiy xulq og'ishlarining kelib chiqishi haqida atoqli psixolog olim L. V. Vigodskiy juda to'g'ri fikrni bildirgan. Uning fikricha: «Tarbiyasi qiyin o'smir shaxsi tuzilishining murakkabligi tabiiy ravishda berilmagan, aksincha, ijtimoiy turmush

voqea-hodisalari, shaxslararo munosabatlar nosogʻlomligidan kelib chiqadi. Shaxs va jamiyat oʻrtasidagi nizolar, taʼlim-tarbiya tizimida yoʻl qoʻyilgan kamchiliklar tarbiyasi qiyin oʻsmirlarni shakllantiradi»¹.

Tadqiqotchi T. I. Korotkova voyaga yetmaganlarda jinoiy xulq hamda ushbu xulqning psixologik mexanizmlari oʻrtasidagi bogʻlanishni aniqlashga harakat qiladi va voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi motivlarini quyidagi guruhlariga boʻlib koʻrsatadi:

1) yosh davri xususiyatiga xos jismoniy faollikning oʻsishi (har narsani urush-janjalga taqash);

2) salbiy xarakterga ega boʻlgan vaziyatli hissiy kechinmalar va shu kechinmalarga bogʻliq holda namoyon boʻladigan va uning yoʻqolishi bilan barham topadigan boshqa holatlar;

3) salbiy hayotiy sharoitlarning uzoq muddatli taʼsir etishi natijasida paydo boʻladigan salbiy kechinmalar.

Gʻayriijtimoiy xulqning psixologik manbalari sifatida tadqiqotchi bolalar va oʻsmirlarda irodaviy va axloqiy sifatlarning qatʼiy shakllanmaganligi tufayli oʻzlarining hissiyotini jilovlay olmasliklarini keltirib oʻtadi².

Voyaga yetmaganlarning jinoyat yoʻliga kirib qolish sabablarini oʻrganish boʻyicha oʻtkazilgan tadqiqot soʻrovi natijalariga koʻra, «umumiy hisobda taxminan 30 foizi ota-ona, 25 foizi maktab, 20 foizi ichki ishlar organlari, 25 foizi televideniye, videoni aybdor deb javob berganlar»³. Vaholanki, «51,1 foiz holatlarda voyaga yetmaganlarning ota-onalari, doʻstlari, 27,2 foiz holatlarda oʻqituvchilar, 22,4 foiz holatlarda qoʻni-qoʻshnilari ularning yomon ishlar bilan shugʻullanayotganliklarini bilganlar. Ammo ularga qonuniy chora koʻrish yuzasidan hech qanday ish olib bormaganlar»⁴.

Voyaga yetmaganlar orasida salbiy axloqiy sifatlarni shakllantiruvchi qoʻyidagi omillar mavjud:

1) oilaning taʼsiri (muhit, qoʻpollik, ichkilik ichish va hokazo);

2) atrofdagilarning taʼsiri (oʻqishiga, turmush tarziga va hokazo);

3) boʻsh vaqtning koʻpligi, foydali mehnat bilan shugʻullanishni xohlamasligi;

¹ *Выготский Л.С.* Развитие высших психологических функций. – М., 1967. – С. 169.

² *Короткова Т.И.* К вопросу о причинах антиобщественного поведения людей и подростков. – М., 1988. – С. 367.

³ *Тоҳир Малик.* Жиноятнинг узун йўли (Ким айбдор?). – Т., 2004. – Б. 14.

⁴ *Зарипов З.С.* Вояга етмаганларнинг гуруҳий жиноятчилиги ва унинг олдини олишга қаратилган айрим чоралар // Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши кураш фаолиятини такомиллаштириш: Илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2001. – Б. 18–21.

4) G'arb madaniyatining turmush-tarziga ta'siri.

Voyaga yetmaganlar orasida kriminogen vaziyatlarni shakllantirishga ta'sir qiluvchi omillar:

- nazoratning uzoq vaqt yo'qligi;
- balog'at yoshiga yetmaganlar nazoratidagi sustkashlik;
- o'quv-tarbiyaviy ishlardagi e'tiborsizlik;
- ishga joylashtirish va tarbiyadagi sustkashlik;
- ichki ishlar organlari xodimlarining balog'at yoshiga yetmaganlar orasida olib boradigan ishlaridagi kamchiliklar.

Shu nuqtai nazardan voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tabiatini tushunish uchun avvalo ularning boshlanish davrini, uning obyektini hamda jinoiy xulqqa ega shaxsga qanday ta'sir ko'rsatish kerakligini bilib olish talab etiladi. Ushbu masalani yechish uchun tabiiy ravishda shaxsning ko'rsatayotgan vajiga aloqador ma'lumotlardan foydalanishga to'g'ri keladi. Jinoiy xulq qaysidir ma'noda shaxsning umumiy yo'nalishi va vaziyat o'rtasidagi o'zaro aloqaga bog'liq bo'ladi. Voyaga yetmaganlar shaxslarda xulq og'ishlari va jinoyatchilik o'z motivi mazmuniga ko'ra «anglanmagan motiv», «moddiy-maishiy sharoitga o'chlik va ochko'zlik», «do'stlar oldida obro' orttirish», «qasos va o'ch olish», «o'zini ko'rsatishga intilish» asosida sodir etilayotganligi kuzatiladi.

O'z navbatida, voyaga yetmaganlarda normadan og'uvchi xulq jarayoni shaxs xususiyatlari bilan tashqi muhit voqea-hodisalari o'rtasidagi murakkab bog'lanishli holat hisoblanadi. Bu jarayonda o'smir shaxsi subyekt sifatida tashqi muhit axborotlarini qabul qiladi va qayta ishlaydi. Obyekt sifatida esa tashqi muhit voqea-hodisalari shaxsga ta'sir etuvchi element sifatida ifodalanadi.

Voyaga yetmaganlarda normadan og'uvchi xulq-atvor deganda, jamiyatda o'rnatilgan tartib-intizom, qonun normalariga rioya etmasdan o'zi anglagan va anglamagan holda bu tartib-qoidalarni buzish tushuniladi.

Voyaga yetmagan shaxslarda normada og'uvchi xulqning namoyon bo'lishi:

- 1) boshqalar oldida o'zining kuchliligini namoyish etish (jismoniy jihatdan);
- 2) o'zgalarni (tengqurlarini) kamsitish;
- 3) o'zlarini salbiy tomonlarini, «men»ligini ataylab namoyish etish;
- 4) jamoat ishlarida qatnashmasligi va o'qimasligini ko'z-ko'z qilish.

Voyaga yetmaganlar orasidagi normadan og'uvchi shaxslar spirtli ichimliklarga, chekishga, oiladan chiqib ketishga, oilaviy janjallarga moyil

bo'ladilar. Bunday shaxslarni tarbiyalashda profilaktik ishlarni tashkil qilish shart, bu quyidagi profilaktik tadbirlar shaklida bo'lishi mumkin:

- xulqida normadan og'ishga moyilligi bor shaxslarni maktabda, jamoat joylarda o'zini namoyon qilishiga yo'l qo'ymaslik;
- profilaktika inspektori bilan maktab, litsey ma'muriyati o'rtasidagi hamkorlik bir tizimga ega bo'lishi;
- normadan og'ishga moyilligi bor shaxslar doimo nazorat ostida bo'lishi;
- huquqbuzarlikka moyilligi bor, ma'muriy nazoratdagi shaxslar bilan profilaktik ishlar olib borish;
- yakka tartibda profilaktik-tarbiyaviy ishlarni olib borish;
- ishontirish ishlarini majburlash ishlaridan ustun qo'ya olish;
- xulqida og'ishni yuzaga keltiradigan omillarni o'rganish va bartaraf etish zarur.

Jinoyatchilik xulqiga ega voyaga yetmaganlar o'rtasida olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini oshirishda ularda faol hayotiy nuqtai nazarlarni shakllantirish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida o'zaro yaqinlik va sog'lom psixologik muhitni yaratish lozim. Chunki xulq og'ishining kelib chiqishida shaxsning individual-psixologik xususiyatlarining o'rni kattadir.

Shu ma'noda jinoiy xulq xususiyatlariga ega bo'lgan voyaga yetmaganlar bilan olib boriladigan pirokkorreksion (tuzatish) ishlarni ularning ongi va ma'naviy dunyoqarashini o'zgartirishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Ya'ni uning xulq-atvoridagi salbiy illatlarga nisbatan mustahkam immunitetni shakllantirish zarur. Bu o'smirni ongli ravishda salbiy xatti-harakatlardan tiyadi.

Profilaktik tadbirlar huquqbuzarlikning ijtimoiy xavfliligiga qarab olib boriladi va shunga qarab pedagogik ta'sir etish usullari tanlanadi. Masalan, huquqbuzarlik yo'nalishini o'zgartirish mumkin. Buning uchun turli tarbiyaviy vositalardan foydalaniladi, maqsad ularning xatti-harakatida ijobiylikni yuzaga keltirishdir. Huquqbuzarlik yo'nalishini ijobiy tomonga yo'naltirishda guruhdagilar o'rtasidagi munosabat o'zgartirilmaydi, balki asta-sekin javobgarlik hissi shakllanadi, qo'pollik asta-sekinlik bilan yo'qolib boradi.

Voyaga yetmagan huquqbuzarlarga ta'sir ko'rsatishning quyidagi to'rtta asosiy usuli mavjud:

- 1) guruh yetakchisiga ta'sir qilish orqali;
- 2) guruhga ta'sir qiluvchi so'zga ustomon shaxs orqali;
- 3) jamoa orqali;
- 4) jamoadagi hurmatli, obro'-e'tiborli shaxslar orqali.

Voyaga yetmaganlarda normadan og‘uvchi xulqning oldini olishda yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlarning, ayniqsa, huquqiy, axloqiy, mehnat, vatanparvarlik ishlarining roli katta. Xulqida og‘ish bo‘lgan shaxslarda ko‘proq guruh-guruh bo‘lib huquqbuzarlik sodir etishga moyillik kuchli bo‘ladi. Shuning uchun bu guruhlar orasida «yetakchilarni» aniqlash va ularning soxta «obro‘»lilarini fosh qilish kerak.

Voyaga yetmaganlar orasida yakka profilaktik suhbatlar olib borishda ularning psixologiyasiga xos qo‘yidagi fazilatlarga e‘tiborni qaratish kerak: tez xafa bo‘lib qolishi, xavotirga tushib qolishi, qasos olishga moyilligi, o‘jarligi, boshqalarga o‘xshashga harakat qilishi va hokazo.

Voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishda qo‘yidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

1) voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi asosan 14–17 yoshga to‘g‘ri kelayotganligini inobatga olib, aynan shu yoshdagi shaxslar o‘rtasida hamda ular o‘qiydigan ta‘lim muassasalarida profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish;

2) voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi asosan tungi soat 22–23 va undan keyingi vaqtlarda amalga oshirilayotganligini inobatga olib, nazoratni kuchaytirish;

3) normadan og‘ish, jinoiy xulqqa ega voyaga yetmagan shaxslarda ruhiy beqarorlik, o‘zgaruvchanlik, affekt holatiga moyillik xususiyatlarining yaqqol ifodalanganligidan kelib chiqib, ular shaxsini sog‘lomlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunda ular yashayotgan oila va ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish, shaxslararo sog‘lom munosabatni vujudga keltirish ishlarini olib borish;

4) kriminogen xulqli oilalarni aniqlash, ularda tarbiyalanayotgan bolalar va o‘smirlar ahvolidan xabardor bo‘lish;

5) profilaktika inspektori orqali ko‘chadagi muhitga ta‘sir qilish.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, voyaga yetmaganlarda muloqotga ishtiyoq baland bo‘ladi. Bunday holatda voyaga yetmaganlarga obro‘li odamlarning ta‘siri yuqori bo‘lishi mumkin.

Profilaktik tadbirlarda eng qiyini voyaga yetmagan shaxslarda o‘zini o‘zi tarbiyalash hissini uyg‘otishdir. Chunki o‘zini o‘zi tarbiyalash oldingi salbiy xatti-harakatiga qarshi borishdir. O‘zini o‘zi tarbiyalash vaqt, eng asosiysi, iroda talab qiladi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «bizning kelajagimiz, eng katta ishonchimiz, madad tayanchimiz – bu o‘zimiz kelayotgan yosh avlodidir. Men o‘zimiz taqdirimni ham, mamlakatimiz va mustaqilligimiz taqdiri va kelajagini ham ana shu yoshlar qiyofasida,

ularning pok qalbi, erkin tafakkuri, mustahkam irodasi va dunyoqarashida ko‘raman»¹, degan so‘zlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy notinchlik va uning jinoiy xulq shakllanishiga ta’siri

Oiladagi nosog‘lom ijtimoiy-ruhiy muhit nafaqat zo‘ravonliklarni, balki og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarning sodir etilishini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Zero, «hech kim onadan jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi. Jinoyatchilik nomaqbul ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy muhitdagina ildiz otishi mumkin»².

Ma’lumki, oiladagi nosog‘lom ijtimoiy-ruhiy muhit sabablarini o‘rganish borasida turli davrlardan boshlab har xil soha mutaxassislari tomonidan qator tadqiqotlar olib borilgan. Bu muammoga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar esa, asosan, har bir millat mentaliteti, o‘sha jamiyatda ustuvor bo‘lgan oilaviy qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlar doirasida turli tadqiqotlarning predmeti bo‘lib kelgan. Oilada tarbiyalanayotgan farzandlarning shakllanishi oila a’zolari o‘rtasida vujudga keladigan barqaror, sog‘lom ijtimoiy munosabatlarga bog‘liq.

Professor G‘. B. Shoumarov ilmiy izlanishlarida oila va oilaviy munosabatlardagi nosog‘lom psixologik muhitning bola xulqi-atvoriga ta’siri, xulq og‘ishining kelib chiqishida shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, ruhiy tanglik va affektiv holatlarning bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga ta’siri masalasi batafsil yoritilgan. Olimning ta’kidlashicha, oiladagi nosog‘lom psixologik muhit nafaqat er-xotin o‘rtasidagi nizolarni, balki bolalar ruhiyatidagi, xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni ham keltirib chiqaradi. Oilada ota-onalarning o‘z hayot tashvishlari bilan bo‘lib, bolalar faoliyatini nazorat qilmasliklari hamda ularni ijtimoiy foydali faoliyatga yo‘naltirmasliklari bolalarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, oilaviy tarbiyaning ta’sirchanlik roli, ota-onaning shaxs sifatida ibrat ko‘rsata olmasligi, ularning noaxloqiy xulq-atvoriga ega bo‘lishlari bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga sabab bo‘ladi³.

Ta’kidlash joizki, shaxsning ma’naviy shakllanishi, inson shaxsining poydevori oilada quriladi. Inson o‘zini o‘rab olgan dunyo to‘g‘risidagi

¹ *Каримов И. А.* Миллат кудрати – ҳамжихатликда // Халқ сўзи. – 1999. – 27 март.

² *Каримов И. А.* Бунёдкорлик йўлидан. Т. 4. – Т., 1996. – Б. 147.

³ Qarang: *Шоумаров Ф. Б.* Вояга етмаган жиноятчилар билан ишлашнинг психологик масалалари // Таълим тизимида психологик хизмат: муаммолар, ечимлар. – Термиз, 2002. – Б. 7–9.

dastlabki bilimni, yaxshi va yomon axloq normalari haqidagi dastlabki tasavvurni, birinchi tarbiyaviy saboqni oilada oladi, shaxs sifatida dastlabki qadamni oilada qo‘yadi. Shuning uchun inson tarbiyasi u tug‘ilgan kundan boshlanmog‘i lozim. Chunki oila bolaga muayyan g‘oyaviy-siyosiy qarashlar asoslarini singdiradi. Bola oilada axloq normalarini bilib oladi va ularni o‘zlashtiradi. Undagi dastlabki ko‘nikmalar va xulq-atvor namunalari oilada shakllanadi hamda bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma‘naviy mezon va qarashlar — yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Shunday ekan, tarbiyaning asosiy o‘zagiga oilada poydevor quriladi va bu tarbiya uning butun umri davomida berilgan boshqa ta‘lim-tarbiyaga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Tadqiqotchi M. Yo‘ldoshevning fikricha, «tarbiyadan gap ochishdan ilgari oila va undagi ruhiy muhit haqida gap yuritish lozim bo‘ladi»¹.

Ma‘lumki, oiladagi muhit shaxsning shakllanishida o‘zining ijobiy yoki salbiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Buni ortiqcha izohlashga hojat yo‘q, negaki hayot sinovlari buni ko‘rsatib turibdi. Oiladagi nosog‘lom ijtimoiy-ruhiy muhit nafaqat oilada tarbiyalanayotgan farzandlarni, balki oila a‘zolarining axloqqa zid xatti-harakatlar sodir etishiga va ular o‘rtasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar jarayoniga ta‘sir etadi. Statistik ma‘lumotlarga qaraganda, huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmaganlarning 42–45 foizi ota-onasi ichkilikbozlikka berilgan, muntazam ravishda janjal va nizolar kelib chiqadigan nosog‘lom oilada yashagan².

«Ota-onalar tomonidan zulm ko‘rsatilgan bolalar va o‘smirlar» dasturi asosida ishlagan bir guruh amerikalik psixiatrlar tomonidan 76 ta zolim ota-ona shaxsi o‘rganilganda ularning faqat 7 foizi ruhiy sog‘lom bo‘lib, qolganlari, ya‘ni 25 foizi ichkilikka ruju qo‘yganlar, 68 foizi esa jamiyatga zid turmush tarzi yurituvchi shaxslar ekanligi aniqlangan.

Hayot tajribasi va kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, nafaqat oilada sodir etiladigan har qanday g‘ayriijtimoiy hodisalarning, balki har qanday jinoyatning sodir etilishida oila muhitining ta‘siri bo‘ladi. Ayniqsa, ota-onaning salbiy axloqi oila muhiti va farzandlar tarbiyasiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Oiladagi bunday nosog‘lom muhit jinoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga olib keladi. Shu o‘rinda bir misol keltiramiz, A. M. Xodjimuhamedov 2009 yilning 9 sentabr kuni soat taxminan 1200larda o‘z uyida

¹ *Йўлдошев М.* Оилада рухий мухит ва унинг тарбияга таъсири. – Т., 2004. – Б. 5.

² Qarang: *Исмаилов И.* Вояга етмаганлар жиноятчилигига қарши кураш чоралари ҳақида // *Мустақил Ўзбекистон: фалсафа ва ҳуқуқ фанларининг долзарб муаммолари.* – Т., 1994. – Б. 275.

o'g'li A. A. Xodjimuhamedov bilan o'zaro janjallashib qoladi. O'g'li «menga aql o'rgatmang» deb otasini ko'krigidan itarib, jahlini chiqaradi, A.M.Xodjimuhamedov o'g'lini qo'rqitib qo'yish maqsadida oshxona pichog'i bilan uning ko'krak qismiga urib, hayot uchun xavfli bo'lgan og'ir tan jarohati yetkazadi.

Shu o'rinda, ijtimoiy shart-sharoitning jinoiy xulq-atvor bilan aloqasi murakkab xususiyat kasb etadi¹. Ba'zi hollarda bunday xulq-atvor jinoyat sodir etilishiga olib keladi.

Nosog'lom oila muhitining ta'siri u yerda o'sib kelayotgan voyaga yetmaganlar tarbiyasiga tahdid soluvchi xavf desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki har qanday jinoyatning ijtimoiy xavfi, CH. Bekkariyaning mashhur «Jinoyat va jazo» asarida yozilganidek, millatga yetkazgan zarari bilan belgilanadi. Jinoyatning ijtimoiy xavfi faqat muayyan shaxsga yoki boshqa bir obyektga yetkazilgan moddiy yoki ma'naviy zarar bilan emas, balki butun jamiyatga ta'sir qiladigan salbiy oqibatlar bilan o'lchanishi lozim. Oila hayotiga zo'ravonlikning, ayniqsa, uning jinoiy ko'rinishlarining kirib kelishi oila tarbiyasining axloqiy, insonparvarlik asoslarini buzadi. Bolalar qarovsizligi va nazoratsizligini kuchaytiradi. Voyaga yetmaganlarning spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari iste'mol qilishga olib keladi. Fohishabozlikka va jinoiy faoliyatga jalb etilishini faollashtiradi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, oilada zo'ravonlik sodir etilishini taqozo etuvchi va uni ta'minlovchi kriminogen omillar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, oiladagi nosog'lom turmush tarzi oqibatida vujudga kelgan salbiy odatlarning natijasidir. Ma'lumki, inson ijtimoiylashuvi jarayonida oila individga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi, uning muayyan ijtimoiy qiyofasini shakllantirishi lozim. Oiladagi muhit shaxs shakllanishida o'zining ta'sirini o'tkazishi bilan birga, unda ma'naviy-axloqiy fazilat va xususiyatlarning rivojlanish jarayonini ta'minlaydi. Olima Q. R. Abdurasulova ta'kidlaganidek, «insonning his-tuyg'ulari va fikrlari, aqliy va ma'naviy xususiyatlari uning rivojlanish va yashash sharoitlari bilan belgilanadi»².

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, oila shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ma'naviy va axloqiy tarbiyalash, shaxslar bilan bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar jarayonida o'zini tutish kabi insoniy sifatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada qanchalik inoqlik, bir-birini tushunish kabi xislatlar mavjud bo'lsa, u oiladan ma'naviy barkamol insonlar yetishib chiqadi. Insoniyat tarixi qaysi jamiyatda, millatda, oilada

¹ Qarang: *Абдурасулова Қ. Р. Профилактика – тарбиявий чора-тадбирлар асоси // Bola va zamon. – 2008. – №14. – Б. 24.*

² Ўша жойда.

ota-onaga, bolalarga hurmat ko'rsatuvchi urf-odatlar mavjud bo'lsa, shu yerda jinoyatchilik darajasi past ekanligidan dalolat beradi. Chunki oila o'zining tarbiya qilish, ishontirish va jazolash, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olish tizimiga ega.

Sh. M. Hikmatov ta'kidlaganidek, qonunga yoki qonun ijrosiga putur yetkazadigan, unga rioya qilishga to'sqinlik qiladigan omillarni oilalardan izlash lozim¹. Zotan, har qanday huquqbuzarlikning kelib chiqishida oiladagi nosog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit muhim rol o'ynaydi.

Olim Yu. M. Antonyanning ta'kidlashicha, har tomonlama sog'lom oilalarga nisbatan nosog'lom oilalarda jinoyatchilar 9–10 marta ko'p yetishib chiqadi. Bunday oilalardagi nosog'lom muhit oilada oila a'zolari o'rtasida janjal, kelishmovchiliklar yoki shaxsda g'ayriijtimoiy qarashlarni shakllantiradi. Shaxsda tajovuzkorlikning shakllanishi oilada ziddiyatlar (urush-janjallar, mojarolar), zo'ravonliklar, zo'ravonlik bilan jinoiy xulq-atvor borasida ibrat ko'rsatish (ichkilikbozlik, shafqatsizlik) va boshqalarga olib keladi.

Agar zo'rlik er-xotinlar (birga yashovchilar) o'rtasida mavjud bo'lsa, u, odatda, haqiqiy yoki soxta rashk, o'ch olish bilan bog'liq holatlar natijasida shakllanadi². Shaxsda zo'ravonlikni shakllantiruvchi, salbiy ma'naviy-ruhiy xususiyatlar rivojlanishini ta'minlovchi omillar ko'pincha oiladagi shaxslar ta'sirida vujudga keladi.

Shuningdek, oiladagi nosog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit kriminogen vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Xususan, tadqiqot davomida o'rganilgan jinoyat ishlari tahliliga ko'ra, 42 foiz jinoyat sodir etgan shaxslarning oilasida nosog'lom muhit hukmron bo'lgan, 27 foiz oiladagi shaxslar o'rtasida adovatning mavjud bo'lganligi va faqatgina 14 foiz holatda bu jinoyatlar tasodifiy sodir etilganligi ma'lum bo'ldi. Ushbu oilalarda nosog'lom muhit oqibatida yuzaga kelgan nizo yoki adovatning jinoiy yo'l bilan hal etilishi natijasida oilalarda jinoiy zo'ravonlik jinoyatlari sodir etilgan. Bu shundan dalolat beradiki, bu oilalarda nosog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit hukmronlik qilgan, shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar samimiy bo'lmagan, ayniqsa, kelishmovchilik va janjallar ularning kundalik oila-turmush jarayonida odatiy holga aylangan.

Oilalardagi g'ayritabiiy, axloqqa zid munosabat, nizo, janjal va kelishmovchiliklar, oila a'zolari o'rtasida bir-biriga nisbatan qo'pollikning

¹ Qarang: *Хикматов Ш. М.* Аёл, оила ва жамият: Илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2007. – Б. 29.

² Qarang: *Хамидов Ф. А.* Оилада содир этиладиган оғир жиноятларнинг олдини олиш масалалари // *Ҳуқуқ–Право–Law.* – 2002. – № 2. – Б. 40.

mavjudligi nosogʻlom muhitning vujudga kelishini taʼminlaydigan omillar sanaladi. Ushbu holatlar tashqaridan ahil koʻringan oilalarga ham xos boʻlib, ularni oʻz vaqtida aniqlash va kuchsizlantirish choralarini amalga oshirish lozim.

Oilada sodir etiladigan jinoyatlar esa oʻziga xos sabablarga egaligi bilan boshqa jinoyatlardan ajralib turadi. Hozirgi kunda oilada sodir etilayotgan zoʻravonliklarning asosiy qismi muntazam ravishda ichkilikbozlikka ruju qoʻygan shaxslar va ishsizlar tomonidan sodir etilmoqda. Bunday noxush holatlarga chek qoʻyish, toʻgʻrirogʻi ularning oldini olish uchun, avvalo, oila mustahkamligi va barqarorligiga, uning toʻliq va mukammal boʻlishiga erishish, oilada sogʻlom maʼnaviy muhitni shakllantirish lozim. Zero, oiladagi sogʻlom maʼnaviy muhit, odamiylik, insonparvarlik munosabatlari unda tarbiyalanayotgan farzandlarning ijtimoiy ruhiyatiga ijobiy taʼsir koʻrsatib, oila mustahkamligini taʼminlashga xizmat qiladi.

Oilada mustahkamligi birinchi navbatda oila muhitiga bogʻliq. Oila muhiti asosini uning yadrosi boʻlmish er-xotin munosabatlari tashkil etadi¹. Oilada er-xotin oʻrtasidagi munosabatlar bola tarbiyasida muhim oʻrin egallaydi. Shu bois, bolaning kamolotga yetishishida ota-onaning bu ishga masʼul ekanligi xalqaro va milliy qonunchiligimizda belgilab qoʻyilgan. «Bola huquqlari toʻgʻrisida»gi konvensiyaning muqaddimasida: «bolaning shaxsi, sogʻlom va har tomonlama uygʻunlashgan holda kamoloti uchun u oila gʻamxoʻrligida, baxt, mehr-muhabbat va ongni tushunish vaziyatida oʻsishi zarurligi»² eʼtirof etilgan. Bu borada Birinchi Prezident Islom Karimov aytganidek, «bolalarimizning qalbida goʻzallik va ezgulikka intilishni kuchaytirish va shu asosda jamiyatimizning madaniy saviyasini oshirish biz uchun ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi»³.

Oilada nosogʻlom turmush tarzi shakllanishida oiladagi shaxslar oʻrtasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarning oʻrni beqiyos. Oiladagi nosogʻlom muhitning shakllanish shart-sharoiti uning quyidagilar bilan chambarchas bogʻliqligida namoyon boʻladi:

- 1) oila muhitiga tashqi salbiy omillarning taʼsiri;
- 2) qarindosh-urugʻlar oʻrtasida mehr-oqibat tuygʻularining yoʻqligi;
- 3) oilada oila aʼzolarining spirtli ichimlik, giyohvandlik vositalari yoki tamaki mahsulotlarini isteʼmol qilishga odatlanganligi;

¹ Qarang: *Бўриева М.* Оила ва унинг вазифалари. – Т., 1998. – Б. 7–8.

² Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция ва унинг Факультатив протоколлари / Ўзбекча нашри учун масъул муҳаррир А. Х. Саидов. – Т., 2009. – Б. 12.

³ Qarang: *Каримов И. А.* Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. Т.17. – Т., 2009. – Б. 55.

4) oila a'zolari o'rtasida doimiy janjal va kelishmovchiliklarning mavjudligi va hokazo.

Nomaqbul turmush sharoiti ta'sirida shakllangan shaxsning salbiy axloqiy-ruhiy sifatlari va tashqi obyektiv holatlarning o'zaro ta'siri jinoiy xulq-atvorni vujudga keltiradi, bunda salbiy axloqiy-ruhiy sifatlar hal qiluvchi rol o'ynaydi¹. Salbiy axloqiy sifatlar shaxsning jinoyat sodir etishiga ko'maklashuvchi va unga shart-sharoit yaratuvchi muhim omil hisoblanadi. Masalan, 1976-yilda tug'ilgan fuqaro M. turmush o'rtog'i J. tomonidan doimiy ravishda zulm ko'rib, haqoratlanib kelingan. Ushbu munosabat oqibatida kelib chiqqan o'zaro kelishmovchilik natijasida fuqaro M. oshxona pichog'i bilan qurollanib, eri J.ning ko'krak qismiga jismoniy kuch ishlatish orqali pichoq bilan og'ir tan jarohati yetkazgan².

Ayrim kriminologik adabiyotlarda oiladagi nosog'lom muhit ta'sirida huquqbuzarlik sodir etuvchi shaxslar quyidagicha tavsiflanadi: 1) shaxsning umumiy yo'naltirilganligiga zid bo'lgan, ya'ni hayotiy vaziyatlar bilan tasodifiy (25–30%); 2) umumiy shaxsiy yo'naltirilganlik beqarorligini hisobga olib bashorat qilinadigan, biroq sabab va vaziyat nuqtai nazaridan tasodifiy (25–30 %); 3) shaxsning umumiy-salbiy yo'naltirilganligi bilan, ammo jinoiy yo'naltirilganlikka borib yetmagan (30–40 %); 4) shaxsning jinoiy yo'naltirilganligi natijasi bilan (10–15 %).

Nosog'lom oiladagi ijtimoiy-ruhiy muhit ta'siri ostida zo'ravonlik quyidagi kriminogen nizoli holatlarda aks etadi:

- uzoq davom etgan va kuchli nizoning jinoyatchi shaxs tashabbusi bilan hal etilishida;
- jabrlanuvchining nizo keltirib chiqaruvchi xatti-harakati natijasida;
- jinoyatchi va jabrlanuvchining axloqsiz hayot tarzi oqibatida;
- jabrlanuvchining huquqqa xilof qilmishi natijasida to'satdan vujudga kelgan stress holati oqibatida;
- jinoyatchi shaxsning ichki shaxsiy nizosini hal etish jarayonida.

Ma'lumki, inson hayoti davomida o'zini o'rab turgan ijtimoiy muhit ta'siri ostida bo'ladi. Shu boisdan ham uning shakllanishi jarayonida ma'lum kriminogen omillar unga ijobiy yoki salbiy ta'sir qilib, inson shaxsida ijobiy yoki salbiy xususiyatlar qaror topadi va rivojlanadi. Oiladagi muhitning salbiy ta'siri voyaga yetmagan yoshlarning mavjud munosabatlarga

¹ Qarang: *Бабаяров М. А. Ёшларни ҳуқуқий тарбиялаш муаммолари // Мустақиллик йилларида юридик фан ва амалиётнинг ривожланиши: Илмий-назарий конференция материаллари. – Т., 2002. – Б. 49–51.*

² Qarang: *Жиноят ишлари бўйича Наманган шаҳар суди архивининг 1|271-сонли жиноят иши.*

o'ta ta'sirchan bo'lishi oqibatida jinoiy ishlar sodir etish ehtimoli bilan xarakterlidir.

Shaxsning salbiy shakllanishini ta'minlovchi axloqqa zid omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) biologik (nasldan-naslga o'tuvchi xususiyatlar);
- 2) oiladagi ma'naviy-ruhiy muhitning zaifligi;
- 3) oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar;
- 4) axloqqa zid bo'lgan xatti-harakatlar;
- 5) oiladagi shaxslar o'rtasida g'ayriijtimoiy munosabatlarning mavjudligi;
- 6) doimiy ravishda nizo, janjal va kelishmovlikning mavjudligi;
- 7) oilada ota-onaning yoki boshqalarning g'ayriijtimoiy qarashlari;
- 8) oilada tarbiyaning yo'qligi;
- 9) milliy qadriyat va an'analarga hurmatsizlik bilan munosabatda bo'lish va hokazo.

Bunday oilalardagi nosog'lom muhitning ta'siri oilaviy ajrimlarning ko'payishi, bolalar tarbiyasida kamchiliklar, shaxslararo o'zaro munosabatlar zahirida turli xil nizo va mojarolarni keltirib chiqaradi. Holbuki, qachonki oilada osoyishtalik va bir-birini tushunish, er-xotin va bolalar o'rtasidagi tenglik va o'zaro bir-birini hurmat qilish hukmron bo'lsa, buni tabiatning durdonasi deyish mumkin¹.

Olimlarning ta'kidlashicha, oila muhitga xos bo'lgan shart-sharoitlar orasida shaxs shakllanadigan muhit alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, olim Yu. M. Antonyan oiladagi zo'ravonlikning sababini ota-onaning farzandga mehr qo'yimaganligi, ularning tarbiyasiga e'tiborsizligi bilan izohlaydi. Muallifning fikricha, shaxsning bolalikda mehr-muruvvatdan mahrum qilinishi uning ruhiyatida bezovtalik, qo'rqinch, nafrat kabi hissiyotlarni shakllantiradi. Bu hissiyotlar ongsiz ravishda qayd etib boriladi va murosa-siz xulq-atvorning, jumladan uning eng ashaddiy ko'rinishi – zo'ravonlikning shakllanishiga olib keladi². Buning asosiy sababi oiladagi nosog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit hisoblanadi.

Aslida, oilada ota yoki onaning o'z farzandiga bemehrligi yoki e'tiborsizligi yoxud nazoratsizligi ular axloqidagi nuqsonlarning bir ko'rinishidir. Nazoratsiz qolish salbiy muhit bilan qo'shilib, jinoiy xulqini vujudga keltiradi, natijada voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyatlar sodir etiladi³.

¹ Qarang: Горниченко И. И., Хакимов Ш. Ш., Закирходжаев Ш. А. Откровенно о сокровенном. – Т., 1991. – С. 57.

² Qarang: Антоян Ю. М. Причины преступного поведения. – М., 1992. – С. 114.

³ Каюмов А. А. Вояга етмаган конунбузарлар ва уларнинг географик тавсифи // Конференция материаллари (2002 йил 14 ноябрь). – Т., 2003. – Б. 187.

Voyaga yetmaganlarning jinoyat olamiga kirishi jinoyat yoki huquqbuzarliklar sodir etish kabi salbiy illat paydo bo'lishiga olib keladi.

Oilaviy hayot davomida ota yoki onaning farzand tarbiyasiga e'tiborsizligi ham oilada bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Buni ta'riflash, tushuntirish yoki izohlashga hojat yo'q. Shubha yo'qki, jamiyatda yuz beradigan barcha o'zgarishlar oilaga, oiladagi ma'naviy muhit, uning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy darajasi esa jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotiga ta'sir qiladi¹. Tabiiyki, bunday nosog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit mavjud bo'lgan oilalarda muntazam janjal bo'lib turadi. Buning oqibatida shaxsning hayoti va sog'lig'iga qarshi qaratilgan og'ir jinoyatlar sodir etiladi.

Mamlakatimizda «Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi ham bejiz emas. Chunki voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu qonunga asosan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: bolaning hayoti va sog'ligini muhofaza qilish; bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik; bolaning sha'ni va qadr qimmatini himoya qilish; bolalarning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish; bolada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish; bolalarning ijtimoiy ko'nikmasiga, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarni kamaytirishga ko'maklashish.² Shunday ekan, oilada sog'lom va ma'naviy-ruhiy muhitni shakllantirish har bir otonaning burchidir.

Oiladagi ijobiy muhit bolaning ham fiziologik, ham ruhiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Ularning ma'naviy ehtiyoji oilada qancha to'liq qondirilgan bo'lsa, shaxsda kelajakda deviant xulq-atvorning shakllanish ehtimoli shuncha kam bo'ladi³. Bolaning tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir⁴.

¹ Qarang: Oila pedagogikasi. – T., 2007. – B. 22.

² Qarang: Ўзбекистон Республикасининг «Бола ҳуқуқлари кафолатлари тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис палаталарининг ахборотномаси. – 2008. – №1. – 1-м.

³ Qarang: Қорахўжаева М.Х. Ёшларни баркамол инсон қилиб тарбиялашда бой маънавий меросимиздан фойдаланиш // Соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг илмий-услубий асослари: Илмий-амалий ва услубий конференция материаллари. – Т., 2007. – Б. 75–78.

⁴ Qarang: Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б. 52.

Q. R. Abdurasulova shaxsda salbiy xususiyatlar shakllanishiga olib keluvchi oiladagi noto'g'ri ma'naviy va axloqiy tarbiya berishning bir qancha obyektiv va subyektiv holatlar bilan belgilanishini tavsiflab, uning eng ko'p tarqalgan quyidagilari obyektiv omillar qatoriga kirishini ta'kidlaydi: 1) oiladagi moddiy qiyinchiliklar; 2) ota-onaning ish yoki ro'zg'or yumushlari bilan qattiq bandligi. Bu bolalarni nazorat qilishni obyektiv tarzda qiyinlashtiradi; 3) oila to'liq emasligi (ota yoki onaning yo'qligi); 4) ota-ona ma'lumot darajasining pastligi, pedagogik bilimlarning yo'qligi; 5) oilada konfliktli vaziyatning mavjudligi¹.

Oilalar tarbiyasidagi pedagogik kamchiliklar ijtimoiy-psixologik va kriminologik sohada batafsil tahlil qilinadi. Xususan, farzandlarni lozim darajada tarbiyalay olmaydigan muayyan turdagi oilalarni ajratib ko'rsatishga turlicha yondashuvlar uchraydi. Farzandlarini tarbiyalashni bilmaydigan, tarbiyalash bilan shug'ullanmaydigan yoki obyektiv sabablarga ko'ra ularni to'g'ri tarbiyalay olmaydigan oilalar ajratib ko'rsatiladi². Oilada nosog'lom turmush tarzi vujudga kelishida asosiy sababchi ota-ona deb ta'kidlash mumkin.

Latviyalik olim I. E. Klotniyek o'zining «Oiladagi psixologiya» kitobida oiladagi nosog'lom muhit oqibatida yuzaga keladigan nizolar orasidan bolaning ko'z o'ngida va uning ishtirokida ro'y beradigan nizolar xususida o'z fikr va mulohazalarini bildirgan. Uning fikricha, «oilaviy janjallar, nizolar salbiy emotsional reaksiyalarni keltirib chiqaradi va oiladagi psixologik muhitni buzadi»³. Nafaqat oilada sodir etiladigan nizo yoki janjal, balki oila a'zolarining barcha xatti-harakatlari shaxsga psixologik ta'sir etish orqali oila muhitining buzilishiga sabab bo'ladi.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy: «Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asosiy kuch insoniylikdir. Shuning uchun ham, odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari tufayli, o'zaro inoq, tinchlikda yashamoqlari lozim»⁴, deydi. Axloqiy-ma'naviy tarbiyaning maqsadi shaxsda axloqiy fazilatlarni shakllantirish va uni rivojlantirish, yaxshi xulq-atvorga o'rgatish hamda ijobiy xatti-harakatlar, ko'nikma va odatlarni vujudga keltirishdan iborat.

¹ Qarang: Криминология: Дарслик / Масъул мухаррир проф. М.Х. Рустамбоев. – Т., 2008. – Б. 71.

² Qarang: Антолян Ю.М. Социальная среда и формирование личности преступника. – М., 1975. – С. 37–106; Бабаева М. М. Причины преступности и меры борьбы с ней. – М., 1974. – С. 29–35; Сахаров А. Правонарушения подростка и закон. – М., 1987. – С. 60–103.

³ Клотниекс И.Э. Психология в семье. – М., 1991. – С. 30–31.

⁴ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Т., 1993. – Б. 187.

Psixolog M. K. Fyugnerova o'zining «Bolaning axloqiy tarbiyasi» maqolasida er-xotinning bola ko'z o'ngidagi obro'-e'tibori nimalarga bog'liq ekanligi borasida fikr bildirib, «to'g'ri tarbiya ota-onaning obro'-e'tiborisiz ro'y bermaydi»¹, deb ta'kidlaydi.

Atoqli pedagog Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, «tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir»². Shunday ekan, oilada ma'naviy-ruhiy muhitni sog'lomlash-tirishning eng asosiy omili bu tarbiya masalasidir. Shu bois ota-ona oilada tarbiyalanayotgan farzandlarni yoshligidan boshlab ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lib tarbiyalanishiga alohida ahamiyat berishi kerak. Bu esa, o'z navbatida, oilada oila a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatib, shaxsda jamiyatga nisbatan g'ayriijtimoiy xulq-atvor va munosabatlar shakllanishining oldini olishni ta'minlaydi.

Nosog'lom, muammoli hamda huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan oilalar bilan ishlashning pedagogik xususiyatlari

Oilashunos mutaxassislar, pedagog-psixologlar, qolaversa, har bir ota-ona oilaning ijtimoiy tarixiy kelib chiqishi, oilada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar haqida bilishi, oilaning mustahkamligini ta'minlovchi bilim va malakalarga ega bo'lishi, oilaviy hayotni o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslangan tarzda talqin eta olishi, muammoli vaziyatlardan psixologik jihatdan oqilona (oilaviy va uning mustahkamligiga ta'sir etmagan holda) chiqqa olishi, oilani o'rganuvchi psixologik tashxis metodikalari bilan ishlash va ular yordamida olinadigan natijalarni to'g'ri talqin eta olishi kerak.

Davlatimiz tomonidan oilani mustahkamlash borasida bir qator amaliy ishlar qilindi va qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining butun bir bobi (24-bob) oilaga bag'ishlanganligi buning yaqqol misolidir. Konstitutsiyasining 63-moddasida: «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega» deyiladi.

Zero, har bir oqil insonning va jamiyatimizning muqaddas vazifasi, aytish mumkinki, hayotning ma'nosi qobil farzandlar o'stirish, ularni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash, kamolini ko'rish, ota-onasiga, Vatanga sadoqatli kishilar etib voyaga yetkazishdan

¹ Qarang: *Фюгнерова М. К.* В кн.: Хрестоматия по этике и психологии семейной жизни: Учеб. пос. / Сост. И.В. Гребенников, Л.В. Ковинько. – М., 1986. – С. 261–271.

² Qarang: *Авлоний А.* Туркий гулистон ёхуд ахлоқ.. – Т., 1992. – Б. 14.

iboratdir. Lekin taajjub bilan aytmoqchimanki, bu masalalar bilan ayrim oilalar samarali tarzda shug'ullanmayapti. Biz inson ulg'ayib, faol turmushga kirishib, jinoyat qilganda yoki qonunni buza boshlagandagina u sodir etgan huquqbuzarliklarning oqibatlari bilan «muvaffaqiyatli» kurasha boshlaymiz¹.

Nosog'lom, muammoli, huquqbuzarlikka moyil bo'lgan oilalarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini bir qator olim (E. G'oziyev, G'. Shoumarov, B. Qodirov, SH. Baratov, N. Sog'inov, R. Mahmudov, X. Yo'ldoshev, M. Ochilov, S. Normurodova, M. Ismoilov va boshq.)lar ilmiy jihatdan tadqiq qilganlar. O'tkazilgan tadqiqotlar voyaga yetmaganlar jinoyatlarining kelib chiqish sabablari oiladagi tarbiyaga, ota-onalarning farzandlar tarbiyasida noto'g'ri tarbiya usullaridan foydalanganliklariga, oilaviy tarbiyadagi nuqsonlarga, ijtimoiy muhitga, jumladan maktab, mahalla, tengqurlari davrasida nosog'lom muhitning mavjudligidan dalolat beradi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, jamiyatda oilalarning ajralishi natijasidan eng ko'p ruhiy aziyat chekadigani bolalardir. Ajralib ketayotgan oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning paydo bo'lishi yoki tashqi salbiy omillar ta'siridan himoyalanih imkoniyatlarining yo'qolishi ehtimoli katta bo'ladi. Chunki ajrashishgan oilalarda ota yoki onaning yo'qligi ba'zan bolaning kamroq nazorat ostida bo'lishiga, moddiy va ma'naviy muammolarga duch kelishiga hamda bolaning manfaatlari, qiziqishlari va dunyoqarashining keskin o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bu ilmiy tadqiqotlarda ham o'z aksini topgan bo'lib, ajrashishgan oilalardagi bolalarning giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishi, huquqbuzar shaxslar safiga qo'shilish ehtimoli yuqori bo'lishi aniqlangan.

Shu ma'noda ota-onalar o'rtasidagi doimiy janjal bolaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Serjanjal oilalarda o'sayotgan bolalar darsni o'zlashtira olmaydi, oqibatda ularda ruhiy tushkunlik kayfiyati paydo bo'ladi. Tabiiyki, mun-tazam janjal bo'lib turadigan oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar asabiy, ruhan zaif bo'lib qoladi. Ular g'ayritabiiy, hatto g'ayriqonuniy ishlarga qo'l urushdan qo'rqmaydilar². Voyaga yetmaganlar shaxslarning 36,8 foizi nosog'lom oilalarda tarbiya ko'rgani, nosog'lom oilalarda jinoyatchilar sog'lom oilalarga nisbatan 10 marotaba ko'p yetishib chiqishi tadqiqotlarda keltirilgan³. Shuni alohida qayd etish lozimki, bu ma'lumotlar haqiqiy

¹ Qarang: *Каримов И. А.* Адолат – қонун устуворлигида // Халқ сўзи. – 2001. – 31 авг.

² *Исмаилов И., Маҳмудов Р.* Баркамол инсон – баркамол жамият гарови // Тафаккур. – 1997. – № 1. – Б. 76–79.

³ *Зарипов З. С.* Вояга етмаганларнинг гуруҳий жиноятчилиги ва унинг олдини олишга қаратилган айрим чоралар // Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши кураш чораларини такомиллаштириш. – Т., 2001. – Б. 18–21.

holatni ko'rsatmaydi, chunki uning profilaktik hisobga kirmay qolgan latent qismi ham mavjud. Aksariyat hollarda huquqbuzarlik sodir etgan o'smirlarning ota-onalari bilan suhbat o'tkazilganda, ular aybning barchasini jabrlanuvchining o'ziga yuklab qo'yadilar, bu esa, o'z navbatida, o'smirning nosog'lom oilada tarbiyalanganligi va oilada ota-onaning bola tarbiyasiga yetarli darajada e'tibor bermaganligini ko'rsatadi. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 64-moddasida ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburligi belgilab qo'yilgan. Biroq bu qoida: bolalarni me'yoridan ortiq erkalash; injiqliklari va tantiliklariga erk berib qo'yish; me'yoridan ortiq qulayliklar yaratish; ijtimoiy foydali bo'lgan muayyan burchlarni bajarishdan, hatto kuchi yetadigan mehnatdan ham ozod qilish; ehtiyojlarini cheksiz ravishda qondirib borish; shaxsiyatparast, dangasa qilib tarbiyalashni istisno etadi. Zero, «farzandning yashashi, kamol topishi uchun oila birdan-bir makon va tabiiy muhit hisoblanadi. Oilada farzandlar tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish, ularni umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy normalar ruhida tarbiyalash ota-onaning muhim vazifasi hisoblanadi»¹.

Vatandoshimiz Abdurauf Fitrat yozganidek, «qayerda oila munosabati kuchli intizom va tarbiyaga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi»². Holbuki, jamiyatning asosiy boyligi hisoblangan inson birinchi navbatda oilada shakllanadi. Oila qanday kishini shakllantirishi jamiyat uchun befarq emas.

Shunday ekan, oiladagi nosog'lom muhit voyaga yetmaganlar xulqi-da axloqqa zid sifatlarning shakllanishiga olib keladi. Oiladagi nosog'lom muhit va oilaviy ajralishlar bolalarda jinoiy xulqning kelib chiqishi uchun asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ajralishlar natijasida yuzaga kelgan noto'liq oilalarda voyaga yetgan bolalar va o'smirlar tabiatida o'ziga xos salbiy odatlar shakllanadi. Oilada otaning bo'lmasligi bolada jasurlik, mardlik, matonatlilik sifatlarining sust rivojlanishiga olib keladi. Qo'rqoq, tortinchoq, jur'atsiz bolalarda mustaqil fikrlash, o'z xatti-harakatlarining oqibatini anglab yetish jarayoni yaxshi kechmaydi. Bunday tarbiya olgan bolalar ko'pincha guruhij jinoiyatlarni amalga oshiradilar. Onasiz o'sgan bolalarda esa, bemehrlik, shafqatsizlik, tajovuzkorlik rivojlangan bo'ladi. Bundaylar ko'pincha bosqinchilik, zo'ravonlik, o'g'irlik jinoiyatlarini sodir etadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etiladigan jinoiyatlarning oldini olishda pedagogik-psixologik qonuniyatlar-

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига шарҳ. – Т., 2001. – Б. 325.

² *Фитрат А.* Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Т., 2000. – Б. 8.

ning oʻrni beqiyosdir. Voyaga yetmaganlarni tarbiyalashda ularning individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olish juda muhim, shuningdek, ota-onalar, oʻqituvchilar va keng jamoatchilikning voyaga yetmagan shaxs tarbiyasini nazoratga olishi muammoning asosiy yechimlaridan biridir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Voyaga yetmagan shaxslar jinoyatchiligining sabablari va shart-sharoitlarini pedagogik-psixologik jihatdan tahlil qiling.

2. Tarbiyaviy ishlar samaradorligining tarbiyalanuvchilar umumiy va kasbiy rivojlanishini, yoshi va individual xususiyatlarini har tomonlama hisobga olishga bogʻliqligi nimalarda namoyon boʻladi?

3. Ichki ishlar organlari xodimlarining voyaga yetmaganlar bilan olib boradigan muloqotining psixologik jihatlariga nimalar kiradi?

4. Asosiy profilaktik taʼsir etish obyektlariga umumiy pedagogik tavsif bering.

5. Notinch (nizoli) oilalar va tarbiyasi qiyin oʻsmirlar bilan tarbiyaviy-profilaktik ishlarni olib borishning oʻziga xosligi nimalarda namoyon boʻladi?

6. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishda oilaviy tarbiyaning oʻrni qanday?

7. Oilaviy tarbiyada yoʻl qoʻyiladigan xato va kamchiliklar bartaraf qilish yoʻllarini aytib bering.

8. Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida notinch (nizoli) oilalar bilan ishlashning psixologik muammolari nimalardan iborat?

5-mavzu. SALBIY IJTIMOIIY HODISALARNING OLDINI OLISH FAOLIYATINING PEDAGOGIK ASOSLARI

Normadan og‘uvchi xulqning pedagogik tavsifi va turlari.

Salbiy-ijtimoiy hodisalar tarqalish sabablarining pedagogik tahlili.

Salbiy-ijtimoiy hodisalarni oldini olishning pedagogik muammolari.

Normadan og‘uvchi xulqning pedagogik tavsifi va turlari

Ijtimoiy normalar, odatda, eng ko‘p tarqalgan holatlarga asoslanadi. Bu holatda qonun hech qanday qarshiliksiz amalda bo‘ladi. Biroq kam uchraydigan holatlarning paydo bo‘lishi bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, kattalarga hurmat tushunchasi boshqa norma yoki ushbu holatda harakatlanayotgan subyektning aniq manfaatlari bilan ziddiyatga kelmasa, hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, hayot sharoitlari ba‘zi hollarda subyekt oldiga qo‘yadigan ma‘naviy va ruhiy muammo har qanday holatda ham o‘z individual qiziqishlari, manfaatlari va intilishlariga qarshi chiqib, me‘yorga yoki qonun qoidaga bo‘ysunish kerakmi yoki bajarish, degan savolga javob topishdan iborat.

Ommaviy hodisa sifatida ko‘rib chiqiladigan deviantlik jamiyatda yuz beradigan iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy, ruhiy jarayonlar bilan o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Ba‘zi hollarda jamiyatdagi voqea-hodisalar deviant xulq-atvorni u yoki bu turining paydo bo‘lishi, kengayishi yoki yo‘qolib ketishiga sababchi bo‘lib qolishi mumkin. Ba‘zan bu o‘zaro bog‘liqliklar shu darajada mustahkam bo‘ladiki, jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar deviant xulq-atvor sababimi yo oqibatmi yoki uning tarkibiy qismi ekanligini aniq aytib bo‘lmaydi. Har holda ularni jamiyat hayotining ijobiy chekinishlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqada bo‘ladigan qismi sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

Deviant xulq fenomen sifatida turli fanlarning tadqiqot predmeti hisoblanadi. Deviant xulqning oldini olish vazifasi jamiyatdagi turli ijtimoiy institutlar, jumladan ta‘lim muassasalari oldida turgan o‘ta muhim vazifalardan biridir.

Psixologik lug‘atda deviant xulqqa shunday ta‘rif beriladi: «Deviant xulq – bu insonning rasmiy ravishda o‘rnatilgan yoki faktik jihatdan yuzaga kelgan xulq-atvor to‘g‘risidagi tasavvurlarga nomuvofiq xatti-harakatlari tizimi yoki alohida olingan xatti-harakatidir»¹. Bu ta‘rif alohida olingan

¹ Психология: Словарь / Под ред. А. В. Петровского. – М., 1990. – С. 257.

individ bilan odamlar guruhi o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarga asoslangan. Shuning uchun ham u ijtimoiy hisoblanadi.

Deviant xulq-atvor normalarini chuqur o'rgangan V. G. Solovyanyuk-Krotovaning fikricha, «deviant xulqning oldini olish jarayonini tashkil etishda, eng avvalo, inson xulq-atvorining bosh regulatori bo'lgan uning psixikasiga e'tiborni jalb qilish lozim»¹.

Ma'lumki, deviatsiya² ijtimoiy-psixologik muammo bo'lib, inson ruhiy olamidagi, uning atrofidagi muhitning o'zgarish holatlari bilan bog'liq. Bu holat, asosan, o'smirlik va ilk o'spirinlik yoshidagilarga xosdir. Chunki bu yoshdagilarning anatomik-fiziologik, intellektual, axloqiy-ruhiy va boshqa jihatlarida ayrim o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'zgarishlar, o'z navbatida, ularning psixikasiga ta'sir etishi mumkin. Ularning ijtimoiy nufuzida, jamoada o'zini tutishida o'zgarishlar ro'y berib, ularni ko'proq «Men kimman?», «Men o'zgalar nigohida qandayman?» kabi savollar qiynaydi.

Jamiyatda o'rnatilgan norma va qoidalarga rioya qilmaydigan shunday tarbiyasi og'ir o'smirlar fanda deviatsiyaga uchraganlar deb ataladi.

Deviatsiya o'z ichiga deviant³, delinkvent⁴ va kriminal xatti-harakatlarni birlashtiradi.

Deviant xatti-harakat — kichik ijtimoiy munosabatlar (oila, o'quv dargohi) hamda xarakter, jinsiy va yosh xususiyatlari jihatidan kichik ijtimoiy guruhlariga xos ijtimoiy normalardan, xatti-harakatlar va qoidalardan og'ish, chekinishning bir turi. Ya'ni bu turdagi harakatni intizomsizlik deb ham atash mumkin. Agressiya, janjalkashlik, o'qish va mehnat faoliyatida o'zboshimchalikka yo'l qo'yish, o'smir va o'spirinlarning ichkilikka berilishi, daydib yurishlari, oliftagarchilik qilishlari, asotsial harakatlarga berilish kabilar deviant harakatlarning asosiy ko'rinishlaridir. Ma'lum vaziyatlarda yoshlarning shunday xatti-harakatlarni namoyon etishi deviant harakatlarning tipik xususiyatidir.

Delinkvent xatti-harakat deviant harakatlardan farqli o'laroq, vaziyat ta'sirida emas, balki yuqoridagi kabi asotsial harakatlarning doimiy xarakterga ega bo'lishidir. Delinkvent harakatlarning quyidagi turlari mavjud:

¹ Соловьёнюк-Кротова В. Г. Стратегии профилактики девиантного поведения старшеклассников // Информационный гуманитарный портал «Знание. Понимание. Умение». – 2010. – № 2. – Педагогика. Психология.

² *Девияция* лотинча сўз бўлиб, оғиш, бурилиш, четга чиқиш маъноларини англатади.

³ *Девиянт хатти-ҳаракат* — психик соғлом шахсинг жамият томонидан белгиланган норматив, ахлоқий қоидаларни бузиш ҳолатлари.

⁴ *Делинквент* лотинча сўз бўлиб, қилмиш содир этган ҳуқуқбузар, деган маънони билдиради.

– haqoratlash, xo‘rlash, azoblash va undan huzurlanish kabi agressiv bosqinchilik harakatlari;

– tamagirlik, avtotransport va boshqa muayyan buyum hamda anjomlarni o‘g‘irlash kabi moddiy foyda ko‘rishga qaratilgan o‘z shaxsiy manfaati yo‘lidagi harakatlar;

– narkotiklar sotish va tarqatish.

Kriminal xatti-harakat — jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga yetgan shaxslarning g‘ayrihuquqiy harakatlari bo‘lib, ular ustidan jinoiy ish qo‘zg‘atiladi. Kriminal harakatlarga deviant va delinkvent harakatlar asos bo‘ladi.

Shu ma‘noda *deviant (og‘ish) xulq mos ijtimoiy sharoitlarda maxsus ommaviylikka saqlanib qolish va tarqalish xususiyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy normalarning buzilishidir.*

Deviant xulq-atvor holati va darajasi turli mamlakatlar va hududiy birliklarda turlichadir. Deviant xulq-atvor turlari taqsimoti, ularning hududiy kesimdagi sifat va miqdoriy tavsifi mos xulq-atvorning geografiyasi deb ataladi.

Deviant xulq-atvor geografiyasini, tuzilishi va rivojlanishini o‘rganish ushbu jarayonning makon va zamonda amaliy o‘zgarishining ikki turi mavjudligini ko‘rsatadi:

1. Chekinishlar darajasining o‘zgarishi deviant xulq-atvor hodisalari sonining umumiy o‘sishi yoki kamayishi yoxud aksincha, jamiyatda xulq-atvorning ma‘naviy va huquqiy me‘yorlari mustahkamlanishi bilan ushbu ko‘rsatkichlarning kamayishi.

2. Ko‘rsatkichlarning o‘sishi yoki kamayishi, shuningdek muhim holatlari doirasida ham deviant xulq-atvor tuzilishining o‘zgarishi. Tuzilish jihatidan o‘zgarishlar turlicha bo‘lishi mumkin: og‘ir turlarining yengil turlar hisobiga o‘sishi yoki aksincha. Deviant xulq-atvor turlarining biridan ikkinchisiga o‘tishi u yoki bu mamlakat hududida yuz beradigan ijtimoiy va psixologik jarayonlarga ham bog‘liq bo‘ladi.

Deviant xulq-atvor mexanizmlari deganda, qonun-qoidalarga teskari qat‘iyat, motiv va maqsadlarni paydo qiluvchi, moslashuvchi hamda amalga oshiruvchi ichki va tashqi faktorlarning o‘zaro harakati tushuniladi. Xulq-atvor turlari ko‘p, bu o‘rinda, metodik nuqtai nazardan, ikkita asosiy yondashuv mavjud:

1. Deviant xulq-atvorning aniq turlari: jinoyatchilik, qonunbuzarlik, ichkilikbozlik, o‘z-o‘zini o‘ldirish, giyohvandlik va hokazolar mexanizmlarini tasniflash va alohida o‘rganish. Bunda ushbu hodisalarni amalga oshirgan har bir guruh shaxslarning xulq-atvor xususiyatlarini chuqur o‘rganish mumkin, biroq ularni birlashtirib turuvchi umumiylikni aniqlab bo‘lmaydi.

2. Deviant xulq-atvorning barcha turlarida uchraydigan umumiy mexanizmlarni, xulq-atvor mexanizmlari xususiyatlari bilan shaxs xususiyatlari aloqasini, sharoitlarni aniqlash.

Deviant xulq-atvorning ichkilikbozlik, giyohvandlik bilan bog'liq holatlarining farq qiluvchi tomonlari mavjud. Shunday farqlarning uchta-sini keltirish mumkin:

Birinchi farq salbiy hayot hodisalarini uzoq davom etishi bilan ajralib turishidan, ba'zan esa turmush tarzini bir bo'lagiga aylanib qolishidan iborat bo'ladi. Doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrof-muhitdan norozilik, o'qishdagi, do'stlar orasidagi tushunmovchiliklar va hokazolar – bularning barchasi o'smir ruhiyatini jarohatlaydi, o'smir u yoki bu yo'l bilan mavjud vaziyatni o'zgartirishiga urinadi.

Bu holatni hal qilish ma'lum qiyinchiliklarga ega, bularning *ikkinchi farqi* ham shu bilan bog'liq, mavjud yoki xayoliy holat asosligi. Amaliyotning ko'rsatishicha, har qanday holatda ham, ko'p «qurbon» berib bo'lsa-da, ijtimoiy haqiqatga erishish mumkin. Lekin hamma gap shundaki, subyekt «qurbon» bera oladimi, ya'ni o'smir o'z turmush tarzini o'zgartirishi, qiziqishlarini almashtirishi, do'stlari bilan aloqani uzishi, biror kasbga ega bo'la olishi mumkinmi yoki yo'qmi? Qat'iy qarorga kela olmay, ko'pincha esa chiqib bo'lmaydigan holat deb o'ylab, o'smir «o'rinbosar» vositalarga, ichkilik va giyohvand moddalarga murojaat etadi.

Bunday holatlarning uchinchi farqi shundaki, ular hal qilishning «sarob», ya'ni hal qilib bo'lmaydigan yo'llarini «taklif» qiladilar. Bu holatlar shunisi bilan ajralib turadiki, ular ko'pincha eng yuqori darajaga o'sib chiqsa-da, ularni hal qilish uchun qat'iy qaror qabul qilishga zarurat yo'qdek tuyuladi. Oilaviy va o'qishdagi janjallar odatiy holga aylanib qoladi. Bundan qutulishning noto'g'ri xayoliy yo'llari, ichkilik, giyohvandlik vositalari va hokazolarga murojaat etiladi. Biroq bu yo'l ziddiyatning chuqurlashuviga va o'smirlar ruhiyatida psixopotologik sindromlarning rivojlanishiga olib keladi.

Deviant xulq-atvorning ommaviy va individual darajalari orasida faqat to'g'ri aloqalar emas, balki teskari aloqalar ham mavjud. Psixologik va kriminalogik adabiyotlarda o'z-o'zini psixologik himoya qilishning eng ko'p tarqalgan quyidagi usullari ko'rsatib o'tilgan:

- 1) javobgarlikka tortilish sabablarini inkor etish;
- 2) keltirilgan zararni inkor etish;
- 3) ayblovchilarni ayblash;
- 4) «yanada muhimroq» sharoitlarga asoslanish.

Bugungi kunda yoshlar xulqidagi nuqsonlarni tuzatishda ikki xil texnologik yondashuvdan foydalanish zarur:

- profilaktik;
- reabilitatsion.

Profilaktika – o‘spirinlar xulqidagi ijtimoiy og‘ish holatlarini keltirib chiqaruvchi sabablarning oldini olishga, ularni bartaraf etishga, asosiy sabab va shartlarni neytrallashtirishga qaratilgan davlat, jamoa, mahalla, oilaviy, ijtimoiy-tibbiy, tashkiliy-tarbiyaviy tadbirlar majmuasi.

Profilaktik tadbirlar deganda, ijtimoiy psixologiyada ilmiy asoslangan va o‘z vaqtida amalga oshiriladigan xatti-harakatlar tushuniladi. Ular quyidagilarga qaratiladi:

- jismoniy, ruhiy, ijtimoiy-madaniy vaziyatlarning oldini olishga;
- sog‘lom hayotni himoyalash va salomatlikni mustahkamlashga;
- o‘spirinning ijtimoiy maqsadlarga erishuv yo‘lidagi sa’y-harakatlariga yordam berish, undagi ichki salohiyat qudratini yuksaltirish.

Ijtimoiy og‘ish turli sabablarga ko‘ra vujudga kelishini inobatga oladigan bo‘lsak, o‘spirinlar bilan o‘tkaziladigan psixokorreksion, psixoprofilaktik tadbirlar bir nechta ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

- 1) neytrallashtiruvchi;
- 2) muvofiqlashtiruvchi;
- 3) ijtimoiy og‘ishning oldini oluvchi, salbiy holatlarning vujudga kelishiga to‘sqinlik qiluvchi;
- 4) salbiy vaziyatlarni bartaraf qiluvchi;
- 5) o‘tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlarni va ularning natijalarini nazoratga oluvchi tadbirlar.

Profilaktik tadbirlarning samaradorligi quyidagilarga e‘tibor berilganda yuqori bo‘lishi ko‘zda tutiladi:

- yoshlarning ijtimoiy muhitidagi salbiy emotsional-irodaviy hissiyotlarini bartaraf qilishga qaratilgan tadbirlar va ularning vujudga kelgan muammo yechimini topishga bo‘lgan qiziqishini, motivasiyasini shakllantirish;
- yoshlarning sog‘ligini, ma‘naviy qiyofasini mustahkamlaydigan maqsadlarga qaratilgan yangi ko‘nikmalarga o‘rgata borish;
- paydo bo‘lgan muammolarning yechimini topishga o‘rgatish, ularning vujudga kelishiga yo‘l quymaslik malakalarini shakllantirish;

Deviant xulqli yoshlarda iroda zaifligi asotsial xatti-harakat qilishlariga sabab bo‘ladi. Bunday salbiy xususiyatlar kelgusida ularning axloqi va xulqida o‘z aksini topadi. Natijada o‘spirinlarning irodasizligi tufayli axloqiy normalarga zid xatti-harakatlar qilishi huquqbuzarliklarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Yoshlarning tasodifiy hollar, ko‘chadagilarning bema‘ni ta‘siri, kattalarning yaramas xatti-harakatlari ta‘sirida tarkib topadigan axloqiy tushun-

chalari jamoa tomonidan to'g'ri boshqarilmasa, xato, noto'g'ri, buzuv tushunchalarga aylanib qolishi mumkin.

Ba'zan yoshlar turmushdagi biror fakt yoki voqeani, adabiy asarlardagi mazmunni, kinokartinalarni o'zi mustaqil tushuna olmay, noto'g'ri xulosalarga kelib qoladi. Juda og'ir sharoitlarda o'spirinda xato fikrlargina emas, balki ma'naviy jihatdan bizga yot bo'lgan xatolar ham yuzaga kelishi mumkin.

Ko'pchilik noto'g'ri xatti-harakatlarning yuz berishiga yuqorida ta'kidlab o'tilgan holatlar sabab bo'ladi. I. V. Leonovanning ta'kidlashicha, «bolalardagi deviant xulq-atvorning oldini olish uchun eng maqbul shart-sharoit yaratish – bu deviant xulq-atvorning yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatuvchi barcha obyektiv va subyektiv omillarni kompleks tahlil qilishga asoslangan profilaktik ishlar jarayoniga maqsadga yo'naltirilgan yondashuvdir»¹.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, voyaga yetmaganlarda ijobiy xulq-atvor xislatlarni shakllantirish, ularning sog'lom irodali bo'lishlari uchun tarbiyaviy tadbirlarni yosh xususiyatlariga mos ravishda o'tkazish maqsadga muvofiqdir. O'spirinlarda irodalilik, sabr-toqat, matonat kabi xislatlarni takomillashtirish kelajakda jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy qiyofali shaxslarini ko'paytirishga zamin yaratadi.

Salbiy-ijtimoiy hodisalar tarqalish sabablarining pedagogik tahlili

Bugun mamlakatimizda katta o'zgarishlar ro'y berayotgan bir paytda ayrim irodasi sust fuqarolarimiz giyohvandlik, zaharvandlik va spirtli ichimliklarga muhtalo bo'lishayotgani barchani tashvishga solmoqda. Ayniqsa, giyohvandlik vositalarini yoshlar va voyaga yetmaganlar orasida tarqalishi kattalarga qaraganda xatarliroq kechadi. Zero, ular kelajakdagi rahbarlar, olimlar, mutafakkirlar, siyosatchilar, iqtisodchilar va hokazolardir. Aholining bu qatlami zahri qotilga nechog'lik ko'p berilsa, jamiyat shu darajada xavf ostida qoladi.

Og'u inson jismini qanchalik xarob qilsa, shaxs va jamiyatning molmulki, boyligiga ham mislsiz darajada zarar yetkazadi. Asr vabosi deb atalayotgan bu illat tinch-totuv yashayotgan oilalarni buzadi, bolalarni yetim qiladi, muhtojlik, qashshoqlikka muhtalo etadi.

Giyohvandlik o'zi nima?

Birinchi navbatda bu illat kishi organizmida og'ir asoratlar qoldiruvchi xavfli kasallikdir. Chunki giyohvandlik moddalariga berilgan odamning

¹ *Леонова И. В. Роль СМИ в предупреждении девиантности подрастающего поколения // Электронный журнал «Знание. Понимание. Умение». — 2008. — № 2 — Педагогика. Психология.*

hayoti va faoliyati bunday moddalarni muntazam ravishda iste'mol qilishiga moyil bo'lib, shaxsni ham jismonan, ham ruhan holdan toydiradi.

Giyohvandlik jamiyatga va insonlarga nihoyat darajada ko'p zarar yetkazadigan ofat hisoblanadi. Giyohvandlik moddalari shaxsning fiziologiyasi va ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tibbiy xulosalarga ko'ra giyohvandlik moddalarini iste'mol qiluvchi shaxslarning organizmi, ichkilikbozlik bilan shug'ullanuvchi shaxslar organizmiga nisbatan 15–20 marotaba tezroq ishdan chiqadi va buziladi.

Giyohvandlik va giyohvandlikka chalingan shaxslarda bo'ladigan salbiy o'zgarishlar haqida so'z yuritishdan avval ushbu so'zning lug'aviy ma'nosini va giyohvandlik moddalarga nimalar kirishini aniqlashtirib olish zarur. *Giyohvandlik* – yunoncha «narkotikos» so'zidan olingan bo'lib, ma'nosi bir lahza bo'lsa-da hayot tashvishlaridan, muammolaridan yiroqlashish yoki fiziologik rohatlanish xohishidir¹, degan ma'noni bildiradi.

Giyohvandlik moddalarga nasha, qoradori, heroin, ko'knori, opium, kokain kabi tarkibida kishining markaziy asab tizimini qo'zg'atuvchi, uxlatadigan moddalarni kiritish mumkin. Bu moddalarni iste'mol qilish unga ruju qo'yishiga, ya'ni fiziologik va psixologik bog'lanib qolishga olib keladi.

Giyohvandlik moddalarini iste'mol qilish giyohvandlar tomonidan turli usullar orqali, jumladan chekish, ichish yoki igna orqali qon tomirlariga ukol qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Giyohvandlar ijtimoiy mehnatdan yiroqlashib, ruhan va ma'naviy qashshoqlashib, dangasa, xayolparast, hayotga befarq qaraydigan bo'lib qoladilar. Shu sababli shaxsning giyohvandlikka muhtalo bo'lishi bir qancha salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi. Jumladan:

- giyohvandlik nihoyat qiyin davolanadigan kasalliklar turiga kiradi;
- giyohvandlik moddalarini iste'mol qiluvchi shaxs ishlash qobiliyatini yo'qotadi; oila qura olmaydi, ijtimoiy jihatdan foydali ishlarni bajara olmaydi;
- shaxsning psixikasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi (shaxs o'z harakatlarini anglash qobiliyatini yo'qotadi, pul topib giyohvandlik moddalarini sotib olishga ehtiyoji ortadi);
- giyohvandlik moddalarini iste'mol qiluvchilardan nogiron farzandlar tug'iladi, ularning ham giyohvandlik moddalariga ehtiyoji paydo bo'ladi;
- giyohvandlik pul va molga hirs qo'yish illatini vujudga keltiradi;
- har bir giyohvand boshqa shaxslarni bu ishga jalb qilishga o'z hissasini qo'shadi (o'rta hisobda har bir giyohvand bir yil ichida 7–8 kishini bu ishga jalb qiladi).

¹ Qarang: Юридический энциклопедический словарь. – М., 1987. – С. 236.

Giyohvandlik moddalari iste'mol qilinishiga qarshi kurash olib borishda eng avvalo giyohvandlik moddalari iste'mol qilinishining sabablarini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Adabiyotlarda qayd etilishicha, ushbu og'uni iste'mol qiluvchilarning 64,8% qiziqish orqali, 11,7% kasallik tufayli, 14,6% o'z o'rtoqlaridan orqada qolmaslik uchun, 2,5% og'ir kechinmalar tufayli, 2,4% giyohvandlik moddalarning zararini bilmasligi oqibatida, 1,3% boshqa shaxslar tomonidan majburlash oqibatida, 1,1% tibbiy xodimlar ko'rsatmasiga muvofiq, 1,6% esa boshqa sabablar bo'yicha iste'mol qilishlari aniqlangan.

Hozirgi kunda giyohvandlik moddalarini iste'mol qiluvchilarning ijtimoiy tarkibi tahlil etilganda, ularning 2,2% ni qishloq xo'jaligida band bo'lgan ishchilar, 2,3% ni fermerlar, 14,3% o'quvchi va talabalar, 17,8% ishchilar, 37,3% ni doimiy ta'minot manbaiga ega bo'lmagan shaxslar, 26,2% boshqa toifadagi shaxslar tashkil etishi kuzatilmoqda.

Giyohvandlik moddalari inson sog'lig'iga alkogoldan, ya'ni spirtli ichimliklardan bir necha barobar tez, jiddiy va zararli ta'sir etadi, agar muntazam ichkilikbozlikka berilish 7–15 yil oralig'ida doimiy ichkilik ichish bilan yuzaga kelsa, giyohvandlikka bir yarim-ikki oy mobaynida butunlay bog'lanib qolishi bilan xatarlidir. Giyohvandlik moddalarini muntazam ravishda iste'mol qiluvchi shaxslarning kasalligini shartli ravishda uch bosqichga bo'lish mumkin: 1-bosqich – ruhiy bog'lanish bosqichi (bu bosqichda organizmning reaktiv holati o'zgaradi, psixik bog'lanish paydo bo'ladi); 2-bosqich – jismoniy bog'lanish bosqichi (bunda abstinativ sindrom paydo bo'ladi); 3-bosqich esa tolerantlik (reaktivlik)ning paydo bo'lishi, kuchayishi va mustahkamlanishi bilan tavsiflanadi¹.

Giyohvandlik moddalarini iste'mol qilish ko'p holatlarda o'ziga xos ruhiy holat – eyforiyani keltirib chiqaradi. Bunda shaxs kayfiyatining yaxshilangani, tetiklashgani, kuchiga kuch qo'shilganini his qiladi, o'zini cheksiz imkoniyatlarga egadek sezadi.

Shu ma'noda ruhiy bog'liqlik ruhiy faoliyat sohasini qamrab oladi va har xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, u giyohvandlik moddalari muntazam iste'mol qilingan barcha holatlarda vujudga keladi. Ikkinchidan, shaxsda giyohvandlik moddasiga noyob narsa singari ijobiy munosabat mustahkamlanib boradi. Uchinchidan, bog'liqlik dastlab epizotik ravishda, keyinchalik esa mastlik holatini his qilishga bo'lgan turg'un istak-xohishda ifodalanadi. To'rtinchidan, u shaxsning ruhiy holati va boshqa shaxslar bilan bo'ladigan munosabat yo'nalishini o'zgartiradi. Beshinchidan, ruhiy bog'liqlik uzoq vaqt mobaynida saqlanib qolib, u

¹ Толерантлик сўзи чидамлилик деган маънони билдиради.

giyohvandlik moddalaridan o'zini tiyishga urinishlardan so'ng shaxsning ularni iste'mol qilishga qaytishida hal qiluvchi o'rinni egallaydi.

Jismoniy bog'liqlik deganda, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (VOZ)-ning ta'rifiga ko'ra, organizmning giyohvandlik moddalariga moslashuvi tushuniladi. Bunday hol tegishli vositalarning qabul qilinishi to'xtatilganda sodir bo'ladigan intensiv jismoniy kasalliklarda namoyon bo'ladi. «To'xtatish» sindromi yoki abstinativ sindrom deb ataladigan bu kasalliklar (bosh og'rishi, bezgak tutishi, qo'l-oyoqlar suyagidagi qaqshatuvchi og'riq) giyohvandlik vositasining moddalar almashuvida ishtirok etishi va ushbu vosita organizmga kiritilmasa, organlarning bir me'yorda ishlay olmasligi tufayli vujudga keladi.

Giyohvandlikning so'ngi bosqichi odatda shaxsning axloqiy va ma'naviy tanazzuli (oiladagi munosabatlarning buzilishi, jamiyat va qonunda belgilangan qoidalarga rioya qilmaslik) hisoblanadi. Shaxsda bunday tanazzul alkogolli ichimliklarni iste'mol qilishdan 15–20 barobar tezroq vujudga keladi¹.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, giyohvandlikka o'smirlar ilk bor 11–17 yoshida berilishadi. Shu davrda ular jilovlansa, fojيانing oldi olinadi. So'ng ikkinchi davr boshlanadi. Bunda yoshlar bir yoki bir necha marotaba giyohvandlik moddasini iste'mol qilib ko'radilar. Ko'plari keyin davom ettirishmasa-da, 25–30 foizi unga o'rganib qolishadi. Ularning fikri har qanday yo'l bilan, hatto jinoyat sodir etib bo'lsa ham, ehtiyojlarini qondirish uchun og'u topish bo'lib qoladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyo bo'yicha 13,5 million kishi heroin iste'mol qiladi. Ularning bir milliondan oshig'i o'ziga OIV– OITS kasalligini yuqtirgan. Har yili og'uni me'yoridan ko'p iste'mol qilish oqibatida 10 mingdan ortiq kishi hayotdan ko'z yumadi².

Giyohvandlikka chalinishning sabablari tahlil qilinganda, hozirgi davrda fuqarolarning ushbu kasallikka chalinib qolishining asosiy sabablaridan biri sifatida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib o'tish mumkin. Buni, *birinchidan*, mamlakatimizda erkin bozor munosabatlariga o'tilishi, ishchi o'rinlariga bo'lgan raqobatning kuchayishi natijasida aholi ko'pchilik qismining ishsiz qolishi, *ikkinchidan*, narkobiznes orqali daromad orttirishga

¹ Qarang: *Матчанов А.А., Ахмедов О.Т., Матлюбов Б.Б., Таджибоев У.Т., Тургунов У.Т.* Гиёхвандлик воситаларининг ноқонуний муомаласига қарши кураш. – Т., 2011. – Б. 13–14.

² Qarang: *Хасанов Ж.* Фақат яхши амалларни бажарайлик! // Постда. – 2012. – №5. – Б. 3.

moslashgan uyushgan jinoiy guruhlarining bu holdan foydalanishga intilishi, ya'ni bekorchi qolgan aholini giyohvandlikka o'rgatish orqali «tovar»larini o'tkazish hamda katta daromad orttirishga intilishi bilan izohlash mumkin. Chunki ular giyohvandlikka qancha ko'p odamlar muhtalo bo'lsa, shunchalik ko'p foyda oladilar.

Jahon miqyosida olib borilayotgan kuzatishlar voyaga yetmaganlar va yoshlar giyohvandligi sonining ortib borishiga ta'sir qiluvchi omillar turli davlatlarda, qolaversa, bir mamlakatning o'zida turlicha ekanligini ko'rsatmoqda. Lekin ular orasida umumiy jihatlari ham yo'q emas. *Birinchidan*, o'smirlar oqibatini o'ylamagan holda avval tamaki chekishi, so'ngra giyohvandlik moddasini iste'mol qilishi orqali ulg'ayib qolganliklarini ko'rsatishga urinishadi. *Ikkinchidan*, giyohvandlik moddasini iste'mol qilishga o'rganib qolgan yoshlar o'z tengdoshlarini davralar, diskotekalar va boshqa joylarda kamsitib, kalaka qilib, ularni saflariga qo'shilishiga undashadi. *Uchinchidan*, giyohvandlarning paydo bo'lishiga oilaviy muhit ham katta ta'sir ko'rsatadi. Xonadondagi surunkali janjallar, ichkilikbozlikdan bezor bo'lgan o'smir ko'chadan «panoh» topishga harakat qiladi. *To'rtinchidan*, yoshlar aynan balog'at davrida bekorchi bo'lib qolishi, ularni o'zlariga yoqmagan ish bilan bog'lab qo'yish giyohvandlik ko'chasiga kirib qolishni yuzaga keltiradi.

Voyaga yetmaganlarni giyohvandlik moddalariga ruju qo'yishining asosiy subyektiv omillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin, bular:

- boshqa faoliyatda o'zini namoyon qila olmaslik;
- yoshga nisbatan beriluvchanlik;
- tengdoshlari orasida o'zligini namoyon qilish;
- zararli oqibatlarni oldindan ko'ra bilmaslik.

Bu boradagi obyektiv omillar sifatida esa quyidagilarni keltirib o'tish mumkin hisoblanadi:

– voyaga yetmaganlarda bekorchi vaqtning ko'pligi va ota-ona tomonidan uning nazorat qilinmasligi;

– voyaga yetmaganlarning giyohvandlik vositasi yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilib ko'rishga bo'lgan qiziqishi, uning ta'sirini o'zida sinab ko'rishga intilishi;

– voyaga yetmaganlardagi stressga chidamlilikning pastligi, tortinchoqlik, itoatkorlik yoki uning aksi – tez asabiylashishi;

– ota-onaning giyohvandlik moddalarini iste'mol qilishi;

– voyaga yetmaganlarning turli norasmiy o'smirlar guruhlarining ta'siriga tushib qolishi, ularga tobe bo'lib qolishi;

– voyaga yetmaganlarning chekish, surunkali ichishning mantiqiy davomi sifatida giyohvandlik moddalarini iste'mol qilishi;

– ota-onaning voyaga yetmaganlarga haddan ziyod mehr qo‘yishi natijasida unga keragidan ortiq ishonishi;

– ota-onaning voyaga yetmaganlarga ehtiyojidan ortiq ko‘p pul berishi va voyaga yetmaganlar tomonidan uning sarflanishini nazorat qilmasligi va boshqalar.

Giyohvandlik vositalari bilan noqonuniy savdo qiluvchi shaxslar va giyohvandlar voyaga yetmaganlarni giyohvandlikka o‘rgatishda, asosan, moddiy tomondan yaxshi ta‘minlangan oilalarning voyaga yetmagan farzandlarini ko‘proq o‘zlariga o‘lja sifatida jalb qilishga harakat qiladilar.

Olib borilgan umumiy va yakka tartibdagi ishlarga qaramasdan 2011-yil bo‘yicha O‘zbekistonda jami 18197 nafar giyohvandlik moddalarini iste‘mol qiluvchi shaxslar aniqlangan bo‘lib, shundan 2104 nafarining ishi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzuridagi «Yarashtirish komissiyalari» tomonidan ko‘rib chiqilgan.

Bugungi kunda respublikamizda keng jamoatchilik ko‘magida Ichki ishlar vazirligi tizimi xodimlari tomonidan har yili «Qoradori» tadbirining o‘tkazilishi an‘anaga aylanib, giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish hamda ularga qarshi ayovsiz kurashish yaxshi samaralar bermoqda.

Mamlakatimizda giyohvandlik moddalari bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, narkotrafik va narkotik moddalarning g‘ayriqonuniy aylanishiga qarshi kurash eng dolzarb vazifaga aylangan. Ayni paytda O‘zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti, shuningdek AQSH, Germaniya kabi rivojlangan va MDH davlatlari bilan giyohvandlik moddalariga oid jinoyatlarga qarshi kurashishda keng hamkorligi yo‘lga qo‘yilgan.

Surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlik kasallik bo‘lib, xatarli ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanadi.

Surunkali spirtli ichimliklarga ruju qo‘yish deganda, shaxsning spirtli ichimliklar (araq, konyak, vino va boshqalar)ga mukkasidan ketishi, ichmasdan tura olmasligi va unga fiziologik bog‘lanishi tushuniladi. Ushbu illatning oldini olish uchun, birinchi navbatda, shaxsning nima sababdan spirtli ichimliklarga bog‘lanib qolganligini o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Ana shu sabablarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi sabablarga ko‘ra shaxs surunkali ichkilikbozlikka beriladi:

Sotsial-psixologik motivlar:

- an‘analar;
- boshqa shaxslarning ta‘siriga tushish.

Shaxsiy motivlar:

- kayf qilish uchun;

- yomon emotsional holat va kechinmalarni yo‘qotish uchun;
- bekorchilik sababli yoki o‘z ruhiy holatini yaxshilash maqsadida.

Patologik motivlar:

- dori sifatida ichish;
- organizmni biologik ehtiyojini qondirish uchun;
- hayot mazmunining yo‘qligini anglagan holda qasddan ichish.

Shaxs spirtli ichimlik iste‘mol qilishining uch darajasi mavjud bo‘lib, ular shaxsning xatti-harakatlarini belgilaydi. Bular: yengil darajadagi mastlik; o‘rtacha darajadagi mastlik (nerv faoliyatida tormozlanish vujudga keladi va u buziladi); og‘ir darajadagi mastlik (markaziy vegetativ markazlar ishdan chiqadi, paralich bo‘ladi).

Zaharvandlik ham uzoq davrlardan beri mavjud bo‘lib, insonning o‘tkir hidli zaharli moddalarni hidlash orqali kayf qilishi va mast bo‘lishi tushuniladi. Ushbu kasallik ham ijtimoiy xavfli hodisa bo‘lib, unga chalingan shaxs mastlik holatida jinoyat sodir etishga moyil bo‘ladi. Eng yomoni yoshlar va voyaga yetmaganlarning tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishidir. Zaharvandlikka chalingan shaxslar organizmining funksiyasi, zaharvandlik moddalari (benzin, kerosin va boshqa turdagi o‘tkir hidli ximikatlar)ga moslashadi va usiz yashay olmaydi. Zaharvandlikka o‘rganishning ham sabablari yuqoridagilarga o‘xshash bo‘lib, qiziqish, kayf qilish yoki biror salbiy holatni unutish maqsadida qilinadi.

Giyohvandlik va zaharvandlik moddalarini iste‘mol qilishning asosiy psixologik-pedagogik sabablari:

- turmushdagi qiyinchiliklarni esdan chiqarish uchun;
- intizomning yo‘qligi va shaxs xarakterining zaifligi sababli;
- o‘z-o‘zini nazorat qilishning zaifligi;
- noma‘lum taassurotlarni his qilishga qiziqishning mavjudligi;
- oilaviy janjallar va oiladagi nosog‘lom muhit;
- tarbiyadagi kamchiliklar.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan salbiy illatlar jamiyatga juda katta zarar yetkazadi, ayniqsa, voyaga yetmaganlarning bunday salbiy illatlarga jalb etilishi jamiyat hayotiga katta xavf tug‘diradi. Shuningdek, ushbu modda va vositalar ta‘sirida jinoyatlar sodir etilishi o‘ta xavfli tus oladi. Ko‘plab og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar, jumladan o‘zganing mulkini talon-toroj qilish, o‘g‘rilik, bosqinchilik, qotillik va hokazolar sodir etiladi.

Giyohvandlik, surunkali ichkilikbozlik va zaharvandlikning oldini olish faoliyatini tashkil etishda mavjud shaxsiy va ijtimoiy omillarni inobatga olgan holda profilaktik usullarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston davlati mamlakat aholisining sog‘ligini saqlash va ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish borasida ko‘plab ko‘zga ko‘rinarli amaliy ishlarni olib bormoqda. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatga o‘tish jarayonida surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikning oldini olish va ommalashishiga qarshi kurashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Salbiy-ijtimoiy hodisalarni oldini olishning pedagogik muammolari

Surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikning oldini olishda va profilaktik faoliyatni tashkil etish jarayonida, birinchi navbatda, uning sabab va sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish muhim ahamiyatga ega. Surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlik salbiy illatlardan hisoblanib, jamiyat hayotiga ijtimoiy xavf soladigan, ko‘p zarar yetkazadigan ofatdir.

Bunday shaxslar mehnat qilish qobiliyatini yo‘qotadi, sog‘lig‘iga putur yetadi, eng yomoni, bu illat uni jamiyatga zid xatti-harakatlarni sodir etishga undaydi, ayrim holatlarda esa jinoyatlar sodir etilishiga olib keladi.

Shu ma‘noda ushbu kasallikka muhtalo bo‘lgan shaxslarni majburiy davolashga yuborish, O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda «Surunkali alkogolizm hamda giyohvandlikka muhtalo bo‘lgan bemorlarni majburiy davolash to‘g‘risida»gi qonuni va O‘zbekiston Respublikasi IIV va Sog‘liqni saqlash vazirligining 1994-yil 27-dekabrda 326/599-sonli «Surunkali alkogolizm hamda giyohvandlikka muhtalo bo‘lgan bemorlarni majburiy davolash to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida»gi qo‘shma buyrug‘i profilaktika inspektorlarining surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikning oldini olish faoliyatini tashkil etishni belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasi MJTKning 186-moddasida esa fuqarolarning xonaki usulda o‘tkir spirtli ichimliklarni sotish maqsadida tayyorlashi yoki sotishi huquqbuzarligi uchun javobgarlik belgilangan. Umuman, bu boradagi ishlarning tub mohiyati fuqarolarning sog‘lig‘ini, avvalo, yoshlar va voyaga yetmaganlarni surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlik kabi illatlarning zararli ta‘siridan, shu bilan bog‘liq ijtimoiy va boshqa salbiy oqibatlardan himoya qilishga, shuningdek jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda qaror toptirishning tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlarini yaratishga qaratilgandir.

Profilaktika inspektorlari asosan ushbu illatlarga yo‘liqqan shaxslarni normal turmush tarziga qaytarish choralarini ko‘rish bilan birga, spirtli ichimliklar va giyohvandlik vositalarini noqonuniy savdosi bilan shug‘ul-

lanuvchi, ularni targ'ib qiluvchi shaxslarga nisbatan ta'sir choralarini qo'llash orqali ham amalga oshiradi.

Bu jarayonda profilaktika inspektorlari birinchi giyohvandlik, surunkali ichkilikbozlik va zaharvandlikka muhtalo bo'lgan shaxslar haqidagi ma'lumotlarni to'plashlari, olingan ma'lumotlar asosida tekshiruv ishlarini amalga oshirishlari, bemorlarni esa tibbiy muassasalardan tekshirish va shundan so'ng tibbiy muassasalarning xulosalari asosida majburiy davolashga yuborish choralarini ko'rishlari lozim.

Profilaktika inspektorlari birinchi navbatda surunkali ichkilikbozlikni targ'ib etuvchi yoki ushbu mahsulotlarni noqonuniy savdosi bilan shug'ullanayotgan fuqarolarni aniqlashlari va ularni javobgarlikka tortish choralarini ko'rish eng zarur vazifalardan biridir. Albatta shaxsga bo'lgan tashqi ta'sir natijasi uni surunkali ichkilikboz yoki giyohvandga aylantirishi mumkin. Zero, noqonuniy spirtli ichimliklarning sotilishi o'z navbatida targ'ib qilish bilan barobardir. Mahallada o'tkaziladigan to'y va boshqa tadbirlarda ichkilikbozlikni kamaytirish borasida mahalla faollari va boshqa jamoatchilik vakillari bilan tushuntirish ishlarini olib borishlari esa maqsadga muvofiqdir.

Giyohvandlik, surunkali ichkilikbozlik va zaharvandlikni yakka profilaktikasida birinchi navbatda ushbu modda va vositalarga muhtalo bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularni nazoratga olgan holda quyidagi yakka tartibdagi profilaktik ishlar tashkil etishi lozim:

birinchidan, giyohvandlik, surunkali ichkilikbozlik va zaharvandlikka chalingan shaxslarni aniqlash maqsadida ular haqidagi axborotlarni olish;

ikkinchidan, ushbu kasallikka muhtalo bo'lganlik darajasini aniqlash uchun narkologiya dispanserlari tekshiruvidan o'tkazish, u yerda hisobga olinishini ta'minlash va xulosalar olish;

uchinchidan, ma'muriy hududi bo'yicha narkologiya dispanseridan davolanish uchun murojaat etgan va u yerda kasalligi uchun hisobga olinganlar haqidagi ma'lumot va xulosalarni olish;

to'rtinchidan, kasallikka chalingan shaxslarni ichki ishlar organlari profilaktik hisobiga olish;

beshinchidan, profilaktik ta'sir choralar naf bermasa, oxirgi chora sifatida kasallikka muhtalo bo'lgan bemorlarni majburiy davolashga yuborish choralarini ko'rish.

Shuningdek, profilaktika inspektorlarining giyohvandlik, surunkali ichkilikbozlik va zaharvandlikning yakka profilaktikasi jarayonida faqatgina kasal bo'lganlar emas, balki jamoat joylarida muntazam spirtli ichimliklar iste'mol etuvchi va shunga moyil shaxslarni aniqlash va ularga

nisbatan tegishli ravishda ta'sir choralari qo'llash faoliyatini ham ko'rsatishimiz mumkin.

Shaxsning giyohvand moddalar va ichkilikbozlikka berilishining oldini olishning pedagogik va psixologik jihatlarini aniqlash va ular bilan har tomonlama profilaktik ishlarni olib borish, ularga pedagogik ta'sir o'tkazish, ularda mavjud bo'lgan bunday illatlarga qarshi kurash olib borish yo'lida ishlatiladigan pedagogik va psixologik tomonlarni aniqlab olish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Pedagogika fanining asosiy maqsadi ularni pedagogik jihatdan tavsiflab, tarbiyalash yo'llarini ko'rsatib berishdan iborat. Ushbu fan bunday zararli illatlarning oldini olish, ular bilan profilaktik ishlarni o'tkazish, har xil chora-tadbirlar ko'rish, ularni har tomonlama o'rganishni taqozo etadi.

Ma'lumki, voyaga yetmaganlarning giyohvandlikka muhtalabo bo'lishi asosan nazoratsizlik oqibatida kelib chiqadi. Bu borada voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar, muassasalar hamda ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarning umumiy va yakka tartibdagi profilaktik faoliyatni amalga oshirishdagi funktsiya va vazifalari aniq va ravshan belgilab qo'yilgan.

Agar voyaga yetmagan yoki yoshlar giyohvandlikka chalinsa, u holda ota-ona yo ularning o'rnini bosuvchi shaxslar fuqarolar yig'ini huzuridagi Yoshlar bilan ishlash komissiyasiga, maktab ma'muriyatiga muammoning sabablarini aniqlash va hal etishda yordam berishni so'rab murojaat qilishi hamda bamaslahat va hamkorlikda quyidagi ishlar amalga oshirishlari talab etiladi:

– birinchi navbatda, zarur deb hisoblansa, psixolog mutaxassis ishtirokida bolaning ehtiyoji, qiziqishi, o'zi va hayoti bilan bog'liq muammolar aniqlanadi¹;

– shaxsning ehtiyoji, qiziqishi hamda muammolarini hisobga olgan holda u bilan yakka tartibda tarbiyaviy-profilaktik suhbatlar o'tkaziladi;

– shaxsning giyohvandlik moddasini iste'mol qilish uchun moddiy mablag'ni qayerdan olishi, ta'minotchisi kim ekanligi aniqlanadi;

– shaxsning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etish va nazorat qilish uchun ustoz-murabbiy yoki jamoatchi tarbiyachi birlashtiriladi;

– shaxs narkologiya dispanser ko'rigiga olib boriladi;

– zarur hollarda ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik va boshqa amaliy yordam ko'rsatish hamda aniqlangan muammolarni hal etish bo'yicha vakolatli idoralarga murojaat qilinadi.

¹ Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Вояга етмаган болалар ўртасида жиноятчиликнинг олдини олишга ўрнатилган (Ар-Риёд) дастурий принцип-ларининг 1-моддаси.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha ishtirokchilar faoliyatlarini muvofiqlashtirish mas'uliyati maktab ma'muriyati vakiliga yuklatilishi maqsadga muvofiq.

Agar voyaga yetmaganning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar yoxud maktab ma'muriyati tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar o'z samarasini bermay, voyaga yetmaganlar surunkali ravishda giyohvandlik va zaharvandlik moddalarini iste'mol qilishni davom ettirsa, u holda ular tuman (shahar) IIBning hududga birlashtirilgan Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektoriga murojaat qilishi shart.

Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori surunkali ravishda giyohvandlik va zaharvandlik moddalarini iste'mol qilayotgan voyaga yetmaganlarning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, fuqarolar yig'ini huzuridagi Yoshlar bilan ishlash komissiyasi, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi, maktab ma'muriyati, sinf murabbiysi yoki boshqa pedagoglar bilan bamaslahat va hamkorlikda quyidagi tadbirlarni amalga oshirishi lozim:

– voyaga yetmaganlarning ehtiyoji, qiziqishi hamda muammolari qanchalik to'liq va mukammal aniqlanganligi va u bilan yakka tartibda tarbiyaviy-profilaktik suhbatlar qanchalik o'tkazilganligini, bunda voyaga yetmaganlar manfaatlari nechog'lik hisobga olinganligini o'rganish;

– voyaga yetmaganlar bilan o'tkazilgan yakka tartibdagi tarbiyaviy-profilaktik suhbatlar, unga birlashtirilgan ustoz-murabbiy yoki jamoatchi tarbiyachi faoliyati, ko'rsatilgan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik va boshqa amaliy yordamlar, uning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar nima uchun samara bermayotganligining sabablarini aniqlash;

– aniqlangan sabablarni bartaraf etish maqsadida voyaga yetmaganlarga nisbatan amalga oshiriladigan belgilangan tarbiyaviy profilaktik ishlarni olib borish, unga amaliy yordam ko'rsatish uchun mas'ul shaxslarga o'z vazifalarini bajarmayotganliklarini ma'lum qilish, zarur hollarda bu haqda prokurorga belgilangan tartibda murojaat qilish;

– majburiyatlarini bajarmayotgan, voyaga yetmaganlarning surunkali ravishda giyohvandlik moddalarini iste'mol qilishiga shart-sharoit yaratib berayotgan ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni, mansabdor shaxslarni aniqlash va hujjatlarni hokimliklar huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarga taqdim qilish;

– voyaga yetmaganlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazib, mutaxassis shifokorning yozma xulosasiga ko'ra majburiy davolanishga yuborish.

Aytib o‘tilgan ushbu tadbirlardan tashqari, yana quyidagi choralarning ko‘rilishi ham talab etiladi:

- voyaga yetmaganlarni giyohvandlik moddalarini iste‘mol qilishga undayotgan shaxslarni aniqlash borasida tegishli xizmat sohalari bilan birgalikda tadbirlar o‘tkazish;

- giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar voyaga yetmaganlarning qo‘liga qanday yetib borayotganligini aniqlash;

- ichki ishlar organlarining boshqa xizmatlari bilan birgalikda, giyohvandlik kasalligiga duchor bo‘lgan ota-onalarning muomala layoqatini cheklash, ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi hujjatlarni rasmiylashtirishda ko‘maklashish;

- sog‘liqni saqlash muassasalariga kelishdan bosh tortgan majburiy davolanishga muhtoj, surunkali ravishda giyohvandlik moddalarini iste‘mol qiluvchi voyaga yetmaganlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishga olib kelishga yordamlashish;

- mutaxassis shifokorning yozma xulosasi asosida qonunda ko‘rsatilgan tartibda tegishli hujjatlarni tibbiy muassasalar yordamida rasmiylashtirib, sud qarori asosida voyaga yetmaganlarni majburiy davolanishga jo‘natish;

- sog‘liqni saqlash muassasalari tomonidan «giyohvand» tashxisi qo‘yilgan va majburiy davolash muassasasidan qaytgan voyaga yetmaganlarga nisbatan profilaktik hisob ishi yuritish;

- voyaga yetmaganlarning profilaktik hisobga olinganligi haqida uning yashash, o‘qish va ish joylariga xabar berish.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha ishtirokchilar faoliyatlarini muvofiqlashtirish uchun mas‘ul tuman (shahar) IIB voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori hisoblanadi.

Ta‘kidlash kerakki, giyohvandlik oqibatida ko‘plab jinoyatlar va huquqbuzarliklar sodir etiladi. Shuning uchun giyohvandlikning oldini olishda har bir fuqaro o‘zining mas‘uliyat va burchini his etishi kerak. O‘z vaqtida ichki ishlar organlariga giyohvandlik bilan shug‘ullanuvchi shaxslar to‘g‘risida va giyohvandlik vositalarini tarqatuvchilar haqida xabar qilishlari lozim bo‘ladi. Mamlakatimizda giyohvandlikka qarshi kurashning turli shakl va usullaridan foydalanilmoqda, lekin bu illatlarni oldini olishda samarali natijaga erishish uchun barcha profilaktika subyektlari va davlat organlari, fuqarolarning o‘zaro hamkorligi borasida kerakli chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalda qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlik kabi illatlar, o‘z navbatida, jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlardan hisoblanadi. Bu muammo va kamchiliklarni bartaraf etishda ichki ishlar

organlarining boshqa davlat organlari va jamoatchilik bilan hamkorligi muhim ahamiyatga egadir.

Surunkali alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikning oldini olishda profilaktika inspektorlarining tibbiy muassasalar bilan hamkorligi asosiy o‘rinni egallaydi. Bu jarayonda profilaktika inspektorlari narkologik dispanserlar bilan hudud bo‘yicha qancha fuqaro hisobga olinganligi, davolanganligi, tuzalganligi, ularning kasallik darajalari haqidagi ma’lumotlar olish bilan birga, ayrim fuqarolarning kasallikka chalinganligini aniqlashda va ularni dispanser ko‘rigidan o‘tkazishda hamkorlik qiladi.

Sog‘liqni saqlash vazirligi va uning joylardagi tizimlari tomonidan giyohvandlik va ichkilikbozlikning oldini olishda olib boriladigan choralar quyidagilardan iborat:

- surunkali ichkilikka ruju qo‘ygan, giyohvand, zaharvandlarni aniqlash, davolash va hisobga qo‘yish;
- tibbiyot uchun zarur dorilarning miqdorini aniqlash;
- maxsus davolash muassasalarini kengaytirishni ta’minlash;
- bu turdagi bemorlarni davolovchi tibbiyot xodimlari malakasini oshirish;
- ilmiy izlanishlar olib borish;
- turli dorilarni ishlab chiqishda, xomashyodan foydalanishda qat’iy hisob yuritish.

Surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikka muhtalo bo‘lgan shaxslarni majburiy davolashga yuborish bo‘yicha profilaktika inspektorlarining tibbiy muassasalar bilan o‘zaro hamkorligi quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi:

- bu kasallikka duchor bo‘lgan bemorlar boshqa fuqarolarning huquqlariga xavf solganda majburiy davolash muassasasiga olib kelinishi jarayonida;
- aniqlangan bemorlar bilan profilaktik suhbatlar o‘tkazish jarayonida;
- bemorlarning oila a’zolari, qarindoshlari bilan tushuntirish ishlari olib borish jarayonida;
- ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikning salbiy oqibatlari haqida fuqarolar oldida targ‘ibot-tashviqot, umumiy profilaktika ishlarini olib borish jarayonida.

Respublikamizda surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikning oldini olish jarayonida amalga oshirilayotgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Bugungi kunda respublikamizda surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikning oldini olishda turli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, bu turdagi modda va vositalarning noqonuniy tarqalishi va ularni sotish, sotib olish qarshi kurashish borasida bir qator chora-tadbirlar belgilangan.

Surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikka voyaga yetmaganlarning kirib ketishi achinarli holdir. Yoshlar va voyaga yetmaganlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi profilaktik ishlarni tashkillashtirish eng muhim vazifalardan biridir. Ushbu illatlarning aksariyati kechasi ishlaydigan kafe yoki restoranlarda tashkil etilishi inobatga olinib, O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 17-mayda qabul qilgan «O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish to'g'risida»gi kodeksiga 188²-modda kiritildi. Unda «Voyaga yetmagan shaxsning ko'ngil ochish (dam olish) joylarida tungi vaqtda bo'lishiga yo'l qo'yish» huquqbuzarligi uchun javobgarlik belgilandi va «Restoranlar, kafelar, barlar, klublar, diskotekalar, kinoteatrlar, kompyuter zallari, Internet tarmog'idan foydalanish xizmatlarini ko'rsatish uchun jihozlangan xonalar yoki boshqa ko'ngil ochish (dam olish) joylarining rahbarlari yoxud boshqa mas'ul shaxslari tomonidan voyaga yetmagan shaxsning tungi vaqtda ota-onasidan biri yoki uning o'rni bosuvchi shaxsning kuzatuviz ko'rsatilgan muassasalarda bo'lishiga yo'l qo'yish eng kam ish haqining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi», deb ko'rsatib o'tildi. Ushbu modda surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlik kabi salbiy illatlardan yoshlar va voyaga yetmaganlarni asrash yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekiston respublikasining 2011-yil 7-oktabrda qabul qilgan «Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida»gi qonuni surunkali ichkilikbozlik va giyohvandlikning oldini olish va uni targ'ib etuvchi holatlarga qarshi kurash yo'nalishlarini belgilab berdi. Qonunning 3-moddasida bir qator ta'riflar berilgan. Jumladan: *alkogol mahsuloti* – «konyak spirti yoki tozalangan etil spirtidan, vino materiallari va (yoki) tarkibida spirt bo'lgan oziq-ovqat mahsulotidan foydalanilgan holda ishlab chiqarilgan, hajmidagi etil spirtining ulushi bir yarim foizdan ortiq bo'lgan oziq-ovqat mahsuloti», *alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy ta'siri profilaktikasi* – «alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish bilan bog'liq fuqarolar sog'lig'iga, avvalo, yoshlar sog'lig'iga, ularning jismoniy, ma'naviy rivojlanishiga, jamiyatning ma'naviy-axloqiy negizlariga tahdidlarning hamda boshqa tahdidlarning oldini olishga va ularni kamaytirishga qaratilgan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy chora-tadbirlar hamda boshqa chora-tadbirlar majmui», *alkogolga qaramlik* – «alkogol mahsulotiga patologik ruju qo'yish, alkogoldan surunkali zahar-

lanishning psixosomatik (ruhiy va jismoniy) hamda ijtimoiy oqibatlari bilan tavsiflanadigan surunkali kuchayib boruvchi kasallik (surunkali alkogolizm)», *tibbiy ogohlantirish* – «alkogol mahsuloti idishining yorlig'ida hamda tamaki mahsulotining qutisida (o'rovida) joylashtiriladigan, alkogol yoki tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning inson sog'lig'iga salbiy ta'siri to'g'risidagi axborot», deb ko'rsatib o'tilgan.

Qonuning 4-moddasida alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash, ularning salbiy ta'siri profilaktikasi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagicha ko'rsatilgan:

- fuqarolar sog'lig'ini saqlash, alkogol, tamaki mahsulotlarining zararli ta'siridan himoya qilishga qaratilgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda boshqa chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish;

- fuqarolarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga, aholi, avvalo, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga, ularning sog'lig'iga alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish bilan bog'liq tahdidlarning oldini olish hamda bunday tahdidlarni kamaytirishga qaratilgan profilaktika, ma'rifiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish;

- alkogol va tamaki mahsulotlarining ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishi sohasidagi davlat nazoratini ta'minlash, shuningdek bunday mahsulotlarning tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklashga, ularning salbiy ta'siri profilaktikasiga, jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga qaratilgan davlat dasturlarini amalga oshirish;

- alkogol va tamakiga qaram bo'lib qolgan shaxslarga tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishning samarali tizimini yaratish;

- alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy ta'siri profilaktikasi, shuningdek alkogol va tamakiga qaramlik diagnostikasi hamda uni davolash sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish;

- sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda hamda alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi va iste'mol qilinishini cheklash va ularning salbiy ta'siri profilaktikasi sohasidagi davlat siyosatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan profilaktika, ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining keng ishtirok etishi uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish.

Surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlikning oldini olishda umumiy profilaktika ham alohida o'ringa ega. Bu jarayonda aholi o'rtasida ushbu illatlarning salbiy oqibatlari, ijtimoiy xavfi haqidagi uchrashuvlar, ma'ruzalar o'qish bilan birga, targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish samaralidir. Fuqarolar bilan targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishda ko'rib chiqilayotgan illatning salbiy oqibatlarini tasvirlovchi

lavhalar, plakatlar, kinofilmlar, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar orqali profilaktik chora-tadbirlarni olib borishi mumkin.

Ichkilikbozlikni targ'ib etuvchi yoki ushbu mahsulotlarni noqonuniy savdosi bilan shug'ullanayotgan fuqarolarni aniqlash va ularni javobgarlikka tortish choralari ko'rish ham profilaktika inspektorlarining asosiy vazifalardan biridir. Tashqi ta'sir natijasi ham shaxsni surunkali ichuvchi yoki giyohvandga aylantiradi.

O'zbekiston Respublikasi MJtKning 187-moddasida jamoat joylarida spirtli ichimliklarni iste'mol etish huquqbuzarliklari uchun ma'muriy jazo choralari qo'llash ko'rsatib o'tilgan. Profilaktika inspektorlari ma'muriy hududda jamoat joylarida, maktab yoki bog'chalar hududlarida, xiyobonlarda ushbu huquqbuzarlikni sodir etuvchilarni aniqlab, ularni ma'muriy javobgarlikka tortishlari va ushbu shaxslar bilan tushuntirish ishlarini amalga oshirishlari ham yakka profilaktikaning yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Sud majburiy davolashga yuborish haqidagi masalani bemor va uning qarindoshlari ishtirokida ko'rib chiqib, qaror qabul qiladi. Agar bemor sudga sababsiz kelmasa, ichki ishlar organlari tomonidan majburiy ravishda olib kelinadi. Majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi sud qarori ustidan qaror chiqarilgan shaxs yoki uning himoyachisi yetti kunlik muddat ichida yuqori turuvchi sudga norozilik bildirishi mumkin.

Sudning majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi qarori 10 kunlik muddat ichida hudud profilaktika inspektori tomonidan ijro etilishi kerak. Majburiy davolash muddati esa, davolash muassasasida tashkil etilgan komissiya tomonidan bemor davolashga joylashtirilgach, 5 kun ichida hal etiladi. Bunday bemorlarni majburiy davolash jarayoni davolash muassasalarida ularni mehnatga jalb etish orqali amalga oshiriladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Salbiy ijtimoiy hodisalar tushunchasi va turkumlari, ularning namoyon bo'lishi va rivojlanish omillarini aytib bering.

2. Giyohvandlik, zaharvandlik va ichkilikbozlik tushunchalariga ta'rif bering va ularni iste'mol qilishning pedagogik-psixologik sabablarini ayting.

3. Giyohvandlik, zaharvandlik va ichkilikbozlik kabi salbiy ijtimoiy illatlarni oldini olishning pedagogik muammolari nimalardan iborat?

4. Psixotrop moddalar va ichkilikbozlikka patologik-psixologik moyillik qanday kechadi?

5. Zaharvandlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik moddalarining shaxs psixologiyasiga salbiy ta'siri natijasida, ularda g'ayriijtimoiy xulq-atvorning namoyon bo'lishi. Bunday salbiy hodisalarning tarqalishiga ko'maklashuvchi omillar va ularni bartaraf etish yo'llarini aytib bering.

6-mavzu. PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Psixologiya fani haqida tushuncha. Ong va psixika.

Hozirgi zamon psixologiya fanining asosiy prinsiplari, kategoriyalari va ilmiy tadqiqot usullari.

Ichki ishlar organlari faoliyatini psixologik ta'minlashning asosiy yo'nalishlari.

Psixologiya fani haqida tushuncha. Ong va psixika

Insoniyatning ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti davomida qadimgi odamlar tabiiy hamda ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ibtidoiy jamoa a'zolarining psixologik xususiyatlarini aniqlash, ulardan shaxslararo munosabatlarda oqilona foydalanish, o'zining xatti-harakati, shaxsiy faoliyati va muomalaga kirishishida ularni hisobga olishga intilib yashab kelganlar. Ko'p ming yillik ijtimoiy hayot tajribalariga asoslangan ravishda odamlar shaxsning individual (lot «individuum» – «alohida», «yakkahol odam») xususiyatlarini jon bilan bog'lashga va uning ta'siri bilan izohlashga harakat qilishgan. Qadimgi odamlarning tasavvurlariga qaraganda, inson tanasida jon joylashgan bo'lib, u shaxsga oid xususiyatlar, xislatlarni vujudga keltirish imkoniyatiga ega emish. Qadimgi ajdodlarimizning «jon» to'g'risidagi tasavvurlari shunga bog'liq, mutanosib tushunchasini keltirib chiqardi va buning natijasida animizm (lot «anima» «jon» degan) ta'limoti insoniyat tomonidan kashf qilinadi. Ibtidoiy xalqlarning tasavvurlarida ruh insonning tanasi bilan uzviy bog'liq holda hukm suradi, go'yoki yashaydi. Shuning uchun ijtimoiy hodisalar, hatto ong, shuningdek real voqeliklar (o'lim, uyqu, behush bo'lish, betoblik) kabilarni sodda tarzdagi moddiylik (mavjudlik) nuqtai nazaridan talqin qilishga uringanlar. Sodda tafakkur shakllari bilan qurollangan qadimgi odamlar atrof-muhit to'g'risidagi rang-barang holatlar, hodisalar mohiyatini ilmiy jihatdan dalillash imkoniyatiga ega bo'lganligi sababli idrok qilingan narsani uning haqiqiy mohiyati tarzida aks ettirishgan. Ularning tasavvurlarida quyidagicha talqinlar keng o'rin egallagan:

1) o'lim-uyquning bir turi, lekin ruh ba'zi bir sabablarga ko'ra tanaga qaytib kelmaydi;

2) tush ko'rish-uyqudagi tanani tark etib yurgan harakatdagi ruhning taassurotidir;

3) ruh – insonning aynan o‘zidir;

4) ruhning ehtiyojlari, turmush sharoitlari tirik odamnikidan tafovutlanmaydi;

5) marhumlarning ruhlari muayyan mashg‘ulotlar tizimiga, ijtimoiy qonun-qoidalarga rioya qiluvchi hamjamiyatni yaratadi;

6) tirik insonlar bilan marhumlarning ruhi bir-biriga bog‘liq bo‘lib, moddiy jihatdan o‘zaro aloqadordirlar.

Qadimgi insonlar tabiatining qudrati (kuch-quvvati) oldidagi zaifligi tufayli yakka shaxs ham, jamoa ham ruhga itoatkor tarzida tasavvur etilishi natijasida din, ibodat tushunchalari paydo bo‘ladi.

Insoniyatning ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti davomida mehnatni rejalashtirish, ishlab chiqarish munosabatlari, ishlab chiqarish kuchlari va ularning tabaqalashuvi, odamlar tafakkurining rivojlanishi tufayli jonning (ruhning) moddiylikdan tashqari xususiyati, ko‘rinishi yuzasidan g‘oyalar vujudga keladi. Buning natijasida animistik tasavvurlar o‘rnini ruhni borliqning naturalistik (lot. «natura» – «tabiat» ma‘nosini anglatuvchi) falsafiy manzarasi tarzida izohlash namoyon bo‘la boshladi:

1. Ruh olamining ibtidosini tashkil qiluvchi narsalar (suv, havo, olov)ning insonlar va hayvonlarga jon bag‘ishlovchi shakli (Fales eramizdan oldingi VII–VI asrlar, Aneksimon V asr, Geraklit VI–V asrlar).

2. Eramizdan oldin ijod qilgan yunon faylasuflarining ilmiy izlanishlari natijasida materiyaning jonliligi, ya‘ni gilozoizm (yunon. «hule» – «modda», «zol» – «hayot» ma‘nosi) to‘g‘risidagi g‘oya yuzaga keladi.

3. Materiyaning jonliligi haqidagi g‘oyani rivojlantirgan atomizm (yunon. «atomos» – «bo‘linmas») nomoyandalari (Demokrit eramizdan avvalgi V–IV asrlar, Epikur IV–III asrlar, Lukritsiy I asr) bir qancha fikrlarni ilgari surdilar, jumladan:

1) ruh tanaga jon bag‘ishlovchi moddiy jismlar;

2) moddiy asos sifatidagi aql;

3) hayotni boshqaruvchi idrok vazifasini bajaruvchi a‘zo;

4) ruh bilan aql tana a‘zolari, binobarin ularning o‘zi ham tanadir;

5) ular sharsimon, kichik harakatchan atomlardan iboratdir.

Atomistlarning fikrlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, unda tananing (jonli narsaning) aks ettirishidan tortib to psixikaga (yuksak aql idrokgacha) jonliligi xususiyatining materiya xos xususiyat ekanligining e‘tirof etilishi o‘sha davr uchun buyuk ilmiy voqelik edi.

Yuqoridagi mutafakkir olimlarning mulohazalari organizmning anatomik, fiziologik tuzilishi, miyaning tarkibi singari moddiy asoslarga suyan-gan holda real voqelikni tushuntirish imkoniyatiga ega emas edi. Xuddi shu omildan kelib chiqqan holda insonning tafakkuri, shaxsiy fazilatlarini, uning

maqsadni ko‘zlashi, gavnani idora etishga qobilligini dalillash to‘g‘risida fikr yuritish murakkab ruhiy jarayon hisoblanadi.

Ijtimoiy hayot ehtiyojlari qadim zamonlardan buyon kishilarni tevarak atrofdagi odamlarning psixologik jihatdan tuzilish xususiyatlarini farqlay bilishga va ularni o‘z xatti-harakatlarida hisobga olishga majbur etib kelgan. Dastlab bu xususiyatlarga jonning ta‘siri deb izoh berilgan. «Jon» tushunchasining paydo bo‘lishi ibtidoiy xalqlarning animistik qarashlari bilan bog‘liqdir.

Keyinchalik jamiyat taraqqiy eta borgan sari rejalashtirish va ijroning jismoniy mehnat va ishlab chiqarishning ma‘naviy kuchlarning tabaqalashuvi sinfiy jamiyatning paydo bo‘lishi va kishining mavhumlashtirish qobiliyati rivojlana borishi munosabati bilan jonning moddiylikdan xoli tabiati haqidagi g‘oyalar paydo bo‘ldi.

Shu bilan birga, oldingi animistik, afsonaviy tasavvurlar o‘rnini ruhni borliqning naturfalsafiy manzarasi nuqtai nazardan tushuntirishga urinishlar egallay boshladi. Moniy natur faylasuflari – **Fales** (7–6 asrlar), **Anaksimn** (eramizdan oldingi 5 asr), va **Geraklit** (eramizdan oldingi 6–5 asrlar) ruhni olamning ibtidosini tashkil etuvchi narsaning (suv, havo, olov) odamlar va hayvonlarga jon ato etuvchi shakli tarzda talqin qilishgan. Qadimgi yunon faylasuflarining bu g‘oyani izchillik bilan o‘tkazishlari materializmning o‘ziga xos shakli materiyaning jonliligi (gilozoizm) to‘g‘risidagi xulosaga olib keldi. Bu materialistik g‘oyalarning **Demokrit** (er. oldingi 5–4 asrlar), **Epikur** (eramizdan oldingi 4–3 asrlar) va **Lukretsiy** (eramizdan oldingi 1 asr) kabi atomistlar tomonidan rivojlantira borishi oqibati o‘laroq ruh tanaga jon bag‘ishlovchi moddiy jism, shuningdek moddiy asos hisoblanmish aql, ya‘ni boshqacha qilib aytganda hayotning butun jarayonini boshqarish vazifasini bajaruvchi idrok bilan idora etiladigan a‘zo sifatida talqin etila boshlandi. Ruh bilan aql tananing a‘zolari bo‘lgani uchun ularning o‘zi ham tana hisoblanadi va atomistlarning fikriga ko‘ra, sharsimon kichik va shuning uchun ham ancha harakatchan atomlardan tarkib topadi. Bu fikrning soddaligiga qaramay unda jonli narsa tananing eng sodd funksiyalardan tortib to psixikaga xos xususiyat ekanligining tasdiqlanishi progressiv hol edi.

Shunday qilib, psixik faoliyatni ilmiy tushunish yo‘lidagi dastlabki yirik muvaffaqiyatlar uning fizikaviy olam qonunlariga bo‘ysunishini isbot qilish bilan, uning ko‘rinishlari organizmning anatomo-fiziologik tuzilishiga bog‘liqligini kashf etish bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bilan birga, o‘sha davr materializm namoyandalari ixtiyoridagi ma‘lumotlar yordamida kishiga xos mavhum mantiqiy tafakkur qanday bo‘lishini, shaxsning ma‘naviy

fazilatlari qay tariqa tarkib topishini, kishining o'z oldiga maqsad qo'yishi va gavdani o'z izmiga bo'ysundira olishi, bilish qobiliyati qay yo'sinda talqin etilishi va shu kabilarni tushuntirib berish qiyin edi.

Chinakamiga insoniy xulq-atvorga oid ushbu alomatlarini atomlar harakati doirasidan tashqariga olib chiqish, «sharbatlar» aralashmasi yoki miyaning tashqi tuzilishi bilan tushuntirish mumkin emas edi. Bu esa quldorlik jamiyati manfaatlarini himoya qiladigan faylasuflarning psixika haqidagi idealistik qarashlarining rivojlanishi uchun sharoit yaratib berdi. Bu faylasuflar orasida **Aflotun** (eramizdan oldingi 428, 427–337-y) alohida ajralib turadi. U jonning qismlari to'g'risidagi tushunchani yaratdi. Shunday qismlardan: a) aql-idrokni; b) jasoratni; v) orzu-istakni alohida ajratib ko'rsatdi va ular tananing turli qismlari (bosh, ko'krak, qorin bo'shlig'i)ga joylashgan bo'ladi degan fikrni ilgari surdi. Aflotunning fikricha, jonning qismlari odamlarda bir xil taqsimlangan bo'lib, ulardan birining boshqalariga qaraganda ustun bo'lishi individning u yoki bu ijtimoiy guruhga mansubligini belgilaydi.

Aflotun psixologiyada dualizmning ya'ni moddiy va ruhiy olamni tana bilan psixikani ikkita mustaqil va antagonistik ibtidoiyalar tarzida tushuntiradigan ta'limotning asoschisidir. Aflotunning dualizmiga qaraganda uning shogirdi **Arastu** (eramizga qadar 384–322-y)ning ta'limoti ancha muvaffaqiyatli ravishda ilgarilab ketdiki, u psixologik fikrlarni tabiiy va ilmiy asosda qayta ko'rib uni biologiya va tibbiyot bilan bog'ladi. Arastuning «Jon to'g'risidagi» asari psixologiyaning bu davrga kelib o'ziga xos bilimlar sohasi sifatida ajralib chiqqanligidan dalolat beradi.

Arastu kishilik tafakkuri tarixida birinchi bo'lib ruh va jonni tananing ajralmas ekanligi g'oyasini ilgari surdi. Shu bilan Arastu ilmiy psixologiya faniga asos soldi.

Sharq allomalaridan **Ibn Sino**, **Forobiy**, **Beruniy**, **Navoiy** o'z asarlarida psixika va shaxs psixologiyasi muammolari yuzasidan turlicha yondashuvlar bilan chiqishdi.

***Psixika** – bu yuksak darajada tashkil topgan materiyaning mahsuli bo'lib, obyektiv olamni subyektiv aks ettirishga aytiladi.*

Psixika miyaning xususiyatidir. Sezgi, fikr ong maxsus tarzda tashkil topgan materiyaning oliy mahsulidir. Organizmning psixik faoliyati tananing ko'p sonli maxsus a'zolari vositasida amalga oshiriladi.

Organik dunyoning amyobalardan to odamga qadar uzoq davom etgan evolutsiyasi davomida xulq-atvor va xatti-harakatlarning fiziologik mexanizmlari to'xtovsiz murakkablashib, tabaqalanib va shular tufayli organizm muhit o'zgarishlariga tez reaksiya qila oladigan va moslashuvchan bo'la bordi.

I. M. Sechenov «*Bosh miya reflekslari*» (1863) asarida «ongli va ongsiz hayotning barcha harakatlari ro'y berish usuliga ko'ra reflekslardan iboratdir» degan xulosaga kelgan edi.

Psixik hodisa yaxlit reflektor harakatda yuz bergan va uning mahsuli bo'lgan holda, ayni paytda hali yuzaga kelmagan natija (ta'sir o'tkazish, harakat qilish)dan darak beruvchi omil vazifasini bajaradi.

Psixik jarayonlarning roli nimalardan iborat? Bu organizmning signal yoki boshqaruv funksiyasi bo'lib harakatni o'zgaruvchan shart-sharoitlarga moslashtiradi va shu bilan foydali, moslashuvchan samaraga erishishini ta'minlaydi. Psixik jarayon, ma'lumki o'ziga emas, balki miyaning mohiyati, uning tegishli bo'linmalari funksiyasi sifatida tashqi olam haqidagi axborotning qayoqqa ketishi, qayerda saqlanishi va qayta ishlanishini ko'rsatuvchi javob faoliyatining boshqaruvchisidir. Shunday qilib, kishining bilimlari, tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarni, ya'ni individual tajribaning butun boyliklari reflektor harakatga kiradi. Psixik hodisalar bo'limining tashqi (tevarak-atrofdagi muhit) va ichki fiziologik sistemasi sifatidagi organizmning holati) ta'sirlarga javobidir.

Psixik hodisalar – bu faoliyatning ta'sir etayotgan (sezgilar, idrok), ya'ni o'tmish tajribada (xotira yuz bergan qo'zg'atuvchiga javob tarzida) ro'y beradigan, ana shu ta'sirni umumlashtiradigan ular pirovardida olib keladigan natijalarni (tafakkur, xayol) oldindan ko'ra bilishga yordam beradigan, bir xil ta'sirotlar natijasida faoliyatni (his-tuyg'u, iroda) kuchaytiradigan yoki susaytiradigan, umuman faollashtirilib yuboradigan va boshqa xildagi ta'sirotlar oqibatida uni tormozlashtiradigan, odamlar xulq-atvoridagi (temperament xarakter va boshqalar) tafovutlarni aniqlaydigan doimiy boshqaruvchilardir.

I. M. Sechenov psixikaning reflektorligi va faoliyatning psixik jihatdan boshqarilishi g'oyasini ilgari surdi. Bu muhim nazariya va qoidalar **I. P. Pavlov** (1849–1936-y.) tomonidan tajriba yo'li bilan tasdiqlandi va konkretlashtirildi. U hayvonlarning, shuningdek odamlarning tashqi muhit bilan o'zaro harakati miya tomonidan boshqarilishi qonuniyatlarini kashf etgan edi. I. P. Pavlovning ushbu qonuniyatlarga nisbatan jami qarashlari odatda ikki xil signal sistemasi haqidagi ta'limot deyiladi.

Narsaning timsoli (ko'rinishi eshutilishi, hid tarqatishi va shu kabilar hayvonlar uchun biror-bir shartsiz qo'zg'atuvchi signal bo'lib xizmat qiladiki, bu ular xatti-harakati shartli refleks tarzida o'zgarishiga olib keladi.

Hayvonlar o'z xatti-harakatlarida **I. P. Pavlov** birinchi signal sistemasining signallari «birinchi signallar» deb atagan signallarga amal qiladi. Hayvonlarning butun psixik faoliyati birinchi signallar sistemasi darajasida

yuz beradi. Odamda ham birinchi signal sistemasining signallari (konkret timsollar, tasavvurlar) uning xulq-atvorini boshqarish va yo'naltirishda juda muhim rol o'ynaydi. Masalan, svetoforming qizil chirog'i avtomashina haydovchisi uchun signal qo'zg'atuvchi bo'lib, qator harakatlantiruvchi jarayonlarni hosil qiladiki, natijada shofyor tormozni bosib, mashinani to'xtatadi, aytganlarning hammasini psixikani obyektiv olamning subyektiv tarzi, voqelikning miyadagi aksi deb hisoblash imkonini beradi.

Psixologiya psixikani o'rganishning o'z konkret ilmiy vazifalariga, o'zining konkret tadqiqot mavzuiga egadir. Psixologiya ta'sir ko'rsatuvchi obyektlari bo'lgan subyektning ichki, psixik holatiga tashqi ta'sirotlar natijasida ro'y beradigan o'zgarishlar jarayoni qanday kechishini o'rganadi.

Psixika faolligi bilan ajralib turadi. Uning zarur jihati mayillar, eng maqbul yechimni faol izlash, ehtimolidagi xatti-harakatlar variantlarini xayoldan o'tkazishdan iboratdir. Psixik in'ikos aynan o'zini aks ettiradigan, sust narsa emas, balki u harakatlarning turli variantlarini izlanish, tanlash, solishtirish bilan bog'liq bo'lgan shaxs faoliyatining zarur jihati hisoblanadi.

Psixikaning mavjudligi izchil harakat dasturini tuzish, oldiniga ichki rejada ish bajarish (masalan, xulq-atvorning ehtimolidagi variantlarini tanlash) va shundan keyingina harakat qilish imkonini beradi.

Biologik evolutsiya jarayonida kishi psixikasi xulq-atvorni boshqarishning alohida apparati sifatida paydo bo'lib, sifat jihatdan o'zgarib ketadi. Odamlar ijtimoiy hayot qonunlarining ta'siri ostida shaxslar bo'lib yetishadi, ularning har birida ularni voyaga yetkazgan tarixiy sharoitning izlari saqlanib qolgan bo'ladi. Aslini olganda kishining xulq-atvori, xatti-harakatlari ham shaxsiy xarakter kasb etadi.

Aytganlarning hammasi endilikda psixologiya faniga yuqorida berilgan ta'rifni bir qadar konkretlashtirish imkonini beradi. Psixologiya voqelikning miyadagi obrazi sifatida sodir bo'luvchi psixik faktlar, qonuniyatlar va faoliyat mexanizmlari to'g'risidagi fandır.

Psixikaning odamga xos bo'lgan oliy darajasi ongni tashkil etadi. Ong psixikaning oliy darajasi, uni yaxlit bir holga keltiruvchi shakli bo'lib, kishining mehnat faoliyatida, boshqalar bilan (til yordamida) doimiy muloqot qilish jarayonida shakllanishining ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari natijasi hisoblanadi.

Inson psixikasi bilan yuksak tashkil topgan hayvon psixikasi orasida katta farqga ega ijtimoiy voqelik hukm suradi. Hayvon o'z to'dasidagi a'zolariga yaqqol holat bilan bog'liq, bevosita favquloddagi vaziyat bilan cheklangan hodisalar yuzasidan «o'zining tili»da xabar uzatishi odatiy hodisa. Odam undan farqli o'laroq nutq vositasida o'z qabiladoshlariga

o'tmish (xotiro), hozirgi davr va kelajak to'g'risida ma'lumot (axborot) berish hamda ijtimoiy turmush tajribalarini uzatish imkoniyatiga ega. Insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida til tufayli aks ettirish (in'ikos qilish) imkoniyatlari qayta qurildi, oqibat natijada odam miyasida atrof-muhit timsollari, xususiyatlari aniqroq aks eta boshladi. Buning natijasida yakka hol shaxs kishilik dunyosi tomonidan orttirilgan tajribadan bahramand bo'la borib, uning uchun noma'lum hisoblangan borliq hodisalari, holatlari, qonuniyatlari to'g'risidagi bilimlarga egalik qila boshladi. His-tuyg'ular, ichki kechinmalar, taassurotlar, hayajonga soluvchi nafasat timsollar yuzasidan zavqlanishi, maroq olish imkoniyatlari vujudga keldi, ularning mazmuni, ma'nosi, mohiyati bo'yicha o'ziga o'zi hisobot berish, ijobiy yoki salbiy ta'sir etishini baholash muammolarini keltirib chiqardi.

Psixikaning yuqori bosqichi faqat insongagina xos bo'lgan, uning eng yuksak darajasi hisoblanmish ongda o'z aksini topadi. Ong psixikani yaxlit tarzda ifodalovchi yuksak shakli hisoblanib, insonning yakka va hamkorlik faoliyatining (muloqot nutq, til vositasida) ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida yuzaga kelgandir. U ijtimoiy mahsul bo'lishidan tashqari, unga muayyan munosabat bildirish maqsadni ko'zlash, o'zlikni anglash kabilarni namoyon etish imkoniyatiga egadir.

Ongning tuzilishi, uning muhim psixologik ta'rifi qanday?

Ongning tuzilishi:

Birinchi ta'rifi – nomining o'zidayoq berilgan bo'lib ong, anglash deganidir. **Ikkinchi ta'rifi** – «Men» degan va «Men emas» degan tushunchani anglatishi.

Uchinchi ta'rifi – Odamning maqsadni ko'zlovchi faoliyatini ta'minlashdir.

To'rtinchi ta'rifi – ongning tarkibiga muayyan munosabatning kirganligidir.

Ongning yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan barcha o'ziga xos xususiyatlari shakllanishi va namoyon bo'lishining muqarrar sharti til hisoblanadi.

Ong psixologik tavsifining yana biri – subyekt bilan obyekt o'rtasidagi aniq farqlanishda o'z ifodasini topadi, ya'ni shaxs «men» degan tushunchasi bilan «men emas» atamasi tarkibiga nimalar tegishli, aloqador ekanligini aniqlab biladi. Tabiatning tarkibiy qismi hisoblangan inson sut emizuvchilar olamida tanho nazorat qilishga, o'zini o'zi bilishga, boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan jonli zotdir, binobarin, u psixik faoliyatni tashkil qilishga, maqsadga yo'naltirishga, o'zini o'zi tadqiq qilishga qodir mavjudotdir. Shaxs o'z xulq-atvorini, bilish jarayonlarini aqliy va ijodiy faoliyatini, irodaviy sifatlarni, ongli ravishda oqilona baholay oladi hamda o'zini o'zi boshqara biladi.

Psixikaning quyi darajasi *ongsizlikdir*. **Ongsizlik** – kishining o‘zini tuta olmaydigan qilib qo‘yadigan ta’sirotlar bilan bog‘liq psixik jarayonlar, harakatlari va holatlar yig‘indisidir. Ongsizlikda, anglanishdan farqli o‘laroq, kishi o‘zi bajarayotgan harakatlarni maqsadga muvofiq tarzda nazorat qila olmaydi, ularning natijasini baholay olishi ham amri maholdir.

Ongsizlikka quyidagi psixik hodisalarni kiritish mumkin: uyqu paytida yuz beradigan psixik hodisalar (tush ko‘rish); sezilmaydigan, lekin haqiqatdan ham ta’sir ko‘rsatadigan qo‘zg‘atuvchilarga «subsensitiv» va «subretseptiv» javob reaksiyalari; oldinlari ongli harakat bo‘lib, lekin takrorlanaverib avtomatlashib ketgan va shunga ko‘ra endilikda anglanilmaydigan bo‘lib qolgan harakatlari; faoliyatga undovchi, ammo maqsad hissidan anglanilmaydigan ayrim mayllar va hokazo. Ongsizlik hodisalariga bemor kishining psixikasida ro‘y beradigan ba’zi bir patologik hodisalarni – alahlash, ko‘ziga yo‘q narsalar ko‘rinishi va shu kabilarni ham qo‘shish mumkin. Shularga asoslanib, ongsizlikni bir muncha qarama-qarshi deb hisoblash, uni hayvonlar psixikasiga tenglashtirish noto‘g‘ri bo‘lar edi.

Ongsizlik bu kishining xuddi ong kabi o‘ziga xos psixik qiyofasidirki, u kishi miyasida borliqning yetarli darajada bir xil bo‘lmagan, qisman aksi tarzda inson hayotining ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgandir.

Ongning yuqorida ta’kidlab o‘tilgan barcha funksiyalarini namoyon bo‘lishining muqarrar sharti til va nutq hisoblanadi. Shaxs nutq faoliyati yordami bilan bilimlarini o‘zgartiradi, ajdodlar tomonidan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davomida yuzaga keltirilgan tajribalar majmuasi tilda mustahkamlanadi, u o‘zining tafakkuri orqali hayoti va faoliyatini boyitadi. Til alohida obyektiv tizim sifatida namoyon bo‘lib, unda ijtimoiy-tarixiy jarayonlarda vujudga kelgan an’analar, marosimlar, qadriyatlar, g‘oyalar majmuasi tariqasida ijtimoiy ongda aks ettirilgandir. Psixologik talqinlarga qaraganda, alohida, yakka hol shaxs tomonidan egallangan til boyliklari, qoidalari ma’lum ma’noda uning yaqqol, individual ongi sifatida yuzaga keladi. Shaxsiy hayoti va faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Til bilan nutq borliqni anglashning aloqa quroli hamda vositasi funksiyasini bajarib, shaxsning boshqa mavjudotlaridan farqlash sharti hisoblanadi va unda til bilan tafakkur birligi ong uchun moddiy negiz vazifasida ishtirok etadi, qaysidir ma’noda mexanizm rolini bajarishi ham mumkin.

Shuni xulosa qilib aytish joizki, psixik aks ettirish qanday paydo bo‘lganligi, rivojlangani, evolutsiya pillapoyasining turli bosqichlarida qanday o‘zgarib borganini, kishi ongi qanday paydo bo‘lgani va shakllanganini


tushunib olgandagina psixikaning eng muhim qonuniyatlarini ochib berish va jiddiy psixik faktlarni aniqlash mumkin bo‘ladi.

Shunday qilib, psixologiya fanining predmeti – psixikaning paydo bo‘lishini, psixik jarayonlarning taraqqiyot qonuniyatlarini va inson bilan tashqi muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganadi.

Hozirgi zamon psixologiya fanining asosiy prinsiplari, kategoriyalari va ilmiy tadqiqot usullari

Hozirgi kunga kelib psixologiya fanining predmeti va uning metodlari ilmiy asosda tarkib topdi, psixologik tadqiqotlarning eng muhim prinsiplari va asosiy muammolari aniqlab olindi, bilimning turdosh sohaslariga munosabat oydinlashdi. Psixologiya fanining taraqqiyotida buyuk rol o‘ynagan B. G. Ananyev, P. P. Blonskiy, L. S. Vigotskiy, A. V. Zaporozes, K. N. Kornilov, G. S. Kostyuk, A. N. Leontyev, A. R. Luriya, S. A. Rubinshteyn, A. A. Smirnov, B. M. Teplov, D. N. Uznadze va boshqa ilmiy kadrlar yetishib chiqdi.

O‘zbekiston va chet el psixologiyasi fanida inson psixikasini tadqiqot qilish metodlarining turlicha klassifikatsiyasi (tasnifi) berilgan bo‘lib, bu umumiy psixologiya sohasi bo‘yicha xilma-xil ilmiy asosga qurilgan nazariyalar yaratildi. O‘z navbatida ularning har qaysisi to‘kislik va nuqsonli tomonlariga ega.




Determinizm prinsipi psixikaning turmush tarzi bilan belgilanishi va turmush tarzi o‘zgarishiga qarab o‘zgarishini anglatadi. Agar hayvonlar psixikasi haqida gapiriladigan bo‘lsa, u holda bu psixikaning rivojlanishi biologik qonun tarzidagi tabiiy tanlash bilan belgilanadi. Odamning psixikasi haqida gapiriladigan bo‘lsa, u holda kishida ong shakllarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi pirovard natijada tirikchilikning moddiy vositalarini ishlab chiqarish usullarini rivojlantirish qonunlari bilan belgilanadi. Kishi ongining ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega ekanligini tushuntirish kishi ongining ijtimoiy borliqqa bog‘liqligi haqida umumiy materialistik prinsipidan kelib chiqadigan eng muhim xulosadir.

Ong va faoliyat birligining psixologiyada qabul qilingan prinsipi ong bilan faoliyat bir-biriga qarama-qarshi emas, lekin ular bir-biriga aynan o‘xshash ham emas, ammo birlikni tashkil etishini bildiradi. Ong faoliyatning ichki rejasini, uning dasturini tashkil etadi. Voqelikning o‘zgaruvchan modeli aynan ongda hosil bo‘ladiki, odam o‘zini qurshab turgan muhitda shuning yordamida, mo‘ljal oladi. Ong va faoliyatning birligi prinsipi psixologlarga xulq-atvorni, faoliyatni o‘rganayotib, harakatning maqsadlariga erishishining muvaffaqiyatini ta‘minlovchi ichki psixologik mexanizmlarni aniqlash, ya‘ni psixikaning obyektiv qonuniyatlarini ochish imkonini berdi.

Psixika va onging faoliyatda rivojlanish prinsipi shuni anglatadiki, psixika agar faoliyat samarasi va rivojlanish mahsuli sifatida qaraladigan bo‘lsagina, u to‘g‘ri tushunilishi va aynan bir xil P. P. Blonskiy, L. S. Vigotskiy, A. N. Leontyev, S. L. Rubinshteyn, B. M. Teplov va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topdi.

Psixikaning dialektik taraqqiyoti odamning mehnat faoliyatiga, ta‘limga o‘yin faoliyatiga bog‘liq ekanligini aniqlab berdi. Bunda ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishning yuz berishi odam uchun aynan xos bo‘lgan psixik taraqqiyotning shakli sifatida xizmat qiladi.



Psixologik tadqiqot metodlari psixologiya amal qiladigan nazariya prinsiplariga va psixologiya hal etayotgan konkret vazifalarga bog‘liq ekanligini ko‘rsatib beradi. Psixologiyaning nazariy negizini dialektik materializm tashkil etadi, shuning uchun ham psixologik tadqiqotga prinsiplar yondashuv dialektik metod talablaridan kelib chiqadi. Dialektik metod predmeti uning barcha aloqalari va bevosita ifodalari orqali o‘rganish va

eng avvalo hodisa va qonuniyatlarning muhim aloqalari va munosabatlarini aniqlashni, o'rganilayotgan narsani rivojlanish jarayonida deb qarashni, ziddiyatlarning, birlikning va qarama-qarshiliklar kurashining, miqdorni sifatga o'zgarishining ochib berilishini taqozo qiladi. Psixologiya metodlariga tarixiy jihatdan yondashmoq darkor. Shu jihatdan psixologiya metodlari uning predmeti kabi tarixan anchagina o'zgarishlarga duch keldi. Psixologik tadqiqotlar predmetining alohida xususiyatga egaligi uning alohida tadqiqot metodlariga ega bo'lishi zarurligi haqidagi fikrni ilgari surmasdan qo'ymasdi.

Idealistik psixologiya yagona bir metodni tavsiya eta olgan va shu metod yordamida kishi «ruhiga» kirib borishga uringan. O'z-o'zini kuzatish (introspeksiya, ya'ni ichkaridan ko'rish) ana shunday metod edi.

Ilmiy psixologiyada qabul qilingan ong bilan faoliyatning birligi prinsipi psixologik tadqiqotda obyektiv metodning negizini tashkil etadi.


Psixologiyada tadqiqotning subyektiv va obyektiv metodlari bir-birini inkor etishadi. Haqiqiy ilmiy psixologiya psixikani o'rganishning obyektiv metodlaridan foydalanish va fanda bundan boshqa metodlarning bo'lishi mumkin emasligini tushuntirishi kerak.

Hozirgi zamon psixologiyasining ilmiy tadqiqotga yana bir muhim talabi psixik faktlarni genetik (tarixiy) jihatdan o'rganish prinsipiga amal qilishni taqozo etadi. Genetik prinsipning mohiyati shundan iboratki, o'rganilayotgan psixik hodisaga jarayon deb qaraladi va tadqiqotchi uni dialektik rivojlanishining barcha momentlarini tiklashga, ular bir-birlarini qay yo'sinda almashtirishlarini ko'rish va tushunib yetishga harakat qiladi, o'rganilayotgan psixik faktni uning konkret tarixi jihatdan tasavvur etishga urinadi. Psixologiyada genetik prinsipdan foydalanish zarurati P. P. Blonskiy, A. S. Vigotskiy, S. L. Rubinshteyn, A. N. Leontyevlarning asarlari tufayli kelib chiqdi.

▪ Tadqiqotlarni amalga oshirishning genetik prinsipi keyingi yillarda bolalar psixologiyasida bola shaxsini bo'yлама kesimi bo'yicha o'rganish metodi (longityud) deb atalmish metod sifatida ancha keng qo'llanilmoqda. Bu metod yordamida psixik rivojlanish paytlarga bo'lish yo'li bilan (ya'ni rivojlanishning alohida yosh bosqichlarini ta'riflash va ularni o'zaro bir-biriga taqqoslash) emas, balki bola shaxsini unga ta'lim berishning maxsus tashkil etilgan sharoitlarida qator yillar mobaynida uzoq vaqt o'rganish natijasida aniqlanadi.

- Test
- Biografiya
- Suhbat

- Anketa
- Faoliyat natijalarini tahlili
- Sotsiometriya
- Mustaqil tavsiflarni umumiyashtirish.



Kuzatuv agar u tashqi hodisalarni tasvirlash bilan cheklanibgina qolmasdan, balki ushbu hodisalarning psixologik tabiatini izohlab berish darajasiga ko‘tarilsa, psixik tadqiqot metodi bo‘la oladi. Ilmiy psixologik kuzatuv turmushdagi kuzatuvdan farqli o‘laroq, xulq-atvor va faoliyatning kuzatilayotgan faktini tasvirlashdan uning ichki psixologik mohiyatini tushuntirib berishga muqarrar o‘tilishini taqozo etadi. Psixologik kuzatuvning jiddiy muhim talablari aniq rejaning bo‘lishi va shuningdek olingan natijalarning maxsus kundalikda hayd etilishidan iborat.

Yangi psixologik faktlarga ega bo‘lishning va obyektiv tarzda ilmiy bilishning asosiy vositasi – eksperiment metodidir.

Eksperiment metodining ikkita asosiy turi farqlanadi: **laboratoriya** eksperimenti va **tabiiy** eksperiment.

Laboratoriya eksperimentining xarakterli belgisi faqat uning laboratoriya sharoitlarida maxsus psixologik asbob-uskunalar yordamida o‘tkazishlarida va sinaluvchilarning xatti-harakatlari yo‘l-yo‘riqqa binoan sodir bo‘lishi bilangina emas, balki sinalayotganini biladigan sinaluvchi

(garchi odatda, sinalayotgan kishi eksperimentning mohiyati nimalardan iboratligini, konkret nimani va nima maqsadda tadqiq qilishayotganini bilmasa ham) kishining munosabati bilan ham belgilanadi. Laboratoriya eksperimenti yordamida diqqatning xossalarini, idrok va xotira, sezgi chegaralarini va boshqalarning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish mumkin.

Tabiiy eksperiment (birinchi marta 1910-yilda A. F. Lazurskiy taklif etgan) mo'ljallanganiga ko'ra, eksperiment o'tkazilayotganini biladigan sinaluvchida hosil bo'ladigan zo'riqishga yo'l qo'ymasligi va tadqiqotni odatdagi, tabiiy sharoitlarga (dars, suhbat, o'yin, uy vazifalarini bajarish va boshqalar) ko'chirishi lozim.

Suhbat metodi yordamida shaxsni o'rganishda suhbat maqsadi va vazifasini belgilash, suhbat temasining obykti va subyektini tanlash, muddati va vaqtini aniqlash, uni individual, guruhiy va jamoa formada o'tkazish, mavzuga bog'liq savol-javob sistemasini tayyorlash kabilar ko'zda tutiladi.

Test metodi psixologiya fanida taxminan 1905-yildan, ya'ni A. Bine insonning aqliy o'sish darajalarini o'rganadi. Test inglizcha so'z bo'lib, sinash, tekshirish ma'nosini anglatadi. Shaxsning aqliy taraqqiyotini va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan standart masalalar va topshiriqlar test deb qabul qilingan.

«Psixologiya tadqiqot metodi» konkret ilmiy psixologik muammoni hal etishning maxsus metodikasi ma'nosida ham ishlatiladi.

Tadqiqot to'rt bosqichga ajratiladi:

Birinchi bosqich - tayyorgarlik bosqichi.

Ikkinchi bosqich - eksperimental bosqich.

Uchinchi bosqich - tadqiqot ma'lumotlarni sifat jihatdan qayta ishlash.

To'rtinchi bosqich - olingan ma'lumotlarni sharhlab berish.

Tayyorgarlik bosqichida – har-xil vositalar materiallar o'rganiladi va dastlabki ma'lumotlar to'planadi.

Eksperimental bosqichda – tadqiqotning konkret metodikasiga amal qiladi va o'z navbatida bu bosqich birin-ketin qo'llaniladigan qator bo'g'inlarga – eksperiment seriyalarga bo'linadi.

Tadqiqotning uchinchi bosqichi – tadqiqot ma'lumotlarini sifat jihatdan qayta ishlashda psixologiyaning matematik apparatini dastlab ilgari surilgan farazlarning tasdig'i tarzida olingan xulosalarning haqqoniyligi haqida hukm chiqarish imkonini beradigan turli xildagi statistik usullarni va ehtimollik nazariyasining asosiy qoidalarini ho'llanishini taqozo etadi.

Tadqiqotning to'rtinchi bosqichi – olingan ma'lumotlarni izohlab berish, ularni psixologik nazariya asosida talqin qilish, farazning to'g'ri yoki noto'g'riligini uzil-kesil aniqlashdan iboratdir.

Shuni xulosa qilish mumkinki, psixologik muammolarning ilmiy jihatdan hal etilishi zarurat tugʻilganda tegishli konkret psixologik metodikani hoʻllay bilishni talab qiladi (ana shunday bir qator kategoriyalar, prinsiplar va metodikalar umumiy psixologiya kursining asosiy boʻlinmalarini bayon qilish jarayonida koʻrib chiqiladi). Psixologik tadqiqotning obyektiv metodlaridan keng foydalanilishi, turli xildagi konkret metodikalarning qoʻllanilishi hozirgi zamon psixologiyasida tadqiqotlarning yuksak darajada olib borilishini taʼminlaydi.

Psixologiya fanining metodologik va nazariy muammolari haddan tashqari koʻp boʻlib, ularni vaqtli, muvaqqat ilmiy jamoalar tuzish orqali hamkorlikdagi ilmiy faoliyat negizida hal qilish mumkin. Muayyan darajada empirik, materiallar toʻplash, ularni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilish, maʼlum ilmiy mezon asosida amaliy maʼlumotlarni tartibga keltirish, aniq xulosalarga kelish fan oldida turgan ulkan vazifalarni muvaffaqiyat bilan bajarish imkoniyatini yaratadi.

Ichki ishlar organlari faoliyatini psixologik taʼminlashning asosiy yoʻnalishlari

Hozirgi zamon psixologiya fani shakllanishning turli bosqichlaridagi amaliyotning har xil sohalari bilan bogʻliq ilmiy fanlarning keng tarmoqli tizimini tashkil etadi. Psixologiyaning koʻp sonli tarmoqlarini hay tarzda tasniflash mumkin? Tasnif imkoniyatlaridan biri yuqorida bayon qilingan psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi prinsipida mujassamlashgan. Ana shunga tayangan holda, psixologiya tarmoqlarini tasnif qilish uchun quyidagi psixologik jihatlar asos qilib olinishi mumkin: 1) konkret faoliyat; 2) rivojlanish; 3) odamning jamiyatga nisbatan munosabati.

Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi.

Kishi faoliyatiga koʻra:

1) mehnat psixologiyasi; 2) injenerlik psixologiyasi; 3) pedagogik psixologiya; 4) tibbiyot psixologiyasi; 5) yuridik psixologiya; 6) harbiy psixologiya; 7) sport psixologiyasi; 8) savdo psixologiyasi.

Agar psixologiyaning shoxobchalarini tasnif qilishda rivojlanishning psixologik jihatlari asos qilib olinadigan boʻlsa, u holda biz uning rivojlanish prinsipiga amal qiladigan qator sohalariga duch kelamiz:

1. Yosh psixologiyasi.

2. Anomal (notoʻgʻri) taraqqiyot psixologiyasi.

3. Qiyosiy psixologiya.

Shaxs bilan jamiyat oʻrtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlari koʻra:

- sotsial psixologiya;
- mehnat psixologiyasi.

Bu kishi mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish (MIT)ning psixologik jihatlarini o‘rganadi.

Asosan avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalarini, operatorlarning faoliyatini o‘rganadigan, odam bilan mashina o‘rtasida vazifalarni taqsimlash va muvofiqlashtirish hamda shu kabi boshqa muammolarni hal etadigan injenerlik psixologiyasi:

Kishining uchishini o‘rganish va uchish jarayonidagi faoliyatning psixologik qonuniyatlarini tadqiq qiladigan aviatsiya psixologiyasidir.

Vaznsizlik va bo‘shliqda aniq mo‘ljal ola bilmaslik sharoitida, organizmga juda ko‘p ortiqcha ta’sirotlar yuklangan paytda ro‘y beradigan ruhiy zo‘riqishi bilan bog‘liq bo‘lgan alohida holatlar tug‘ilganda kishi faoliyatining psixologik xususiyatlarini tadqiq qiladigan kosmik psixologiyadir.

Pedagogik psixologiya kishiga ta’lim-tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o‘rganishni o‘z predmeti deb biladi. Pedagogik psixologiya bir nechta guruhlarga bo‘linadi.

Ta’lim psixologiyasi (didaktikaning, xususiy metodikalarning, programmalashtirilgan o‘qitishning, aqliy harakatlarini shakllantirishning psixologik asoslari va boshqalar)ni o‘rganadi.

Tarbiya psixologiyasi (tarbiyaning psixologik asoslarini, o‘quvchilar jamoasi psixologiyasi, axloq tuzatish – mehnat pedagogikasining psixologik asoslarini) o‘rganadi.

Shuningdek, o‘qituvchi psixologiyasi, ahli zaif bolalarni o‘qitish va tarbiyalash psixologiyasi pedagogik psixologiyasining bo‘limlari yoki tor sohalari hisoblanadi.

Tibbiyot psixologiyasi shifokor faoliyatining va bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o‘rganadi. U psixik hodisalar bilan miyadagi fiziologik tuzilishlar o‘rtasidagi nisbatni o‘rganadigan neyropsixologiyaga, dorivor moddalarning kishining psixik faoliyatiga ta’sirini o‘rganadigan psixofarmakoliyaga, bemorni davolash uchun psixik ta’sir vositalarni o‘rganuvchi va ho‘llanuvchi psixoterapiyaga, odamlarning psixik jihatdan salomatligini ta’minlash chora-tadbirlarining sistemasini ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi psixoprofilaktika va psixogigiyenaga bo‘linadi.

Yuridik psixologiya huquq sistemasining amal qilishi bilan bog‘liq psixologik masalalarni o‘rganadi, u jinoiy jarayon ishtirokchilarini xulq-atvorining psixik xususiyatlarini (guvohlik ko‘rsatmalarining psixologiyasi, aylanuvchi xulq-atvorining xususiyatlari, tergovga qo‘yiladigan psixologik talablar va shu kabilarni) tadqiq qiluvchi sud psixologiyasi;

jinoyatchining xulq-atvori, shaxsning shakllanishiga doir psixologik muammolar, jinoyatning motivlari va shu kabilar bilan shug'ullanuvchi kriminal psixologiyaga; axloq tuzatish-mehnat koloniyasida qamalib yotganlarning psixologiyasini, ishontirish va majburlash metodlari bilan tarbiyalashning psixologik muammolarini va shu kabi masalalarni o'rganadigan penitensiar yoki axloq tuzatish mehnat psixologiyasiga bo'linadi.

Harbiy psixologiya kishining harbiy harakatlar sharoitidagi xulq-atvorini, boshliqlar va xodimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning psixologik jihatlarini, psixologik targ'ibot va tashviqot qarshi metodlarini, harbiy texnikani boshqarishning psixologik muammolarini va shu kabi boshqa masalalarni tadqiq qiladi.

Sport psixologiyasi sportchilar shaxsi va faoliyatining psixologik xususiyatlarini, ularni psixologik jihatdan tayyorlashning shart-sharoitlari va vositalarini, sportchining jismoniy chiniqqanligi va safarbarlikka tayyorligining psixologik mezonlarini, musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq psixologik omillarni o'rganadi.

Savdo psixologiyasi asosan tijorat ta'sirining psixologik shart-sharoitlarini, ehtiyojning individual, yoshga oid va boshqa xususiyatlarini, xaridorlarga xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi.

Keyingi vaqtlarda ilmiy ijodiyot psixologiyasi masalalarni (ijodkor shaxsning xususiyatlari, ijodiy faollikni rag'batlantiruvchi omillar, ilmiy kashfiyotlar qilishda ichki sezgi hissining roli va boshqalar) o'rganish boshlanadi. Ilmiy ijodiyot psixologiyasining o'ziga xos bo'limini evristika tashkil etadiki, uning vazifasi faqat ijodiy (evristik) faoliyatning qonuniyatlarini tadqiq qilishdan emas, balki evristik jarayonlarini boshqarish metodlarini ishlab chiqishdan ham iboratdir.

Va, nihoyat, badiiy ijodiyot (adabiyot va san'at sohasida) va estetik idrok (shubhasiz ahamiyatga ega bo'lgan, lekin hali sust o'rganilgan soha) psixologiyasi ham mavjud.

Agar psixologiyaning shoxobchalarini tasnif qilishda rivojlanishning psixologik jihatlari asos qilib olinadigan bo'lsa, u holda biz uning rivojlanish prinsipiga amal qiladigan qator sohalarga duch kelamiz. Yosh davrlari psixologiyasi turli xildagi psixologik jarayonlarning ontogenezini va rivojlanayotgan kishi shaxsining psixologik fazilatlarini o'rganadi. U bolalar, o'smirlar, o'spirinlar, yoshlik, katta yoshdagi odam hamda gerant-psixologiyaga bo'linadi. Yosh psixologiyasi psixik jarayonlarning yoshga oid xususiyatlarini, bilimlarni o'zlashtirishning yoshga bog'liq imkoniyatlarini, shaxs kamolotining omillari va boshqa masalalarini tadqiq qiladi.

Yosh psixologiyasi o'rganadigan asosiy masalalardan biri o'qitish va aqliy jihatdan kamol toptirish hamda ularning o'zaro bog'liqligi muammosi

boʻlib, u psixologlar tomonidan keng muhokama qilinib kelinayotir. Psixologlar aqliy kamolotning ishonchli mezonlarini qidirib topish va oʻqitish jarayonida aqliy rivojlanish samaradorligiga erishish imkonini beradigan shart-sharoitlarni aniqlash bilan bandirlar.

Anomal (notoʻgʻri) taraqqiyot psixologiyasi yoki «maxsus psixologiya» rivojlanish jarayonida psixikaning aynishi, miyadagi kasallikning turli xilda kechishi jarayonida psixikaning tamomila izdan chiqishi kabi hollarni oʻrganadigan patopsixologiyaga, psixik rivojlanishning miyadagi tugʻma asoratlari bilan bogʻliq patologiyasi toʻgʻrisidagi fan boʻlgan oligofreno-psixologiyaga, quloq eshitishning butunlay kar boʻlib qolishga qadar jiddiy kamchiliklari boʻlgan bolani voyaga yetkazish psixologiyasi boʻlmish surdopsixologiyaga, yaxshi koʻrmaydigan va koʻrlar rivojlanishi psixologiyasi – tiflopsixologiyaga boʻlinadi.

Qiyosiy psixologiyaga – psixologiyaning psixik hayotning filogenetik shakllarini tadqiq qiladigan sohasidir. Qiyosiy psixologiyada hayvonlar va odam psixikasi qiyoslanadi, ularning xarakterlari, feʼl-atvoridagi mavjud oʻxshashlik va farqlarning sabablari aniqlanadi.

Zoopsixologiya qiyosiy psixologiyaning boʻlimi boʻlib, u turli xil sistematik guruhlariga mansub (turlarga, turkumlarga, oilalarga mansub) hayvonlar psixikasini, xatti-harakatining eng muhim shakllari va mexanizmlarini oʻrganadi.

Agar psixologiyaning shoxobchalarini shaxs bilan jamiyat oʻrtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlari nuqtai nazaridan tasnif qiladigan boʻlsa, u holda psixologiya fanining sotsial psixologiya tushunchasi zahirida birlashadigan sohalarining yana bir qatori ajralib chiqadi.

Sotsial psixologiya odamlarning turli xildagi uyushgan va uyushmagan ijtimoiy guruhlardagi oʻzaro birgalikdagi harakati jarayonida vujudga keladigan psixik hodisalarni oʻrganadi. Hozirgi vaqtda sotsial psixologiya tuzilishiga quyidagi uchta sohaga oid muammolar kiradi.

Katta gruppalardagi (makromuhitda) sotsial psixologik hodisalar. Ularga ommaviy kommunikatsiya (radio, televideniye, matbuot va boshqalar) muammolari, ommaviy kommunikatsiya vositalarining odamlarning turli xildagi jamoalarga taʼsir qilish mexanizmlari va samaradorligi, mish-mishlarning, umumiy qabul qilingan did, rasm-rusumlar, soxta fikrlar, ijtimoiy kayfiyatlarning tarqalish qonuniyatlari, sinflar va millatlar psixologiyasi muammolari, din psixologiyasi kiradi.

Kichik deb atalmish guruhlardagi (mikromuhitdagi) sotsial psixologik hodisalar. Bularga tor doiradagi guruhlardagi psixologik sigʻishuvchanlik, guruhlardagi shaxslararo munosabat, guruh vaziyati, guruhdagi lider va yetakchilar mavqei, guruh turlari (assotsiatsiya, korporatsiya, jamoalar)

muammolari rasmiy va norasmiy guruhlarning nisbati, kichik guruhlarning miqdoriy chegaralanganligi, guruhlar jipsligi darajasi va sabablari, guruhda kishilarning bir-birini tushuna bilishi, guruhdagi qadriyatlar va shu kabi ko'pgina masalalar kiradi.

Kishi shaxsining sotsial-psixologik jihatdan o'zligini namoyon qilishi (shaxsning sotsial-psixologiyasi). Inson shaxsi sotsial psixologiyaning predmeti hisoblanadi.

Psixologiya fani bir qancha fanlar bilan yaqin aloqada: jumladan falsafa, pedagogika, sotsiologiya, shuningdek, barcha tabiiy-gumanitar va huquqiy fanlar bilan ham uzviy aloqada.

Shuni xulosa qilish mumkinki, psixologiya o'zining barcha sohalarida o'z tadqiqot predmetini, o'z nazariy prinsiplarini, o'sha predmetni o'rganishning o'z yo'llarini saqlab kelayotir. Hozirgi davrda psixologiya sohalarining kengayishi psixologik bilimlardan ijtimoiy turmushda, ishlab chiqarishda, tibbiyotda, ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish fanimiz mavqei va nufuzini yanada oshirmoqda.

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, «biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam emasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi»¹.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Psixologiya fan sifatida, uning tuzilishi, kategoriyalari va usullari haqida gapirib bering.
2. Psixologik aks ettirish darajalari va uning shakli qanday?
3. Ichki ishlar organlari faoliyatini psixologik ta'minlash deganda nimani tushunasiz?
4. Ong tuzilishiga ta'rif bering.
5. Ong va ongsizlik holatini tushuntirib bering.
6. Ichki ishlar organlari faoliyatini psixologik ta'minlashning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?

¹Karimov I.A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.

7-mavzu. SHAXS PSIXOLOGIYASI

Shaxsning psixologik tuzilishi va tushunchasi.

Shaxsning bilish jarayonlari haqida tushuncha.

Shaxsning emotsional-irodaviy holatiga psixologik tavsif.

Shaxsning individual-psixologik xususiyatlariga tavsif.

Shaxsning psixologik tuzilishi va tushunchasi

Psixologiya fanida inson zotiga xoslik masalasi individ (lot. «individ» ajralmas, alohida zot degan ma'no anglatadi), shaxs, individuallik (yakka-hollik) tushunchalari orqali aks ettiriladi. Katta yoshdagi ruhiy sog'lom (eshushi joyida) odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo'q, oddiy malakalarni o'zlashtira olmaydigan ahli zaiflar ham individlar deb ataladi. Biroh bulardan birinchisiningina shaxs deb atash an'ana tusiga kirib qolgan, chunki o'sha zotgina ijtimoiy mavjudot, ijtimoiy munosabatlar mahsuli, ijtimoiy taraqqiyotning faol qatnashchisi bo'la oladi. Yorug' dunyoga kelgan odam individ sifatida ijtimoiy muhit ta'sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Individ ilk bolalik chog'idanoq muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimi doirasiga tortiladi, bunday shaxslararo munosabatlar tarzi tarixiy shakllangan bo'lib, u yoshligidanoq tayyor (ajdodlar yaratgan) ijtimoiy munosabat, muomala, muloqot tizimi bilan tanisha boradi. Ijtimoiy qurshov (oila a'zolari, mahalla ahli, jamoatchilik, ishlab chiqarish jamoasi), ijtimoiy guruh ichida (kishilarning og'ushida, ularning qalb to'rida) odamning bundan keyingi rivojlanishi, uni shaxs sifatida shakllantiruvchi, uning ongi va irodasining xususiyatlariga mutlaqo bog'liq bo'lmagan har xil xususiyatli munosabatlar majmuasini vujudga keltiradi.

Jahon psixologiya fanining ilg'or taraqqiyparvar, gumanistik tadqiqotchilarining tajribasida ko'rsatilishicha, shaxsning psixologik tuzilishi, psixologik xususiyatlari (xarakter xislati, temperament xususiyatlari, irodaviy sifatleri, aqliy qobiliyatlari, iste'dod darajalari, barqaror qiziqishlari, hukmron motivlari, hissiyoti va shu kabilarning birikmasi (majmuasi) har bir yaqqol, alohida odamda betakror, barqaror, turg'un birlikni tashkil etadi. Bu esa, o'z navbatida shaxsni psixologik tuzilishining nisbiyligi, qat'iyiligi, stereotipligi to'g'risidagi fikrni qat'iy tasdiqlashga imkon yaratadi.

Shu munosabat bilan, bugungi siyosiy-huquqiy voqealikni hisobga olgan holda, mamlakatimizda huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ'ibotini tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan maqsadli

keng ko‘lamli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish zarur. Ushbu dasturning amalga oshirilishi aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishini, fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg‘usining yanada ortishini ta’minlaydi¹.

Psixik holatlar, hodisalarning (hissiyot, xohish, orzu, tafakkur va shu kabilar) uzluksiz ravishda o‘zgarib turishi, ijtimoiy guruhlar, hayotiy vaziyatlarda odam o‘z zimmasiga olgan rollariga aloqador xulq-atvorning o‘zgarishi, yoshni ulg‘ayib borishi ham shaxsning psixologik qiyofasida (milliylik, etnik ta’sir asosida) muayyan darajada barqarorlikni saqlaydi. Mazkur nisbiy barqarorlik ijtimoiy munosabatlar jarayonida shaxsning yashash sharoitlari va jismoniy xususiyatlari bilan uyg‘unlikda shakllanadi. Biroq biz hayd qilib o‘tgan uyg‘unlik nisbiy xususiyatga egadir. Chunki shaxsni psixik tuzilishining o‘zgarishi jahon psixologlarining bir qator tadqiqotlarida o‘rganilgan. Bu o‘zgarishlar odamning yashash muhiti, amalga oshiradigan faoliyatida namoyon bo‘luvchi hisoblanib, ular ijtimoiy ta’sir, tarbiya sharoitiga bevosita aloqadordir.

Demak, shaxsning nisbatan barqaror va nisbatan o‘zgaruvchan xususiyatlari inson xislatlarining yaxlitligi va o‘zaro bog‘liqligidan tarkib topuvchi murakkab birlikdan iboratdir. Odatda shaxsni psixologik jihatdan o‘rganish o‘z tarkibiga ikki asosiy ilmiy muammoni qamrab oladi.

Mehnat tufayli hayvonot olamidan ajralib chiqqan va jamiyatda rivoj topayotgan, boshqa odamlar bilan birgalikdagi faoliyatini amalga oshirayotgan va ular bilan munosabatga kirishayotgan kishi sekin-asta shaxsga aylanib bormoqda. Moddiy dunyoni, jamiyatni va xususan o‘zini o‘rganish va faol tarzda qayta o‘zgarish subyektiga aylanmoqda.

Psixologiya fanida bir-biriga yaqin, lekin ayniyat bo‘lmagan tushunchalar qo‘llanilib kelinadi, chunonchi: odam, shaxs, individuallik. Ularning mohiyatini aniqroq izohlab berish uchun har birining psixologik tabiatini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

1. Odam. Sut emizuvchilar sinfiga daxldorlik, biologik jonzod ekanligi odamning o‘ziga xos xususiyatidir. Tik yurishlik, qo‘llarning mehnat faoliyatiga moslashganligi, yuksak taraqqiy etgan miyaga egaligi, sut emizuvchilar tasnifiga kirishi uning o‘ziga xos tomonlarini aks ettiradi. Ijtimoiy jonzod sifatida odam ong bilan qurollanganligi tufayli borliqni, ongli aks ettirish qobiliyatidan tashqari o‘z qiziqishlari va ehtiyojlariga mutanosib tarzda uni o‘zgartirish imkoniyatiga ham egadir.

¹ *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – Б. 27–28.

2. Shaxs. Mehnat tufayli hayvonot olamidan ajralib chiqqan va jamiyatda rivojlanuvchi, til yordami bilan, boshqa kishilar bilan muloqot (muomala)ga kirishuvchi odam shaxsga aylanadi. Ijtimoiy mohiyati shaxsning asosiy tavsifi hisoblanadi.

3. Individuallik. Har qaysi inson betakror o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shaxsning o'ziga xos qirralarining mujassamlashuvi individuallikni vujudga keltiradi. Individual shaxs intellektual, emotsional va irodaviy sohalarida namoyon bo'ladi.

A. V. Petrovskiyning shaxs haqidagi quyidagi ta'rifini shaxsning psixologik ta'rifi sifatida qabul qilish mumkin.

«O'z mehnati tufayli hayvonot olamidan chiqqan, jamiyatda rivojlanuvchi va boshqa odamlar bilan til yordamida munosabatga kirishuvchi odam shaxsga voqelikni beruvchi hamda aktiv o'zgartiruvchi subyektga aylanadi».

Mana ko'rib turibsizki, psixolog olimlar turli tomonlardan shaxsni tushunishga yondashib, unga har xil ta'rif berishgan. Biz muayyan fikrlarni jamlagan holda shaxsga quyidagi ta'rifni berdik. *Shaxs deb, o'z menligini anglagan, o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarga kirisha oladigan, tabiat va jamiyatga faol ta'sir o'tkaza oladigan, har qanday individga aytiladi.*

Chaqaloqning inson zotiga mansubligi individ tushunchasida hayd etiladi (bundan farqli o'laroq, hayvon bolasi dunyoga kelishi bilanoq va hayotning oxiriga qadar jonzod deb yuritiladi) «individ» tushunchasida kishining nasl nasabi ham mujassamlashgandir.

Shunday qilib, aniq bir kishini individ deb ataganda juda ko'p narsalarni aytgan bo'lamiz. Aslini olganda, bu bilan uning potensial ravishda inson ekanligi aytilganidir.

Individ sifatida dunyoga kelgan kishi alohida sotsial fazilat kashf etadi, shaxs bo'lib yetishadi.

Individuallik – kishining o'ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallikni temperament va xarakter xususiyatlarida, odatlarda, ustun darajadagi qiziqishlarda, bilish jarayoniga oid fazilatlar (idrok, xotira, tafakkur, tasavvur)da, qobiliyatlarda, faoliyatning shaxsga xos uslubda va hokazolarda namoyon bo'ladi.

«Individ» va «shaxs» tushunchalari bir-biriga o'xshash bo'lmagani singari, o'z navbatida, shaxs va individuallik ham birlikni tashkil qiladi, lekin ular bir-biriga o'xshash emasdir.

«Shaxs» va «individuallik» tushunchalari qanchalik birlikdan iborat bo'lganiga qaramay, bir-biriga mos kelmasligining o'zi ham shaxsning

tuzilishini kishining individual-psixologik xislatlari va fazilatlaridan tarkib topadigan allaqanday shakl sifatida tasavvur qilish imkoniyatini bermaydi. «Shaxs» va «individuallik» tushunchalari (xuddi «individ» va «shaxs» tushunchalari singari) aynan bir-biriga oʻxshaydi, deb tan olinadigan va shaxsga tabiatan ijtimoiy munosabatlar subyekt sifatida, individning tuzilishi ijtimoiy fazilat sifatida qaraladigan gʻarb psixologiya fanining ayrim yoʻnalishlarida shaxs bilan individuallikning tuzilishi bir-biriga tobora mosligi tan olinadi. Bunday psixologik maktablar va yoʻnalishlarning vakillari individuallikning tuzilishi aniq taʼriflab berilsa bas, bu kishining shaxsini toʻlaligicha oʻz ichiga oladi va taʼriflab beradi, degan nuqtai nazarni ilgari surishadi.

Inson shaxsining oʻzi «endopsixik» va «ekzopsixik» tuzilishga boʻlinadi, degan fikr ham ilgari surildi. Shaxs tuzilishining ichki tuzilishi sifatida «endopsixika» bamisoli kishining asab psixik tuzilishiga oʻxshash boʻlgan inson shaxsining ichki mexanizmi kabi psixik qismlar va funksiyalarning oʻzaro ichki bogʻliqligini ifoda etadi. Ekzopsixikaning tashqi muhitga munosabati bilan, yaʼni shaxs qanday boʻlmasin, baribir munosabatga kirishishi mumkin boʻlgan va shaxsga qarama-qarshi turadigan tuzilishlarining barchasiga nisbatan munosabati bilan belgilanadi.

«Endopsixika» moyillik, xotira, tafakkur va xayol xususiyatlari, iroda-viy zoʻr berish, tashqi taʼsirlarga beriluvchanlik kabi boshqa xislatlarni, «endopsixika» esa kishi munosabatlari sistemasi va uning tajribasi, qiziqishlari, moyilliklari, ideallari, ustun darajadagi his-tuygʻularini, shakllangan bilimlari va boshqa belgilarini oʻz ichiga oladi. Tabiiy asosdagi «endopsixika» ijtimoiy omil bilan belgilanadigan «egzopsixika»ga qarama-qarshi oʻlaroq, biologik jihat bilan bogʻliqdir.

S. L. Rubinshteyn taʼlimoti boʻyicha shaxs quyidagi tuzilishga ega:

1. Yoʻnalganlik – ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, eʼtiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalanadi.

2. Bilimlar, koʻnikmalar, malakalar – hayot va faoliyat jarayonida egallanadi.

3. Individual tipologik xususiyatlar – temperament, xarakter, qobiliyatlarda aks etadi.

K. K. Platonov taʼlimotiga koʻra, shaxs tuzilishi quyidagi shaklga ega:

I. *Yoʻnalganlik osttuzilishi* – shaxsning axloqiy qiyofasi va munosabatlarini birlashtiradi. Undan harakatchanlik, barqarorlik, jadallik, koʻlam (hajm) darajalarini farqlash lozim.

II. *Ijtimoiy tajriba osttuzilishi* – taʼlim vositasida, shaxsiy tajribada egallangan bilimlar, koʻnikmalar va odatlarni qamrab oladi.

III. *Psixologik aks ettirish shakllari osttuzilishi* – ijtimoiy turmush jarayonida shakllanuvchi bilish jarayonlarining individual xususiyatlari.

IV. *Biologik shartlangan osttuzilish* – miya morfologik va fiziologik xususiyatlariga muayyan darajada bog‘liq patologik o‘zgarishlar, shaxsning yosh, jins xususiyatlari va uning tipologik xosiyatlarini birlashtiradi.

A. G. Kovalev talqiniga binoan, shaxs mana bunday tuzilishga ega:

1. *Yo‘nalganlik* – voqelikka nisbatan inson munosabatini aniqlaydi, unga o‘zaro ta’sir etuvchi har xil xususiyatli g‘oyaviy va amaliy ustanovkalar, qiziqishlar, ehtiyojlar kiradi. Ustuvor yo‘nalganlik shaxsning barcha psixik faoliyatini belgilaydi.

2. *Imkoniyatlar* – faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshishini ta’minlovchi tizim. O‘zaro ta’sir etuvchi va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan turlicha qobiliyatlar.

3. *Xarakter* – ijtimoiy muhitda shaxsning xulq-atvor uslubini aniqlaydi. Odamning ruhiy hayoti shakli va mazmuni unda namoyon bo‘ladi. Xarakter tizimidan irodaviy va ma’naviy sifatlar ajratiladi.

4. *Mashqlar tizimi* – hayot va faoliyat, harakat va xulq-atvorni tuzatish (korreksiyalash), o‘zini o‘zi nazorat qilish, o‘zini o‘zi boshqarishni ta’minlaydi.

Psixologiya fanida qo‘llanilib kelinayotgan va nisbatan barqarorlashgan shaxsni yo‘nalganlikka, temperamentga, xarakter va qobiliyatlarga bo‘lish yetarli darajada keskin e’tirozlarga sabab bo‘layotgani yo‘q. Shuning uchun ko‘pgina psixologlar umumiy tizimning majmuasini tashkil qiluvchi murakkab xususiyatlarning tuzilishi sifatida qaraydilar va shaxsning yaxlit tavsifini ifodalaydi, deb tushunadilar. A. G. Kovalevning fikricha, temperament tabiiy (irsiy) xususiyatlarning tizimini bildirib keladi, yo‘nalganlik – ehtiyoj, qiziqish, ideallar tizimi, qobiliyatlar – intellektual, irodaviy va emotsional xislatlar ansambli, xarakter – xulq-atvor usullarining va munosabatlarining sintezidir.

Haqiqatda esa, agar shaxs hamisha o‘zining aniq sotsial muhiti bilan «haqiqiy munosabatlari» subyektiv sifatida namoyon bo‘lishi inobatga olinadigan bo‘lsa, shaxsning tuzilishiga konkret sotsial guruhlar va jamoalar faoliyati va munosabatida tarkib topadigan ana shu «haqiqiy munosabatlar» va aloqalar muqarrar tarzda kiritilishi shart.

Jumladan, psixologiyada individuallikning ko‘pgina xislatlari – moslashuvchanlik, tajovuzkorlik, moyillik darajasi, tashvishlanish va shular kabilar aniqlangan. Bular jamlanib individning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, inson shaxsining tuzilishi individuallikning tuzilishiga qaraganda keng ekanligi shubhasizdir. Shu boisdan bunga, birinchi navbatda,

uning individualligini ko'rsatadigan va faqat ehtirosda, ichki qiyofada, qobiliyatlarda va hokazolarda ancha keng ifodalanadigan fazilatlari va umumiy tuzilishigina emas, balki shaxsning rivojlanish darajasi har-xil bo'lgan guruhlarda, ana shu guruh uchun yetakchi hisoblangan faoliyat orqali ifodalanadigan individlararo munosabatlarda o'zini namoyon etishini ham qo'shish shart. Individuallik tarzidagi shaxsni tadqiq etish natijasida olingan ma'lumotlar individlararo munosabatlar subyekt sifatida shaxsning ta'rifiga bevosita ko'chirilishi mumkin emas. Individual – tipik xususiyat shaxs yashayotgan va shakllanayotgan birlikning rivojlanishiga va individlararo munosabatlarning bilvosita ifodasi hisoblangan faoliyatning xarakteri, qadriyatlari va maqsadlariga bog'liq tarzda jiddiy ravishda turli xil ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Shaxsning metaindivid kichik sistemasi kishining eng muhim ma'naviy ehtiyojlaridan biri – shaxs darajasiga ko'tarilish ehtiyojini ya'ni o'z faoliyati bilan boshqa odamlarning aqliy va hissiy jabhalarida ular uchun ahamiyatga ega bo'lgan o'zgarishlar yasashini boshqalardan ko'proq darajada ifoda etadi

Shunday qilib, jamiyatda yashayotgan kishida ta'lim va tarbiya berish to'g'ri yo'lga qo'yilgan taqdirda ijtimoiy foydali faoliyatda shaxs darajasiga ko'tarilish ehtiyojining shakllanishi va qondirilishi uchun barcha shart-sharoitlar tarkib topadi.

Kishining tevarak atrofda munosabat birlikdagi faoliyat va ijodiy shu jarayonida namoyon bo'ladigan ijtimoiy ahamiyatga molik o'zgarishlar qilish layoqati shaxsning faolligi sifatida tushuniladi. Shaxs faolligini ancha umumiy tarzidagi, birikma holdagi ta'rifi uning g'oyaviy prinsip-ligida, o'z nuqtai nazarini izchil himoya qila borishida, so'zi bilan birligida ifodalanadigan faol hayotiy pozitsiyasini bildiradi. Jamiyatda faol hayotiy pozitsiya ijtimoiy burchga nisbatan ongli munosabatda bo'lishini, fuqarolikni, jamoatchilikni, faoliyatga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lishini, ilmiy dunyoqarashiga tayanadigan e'tiqodini, ijtimoiy-axloqiy qoidalarning buzilishiga murosasizlikni taqozo etadi.

Shaxsning moslashuvchanlikka ham, xulq-atvorning salbiy turiga ham zid bo'lgan jamoa tarzida o'zini-o'zi belgilashi ham uning faol hayotiy pozitsiyasidan dalolat beradi. Yosh yigit va qizlarda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish axloqiy tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biridir.

Hozirgi paytda g'arb psixologiyasida shaxsni tadqiq qilish va tushuntirish borasida «insonparvarlik psixologiyasi» deb atalmish psixologiya vakillarining psixoanalitik nazariyalari va qarashlari (shaxsning ekzistensial nazariyalari) eng nufuzli yo'nalishlar bo'lib hisoblanadi.

Jahon psixologiya fanida shaxsning kamoloti, uning rivojlanishi to'g'risida xilma-xil nazariyalar yaratilgan bo'lib, tadqiqotchilar inson shaxsini o'rganishda turlicha pozitsiyada turadilar va muammo mohiyatini yoritishda o'ziga xos yondashishga egadirlar. Mazkur nazariyalar qatoriga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalitik, bixevioristik kabilarni kiritish mumkin. Quyida sanab o'tilgan nazariyalar va ularning ayrim namoyandalari tomonidan shaxsni rivojlantirishning prinsiplari to'g'risidagi qarashlariga to'xtalib o'tamiz.

Biogenetik nazariyaning negizida insonning biologik yetilishi bosh omil sifatida qabul hilingan bo'lib, qolgan jarayonlarning taraqqiyoti ixtiyoriy xususiyat kasb etib, ular bilan o'zaro shunchaki aloqa tan olinadi, xolos. Mazkur nazariyaga binoan, taraqqiyotning bosh maqsadi – biologik determinantlariga (aniqlovchilariga) qaratiladi va ularning mohiyatidan sotsial-psixologik xususiyatlar keltirilib chiqariladi.

Taraqqiyot jarayonining o'zi, dastavval biologik yetilishning universal bos'qichi sifatida sharhlanadi va talqin qilinadi.

Biogenetik qonuni F. Myuller va E. Gekkellar kashf qilishgan. Biogenetik qonuniyat organning taraqqiyoti nazariyasini tashviqot qilganda hamda antidarvinchilarga harshi kurashda muayyan darajada tarixiy rol o'ynagan. Biroq organning individual va tarixiy taraqqiyoti munosabatlarini tushuntirishda qo'pol xatolarga yo'l qo'ygan. Jumladan, biogenetik qonunga ko'ra, shaxs psixologiyasining individual taraqqiyoti (ontogenez) butun insoniyat tarixiy taraqqiyotining (filogenez) asosiy bos'qichlarini qis'qacha takrorlaydi, degan g'oya yotadi.

Psixologiya tarixida biologizmning eng yaqqol ko'rinishi Zigmund Freydning shaxs talqinida o'z ifodasini topgan. Uning ta'limotiga binoan, shaxsning barcha xatti-harakatlari (xulqi) ongsiz biologik mayllar yoki instinktlar bilan shartlangan, ayniqsa birinchi navbatda, u jinsiy (seksual) mayliga (libidoga) bog'liqdir. Bunga o'xshash biologizatorlik omillari inson xulqini belgilovchi birdan-bir mezon yoki betakror turtki rolini bajara olmaydi.

Freydning shaxs faolligini butunlayicha faqat shahvoniy xirsga bog'lik qilib qo'yishga intilishi psixologlarning ko'pchiligida e'tiroz tug'dirdi. Bu xil klassik freydizmning va undan muayyan chekinishlarining birikuvidan iborat xususiyatga ega bo'lgan neofreydizm (A. Kardiner, E. Fromm., K. Xorni va boshqalarning) kelib chiqish sabablaridan biri bo'lgan edi.

Nofreydchilar shaxsning faolligini tushunish borasida shaxvoniy mayllarning ustunligi fikridan voz kechishadi va insonning biologik mavjudotligidan chetga chiqishadi. Shaxsning muhitga bog'liqligi birinchi o'ringa qo'yiladi. Muhit shaxsga o'zining eng muhim xususiyatlari aksini singdiradi.

Psixoanalitiklardan farqli o'laroq rivojlanishi K. Rodjers, A. Maslou, G. Olport va boshqalarning ilmiy ishlari bilan bog'liq bo'lgan «insonparvarlik psixologiyasi» kelajakda o'zligini eng ko'p darajada namoyon qilishga (o'zini faollashtirishga) intilishni shaxs faolligining asosiy omili hisoblanadi.

Maslou, Radjers o'zini faollashtirishni o'z mohiyati e'tibori bilan egotsentrik (o'zini hammadan ustun qo'yish) jarayonga aylantirib yuborishadi. O'zligini faollashtirish A. Maslouning fikricha o'zini va faqat o'zini ro'yobga chiqarish uchun intilishdirki, bu ijodiy faollik va «xususiy Men» ini to'laqonli namoyon qilish uchun intilish kabi fazilatlarga ega bo'lgan «o'zini faollashtiruvchi shaxslar»ning o'ta individualligi haqida dalolat beradi.

Amerikalik psixolog U. Djeyms o'zining psixologik nazariyasida, hali XX asrning boshlaridayoq shaxs «Men» siymosining eng muhim tarkibiy hismi-o'zini hurmat qilishi haqiqatdan ham erishgan yutuqlarining kishi da'vogarlik qilgan, mo'ljallangan narsalarga munosabati bilan belgilanishi haqida umuman to'g'ri fikr bildirgan edi. Uning sur'ati individning real muvaffaqiyatlarini, maxraji esa uning intilishlarini ifoda etadigan formulani:

muvaffaqiyat
O'zini hurmat qilish -----
intilishlar

taklif etgan edi. Ma'lumki, sur'ati oshib, maxraji kamayganda kasr kattalashadi. Shu sababli kishi o'zini hurmat qilishini saqlab qolishi uchun bir xil hollarda eng ko'p kuch va g'ayrat sarflashi va o'zini hurmat qilishini saqlab qolishi shart bo'lib, bu ko'pincha murakkab vazifa hisoblansa, boshqa bir yo'li intilishlarining darajasini pasaytirishdan iboratki, bunda hatto juda ham kamtarona muvaffaqiyatlarga erishganda ham o'zini hurmat qilish hissi yo'qolmaydi.

Shunday qilib, butun kuch-g'ayratlar shaxs yashaydigan va harakat qiladigan muhitni o'zgartirishga emas, balki shaxsning o'zini o'zgartirishga safarbar etilgan bo'ladi. Shaxsning faoliyatini yo'naltirib turadigan va mavjud vaziyatlarga nisbatan bog'liq bo'lmagan barqaror motivlar majmui kishi shaxsining yo'naltirilganligi deb ataladi.

Biogenetik nazariyaning qarama-qarshi ko'rinishi – bu aksil qutbga joylashgan sotsiogenetik nazariya hisoblanadi. Sotsiogenetik yondashishga binoan, shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlar jamiyatning tuzilishi, ijtimoiy-

lashish (sotsializatsiya) usullari, uni qurshab turgan odamlar bilan o‘zaro munosabati vositalaridan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Ijtimoiylashuv nazariyasiga ko‘ra, inson biologik tur sifatida tug‘ilib, hayotning ijtimoiy shart-sharoitlarining bevosita ta‘siri ostida shaxsga aylanadi.

G‘arbiy Yevropaning eng muhim nufuzli nazariyalaridan biri – bu rollar nazariyasidir. Ushbu nazariyaning mohiyatiga binoan jamiyat o‘zining har bir a‘zosiga status (haq-huquq) deb nomlangan xatti-harakat (xulq)ning barqaror usullari majmuasini taklif qiladi. Inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo‘lgan maxsus rollari shaxsning xulq-atvor xususiyatida, o‘zgaralar bilan munosabat, muloqot o‘rnatishida sezilarli iz qoldiradi.

Kognitivistik yo‘nalishning asoschilari qatoriga J. Piaje, Dj. Kelli va boshqalarni kiritish mumkin.

J. Piaje intellekt nazariyasi ikkita muhim jihatga ajratilgan bo‘lib, u intellekt funksiyalari va intellektning davrlari ta‘limotini o‘z ichiga qamrab oladi. Intellektning asosiy funksiyalari qatoriga uyushqoqlik (tartiblilik) va adaptatsiya (moslashish, ko‘nikish)dan iborat bo‘lib, intellektning funksional invariantligi deb yuritiladi.

J. Piaje shaxsda intellekt rivojlanishining quyidagi bosqichlarga ajratadi:

- 1) sensomotor intellekti (tug‘ilishdan to 2 yoshgacha),
- 2) operatsiyalardan ilgarigi tafakkur davri (2 yoshdan to 7 yoshgacha),
- 3) konkret operatsiyalar davri (7–8 yoshdan 11–12 yoshgacha),
- 4) formal (rasmiy) operatsiyalar davri.

J. Piajening g‘oyalarini davom ettirgan psixologlarning bir guruhini kognitiv-genetik nazariyaga birlashtirish mumkin. Bu yo‘nalishning namoyandalari qatoriga L. Kolberg, D. Bromley, Dj. Birrer, A. Vallon, G. Grimm va boshqalar kiradi.

Sobiq Sovet psixologiyasida shaxsning rivojlanishi muammosi L. S. Vigotskiy, P. P. Blonskiy, S. L. Rubinshteyn, A. N. Leontyev, B. G. Ananyev, L. I. Bojovich singari yirik psixologlarning asarlarida o‘z aksini topa boshlagan. Keyinchalik ushbu masala bilan shug‘ullanuvchilar safi kengayib bordi. Jumladan mustaqil O‘zbekistonimizning yetuk olimlari E. G‘oziyev, M. G. Davletshin, R. Gaynutdinov, N. Tokareva, V. Karimova, B. Gappirov, E. Usmanova, I. Mahmudov va boshqalar ushbu muammoni chuqur o‘rganishga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Xuddi shu boisdan shaxsning tuzilishi, ilmiy manbai, rivojlanishning o‘ziga xosligi bo‘yicha yondashuvda, muayyan darajada tafovutga ega. Hozirgi davrda shaxsning rivojlanishi yuzasidan mulohaza yuritilganda olimlarning ilmiy qarashlarini muayyan guruhga ajratish va undan so‘ng ularning mohiyatini ochish maqsadga muvofiq. Bizningcha, ontogenezda shaxs taraqqiyotini bir nechta bosqichlarga ajratish va ularning har biriga alohida ilmiy psixologik

ta'rif berish nuqtai nazaridan yondashish quyidagi nazariya va yo'nalishlarni tashkil qiladi.

Shaxs kishining konkret-tarixiy hayot kechirish sharoitlarida, faoliyat (mehnat qilish, o'qish va hokazolar) jarayonida shakllanadi. Shaxsning shakllanish jarayonida guruhlar va jamoalarda amalga oshiriladigan ta'lim va tarbiya yetakchi rol o'ynaydi.

«Shaxsning shakllanishi» ikki xil ma'noda qo'llaniladi. *Birinchi*, shaxsning shakllanishi uning rivojlanish jarayoni va uning natijasi ekanligidir.

Ikkinchi ma'nosi shaxsni maqsadga yo'naltirilgan tarzda tarbiyalash sifatida shakllantirishdan iborat.

Psixologiya tarixida shaxs rivojlanishi va takomillashuvini harakatlantiradigan kuchlar va mana shu masalalarini hal etishning ikkita yo'nalishi mavjud bo'lgan. Bu yo'nalishlar rivojlanishning biogenetik va sotsiogenetik konsepsiyalari nomini olgandir.

Biogenetik konsepsiya inson shaxsining rivojlanishi biologik, asosan nasliy omillar bilan belgilanishiga asoslanadi. Shuning uchun ham shaxsning rivojlanishi ichki sabab natijasida (o'zidan-o'zi) sodir bo'lish xususiyatiga egadir.

Inson shaxsini xususiy faolligidan mahrum bo'lgan narsa deb, peshanaga yozib qo'yilgan biologik omillar ta'sirining mahsuli deb ifodalaydigan biogenetik konsepsiya shaxsning fazilatlari qismatiga ko'ra oldindan belgilab qo'yilgan deb ko'rsatadi.

Sotsiogenetik konsepsiya shaxsni tevarak atrofdagi ijtimoiy muhitning bevosita ta'siri natijasi deb, muhitdan olingan nusxa deb hisoblaydi. Bunda ham xuddi biogenetik konsepsiyadagi kabi rivojlanib borayotgan kishining xususiy faolligi inobatga olinmaydi, uning tevarak-atrofdagi vaziyatga moslashayotgan mavjudotga xos sust rol o'ynashi mumkin deb hisoblanadi. Agar sotsiogenetik konsepsiyaga amal qilinadigan bo'lsa, nima uchun ba'zi vaqtlarda bir ijtimoiy muhitlarda har-xil odamlar yetishib chiqishini tushuntirib bo'lmaydi.

Shunday qilib, na biogenetik va na sotsiogenetik konsepsiyalar shaxs rivojlanishining qonuniyatlarini tushunib yetishga asos qilinib olinishi mumkin emas. Unisi ham bunisi ham psixik rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlay olmaydi. Buni amalga oshirishga ikkala omilning (muhit va irsiyatning) mexanik tarzdagi o'zaro bog'liqlikdagi harakati, yoxud konvergensiya (bir xil tashqi muhitda o'xshash belgilarning hosil bo'lishi) nazariyasi ham yordam bera olmaydiki, bunda rivojlanishning ikkala konsepsiyasi xatolari bartaraf etilishidan ko'ra ko'proq orta bordi.

Shaxs rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlari muammosini hal etishdagi dialektika nuqtai nazar yechimi rivojlanishida amalga oshiriladi-

gan kuyidan (oddiydan) yuqoriga (murakkabga) o'tishni ta'minlaydigan ziddiyatlar ta'rifiga murojaat qilinishini muqarrar taqozo etadi. Shaxsning faolligi kishini anglanilgan va anglanilmagan motivlar orqali faoliyatga undovchi ehtiyojlarning majmui bilan belgilanadi. Lekin ehtiyojlarning qondirilish jarayoni zamirida ziddiyat mavjuddir. Ehtiyojlar odatda paydo bo'lishi bilanoq darhol qondirilmaydi. Ularning qondirilishi uchun moddiy mablag'lar, shaxsning faoliyatiga muayyan darajada tayyorgarligi, bilimlar, malakalar va hokazolar zarur. Shaxs faolligini harakatlantiruvchi kuchlar kishining faoliyatida o'zgarib turuvchi ehtiyojlari bilan ularni qondirishning real imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlarda aniqlanadi.

Qiziqish shaxsning muhim psixologik jabhalaridan biri hisoblanib, unda insonning individual xususiyati bevosita mujassamlashadi. Qiziqish – insonlarning dunyoqarashi, e'tiqodlari, ideallari, ya'ni uning oliy maqsadlari, ezgu-niyatlari, orzu-umidlarida bevosita muhim rol o'ynaydi hamda ularning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror, anglagan holda o'zlashtirishda, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda, shaxs qobiliyati, zehni, uquvchanligining rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunishga, bilim saviyasining kengayishiga yordam beradi.

Qiziqish motiv singari borliqning mo'jizakor tomonlarini bilishga, fan asoslarini egallashga, faoliyatning turli-tuman shakllariga nisbatan ijodiy yondashishni vujudga keltiradi, mehnatga, ta'limga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishni shakllantiradi, har qaysi yakkahol (individual) shaxsda ishchanlik, g'ayrat-shijoat, egilmas irodani tarkib toptirishga puxta psixologik shart-sharoitlar yaratadi.

Qiziqishning psixologik mohiyatidan kelib chiqqan holda yondashilganda, qiziqish, insonda intilish, faollik, ichki turtki, ehtiyojni ro'yobga chiqarish manbai rolini bajaradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, shaxsning ishtiyoqini qondirishga yo'naltirilganligini aks ettiruvchi qiziqishning qondirilishi, hech qachon uning so'nishini ifodalamaydi, aksincha obyektning noma'lum qirralarini aniqlashga nisbatan intilish davom etaveradi. Shu bilan birga, qiziqishlar bilishning, uning jarayonlari funksional holatining doimiy qo'zg'atuvchi mexanizmi sifatida vujudga keladi va aks ettirishda davom etadi.

Psixologiyada qiziqish quyidagi tiplarga ajratilishi mumkin: 1) mazmuniga ko'ra: shaxsiy va ijtimoiy; 2) maqsadiga binoan: bevosita va bilvosita; 3) ko'lamiga qaraganda: keng va tor; 4) qiziqishlar darajasi bo'yicha: barqaror va beqaror va boshqalar.

Psixologiyada ehtiyojlar rivojlanishining bir nechta bosqichlari mavjud ekanligini ta'kidlab o'tish zarur. Chunki ehtiyojlar inson ontogenezida

paydo bo‘lib, to uning umrining oxirigacha o‘zgarib, takomillashib boradi. Kishilik jamiyatlarida ehtiyojlar bir-biridan ham mohiyat, ham shakl jihatidan tafovutga ega bo‘lganday, yosh davrlariga qarab ular xuddi shunday mezonlar bo‘yicha o‘zaro farqlanadilar.

Odam va hayvon faolligining asosiy manbai, aniq sharoitlar bilan bog‘liq zaruratning ichki holatiga **ehtiyoj** deb ataladi.

*Asosiy ehtiyojlar (fundamental) ehtiyojlar iyerarxiyasi
(A. Maslou piramidasi)*



Ehtiyojlarning qondirilishi shunday bir vaziyatni keltirib chiqaradiki, bunda kishi ehtiyojlari rivojlanishining erishilgan darajasi bilan ularni qondirishning real imkoniyatlari o‘rtasidagi ziddiyat namoyon bo‘ladi. Ziddiyatlarning shaxs rivojlanishiga olib boradigan darajada hal etilishi faoliyatda uni amalga oshirishning muayyan vositalarini (usullarini, malakalarini, jarayonlarini, bilimlarini va hokazolarini) ta’lim jarayonida egalash orqali ro‘y beradi. Buning ustiga ehtiyojlarning jo‘shqin faoliyat vositasida qondirilishi qonuniy tarzda yangi yuksakroq darajadagi ehtiyojini keltirib chiqaradi.

Shaxsni faoliyatga undovchi ichki turtkiga *motiv* deyiladi.

Motivlar 2 xil bo‘ladi:

1. Anglanilgan.

2. Anglanilmagan.

Shaxsning yo'naltirilganligida anglanilgan motivlar asosiy rol o'ynaydi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, motivlarning rivojlanishi, motivlashgan yangi ma'lumotlarning paydo bo'lishi, faoliyat muhiti doirasidagi o'zgarishlar tufayli amalga oshiriladi. Motiv mexanizmi shaxs sifatlarini qayta qurish, ularni rivojlantirish jarayonining faollashuvi tarzida yuzaga chiqadi. Shu bilan birga, inson kamol topish jarayoniga, faoliyat muhiti va sharoiti asta-sekin yoki tez o'zgarishi – motivlarning takomillashuvi, barqarorlashuvi kabi omillarga ta'sir etadi. Insonni mehnat faoliyatida qayta tarbiyalash va muayyan fazilatlarni shakllantirish yuqoridagi mulohazalar mohiyatidan iboratdir. Bu o'rinda faoliyat faol vaziyat hisoblanib, mavjud ehtiyojlar, qiziqishlar doirasidagi psixologik holatlardan uzoqlashib boradi, so'ngra yangi qiziqish, ehtiyoj va intilishlarni shakllantiradi, motivlar mohiyati va shakllarni o'zgartiradi.

Shaxsning yangi qiziqish, ehtiyoj va intilishlarini qondirib bo'lmaydi deb o'ylab o'ziga xos kechinmalarga qarama-qarshi o'laroq ruhiy tushkunlik holati *frustratsiya* deb ataladi. Bu kishi maqsadiga erishish yo'lida real tarzda bartaraf etib bo'lmaydi deb hisoblagan yoki shunday deb idrok etiladigan to'sqinlarga, g'ovlarga duch kelgan hollarda yuz beradi. Frustratsiyaning yuz berishi shaxsning xulq-atvorida va uning o'zini anglashida turli xil o'zgarishlarga olib keladi.

Qiziqish biror bir sohada to'g'ri mo'ljal olishga, yangi faktlar bilan tanishishga, voqealikni ancha to'la va chuqur aks ettirishga yordam beradigan motivdir.

Kishining tevarak atrofda munosabat, birgalikdagi faoliyat va ijodiy ish jarayonida namoyon bo'ladigan ijtimoiy ahamiyatga molik o'zgarishlar qilish layoqati – *shaxsning faolligi* deyiladi.

E'tiqod shaxsni o'z qarashlariga prinsiplariga, dunyoqarashiga muvofiq tarzda ish ko'rishga da'vat etadigan motivlar sistemasidir.

Psixologiyada shaxsning yo'l-yo'riqlari, uning u yoki bu ehtiyoji qondirilishiga yordam berishi mumkin bo'lgan faoliyatga tayyorgarligining moyilligining o'zi tomonidan anglanilmaydigan holatini belgilaydi.

Shuning uchun ham rivojlanib borayotgan shaxs doimo yangi va yangi ehtiyojlarning (va demak sabablarning keng shoxobchali sistemasini ham) keltirib chiqararkan, o'z navbatida ehtiyojlar rivojlanishining natijasi bo'lib ham hisoblanadi. Ehtiyojlarni rivojlantirish, tanlash, tarbiyalash ularni hozirgi jamiyat kishisiga xos bo'lgan ma'naviy yuksaklik darajasiga olib chiqish kishi shaxsini shakllantirishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shaxsning shakllanishida unga maqsadga yo'naltirilgan tarzda ta'sir o'tkazishda – tarbiya yetakchi rol o'ynaydi. Tarbiya shaxsning rivojlantirishini jamiyat tomonidan quyilgan maqsadlarga muvofiq tarzda yo'naltirilib boradi va uyushtiradi.

«Men» - obrazi va o'z-o'ziga baho.

«Men» – obrazi asosida ham bir shaxsda o'z-o'ziga nisbatan baholar tizimi shakllanadiki, bu tizim ham obrazga mos tarzda har xil bo'lishi mumkin. O'z-o'ziga nisbatan baho turli sifatlar va shaxsning orttirilgan tajribasi, shu tajriba asosida yotgan yutuqlariga bog'liq holda turlicha bo'lishi mumkin. Ya'ni ayni biror ish, yutuq yuzasidan ortib ketisa, boshqasi ta'sirida, aksincha, pastlab ketishi mumkin. Bu baho aslida shaxsga boshqalarning real munosabatlariga bog'liq bo'lsa-da, aslida u shaxs ongi tizimidagi mezonlarga, ya'ni uning o'zi subyektiv tarzda shu munosabatlarni qanchalik qadrlashiga bog'liq tarzda shakllanadi. Masalan, maktabda bir fan o'qituvchisining bolaga nisbatan ijobiy munosabati, doimiy maqtovlari uning o'z-o'ziga bahosini oshirsa, boshqa bir o'qituvchining salbiy munosabati ham bu bahoni pastlatmasligi mumkin. Ya'ni bu baho ko'proq shaxsning o'ziga bog'liq bo'lib, u subyektiv xarakterga egadir.

O'z-o'ziga baho nafaqat haqiqatga yaqin (adekvat), to'g'ri bo'lishi, balki u o'ta past yoki yuqori ham bo'lishi mumkin.

O'z-o'ziga bahoning past bo'lishi ko'pincha atrofdagilarning shaxsga nisbatan qo'yayotgan talablarining o'ta ortiqligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e'tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o'qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida hosil bo'lishi mumkin. Bunday o'smir yoki katta odam ham, doimo tushkunlik holatiga tushib qolishi, atrofdagilardan chetroqda yurishga harakat qilishi, o'zining kuchi va qobiliyatlariga ishonchsizlik kayfiyatida bo'lishi bilan ajralib turadi va bora-bora shaxsda qator salbiy sifatlar va xatti-harakatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Hattoki, bunday holat suitsidal harakatlar, ya'ni o'z joniga qasd qilish, real borligidan «qochishga» intilish psixologiyasini ham keltirib chiqarishi mumkin.

O'zi-o'ziga baho o'ta yuqori ham shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki u ham shaxs yutuqlari yoki undagi sifatlarning boshqalar tomonidan sun'iy tarzda bo'rttirilishi, noo'rin maqtovlar, turli qiyinchiliklarni chetlab o'tishga intilish tufayli shakllanadi. Ana shunday sharoitda paydo bo'ladigan psixologik holat «noadekvatlilik effekti» deb atalib, uning oqibatida shaxs hattoki, mag'lubiyatga uchraganda yoki o'zida nochorlik, uquvsizliklarni sezganda ham buning sababini o'zgalarda deb biladi va shunga o'zini ishontiradi ham (masalan, «xalaqit berdi-da», «falonchi bo'lmaganida» kabi bahonalar ko'payadi). Ya'ni nimaiki

bo‘lmasin, aybdor o‘zi emas, atrofdagilar, sharoit, taqdir aybdor. Bundaylar haqida bora-bora odamlar «oyog‘i yerdan uzilgan», «manmansiragan», «dimog‘dor» kabi sifatlar bilan gapira boshlaydilar. Demak, o‘z-o‘ziga baho realistik, adekvat, to‘g‘ri bo‘lishi kerak.

Realistik baho shaxsni o‘rab turganlar – ota-ona, yaqin qarindoshlar, pedagog va murabbiylar, qo‘ni-qo‘shni va yaqinlarning o‘rinli va asosli baholari, real samimiy munosabatlari mahsuli bo‘lib, shaxs ushbu munosabatlarni ilk yoshligidanoq xolis qabul qilishga, o‘z vaqtida kerak bo‘lsa to‘g‘rilashga o‘rgatilgan bo‘ladi. Bunda shaxs uchun etalon, ibratli hisoblangan insonlar guruhi – **referent** guruhning roli katta bo‘ladi. Chunki biz kundalik hayotda hammaning fikri va bahosiga quloq solavermaymiz, biz uchun shunday insonlar mavjudki, ularning, hattoki oddiygina maslahatari, maqtab turib bergan tanbehleri ham katta ahamiyatga ega. Bunday referent guruh real mavjud bo‘lishi (masalan, ota-ona, o‘qituvchi, ustoz, yaqin do‘stlar), yoki noreal, xayoliy (kitob qahramonlari, sevimli aktyorlar, ideal) bo‘lishi mumkin. Shuning uchun yoshlar tarbiyasida yoki real jamoadagi odamlarga maqsadga muvofiq ta’sir yoki tazyiq ko‘rsatish kerak bo‘lsa, ularning etalon, referent guruhini aniqlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, o‘z-o‘ziga baho sof ijtimoiy hodisa bo‘lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o‘rab turgan jamiyat normalariga, shu jamiyatda qabul qilingan va e‘zozlanadigan qadriyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Keng ma’nodagi yirik ijtimoiy jamoalar etalon rolini o‘ynashi oqibatida shakllanadigan o‘z-o‘ziga baho – o‘z-o‘zini baholashning yuksak darajasi hisoblanadi. Masalan, mustaqillik sharoitida mamlakatimiz yoshlari ongiga milliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik, adolat va mustaqillik mafkurasiga sadoqat hislarining tarbiyalanishi, tabiiy, har bir yosh avlodda o‘zligini anglash, o‘zi mansub bo‘lgan xalq va millat ma’naviyatini qadrlash hislarini tarbiyalamoqda. Bu esa, o‘sha yuksak o‘z-o‘zini anglashning poydevori va muhim shakllantiruvchi mexanizmidir. Demak, o‘z-o‘zini baholash – o‘z-o‘zini tarbiyalashning muhim mezonidir.

Shunday qilib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, shaxs bo‘lishi uchun shaxs o‘z «Men»ligini anglagan, o‘zgalar bilan o‘zaro munosabatga kirisha oladigan, tabiat va jamiyatga faol ta’sir o‘tkaza olishi kerak.

Individuallik tarzidagi shaxsni tadqiq etish natijasida olingan ma’lumotlar individlararo munosabatlar subyektivi sifatidagi shaxsning ta’rifiga bevosita ko‘chirilishi mumkin emas.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy faoliyatlarida shaxsning tuzilishi va o‘zini-o‘zi anglab yetishi haqidagi bilimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, huquqni muhofaza

qilish organlari faoliyatida shaxsning bilish jarayonlari, emotsional-irodaviy sifatlari va o'ziga xos bo'lgan individual-psixologik xususiyatlarini rivojlantirib borish va uni yanada takomillashtirish hozirgi zamon talablaridan biridir. Shu nuqtai nazardan ma'ruzamizda shaxsning ushbu sifatlarini sanab o'tishga harakat qilib ko'rdik.

Shaxs, uning dunyoni, o'zini va atrofidagi insoniy munosabatlarni bilishi, tushunishi va o'zaro munosabatlar jarayonida o'zidagi takrorlanmas individuallikni namoyon qilishi hamda ushbu jarayonlarning yoshga va jinsga bog'liq ayrim jihatlarini tahlil qilish umumiy ravishda shaxs – jamiyatda yashaydigan ijtimoiy mavjudotdir, degan xulosani qaytarishga imkon beradi. Ya'ni u tug'ilgan onidan boshlab o'ziga o'xshash insonlar qurshovida bo'ladi va uning butun ruhiy potentsiali ana shu ijtimoiy muhitda namoyon bo'ladi. Chunki agar insonning ontogenetik taraqqiyoti tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, hali gapirmay turib, odam bolasi o'ziga o'xshash mavjudotlar davrasiga tushadi va keyin ijtimoiy muloqotning barcha ko'rinishlarining faol obyekti va subyektiga aylanadi.

Shunday qilib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, shaxs bo'lishi uchun shaxs o'z «Men»ligini anglagan, o'zgalalar bilan o'zaro munosabatga kirisha oladigan, tabiat va jamiyatga faol ta'sir o'tkaza olishi kerak.

Shaxsning faolligi kishini anglanilgan va anglanilmagan sabablar sistemasini orqali faoliyatga undovchi ehtiyojlarning majmui bilan belgilanadi.

Shaxsning shakllanishi uning jamoaga qo'shilganligi sharoitida ro'y beradi. Shuningdek, shaxsning shakllanishida unga maqsadga yo'naltirilgan tarzda ta'sir o'tkazish – tarbiya yetakchi rol o'ynaydi.

Shaxsning xarakteri ijtimoiy munosabatlar sistemasiga, hamkorlikdagi faoliyatiga va boshqa odamlar bilan muomalasiga jalb etiladigan hamda shu bilan o'z individualligiga ega bo'layotgan tiriklik paytida erishgan narsasidir.

Ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyatida shaxsiy individual-psixologik xususiyatlari shaxs bo'lib shakllanishida va rivojlanishida, shuningdek jamiyat xavfsizligini ta'minlashda asosiy funksiyani bajaradi.

Shaxsning bilish jarayonlari haqida tushuncha

Bilish muammosi qadimgi zamondan beri kishilik dunyosini qiziqtirib keladi, amma u bugungi kunda fan va texnikaning rivojlanishi bilan yanada dolzarb masalaga aylanib qoldi. Shu boisdan bilish nazariyasi falsafa, tarix, filologiya, kibernetika, pedagogika, psixologiya kabi fanlarning tadqiqot predmetiga aylanib, fanlarning har qaysisi o'zining mohiyatidan kelib chiqib, uning u yoki bu jabhalarini o'rganadi. Boshqa fanlardan farqli o'laroq, psixologiya fani insonning ontogenezida bilishning vujudga kelishi,

uning o'ziga xos psixologik mexanizmlari, unda ehtiyoj, motiv, emotsiya va irodaning roli, tanishish zarurat hisoblangan obyektning notanishligi, ko'inishi hamda materiallar mazmunining ahamiyatini tekshiradi.

Bizningcha, obyektiv dunyo to'g'risidagi ma'lumotlar, fan asoslari bo'yicha axborotlar, ijtimoiy va individual tajribalar, shaxslararo munosabat va muomala o'rnatish, muayyan faoliyatni tashkil qilish va uni boshqarish o'zini-o'zi anglashga taalluqli tarkibiy qismlar bilan qurollanishga ijod va yangilik yaratishga qaratilgan murakkab, iyerarxik hamda integral xususiyatli, faqat insoniyatgagina xos bo'lgan, aqliy va jismoniy negizga quriluvchi intilish va faollikning majmuasi bilish deb ataladi.

Bilishning psixologik fazalari, bosqichlari, darajalari, ko'lami, kengligi, chuqurligi, to'laligi, aniqliligi, yaqqolligi, ifodalanish shakllari va vositalari, barqarorligi, mustaqilligi va uning ijtimoiy psixologik mexanizmlari to'g'risida ma'lumotlar sharhlanadi.

Bizni qurshab turgan obyektiv borliqni bilish xususiyatiga oid jahon psixologiyasi fanida ko'plab ilmiy nazariyalar, mustaqil konsepsiyalar, o'xshash qarashlar, puxta pozitsiyalar, xilma-xil yondashishlar mavjuddir. Ammo shunga qaramasdan, biz bu asnoda bilishning filogenetik qonuniyatlari, taraqqiyot bosqichlari, ularning bunyodkor mexanizmlari, muayyan o'ziga xoslik, ulardagi barqarorlikni ta'minlovchi shart-sharoitlar, harakatlantiruvchi kuchlar, obyektiv va subyektiv omillarning ta'sirchanlik imkoniyati rang-barangligi tufayli ontogenetik davrning xususiyatlari to'g'risida mulohaza yuritishning o'zi yetarlidir.

Inson shaxs bo'lib shakllanishi va rivojlanishida bilish jarayonlar asosiy funksiyani bajaradi.

Bilish jarayonlar qadim zamonlardan beri olimlarning diqqat markazidagi muammolardan biri bo'lib kelgan. Insonning ontogenezida bilish jarayonini amalga oshiruvchi, uni yuzaga keltiruvchi asosiy manbalar mavjud bo'lib bizningcha, ular taxminan quyidagilardan iboratdir:

- 1) tug'ma instinktlar;
- 2) shartsiz reflekslar;
- 3) shartli reflekslar;
- 4) ideomotor harakatlar;
- 5) predmetli harakatlar;
- 6) taqlid yoki imitatsiya;
- 7) tajriba;
- 8) mashq;
- 9) ko'nikma, malaka, odat (ularni o'zlashtirish imkoniyati va egallash vaziyati);
- 10) refleksiya (xulq va ongli boshqarish).

Bilish jarayoning mohiyati va o'ziga xoslikni vujudga keltiruvchi asosiy psixologik negizlari tariqasida:

- ehtiyoj;
- motiv (motivatsiya);
- mayl;
- moyillik;
- qiziqish;
- ustanovka;
- tug'ma, tabiiy alomatlar;
- faollik;
- ruhiy holatlarning barqarorligi;
- obyektiv va subyektiv xususiyatli funksiyalar xizmat qilishi mumkin.

Asosiy bilish jarayonlari, uning qonuniyatlari, tarkibi va o'ziga xosligi. *Diqqat va uning turlari, xususiyatlari.* Diqqat – kishi faoliyatning barcha turlari, eng avvalo, mehnat va o'quv faoliyati samaradorligini muhim va zarur sharti. Bilish jarayonlari kechishining eng muhim xususiyati uning tanlaydigan, yo'naltirilgan tusdaligidan iboratdir. Tevarakatdagi olamning ko'plab ta'sirlari orasidan kishi hamisha nimanidir idrok etadi. Nimanidir faraz qiladi, nima haqidadir fikr yuritadi, o'ylaydi. Ongning bu xossasini uning diqqat kabi xususiyati bilan o'zaro bog'liq deb hisoblashadi.

Diqqat – bu individning hissiy, aqliy yoki harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqozo etadigan tarzda ongning yo'naltirilganligi va bir narsaga qaratilganligi.

Diqqatni ma'lum obyektga qaratish uchun irodaviy kuch-g'ayrat sarflash zarurati ishga tushayotgan paytda, binobarin, qiyinchiliklar paydo bo'lganida, bilishga oid qiziqish susayganida va shuningdek to'siqlar mavjud bo'lgan kezlarda aniq-ravshan namoyon bo'ladi.

Hosil bo'lish xususiyati va amal qilish usullariga ko'ra diqqatning ikkita asosiy turi mavjud:

- 1) ixtiyorsiz diqqat;
- 2) ixtiyoriy diqqatdan.

Ixtiyorsiz diqqat – kishining anglashilgan niyatlari va maqsadlaridan mustasno tarzda hosil bo'ladi va qo'llab-quvvatlanadi. Ixtiyorsiz diqqatning paydo bo'lishi jismoniy, psixofiziologik va psixik omillar bilan belgilanadi. Individning ehtiyojlariga muvofiq keladigan, uning uchun ahamiyatiga ega qo'zg'atuvchilar ixtiyorsiz diqqatni qo'zg'aydi. Ixtiyorsiz diqqatda bevosita qiziqishning roli benihoya kattadir. Nimaiki qiziqarli, maroqli, hissiyotga boy, zavqli bo'lsa, diqqatning uzoq vaqt mobaynida to'planib

turishini taqozo etadi. Ixtiyorsiz diqqat shaxsning umumiy yoʻnalganligiga ham bogʻliq.

Ixtiyoriy diqqat – ongli ravishda boshqariladigan va tartibga solinadigan diqqat-eʼtibordir. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqat zamirida hosil boʻladi. Ixtiyoriy diqqat agar kishi faoliyati jarayonida oʻz oldiga maʼlum bir vazifa qoʻygan va harakat programmasini ongli tarzda ishlab chiqqan boʻlsa yuz beradi.

Ixtiyoriy diqqatning oliy turi mehnat jarayonida tarkib topadi. Ixtiyoriy diqqatning vazifasi psixik jarayonlarning kechishini boshqarib turishdan iboratdir. Kishi aynan ana shu ixtiyoriy diqqatning mavjudligi tufayli xotiradan oʻzi uchun zarur maʼlumotlarni faol tarzda, tanlab «ajratib olish»ga toʻgʻri qarorlar qabul qilishga, faoliyat jarayonida paydo boʻladigan vazifalarni amalga oshirishga layoqatli boʻladi.

Diqqatni kuchli qoʻzgʻatuvchilar – baland ovoz, yorqin nur va boʻyoq, kuchli hid jalb etadi.

Diqqatni taqsimlanishi – ikki va undan ortiq faoliyat turlarining (bir qancha harakatlarning) ayni vaqtning oʻzida muvaffaqiyatli bajarish imkoniyati bilan bogʻliq xususiyatdir. Diqqatning yuksak darajada taqsimlanishi – hozirgi zamon mehnat turlari muvaffaqiyatlarining muqarrar shartlaridan biridir. Masalan, operatorlar, dastgohlarda ishlovchilar, transport haydovchilari va boshqalarning ishi ana shuni talab qiladi.

Diqqatning koʻchishi maʼlum obyektning bir faoliyatdan ikkinchi bir faoliyatga, bir obyektidan ikkinchi bir obyektga, bir harakatdan ikkinchi bir harakatga oʻtishida namoyon boʻladi. Diqqatning koʻchishi yo ongli ravishdagi xulq-atvorga, faoliyatning talablariga yoki oʻzgarib ketayotgan shart-sharoitlarga muvofiq tarzda yangi faoliyatga kirishish zarurati bilan bogʻliq boʻladi. Faqat obyektlar va jarayonlar oʻzgarib, faoliyat esa uzoq vaqt davomida oʻzgarmasdan qolgan hollarda diqqatning barqarorligi doirasida uning koʻchishi yuz beradi. Bunday koʻchish uzoq davom etadigan ish paytida charchashning oldini oladi va shu bilan diqqatning barqarorligini oshiradi. Lekin bu tez-tez takrorlanvermasligi lozim, aks holda salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Diqqatning salbiy jihatlaridan biri parishonxotirlikdir. Parishonxotirlik diqqatni uzoq vaqt davomida jadal bir narsaga qaratishga layoqatsizlikda, diqqatning osongina va tez-tez boʻlinib turishida namoyon boʻlishi mumkin. Parishonxotirlikning bu koʻrinishi koʻpincha ish qobiliyati susayib ketishining va xulq-atvordagi uyushmaganlikning sabablaridan biri hisoblanadi. Parishonxotirlikni keltirib chiqaruvchi sabablar nimalardan iborat? Parishonxotirlik shaxsning barqaror xislati sifatida ixtiyoriy diqqatning sust koʻrsatkichi hisoblanadi va notoʻgʻri tarbiya natijasida boʻlishi mumkin. Bu

xildagi parishonxotirlikka, avvalo shaxsda irodaviy fazilatlarni shakllantirish yo‘li bilan kurash olib borish kerak.

Biz sezgi organlari tufayli tevarak-atrofdagi olamning boyligi, tovushlar va ranglar, hidlar va harorat, miqdor va ko‘plab boshqa narsalar to‘g‘risida bilamiz. Kishi sezgi a‘zolari yordamida tashqi va ichki muhitning holati haqida rang-barang axborot olib turadi.

Sezgi haqida tushuncha. Sezgi – bu oddiy psixik jarayon bo‘lib, u moddiy olamdagi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlari aksidan, shuningdek moddiy qo‘zg‘atuvchilar tegishli retseptorlarga bevosita ta‘sir etgan miqdorda organizmda hosil bo‘ladigan ichki holatlardan tarkib topadi. Materiya bizning sezgi organlarimizga ta‘sir etib sezgi hosil qiladi. Sezgi a‘zolari axborotni qabul qilib oladi, saralaydi, jamlaydi va miyaga yetkazib beradi.

Sezgi a‘zolari tashqi olamning kishi ongiga kirib keladigan yagona yo‘llaridir. Sezgilarning mohiyatiga ko‘ra obyektiv olamning subyektiv siymosidir. Lekin sezgilarning hosil bo‘lishi uchun organizm moddiy qo‘zg‘atuvchining tegishli ta‘siriga berilishi kifoya qilmaydi, balki organizmning o‘zi ham qandaydir ish bajarishi darkor.

Kishining hayoti va faoliyatida sezgilarning roli juda katta, negaki ular bizning olam haqidagi va o‘zimiz to‘g‘rimizdagi bilimlarimiz manbai hisoblanadi. Inson-tevarak atrofdagi olam haqida hamisha axborot olib turishi kerak.

Sezgilarning Arastu tomonidan alohida ajratib ko‘rsatilgan quyidagi turlari mavjuddir:

- 1) ko‘rish;
- 2) eshitish;
- 3) hid bilish;
- 4) badanning tegishi orqali sezish;
- 5) ta‘m bilish.

Sezgilarning ma‘lum bir qo‘zg‘atuvchining muayyan retseptorga ta‘siri natijasida hosil bo‘lgani uchun ham sezgilarning tasnifi ularni hosil qiladigan qo‘zg‘atuvchilarning va ana shu qo‘zg‘atuvchilar ta‘sir qiladigan retseptorlarning xususiyatlariga asoslanadi.

Aks etish xususiyatiga va retseptorlarning joylashgan o‘rniga qarab sezgilarning odatda, uch guruhga ajratiladi:

1. Tashqi muhitdagi narsalar va hodisalarning xususiyatlarini aks ettiradigan hamda tananing yuzasida retseptorlari bo‘lgan ekstroseptiv sezgilarning.

2. Tananing ichki a‘zolarida va to‘qimalarida joylashgan hamda ichki a‘zolarining holatini aks ettiradigan retseptorlarga ega bo‘lgan interseptiv sezgilarning.

3. Retseptorlari mushaklarda va paylarda o'rnashgan propriozeptiv sezgilar. Ular gavdamizning harakati va holati haqida axborot berib turadi.

Ekstrotseptivlarni ikki guruhga: aloqa bog'laydigan kontakt va distant retseptorlarga ajratamiz. Aloqa bog'laydigan retseptorlar ularga ta'sir qiladigan obyektlar bilan bevosita aloqa bog'lagan paytda qo'zg'aydi. Badanga tegish orqali sezish, ta'm bilish retseptorlari shular jumlasidandir. Distant retseptorlar uzoqdagi obyektidan keladigan qo'zg'atishdan ta'sirlanadi. Distant ritseptorlarga – ko'rish, eshitish, hid bilish retseptorlari kiradi.

Sezgilar muayyan payt davomida retseptorga ta'sir o'tkazayotgan qo'zg'atuvchining o'ziga xos quvvatini nerv jarayonlari quvvatiga aylanishi natijasida hosil bo'ladi. Sezgi a'zolari faqat moslashuvchanlik, ijro qilish funksiyalarini bajaribgina qolmasdan, balki axborot olish jarayonlarida bevosita ishtirok etadigan harakat organlari bilan mustahkam bog'langandir.

Sezgi nerv sistemasining u yoki bu qo'zg'atuvchidan ta'sirlanuvchi reaksiyalari tarzida hosil bo'ladi va har qanday psixik hodisa kabi reflektorlik xususiyatiga egadir.

Analizator uch qismdan tarkib topadi:

– tashqi quvvatni nerv jarayoniga o'tkazadigan maxsus transformator hisoblangan periferik bo'limi (retseptor);

– analizatorning periferik bo'limini markaziy analizator bilan bog'laydigan yo'llarni ochadigan afferent (markazga intiluvchi) va efferent (markazdan qochuvchi) nervlar;

– analizatorning periferik bo'limlaridan keladigan nerv signallarining qayta ishlanishi sodir bo'ladigan qobiq osti va qobiq (miyaning o'zi bilan tugaydigan) bo'limlari.

Har bir analizatorlarning qobiq bo'limida retseptor hujayralarning asosiy qismi jamlangan o'zak, ya'ni markaziy qism va qobiqning turli joylarida u yoki bu miqdorda o'rnashgan tarqoq hujayra qismlaridan tarkib topgan tashqi qismi bo'ladi.

Analizator nerv jarayonlarining yoxud reflektor yoyining butun yo'li manbai va eng muhim qismini tashkil etadi. Reflektor yoyi retseptordan, ta'sirotni miyaga olib boruvchi nerv yo'llari va effektordan tarkib topgandir.

Shunday qilib, sensor (hissiy) va motor (harakat) qismlarning uyg'unlashuvi tufayli sensor (analizator) apparat retseptor ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchilarning obyektiv xususiyatlarini aynan aks ettiradi va shularning xususiyatlariga o'xshab qoladi.

Adaptatsiya yoxud moslashuv-sezgi organlari sezgirligining qo'zg'atuvchi ta'siri ostida o'zgarishi demakdir.

Bu hodisaning uch xil turini alohida ko'rsatish mumkin:

1. Qo'zg'atuvchining uzoq muddat davomida ta'sir etishi jarayonida sezgining tamomila yo'qolib qolishiga o'xshaydi. Doimiy qo'zg'atuvchilar ta'sir qilgan taqdirda sezgi yo'qolib qolish xususiyatiga ega. Masalan, terining ustiga qo'yilgan yengilgina yuk tezda sezilmaydigan bo'lib qoladi. Hid bilish sezgilari atrof-muhitga yoqimsiz hid yoyilganidan keyin ko'p o'tmay batamom yo'qolib qolishi ham oddiy bir hodisadir;

2. Adaptatsiya – kuchli qo'zg'atuvchining ta'siri ostida sezgining zaiflashib qolishi. Masalan, sovuq qo'zg'atuvchi hosil qiladigan sezgining jadalligi qo'lni sovuq suvga solganda susayadi. Biz yarim qorong'i xonadan yorqin yoritilgan joyga chiqqanimizda oldiniga ko'zlarimiz qamashadi va tevarak-atrofdagi biror-bir narsaning farqiga yeta olmaydigan bo'lib qolamiz, bir muncha vaqt o'tgandan keyin esa ko'rish analizatorlarining sezuvchanligi keskin susayib, biz odatdagidek ko'ra boshlaymiz.

3. Kuchsiz qo'zg'atuvchining ta'siri ostida sezgirlikning ortishi ham adaptatsiya deb ataladi.

Analizator sezuvchanligining boshqa sezgi a'zolarining qo'zg'alishi ta'siri ostida o'zgarishi sezgilarning o'zaro munosabati deb ataladi. Sezgilarning o'zaro munosabati xuddi adaptatsiya kabi ikkita bir biriga qarama-qarshi jarayonlarda: sezuvchanlikning ortishi va pasayishida namoyon bo'ladi. Bu o'rinda umumiy qonuniyat shundan iboratki, analizatorning o'zaro munosabatlarida kuchsizlari analizatorlarning sezuvchanligini oshiradi, kuchlilari esa susaytiradi.

Analizatorlarning o'zaro munosabati va mashq qilish natijasida sezuvchanlikni ortishi *sensibilizatsiya* deb ataladi. Sezgi a'zolari sezuvchanligining o'zgarish qonuniyatlarini bilgan holda maxsus tanlangan qo'shimcha qo'zg'atuvchilarni qo'llash yo'li bilan u yoki bu retseptorni sensibillashtirish, ya'ni uning sezuvchanligini oshirish mumkin. Sensibillashtirishga mashq qilish natijasida ham erishish mumkin.

Sezgilarning o'zaro munosabati sinesteziya deb atalmish yana bir hodisada namoyon bo'ladi. *Sinesteziya* – bir analizatorning qo'zg'alishi ta'siri ostida boshqa analizatorga xos sezgining hosil bo'lishidir. Sinesteziya sezgilarning har xil turlarida kuzatiladi.

Idrok va uning xususiyatlari. Idrok – sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon bo'lib hisoblanganligi sababli barcha ruhiy holatlar, hodisalar, xususiyatlar, xossalar va inson ongining yaxlit mazmuni, egallangan bilimlar, tajribalar, ko'nikmalar bir davrning o'zida namoyon bo'ladi, aks ettirishda ishtirok qiladi.

Narsalar yoki hodisalarning sezgi a'zolariga bevosita ta'sir qilish jarayonida kishi ongida aks etishiga idrok deb ataladi.

Idrok etish jarayonida alohida holdagi sezgilarning tartibga solinishi hamda narsalar va voqea-hodisalarning yaxlit obrazlariga birlashuvi yuz beradi.

Qo'zg'atuvchining alohida xususiyatlari aks etadigan sezgilardan farqli o'laroq, idrok narsalarni umuman, uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettiradi. Bunda idrok alohida sezgilar yig'indisidan iborat tarzda emas, balki hissiy bilishning o'ziga xos xususiyatlari bilan sifat jihatidan yuqori bosqichi sifatida tasavvur qilinadi.

Sezgilardan farqli o'laroq, idrok narsalarni umuman, uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks etadi.

Idrokning muhim xususiyatlari:

- predmetlilik;
- yaxlitlilik;
- strukturalilik;
- barqarorlik;
- anglanilganlik.

Idrokning predmetliliği – obyektivlashtirish hodisasi deb atalmish hodisa, ya'ni tashqi dunyodan olinadigan axborotning o'sha dunyoga mansubligida ifoda etadi. Predmetlilik idrokning belgisi sifatida xatti-harakatni boshqarishda alohida rol o'ynaydi. Odatda, biz narsalarga ularning ko'rinishiga qarab emas, balki ularni amaliyotda qay tarzda ishlatishiga muvofiq holda yoki ularning asosiy xususiyatlariga qarab baholanadi.

Idrokning yaxlitligi deyilganda sezgi a'zolariga ta'sir qiladigan narsaning ayrim xususiyatlarini aks ettiradigan sezgilardan farqli o'laroq, idrok narsaning yaxlit obrazi hisoblanadi. O'z-o'zidan ravshani, bu yaxlit obraz narsaning ayrim xususiyatlari va belgilari haqida turli xil sezgilar tarzida olinadigan bilimlarni umumlashtirish negizida tarkib topadi.

Idrokning yaxlitligi uning **strukturaligi** bilan bog'liqdir. Idrok ma'lum darajada bizning bir lahzalik sezgilarimizga javob bermaydi va ularning shunchaki oddiy yig'indisi ham emas. Biz ana shu sezgilardan amalda mavhumlashgan va bir muncha vaqt davomida shakllanadigan umumlashgan strukturani idrok etamiz.

Idrokning yaxlitligi va strukturaligi manbalari, bir tomonidan, aks ettiriladigan obyektlarning o'ziga xos xususiyatlarida va ikkinchi tomondan, insonning konkret faoliyatida gavdalanadi. I. M. Sechenov ta'kidlaganidek, idrokning yaxlitligi va strukturaligi analizatorlarning reflektor faoliyatining natijasidir.

Idrok qo'zg'atuvchining retseptorlarga bevosita ta'sir natijasida hosil bo'lsa ham, perseptiv obrazlar hamisha muayyan ma'noli ahamiyatga ega

bo‘ladi. Kishining idroki uning tafakkuri bilan, narsaning mohiyatini tushunib yetishi bilan chambarchas bog‘liq. Narsani ongli idrok etish unga fikran nom berish, ya‘ni idrok etilgan narsani narsalarning muayyan guruhiga, sinfga kiritish, uni so‘z vositasida umumlashtirish demakdir. Hatto o‘zimizga notanish narsani ko‘rganimizda ham uning bizga tanish obyektlar bilan o‘xshashlik jihatlarini payqab olishga, uni qandaydir toifaga kiritishga urinamiz. Idrok shunchaki sezgi a‘zolariga ta‘sir qiladigan qo‘zg‘atuvchilarning oddiy yig‘indisi bilan belgilanmaydi, balki mavjud ma‘lumotlarni yaxshilab talqin qilish, izohlab berish yo‘llarini jadal izlash bo‘lib hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olganda goh shakl, goh fon (ikki qiyofa va vaza) navbatma-navbat idrok etiladigan (1-rasm), «ikki mazmunli» deb atalmish rasmlar diqqatga sazovordir. Bu rasmlarda idrok qilingan obyektning alohida ko‘rsatilishi uning anglab yetilishi va nomlanishi bilan bog‘liqdir.

Idrokning kishi psixik hayoti mazmuniga uning shaxsiga xos xususiyatlarga bog‘liqligi *appersepsiya* deyiladi.



1-rasm

Idrok jarayonida uning fenomenlari (yunon. «phainomenon» – noyob, g‘ayriodatiy holat degan ma‘no anglatadi) muayyan hodisalarni aks ettirishda ishtirok etadi, in‘ikosning turlicha aniqlikda namoyon bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida ma‘lumot beradi. Ular jahon psixologiyasi fanida gallyutsinatsiya (lot. «hallucinatio» alahlash, bosinqirash, valdirash, ya‘ni yo‘q narsalarning ko‘rinishi, eshinishi, sezilishi), illuziya (lot. «illusio» – xato, adashish, yanglishish degan ma‘noni bildiradi), attraksiya (frans. «attraction» – o‘ziga tortish, mahliyo etish, jalb qilish ma‘nosini beradi), yaqqol ko‘rinish (rus. «yasnovideniye» – yaqqol oldindan ko‘rish, yaqqol g‘oyibdan xabar olish demakdir) tushunchalar orqali nomlanadi.

Idrokning muhim tomonlaridan biri uning xususiyatlarining turli jabhalar, vaziyatlar va sharoitlarda namoyon bo‘lishidadir. Idrokning muhim xususiyatlaridan biri bu faol ravishda bevosita aks ettirish imkoniyatining mavjudligidir. Odatda, insonning idrok qilish faoliyati uning o‘zlashtirilgan

bilimlari, to'plangan tajribalari, shuningdek murakkab analitik, sintetik harakatlar tizimi zahirida yuzaga keladi. Bu holat idrok qilinishi zarur o'quv fani mohiyatiga bog'liq ilmiy faraz yaratish, uni amalga oshirish borasida qaror qabul qilish yaqqol voqealik bilan tasavvur qilinayotganining o'zaro mosligini aniqlash singari bosqichma-bosqich o'zaro bir-birini taqozo etuvchi tarkibiy qismlardan iboratdir.

Idrokning yana bir muhim xususiyati uning umumlashgan holda narsa va hodisalarning aks ettirishidir. Ma'lumki, inson psixikasiga kirib borayotgan ko'pqirrali, ko'pyoqlama alomatlardan idrok qilish bilan cheklanib, chegaralanib qolmasdan, balki o'sha majmua aniq jism yoki hodisa sifatida baholanadi.

Xotira va uning ko'rinishlari. Odam ko'rgan, his qilgan va eshitgan narsalarini juda oz miqdorinigina eslab qoladi. Psixikaning eng muhim xususiyati shundan iboratki, individ tashqi ta'sirotlarning aks ettirilishidan o'zining keyingi xatti-harakatlarida doimo foydalanadi. Individual tajriba orta borishi hisobiga xulq-atvor asta sekin murakkablashadi. Agar tashqi dunyoning miya qobig'ida hosil bo'ladigan obrazlari beiz yo'qolib ketaversa, tajribaning shakllanishi mutlaqo mumkin bo'lmay qolar edi. Bu obrazlar bir-biri bilan o'zaro turli xil aloqalar bog'lagan holda mustahkamlanib, saqlanib qoladi hamda hayot va faoliyat talablariga muvofiq tarzda yana boshqatdan namoyon bo'ladi.

Individning o'z tajribasini esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deyiladi.

Xotirada esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish kabi asosiy jarayonlar alohida ajratib ko'rsatiladi. Bu jarayonlarning har biri alohida mustaqil psixik xususiyat hisoblanmaydi. Ular faoliyat davomida shakllanadi va o'sha faoliyat bilan belgilanadi.

Xotira mexanizmlarini o'rganishning psixologik darajasi xronologik jihatdan boshqalardan ustunroq bo'lib, fanda juda ko'p turli xildagi yo'nalishlar va nazariyalarning ilgari surilganligi bilan ma'lumdir. Bu nazariyalarni ular xotira jarayonlarining shakllantirilishida subyektning faolligi qanday rol o'ynashiga va bunday faollikning mohiyatiga qanday yondashuviga bog'liq holda tasniflash va baholash mumkin.

Xotiraning mexanizmlari va qonuniyatlarini o'rganishning ikkita eski: psixologik va neyrofiziologik darajasiga endilikda uchinchi – bioximik darajasi ham qo'shildi. Shuningdek xotirani o'rganishga, kibernetik jihatidan yondashuv ham tarkib topmoqda.

Xotiraning mexanizmlari haqidagi fiziologik nazariyalar I. P. Pavlovning oliy nerv faoliyati qonuniyatlari haqidagi ta'limotning eng muhim

qoidalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Muvaqqat shartli bog‘lanishlarning hosil bo‘lishi haqida ta’limot – bu subyektning individual tajribasi tarkib topishi mexanizmlari haqidagi ta’limot, ya’ni aslida «fiziologik darajada esda olib qolish» nazariyasidir. Chindan ham shartli refleks yangi mazmun bilan ilgari o‘zlashtirib mustahkamlangan mazmun o‘rtasida hosil qilinadigan bog‘lanish akti sifatida esda olib qolish jarayonining fiziologik negizini tashkil etadi.

Shunday qilib hozirgi bosqichda xotiraning mexanizmlarini o‘rganishning neyrofiziologik darajasi bioximik tadqiqotlar darajasiga tobora yaqinlashib va ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘shilib ketmoqda. Bu hol ushbu darajalarning tutashgan joyida olib borilayotgan ko‘plab tadqiqotlarda o‘z tasdig‘ini topdi. Ana shu tadqiqotlar asosida, jumladan esda olib qolish jarayonining ikki bosqichli xarakterga egaligi haqida gipoteza paydo bo‘ldi. Bu gipotezaning mohiyati quyidagilardan iboratdir. Birinchi bosqichda (qo‘zg‘atuvchining bevosita ta’siridan so‘ng) miyada hujayralarda asl holiga qaytuvchi fiziologik o‘zgarishlarni keltirib chiqaradigan qisqa muddatli elektroximik reaksiya yuz beradi. Ikkinchi bosqich birinchi bosqich negizida yuzaga kelib, aslida u yangi oqsil moddalar (protsinlar)ning hosil bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan bioximik reaksiyadan iboratdir. Birinchi bosqich sekundlar yoki minutlar mobaynida davom etadi va uni qisqa muddatli esda olib qolishning fiziologik mexanizmi hisoblanadi. Hujayralarda qaytarilmaydigan o‘zgarishlarga olib keladigan ikkinchi bosqich uzoq muddatli xotiraning mexanizmi hisoblanadi.

Xotira ta’riflarining esda olib qolish va qayta esga tushirish jarayonlari sodir bo‘ladigan faoliyatning xususiyatlariga bog‘liqligi xotiraning har xil turlarini ajratish uchun umumiy asos bo‘lib, xizmat qiladi. Bunda xotiraning ayrim turlari uchta asosiy mezonga muvofiq tarzda bo‘linadi:

1) faoliyatda ko‘proq sezilib turadigan psixik faollikning xususiyatiga qarab xotira harakat, emotsional, obrazli va so‘z-mantiqli turlarga bo‘linadi;

2) faoliyatning maqsadlari, xususiyatiga ko‘ra ixtiyorsiz va ixtiyoriy xotira turlariga bo‘linadi;

3) materialni qancha vaqt esda olib qolish va esda saqlash muddatiga ko‘ra (uning faoliyatdagi roli va tutgan o‘rniga bog‘liq ravishda) qisqa muddatli, uzoq muddatli va tezkor xotira turlariga bo‘linadi.

Harakat xotirasi – turli xildagi ish harakatlari va ularning sistemasini esda olib qolish, esda saqlash va yana qayta esga tushirishdan iboratdir. Inson faoliyatining har bir turida ruhiy faollikning u yoki bu ko‘rinishlari ustunlik qilishi kuzatiladi: masalan, harakat, hissiyot, idrok, aql-zakovat kabi ruhiy faoliyatning ko‘rinishlari mavjuddir. Ana shu ruhiy faollik turlarining har biri tegishli harakatlarda va ularning mahsulotlarida o‘z ifoda-

sini topib, harakatlarda, hissiy kechinmalarda, tuygʻularda, obrazlarda, timsollarda fikr va mulohazalarda aks etadi. Baʼzi odamlarda xotiraning boshqa turlariga qaraganda, harakat xotirasi aniq, ravshan ustunlik qilayotganligi uchrab turadi. Masalan, bir musiqa ishqibozi musiqiy asarni xotirasida mutlaqo qayta tiklay olmas ekan, lekin u yaqinda eshitgan operani faqat pantomima tarzida qayta tiklash imkoniyatiga ega boʻlgan.

Emotsional xotira – his-tuygʻuga xos xotiradir. Bu xotira his-tuygʻular, ruhiy kechinmalar, hissiyotlar bizning ehtiyojlarimiz va qiziqishlarimiz qanday qondirilayotganligidan, atrofimizdagi narsa va hodisalarning xususiyatiga nisbatan munosabatlarimiz qay tarzda amalga oshirilayotganligidan doimo xabar berib turish imkoniyatiga ega. Shuning uchun har bir kishining hayoti va faoliyatida hissiy xotira turi katta ahamiyat kasb etadi. Voqelikdagi narsa va hodisalardan oʻz-oʻzimizga boʻlgan munosabatlarimizdan kelib chiqadigan yoqimli hamda yoqimsiz kechinmalarni esda qoldirish, esga tushirishdan iborat xotira turi hissiy xotira deb ataladi. Ular biz ruhiyatimizda kechirgan, maʼnaviyatimizga taʼsir qiluvchi, xotiramizda saqlanib qolgan his-tuygʻu, ehtiros, alam, armon kabilar jonlanishini harakatga undovchi yoki oʻtmishda salbiy kechinmalarga ega harakatlardan saqlab turuvchi signal tarzida namoyon boʻladi. Hissiy xotira oʻzining vujudga kelish xususiyati, tezligi, dinamikasi, davomiyligi bilan xotiraning boshqa turlaridan maʼlum maʼnoda ajralib turadi.

Xotiraning eydetik («eydos» – yunon. «obraz» degan maʼnoni anglatadi) yaʼni koʻrgazmali obrazlari – tashqi qoʻzgʻatuvchi bilan his-tuygʻu aʼzolarining qoʻzgʻatilishi natijasidir. Obrazli xotira tasavvurlar va turmush manzaralari, shuning bilan birga, tovushlar, taʼmlar, ranglar, shakllar bilan bogʻliq xotira turidir. Obraz xotirasi deb, yaqqol mazmunni, binobarin narsa va hodisalarning aniq obrazlarini, ularning xususiyatlari va bogʻlanishlarini esda qoldirish, ongda mustahkamlash hamda zarurat tugʻilganda esga tushirishdan iborat xotira turiga aytiladi.

Soʻz-mantiq xotira. Soʻz-mantiq xotirasi mazmunini fikr va mulohazalar, aniq hukm hamda xulosa chiqarishlar tashkil etadi. Insonda fikr va mulohaza turli xil shakllar yordamida ifodalanganligi tufayli, ularni ifodalash faqat oʻzlashtirilayotgan materiallarning asosiy maʼnosini izohlash, talqin qilib berish yoki ularni soʻzma-soʻz ifodalanilishini aynan aytib berishga qaratilgan boʻlishi mumkin. Agar maʼlumot, axborot, xabar, material maʼno jihatdan qayta ishlanmasa, u holda materialni soʻzma-soʻz oʻzlashtirish mantiqiy oʻrganish boʻlmasdan, balki aksincha, mexanik esda olib qolishga aylanib qoladi. Soʻz-mantiq xotiraning vujudga kelishida birinchi signal bilan bir qatorda, ikkinchi signallar tizimi muhim ahamiyat

kasb etadi. Chunki soʻz mantiq xotirasi faqat insonga xos boʻlgan xotiraning maxsus turidir. Soʻz-mantiq xotiraning oʻsishi qolgan xotira turlarining barqarorlashuvini belgilaydi.

Faoliyat maqsadlariga qarab xotira ixtiyorsiz va ixtiyoriy xotira turlariga ajratiladi.

Ixtiyoriy xotira. Ixtiyoriy xotira deganda maʼlum maqsadga roʻyobga chiqarish uchun, muayyan davrlarda aqliy xarakterlarga suyangan holda amalga oshirishdan iborat xotira jarayoni tushuniladi. Bu faoliyatni odatda ong bevosita boshqaradi. Koʻpincha psixologiya faniga ixtiyoriy xotiraga ixtiyorsiz esda olib qolish qarshi qoʻyiladi. Esda olib qolishni maqsad qilib qoʻyish, esda olib qolishning asosiy sharti hisoblanadi.

Ixtiyorsiz xotira. Ixtiyorsiz xotiraning turmushda va faoliyatda katta oʻrin egallashini har kim oʻz shaxsiy tajribasidan biladi. Ixtiyorsiz xotiraning muhim xususiyatlaridan biri maxsus mnemik maqsadsiz, aqliy, asabiy, irodaviy zoʻr berishsiz hayotiy ahamiyatga ega keng koʻlamdagi maʼlumot, xabar, axborot, taassurotlarining koʻp qismini aks ettirishidir. Shunga qaramasdan, inson faoliyatining turli jabhalarida oʻz xotirasini boshqarish zarurati tugʻilib qolishi mumkin. Xuddi mana shunday sharoit, holatlar, vaziyat, favqulodlarda kerakli narsalar ixtiyoriy ravishda esda saqlash, esga tushirish yoki eslash imkoniyatini yaratadigan xotiraning mazkur turi katta ahamiyatga egaligi shubhasiz.

Xotiraning ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlari xotira taraqqiyotida ikkita ketma-ket bosqichlarini tashkil etadi.

Qisqa muddatli xotira materialning koʻp marta takrorlash va qayta esga tushirishlar orqali uzoq vaqt esda olinib qolishi bilan ajralib turadigan uzoq muddatli xotiradan farqli oʻlaroq, bir marta juda qisqa vaqt oraligʻida idrok qilish va shu zahoti qaytadan xotirlashdan soʻng qisqa vaqt mobaynida esda qolishi bilan belgilanadi.

Qisqa muddatli esda olib qolish sharoitlarida hal etilishi uchun avtomatlashtirilgan harakat usullari qoʻllaniladigan vazifalargina mahsuldor boʻlishi aniqlangan. Materialni oʻzlashtirishning kengaytirilgan usullarini qoʻllashni taqozo etadigan vazifalar qisqa muddat mobaynida taqdim qilingan sharoitda esda olib qolishning samaradorligini pasaytirib yuboradi. Shunga asoslanib qisqa muddatli esda olib qolishni maʼlum vaqt oraligʻida kishining material bilan ishlash faoliyatida faqat avtomatlashtirilgan usullarni qoʻllab ishlash imkonini beruvchi esda olib qolish deb taʼriflash mumkin.

Operativ esda olib qolish. Inson tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan faol, tezkor xarakterlar, usullar uchun xizmat qiluvchi jarayonni

anglatuvchi mnemik holat operativ xotira deb ataladi. Operativ xotirani eslab qolishni qisqa va uzoq muddatli esda olib qolish o'rtasidagi oraliq darajalaridan biri deb hisoblash mumkin. Operativ esda olib qolishni kishining odatdagi harakatlariga xizmat qiluvchi xotira jarayoni deb ta'riflash mumkin.

Uzoq muddatli xotira. Shaxs faoliyatining hayotiy muhim maqsadlariga erishishida taktik jihatdangina emas, balki strategik jihatdan ahamiyat kasb etgan axborot kelib turadi. Har qanday materialning esda olib qolinishi bundan oldingi harakatning mahsuli va shu bilan birga, kelgusi harakatni amalga oshirish vositasi hamdir.

Xotira faol jarayon bo'lib, u shaxsning u yoki bu turli ma'lumotlar bilan ishlash malakasiga, unga munosabatiga, materialning qimmatini tasavvur qilishiga bevosita bog'liq bo'ladi. Eng xarakterli narsa shuki, inson faqat eshitgan ma'lumotining 10 foizini, eshitgan va ko'rgan narsasining 50 foizini, o'zi faol bajargan ishlarining deyarli 90 foizini yodda saqlaydi. Bu ko'plab psixologik eksperimentlarda isbot qilingan. Shaxsning o'zi o'ylab topib, o'zi bevosita bajargan ishlari juda oson esga tushadi.

Shu o'rinda xotiraning sakkiz qonunini eslab qolishni taklif etamiz:

1. *Anglanganlik qonuni.* Oddiy, lekin murakkab qonun, ya'ni berilgan materialni qanchalik chuqur anglasak, shunchalik uni mustahkam xotirada muhrlagan bo'lamiz.

2. *Qiziqish qonuni.* Anatol Frans: «Bilimlarni yaxshi hazm qilish uchun uni ishtaha bilan yutish kerak» deganda, albatta, materialga jonli qiziqish bilan munosabatda bo'lishimiz va uni yaxshi ko'rishimiz kerakligini nazarda tutgan.

3. *Ilgarigi bilimlar qonuni.* Ma'lum mavzu yuzasidan bilimlar qanchalik ko'p bo'lsa, yangisini esda saqlab qolish shunchalik oson bo'ladi. Masalan, ilgari o'qigan biror kitobni qaytadan o'qib, uni yangidan o'qiyotganday his qilsangiz, demak, siz ilgari tajribangizni his qilishingiz mumkin. Eski bilimlar ham tajribaga aylangandagina, yangilariga zamin bo'la oladi.

4. *Eslab qolishga tayyorgarlik qonuni.* Biror materialni eslab qolishdan avval, bo'lg'usi aqliy ishga qanday hozirlik ko'rgan bo'lsangiz, shunga mos tarzda eslab qolasiz. Agar materialni «mutaxassis bo'lishim uchun juda kerak», deb umringiz oxirigacha muhimligini anglasangiz, u narsa xotirada muqim saqlanadi.

5. *Assotsiatsiyalar qonuni.* Bu qonun haqida eramizdan avval Arastu ham yozgan edi. Qonunning mohiyati shundaki, bir vaqtda shakllangan tasavvurlar xotirada ham yonma-yon bo'ladi. Masalan, ayni konkret xona o'sha yerda ro'y bergan hodisalarni ham eslatadi.

6. *Birin-ketinlik qonuni*. Harflarni alfavitdagi tartibida yoddan aytish oson, uni teskarisiga aytish qiyin bo‘lganidek, xotirada ham ma’lumotlarni ma’lum tartibda joylashtirishga va kerak bo‘lganda, tartib bilan birin-ketin tiklash maqsadga muvofiqdir.

7. *Kuchli taassurotlar qonuni*. Eslab qolinadigan narsa to‘g‘risidagi birinchi taassurot qanchalik kuchli bo‘lsa, unga aloqador obraz ham shunchalik yorqin bo‘ladi. Bundan tashqari, siz uchun ahamiyatli va jozibali ma’lumotlar oqimida eslanayotgan material ham yaxshi esga tushiriladi.

8. *Tormozlanish qonuni*. Har qanday muayyan ma’lumot o‘zidan oldingi ma’lumotni tormozlaydi. Shu bois uning o‘chib ketmasligi uchun yangini esda saqlashdan avval mustahkamlash choralari ko‘rishingiz kerak¹.

Tafakkur haqida tushuncha va uning operatsiyalari. Insonning bilish faoliyati voqealarni, narsa va hodisalarni sezish va idrok qilishdan boshlanadi, so‘ngra asta-sekin tafakkurga, fikr yuritishni aqliy yo‘l bilan aks ettirishga o‘tadi. Fikr yuritishning sinteziga aylangan yuqori darajadagi bilish protsessi – tafakkur ham hissiy bilish organlarining mahsuli, ya’ni sezgilar, idrok va tasavvur materiallariga asoslangan holda namoyon bo‘ladi. Binobarin, tafakkur o‘zi uchun zarur materiallarni hissiy obyektlardan oladi. Shu bilan birga, u fikr yuritishning asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi. Tafakkur, sezgi, idrok, tasavvur yordamida atrof-muhit bilan bevosita bog‘lanadi, so‘ngra voqelikdagi narsa va hodisalar, ularning belgi sifatlarini bosh miya yarim sharlarida aks ettirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Mazkur aks ettirishning adekvatligi (to‘g‘riligi) insonning amaliy faoliyatida, tabiatni o‘rganish va jamiyatni rivojlantirish jarayonida tekshirib boriladi, ong va aql-idrok yordamida uzluksiz ravishda nazorat qilib turiladi.

*Tafakkur atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, sotsial sababiy bog‘lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va prognoz qilishga yo‘naltirilgan aqliy faoliyatdir*². Insonning bilish faoliyati voqealarni, narsa va hodisalarni sezish va idrok qilishdan boshlanadi, so‘ngra asta-sekin tafakkurga, fikr yuritishni aqliy yo‘l bilan aks ettirishga o‘tadi.

Tafakkur jarayonida inson hissiy bilish qobig‘idan tashqari chiqib, sezgi va idroklarda bevosita aniqlash imkoniyati mumkin bo‘lmagan murakkab holatlarni anglay boshlaydi. Insonning bilish faoliyatida sezgi, idrok, tasavvur obrazlari bilan tafakkur o‘zaro uzluksiz ravishda bir-birini boyitib turadi.

Tafakkur operatsiyalari.

¹ Каримова В.М., Акрамова Ф.А. Психология. – Т., 2000. – Б. 75–76 .

² G‘oziyev. E. Tafakkur psixologiyasi. – Т., 1990. – В. 15.

1. Analiz va sintez;
2. Taqqoslash;
3. Abstraksiya;
4. Umumlashtirish;
5. Konkretlashtirish;
6. Klassifikatsiyalash;
7. Sistemalashtirish.

Analiz – shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, uning yordami bilan biz narsa va hodisalarni fikran yoki amaliy ravishda bo‘lib (ajratib), ularning ayrim qismlari va xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Sintez – shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, biz barcha narsa va hodisalarning analizda bo‘lingan, ajratilgan ayrim qismlarini, bo‘laklarini sintez yordami bilan fikran yoki amaliy ravishda birlashtirib, butun holiga keltiramiz.

Analiz va sintez o‘zaro bevosita mustahkam bog‘langan yagona jarayonning ikki tomonidir. Agar narsa va hodisalar analiz qilinmagan bo‘lsa, uni sintez qilib bo‘lmaydi, har qanday analiz predmetlarni, narsalarni bir butun holda bilish asosida amalga oshirilishi lozim.

Taqqoslash – insonning ijtimoiy faoliyatida, bilimlarning o‘zlashtirili-shida, voqelikni to‘laroq aks ettirishida bir-biriga o‘xshash jihatlar tafovutini, shuningdek bir-biridan farq qiladigan tomonlar o‘rtasidagi o‘xshashlikni topishdan iborat fikr yuritish operatsiyasi katta ahamiyatga ega. Taqqoslash – shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, bu operatsiya vositasi bilan obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o‘xshashligi va bir-biridan farqi aniqlanadi. Taqqoslash operatsiyasi ikki xil yo‘l bilan amalga oshishi mumkin: amaliy (konkret narsalarni bevosita solishtirish) va nazariy (tasavvur qilinayotgan obrazlarni va narsalarni ongda fikran taqqoslash).

Abstraksiya – narsa va hodisalarning, qonun va qonuniyatlarning ayrim belgisi, sifati, alomati yoki xususiyatlarini fikran ulardan ayirib olib, mustaqil fikr obyektiga aylantirishdan iborat fikr yuritish operatsiyasi inson bilish faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Abstraksiyalash shunday fikr tafakkur operatsiyasidirki, bu operatsiya yordami bilan moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini farqlab olib, ana shu xususiyatlardan narsa va hodisalarning muhim bo‘lmagan ikkinchi darajali xususiyatlarini fikran ajratib tashlaymiz. Abstraksiyalash jarayoni yordamida qiymat, son, kenglik, tenglik, uzunlik, kattalik, qattiqlik, zichlik, balandlik, geometrik shakl, matematik ibora, tanqidiy realizm, bosim, solishtirma og‘irlik, geografik tushunchalar sistemasi kabi abstrakt tushunchalar vujudga keltiriladi.

Abstraksiya operatsiyasi bilan insonni qurollantirish- intellektual jihatdan intensiv rivojlanishga olib keladi, shuningdek mustaqil bilim olish faoliyatini takomillashtiradi.

Umumlashtirish psixologiyada narsa va hodisalardagi xossa, belgi, xususiyat, alomatlarni topish va shu umumiylik asosida ularni birlashtirish tushuniladi. Psixologiyada umumlashtirishning keng qo'llaniladigan ikki turi: tushunchali umumlashtirish va hissiy-konkret umumlashtirish yuzasidan ko'proq fikr yuritiladi. Tushunarli umumlashtirishda predmetlar obyektiv muhim belgi asosida umumlashtiriladi. Hissiy-konkret umumlashtirishda esa predmetlar topshiriq talabiga binoan tashqi belgi bilan umumlashtiriladi. Umumlashtirish abstraksiyalash operatsiyasidan ajralgan holda sodir bo'lmaydi. Agar abstraksiyalash faoliyatida narsa va hodisalarning o'xshash hamda muhim belgilari tasodif belgilaridan fikran ajratib olinsa, umumlashtirishda esa ajratib olingan o'xshash, umumiy va muhim belgilarga suyanan holda narsa va hodisalar birlashtiriladi.

Boshqa fikr yuritish operatsiyalari kabi umumlashtirish ham so'z, nutq yordamida ro'yobga chiqadi.

Konkretlashtirish – konkretlashtirish hodisalarni ichki bog'lanish va munosabatlardan qat'i nazar, bir tomonlama ta'kidlashdan iborat fikr yuritish operatsiyasidir. Umumiy, mavhum belgi va xususiyatlarni yakka, yolg'iz obyektlarga tatbiq qilish bilan ifodalanadigan fikr yuritish operatsiyasi insonning barcha faoliyatlarida aktiv ishtirok etadi. Voqelik qanchalik konkret (yaqqol) formada ifodalansa, inson uni shunchalik oson anglab yetadi.

Klassifikatsiyalash. Insonning bilish faoliyatida muhim rol o'ynovchi fikr yuritish operatsiyalaridan biri klassifikatsiyalash hisoblanadi. Bir turkum ichidagi narsalarning bir-biriga o'xshashligiga va boshqa turkumdagi narsalardan farq qilishiga qarab, narsalarni turkumlarga ajratish sistemasi klassifikatsiya deb ataladi. Klassifikatsiya biz tekshiradigan obyektlarning muayyan tartibini topishda, o'rganishimizda zarur bo'lgan narsa va hodisalarni yaxlit holda tekshirish, o'zlashtirmoqchi bo'lgan materiallarni puxta esda qoldirishda muhim rol o'ynaydi.

Sistemalashtirish. Fikr obyektiv hisoblangan narsa va hodisalarni zamon (vaqt), makon (fazo) va mantiqiy jihatdan ma'lum tartibda joylashtirishdan iborat fikr yuritish operatsiyasi bilimlarni o'zlashtirishda, ko'nikma va malakalarni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Odatda, sistemalashtirish operatsiyasi yordamida narsa va hodisalar, faktlar, fikrlar va obyektlar makondagi, vaqtdagi egallagan o'rniga qarab yoki mantiqiy joylashtiriladi. Sistemalashtirish insonning bilish faoliyatida «mavzulararo», «predmetlararo» bilimlarini sistemalashtirishni yuzaga keltiradi. Binobarin, bilimlarning sistemaga solinishi aqliy rivojlanishning dastlabki pog'onasi hisoblanadi.

Tafakkur boshqa psixik jarayonlardan ajralgan holda rivojlanishi mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun tafakkur rivojlanishi bilan birga, shaxsning nutq faoliyati ham o'sadi. Bu esa shaxsda o'z fikrini to'g'ri, aniq ifodalash malakasini tarkib toptiradi, nutqining tuzilishini takomillashtiradi va lug'at boyligini yanada oshiradi.

Shaxs adabiy asrlarni o'qish va tushunish orqali mustaqil fikrlashga, mulohaza yuritish va munozaraga o'rgana boradi. Unda asta-sekin tabiat va jamiyat haqida o'zining nuqtai nazari, e'tiqodi, qarashi shakllanadi. Ma'lumki, shaxsning ana shu fazilatlarini fikrlash, mustaqil o'ylash, to'g'ri hukm va xulosa chiqarishi, qat'iy qarorga kelishining natijasidir. Har bir tadqiqotchi ta'lim aqliy taraqqiyotni o'z orqasidan yetaklab borishi kerak degan prinsipga sodiq qolib ta'limning aqliy taraqqiyotidagi rolini e'tirof etmoqda, ularning individual xususiyatlari va intellektual imkoniyatlariga alohida e'tibor bermoqda.

Tafakkurni jarayon sifatida talqin qilish, eng avvalo fikr yuritish faoliyati determinatsiyasi (sababiy bog'lanish)ning o'zi jarayon sifatida amalga oshirilishini bildiradi.

Inson hayotida xayolning roli. Xayol yoki fantaziya tafakkur kabi yuksak bilish jarayonlari qatoriga kirib, kishining o'ziga xos insoniy xarakterga ega bo'lgan faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Mehnatning tayyor natijasini xayolga keltirmay turib, ishga kirishib bo'lmaydi. Fantaziya yordami bilan kutilayotgan natijani tasavvur qilish-inson mehnatining hayvonlar instinktiv faoliyatidan tub farqidir. Istalgan mehnat jarayoni zarur tarzda xayolni o'z ichiga qamrab oladi. Xayol badiiy, konstruktorlik, ilmiy adabiy, muzikaviy va umuman ijodiy faoliyatning zarur tomoni sifatida namoyon bo'ladi.

Xayol – inson ijodiy faoliyatining zarur elementi bo'lib, mehnatning oxirgi va oraliq mahsulotlarida o'z ifodasini topadi, shuningdek muammoli vaziyat noaniqlik ko'rsatgan hollarda xulq-atvor programmasini tuzishni ta'minlaydi. Shuning bilan birga, xayol aktiv faoliyatni programmalashtiruvchi emas, balki uning o'rnini almashtiruvchi turli xil tasavvurlar (timsollar) hosil qilish vositasi sifatida yuzaga keladi.

Xayolning psixik jarayon sifatida birinchi va muhim vazifasi shundan iboratki, u mehnatni boshlamasdan oldin uning natijasini tasavvur qilish imkoniyatini beradi.

Xayol tafakkur bilan mahkam bog'langandir. Xayol ham tafakkur singari kelajakni oldindan ko'rish imkoniyatini beradi. Tafakkur singari xayol shaxslarning ehtiyojlariga asoslanadi. Ehtiyojlarni qondirishning real jarayonida oldin ehtiyojlarni qondirishning soxta, xayolij jarayoni sodir

bo'ladi, ya'ni bu ehtiyojlarning qondirilishi mumkin bo'lgan vaziyatni jonli, yorqin tasavvur qilish mumkin.

Xayol o'zining aktivligi va faolligi bilan xarakterlanadi. Shuning bilan birga, xayol apparati faqat atrofdagi olamni o'zgartirishga qaratilgan shaxs ijodiy faoliyatining sharti sifatida foydalanishi mumkin va foydalaniladi. Ayrim hollarda xayol faoliyatning o'rnida, uning sun'iy aralashmasi sifatida harakat qilishi mumkin. Mana shu hollarda odam o'ziga hal qilib bo'lmaydigandek ko'rinadigan masalalardan, turmushning og'ir sharoitlaridan, o'z xatolarining ta'qibi va shu kabilardan yashirinish uchun real tasavvurlardan uzoq fantastika olamiga vaqtincha kirib ketadi.

Fantaziya hayotda gavdalanmaydigan obrazlarni yaratadi, amalga oshmaydigan va ko'pincha amalga oshirib bo'lmaydigan ish-harakat programmalarini belgilaydi. Xayolning bunday formasi *passiv xayol* deyiladi. Kishi passiv xayolni oldindan o'ylab yuzaga keltirishi mumkin: jo'rttaga yuzaga keltirilgan iroda bilan bog'liq bo'lmagan, lekin hayotda gavdalantirishga qaratilgan xayolning mana shunday obrazlari *shirin xayol* deb ataladi. Qandaydir quvonchli, yoqimli, qiziqarli narsalar haqida shirin xayol surish hamma odamlarga xos. Mana shunday shirin xayollarda fantaziya mahsulotlari bilan ehtiyojlar o'rtasidagi aloqa yengil namoyon bo'ladi. Ammo inson xayoliy jarayonlarida shirin xayol kechirish hollari ko'proq bo'lsa, bu shaxsning passivligidan dalolat beruvchi nuqson hisoblanadi. Agar kishi passiv bo'lsa, u kelajakda yaxshi hayot uchun kurashmasa, uning hozirgi hayoti qiyin, ko'ngilsiz bo'lsa, bunday holda u o'zining ehtiyojlari to'la qondiriladigan, istagan narsasini qo'lga kirita oladigan, hozirgi paytda umid qila olmaydigan biron mansabni egallaydigan soxta hayotni ko'p vaqt xayol qiladi.

Agar passiv xayolni oldindan o'ylab va o'ylamasdan qilingan turlarga bo'lish mumkin bo'lsa, *aktiv xayolni* ijodiy va qayta tiklovchi xayol turlariga bo'lish mumkin bo'ladi. O'z asosida tasviriga muvofiq keladigan obrazlar sistemasini yaratuvchi xayol *qayta tiklovchi xayol* deb ataladi.

Ijodiy xayol, qayta tiklovchi xayoldan farq qilgan holda, original va qimmatli moddiy mahsulotlarda amalga oshiriladigan yangi obrazlarning yaratilishini taqozo qiladi. Mehnatda paydo bo'lgan ijodiy xayol ehtiyojlarini qondirish yo'lini izlashda yaqqol tasavvurlar bilan aktiv va maqsadga muvofiq ish tutadigan texnik, badiiy va istalgan boshqa ijodiyotning ajralmas tomoni bo'lib qoladi.

Xayol katta miya yarim sharlari po'stlog'ining funksiyasi hisoblanadi. Shuning bilan birga, xayol tuzilishining murakkabligi va uning hissiyotlar bilan bog'liqligi xayolning fiziologik mexanizmlari faqat miya po'stlog'i

bilan emas, balki miyaning chuqurroq qismlari bilan bog‘liq deb taxmin qilishga asos beradi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, ijodiy faoliyatga hamma vaqt fantaziya qo‘shilgan bo‘ladi. Biroq hamma vaqt ham odamning amaliy harakatlarida xayol jarayonlari darhol amalga osha bermaydi. Ko‘pincha xayol jarayonlari darhol amalga oshirishni istaydigan timsollar shakliga, ya‘ni alohida ichki faoliyat shakliga kirib oladi. Ana shunday odam kelgusida xohlaydigan timsollar *orzu* deb ataladi. Orzu batamom tugallanishi biror sababga ko‘ra kechiktirilgan faoliyatga undovchi sabab yoki motiv sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham inson qo‘li bilan qilingan har qanday narsa o‘zining tarixiy mohiyati jihatidan moddiylashtirilgan, amalga oshirilgan inson orzusidir. Odamning amaliy ishlab chiqarish faoliyatida fantaziyaning roli katta, lekin hamma vaqt ham sezilarli bo‘lavermaydi.

Fantaziya eng ko‘p qo‘llaniladigan soha bo‘lmish san‘at va adabiyotning ijodiy faoliyatida zaruriy element bo‘lib xizmat qiladi. Rassom yoki yozuvchining ijodiy faoliyatida qatnashadigan xayolning muhim xususiyati uning emotsionalligidir.

Shaxsning emotsional-irodaviy holatiga psixologik tavsif

Hissiyotlar shaxs faoliyatining muhim jabhasi sifatida insonning keng emotsional sohasining rang-barangligi, ko‘pqirraligi haqida hissiy ton (yunon. «tonos» zo‘riqish, urg‘u berish ma‘nosini bildiradi), emotsiyalar (lot. «emovere» qo‘zg‘atish, hayajonlash demakdir), affektlar (lot. «affetus» ruhiy hayajon, shijoat, ehtiros ma‘nosini anglatadi), stress (ing. «stress» zo‘riqish deganidir) va kayfiyat kabi tushunchalarga muayyan tasavvur qilishda bir imkoniyatga ega.

Kishi idrok etishi, xotirlash, xayol surish va fikrlash jarayonlarida faqat voqealikni bilib qolmay, balki hayotdagi u yoki bu narsalarga, qanday bo‘lmasin, munosabat bildiradi, unda ularga nisbatan u yoki bu tarzda his-tuyg‘u paydo bo‘ladi.

His-tuyg‘ular – kishining o‘z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg‘ul bo‘layotganiga nisbatan o‘ziga turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir.

Hissiyot tushunchasi kundalik turmushda va ilmiy psixologik manbalarda har xil ma‘noda qo‘llaniladi. Jumladan, hissiyot o‘rnida sezgilar, anglanilmagan mayllar, xohishlar, tilaklar, maqsadlar, talablar tushunchalardan foydalaniladi. Bu holatlar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlikka asoslanib ishlatilishi kundalik turmush voqealari bo‘lib hisoblanadi, xolos. Ilmiy nuqtai nazardan kelib chiqib tahlil qilinganda, «Hissiyot», odatda, tirik

mavjudotlar miyasida, ya'ni shaxslarning ehtiyojlarini qondiruvchi va unga monelik qiluvchi obyektlarga nisbatan uning (odamning) munosabatlarini aks ettirish ma'nosida qo'llaniladi.

Jahon psixologiyasida «hissiyot» bilan «emotsiya» terminlari (ayniqsa chet mamlakatlarda) bir xil ma'noda ishlatiladi, lekin ularni aynan bir xil holat deb tushunish mumkin emas. Bunday nuqson aksariyat hollarda ommabop adabiyotlarda, chet ellarda chop etilgan darsliklarda uchraydi. Odatda, tashqi alomatlari yaqqol namoyon bo'ladigan his-tuyg'ularni ichki kechinmalarda ifodalanishdan iborat psixik jarayon yuzaga kelishining aniq shaklini emotsiya deb atash maqsadga muvofiq. Masalan, ranglarning o'zgarishi, yuzlarning tabassumlanishi, lablarning titrashi, ko'zlarning yarqirashi, kulgu, yig'i, g'amginlik, ikkilanish, sarosimalik va boshqalar emotsiyaning ifodasidir. Lekin vatanparvarlik, javobgarlik, mas'uliyat, vijdon, mehr-oqibat, sevgi-muhabbat singari yuksak xislatlarni emotsiya tarkibiga kiritish g'ayritabiiy hodisa hisoblanar edi. Ushbu hissiy kechinmalar o'zining mohiyati, kuch-quvvati, davomiyligi, ta'sirchanligi, yo'nalganligi bilan bir-biridan keskin farq qilishlariga qaramay, ularni emotsiya sifatida talqin qilish oddiy safsataga aylanib qolgan bo'lar edi. Shu boisdan ularning o'zaro eng muhim farqi shundaki, birisi ijtimoiy (hissiyot), ikkinchisi esa (emotsiya) individual xususiy ahamiyat kasb etadi.

His-tuyg'ularning kechishi subyekt alohida his etayotgan psixik holat sifatida gavdalanadi. Bunda, biroq bir narsani idrok etish va tushunish, biror-bir narsa to'g'risida bilib olish idrok etilayotgan, tushunib olinayotgan, ma'lum yoki noma'lum narsalarga nisbatan shaxsiy munosabat bilan birlikda ro'y beradi. Ana shu hollarning barchasida his-tuyg'ularning boshdan kechirilishi xususida, kishining alohida hissiy holati haqida gapiriladi. Shu bilan birga, his-tuyg'ularning kechishi o'z rivojlanishiga ega bo'lgan, joriy va o'zgarib turadigan psixik jarayondir.

His-tuyg'uni boshdan kechirishning turli formalari – emotsiya, affekt, kayfiyat, kuchli hayajonlanish (stress holati) ehtiros va nihoyat, tor ma'nodagi so'z bilan aytganda, his-tuyg'ular kishi xulq-atvorini tartibga solib turadi. Bilish jonli manba, odamlar o'rtasidagi murakkab va ko'p qirrali munosabatlarning irodasi bo'lib hisoblanadi.

Kishi uchun subyektiv hisoblangan his-tuyg'ular uning ehtiyojlari qondirilish jarayoni qanday kechayotganligining belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

His-tuyg'ular – voqealikni aks ettirishning o'ziga xos shakllaridan biridir. Agar bilish jarayonlarida narsalar va voqelikdagi hodisalar aks etsa, his-tuyg'ularda esa subyektning o'ziga xos ehtiyojlari bilan qo'sqilib, o'zi bilib olayotgan va o'zgartirayotgan narsalarga va voqealik hodisalariga nisbatan uning munosabati aks etadi.

Emotsiyalar nafaqat insonlarga, balki jonli rivojlangan mavjudotlarga ham taalluqli ruhiy (psixik) holatlardir. Hayvonlardagi emotsiyalar o'zgarishi murakkab bo'lgan tabiiylik (irsiy) alomatlariga asoslanuvchi sodda tuzilishga egadir. Odam bilan hayvon emotsiyalari o'zlarining mohiyati, tuzilishi, ta'sirchanligi, jadalligi, sifati, shakli bilan keskin tafovutlanadi. Emotsiyalar tashqi ko'rinishga xosligi bilan, muvaqqat xususiyatga ega ekanligi bilan hissiyotdan farqlanadi. Shuni aytib o'tish joizki, hissiyot hayvonot olamiga xos kechinma emas, u aql-zakovat subyektini sanalmish hazrati insongagina xos. Chunki empatik (hamdardlik) his-tuyg'ular shaxsning mukammallik bosqichiga ko'tarilishining kafolat negizidir.

Ehtiyojlarning qondirilishi yoki qondirilmaslighi kishida turli xil shakldagi o'ziga xos kechinmalarni: emotsiyalarni, affektlar (hissiy bo'ronlar)ni, kayfiyatlarni, kuchli hayajonlanishni (stress) holatlarini va his-tuyg'ularni hosil qiladi.

Emotsiyalar. Emotsional jarayonlar, holatlar yoki tor ma'noda emotsiyalar hissiy kechinmalarining o'ziga xos xususiyatli shakllaridan biridir. Emotsiya – u yoki bu hissiyotning inson tomonidan bevosita kechirilishi (kechishi) jarayonidan iborat. Masalan, shaxs tomonidan musiqani sevish emotsiyani vujudga keltirmaydi, balki buning uchun musiqani eshitish, ijrochi mahoratiga tasanno bildirish, undan hayajonlanish yoki asar ijrosi yoqmasa g'azabli hissiy kechinma hosil bo'lishi ijobiy, salbiy emotsiya deyiladi. Qo'rqinch, dahshat hissiy kechinma sifatida obyektlarga shaxsning munosabatini aks ettirib turlicha shaklda namoyon bo'lishi mumkin. Odam dahshatdan qochadi, qo'rquvdan serryib qoladi, o'zini idora qila olmay har tomonga uradi, hatto xavf-xatarga o'zini tashlashi ham mumkin.

Emotsiyalar – «hissiyot» (emotsiya) va «his-tuyg'u» degan so'zlar ko'pincha sinonimlar sifatida qo'llaniladi. Torroq ma'noda olganda, hissiyot bu qandaydir biroz doimiyroq his-tuyg'ularning bevosita va vaqtincha boshdan kechirilishidan iboratdir. «Emotsiya» so'zini o'zbek tiliga aniq tarjima qilinganda u ruhiy hayajonlanish, ruhiy harakatlanish degan ma'noni anglatadi.

Bir xil holatlarda emotsiyalar ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Ular xatti-harakatlarga, fikr-mulohaza bildirishga turtki beradigan kuch bo'lib chiqadi, kuch-g'ayratlarni oshirib yuboradi va bu holat *stenik* hislar deb ataladi. Boshqa bir hollarda emotsiyalar (*astenik* deb atalmish emotsiyalar) faollikning sustligi yoki loqaydligi bilan ajralib turadi. His-tuyg'ularning boshdan kechirilishi kishini bo'shashtirib yuboradi.

Har qanday vaziyatda ham emotsional xatti-harakat, faoliyat motivlari bo'lishidan tashqari, ular ba'zida faoliyatni tashkillashtiruvchi, goho uni izdan chiqaruvchi omilga ham aylanishi mumkin. Emotsional holatlar yo

haddan tashqari kuchaysa yoki susaysa, xullas me'yor, maromi izdan chiqsa, u holda shaxs faoliyati maqsadga yo'nalishini yo'qotadi. Natijada obyektlar noto'g'ri aks ettiriladi, ular xolisona talqin qilinmaydi, baholashda mantiqiy nuqsonlarga yo'l qo'yiladi.

Affektlar (hissiy portlashlar) deb, kishini tez chulg'ab oladigan va shiddat bilan o'tib ketadigan jarayonlarga aytiladi. Ular ongning o'zgarganligi, xatti-harakatlarni nazorat qilishning buzilganligi, odamning o'zini o'zi idrok qila olmasligi, shuningdek uning butun hayoti va faoliyati o'zgarib qolganligi bilan ajralib turadi. Affektlar birdaniga katta kuch sarf qilinishiga sabab bo'lganligi uchun g'am qisqa muddatli bo'ladi. Agar oddiy hissiyot faqat ruhiy hayajonlanishni ifoda etsa, u holda affekt bo'rondir.

Hissiy portlash ro'y bergan taqdirda, uning keyingi bosqichlarida kishi o'zini tuta olmasdan qoladi. Qilayotgan ishining oqibatini o'ylamaydi va aql-xushini yo'qotib qo'yadi. Tormozlanish miyaning qobig'ini egallab oladi va kishining tajribasi, uning madaniy va ma'naviy negizlari mustahkamlangan muvaqqat bog'lanishlarning tarkib topgan sistemasini ishlatmay qo'yadi. Affektiv portlashdan keyin xoldan toyish, mojalsizlik, barcha narsalarga befarqlik bilan munosabatda bo'lish, harakatsizlik, ba'zan esa mudroq bosish boshlanadi. Psixologiyada «telbalarcha» ishq muhabbat hissining affektiv tarzda kechirilishi yaxshi o'rganilgan va badiiy adabiyotda yana ham yaxshiroq tavsiflab berilgan.

Affekt holati boshlanishida shaxs insoniy qadriyatlarining barchasidan uzoqlashib, o'z hissiyotining oqibati to'g'risida ham o'ylamaydi, hatto tana o'zgarishlari, ifodali harakatlar unga bo'ysunmay boradi. Kuchli zo'riqish natijasida mayda, kuchsiz harakatlar barham topadi. Tormozlanish miya yarim sharlari po'stini to'la egallay boshlaydi, qo'zg'alish po'stloqosti nerv tugunchalarida, oraliq miyada avj oladi, xolos. Buning natijasida shaxs hissiy kechinmasiga (dahshat, g'azab, nafratlanish, umidsizlik va hokazolalar) nisbatan o'zida kuchli xohish sezadi.

Affektlar vujudga kelishining dastlabki bosqichida har bir shaxs o'zini tutishini va qo'lga olishni uddalash qurbiga ega bo'ladi. Ularning keyingi bosqichlarida irodaviy nazorat yo'qotiladi, irodasiz harakatlar amalga oshiriladi, o'ylanmasdan xatti-harakat qilinadi. Affektiv holatlar mas'uliyatsizlik, axloqsizlik, mastlik alomatida sodir bo'ladi, lekin shaxs har bir xatti-harakati uchun javobgardir, chunki u aql-zakovatli insondir. Affektlar o'tib bo'lganidan keyin shaxsning ruhiyatida osoyishtalik, charchash holati hukm suradi. Ba'zi hollarda holsizlanish, jamiki narsaga loqayd munosabat, harakatsizlik, faollik barham topish, hatto uyquga moyillik yuzaga keladi.

Kayfiyatlar – ancha vaqt davomida kishining butun xatti-harakatiga tus berib turadigan umumiy hissiy holatini ifoda etadi.

Kayfiyatlar ko‘proq kishi salomatligining umumiy holatiga, ayniqsa, nerv sistemasi va modda almashinuvini to‘g‘rilab turuvchi ichki sekretsiya bezlarining holatiga bog‘liq.

Kayfiyat. Shaxsning xatti-harakatlariga va ayrim ruhiy jarayonlariga muayyan vaqt davomida tus berib turuvchi emotsional holat kayfiyat deb ataladi. Shaxsning hayoti va faoliyati davomida shodonlik, hazilkashlik, umidsizlik, jur‘atsizlik, zerikish, qayg‘urish singari his-tuyg‘ular uning ruhiy holatini umumiy tizimiga aylanadi. Ushbu vaziyat ba‘zi emotsional taassurotlarning vujudga kelishiga qulay zamin hozirlaydi, boshqasi uchun esa qiyinchilik tug‘diradi. Inson xafa, ma‘yus hissiy holat hukmronligida bo‘lsa, u holda tengdoshlarining haziliga, keksalarning o‘g‘it-nasihatlariga, maslahatlariga quvnoq kayfiyat chog‘dagiga nisbatan mazmun, sifat jihati-dan boshqacharoq tusda munosabat bildiradi. Shuning uchun ishlab chiqarish va xalq ta‘limi tizimi jamoalarida, rasmiy, real guruhlarida ishchanlik, o‘zaro yordam, hamkorlik, hamdardlik, iliq ruhiy muhit yaratish, samimiy muomala maromini shakllantirish ham jismoniy, ham aqliy mehnat samaradorligini oshirishning kafolatidir.

Kayfiyat nihoyatda xilma-xil, uzoq va yaqin manbalar negizidan vujudga keladi. Uni barqarorlashtirib turadigan asosiy manbalardan biri-shaxslarning ijtimoiy jamiyatda hukmronlik qilayotgan umumiy nuqtai nazarlari, hayotning turli jabhalarida aks etuvchi ta‘sirler, chunonchi mehnat muvaffaqiyati va ta‘lim yutug‘i, rahbar va xodim, o‘qituvchi va saboq oluvchi o‘rtasidagi munosabatlari, oiladagi shaxslararo muomala maromi, har xil vaziyatlarda paydo bo‘lgan turmushdagi qarama-qarshiliklar, shaxsning ehtiyojlari, qiziqishlari, mayllari va ta‘blarining qondirilishidan qanoat hosil qilishlik yoki qanoat hosil qilmaslik kayfiyatning manbalari bo‘lib hisoblanadi. Shaxsning ma‘lum muddat ruhi tushib, noxush, zaif kayfiyatda yurishi uning turmushida muammolar yuzaga kelganligida halovat, tinchlik buzilganligidan dalolat beradi. Bunday vaziyatlar namoyon bo‘lganida shaxsga oqilona mulohaza mahsulidan kelib chiqqan holda xushtavozelik bilan ijobiy ta‘sir o‘tkazish, ruhini tetiklashtiruvchi vositalarni qo‘llash, kayfiyatini buzib turgan omillarni batamom bartaraf etish maqsadga muvofiq.

Stress. Psixologik ta‘rifga ko‘ra affektiv holatga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomlilikiga ko‘ra kayfiyatlarga yaqin bo‘lgan his-tuyg‘ular boshdan kechirilishining alohida shakli kuchli hayajonlanish (stress) holati (ing. «*stress*» – tazyiq ko‘rsatish, zo‘riqish degan so‘zdan olingan)dan yoxud hissiy zo‘riqishdan iboratdir. Hissiy zo‘riqish xavf-xatar tug‘ilgan, kishi xafa bo‘lgan, uyalgan, tahlika ostida qolib ketgan va shu kabi vaziyatlarda ro‘y beradi.

Stress holatida shaxsning xatti-harakatlari o'ziga xos tarzda o'zgaradi, unda qo'zg'alishning umumiy reaksiyasi paydo bo'ladi, uning harakatlari tartibsiz ravishda amalga oshiriladi. Stressning kuchayishi esa teskari reaksiyaga olib keladi, natijada tormozlanish, sustlik, zaiflik, faoliyatsizlik ustuvorlik qila boshlaydi. Lekin stress holatida fiziologik o'zgarishlar tashqi tomonidan qariyb ko'zga tashlanmasligi mumkin. Biroq muammoni yechishdagi qiyinchilik, diqqatni taqsimlashdagi sarosimalik stressning tashqi ifodasi deb taxmin qilinsa bo'ladi. Shaxs stress holatida telefon nomerini adashtiradi, vaqtni chamalashda yanglishadi, ong faoliyati yengil tormozlanadi, idrok ko'lami torayadi va boshqa holatlar kuzatiladi.

Stress holatida shaxsning psixologik xususiyatlari, turmush tarbiyasi, shakllangan malakasi muhim rol o'ynaydi. Keskinlikning oldini olishda shaxsning oliy nerv faoliyati, nerv sistemasining xususiyatlari alohida rol o'ynaydi. Undagi yuksak his-tuyg'ular (mas'uliyat, burch, javobgarlik, vatanparvarlik, sadoqat va hokazo) stress holatida xatti-harakat buzilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Frustratsiya – kishi maqsadiga erishish yo'lida real tarzda bartaraf etib bo'lmaydi deb hisoblangan yoki shunday deb idrok etiladigan to'sqinliklarga, g'ovlarga duch kelgan hollarda yuz beradi.

Frustratsiyaning yuz berishi shaxsning xulq-atvori va uning o'zini anglashida turli xil o'zgarishlarga olib keladi.

His-tuyg'ularning hissiyot (emotsiya)lar, kayfiyatlar, kuchli hayajonlanish tarzida boshdan kechirilishi chog'ida ma'lum darajada shaxsning mimikasida namoyon bo'ladi. Yuzlarning ifodali harakatlari (mimika), qo'l va gavdaning ma'noli harakatlari, turqi-tarovat, ohang, ko'z qorachig'larining kengayishi yoki torayishi kabilar shular jumlasiga kiradi. Bu ifodali harakatlar o'ziga o'zi hisob bermagan tarzda yuz bersa, boshqa bir holatda ongning nazorati ostida sodir bo'ladi.

Kishining his-tuyg'ulari ro'y berishiga ko'ra murakkab shartsiz reflekslarga bog'liq bo'lgani holda ijtimoiy xususiyatga ega.

His-tuyg'ular-kishi shaxsining yorqin ko'rinishlaridan biri bo'lib, u bilish jarayonlari va xulq-atvor hamda faoliyatni irodaviy boshqarish bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Shaxsni o'zi bilib olayotgan va bajarayotgan narsaga barqaror munosabati his-tuyg'ularning mazmunini tashkil etadi. Shaxsni ta'riflash degani ko'p jihatdan muayyan konkret kishi umuman nimani sevadi, nimani yomon ko'radi, nimadan nafratlanadi, nimadan xursand bo'ladi, nega uyaladi, nimaga havas qiladi va hokazolar degan ma'noni anglatadi. Individning barqaror his-tuyg'ulari predmeti, ularning jadalligi, kechinmalarning xususiyati va hissiyotlari, affektlar, kuchli

hayajonlanish holatlari va kayfiyatlari shaklida tez-tez namoyon bo'lishi kuzatuvchi ko'z o'ngida kishining hissiy dunyosini, uning his-tuyg'ularini va shu asosda individualligini namoyon etadi. Aynan shuning uchun ham hissiy jarayonlarni tahlil qilish vaqtida o'tkinchi holatlarni o'rganishdan kishi shaxsini belgilaydigan barqaror his-tuyg'ularga o'tish lozim.

Vaziyat bilan bog'liq xususiyatga ega va individning muayyan paytda obyektga nisbatan munosabatini aks ettiradigan hissiyotlar, affektlar, kayfiyatlar va hissiy zo'riqishlardan farqli o'laroq ular paydo bo'lishi paytiga kelib tarkib topgan konkret holatlarda his-tuyg'ular (tor ma'noda olganda) kishi shaxsining yo'naltirilganligida mujassamlashgan barqaror ehtiyojlari obyektga nisbatan uning munosabatini aks ettiradi. Shu sababli his-tuyg'ular barqarorligi bilan, ular subyektning hayot soatlari va kunlar emas, balki oylar, yillar vositasida o'lchanadigan darajada davomiyligi bilan belgilanadi.

Ehtiroslar kishidagi barqaror his-tuyg'ularining alohida turini tashkil etadi.

Kishining fikrlari va xatti-harakatlari yo'nalishini belgilaydigan barqaror, chuqur va kuchli his-tuyg'u *ehtiros* deb ataladi.

Hukmron ehtiros bilan bog'liq bo'lmaganlari ikkinchi darajali ahamiyatga egadek bo'lib tuyuladi, orqa o'ringa surilib qo'yiladi, kishini hayajonlantirmay va qiziqitirmay qo'yadi, ba'zan umuman unutilib ketadi. Bog'liq bo'lganlari esa kishini o'ziga rom etadi, hayajonlantiradi, diqqatini jalb etadi, esda saqlanib qoladi. Qoniqtirmay qolgan ehtiros odatda kuchli hissiyotlarni va hatto affektiv portlashlarni (g'azablanish, norozilik, umidsizlik, ranjish va hokazolarni) keltirib chiqaradi.

Shuni ta'kidlash mumkinki, his-tuyg'u (emotsiya)lar kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'ziga turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir.

Insoniyatning ijtimoiy tarixiy taraqqiyotining yirik namoyandalari ijodiy va faoliyatiga taalluqli ma'lumotlar, qarorga kelish namunalari ularning ijtimoiy psixologik qiyofalarini aks ettirish imkoniyatiga egadir. Masalan, buyuk sarkarda Amir Temurning «Kuch adolatdadir» degan hikmati, Alisher Navoiyning «Zanjirband sher-yengaman der» xitobi, Cho'lponning «Xalq dengizdir, xalq to'lqindir, xalq kuchdir» chaqirig'i javobgarlikni yuksak his etgan holda xalqining xohish irodasini ifoda qilib, qat'iy irodaviy xatti-harakatlarini amalga oshirganlar. Shu bilan birga, ular o'zlarining ma'naviy, qadriy, ruhiy qiyofalarini chuqur va ko'pyoqlama ochib berishga musharraf bo'lganlar. Ijtimoiy tarixiy sahifalarimizda, yaqin o'tmishimizda va istiqloq davrida ko'plab vatandoshlarimiz irodaviy xatti-

harakatlarining namunaviy ko‘rinishlarini namoyish qilganlar. Bular rasmiy manbalarda va badiiy adabiyotlarda keng ko‘lamda yoritilgan.

Ijtimoiy-ruhiy ehtiyojga asoslangan holda mamlakatimiz yoshlarini komil inson qilib kamol toptirish uchun ularni o‘zini o‘zi uddalashga o‘rgatishdan ish boshlamoq zarur. Shaxsning o‘z faoliyatini va xulq-atvorini shaxsiy xohish irodasiga bo‘ysundirish, ro‘yobga chiqarish mustaqil fikrlashni barqarorlashtiradi. Ko‘zlangan maqsadni amalga oshirishga puxta zamin hozirlaydi, har xil xususiyatli qiyinchiliklar oldida matonat, sabr-toqat tuyg‘ularini namoyish etishga chorlaydi. Buning natijasida mustahkam irodali, prinsipial, qat’iyatli, uzoqni ko‘zlovchi, teran fikrlovchi, aql-zakovatli, Vatan tuyg‘usi bilan yonuvchi haqiqiy milliy vatanparvar yoshlarni ijtimoiy hayotida, ta’lim-tarbiya jarayonida shakllantiradi. Insonga tug‘ilishdan beriladigan tabiiy mayllardan, aqliy va axloqiy imkoniyatlardan unumli foydalanmasdan turib, yuksak ma’naviyatli, farosatli, ijodiy izlanuvchan shaxslarni voyaga yetkazib bo‘lmaydi. Xuddi shu boisdan insonning bolaligidan tortib to ijtimoiylashuviga qadar davr oralig‘ida o‘zini o‘zi boshqarish usullari, vositalari bilan tanishtirish qat’iyatlikni vujudga keltiradi.

Odatda iroda inson tomonidan o‘z xulqi va faoliyatini ongli ravishda boshqarish sifatida baholanadi, maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakat va xulq-atvorning amalga oshishida tashqi, ichki qiyinchiliklarni yengib o‘tish tariqasida ta’riflanadi.

Yoshlarning irodasi, eng avvalo shaxsning ijtimoiy faolligida, mehnat faoliyatida, ijtimoiy tajribasida va ta’lim jarayonida namoyon bo‘ladi.

Borliqni aks ettirish, faoliyatni muayyan yo‘nalishida tashkil qilish, muammolar yechimini egallash yuzasidan ma’lum bir qarorga kelish, uni amalga oshirish jarayonida qiyinchiliklarni yengish harakatlar yordami bilan ro‘yobga chiqadi. Turli ehtiyojlar (shaxsiy, jamoaviy, tabiiy, madaniy, moddiy, ma’naviy) tufayli vujudga keladigan, maqsadiga yo‘nalganlik xususiyatini kasb etadigan shaxsning faolligi o‘zining tuzilishi, shakli rang-barang bo‘lgan harakatlar, xatti-harakatlar va sa’yi-harakatlar yordami bilan tabiat, jamiyat tarkiblarini maqsadga muvofiq kelmaganligi sababli qayta quradi, takomillashtiradi, ezgu niyatga xizmat qildirishga bo‘ysundiriladi. Ehtiyoj, motiv, qiziqish, anglashilmagan, anglashilgan mayllar negizidan kelib chiqadigan barcha ko‘rinishdagi harakatlar o‘zlarining yuzaga kelishiga ixtiyorsiz va ixtiyoriy turkumlarga ajratiladi. Odatda psixologiyada ixtiyorsiz harakatlar anglanilgan yoki yetarli darajada anglanmagan istak, xohish, tilak, mayl, ustanovka va shu kabilarning ichki turtki ta’sirida paydo bo‘lishi natijasida ro‘yobga chiqariladi. Mazkur istak va uning boshqa shakllari

impulsiv (lot. «impulses» – ixtiyorsiz qo‘zg‘alish ma’nosini anglatadi) xususiyatiga ega bo‘lib, inson tomonidan anglanilmaganligi uchun ma’lum obyektga qaratish yuzasidan rejalashtirilmagan, hatto ko‘zda tutilmagan bo‘ladi. Insonning favquloddagi vaziyatda yuzaga keladigan sarosimalik affekti, dahshat, hayajonlanish, ajablanish, shubhalanish va shunga o‘xshash boshqa mohiyatli, har xil shakldagi xatti-harakatlari ixtiyorsiz turkumdagi-larga yorqin misoldir. Undagi atamalar ma’nosi, aks etish imkoniyati bundan oldingi hissiyot to‘g‘risidagi ma’lumotlarda keng ko‘lamda bayon qilingan.

Boshqa kategoriyaga taalluqli harakatlar ixtiyoriy harakatlar deb nomlanib, ular maqsad ko‘zlash, maqsadni anglashni va uni amalga oshirishni ta’minlovchi operatsiyalar, usullar va vositalarni shaxs o‘z miyasida tasavvur qilishni, samaradorligini taxminan baholashni taqozo etadi. O‘zining mohiyati bilan tafovutlanib turuvchi ixtiyoriy harakatlarning alohida guruhini irodaviy harakatlar deb ataluvchi turkum tashkil qiladi. Psixologik ma’lumotlarga asoslangan holda ularga quyidagicha ta’rif berish mumkin: «Maqsadga erishish yo‘lida uchraydigan qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish jarayonida zo‘r berish bilan uyg‘unlashgan, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan ongli harakatlar irodaviy harakatlar deyiladi».

Odamlar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni bilib oladilar hamda o‘zlarining shaxsiy ehtiyojlarini va mansub bo‘lgan jamiyat ehtiyojlarini qondirish jarayonida uni qayta o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatda ularga nisbatan his-tuyg‘uni boshdan kechiradilar. Iroda har doim boshqa psixik jarayonlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Iroda – bu kishining oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishda qiyinchiliklarni yengib o‘tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o‘z-o‘zini boshqarishidir. Iroda – bu shaxs faolligining alohida shakli, uning xulq-atvorini tashkil etishning u tomonidan qo‘yilgan maqsad bilan belgilanadigan alohida turidir.

Iroda tabiat qonunlarini egallab oladigan va shu tariqa uni o‘z ehtiyojlariga ko‘ra o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘ladigan kishining mehnat faoliyatida paydo bo‘ladi.

Iroda o‘zaro bog‘liq ikkita vazifani bajarilishini ta’minlaydi.

1. Undovchi.

2. Tormozlash.

Undovchi vazifasi kishining faolligi bilan ta’minlanadi. Tormozlash vazifasi faollikning yoqimsiz ko‘rinishlarini jilovlashda namoyon bo‘ladi.

Kishining harakatga undovchi mayllari ma’lum bir yo‘lga solingan sistemani – oziq-ovqatga, kiyim-kechakka, issiq va sovuqdan yashirinish ehtiyojidan tortib to ma’naviy, estetik va intellektual his-tuyg‘ularni

boshidan kechirish bilan bog‘liq yuksak niyatlarga borib taqaladigan motivlar iyerarxiyasini tashkil etadi.

Irodaning undovchi va tormoz qiluvchi funksiyalari yaxlit birgalikdagina shaxsning maqsadga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishni ta‘minlaydi.

Odamlar o‘zlarining qilgan ishlari uchun mas‘uliyatni kimga yuklashga moyil bo‘lishiga qarab sezilarli ravishda farqlanadilar. Kishining o‘z faoliyati natijalari uchun mas‘uliyatni tashqi kuchlarga va sharoitlarga qayd qilib qo‘yish yoki aksincha, ularni shaxsiy kuch-g‘ayratlariga va qobiliyatlariga moyilligini belgilaydigan sifatlar **nazoratni lokallashtirish** deyiladi (psixologik adabiyotda «nazorat lokusi» degan termin qo‘llaniladi, lot. «Lotus» – o‘rnashgan joy va fransuzchada «conrole» – tekshirish deyiladi). O‘z xulq-atvori va ishlari sabablarini tashqi omillar (taqdir, holatlar, tasodiflar va boshqalar)dan deb bilishga moyil bo‘ladigan odamlar bor. Shunaqa paytda nazoratning tashqi (eksternal) lokallashtirilishi to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Agar individ, odatda, o‘z qilmishlari uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olsa va uning sabablarini o‘z qobiliyati, xarakteri va shu kabirlarda deb bilsa, unda nazoratning ichki (internal) lokallasuvi ustun deb hisoblash uchun asos bor.

Kishining tavakkalchilik sharoitidagi xatti-harakati irodaning xarakterli ko‘rinishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Tavakkalchilik – bu subyekt uchun, uning yoki noma‘lum va muvaffaqiyatsizlikka duch kelganda mumkin bo‘ladigan noqulay oqibatlar (jazolash, og‘riq ta‘sirini o‘tkazish, travma, obro‘ni yo‘qotish va shu kabi) haqidagi taxminlar mavjudligi sharoitidagi faoliyatning xarakteristikasidir.

Tavakkalchilikning birinchi sababi va tegishli ravishda birinchi turi bu yutuqqa umid bog‘lash. Bu o‘rinda muvaffaqiyat motivatsiyasi muvaffaqiyatsizlikdan qutilib qolish motivatsiyasidan kuchliroqdir.

Irodaning asosini, xuddi umuman subyektning faolligi kabi, uning xatti-harakatlari va ishlarining ko‘p tarmoqli va xilma-xil motivlashtirilishiga sabab bo‘luvchi ehtiyojlari tashkil etadi.

Psixologiyada motivlashtirish deganda psixologik hodisalarning o‘zaro mustahkam bog‘langan, lekin bir-biriga to‘la mos kelmaydigan nisbatan mustaqil uchta turi tushuniladi:

- birinchidan, individning ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq faoliyatga undovchi sifatida namoyon bo‘luvchi motiv sifatidagi motivlashtirishidir. Bu holda motivlashtirish faollik holati umuman nima uchun paydo bo‘lishini, subyektni faoliyat ko‘rsatishicha qanday ehtiyojlar undayotganini izohlab beradi;

▪ ikkinchidan, motivlashtirish faollik nimaga qaratilganligini, nima uchun qandaydir boshqa xulq-atvor emas, balki xuddi shunaqasi tanlanganligini izohlab beradi. Bu yerda motivlar xulq-atvor yoʻnalishini tanlashni belgilaydigan sabablardir. Bular birgalikda kishi shaxsining yoʻnalishini tashkil etadi;

▪ uchinchidan, motivlashtirish kishi axloqi va faoliyatini oʻzi boshqaradigan vosita hisoblanadi. Bu vositalarga emotsiyalar, istaklar, qiziqishlar va boshqalar kiradi.

Shunday qilib, ehtiyojlar bir xil harakatlarning bajarilishini belgilaydigan va boshqalarning xalaqit beradigan har xil motiv (sabab)larga aylanadi. Irodaviy harakatlarning sabablari hamisha ozmi-koʻpmi darajada anglanilgan xarakterda boʻladi.

U yoki bu ehtiyojning qanchalik anglanilganligiga bogʻliq holda intilish va istakni ham farq qilsa boʻladi.

Intilish – hali differensiyalashmagan, yetarli darajada anglanilmagan ehtiyojdan iborat faoliyat motividir.

Istak – faoliyatning motivi sifatida ehtiyojning yetarli darajada tushunib yetilganligi bilan xarakterlanadi. Bunda faqat ehtiyoj obykti emas, balki uni qondirilishning mumkin yoʻllari ham tushunilib yetiladi.

Kishida turli ehtiyojlar ahamiyatining oʻzgarishi munosabati bilan bir qator hollarda motivlar kurashi paydo boʻladi: bir istak boshqa istakka qarama-qarshi qoʻyiladi, u bilan toʻqnashtiriladi. Muhokama yoki motivlar kurashi natijasida qaror qabul qilinadi, yaʼni muayyan maqsad va unga erishish usuli tanlanadi.

Irodaviy xatti-harakatning soʻnggi jihati ijrodir. Unda qaror harakatga aylanadi. Ijroda irodaviy xatti-harakatda yoki ishlarda kishi irodasi namoyon boʻladi.

Irodaviy aktning eng muhim boʻgʻinlari – qaror qabul qilish va uni ijro etish-koʻpincha alohida hissiy holatning irodaviy zoʻr berish sifatida tavsiflanadigan holatning kelib chiqishiga sabab boʻladi. Irodaviy zoʻr berish bu hissiy hayajon shakli boʻlib, kishining harakatga qoʻshimcha motivlarni vujudga keltiruvchi, gohida yoʻq boʻluvchi yoki yetarli boʻlmovchi ichki resurslarning (xotirasi, tafakkuri, xayoli va boshqalarni) safarbar etuvchi va ancha zoʻrayish holati kabi boshdan kechiriladigan sabablardir.

Irodaviy zoʻr berish natijasida bir xil motivlarning harakatini toʻxtatib qoʻyib, boshqalarining harakatini haddan ziyod kuchaytirish mumkin boʻladi. Tashqi toʻsiqni yengib oʻtish lozim boʻlgan ichki qiyinchilik, ichki qarshilik kabi boshdan kechiriladigan boʻlsa u irodaviy zoʻr berishni talab qiladi.

Shuni xulosa, qilamizki, iroda – bu shaxs faolligining alohida shakli, uning xulq-atvorini tashkil etishning u tomonidan qo‘yilgan maqsad bilan belgilanadigan alohida turidir.

Irodaviy aktda (irodaviy harakatda) uni motivlashtirishning barcha uchta tomoni – faollik manbai, uning yo‘nalganligi va o‘z-o‘zini boshqarish vositalari namoyish qilingandir.

Iroda faoliyatining ichki qiyinchiliklarini yengishga qaratilgan ongli tuzilma va o‘z-o‘zini boshqarish sifatida eng avvalo o‘ziga, o‘z hissiyotlariga, xatti-harakatlariga hukmronlik qilishdir. Bu hukmronlik har xil odamlarda har xil darajada ifodalanishi hammaga ma‘lum. Oddiy ong o‘zining namoyon bo‘lishi tezligiga qarab farqlanadigan, bir qutbda irodaning kuchi, boshqa birida esa kuchsizligini ifodalaydigan irodaning individual xususiyatlarining spektrini qayd qiladi. Kuchli irodaga ega kishi qo‘yilgan maqsadlarga erishish yo‘lida uchraydigan istagan qiyinchiliklarni bartaraf eta oladi, ayni chog‘da qat‘iylik, mardlik, jasurlik, chidamlilik kabi irodaviy fazilatlarni namoyon qiladi.

Irodasi sustlikning namoyon bo‘lishi doirasi xuddi kuchli irodaning xarakterli sifatleri kabi rang-barangdir. Irodasi sustlikning eng chekka darajasi psixika normasi chegarasidan tashqarida bo‘ladi. Masalan, abuliya va apraksiya, shunga kiradi.

Abuliya (yunon. «abraxia» – harakatsizlik ma‘nosini bildiriladi) – bu miya patologiyasi zaminida yuzaga keladigan faoliyatga intilishning yo‘q-ligi, harakat qilish yoki uni bajarish uchun qaror qabul qilish zarurligini tushungan holda shunday qilolmaslikdir.

Apraksiya – miya tuzilishining shikastlanishi natijasida kelib chiqadigan harakatlar muvofiqligining murakkab buzilishidir. Nerv to‘qimalarining buzilishi miyaning peshona qismlarida yuz bersa, u holda xatti-harakatlarni erkin to‘g‘rilashda buzilish namoyon bo‘ladi, natijada iroda akti bajarilishi qiyinlashadi.

Abuliya va apraksiya – psixikasi og‘ir kasallangan odamlarga xos, nisbatan kamyob hodisalardir.

Yalqovlik – kishining qiyinchiliklarni yengishdan bosh tortishga intilishi, irodaviy kuch-g‘ayrat ko‘rsatishni qat‘iy ravishda istamasligi iroda sustligining eng tipik ko‘rinishidir. Yalqovlik – kishining qiyofasidir. Shuning uchun ham uni butun choralar bilan yo‘qotish zarur. Yalqovlik, ojizlikning boshqa ko‘rinishlari – qo‘rqoqlik, jur‘atsizlik, o‘zini tuta bilmaslik va boshqa shaxsning rivojlanishidagi jiddiy kamchiliklardir. Ularni bartaraf etish jiddiy tarbiyaviy ishni va avvalo o‘z-o‘zini tarbiyalashni tashkil etishni talab qiladi.

Irodaning ijobiy fazilatlari, uning kuchini namoyish qilinish faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlaydi, kishi shaxsini eng yaxshi tomondan ko'rsatadi. Bu kabi irodaviy fazilatlarning ro'yxati juda katta: qahramonlik, sabotlilik, qat'iylik, mustaqillik, o'zini tuta bilishlik va boshqalardir. Xususan qat'iyatlilik – irodaning individual fazilati bo'lib, mustaqil ravishda mas'u-liyatli qaror qabul qilish hamda uni faoliyatda so'zsiz amalga oshirish qobiliyati va malakasi bilan bog'liq. Irodaning mustaqilligi boshqa kishi-larning fikrlarini, ularning maslahatlarini hisobga olishda ushbu fikrlar va maslahatlarga nisbatan ma'lum tanqidiylikni nazarda tutadi.

Irodaviy fazilatni baholash atigi birgina «kuchli – kuchsiz» o'lchovi bilan ifodalanmasligi kerak. Irodaning axloqiy tarbiyalanganligi, agar hal qiluvchi bo'lmasa ham, muhim ahamiyatga egadir.

Irodani mustaqil tarbiyalash usullari quyidagi shartlarni o'z ichiga oladi:

1. irodani tarbiyalashni nisbatan arzimas qiyinchiliklarni bartaraf etish;
2. qiyinchiliklarni va to'siqlarni bartaraf etish ma'lum maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladi;
3. qabul qilingan qaror bajarilishi kerak;
4. maqsadga erishish bosqichlarini ko'ra olishi, juda muhimdir.

Irodani tarbiyalashni arzimas qiyinchiliklarni bartaraf etishni odat qilishdan boshlash kerak. Oldiniga uncha katta bo'lmagan qiyinchilikni, vaqt o'tishi bilan ancha katta qiyinchiliklarni muntazam ravishda yenga borib, kishi o'zining irodasini mashq qildiradi va chiniqtiradi.

Qiyinchiliklarni va to'siqlarni bartaraf etish ma'lum maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladi. Maqsad qanchalik ahamiyatli bo'lsa, irodaviy motivlar darajasi yuqori bo'lsa, irodaviy motivlar kishida shun-chalik katta qiyinchiliklarni bartaraf etishga qodirdir. Irodani tarbiyalash-ning zarur sharti faoliyatning oliy motivlarini – ilmiy dunyoqarashga asoslangan axloqiy prinsiplarini va e'tiqodlarini shakllantirishdir.

Qabul qilingan qaror bajarilishi kerak. Har gal, qachonki, qaror qabul qilinib, uning bajarilishi yana va yana kechiktirilaversa, kishining irodasi izdan chiqadi.

Agar kishi uzoqqa mo'ljallangan maqsadni oldiga qo'ygan taqdirda uzoq istiqbolni nazarda tutishi, bu maqsadga erishish bosqichlarini ko'rishi, yaqin kelajakka mo'ljallangan istiqbolni ko'ra olishi juda muhimdir. Shuningdek sport bilan shug'ullanish kishi irodasini chiniqtirishning muhim shartlaridan biridir.

Irodani tarbiyalash to'g'risida gapirilarkan, faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilishi faqat u yoki bu irodaviy fazilatlar bajarilish sharti sifatidagi tegishli ko'nikmalarning borligiga, qo'yilgan maqsadlarga erishilishiga bog'liq ekanligini unutmazlik kerak.

Irodani ongli ravishda tarbiyalash jarayoni qanchalik tez boshlansa, shunchalik ko'p muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Yana shuni xulosa qilish mumkinki, kishining kundalik rejimga, hayotining to'g'ri tartibda olib borilishiga qat'iy amal qilishi, kishi irodasining shakllanishi uchun eng muhim shartlar qatoriga kiradi.

Pirovardida, shuni aytish kerakki, asosiy irodaviy fazilatlarning rivojlanishi kishining boshqa odamlar bilan doimiy muloqoti jarayonida, u bilan birgalikda ishlashi davomida yuz beradi.

Temperament va uning ko'rinishlari. Psixologiya fani insonning ruhiy olami, muomalasi, xulqi, xarakteri, temperament, qobiliyati va insonlararo munosabatini o'rganadi. Uning amaliy yo'nalishi tadqiqot predmetining cheklanganligi bilan chegaralanib qolmasdan, balki insonning shaxs sifatida o'sishiga yordam beruvchi bir qancha jabhalarini o'ziga qamrab oladi va tekshiradi.

Inson shaxsining eng muhim xususiyatlaridan biri-bu uning individualligidir. Individuallik deganda, shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlarning xususiyatlari yig'indisi, iroda, faoliyat motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, qobiliyatlari va shu kabilar kiradi.

Shaxsning individual-psixologik xususiyatlariga tavsif

Temperament to'g'risida umumiy tushuncha. Insonning ruhiy olami beto'xtov harakatlar majmuasidan iborat bo'lib, biri ikkinchisini bevosita taqozo etadi va ular uzluksiz zanjir tizimiga o'xshash tarzda hukm suradi. Xuddi shu bois shaxs ruhiyatida tashqi atrof-muhit to'g'risidagi taassurotlar, o'tmish xotiralari, kelajak yuzasidan ijodiy xayollar, ezgu niyatlar, xohish istaklar, maqsad va tilaklar, mulohaza, fikr va muammo, hissiy kechinmalar, irodaviy sifatlar uzluksiz tarzda o'zaro o'rin almashtirib turishi evaziga ontogenetik dunyoga mustahkam negiz hozirlanadi. Ruhiy olam kechishi, uning sur'ati, mazmuni, shakli ko'lami, xususiyati, xislati, sifati, mexanizmi alohida, yakkahol insonda rang-barang tarzda namoyon bo'linish kuzatiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, insonlar tabiat hodisalariga, omillariga, ta'sir kuchlariga tez yoki sekin, yengil yoki mushkulot bilan javob qaytarishga moyillik ko'rsatadilar.

Psixologiya faning ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti davrida temperamentga nisbatan bildirilgan mulohazalar, uning moddiy asosi to'g'risidagi talqinlar xilma-xil bo'lib, shaxsning psixologik xususiyatlarini o'ziga xos tarzda tushuntirish uchun xizmat qilib kelgan. Temperament lotincha «*temperamentum*» degan so'zdan olingan bo'lib, buning ma'nosi «*aralashma*» degan

tushunchani anglatadi. Temperament to'g'risidagi dastlabki ta'limotni yunon olimi Gippokrat (eramizdan oldingi 460–356- yillarda yashagan) yaratgan bo'lib, uning tipologiyasi to hozirgi davrgacha qo'llanilib kelinmoqda.

Temperamentga ta'rif beradigan bo'lsak u shunday ko'rinishda bo'ladi: psixikaning individual jihatdan o'ziga xos, tabiiy shartlashgan dinamik ko'rinishlari majmui kishining temperamenti deyiladi.

Temperamentning fiziologik asoslari. Qadimgi yunon olimi Gippokrat ta'limotiga binoan, insonlarning temperament xususiyatlari jihatidan o'zaro bir-biridan tafovutlanishi, ularning tana a'zolaridagi suyuqliklarning turlicha nisbatda joylashuviga bog'liq ekanligi tasavvur qilinadi. Gippokrat ta'biricha, inson tanasida to'rt xil suyuqlik (xilt) mavjud bo'lib, ular o't yoki safro (yunon. «chole»), qon (lot. «sanguis» yoki «sanguinis»), qora o't (yunon. «melas» «qora», «chole» «o't»), balg'am (yunon. «phlegma») kabilardan iboratdir. Uning mulohazasicha:

1) o'tning xususiyatni-quruqlikdir, uning vazifasi-tana a'zolarida quruqlikni saqlab turish yoki badanni quruq tutishdir;

2) qonning xususiyati- issiqlikdir, uning vazifasi tanani isitib turishdir;

3) qora o'tning xususiyati – namlikdir, uning vazifasi badan namligini saqlab turishdir;

4) balg'amning (shilimshiq moddaning) xususiyati – sovuqlikdir, uning vazifasi badanni sovitib turishdan iboratdir.

Temperamentning ilmiy psixologik asoslari va uning fiziologik mexanizmlari keyingi ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning bosqichlarida yaratiladi hamda bu borada ishlanilishlar davom ettirilmoqda. Temperamentning fiziologik asoslariga ulkan o'z hissini qo'shgan olimlardan biri rus fiziologi I. P. Pavlov hisoblanadi.

I. P. Pavlov temperament ham shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, degan xulosa chiqaradi. I. P. Pavlov ta'limoti bo'yicha, shartli reflekslar paydo bo'lishining individual xususiyatlari ro'yobga chiqishining sabablari nerv sistemasi xususiyatlari mohiyatidandir. Muallif nerv sistemasining uchta asosiy xususiyatiga alohida ahamiyat beradi. Chunonchi: 1) qo'zg'alish jarayoni va tormozlanish (to'xtalish) jarayonining kuchi; 2) qo'zg'alish kuchi bilan tormozlanish kuchi o'rtasidagi muvozanatlik darajasi (nerv sistemasining muvozanatlashgani); 3) qo'zg'alishning tormozlanishi bilan almashinishi tezligi (nerv jarayonlarining harakatchanligi). Uning ko'rsatishicha, har bir hayvonning temperamenti ham mazkur xususiyatlarining u yoki bunisiga aloqador bo'lmay, balki ularning majmuaviy tarziga, qonuniy birlashuviga bog'liqdir. I. P. Pavlov shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlari bilan temperamentga aloqador nerv sistemasi

xususiyatlarining o‘zaro qo‘shiluvini nerv sistemasining tipi deb nomlaydi va uni to‘rtta tipga ajratadi: 1) kuchli, muvozanatli, epchil; 2) kuchli, muvozanatsiz, epchil; 3) kuchli, muvozanatli, sust; 4) kuchsiz tip.

Gippokratning to‘rt xil moddalar (suyuqliklar) aralashmasi, ya’ni temperament tushunchasi va uning tipologiyasi (sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik) ramziy ma’noda hozirgi zamon psixologiyasida ham qo‘llanilib kelinmoqda.

Organizmدا suyuqliklarning aralashuvi (u qonning ko‘pligi bilan xarakterlanadi) *sangvinik* temperament deb ataladi (lot. tilidagi «sangvis» – qon so‘zidan); limfa ko‘p bo‘lganda *flegmatik* temperament (grek. «flegma» shilimshiq parda degani); sariq o‘tning ko‘payganligini *xolerik* temperament (grek. «xolla» – o‘t so‘zidan); qora o‘t ko‘p bo‘lgan *melanxolik* temperament deb (grek. «melayna xole» – qora o‘t) deb ataladi.

Kishining temperamenti qanaqaligi haqida tasavvur odatda shu shaxs uchun xarakterli ayrim psixologik xususiyatlar asosida vujudga keladi.

Sezgilarni psixik aktivlikka ega, atrofda bo‘layotgan vazifalarga tez munosabatini bildiruvchi, taassurotlarni hadab o‘zgartirishga intiluvchi, ko‘ngilsizliklarni nisbatan yengil o‘tkazib yuboruvchi, jonli, harakatchan, ifodali mimikasi va harakatlari bo‘lgan kishi *sangvinik* deyiladi.

Yuragi keng, barqaror intilishlarga va kayfiyatlarga, doimiy va chuqurroq his-tuyg‘ularga, harakatlari va nutqi bir xil maromida bo‘lgan, ruhiy holati tashqi tomonda ifoda etiladigan kishi *flegmatik* deb ataladi.

Juda g‘ayratli, ishga juda ehtiros bilan berilish qobiliyatiga ega bo‘lgan, tez va shiddatli, qizg‘in emotsional «portlash» va kayfiyatning keskin o‘zgarishlariga moyil, ildam, harakatlar qiladigan kishi *xolerik* deb ataladi.

Ta’sirchan, chuqur kechinmali, gap ko‘tara olmaydigan, ammo atrofda voqealarga unchalik e’tibor bermaydigan, o‘zini to‘xtata oladigan va sekin ovoz chiqaradigan kishilar *melanxoliklar* deb ataladi.

Kishilarning oliy nerv faoliyati tiplarini xarakterlovchi nerv jarayonlari kuchi, muvozanati va harakatchanligining unday yoki bunday nisbatlari ular temperamentning fiziologik asosidir.

I. P. Pavlov o‘rganish uchun oliy nerv sistemasini oldi. Uning fikricha, shartli reflekslar nerv sistemasining xususiyatlari asosida paydo bo‘ladi. I. P. Pavlov ana shunday xususiyatlarni uchtasini ko‘rsatadi:

1. Qo‘zg‘alish protsessi va tormozlanish protsessining kuchi.
2. Qo‘zg‘alish kuchi bilan tormozlanish kuchi o‘rtasidagi muvozanatlik darajasi.
3. Qo‘zg‘alishning tormozlanish bilan almashishini tezligi yoki boshqacha qilib aytganda nerv protsessining harakatchanligi.

Muvozanat qo‘zg‘alish protsessi va tormozlanish protsessining muayyan tengligidir. Bu protsesslar kuch jihatidan bir biri bilan muvozanatda bo‘lish-bo‘lmasligi mumkin.

Harakatchanlik – bu bir protsessning boshqa protsessga almashish tezligidir. U sharoitning tasodifiy va tez o‘zgarishiga ko‘nikishni ta‘minlaydi.

I.P.Pavlov shu narsani aniqlaydiki, temperament yuqorida aytilgan xususiyatlarning bittasiga emas, balki ularning birikmasiga bog‘liq. Temperamentni aniqlaydigan nerv sistemasi xususiyatlarini bunday uyg‘unlashganligini nerv sistemasining turi deb atashadi. Asosan nerv sistemasining to‘rt turi bor. Ulardan uchta kuchli va bittasi kuchsiz.

Temperament turlarining tasnifi
(Pavlov I.P. ta‘limotiga ko‘ra):

- 1) kuchli, muvozanatsiz, behalovat – xolerik;
- 2) kuchli, muvozanatli, epchil – sangvinik;
- 3) kuchli, muvozanatli, sust – flegmatik;
- 4) kuchsiz – melankolik

Huquqni muhofaza qilish organ xodimlari faoliyatida temperamentning roli beqiyosdir. Shuni unutmaslik kerakki, temperamentning yaxshi yoki yomon ko‘rinishi mavjud emas. Chunki har bir temperament tipi o‘ziga xos xususiyatni kasb etadi. Huquqni muhofaza qilish organlarining turli jabhalarida xizmat burchini bajarayotgan har bir xodimlarning faoliyatida turli xildagi temperament vakillarini ko‘rish mumkin.

Xarakter haqida tushuncha. Ijtimoiy turmushda hayot va faoliyat ko‘rsatayotgan har qanday shaxs o‘zining individual psixologik xususiyatlari bilan boshqa insonlardan ajralib turadi va bu farqlar uning xarakter xislatlarida o‘z ifodasini topadi. Xarakter tushunchasi yunoncha so‘z bo‘lib, «xarakter» bosilgan tag‘ma yoki qiyofa, xislat degan ma‘noni anglatsa-da, lekin u psixologiyada torroq mazmunda qo‘llaniladi. Xuddi shu boisdan insonning barcha individual xususiyatlarini xarakter xislati tarkibiga kiritib bo‘lmaydi, chunki, aqlning tiyrakligi, topqirligi, xotiraning barqarorligi, ko‘rishning o‘tkirliги idrokning tanlovchanligi singari individual psixologik xususiyatlar bunga yorqin misoldir.

Xarakter – shaxsning faoliyat va muomalada tarkib topadigan va namoyon bo‘ladigan barqaror individual xususiyatlari bo‘lib, individ uchun tipik xulq-atvor usullarini yuzaga keltiradi.

Shaxs ba‘zida o‘z xarakter xislatidan afsuslanadi, lekin boshqacha harakatni amalga oshirishni uddasidan chiqmaydi. Xorijiy psixologlarning tasdiqlashicha, ayrim insonlar faoliyatida muvaffaqiyatsizlikdan xavfsirashga qaraganda, ular o‘z yutuqlarini yuksakroq qadrlaydilar va yuqori

baholaydilar. Muvaffaqiyatsizlik ular uchun halokatli hodisa emas, shuning uchun «tavakkalchilik»ka qo‘l urishda davom etaveradilar. Boshqa toifadagi odamlar muvaffaqiyatsizlikdan cho‘chiydilar, o‘ta ehtiyotkor bo‘ladilar, qiyinchilikdan yuz o‘giradi, yengil ishga qo‘l urishni lozim topadilar.

Xarakter xislatlarining namoyon bo‘lishi bilan nerv sistemasi qiyoslansa, u holda birinchisining ro‘yobga chiqishi o‘zgacha fiziologik sharoitga asoslanishini ko‘rish mumkin. Sobiq sovet psixologiyasida ta’kidlanishicha, nerv sistemasi umumiy tipining zid xususiyatlari psixologik jihatdan zid harakat usullariga mos tushadi. B. M. Teplov, V. S. Merlin, Ye. A. Klimovlarning tadqiqotlarida, o‘qish, sport va mehnat faoliyatlarida harakat usullarining individual farqlari aniqlangan. Xuddi shu bois xarakter xislatlari paydo bo‘lishning o‘zgacha fiziologik sharoiti nerv sistemasi umumiy tipining xususiyatlari hisoblanadi. Ma’lumki, nerv sistemasining umumiy tipi – bu temperamentning fiziologik asosi hamdir. Shuning uchun temperament tipi xarakterning individual o‘ziga xos xislatlarining ro‘yobga chiqishidagi muhim psixologik sharoitlardan biri bo‘lib hisoblanadi. I. P. Pavlov tajribasining ko‘rsatishicha, muayyan tizimda tashqi ta’sir hukm surganda nerv sistemasi umumiy tipining xususiyatlariga taalluqli dinamik stereotipning shakllanishiga qulaylik vujudga keltirishi yoki, aksincha, xalaqit berishi mumkin.

Shaxs xarakterining tuzilishi turli xususiyatlarning tasodifiy yig‘indisidan iborat emas, balki o‘zaro bir-biriga bog‘liq, hatto tobe yaxlit tizimdan tarkib topadi. Xarakter xislatlarining muayyan qismidan xabardor bo‘lishlik notanishlarni tashxis qilish imkoniyatini yaratadi. Misol uchun, shaxsning shuhratparastligi ma’lum bo‘lsa, uning dili (ko‘ngli) qoraligi yuzasidan taxmin qilish mumkin yoki inson kamtar, mo‘min, yuvosh xususiyatli bo‘lsa, albatta u ko‘ngilchan ekanligi ko‘nglimizga keladi.

Odatda, psixik xususiyatlarning o‘zaro bog‘liq tizimi simptomokomplekslar (omillar) deyiladi. «Simptom» yunon. «symptom» belgi, mos tushish, «kompleks» lot, aloqa, majmua degan ma’no anglatadi. Masalan, qaramaqarshi simptomokomplekslar haqida mulohaza yuritilsa, u holda insonlarda bu tizim o‘ziga ishonish, o‘zidan mag‘rurlanish, maqtanchoqlik, o‘zbilarmonlik, urishqoqlik, keksayishi kabilar birikmasida yuzaga keladi. Boshqa toifadagi shaxslar o‘zlarining kamtarinligi, ko‘ngilchanligi, iltifotliligi, dilkashligi, haqqoniyliги bilan ajralib turadilar. Voqelikka shaxsning bir xil munosabati xarakter xislatlarining o‘zaro bir-biriga bog‘liqligini bildiradi.

Shaxsning munosabatlarini aks ettiruvchi xarakter xislatlarining to‘rtta tizimga ajratish qonuniy holatga aylangan:

1. Jamoaga (guruhga) va ba’zi bir insonlarga nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, takabburlik va boshqalar.

2. Mehnatga nisbatan munosabatlarni mujassamlashtiruvchi xususiyatlar: mehnatsevarlik, dangasalik, vijdonlilik, mas'uliyatlilik, mas'uliyatsizlik kabilar.

3. Narsalarga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar: ozodlik, ifloslik, ayash, ayamalik va hokazo.

4. Shaxsning o'ziga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi xislatlar: izzat-nafslilik, shuhratparastlik, mag'rurlik, takabburlik, dimog'dorlik, kamtarinlik, samimiylik va boshqalar.

Kishining xarakterini tashkil etuvchi bu individual xususiyatlar birinchi navbatda irodaga va his-tuyg'ularga, shuningdek ma'lum ma'noda aqlga ham taalluqlidir.

Inson shaxsining xakteri hamisha ko'p qirralidir. Unda alohida xususiyatlar yoki tomonlar ajratib ko'rsatilishi mumkin, lekin ular bir-biridan ajratilgan, alohida holda mavjud bo'lmaydi, balki ma'lum ma'noda xarakterning barqaror tuzilishini tashkil etgan holda o'zaro bog'liq bo'ladi. Xarakterning strukturaliligi uning ayrim xususiyatlari o'rtasidagi qonuniy bog'liqlikda namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, shaxsning turmushdagi zaruriy sharoitlaridan biri – bu xakterning muayyan darajada plastikligidir. Xakterning plastikligi ikki xil ma'noni kasb etadi. Xakterning plastikligi uning barqarorligi singari muhitga faol ta'sir o'tkazishning shartlaridan hisoblanadi. Ish-amallari maqsadga muvofiq va foydali kechishi uchun ular o'zgaruvchan tashqi sharoitga moslashishlari lozim. Xakterning plastikligi, mustahkamligi uni shakllantirishining zaruriy sharti sanaladi. Xakterning barqarorligi, plastikligi o'ziga xos individual xususiyatga ega bo'lib, uni tuzilishining xislati sifatida mujassamlashadi. Xakter xususiyatlarining kuchi va barqarorligi markaziy tizimga bog'liqligiga binoan muayyan darajada shaxs munosabatlarining mazmuni bilan belgilanadi.

Xakterning tarkib topishida kishining tevarak atrofdagi muhit va o'z-o'ziga, boshqa kishiga qanday munosabatda bo'lishi muhim moment bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, bu munosabatlar xakterning eng muhim xususiyatlarini tasniflash uchun asos bo'ladi.

Xakterning u yoki bu xususiyatining miqdoriy ifodaligi oxirgi marra-ga yetib va normaning eng oxirgi chegarasiga borib qolganda xakterning *aksentuatsiyasi* (ortiqcha urg'u berilishi) deb atalmish vaziyat tug'iladi.

Xakterda urg'u berishning (aksentuatsiyasi) quyidagi eng muhim turlari alohida ajratib ko'rsatiladi:

- xakterning *introvert tipi* – uning uchun odamovilik, muomalada va atrofdagilar bilan aloqa o'rnatishda qiynalish o'zi bilan o'zi bo'lib qolishga xosdir;

- ekstrovert tip – bunga his-hayajonga tamomila berilganlik, ba’zan muomala va faoliyatning zarurligi va himmatidan qat’iy nazar unga intilish, ko‘p gapirish, qiziqishlarining doimiy emasligi, ba’zan maqtanchoqlik, yuzakilik, konformlilik xos;

- boshqarib bo‘lmaydigan tip – bunga g‘ayri-tabiiylik, munozaralik, e’tirozlarga murosasizlik, ba’zan esa shubhalanib qarash xosdir.

Xarakterni tarkib topishi muayyan qonuniyatlar ta’sirida amalga oshadi. Xarakterning har bir xislati shaxs munosabatlariga bog‘liq bo‘lsa, ular o‘z navbatida ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Nasliy xususiyatlari bir xil egizaklarda turlicha ijtimoiy muhitda har xil xarakter xislatlari shakllanadi. Shu sababdan ijtimoiy tuzumni tavsiflovchi keng ijtimoiy munosabatlar shaxsning ijtimoiy tipik xususiyatlarinigina emas, balki xarakterning individual xususiyatlari (xislatlari) tarkib topishiga ham katta ta’sir o‘tkazadi. Ijtimoiy munosabatlarga bevosita yoki bilvosita bog‘liq tarzda, oilada, bolalar va mehnat jamoalarida xayrixohlik, o‘rtoqlik, o‘zaro yordamlashish, hamkorlik yoki, aksincha, johillik, zolimlik, badjahllik kabi shaxslararo munosabatlar tarkib topa boshlaydi. Oilaviy muhit, undagi shaxslararo munosabatlar, farzandlarning soni, yoshidagi farqi, nizoli vaziyatlar ko‘rinishi, ota-ona munosabatiga asoslangan holda xarakterning o‘ziga xos xususiyatlari shakllanadi. Bolalar bog‘chasi, maktabdagi shaxslararo munosabatlar ham xarakterning maxsus xislatlarini tarkib toptiradi. Mehnat jamoalarida, norasmiy guruhlarda ham xarakter xususiyatlarida sezilarli o‘zgarishlar yuzaga keladi. Ilk yoshlik davrida shakllangan xarakter xislatlari nihoyat darajada barqaror bo‘lib, ularga ayrim o‘zgarishlar kiritish juda qiyin kechadi. Xarakter xislatlarining chuqurligi, barqarorligi, doimiyliigi ko‘p jihatdan shaxs munosabatlarining onglilik darajasiga bog‘liq. Insonning haqqoniylik, mehnatsevarlik xislatlari tasodifiy tarkib topmagan bo‘lib, uning ongli qarashlariga, ishonch aqidalariga mos tushsa, u holda har qanday qiyin holatlarda ham namoyon bo‘laveradi. Mamlakatimiz fuqarolari xarakterining kuchi va mustahkamligi ularning istiqlol nashidasi va yuksak vatanparvarlik his-tuyg‘ularidadir. Shunday qilib, psixikaning individual sifat xususiyatlari shaxsning ijtimoiy-tipik munosabatlari bilan qo‘sqilgan taqdir-dagina xarakter xislatlarini belgilash, tavsiflash imkoniyati vujudga keladi.

Xuddi temperament kabi xarakter ham kishining fiziologik xususiyatlariga va avvalo, *nerv sistemasi* tipiga bog‘liqdir. Chunki xarakter bilan temperamentning o‘zaro munosabati ularni fiziologik asoslari bilan belgilanadi. Xarakter xususiyatlarining tashqi jihatdan namoyon bo‘lib aynan shu tarzda muayyan vaqt mobaynida kechishi dinamik xususiyat deyiladi. Xarakter xislatlarining dinamik xususiyati temperament xususiyatlariga bog‘liqdir. Temperamentning xususiyatlari xarakterning muayyan tomon-

lari rivojlanishiga *qarshilik ko'rsatishi* yoki *yordam berishi* mumkin. Xolerik yoki sangvinik tipdagi odamga qaraganda flegmatik tipdagi odam o'zida tashabbuskorlik va qat'iylikni tarkib toptirishi qiyinroqdir. Jur'atsizlik va vahimalikni bartaraf etish melanxolik uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Xarakterning jamoada amalga oshiriladigan shakllantirilishi xolerik tipdagi kishilarda o'zini tuta bilishni va o'ziga tanqidiy ko'z bilan qarashni, sangviniklarda sabotlilikni, flegmatiklarda faollikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratadi 1.

Xarakter kishining xulq-atvor programmasidir. Kishining faoliyati, uning xulq-atvori eng avvalo uning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bilan belgilanadi va uning shaxsining yo'nalganligi qiziqishlari, ideallari va e'tiqodining majmui doimo uning xulq-atvori va faoliyatining asosiy determinanti bo'lib qoladi. Biroq shaxs yo'nalishida ko'plab umumiylik bo'lgan va maqsadlari bir-biriga to'g'ri keladigan ikki kishida ana shu maqsadlarga erishish uchun ular foydalanayotgan usullarda jiddiy farqlar bo'lishi mumkin. Ana shu farqlar ortida shaxs xarakteridagi xususiyatlar turadi. Kishining xarakteridagi tipik holatlarda go'yo uning xulq-atvori uchun tipik programmaning poydevori qo'yilgan bo'ladi. Shunday qilib, xarakterning xususiyatlari muayyan undovchi, vaj-sabab bildiruvchi kuchga ega bo'ladi. Bu kuch ko'pincha, xatti-harakat uslubini tanlash, muayyan qiyinchiliklarni yengish, zarur bo'lgan vaqtlarda stress holatlarida eng ko'p darajada namoyon bo'ladi.

Xarakter va kishining tashqi ko'rinishi. Psixologiya tarixida xarakterni inson bosh suyagining shakliga, yuz tuzilishiga, qaddi-qomati (tana tuzilishining strukturasi va hokazolar)ga bog'liq qilib qo'yadigan va shu yo'l bilan xarakter xususiyatlarining sirini ochish yo'lini aniqlash, ya'ni ayrim tashqi alomatlariga qarab kishi xarakterini ochish nazariyalari yetarli darajada mavjud emasdi. *Arastu* va *Aflotun* kishi xarakterini tashqi ko'rinishiga qarab aniqlashni taklif qilganlar. Ularning xakteriologiyasi asosida qanchalik sodda bo'lsa, shunchalik g'aroyib faraz yotardi. Kishining tashqi ko'rinishida hayvon bilan o'xshashlik belgisini topish tavsiya qilinardi, so'ngra esa uning xarakterini ana shu hayvonning xakteri bilan aynan bir xil deb qarash kerak edi. Masalan, Arastuning aytishicha, buqaniki singari yo'g'on burun ishyoqmaslikni bildiradi va hokazolar.

XVIII asrda Iogan Kaspar Lafaterning fiziologik sistemasi mashhur bo'lib ketdi. U inson boshi «qalbini ko'rsatadigan oyna» bo'lib sanaladi va uning tuzilishini, bosh suyagining konfiguratsiyasini, imo-ishorasini o'rganish kishi xakterini o'rganishning asosiy yo'li deb hisobladi. Lafater taniqli odamlar shaxsi ustidan bir qator oqilona kuzatishlar qoldirdi. Ular uning ilmiy jihatdan mutlaqo ahamiyatsiz, lekin juda qiziqarli «fiziognomika» kitobida yig'ilgandir.

Lafaterning o'limidan keyin paydo bo'lgan yangi xarakterologik ta'limot *frenologiya* degan nom oldi. Frenologiya nemis vrachi Frans Gallning nomi bilan bog'langandir. Gall ta'limotining asosida xarakterning barcha xususiyatlari bosh miya yarim sharlarida o'zlarining qat'iy ixtisoslashgan markazlarga ega degan tasdiq yotadi. Bu fazilatlarining rivojlanish darajasi miyaning tegishli qismlari kattaligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Gallning maslagiga ko'ra, bosh suyaklari miyaning qavariq va chuqurcha joylariga aniq mos kelganligi uchun ham, uning ruhiy belgilarini aniq aytib berish aftidan kishining bosh suyagiga bir nazar tashlash yoki shunchaki boshning «bo'rtiq joylarini» ushlab ko'rish yetarli bo'ladi.

Bu ta'limotda umuman miya yarim sharining tuzilishi shaxs xususiyatlariga bog'liq bo'ladi, degan to'g'ri boshlang'ich fikrdan tashqari barchasi nihoyat darajada noto'g'ridir.

Gall maxsus frenologik tuzib chiqdi. Ularda bosh suyagi yuzasi 27 qismga taqsimlanib, bu uchastkalardan har biriga ma'lum bir ruhiy sifat, masalan, ehtiyotkorlik va uzoqni o'ylab ish qilish, ashaddiylik va qotillikka moyillik, ayyorlik, doimiylik, qat'iylik va qaysarlik va shu kabilar mos keladi.

Ko'p o'tmay anatomik ochishlar miyaning do'ngliklariga bosh suyagi-ning qavariqligi butunlay to'g'ri kelmasligini ishonarli qilib ko'rsatdi. Bosh suyagi, frenologlar o'ylaganidek, miyaning shakliga qarab qo'yilmagandir. Frenologik xaritani tuzishga asos bo'lgan metod ham shu qadar noilmiy bo'lib chiqdi.

Psixik qobiliyatlarning markazlari to'g'risidagi Gallning afsonaviy xomxayollari noilmiydir. Lekin uning miyaning turli xil uchastkalari psixologik xususiyatlar va protsesslar uchun javobgardir, degan g'oyasi ma'nodan xoli emasdi.

Xarakter va holat. Xarakter tarkib topishi muayyan qonuniyatlar ta'sirida amalga oshadi. Xarakterning har bir xislati shaxs munosabatlariga bog'liq bo'lsa ular o'z navbatida ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi.

Buning ustiga odamlar aynan bir xil holatlarni har doim ham bir xil aks ettirmaydilar. «Kimki, bajarishni istasa – vosita izlaydi, kim istasa – sabab izlaydi». Kishi holatlar (vaziyat darajasida xulq-atvor) bilan, shuningdek shaxsning tarkib topgan individual xususiyatlari bilan belgilanishi mumkin. Ya'ni ichki holatlar bilan, tashqi holatdan ajralgan yuksak ijtimoiy va umuminsoniy ideallarni ifodalaydigan hamda unga ta'sir ko'rsatadigan harakat subyekti sifatida o'zini anglagan holda belgilashi mumkin.

Psixologiya fanida xarakter va qobiliyatni shakllanib borishi bevosita shaxsning yosh davrlariga bog'liq. Ma'lumki, har bir yosh davri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, uni o'rnini hech qanday yosh davri bosib o'ta

olmaydi. Biroq turli shaxslarda yosh davrlari turlicha kechishi fan nuqtai nazaridan izohlab o‘tilgan.

Temperamentning xususiyatlari xarakterning ko‘rinishlariga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi, ularning paydo bo‘lishi va kechishining dinamik xususiyatlarini belgilab boradi.

Xarakterning tuzilishi qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda muhim tarbiyaviy xulosalar chiqarish mumkin. Xarakter xislatlarining ba‘zi nuqsonlarini (qo‘pollik va yolg‘onchilikni) bartaraf qilish, uning ijobiy xususiyatlarini (xushfe‘llik va haqqoniylikni) shakllantirish muddaosi rejalashtirilgan dasturda amalga oshirib bo‘lmaydi. Chunki insonlarga nisbatan to‘g‘ri munosabatni tarkib toptirmay turib, illatga qarshi kurashib, ijobiy fazilatni shakllantira olmaymiz. Shu narsa ma‘lumki, shaxsda o‘zaro birbiriga bog‘liq xususiyatlarning yaxlit bir tizimini qaror toptirish mumkin, xolos. Mazkur jarayonda xususiyatlar tizimini shakllantirishning muhim shartlaridan biri – bu shaxsning markaziy (asosiy) munosabatlarini tarkib toptirishdan iboratdir.

Shunday qilib, xarakter – shaxsning ijtimoiy munosabatlar sistemasi, hamkorlikdagi faoliyatiga va boshqa odamlar bilan muomalasiga jalb etiladigan hamda shu bilan o‘z individualligiga ega bo‘layotgan tiriklik paytida erishgan narsasidir.

Qobiliyat va iste‘dod haqida tushuncha. Qobiliyatlar shaxs mazkur faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo‘ladigan individual-psixologik xususiyatdir.

Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyatlar sifatida, ya‘ni bir odamning boshqa bir odamdan farq qiladigan belgilari sifatida ta‘riflanadi.

Psixologiyaning metodologik asosining ko‘rsatishicha, qobiliyatlar – imkoniyatlar tizimidan tashkil topgan bo‘lib, u yoki bu faoliyatidagi zaruriy mahorat darajasi haqiqat hisoblanadi. Psixologiya fani qobiliyatlar bilan faoliyatning muhim jabhalari bo‘lmish bilim, ko‘nikma va malakalarning aynan bir narsa ekanligini rad etar ekan, ularning birligini e‘tirof qiladi. Shuning uchun qobiliyatlar faqat faoliyatda ro‘yobga chiqadi, lekin shunda ham aynan shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi amri mahol faoliyat ko‘rinishlaridagina aks etadi, xolos.

Bolalik davrida u yoki bu qobiliyatlarning atrof-muhitdagi odamlar tomonidan tan olinmaganligi, keyinchalik xuddi ana shu qobiliyatlari tufayli jahonda munosib shon-shuhrat qozonishga musharraf bo‘lgan juda ko‘p allomalarning nomi olamda mashhur. Chunonchi Albert Eynshteyn (nisbiylik nazariyasi asoschisi), Nikolay Lobachevskiy (yangi geometriya

yoʻnalishi asoschisi) va boshqalar oʻqishida buyuk olim boʻlib voyaga yetishish dalolatnomasi yoʻq edi.

Qobiliyatlar bilim, koʻnikma va malakalarda aks etmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon boʻladi. Faoliyat uchun zarur bilim va koʻnikmalarni oʻzlashtirish jarayonida yuzaga chiqadigan farqlar, qobiliyatlar mulohaza yuritish imkonini beradi.

Demak, shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim koʻnikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon boʻladigan individual psixologik xususiyati qobiliyatlar deyiladi. Ushbu xususiyatni aniqlash uchun baʼzi bir omillarni tahlil qilish maqsadga muvofiq; 1) shaxsning muayyan sifatleri yigʻindisi belgilangan vaqt oraligʻida egallagan faoliyati talablariga javob bersa – unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati mavjuddir; 2) inson shunday holatlarda faoliyat talabiga javob bera olmasa –psixologik sifatlar, yaʼni qobiliyatlar mavjud emasdir (juda zaifdir).

Qobiliyatlarning sifat va miqdor tavsifi. Psixologiyada qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar sifatida tavsiflanadi va buning asosida bir insonning boshqa insondan tafovutlanadigan xislatlari, fazilatlari yotadi. Shuning uchun har bir shaxsdan bir xil natija, bir xil sifat kutish mumkin emas, chunki insonlar oʻz qobiliyatlari boʻyicha bir-birlaridan muayyan darajada farq qiladilar, binobarin, ular oʻrtasida farqlar sifat va miqdor jihatidan bir talay boʻlish mumkin. Qobiliyatlarning sifat tavsifi shaxsning qaysi individual psixologik xususiyatlari faoliyat muvaffaqiyatining majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Ularning miqdoriy tavsifi esa faoliyatga qoʻyiladigan talablarga shaxs tomonidan qay yoʻsinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildiradi, yaʼni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda malaka, bilimlardan nechogʻlik tez, yengil, puxta foydalana olishini namoyish qiladi.

Qobiliyat xususiyatlarining sifat jihatidan talqin qilinishida, *birinchidan*, maqsadga turlicha yoʻllar orqali erishishga imkon beruvchi «oʻzgaruvchan miqdor» toʻplami tariqasida, *ikkinchidan*, faoliyat muvaffaqiyatini taʼminlovchi shaxsning individual psixologik xislatlari (fazilatlari) murakkab majmuasi koʻrinishida gavdalanadi.

Shaxsning qobiliyatida mavjud boʻlgan oʻrnini bosish (kompensator)lik imkoniyati, eshitishdan mahrum insonlarni maxsus oʻqitish orqali roʻyobga chiqadi. Hayotda koʻr musiqachi, artist, shoir, rassom, muhandis va boshqa shu kabi kasb egalari yetishib chiqqanligi koʻp uchraydi. Hatto eshitish qobiliyati past yoki umuman yoʻqligi ham kasbiy musiqaviy qobiliyatining rivojlanishiga keskin xalaqit bermasligi mumkin. Bu psixologik hodisa (bir qobiliyatni boshqa qobiliyat yordami bilan oʻstirish,

ya'ni kompleksatorlik xususiyati) har bir shaxs uchun kasb tanlash va qayta kasb tanlash (ikkinchi yoki uchinchi kasbni egallash ishtiyoqi) sohasida mislsiz keng ko'lamdagi imkoniyatlarni ochadi. Ushbu voqelikni tasdiqlovchi qator misollarning o'zida silliq duradgor, mohir tikuvchi bo'lishi, yirik fan allomasi yirik san'atkor, yetuk sportchi ekanligi uchrab turadi. Qobiliyatli shaxslar ijtimoiy turmushning turli sohalari, jabhalarida o'z o'rnini topa oladilar hamda yuksak yutuqlarga erishadilar, hatto bir nechta faoliyat turida muvaffaqiyatlar qozonishi ham mumkin.

Psixologiyada qobiliyatlarni miqdor jihatdan o'lchash muammosi katta tarixga egadir. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida qator psixologlar (Kettel, Termin, Spirmen va boshqalar) ommaviy ixtisoslar uchun kasb tanlashni amalga oshirish zarurati bilan bog'liq talablar ta'siri ostida ta'lim olayotganlarning qobiliyat darajasini aniqlashini taklif qilib chiqdilar. Bu bilan shaxsning martabalik darajasida tutgan o'rni va uning u yoki bu mehnat faoliyatida, oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishida, ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotda rahbarlik lavozimlarini olishga layoqatlarini aniqlash taxmin qilingan edi.

Psixologiyada qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar sifatida tavsiflanadi va buning asosida bir insonning boshqa insondan tafovutlanadigan xislatlari, fazilatlarini yotadi. Shuning uchun har bir shaxsdan bir xil natija, bir xil sifat kutish mumkin emas, chunki insonlar o'z qobiliyatlari bo'yicha bir-birlaridan muayyan darajada farq qiladilar, binobarin, ular o'rtasida farqlar sifat va miqdor jihatidan bir talay bo'lish mumkin. Qobiliyatlarning miqdori tavsifi va ularni o'lchash muammosi psixologiya fanida o'ziga xos rivojlanishning tarixiy o'tmishiga ega. Hozirgi davrda fanning mumtoz psixologlariga aylangan Spirmen, Kettell va boshqalar XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlaridayoq muayyan ixtisoslar uchun kasb tanlashni ilmiy asosda yo'lga qo'yish zaruriyatidan kelib chiqadigan talablar tazyiqida o'quv yurtlarida saboq olayotgan shaxslarning qobiliyati darajasini aniqlashga kirishdilar. Ularning taxminlaricha, insonning lavozimiga loyiqligi, uning mehnat faoliyatiga layoqatni, shuningdek, oliy o'quv yurtlariga, harbiy xizmatga, rahbarlik martabasini egallashga nisbatan layoqatlarini aniqlash imkoniyati mavjuddir. O'tgan asrda qobiliyatlarni o'lchash usuli, mezoni tariqasida aqliy iste'dod testlari ishlab chiqildi va AQSH, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda o'quvchilarni saralash, harbiy xizmatga zobitlarni tanlash, ishlab chiqarishda rahbarlik lavozimiga tavsiya qilishda foydalanildi. Kishi egallab oladigan faoliyat (mehnat, o'qish, sport va shu kabi faoliyatlar) uning psixologik fazilatlariga (aqliy xususiyatlariga, emotsional-irodaviy sohasiga, sensomotorikasiga) yuksak talablar qo'yadi. Bu talablarni qandaydir bitta sifat, hatto u taraqqiyotning juda

yuksak darajasiga erishgan bo'lsa ham qondira olmaydi. Alohida olingan bitta psixik xususiyat faoliyatning yuksak mahsuldorligini ta'minlay oladi, butun qobiliyatlarning ekvalenti sifatida namoyon bo'ladi degan fikr ilmiy haqiqatga to'g'ri kelmaydigan fikrdir. Qobiliyatlar murakkab strukturaga ega bo'lgan psixik fazilatlar yig'indisidan iboratdir.

Qobiliyat namoyon bo'ladigan fazilatlar yig'indisining tuzilishi konkret faoliyat talablari bilan belgilanadi va faoliyatning har xil turlari uchun turlicha bo'ladi.

Qobiliyatlar tuzilishi. Shaxs egallashi shart hisoblangan faoliyat, u xoh ta'lim, xoh mehnat, xoh o'yin, xoh sport bo'lishidan qat'i nazar uning bilish jarayonlariga, aqliy xislatlariga, hissiy-irodaviy jabhalariga, sensor-motor sohasiga, xarakterologik xususiyatlariga muayyan talablar qo'yadi va ularning hamkorlikdagi sa'yi-harakati tufayli muvaffaqiyatlarga erishiladi. Psixologik ma'lumotlarga qaraganda, insondagi yuksak ko'rsatkichga erishgan sifat harchand ustuvorlikka ega bo'lmasin, u talablarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Ayrim hollarda alohida namoyon bo'lgan psixik xususiyat (xislat) faoliyatining yuksak mahsuldorligi va samaradorligini ta'minlash qurbiga ega, u qobiliyatlar uddalay oladigan imkoniyat bilan bab-baravar kuch quvvat tariqasida vujudga keladi degan faraz o'zini oqlamaydi. Shuning uchun qobiliyatlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan psixik sifatlar (xislatlar) majmuasidir deyish juda o'rinlidir.

Qobiliyatlar sifatida ro'yobga chiqadigan psixik xislatlar majmuasining tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat talabi bilan belgilanganligi tufayli har qaysi turdagi faoliyatlar uchun o'ziga xos tarzda qo'yilishi turgan gap. Buning uchun ayrim misollarni tahlil qilib o'tamiz.

1. Matematik qobiliyat: matematik materiallarni umumlashtirish, mulohaza yuritish jarayonini qisqartirish, matematik ish-amallarni kamaytirish, masalani idrok qilish bilan natijasi o'rtasida aloqa o'rnatish, to'g'ri va teskari fikr yuritishdan yengil o'tishlik, masala yechishda fikr yuritishning epchilligi kabilar.

2. Adabiy qobiliyat: nafosat hislarining yuksak taraqqiyot darajasi, xotirada yorqin ko'rgazmali obrazlarning jonliligi, «til zehni», behisob xayolot, ruhiyatga qiziquvchanlik, o'zi ifodalashga intiluvchanlik va boshqalar. Ajratib ko'rsatilgan qobiliyatlar tarkibidan ko'rinib turibdiki, matematik va adabiy qobiliyatlar o'zaro bir-biriga o'xshamagan talablari bilan tafovutga egadir. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, pedagogik, musiqaviy texnik, konstruktorlik, tibbiy va shunga o'xshash qobiliyatlar tuzilishi maxsus xususiyatga ega bo'lib, kasbiy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Qobiliyatlar asosan 2 turga bo'linadi. Umumiy va maxsus qobiliyatlar. Shaxsning umumiy qobiliyatlari yoki umumiy fazilatlar ularning to'la-

qonli aniq psixologik ko‘rinishlari bo‘lib, ularni tadqiq qilishga psixologlar allaqachon kirishgan. Konkret faoliyat sharoitlarida qobiliyat sifatida namoyon bo‘ladigan shaxsning bunday umumiy fazilatlari jumlasiga odamlarning uch tipidan bittasiga mansubligini ko‘rsatadigan individual-psixologik fazilatlar kiradi. I. P. Pavlov asarlarida «badiiy», «fikrlovchi» va «o‘rta» tiplar deb qayd qilingan edi. Mazkur tipologiya kishining oliy nerv faoliyati unda ikkita signal sistemasi borligi bilan belgilanishiga muvofiq ta‘limot bilan bog‘langandir. Birinchi signallar sistemasi obrazli, emosional va ikkinchisi ana shu obrazlar haqida so‘zlar orqali signal berish bilan bog‘liq, ya‘ni signallarning signali bilan bog‘liq.

Garchi qobiliyatlarning rivoji har turli odamlarda mutlaqo bir xil bo‘lmagan tabiiy shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘lsa ham, yuqorida ko‘rib o‘tilgan iste‘dod nishonalari va qobiliyatlar o‘rtasidagi nisbat, qobiliyatlar shunchaki tabiat in‘omi emas, balki kishilik tarixining mahsuli ekanligini ko‘rsatadi.

Iste‘dod, uning tuzilishi va paydo bo‘lishi. Qobiliyatlar taraqqiyotning yuksak bosqichi iste‘dod deb ataladi. Iste‘dodning ijtimoiy tarixiy tabiiy nuqtai nazardan talqini qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi ekanligidan dalolat beradi. Psixologik adabiyotlarda unga turlicha ta‘rif berishiga qaramay, ularda asosiy belgilar ta‘kidlab o‘tiladi, chunonchi, shaxsga qandaydir murakkab mehnat faoliyatining muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasiga *iste‘dod* deyiladi. Iste‘dodning asosiy belgilari:

- muvaffaqiyatni ta‘minlash;
- faoliyatni mustaqil bajarish;
- originallik unsurining mavjudligi;
- qobiliyat hamda iste‘dodlar yig‘indisidan iborat ekanligi;
- individual psixologik xislatligi;
- ijtimoiy turmushni o‘zgartiruvchi, yaratuvchi imkoniyatligi kabilar.

Psixologik ma‘lumotlarni umumlashtirilgan holda ikki xil xususiyatli fikrni alohida ta‘kidlab o‘tish iste‘dod tuzilishini yengilroq tushunish imkoniyatini yaratadi:

1) iste‘dod – bu shaxs psixik xislatlarning shunday murakkab birikmasidirki, uni: alohida, yagona maxsus qobiliyat bilan; xotiraning yuksak mahsuldorligi orqali; hatto noyob (kamyob, nodir) sifat tariqasida o‘lchab bo‘lmaydi;

2) shaxsda u yoki bu qobiliyatning mavjud emasligi hamda yetarli darajada taraqqiy etmaganligi iste‘dodning murakkab tarkibiga kiruvchi boshqa qobiliyatlarning jadal takomillashuvi orqali ularning o‘rnini bosib yuborishi (kompensatsiya qilishi) mumkin.

Iste'dod o'zining umumiy va maxsus sifatlari yig'indisi bilan ijodiy yutuq imkoniyatining ayniyatidir. Iste'dod mahoratning dastlabki sharti hisoblansa-da, lekin ular bir-biridan muayyan darajada tafovutlanadi. Iste'dod – katta, ijodiy va zo'r mehnat mahsulidir. Mehnat esa hayotiy tajriba, ko'nikmalarning zaruriy majmuasi manbaidir. Ijodiyotning sharti – bu hayotiy tajriba, zaruriy ko'nikma va malakalar yig'indisining mavjudligidir. Ijodiy faoliyat iste'dodning ajralmas qismi hisoblanib, bunda *ruhlanish* deb nomlangan psixologik holat alohida ahamiyat kasb etadi. Ruhlanish esa faoliyat mahsuldorligi ortishiga qaratilgan ijodiy lahzadan iboratdir. Iste'dod imkoniyat tariqasida psixologik hodisa hisoblansa, u holda mahorat-haqiqatga aylangan imkoniyatning gavdalanishidir. Psixologik nuqtai nazardan haqiqiy mahorat – bu shaxs iste'dodining faoliyatda namoyon bo'lishidir.

Qobiliyatlar va iste'dodning tabiiy sharoitlari. Odatda qobiliyatlar insonga shaxsning barcha individual psixologik xususiyatlari kabi tabiat tomonidan tug'ma ravishda tayyor holda berilmaydi, balki hayot va faoliyat jarayonida shakllanadi. Ilmiy psixologiya qobiliyatlarning tug'maligi nazariyasini inkor etib, shaxs qobiliyatlarining noma'lum tabiiy omillar tomonidan azaliy belgilanishi to'g'risidagi tasavvurlarga qattiq zarba beradi.

Shuni uqtirish joizki, qobiliyatning tug'maligini inkor qilish mutlaq xususiyatga ega emas, albatta. Lekin qobiliyatning tug'ma ekanligini tan olmaslik, miya tuzilishi bilan bog'liq differensial xususiyatlarning tug'maligini inkor qiladi degan so'z emas. Layoqat esa qobiliyatning tabiiy zamini sifatida faoliyatda muhim rol o'ynaydi. Layoqat deb qobiliyatlar taraqqiy etishining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo'ladigan miya tuzilishining, sezgi a'zolari va harakatlarning morfologik hamda funksional xususiyatlariga aytiladi. Tug'ma layoqat jumlasiga nozik hid sezish, bilish analizatorlarining alohida yuksak sezgirligi muvofiqdir. Alohida yakka shaxs ma'lum tabiiy layoqatga ega bo'lsa, u holda o'ziga taalluqli qobiliyatlarni rivojlantirish nisbatan yengil kechadi. Insonlarning kasbiy qobiliyati ular layoqatlarining rivojlanish mahsulidir. Layoqat ko'pqirrali psixik hodisa bo'lganligi tufayli faoliyat talablarining xususiyatiga bog'liq ravishda bir xil layoqatlar negizida har xil qobiliyatlar rivojlanishi kuzatiladi.

Qobiliyatning rivojlanishi shaxsning tarkib topishi bilan uzviy uyg'unlikka ega bo'lib, inson kamoloti har ikkala omilning birikuvini talab qiladi. Iste'dodli o'quvchilar va talabalar shakllanishi ijtimoiy muhit, ijtimoiy institutlar, ma'naviyat asoslari hamda o'zini o'zi namoyon etish, o'zini o'zi kashf qilish, o'zini o'zi rivojlantirish asosida amalga oshishi odatiy ijtimoiy psixologik qonuniyat tariqasida xizmat qiladi.

Qobiliyatning shakllanishi. Qobiliyatlar va iste'dodlarni shakllantirish muammosi katta ijtimoiy va davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muammodir.

Bunda hamma bolalarda qobiliyatlarni har tomonlama rivojlantirish vazifasi ayrim alohida iste'dodli bolalarda maxsus iste'dodlarni rivojlantirish vazifasiga qarama-qarshi qo'yilmaydi.

Shunday qilib qobiliyatlar insonning hayotidagi eng muhim individual-psixologik xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Qobiliyatlar tuzilishiga ko'ra, juda murakkab sistemani tashkil etadi. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining faoliyatida qobiliyat asosiy o'rinni kasb etadi. Chunki xar bir xodimning mehnat faoliyatiga yaroqli ekanligini ham uning qobiliyatlarini aniqlashdan boshlanadi.

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining individual-psixologik xususiyatlari, ya'ni temperamenti, xarakteri, maxsus va umumiy qobiliyatlari jinoyatchilikni oldini olish va jinoyatchilarni qayta tarbiyalashda yetakchi o'rinlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Shunday qilib, xarakter – shaxsning ijtimoiy munosabatlar tizimiga, hamkorlikdagi faoliyatiga va boshqa odamlar bilan muomalasiga jalb etiladigan hamda shu bilan o'z individualligiga ega bo'layotgan tiriklik paytida erishgan narsasidir.

Demak, shaxsning nisbatan barqaror va nisbatan o'zgaruvchan xususiyatlari inson xislatlarining yaxlitligi va o'zaro bog'liqligidan tarkib topuvchi murakkab birlikdan iboratdir.

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining faoliyatida shaxsiy individual-psixologik xususiyatlari shaxs bo'lib shakllanishida va rivojlanishida, shuningdek jamiyat xavfsizligini ta'minlashda asosiy funksiyani bajaradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Shaxs haqidagi zamonaviy nazariyalar va uning tarixiga izoh bering.
1. Shaxsning shakllanish bosqichlarini aytib bering.
3. Shaxsning bilish faoliyatiga tavsif bering.
4. Xotira jarayonining turlari qanday ?
5. Tafakkur va xayol haqida qisqacha izoh bering.
6. Sezgilar bilishning boshlang'ich bosqichlari sifatida deyilganda nimani tushunasiz?
7. Diqqat va uning turlariga izoh bering.
8. His-tuyg'ularning fiziologik asosini sharhlab bering.
9. Temperament tiplari va ularning psixologik tavsifini aytib bering.
10. Qobiliyatlarning sifat va miqdor tavsifi deyilganda nimani tushunasiz?
11. Iste'dod, talant, uning tuzilishi va paydo bo'lishi qanday amalga oshadi?

8-mavzu. ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI KASBIY MULOQOTINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida muloqot tushunchasi va uning psixologik o'ziga xosligi.

Muloqot vositasi va kommunikativ ta'sir etish usullari.

Ichki ishlar organlari xodimlarining fuqarolar bilan psixologik aloqa o'rnatish usullari.

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida muloqot tushunchasi va uning psixologik o'ziga xosligi

Insonlar o'z faoliyati davomida, tabiiyki, boshqa odamlar bilan muloqotda bo'ladilar. Ushbu jarayonda axborot almashadilar, bir-birlariga ta'sir ko'rsatadilar, ta'lim beradilar, tajriba almashadilar. Bu jarayon shaxslararo o'zaro munosabatlarda *muloqot, muomala* deb yuritiladi.

Muloqot har qanday faoliyatning muhim jihati hisoblanib, u orqali insonning mohiyati namoyon bo'ladi, ya'ni o'zaro tushunishga, ishni bajarish chog'ida uyg'unlikka erishiladi yoki, aksincha, nizolar va axloqiy ziddiyatlar, ishdagi kelishmovchiliklar muloqot tufayli yuzaga keladi.

Muloqot yoki kommunikatsiya – odamlarning o'zaro hamkorligi shakllaridan biri. Muloqot odamlarning voqelikni aks ettirishi natijasini ifodalovchi xabarlar almashish jarayoni bo'lib, ular ijtimoiy borliqning ajralmas qismi hamda ularning individual va ijtimoiy ongi shakllanishi va amal qilishining vositasidir. Odamlarning birgalikdagi faoliyati jarayonida maqsadli hamkorlikni tashkil etish, tajriba almashish, mehnat va turmush ko'nikmalarini olish, ma'naviy ehtiyojlarni namoyon etish va qondirish muloqot yordamida yuz beradi.

Muloqot yoki muomala yangi axborotlarning almashinuv jarayoni hamdir, bu haqda Bernard Shou quyidagilarni qayd etadi: «Agar menda bitta olma va sizda ham shuncha olma bo'lib, o'zaro almashsak, sizda ham, menda ham bittadan olma qoladi, agar har birimizda shaxsiy fikr bo'lsa va o'zaro almashsak, unda har birimizda ikkitadan g'oya bo'ladi»¹. Ushbu ta'kiddan ham muloqot davomida o'zaro fikr almashinuv munosabatlari yuzaga kelishini ko'rish mumkin.

Ichki ishlar organlari xodimlari xizmat vazifalarini bajarishda fuqarolar bilan muloqotga kirishadilar. Ular faoliyatining samaradorligi odamlar bilan muloqotga kirishish, psixologik aloqa o'rnatish qobiliyatlariga bog'liq.

¹ Qarang: *Коган М.С. Мир общения.* – М., 1990. – С. 149–150.

Kommunikativ xususiyatlar ichki ishlar organlari xodimlari kasb mahorati-ning muhim tarkibiy qismidir.

Muloqot ijtimoiy psixologik hodisa bo‘lib, odamlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir. Shaxslar o‘zaro munosabatga kirishar ekan, aloqaning eng muhim vositalaridan biri sifatida tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir muhim tomoni shundaki, munosabatga kirishuvchilar muomala jarayonida faqat so‘zlar bilan emas, balki xatti-harakatlar bilan ham axborot ayirboshlashadilar. Muloqot jarayoni shaxslarning qiziqishlari, dunyoqarashi, muomala madaniyatiga ham bog‘liq bo‘ladi, chunki shaxslardagi o‘zaro muloqot bu tabiiy ehtiyojdir.

Muloqot orqali shaxslarning birgalikda aloqa qilish metodikasi ketma-ket bo‘lgan olti bosqichdan iborat:

I bosqich – o‘zaro bir-birini tushunish;

II bosqich – umumiy yoki mos keladigan qiziqishlarni topish;

III bosqich – muloqot uchun taklif etiladigan sifat va qabul qilinadigan prinsiplar;

IV bosqich – muloqot uchun xavfli bo‘lgan sifatlarni aniqlash;

V bosqich – individual ta’sir etish va suhbatdoshga moslashish;

VI bosqich – umumiy qoidalarni yaratish va o‘zaro harakat qilish.

Bosqichlar ketma-ketligiga rioya qilish to‘g‘ri ta’sir etishni tashkillashtirishda muhim ahamiyatga egadir.

Bosqichlar aloqa qilish jarayonida amalga oshirilayotgan faoliyatning ketma-ketligini kuzatish dasturi sifatida namoyon bo‘lishi, o‘zaro ta’sir yo‘llarini nazorat etishi mumkin.

Kasbiy muomala har bir ichki ishlar organlari xodimi faoliyatida muhim o‘rin egallaydi. Shuning uchun ham muomalaning har biri turi faoliyat jarayonida ishtirok etadi. Xodim muomala qonuniyatlariga suyangan holda shaxslar bilan munosabatga kirishadi. Muloqot jarayonida xodimning barcha kasbiy sifatlari (xotira, diqqat, idrok, sezgi, tafakkur, xayol) ishtirok etadi. Bu jarayonlar xodimning mantiqiy fikrlashga, voqeani o‘tmishdagi vaziyat bilan bog‘lashga, o‘zaro solishtirish va qiyoslash, obyekt va sharoitni mukammal tarzda idrok etishiga yordam beradi.

Muloqot psixologik jihatdan bir-birlari bilan bog‘liq bo‘lgan odamlar o‘rtasida u yoki bu vositalar orqali maqsadga muvofiq, bevosita yoki bilvosita aloqani o‘rnatish va saqlab turish jarayonidir¹.

¹ Qarang: *Асямов С. В., Пулатов Ю. С. Ички ишлар идоралари ходимларининг касбий-психологик тренинги. – Т., 2002. – Б. 47.*

Muloqotning ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida quyidagi turlari mavjud:

- 1) bevosita;
- 2) bilvosita;
- 3) rolli;
- 4) mazmunli;
- 5) rasmiy;
- 6) norasmiy.

Bevosita muloqot «yuzma-yuz» suhbat boʻlib, uning har bir ishtirokchisi idrok qiladi, aloqa qiladi va hamma mavjud vositalarni keng qoʻllaydi.

Bilvosita muloqot ham aloqa vositasi boʻlib, unda shaxslar, aloqa vositalari va mexanizmlar ishtirok etadi (masalan, telegraf, telefon orqali gaplashish).

Muloqotning baʼzi turlari ijtimoiy rollar orqali amalga oshirilib, rolli muloqot deyiladi. Bunday holatda odamlar muayyan ijtimoiy rollarni bajaruvi kishilar tarzida muloqotga kirishadilar. Masalan, tergovchi va jabrlanuvchi oʻrtasidagi muloqot rolidir.

Individning boshqa shaxsga oʻz holati, kayfiyati, xohishini mimika, harakat, imo-ishora orqali bildirishi mazmunli muloqot deb ataladi.

Rasmiy muloqot yuridik kuchga ega boʻlib, davlat va jamiyat manfaatini koʻzlagan hamda qayd etiladigan muloqot turi (masalan, tergov jarayonidagi soʻroq qilish)dir.

Shaxslararo oʻzaro muloqot jarayonida oʻzini qiziqtirgan u yoki bu maʼlumotga ega boʻlish norasmiy muloqot hisoblanadi.

Muloqotga kirishishda faqat soʻzlar emas, balki harakatlar, imo-ishoralar ham muhim ahamiyatga ega. Shaxslar oʻzaro muloqotga kirishar ekan, ushbu muloqot oʻzida uch muhim jihatni qamrab oladi;

- 1) kommunikativ (axborot berish);
- 2) interaktiv (oʻzaro birgalikda harakat qilish);
- 3) perseptiv (oʻzaro birgalikda idrok qilish).

Muloqot jarayonida axborotni boshqa kishiga yoʻllayotgan kishi *kommunikator*, uni qabul qilayotgan kishi *retsepiyent* deb nomlanadi.

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida muloqot, ayniqsa, bevosita muloqot oʻziga xos ahamiyatga ega. Chunki tokar temir bilan, zootexnik hayvonlar bilan ishlasa, huquqni muhofaza qilish organi xodimi shaxslar bilan, aholi bilan, jinoyatchi, guvoh, gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi bilan ishlaydi. Ularning har biri oʻziga xos dunyoqarash va muomalaga ega, bu muloqot jarayonida koʻrinadi.

Muloqotda nutq muhim rol oʻynaydi, uning ravonligi, soʻzlarning yaxshi va oʻz joyida toʻgʻri ishlatilishi muvaffaqiyat garovidir. Nutq

eshittirilishi yo ovoz chiqarmasdan aytilishi, yozib qo'yilishi yoki karsovqov kishilar uchun biror-bir mohiyatga ega bo'lgan imo-ishoralar bilan almashtirilishi mumkin. Muloqotda ma'lumot beruvchi va qabul qiluvchi o'rtasida o'zaro hamkorlik yuzaga keladi. Nutq shaxsning tashqi ko'rinishi, kiyinishi, mimikasi, tez yoki sekin gapirishi, ovozi, salmoqlab yoki vazmin gapirishiga bog'liq bo'ladi.

Shaxs ma'lumotni ikkinchi bir shaxsga nutq bilan birga xatti-harakat, mimikalar orqali, shuningdek yozma yoki ko'rgazmali usulda berishi mumkin. Muloqot davomidagi emotsional holat muloqotga kirishayotgan shaxsning xatti-harakatiga salbiy ta'sir qiladi.

Muloqotning uzoq davom etishi ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Har qanday muloqotdan biror-bir maqsad ko'zda tutiladi. Muloqotga kirishgan har bir shaxs uning yakunidan turlicha, ya'ni ijobiy yoki salbiy xulosa chiqarishi mumkin.

Muloqot aniq ijtimoiy munosabatlar orqali belgilanadi. U ijtimoiy axloq normalari asosida tartibga solinadi. Indivud hayotida muloqotning bajaradigan vazifalari turlicha, shu bois muloqotning quyidagi psixologik vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- informatsion;
- regulyativ;
- xabar;
- nazorat;
- tarbiya.

Informatsion vazifasi axborotni qabul qilish va uni tarqatishdir.

Regulyativ vazifasi muloqotni tartibga solish va boshqalar bilan to'g'ri munosabatni tashkil qilishdan iborat.

Xabar vazifasi ko'magida biz muhim ahamiyatga ega voqealar, hodisalar haqidagi xabarlarni qabul qilamiz.

Nazorat vazifasi ko'magida axborotni qabul qilish va tarqatish jarayoni nazorat qilinadi.

Muloqot orqali shaxsni shakllantirish jarayoni uning tarbiyalash vazifasi bo'lib, nihoyatda muhim omil hisoblanadi.

Muloqot vositasi va kommunikativ ta'sir etish usullari

Ichki ishlar organlaridagi faoliyatida xodim muloqot orqali o'z xizmat burchini bajaradi va ushbu muloqot qonun asosida tartibga solinadi. Ichki ishlar organlari faoliyatida nafaqat «til», yuqorida aytib o'tganimizdek, imo-ishora, eng asosiysi, muloqot davomida shaxsning yuzidagi o'zgarishlar ham muhim hisoblanadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining muloqoti quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- 1) bevosita kasbiy vazifani bajarishga yo‘naltirilganligi;
- 2) huquqiy jihatdan tartibga solinganligi;
- 3) maxsus obyektning mavjudligi;
- 4) psixologik to‘siqlarning mavjudligi;
- 5) jinoyatchilarning maxsus tili hisoblanmish tatiurovkalar va jargonlarni bilish va hokazo.

Har qanday muloqot doimo obyekt bilan subyektning bir-biriga moslashish jarayonini qamrab oladi.

Har qanday axborot faqat belgilar, aniqrog‘i, belgilar tizimi orqali beriladi. Kommunikativ jarayonda foydalaniladigan bir qancha belgilar tizimi mavjud bo‘lib, ularga mos tarzda muloqot jarayonida foydalaniladigan vositalarni tasniflash mumkin. Nutqli (belgilar tizimi sifatida nutqdan foydalaniladi) va nutqsiz (turli nutqsiz belgilar tizimidan foydalaniladi) muloqot vositalari farqlanadi.

Nutqiy muloqot vositasi. Eng universal aloqa vositasi inson nutqidir. Chunki nutq yordamida axborot berishda xabar mazmuni eng kam darajada yo‘qotiladi. Nutq – verbal aloqa, ya’ni til yordamida muloqot qilish jarayoni. Nutqning yozma va og‘zaki turlari farqlanadi. Og‘zaki nutq dialogik va monologik nutqlarga bo‘linadi. Dialog – biror masalani birgalikda muhokama qilayotgan va hal etayotgan suhbatdoshlarning so‘zlashuvi. Monologda esa bir odam uni tinglayotgan boshqa odam yoki odamlarga axborot beradi.

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida muloqotning nutqiy vositalaridan foydalanish juda muhim o‘rin tutadi. Xodim xizmat faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan bevosita muloqot jarayonida yoki turli xil hujjatlarni tuzishda o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalash, ularni to‘g‘ri bayon etishiga bog‘liq. Nutq muloqotning universal vositasi bo‘lsa-da, u faqat faoliyat tizimiga aloqador bo‘lgan sharoitdagina ahamiyatga ega bo‘ladi, faoliyatga daxldorlik esa muloqotning boshqa – nutqsiz vositalarini qo‘llash bilan to‘ldiriladi.

Ushbu vositalarning birinchi guruhiga imo-ishora va mimika kiradi. *Mimika* – yuzning muloqot paytidagi dinamik ifodasi. *Imo-ishora* – jamiyatda ishlab chiqilgan va ruhiy holatni ifodalaydigan harakat. Ularga qarab biz insonning biror-bir voqeaga, shaxsga, narsaga munosabati haqida xulosa qilamiz. Imo-ishora odamning istaklari, uning ahvolidan darak berishi mumkin.

Muloqotning nutqsiz vositasiga kiruvchi boshqa guruhini vokallash-tirish tizimi, ya’ni ovoz sifati, uning diapazoni, tonalligi va boshqalar

tashkil etadi. Ushbu qo‘shimchalarning hammasi axborotning ahamiyatini oshiradi va o‘ziga xos nutqqa qo‘sqilgan «qo‘shimcha» vazifasini bajaradi.

Nutqsiz vositalarning uchinchi guruhiga kommunikativ jarayonni tashkil qilish makoni va zamoni kiradi. Ular ham maxsus belgilar tizimi bo‘lib, kommunikativ tizimning tarkibiy qismlari sifatida ma‘noga ega. So‘nggi vaqtlarda psixologik tadqiqotlarda muloqotga kirishuvchi shaxslar o‘rtasidagi oraliqning kommunikativ ahamiyatiga va muloqot samaradorligining sheriklar joylashuviga bog‘liqligi masalalariga e‘tibor berilmoqda. Muloqotga kirishuvchilar o‘rtasidagi masofalarning to‘rt turi farqlanadi: intim (0–0,5 m), shaxsiy (0,5–1,5 m), ijtimoiy (1,5–3 m), ommaviy (3 metrdan ortiq).

Xodim masofani o‘zgartirish orqali gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, guvoh kabilarga qo‘shimcha ta’sir ko‘rsatishga erishishi mumkin, chunki bu bilan sheriklar o‘rtasidagi munosabatlar xususiyati o‘zgaradi¹.

Muloqotning psixologik vositalari:

verbal (nutq orqali)

- og‘zaki nutq;
- yozma nutq;

noverbal (nutqsiz)

- imo-ishora;
- mimika;
- pantomimika.

Verbal muloqotning asosiy vositasi inson nutqi bo‘lib, u aloqaning universal vositasi hisoblanadi. Zero, nutq orqali axborotning mazmuni deyarli to‘liq beriladi. Verbal muloqot orqali shaxs o‘zining fikr-mulohazalarini bemalol bayon eta oladi, o‘z navbatida, boshqa noverbal muloqot vositalari bilan birga olib boriladi. Bunday nutqsiz vositalarga, birinchi navbatda, imo-ishora va mimika kiradi.

Ichki ishlar organlari faoliyatida ko‘p holatlarda muloqot shaxslar uchun majburiydir, ya‘ni ayblanuvchi, guvoh va gumon qilinuvchi muloqot qilishga majburdir. Shuningdek, shaxs muloqot qilmasa, qonunga asosan jazolanishi mumkin. Muloqotdagi har bir fakt shaxs ongi orqali amalga oshadi, eng asosiysi, bu faktlar shaxslarda ba’zi bir narsalarni bo‘rttirib ko‘rsatish yoki yashirishga olib kelishi mumkin. Ba’zan muloqotga kirishayotgan shaxs o‘z aybini yoki maqsadini yashiradi, ma‘lum bir vaqtdan keyin uning bu yolg‘oni fosh bo‘lishi mumkin. Ichki ishlar organlari faoliyatida muloqot ikki yoki bir necha (ko‘p) kishilik bo‘lishi mumkin. Muloqot maqsadidan kelib chiqqan holda har xil tugashi, ya‘ni keskin, agressiv holatda yoki muloqotni qayta davom ettirish yoxud butunlay muloqotga qaytmaslik ham mumkin.

¹ Qarang: *Асямов С.В. Пулатов Ю.С. Ички ишлар идоралари ходимларининг касбий-психологик тренинги. – Т., 2002. – Б. 76.*

Muloqot, shuningdek, individlarning bir-birlariga kommunikativ ta'sirining muayyan usullarini ham o'z ichiga oladi. *Ta'sir etish usullarining* quyidagi turlari farqlanadi:

Yuqimlilik – ta'sir ko'rsatishning kishilar ommasini muayyan tarzda, ayniqsa ommaviy tartibsizliklar, diniy jazavalar, ommaviy psixozlar bilan bog'liq ravishda integratsiya qiluvchi maxsus usuli.

Umumiy tarzda yuqimlilikni individning ongsiz, ixtiyorsiz ravishda muayyan ruhiy holatlarga tushishga moyilligi sifatida ta'riflash mumkin. U muayyan hissiy holatning birovga o'tkazilishida namoyon bo'ladi.

Yuqimlilikning psixologik mexanizmlarini inobatga olish ichki ishlar organlari xodimlari uchun ommaviy tartibsizliklar oqibatlarini bartaraf etish, ommaviy madaniy-tomoshabop va sport tadbirlarini o'tkazish davrida jamoat tartibini ta'minlashda muhimdir.

Ishontirish – isbotsiz tasdiqlanadigan yoki inkor etiladigan xabarlarni tanqidiy qarashsiz qabul qilishga qaratilgan kommunikativ ta'sir ko'rsatish usuli. Ushbu psixologik hodisa haqidagi bilimlar rivojining hozirgi bosqichida «ishontirish mantiqiy isbotlashsiz shakllangan ishonchga tayanadi va individdan individga, jamoadan shaxsga beriladi yoki aksincha, aniqroq aytganda, avtomatik tarqaladi», degan qoidaga asoslaniladi. Inson ishontirish ta'siriga ixtiyorsiz tushib, o'zi anglamagan holda harakat qila boshlaydi. Ichki ishlar organlari xodimlari ta'sir etishning ushbu usulidan juda ehtiyot bo'lib foydalanishlari kerak, ba'zan (masalan, tergov harakatlari o'tkazish chog'ida) undan foydalanish qonun bilan taqiqlanadi.

E'tiqod mavjud qarashlar, mayllar, nuqtai nazarlar, munosabat va baholarni o'zgartirish maqsadida u yoki bu qoida, qarash, qilmishning to'g'riligini yoki ularga yo'l qo'yib bo'lmasligini muloqot, tushuntirish va isbotlash orqali odamlarning ongi, his-tuyg'ulari va irodasiga ta'sir ko'rsatish bo'lib, kommunikativ ta'sir ko'rsatishning eng universal usulidir. E'tiqod mexanizmi inson aqliy faoliyatini jadallashtirishga, uning maqsadga erishish yo'llari va vositalarini ongli ravishda tanlashiga asoslangan. Kimnidir nimagadir ishontirish – ishontirilayotgan shaxs mantiqiy mulohazalar va xulosa chiqarishlar natijasida muayyan nuqtai nazarga qo'sqiladigan va uni himoya qilishga yoki unga muvofiq harakat qilishga tayyor bo'ladigan holatga erishishni bildiradi.

Ishontirish ichki ishlar organlari xodimlarining fuqarolarga ko'rsatadigan asosiy ta'sir usuli bo'lishi kerak. Undan foydalanishning muvaffaqiyati quyidagilarga bog'liq:

- ta'sir ko'rsatuvchi shaxsning shaxsiy ishonchi;
- uning tayyorgarligi va bilimi;

- xabar berilayotgan faktlar, hodisalar, harakatlarning to‘g‘riligi, aniq-
ligi va ishonchliligi;
- foydalanilayotgan faktlarning xarakterli, tipik bo‘lishi;
- odamlarni o‘ziga nisbatan moyil qilish, ularning ishonchini qozonish;
- ta’sir ko‘rsatuvchi shaxsning talabchanligi, uning vazminligi va odobi.

Taqlid qilish ongli yoki ongsiz ravishda namunadan nusxa olishdir. U guruh, jamoani tashkil etuvchi odamlarning xatti-harakatiga xos bir xil usullarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Muloqot jarayonida ishtirokchilar bir-birlarini o‘zaro tushunishlari kerak. Bunda muloqotga kirishgan sherikning uni qanday qabul qilayotgani katta ahamiyatga ega. *Shaxslararo idrok etish* qonuniyatlari, effektlarni inobatga olish ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida, ayniqsa, shohidlar, guvohlar, jabrlanuvchilarning ko‘rsatmalarini, shuningdek o‘z idroklarini baholash chog‘ida katta ahamiyat kasb etadi.

Shaxslararo idrok effektlaridan biri – boshqa shaxs haqidagi umumiy tasavvurning uning shaxsiga xos xislatlarni idrok etish va baholash ta’sirida namoyon bo‘ladigan «oreol effekti»dir. Agar umumiy tasavvur yaxshi bo‘lsa, uning ijobiy xislatlari ortiqcha baholanadi, salbiy xislatlari esa sezilmaydi yoki aksincha. Ushbu effekt ta’sirida, masalan, ichki ishlar xodimi «surunkali» huquqbuzarning tuzalish tomon tashlagan dastlabki qadamlarini ko‘rishi mumkin va, tabiiyki, uni bu ishda qo‘llab-quvvatlay boshlaydi.

«Izchillik effekti» ma’lumotlar ziddiyatli bo‘lgan taqdirda inson qiyofasini va u to‘g‘risidagi tasavvurni shakllantirishga birinchi navbatda kelib tushgan ma’lumotlar eng ko‘p ta’sir ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi. Agar bu tanish odamga daxldor bo‘lsa, aksincha, ya’ni eng oxirgilari ko‘p ta’sir ko‘rsatadi. «Stereotiplashtirish effekti» idrok etilayotgan kishini muayyan ijtimoiy guruhga xos xislatlar unga ham xos deb baholashda namoyon bo‘ladi. Har birimizda muayyan ijtimoiy stereotiplar – o‘qituvchi, harbiy kishi, jinoyatchi kabi guruhlarning stereotiplari mavjud. Muayyan guruh vakiliga duch kelganda, biz oldindan ushbu guruh kishilarga xos muayyan xislatlarni unga ham xos deb qabul qilamiz. Ko‘pincha bunday stereotipdan xalos bo‘lish juda qiyin bo‘ladi.

Ijtimoiy idrok etish effektlari *ijtimoiy mayl* (ustanovka) bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning paydo bo‘lishiga olib keladi. Ijtimoiy maylning o‘zi insonning boshqa odamni idrok etishga ichidan tayyor bo‘lishi sifatida ta’riflanishi mumkin. Notanish kishi haqida taassurotning shakllanishida maylning ahamiyati ayniqsa katta. Fanda A. A. Bodalevning ijtimoiy maylning ahamiyatini ochib bergan tadqiqotlari yaxshi ma’lum.

Tadqiqotlardan birida ikki guruh odamlarga ayni bir kishining surati ko‘rsatilgan. Ammo suratni ko‘rsatishdan avval birinchi guruhga suratdagi

kishining ashaddiy jinoyatchi, ikkinchi guruhga esa qahramon ekanligi aytilgan. Shundan so‘ng har bir guruhga fotosuratdagi kishini so‘z bilan tasvirlab berish taklif etilgan. Birinchi guruh uni quyidagicha tavsiflagan: chuqur ko‘zlari yashirin yovuzligidan, bo‘rtib chiqqan engagi jinoyatda «oxirigacha borishga» qaror qilganligidan darak beradi va hokazo. Ikkinchi guruhda aynan o‘sha chuqur joylashgan ko‘zlar tafakkurning teranligidan, turtib chiqqan engak esa qiyinchiliklarni yengishdagi iroda kuchidan darak beradi, deb baholangan. Shu bois, ichki ishlar organlari xodimlari o‘z faoliyatlarida shaxslararo idrok etish xususiyatlarini inobatga olishlari, ijtimoiy idrok effektlarining salbiy ta’sirlarini yo‘q qilishga, o‘zida va tergov qilinayotgan voqeaga daxldor shaxslarda ijtimoiy maylning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasliklari juda muhim. Masalan, tergovchi tanib oluvchini tanib olishga tayyorlash chog‘ida «Hozir sizni tunagan jinoyatchini tanib olishingiz kerak» kabi iboralardan qochishi lozim. Bunday iboralar jinoyatchini idrok etishga mayllik yuzaga kelishiga olib keladi, agar tanib olinayotgan shaxsning qiyofasi «jinoyatchi» stereotipiga mos kelmasa, bu tanib olish natijalarining noto‘g‘ri chiqishiga olib kelishi mumkin. Bunday hollarda «Hozir siz ko‘rsatilgan shaxslar orasida sizning pul solingan hamyoningizni tortib olgan odamni tanib olishingiz kerak» kabi neytral iboralardan foydalanish kerak. Bu maylning salbiy ta’siri imkoniyatini kamaytiradi¹.

Ichki ishlar organlari xodimlarining fuqarolar bilan psixologik aloqa o‘rnatish usullari

Muloqot turlarining keng ravishda amalga tatbiq qilinishi ushbu jarayonda insonning holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xohlagan axborotni muloqot jarayonida to‘liq berish, uning to‘g‘ri qabul qilinganligi haqidagi signal qoniqish holatini vujudga keltiradi va muloqot jarayonini faollashtiradi.

Har bir muloqotda bir nechta maqsad ko‘zda tutilishi mumkin. Masalan, tergovchi shaxsning voqealarga aloqadorligi qay darajada ekanligidan kelib chiqqan holda dalillarni yana bir marotaba tekshirib ko‘rish, o‘zidagi mavjud dalillarni boyitish maqsadini ko‘zlashi mumkin. Muloqot doimo inson tabiati bilan bog‘liq bo‘ladi, masalan, shaxs janjalkash bo‘lishi mumkin, janjal ziddiyatlar natijasida yuzaga keladi. Bunda shaxsning ziddiyatni keltirib chiqaradigan holatlarini o‘rganish kerak bo‘ladi.

Ichki ishlar organlari xodimi odamlar bilan muloqot qilishi uchun chuqur bilim va quyidagi ijtimoiy-psixologik fazilatlarga ega bo‘lishi kerak.

¹ Qarang: *Асямов С. В. Пулатов Ю. С. Ички ишлар идоралари ходимларининг касбий-психологик тренинги.* – Т., 2002. – Б. 75–80.

– notanish shaxslar bilan tezda muloqotga kirishish, ularga ma'qul bo'lish;

– boshqa shaxslarning gapini eshitish qobiliyatiga ega bo'lish;

– odamlarga psixologik ta'sir ko'rsata bilish;

– muloqot jarayonida psixologik to'siqlarni bartaraf etish va hokazo.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kommunikativ faoliyati maxsus jihatlarga ega bo'lib, u bir qator psixologik xususiyatlarni, birinchidan, ichki muloqotning o'ziga xos tomonlarini, ikkinchidan, uning qiyinligini ko'rsatadi.

Ushbu muloqotning muhim xususiyati uning kasbiy yo'nalganligidir. Zero, xodimlar jinoyat qilgan shaxslarni, guvohlar va jabrlanuvchilarni aniqlash maqsadida boshqa shaxslar bilan muloqotda bo'ladilar. Organ xodimlari haqiqatni ochishga harakat qilsalar, jinoyatchilar, aksincha, jinoyatni yashirishga, yolg'on ma'lumot berishga, jinoiy javobgarlikdan qutilishga intiladilar. Tergovchi protsessual qonunlar doirasida harakat qiladi, ya'ni jinoyatchi shaxsga nisbatan bo'lgan salbiy munosabatiga qaramasdan muloqot qilishga majbur.

Muloqot jarayonida obyektning o'ziga xos tomonlari borligini ham hisobga olish lozim. Shuni aytish joizki, ko'p holatlarda jinoyatchi shaxslar jamiyatdagi axloqsiz, odobsiz va vijdotsiz kishilar bo'ladilar. Natijada muloqot jarayonida har xil psixologik to'siqlar paydo bo'lib, ko'proq ular sun'iy ravishda vujudga keltiriladi.

Muloqot jarayonida quyidagi psixologik to'siqlar vujudga kelishi mumkin:

1) motivatsion to'siqlar;

2) aqliy to'siqlar (intelektual);

3) emotsional to'siqlar;

4) tarbiyaviy jarayondagi to'siqlar.

Motivatsion to'siqlar shaxsning muloqotga kirishishdan bosh tortishi, muomalani to'g'ri, aniq ko'rishda olib borilishini xohlamasligida namoyon bo'ladi.

Aqliy to'siqlar shaxsning xodimga nisbatan bilim doirasining kengligi, mantiqiy fikrlashining chuqurligi va huquqiy savodxonligi yuqori bo'lgan taqdirda vujudga keladi.

Emotsional to'siqlar muloqotga kirishuvchilarning psixologik va emotsional-irodaviy holatlaridan kelib chiqadi (tajovuzkorlik, qo'rquv, asabiylashish, xo'rlanish va boshqalar).

Tarbiyaviy jarayonlardagi to'siqlarga ichki ishlar organlari xodimlari tarbiyasi «qiyin» o'smirlar, nosog'lom oilalar va muqaddam sudlangan shaxslar bilan profilaktik chora-tadbirlar olib borayotgan vaqtda uchraydi.

Psixologik aloqa oʻrnatishning bir necha bosqichlari mavjud:

- 1) boʻlajak muloqotni bashorat qilish;
- 2) aloqani yengillashtiruvchi tashqi omillarni yaratish;
- 3) tashqi kommunikativ sifatlarning namoyon boʻlishi;
- 4) umumiy va betaraf qiziqish doiralarini aniqlash;
- 5) muomaladagi ogʻishlarni bartaraf etish;
- 6) individual taʼsir koʻrsatish.

Boʻlajak muloqotni bashorat qilish. Psixologik aloqa oʻrnatishning samarali boʻlishi uchun dastlabki rejalar boʻlishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun muloqotga kirishuvchi shaxs haqida zarur maʼlumotlarga ega boʻlish kerak. Bundan tashqari, shaxsning psixologik xususiyatlarini bilish ham aloqa oʻrnatishda yordam beradi. Shuningdek, shaxsning emotsional psixologik sifatlari: jizzakilik, tajovuzkorlik, yashirin xarakter, gumonsirash va boshqalar psixologik aloqa oʻrnatishga salbiy taʼsir etadi. Keltirilgan sifatlarni bashorat qilish davrida inobatga olinishi kerak.

Aloqani yengillashtiruvchi tashqi omillarni yaratish. Muloqotda namoyon boʻladigan har qanday holatlarda tashqi omillar ijtimoiy vaziyatlarga mos tushishi zarur. Suhbatdoshingizga hech nima xalaqit bermasligi va uni chalgʻitmasligi kerak. Suhbat davomida oʻzaro ishonch muhiti saqlanib qolinishi shart.

Tashqi kommunikativ sifatlarning namoyon boʻlishi. Nutq madaniyati, mimika, tashqi koʻrinish psixologik aloqa oʻrnatishda ijobiy natija beradi. Suhbatdoshingizda ham shunga qarab ijobiy emotsional holatlar yuzaga keladi, bu esa aloqa oʻrnatishda zarur omillardan hisoblanadi. Suhbatdosh bilan muloqotning boshidan hamfikir boʻlishga harakat qilish kerak.

Umumiy va betaraf qiziqish doiralarini aniqlash. Muloqotning boshida shaxs bilan umumiy til topish muhimdir. Bu vazifani hal etishda umumiy, shu bilan birga, betaraf qiziqishlar doirasi, masalan, tangalar, markalarni yigʻish, sport, sayohat va boshqa qiziqishlarni aniqlash yordam beradi. Umumiy qiziqishlarni qidirib topish ijobiy emotsional holatlarga olib keladi. Bu oʻz-oʻzidan muloqotda suhbatdoshni yaqinlashtiradi. Betaraf qiziqishlar psixologik muhitni yengillashtiradi va mavqeni tenglashtiradi.

Muomaladagi ogʻishlarni bartaraf etish. Shaxslar bilan psixologik aloqa oʻrnatish davrida muomaladagi ogʻishlarni bartaraf etishga diqqatni koʻproq qaratish kerak, chunki bu ogʻishlar, masalan, boʻlajak emotsional zoʻriqish, muloqotning shakllanishiga taʼsir etuvchi salbiy omillar, muloqot mobaynida begona shaxslarning aralashuvi va boshqalar muomalaga salbiy taʼsir etadi. Muomaladagi ogʻishlarni bartaraf etish – psixologik aloqa oʻrnatishning majburiy shartidir.

Individual ta'sir etish. Psixologik aloqa o'rnatishning yakuniy bosqichida xodim suhbatdoshga individual ta'sir ko'rsatishi lozim. Bu ta'sirning maqsadi suhbatdoshidan ishonchli ma'lumotlarni olish, shu bilan birga, kelajakda ishonchli aloqa o'rnatishdir.

Muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishida shaxsning shakllangan sifatleri, fazilatlarining ahamiyati juda katta. Jumladan, shaxsda ijobiy fazilatlar yaxshi shakllangan bo'lsa (xushmuomalalik, kamtarlik, insoniylik, to'g'ri so'zlik, vijdonlilik kabilar), muloqot jarayoni ham yaxshi o'tadi. Chunki shaxslar bir-birini to'g'ri tushunishlari, muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun samimiy bo'lishlari lozim.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, muloqot ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida yetakchi o'rinlarni egallaydi. Muloqotning verbal va noverbal turlari, ijtimoiy idrokning effektlari shaxslararo munosabatlarda hamma vaqt ishtirok etadi. Keltirib o'tilgan fikrlarni inobatga olgan holda quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1) muloqot murakkab jarayon bo'lib, inson hayotida muhim omil va shaxsning shakllanishida katta rol o'ynaydi;

2) muloqot ichki ishlar organlari xodimlari uchun kasbiy vazifalarini bajarishlarida asosiy vositadir;

3) muloqotni olib borish vositalarini to'g'ri qo'llash ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining samaradorligini oshiradi.

Ichki ishlar organlari xodimlari xizmat vazifalarini bajarishda aholi bilan muloqot qiladilar va, tabiiyki, ushbu faoliyatning samaradorligi ularning odamlar bilan muloqotga kirishish, psixologik aloqa o'rnatish qobiliyatiga bog'liq. Kommunikativ xususiyatlar ichki ishlar organlari xodimlari kasb mahoratining muhim tarkibiy qismidir.

Mavzu yuzasidan savollari va topshiriqlar

1. Kasbiy muomala ichki ishlar organlari faoliyatida qanday ahamiyatga ega?

2. Muloqotning qanday turlari mavjud?

3. Muloqotning psixologik vazifalari nimalardan iborat?

4. Verbal muloqotning ko'rinishlarini tushuntirib bering.

5. Noverbal muloqotning qanday ko'rinishlarini bilasiz?

6. Mimika va pantomimika nima?

7. Muloqot jarayonida qanday psixologik to'siqlar vujudga kelishi mumkin?

8. Psixologik aloqa o'rnatish qanday bosqichlardan iborat?

9-mavzu. FAOLIYAT PSIXOLOGIYASI

Psixologiyada faoliyat tushunchasi.

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatiga psixologik tavsif.

Kasbiy buzilish tushunchasi va ularning oldini olish yo'llari.

Psixologiyada faoliyat tushunchasi

Tirik mavjudotlarning atrofdagi olam bilan hayotiy ahamiyatiga molik bog'lanishlar bo'lishini ta'minlaydigan faoliyati ularga xos yalpi xususiyat hisoblanadi. *Faollik – bu tirik mavjudotda «o'z kuchi bilan javob qilish» qobiliyatining borligidir.*

Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo'nalishda harakat qilishga undaydigan *ehtiyojlar* uning faolligi manbai bo'lib hisoblanadi. *Ehtiyoj – jonli mavjudotning hayot kechirishidagi konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holatdir.*

Kishining *faolligi* ehtiyojlarining qondirilishi jarayonida namoyon bo'ladi. Xuddi shu o'rinda odamning faolligi shakllari bilan hayvonning xatti-harakatlari faolligi o'rtasidagi tafovutlar ayon bo'ladi. Hayvon o'z ehtiyojlarining obykti bo'lishi hamda unda ularni egallab olish uchun faol intilishga da'vat etishi ehtimoli borligini o'zining tabiiy tuzilishiga ko'ra bamisoli oldindan bilishi tufayli faollik bilan harakat qiladi. Hayvonlar ehtiyojining qondirilishi jarayoni ularning muhitga yaxshiroq moslashuvini ta'minlaydi.

Odamning faolligi va faollikning manbai bo'lgan insoniy ehtiyojlari tamomila boshqacha manzara kasb etadi. Shaxsning *ehtiyoji* uni tarbiyalash jarayonida, ya'ni kishilik madaniyati olami bilan yaqinlashtirish jarayonida shakllanadi.

Kishining o'z ehtiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shaklini egallashning faol, muayyan maqsadga yo'naltirilgan jarayoni sifatida alohida ajralib turadi.

Ehtiyojlar qondirilishi jarayonida rivojlanib va o'zgarib boradi. Kishining ehtiyojlarini to'la-to'kis qondirish va uni har tomonlama rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Shaxsning ehtiyojlari ham ijtimoiy, ham shaxsiy xarakterga egadir. Bu, birinchidan, hatto shunchaki tor ma'nodagi shaxsiy xarakterga ega bo'lib tuyuladigan ehtiyojlarni qondirish uchun ham ijtimoiy mehnat taqsimoti-

ning mahsulidan foydalanilishida o'z ifodasini topadi. Ikkinchidan, kishi o'z ehtiyojlarini qondirish uchun mazkur ijtimoiy muhitda tarixan tarkib topgan vositalar va usullardan foydalanadi, hamda muayyan shart-sharoitlarga ehtiyoj sezadi. Va nihoyat, uchinchidan, kishining ko'pgina ehtiyojlari uning tor ma'nodagi shaxsiy talab-ehtiyojlaridan ko'ra ko'proq kishi o'zi mansub bo'lgan va birgalikda mehnat qiladigan jamiyatning, jamoaning, guruhning ehtiyojlarini ifodalaydi. Jamoa ehtiyojlari kishining shaxsiy ehtiyojlari tusini kasb etadi.

Ehtiyojlar kelib chiqishiga ko'ra tabiiy va madaniy bo'lishi mumkin.

Tabiiy ehtiyojlarda kishining faollik kasb etayotgan faoliyati, uning hayoti va uning avlodi hayotini saqlash, uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarga bo'ysunganlik ifodalanadi. Barcha odamlarda ovqatlanishga, suv ichishga, qarama-qarshi jinsning mavjud bo'lishiga, uxlashga, sovuqdan va haddan ziyod issiqdan saqlanishga va hokazolarga tabiiy ehtiyoj bo'ladi. Agar tabiiy ehtiyojlardan qaysi biri biron darajada uzoq vaqt davomida qondirilmasdan qolsa, odam muqarrar ravishda halok bo'ladi yoki sulolasini davom ettirish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Madaniy ehtiyojlarda odamning faol faoliyati insoniyat madaniyatining mahsuliga bog'liq ekanligi ifodalanadi. Uning ildizlari butunlay kishilik tarixining sarhadlariga borib taqaladi. Turli iqtisodiy va ijtimoiy tuzum sharoitida kishida uning tarbiyasiga va xulq-atvorning keng yoyilgan hamda udum bo'lgan odatlari va shakllarini o'zlashtirishiga bog'liq holda turli xildagi madaniy ehtiyojlari tug'iladi. Agar kishining madaniy ehtiyojlari qondirilmasa, u halok bo'lmaydi, lekin undagi odamiylik sifatleri jiddiy zararlanadi.

Ehtiyojlar o'z predmetining xarakteriga ko'ra *moddiy* va *ma'naviy* bo'lishi mumkin.

Moddiy ehtiyojlarda kishining moddiy madaniyat predmetlariga qaramligi (ovqatlanishga, kiyinishga, uy-joyga, maishiy turmush ashyolariga va boshqa narsalarga ehtiyoj sezishi), *ma'naviy ehtiyojlarda esa* ijtimoiy ong mahsuliga tobeligi ifodalanadi. Ma'naviy ehtiyojlar ma'naviy madaniyatni yaratish va o'zlashtirishda o'z aksini topadi.

Ma'naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlar bilan uzviy bog'liqdir. Ma'naviy ehtiyojlarni qondirish uchun, moddiy ehtiyojlar predmeti hisoblanmish moddiy narsalar (kitoblar, gazetalar, yozuv va nota qog'ozlari va shu kabilar) talab qilinishi, shubhasiz.

Ehtiyojlarning qondirilishi bilan bog'liq bo'lgan faoliyatga undovchi va uning yo'nalishini belgilovchi sabablar *motivlar* deyiladi. Unda subyektning faolligi namoyon bo'ladi.

Turli kasb egalari faoliyati motivlarini o'rganishda motivlar xarakterini bilish va ularni o'zgartirish muammosi ahamiyatga ega. Shunday motivlardan biri turli xil faoliyat sohalarida muvaffaqiyatga erishish motivi bo'lib, bunday nazariyaning asoschilari amerikalik olimlar D. Maklelland, D. Atkinson va nemis olimi Xekxauzenlar hisoblanadi. Ularning fikricha, odamda turli ishlarni bajarishini ta'minlovchi asosan ikki turdagi motiv bor: *muvaffaqiyatga erishish motivi hamda muvaffaqiyatsizliklardan qochish motivi*. Odamlar ham u yoki bu turli faoliyatlarga kirishishida qaysi motivga mo'ljal qilishlariga qarab farq qiladilar. Masalan, faqat muvaffaqiyat motivi bilan ishlaydiganlar oldindan ishonch bilan shunday ish boshlaydilar, nima qilib bo'lsa ham yutuqqa erishish ular uchun oliy maqsad bo'ladi. Ular hali ishni boshlamay turib, yutuqni kutadilar va shunday ishni amalga oshirsa, odamlar ularning barcha harakatlarini ma'qullashlarini biladilar. Bu yo'lda ular nafaqat o'z kuch va imkoniyatlarni, balki barcha imkoniyatlar – tanish bilishlar, mablag' kabi omillardan ham foydalanadilar.

Boshqa xulq-atvorni muvaffaqiyatsizlikdan qochish motiviga tayangan shaxslarda kuzatish mumkin. Masalan, ular birinchilardan farqli, ishni boshlashdan avval nima bo'lsa ham muvaffaqiyatsizlikka duchor bo'lmaslikni o'ylaydilar. Shu tufayli ularda ko'proq ishonchsizlik, yutuqqa erishishga ishonmaslik, pessimizmga o'xshash holat kuzatiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, oxir-oqibat ular biri bir muvaffaqiyatsizlikka uchrab, «*o'zi sira omadim yurishmaydigan odamman-da*» degan xulosaga keladi.

Hayvonning xatti-harakati hamisha u yoki bu ehtiyojni qondirishga bevosita yo'naltirilgan bo'ladi. Ehtiyoj hayvonni faqat faollikka undab qolmasdan, balki ushbu faollikning shakllarini ham belgilaydi.

Odamning xulq-atvori esa butunlay boshqacha tarkib topgandir asl ma'nodagi ehtiyojning o'zi emas, balki uni qondirishning jamiyatda qabul qilingan usullari xatti-harakatning shakllarini keltirib chiqara boshlaydi.

Agar hayvonlarning xatti-harakati butunlay atrof-muhit bilan belgilansa, kishining faolligi uning ilk yoshlaridanoq butun insoniyat tajribasi va jamiyat talablariga ko'ra yo'naltirib boriladi.

Faoliyat – kishini anglanilmagan maqsad bilan boshqarib turadigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligidir.

Faoliyat bilish va iroda bilan chambarchas bog'liq bo'ladi, ularga tayanadi, bilish va irodaviy jarayonlarsiz yuz berishi mumkin emas.

Faoliyat – voqealikka nisbatan faol munosabat bildirishning shunday bir shaklidirki, u orqali kishi bilan uni qurshab turgan olam o'rtasida real bog'lanish hosil qilinadi. Shaxs faoliyat orqali tabiatga, narsalarga, boshqa kishilarga ta'sir ko'rsatadi.

Faoliyatning yolg'iz bitta oddiy joriy vazifani bajarishga yo'naltirilgan nisbatan tugallangan har bir shunday qismini *harakat* deb atash mumkin.

Harakat qay yo'sinda nazorat qilib boriladi? Bu o'rinda ko'p narsa aniqlangan emas. Bu shubhasiz sezgi a'zolari (ko'rish, eshitish, mushaklar sezgisi) vositasidagina ro'y berishigina mumkin.

Ko'rib turganimizdek, ushbu barcha mo'ljallar sa'yi-harakatlarni alohida o'ziga emas, balki harakat maqsadiga muvofiq tarzda belgilaydi. Kishining maqsadi ko'pincha muayyan vaqt ichida yo'q va harakatlar yordamida erishishi mumkin bo'lgan narsalardan iborat bo'ladi. Demak, maqsad miyada faoliyatning bo'lajak natijasining timsoli, o'zgarib turadigan andozasi tarzida namoyon bo'ladi. Aynan, o'sha orzu qilingan (ehtiyoj sezilsa) bo'lg'usi andoza bilan harakatning amaldagi natijalari taqqoslanadi, aynan o'sha andoza sa'yi-harakatlarning shakl-taomilini belgilab va to'g'rilab turadi.

Tashqi, real harakatdan ichki, timsoliy harakatga bu xildagi o'tish jarayonini *interiorizatsiya* (tom ma'nosi bilan aytganda ichki tarzga aylanish) deb ataladi. Interiorizatsiya tufayli kishi psixikasi ma'lum bir vaqt ichida nazari e'tiborida bo'lmagan narsalarning timsolida foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Kishi muayyan daqiqa chegaralaridan tashqariga chiqib «*Xayolida*» o'tmishga va kelajakka, vaqtga va bo'shliqqa erkin ko'chib o'tadi».

Psixologiya interiorizatsiyaning qanday yuz berishini barcha jihatlariga qadar to'la bilmaydi. Lekin shu narsa aniq isbot qilinganki, bunday o'zgarishning muhim quroli bo'lib so'z, o'zgarish vositasi bo'lib esa nutqiy faoliyat xizmat qiladi. So'z buyumlarining muhim xossalarini va axborotdan foydalanishning insoniyat amaliyotida yuzaga kelgan usullarini belgilaydi va o'zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham so'zlarni to'g'ri ishlatishga o'rganish ayni chog'da buyumlarning muhim xususiyatlarini va axborotdan foydalanishning usullarini o'zlashtirishdan iboratdir.

Kishi faoliyatining tashqi (jismoniy) va ichki (psixik) jihatleri chambarchas bog'liqdir. Tashqi jihat – odam tashqi olamga ta'sir ko'rsatish uchun qiladigan sa'yi-harakatlar – motivlashtiruvchi, bilishga undovchi va boshqaruvchi ichki (psixik) faoliyat bilan belgilanadi va yo'naltiriladi. Ikkinchi tomondan, butun ana shu ichki, psixik faoliyat buyumlar va jarayonlarning xususiyatlarini o'zida namoyon qiladigan, ularning maqsadga muvofiq tarzda qayta o'zgartirilishini amalga oshiradigan, psixik andozalarning o'xshashlik darajasini, shuningdek erisqilgan natijalar va harakatlarning kutilganlariga muvofiqligi darajasini ko'rsatadigan tashqi jihat tomonidan yo'naltirilib va nazorat qilinib turiladi.

Shunga muvofiq tarzda tashqi, konkret, faoliyatni ham ichki, psixik faoliyatning *eksterizatsiyalashuvi* (tom ma'noda ichki tarzda aylanishi) deb qarash mumkin.

Shunday qilib, faoliyat haqida gapirish mumkin bo'lishi uchun kishi faolligida anglanilgan maqsadning mavjudligini aniqlash lozim. Faoliyatning barcha qolgan jihatlari uning motivlari, bajarilish usullari, tegishli axborotni tanlash va qayta ishlash anglanilgan bo'lishi ham, anglanilmagan bo'lishi ham mumkin.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, psixologiya fanida insonlarning xatti-harakati xulq-atvorining yuzaga kelishi ko'p jihatdan ularni qurshab turgan makro, mikro va mize muhitga bog'liq. Insonni hayvonot olamining xususiyatlari bilan qiyoslashga harakat qilsak, u holda mutlaqo boshqacha voqelikning shohidi bo'lishimiz mumkin. Chunonchi, shaxs o'zining faolligi bilan hayvonot olamidan farqli o'laroq ajralib turadi, mazkur harakatlantiruvchi kuch (faollik) ilk bolalik yoshidan e'tiboran ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davomida to'plangan insoniyatning tajribasiga va jamiyatning qonun-qoidalarini egallashga yo'naltirilgan bo'ladi. Uzoq davrlar davom etgan maxsus jarayonning ta'sirida sodda tarzda xatti-harakatda faollik ustuvorlik qilganligi tufayli o'zining yuqori bosqichiga o'sib o'tib, yangicha mazmun mohiyat, shakl va sifat kashf etgan. Faollik negizida paydo bo'luvchi o'zgacha sifatni, o'ziga xoslikni egallagan xatti-harakatning yuksak ko'rinishi, faqat insongagina taalluqliligi orqali u psixologiya fanida faoliyat deb nomlana boshlandi. Faoliyat faollikning shaxsga xos turi sifatida vujudga kelib, u o'zining psixologik alomatlari bilan xatti-harakatdan tafovutlanadi. Uning farqli alomatlari tavsifi yuzasidan maqsadga muvofiq mulohazalar yuritish ayni muddaodir.

Har qanday faoliyat real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Qilinayotgan har bir harakat ma'lum narsa va hodisalarga qaratilgani uchun ham, faoliyat predmetli harakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Predmetli harakatlar tashqi olamdagi predmetlar xususiyatlari va sifatini o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, ma'ruzani konspekt qilayotgan tinglovchining predmetli harakati yozuvga qaratilgan bo'lib, u avvalo o'sha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o'zgarishlar qilish orqali, bilimlar zaxirasini boyitayotgan bo'ladi. Faoliyatning va uni tashkil etuvchi predmetli harakatlarning aynan nimalarga yo'naltirilganligiga qarab, tashqi va ichki faoliyat farqlanadi. Tashqi faoliyat shaxsni o'rab turgan tashqi muhit va undagi narsa hodisalarni o'zgartirishga qaratilgan faoliyat bo'lsa, ichki faoliyat – birinchi navbatda aqliy faoliyat bo'lib, u sof psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Dastlab predmetli

tashqi faoliyat ro'y beradi, tajriba orttirilib borgan sari, sekin-asta bu harakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Buni nutq faoliyati misolida oladigan bo'lsak, bola dastlabki so'zlarni qattiq tovush bilan tashqi nutqida ifoda etadi, keyinchalik ichida o'zicha gapirishni o'rganib, o'ylaydigan, mulohaza yuritadigan, o'z oldiga maqsad va rejalar qo'yadigan bo'lib boradi.

Har qanday sharoitda ham barcha harakatlar ham ichki psixologik, tashqi muvofiqlik nuqtai nazardan ong tomonidan boshqarilib boradi. Har qanday faoliyat tarkibida ham aqliy, ham jismoniy motor harakatlar mujassam bo'ladi. Masalan, fikrlayotgan donishmandni kuzatganmisiz? Agar o'ylanayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi yetakchi faoliyat aqliy bo'lgani bilan uning peshonalari, ko'zlari, hattoki tana va qo'l harakatlari juda muhim va jiddiy fikr xususida bir to'xtamga kelolmayotganidan yoki fikrni topib, undan mamnuniyat his qilayotganidan darak beradi. Bir qarashda tashqi elementlar ishni amalga oshirayotgan – misol uchun uzum ko'chatini ortiqcha barglardan xalos etayotgan bog'bon harakatlari ham aqliy komponentlardan holi emas, u qaysi bargning va nima uchun ortiqcha ekanligini anglab, bilib turib olib tashlaydi.

Aqliy harakatlar shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli-tuman harakatlaridir. Eksperimental tarzda shu narsa isbot qilinganki, bunday harakatlar doimo motor harakatlarni ham o'z ichiga oladi. Bunday harakatlar quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

1. Perseptiv – ya'ni bular shunday harakatlarki, ularning oqibatida atrofdagi predmetlar va hodisalar to'g'risida yaxlit obraz shakllanadi.

2. Mnemik faoliyat – narsa va hodisalarning mohiyati va mazmuniga aloqador materialning eslab qolinishi, esga tushirilishi hamda esda saqlab turilishi bilan bog'liq murakkab faoliyat turi.

3. Fikrlash faoliyati – aql, fahm-farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboqlarni yechishga qaratilgan faoliyat.

4. Imajitiv faoliyati – u ijodiy jarayonlarda xayol va fantaziya vositasida hozir bevosita ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini anglash va xayolda tiklashni taqozo etadi.

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatiga psixologik tavsif

Ichki ishlar organi xodimlarini kasbiy faoliyatning bir nechta xususiyatlari mavjuddir. Ushbu xususiyatlar xodimlarning ruhiy tayyorgarligiga

salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Ichki ishlar organi xodimlari faoliyatining xususiyatlaridan biri bu *ichki ishlar organi xodimlari faoliyatining huquqiy jihatdan tartibga solinganligidir*. Xodimlarning faoliyati huquqiy normalar (qonun hujjatlari, IIV normativ hujjatlari, buyruq va shu kabilar) bilan qat'iy tartibga solingan. Ushbu xususiyat ichki ishlar organi xodimlarining kasbiy faoliyatini normativ hujjatlar, yo'riqnomalar va buyruqlar belgilab beradi va mehnatni samarali tashkil etish haqidagi shaxsiy tasavvurlarini erkin amalga oshirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Ichki ishlar organi xodimining faoliyatini qonun normalari bilan qat'iy belgilanganligi, uning xatti-harakatini tartibga soladi. Xodimning o'z xizmat vazifalarini bajarmasligi yoki bajarishdan bosh tortishi uning u yoki bu qonunni buzishi hisoblanadi va bu O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 280-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi¹. Bularning hammasi oxir-oqibatda xodimga o'z qarorlari va harakatlari uchun katta mas'uliyat yuklaydi.

Ichki ishlar organi xodimlari faoliyatining yana bir psixologik xususiyati *hokimiyat vakolatiga egaligidir*. Ish manfaati yo'lida xodimlarga zarur hollarda odamlarning shaxsiy hayotiga aralashish, ko'pincha atrofda-gilardan yashirishga harakat qilinadigan holatlarni aniqlash, fuqarolarning turar joylariga kirish, zarur hollarda ayrim fuqarolarning erkinligini chek-lash va hatto undan mahrum qilish huquqi berilgan.

Bunday hokimiyat vakolati berilgan xodimning psixologik holatini avvalo yuksak darajadagi mas'uliyat belgilab beradi. Uning o'z vakolat-larini qo'llashi esa harakatlarining zarurligi va oqilonaligini, qonuniy asos-ga egaligini aniqlash imkonini beradigan bir qator masalalarni hal qilishni taqozo etadi. Ko'pincha bu hol qonunda belgilangan moddalardan birini tanlash zarurati bilan bog'liq bo'ladi, shu bois bu xodimdan juda katta hissiy zo'riqishni talab etadi. Berilgan vakolatdan oqilona va qonuniy ravishda foydalana olish — ichki ishlar organlari xodimlariga qo'yiladigan juda muhim kasbiy talablardan biridir. Hokimiyat vakolatidan foydalanishning qonunga va maqsadga muvofiqligi ko'p hollarda xodimning shaxsiy xislat-lariga bog'liq.

Xodimlar kasbiy faoliyatining muhim psixologik xususiyatlaridan biri **manfaatdor shaxslarning doimiy ravishda qarshilik ko'rsatishi va to'sqinlik qilishidir**. Bu xodimning jinoyatlarni ochish, tergov qilish va ularning oldini olishga qaratilgan faoliyatiga ba'zan juda keskin shakllarda kechadigan kurash tusini beradi. Xodimning yo'lga atayin qo'yiladigan to'siqlarni yengish, xavfli vaziyatlarni bartaraf etish zarurati unda turli hissiy va ruhiy zo'riqishlarni keltirib chiqaradi. Bu esa o'z navbatida

xodimdan doimiy asabiy zo'riqishni va zo'r aqliy faoliyatni talab etadi. Natijada xodim doimiy ravishda murakkab aqliy faoliyatni amalga oshirish, o'z maqsadlarini yashirish, haqiqiy ijtimoiy vazifalarini niqoblashga majbur bo'ladi.

Ichki ishlar organlari xodimlarini kasbiy faoliyatining o'ziga xos jihatlaridan yana biri bu keng doiradagi muhit bilan muomala qila olish qobiliyatini bildiruvchi **kommunikativlikdir**. Bu ko'p tomonlama va alohida xususiyatga ega bo'lgan xislatdir. Xodim o'z faoliyati davomida turli yoshdagi, kasbdagi va turli huquqiy maqomga ega bo'lgan shaxslar bilan muomala qilishga to'g'ri keladi. Bu esa xodimdan shaxs psixologiyasini, xususan muomalaning psixologik asoslarini bilishni talab etadi. Xodimning kommunikativligi turli xil tergov, operativ qidiruv va profilaktik tadbirlarni to'g'ri tashkil qilish uchun nihoyatda zarurdir.

Xodim kommunikativligining alohida jihati shundaki, u xodimdan boshqa qiyofaga kirishni talab etadi. Ushbu zarurat uning o'z faoliyati sohasiga kiradigan barcha shaxslar bilan psixologik aloqaga kirishishi muhimligidan kelib chiqadi.

Vaqt tanqisligi va ishning haddan tashqari ko'pligi ham xodim kasbiy faoliyatining xususiyatlariga kiradi. Tezkorlik va saramjonlik jinoyatlarni ochish va tergov qilishning asosiy prinsiplariga kiradi. Jinoyatchi erkinlikda qancha ko'p yursa, unda javobgarlikdan qutilish, o'z jinoiy faoliyatining izlarini yo'qotish va tergovdan qochib yashirinish imkoniyati shunchalik ko'p bo'ladi. U vaqtdan yutadi. Paysalga solish muvaffaqiyatsizlikka olib keladi.

Vaqt tanqisligi esa, jinoyat ishini tergov qilish, fuqarolarning arizalarini ko'rib chiqish kabi jinoiy protsessual hujjatlarga rioya etish zarurligida namoyon bo'ladi. Xodim shu tufayli doimo asabiy zo'riqishda bo'ladi.

Asabiy zo'riqish xodim faoliyatining yuqori ekstremalligi, nizoli, vaziyatlar sharoitida harakat qilish, turli stress omillar ta'siri, me'yorsiz ish kuni, faoliyatida salbiy his-hayajonlarning mavjudligi tufayli yuzaga keladigan katta jismoniy va ruhiy zo'riqish bilan bog'liq. Chunki xodim kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladigan murakkab sharoitlarga duch keladi.

Albatta, xodimning kasbiy faoliyatiga yorqin ifodalangan *bilish xususiyati* xosdir. Bu esa turli xil qiyinchiliklarni, fikriy vazifalarni turlicha hal qilishnigina emas, balki ushbu qarorlarni amalga oshirishni tashkil etishni ham talab etadi. Bunda turli tasmollar tuzish, operativ xizmat tadbirlarini amalga oshirish uchun ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan sof aqliy faoliyatni amalga oshiradigan ishni amalda tashkil qilish kerak bo'ladi. Shu nuqtai nazardan ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida

asosiy psixologik tizimlar mavjud: *bilish faoliyati, konstruktiv, tashkilotchilik va kommunikativ faoliyat*. Xodimlarning amaldagi faoliyatida ushbu tarkibiy qismlarning har biri sof holda uchramaydi. Ularning hammasi uzviy birlikda namoyon bo‘ladi.

Bilish faoliyati. Xodim faoliyati uchun bilish jarayonining ahamiyati nihoyatda kattadir. Bilish faoliyatini amalga oshirmay turib jinoyatchilikka qarshi kurashishning samarasi bo‘lmaydi. Bilish faoliyatisiz umuman faoliyatni ham, yuqorida ko‘rsatilgan barcha tarkibiy qismlarni ham amalga oshirib bo‘lmaydi. Bilish jarayoni natijasidagina xodimda harakatlarini maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash vazifalarini bajarish uchun xodim, bilish jarayonlari asosida hozirgi vaqtdagi, o‘tmishdagi va kelgusidagi voqealarga taalluqli faktlar, holatlar, salbiy aloqalarni aniqlaydi. Masalan, sodir etilgan jinoyatlarni ochishga qaratilgan vazifalarni amalga oshirishda, operativ qiziqish uyg‘otuvchi shaxslarni aniqlashga doir ma’lumotlarni to‘plash va ushbu ma’lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirishda hamda ularning kelgusidagi g‘ayriqonuniy harakatlarini oldindan ko‘ra bilishda bilish jarayonlariga asoslaniladi.

Faoliyatning konstruktivligi – deganda, jinoyatlarni ochish, tergov qilish, ularning oldini olish, yashiringan jinoyatchilarni qidirib topish kabi harakatlarni rejalashtirishga qaratilgan tafakkur faoliyati tushuniladi. Ya’ni konstruktiv faoliyatda, bilish faoliyatining bosqichlari rejalashtiriladi, bunda bizga noma’lum bo‘lgan voqelikni qanday ketma-ketlikda izlashimiz kerakligi haqidagi savolga javob beriladi. Boshqacha aytganda, xodimning izlanishi va konstruktiv faoliyati yagona fikrlash jarayonining turli bosqichlarini ifodalovchi omildir.

Tashkilotchilik faoliyati. Ushbu faoliyat, xodimning o‘z kasbiy faoliyati jarayonida turi vazifalarni amalga oshirish uchun maqbul sharoitlarni ta’minlovchi bosh omildir. Uning mazmuni jinoyatlarni ochish, tergov qilish, ularning oldini olish jarayonlarini boshqarishda namoyon bo‘ladi. Ushbu mazmuni operativ rahbarlikda, hisob va nazoratda, ushbu jarayon ishtirokchilari o‘rtasida hamkorlikni uyushtirishda kuzatish mumkin. Mazkur faoliyat xodimlarning o‘z xizmat topshiriqlarini bajarishlarida axborot berish va almashishlarida hamda operativ qiziqish uyg‘otgan shaxslarning harakatlarini oldindan ko‘ra bilishda katta ahamiyatga ega.

Kommunikativ faoliyat. Yuqorida ta’kidlanganidek, xodimning kasbiy faoliyati, uning keng kommunikativligi (muloqotmandligi) bilan ajralib turadi. Uning kommunikativ faoliyati, muloqot, ya’ni amaliy tezkor xizmat vazifalarini bajarish maqsadida atrofida gilar bilan bevosita nutqiy aloqa

qilish orqali zarur ma'lumotlarni olishda namoyon bo'ladi. Muloqot jarayonida ta'sir etish uchun xodimdagi yuksak aql va bilimdonlik, kuchli iroda, shuningdek uning insoniylik sifatlarini belgilovchi shaxsiy xislatlari uyg'unlashishi kerak.

Xodim kasbiy faoliyatining asosiy psixologik xususiyatlari va tarkibiy elementlarini ko'rib chiqish ham uning faoliyati qanchalik murakkab va serqirraligidan dalolat beradi. Kasbiy faoliyat xodimga ko'plab turli xil talablar qo'yadi, ular orasida eng muhimlaridan biri – *shaxsda kasbiy muhim xislatlarning rivojlanganlik darajasi bo'lib, ular navbatda quyidagilardan iborat:*

- xodim shaxsiga xos xislatlarning kasbiy-psixologik yo'nalganligi;
- xodimning psixologik tayyorgarligi;
- rivojlangan irodaviy xislatlar
- nostandart vaziyatlarda o'zini tuta bilish, jasurlik, mardlik, oqilona tavakkalga moyillik;
- yaxshi rivojlangan kommunikativ xislatlar;
- turli toifadagi shaxslar bilan tezda aloqaga kirisha olish, ishonchli munosabatlar o'rnatish olish va sir saqlay olish;
- turli xil tezkor xizmat vazifalarini bajarishda odamlarga psixologik ta'sir ko'rsatish olish qobiliyati;
- rolga, boshqa qiyofaga kira olish;
- rivojlangan, kasbiy jihatdan muhim bilish xislatlari: kuzatuvchanlik va diqqatlilik, rivojlangan xotira, ijodiy tasavvur;
- rivojlangan mantiqiy tafakkur, murakkab aqliy ishga moyillik, farosat, rivojlangan intuitsiya;
- ziyraklik, murakkab vaziyatdan chiqib keta olish.

Ushbu xislatlar insonga avvaldan xos emas. Ularni shakllantirish va rivojlantirish – davomli va qiyin jarayon, ammo u ichki ishlar organlari xodimining kasbiy shakllanishi uchun zarur va shartdir.

Ushbu xislatlarning xodim shaxsida bo'lmasligi yoki yetarli rivojlanmaganligi uning o'z funksional vazifalarini to'g'ri va aniq bajarishiga xalaqit beradi, shaxsning o'z kasbiga moslasha olmasligi va kasbiy buzilishiga olib keladi. Shu munosabat bilan, xodimlarda ushbu xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan kasbiy-psixologik tayyorgarlik katta ahamiyat kasb etadi. Birinchi savolga xulosa sifatida quyidagi ichki ishlar organi xodimlarini kasbiy faoliyatining psixologik xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) ichki ishlar organi xodimlari faoliyatining huquqiy jihatdan tartibga solinganligi;
- 2) hokimiyat vakolatiga ega ekanligi;

- 3) manfaatdor shaxslarning doimiy ravishda qarshilik ko'rsatishi va to'sqinlik qilishi;
- 4) kommunikativ faoliyati;
- 5) vaqt tanqisligi va ishning haddan tashqari ko'pligi;
- 6) bilish faoliyati, konstruktiv, tashkilotchilik va kommunikativ faoliyat.

Yuqorida qayd etilgan omillar ichki ishlar organi xodimlarining kasbiy faoliyatini ma'lum bir huquqiy tizimga soladi va ish jarayonini samarali tashkil etishda hamda shaxsiy tasavvurlarini erkin amalga oshirishda katta imkoniyat yaratadi.

Kasbiy buzilish tushunchasi va ularning oldini olish yo'llari

Ichki ishlar organlari xodimlari jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurashish borasida o'z faoliyatlarini amalga oshirar ekanlar ayrim hollarda fuqarolarning huquq va erkinliklariga taalluqli qonunchilikni buzish holatlari uchrab turadi. Bunday holatlar «ba'zi xodimlar respublikamizning amaldagi qonunchilik asoslarini to'liq tushunib yetmasliklari oqibatida yuzaga keladi», degan huquqiy determinizm nuqtai nazari mavjud va aytib o'tish lozimki, bunday qarash asoslidir. So'nggi paytlarda huquqbuzarliklarning psixologik holatlarini o'rganish, ularning oldini olishda psixoprofilaktika ishlarini olib borish borasidagi izlanishlar faollashib bormoqda. Bunday yondashuv insonga nafaqat huquqiy munosabatlar subyekti sifatida, balki his-tuyg'u, aql-zakovat va o'ziga xos ijtimoiy tajribaga ega shaxs sifatida qarashga yordam beradi. Bu esa huquq tartibot faoliyatining xalqchilligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur qo'llanmada biz huquqbuzarlikning huquqiy tomonlarini yoritish bilan bir qatorda sohamiz uchun yangi bo'lgan psixologik yondashuvlarini ham yoritib o'tamiz.

Huquqbuzarlik qonun va boshqa huquqiy normalarga rioya qilmaslik natijasida jismoniy yoki yuridik shaxslarning qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazishida ifodalanadi.

Ichki ishlar organlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, birinchi navbatda respublikamiz uchun har tomonlama yetuk va munosib kadrlar tayyorlash masalasini kun tartibiga qo'yimoqda. Ayni damda olib borilayotgan islohot va kadrlar tayyorlash dasturlari e'tiborni xodimlarda mavjud kasbiy xususiyatlarga qaratishini, ularning jismonan, ma'nan sog'lomligi, dunyoqarashi, fikrlash doirasining kengligi, Vatan himoyasida o'z aqida-

lariga sodiqligi, o‘quv va ish jarayonida axborot, bilim va tajribalarni o‘zlashtirishda shaxsning psixik xususiyatlari dolzarb ahamiyatga molik ekanligini ta’kidlamoqda.

«Ichki ishlar organlari rahbar xodimlarining mas’uliyatini oshirish, qattiqqo‘llik, qat’iyat bilan ish olib borish, o‘zini ham, boshqalarni ham ayamadan, ko‘pchilikni o‘z ibrati bilan ortidan ergashtirishi, buning uchun rahbarning, avvalo, o‘zi halol va xolis bo‘lib, adolat bilan ish yuritishi, poraxo‘rlik hamda tanish- bilishchilik kabi salbiy holatlarga qarshi kurashishni kuchaytirishi kerak»¹.

Fuqarolar tomonidan xodimlarning salbiy xatti-harakatlari doim ham tanqid qilinavermaydi yoki fuqarolar adolat o‘rnata olmasligiga ishonchi ortgan sari bunday holatga qo‘l siltaydilar, oqibatda hech qanday jazoga tortilmay qolgan xodimlar tomonidan qo‘pollik, tan jarohatlari yetkazish, haqorat, tamagirlik yoki poraxo‘rlik, xizmat vakolatini suiiste‘mol qilish kabi qonunbuzilishlar davom etaveradi.

Fuqarolik huquqlari poymol bo‘layotgan vaqtda ham odamlar zo‘ravon xodimlarga bas kelishga hadlari sig‘maydi va xodim javobgarlikdan osongina qutulib ketadi.

Xo‘sh, xodimlarning kasbiy buzilishlariga qanday omillar sabab bo‘lmoqda?

Masalan, Rossiyada bu muammoni bir qator ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish natijasida psixolog A. V. Budanov 3 ta asosiy omillar guruhiga bo‘lib o‘rgandi, ya’ni:

- xizmat sohasining o‘ziga xosligi (spetsifikasi);
- shaxsiy fazilatlar omili;
- ijtimoiy-psixologik².

S. Medvedevning fikricha, xodimning soha yo‘nalishi uning huquqbuzarlikka ta’sirchanligiga ta’sir qiluvchi asosiy omildir. Xususan, uning tadqiqoti natijasida eng kuchli ta’sir darajasi jinoyat qidiruv xodimlarida, o‘rtacha ta’sir darajasi patrul-post xizmati va tergov xodimlarida, past ta’sir darajasi esa pasport va shaxsiy tarkib bilan ishlash sohalarida aniqlangan.

Bu tadqiqotni o‘tkazgan Rossiya psixologlari xodimlarning kasbiy buzilishlarini ularning ish tajribasi bilan solishtirganlarida quyidagi natijalarni taqdim qilmoqdalar:

¹ ИИВнинг 28. 01. 2011 йил кунги № 19 буйруғи.

² Буданов А.В. Работа с сотрудниками органов внутренних дел по профилактике профессиональной деформации: Практическое пособие для руководящих работников УВД, ОВД, служб по работе с личным составом, подразделений морально-психологического обеспечения деятельности ОВД. – М., 1992.

1. 5 yilgacha ishlagan xodimlarda kasbiy tanazzul arzimas bo‘lib, bu toifa xodimlar xizmat sirini endi tushunib borayotganlar deb hisoblaymiz.
2. 6–10 yil ishlayotganlar o‘rtacha darajada.
3. 11–15 yil ishlayotganlar kasbiy buzilish darajasi juda yuqori.
4. 15 yildan ortiq ishlayotganlarda esa axloqiy-kasbiy buzilishlar bo‘lishi aniq.

Biroq har qanday statistik ma’lumotlarning nisbiylikni inobatga olish lozim. Shu bilan birgalikda, bu axloqiy-kasbiy buzilgan xodimning har biri pora oladi yoki tamagirlik qiladi degani emas. Shaxsiy tarkib bilan ishlash xizmatidagi ko‘p yillik kuzatishlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, ko‘p yillar ishlagan xodimlarda xizmat vazifalarini bajarishga nisbatan beparvolik, loqaydlik, sansalorlik (masalan fuqarolarning arizalarini ko‘rishda) kabi illatlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi hollari ko‘plab uchramoqda. Bularning sababi esa xodimning asosan surunkali ruhiy va jismoniy jihatdan zo‘riqishdir.

Axloqiy-kasbiy buzilishning xavfli tomoni shundaki, uning eng past darajasi ham ichki ishlar organlari xodimlarining shaxsiy va xizmat qobiliyatlariga jiddiy zarar yetkazadi.

Psixologik nuqtai nazardan yondashuvda bu muammoga xodimning shaxsiy xususiyatidan kelib chiqish qabul qilingan.

Xodimlarning kasbiy buzilishida ularning shaxsiy xususiyatlari ta’sirini rus psixologi A. V. Budanov quyidagicha tahlil qiladi¹:

1) xodimning intellekti ta’siri (ya’ni u mustaqil fikrlash va mustaqil qaror qabul qilishi tormozlanadi, mustaqil tarzda o‘z ustida ishlashi va kasb mahoratini oshirishda layoqatsiz bo‘lib qoladi, ekstremal yoki kutilmagan vaziyatda qaror qabul qila olmaydi);

2) shaxsiy salbiy fazilatlar ta’siri (ochko‘zlik, qo‘pollik, tajovuzkorlik, faqat o‘z manfaatlarini ko‘zlash, bilimsizlik, to‘porilik, o‘z shaxsiga yuqori baho berish) kabi.

Bu xususiyatlar xizmat ta’sirida (vakolat doirasining kengligi, xizmat kiyimidan havolanish, hammaning diqqat-markazida bo‘lish) xodimga yanada o‘ziga yuqori baho berishiga sababchi bo‘lib qolishi mumkin.

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining samarasini belgilovchi shaxsiy xususiyatlarini aniqlash uchun, avvalo, ushbu faoliyatning psixologik jihatlarini tahlil qilish, o‘ziga xos tomonlarini aniqlash, shu orqali bu

¹ Буданов А.В. Работа с сотрудниками органов внутренних дел по профилактике профессиональной деформации: Практическое пособие для руководящих работников УВД, ОВД, служб по работе с личным составом, подразделений морально-психологического обеспечения деятельности ОВД. – М., 1992.

faoliyatni takomillashtirish chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqish va yoʻlga qoʻyish talab qilinadi.

Xodimlardan yuksak madaniyatli, oʻz kasbining mohir ustasi boʻlishni, murakkab sharoitlarda davlat manfaatlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qila olishni, aholining har xil toifalari bilan ishlay olishni, jinoyatchilikka qarshi kurashda zarur koʻnikmalarni shakllantirishni talab etadi.

«Ichki ishlar organlari xizmatiga tanlanayotgan nomzod koʻpincha IIO xizmati talablariga javob bermayapti. Bu ham yetmaganday, uning shaxsiy salbiy fazilatlarining ifodalanishi forma kiyganidan keyin xizmat kiyimi va vakolati taʼsirida yanada zoʻrayadi»¹.

Bundan tashqari, nomzodda xizmatda uchraydigan tashqi omillar taʼsiriga ruhiy immunitetning rivojlanmaganligi, qaltis vaziyatda tez va aniq qaror qabul qila olish reaksiyasining pastligi, oʻziga yuqori baho berishi, iroda qobiliyatlarining yaxshi rivojlanmaganligi, dunyoqarashi va madaniy darajasining pastligi tufayli xizmat boshlagandan keyin qisqa muddat ichida uning axloqiy jihatdan yemirilishiga sabab boʻladi.

Kasbiy tanazzul, avvalo, shaxsning oʻzida, keyinchalik esa uning harakatlari orqali kasb faoliyati va atrof-muhitidagi munosabatlarda ifoda boʻlishni boshlaydi. Bu holat IIO jamoalarida ham yuz berishi mumkin. Masalan, spirtli ichimliklarga ruju qoʻyish holati shu boʻlim yoki boʻlinmada xizmat intizomining sustligiga dalil boʻla oladi.

Kasbiy tanazzulning xavfli tomoni shundaki, u «latent», yaʼni yashirin tarzda ifoda boʻladi. Tajribalar shuni koʻrsatmoqdaki, koʻp hollarda xodimning mast tarzda xizmatga chiqishini, avvalo, rahbarlarning oʻzlari (oʻzlariga gap tegmasligi maqsadida) yashiradilar. Intizomiy jazoga tortilmagan xodim esa qilgan harakatiga masʼuliyat hissini sezmay, osongina qutulib ketadi. Bu hol atrof-dagilarga oʻz salbiy taʼsirini koʻrsatmay qolmaydi.

Bu oʻrinda IIO xodimlari bilan olib borilishi kerak boʻlgan psixologik faoliyat haqida toʻxtalib oʻtmoqchimiz. Zero, yuqorida koʻrsatib oʻtganimizdek, aksariyat huquqbuzarliklar xodim psixologiyasidagi oʻzgarishlar, ogʻishlar natijasi deb oladigan boʻlsak, ularga moyillikni aniqlash va psixologik profilaktika qilishni IIOdagi psixologik faoliyat orqali amalga oshirish mumkin.

Bizni qiziqtirgan va ajablantirgan xususiyat shundaki, inson psixikasi bilan ishlaydigan mutaxassislardan koʻpchilik xodimlar negadir choʻchimiz. Xodimlar psixologik, psixoterapevtlik yordamini psixiatriya xizmati

¹ Профилактика профессиональной деформации личности сотрудника органа внутренних дел. – Москва, 2004. – С. 10.

bilan adashtiradilar va bu o'z o'rnida psixodiagnostika ishlarini qiyinlashtiradi.

Yuqorida aytib o'tilgan holatlarni bugungi kunning muhim muammosiga aylanganligini inobatga olgan holda respublikamiz IIO tizimlarida muhim bir yangilik kiritildi. 2010-yilning 7-sentabr kuni IIVning 44-sonli buyrug'i bilan shtatlarga o'zgarish kiritilib, joylardagi ichki ishlar bo'limlarga «axloqiy psixologik ta'minlash guruhlarini inspektori (katta inspektor) shtat birliklari kiritildi».

Jumladan, ularning xizmat vazifalariga, quyidagilar kiritildi, ya'ni:

❖ «shaxsiy tarkibni bir yilda bir marotaba majburiy psixologik diagnostikadan o'tkazish hamda jamoadagi ruhiy muhitni o'rganish, xodimlarning individual xususiyatlari, psixologik holatlari, xodimlarning asab turg'unligi darajalarini, xodimlarning qobiliyati, xizmatga yaroqliligi, shaxsiy tarkibning xizmatdan qoniqqanlik va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash va hokazolar» kabi;

❖ «xodimlar o'rtasida xizmat intizomi va qonunchilikni buzish, o'z joniga qasd qilish (suitsid) holatlari, xizmat faoliyati davomida yuzaga keladigan turli qiyinchiliklar va yo'l quyiladigan intizom buzilish sabablarini o'rganib, ularning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish yuzasidan rahbariyatga takliflar kiritish»;

❖ uzoq xizmat safaridan qaytgan xodimlarni xizmatga ko'nikma hosil qilishlariga ko'maklashish;

❖ yangi xodimlar bilan psixologik uslublarni qo'llab suhbat o'tkazish...»

Bu yangilik ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy buzilishi, uning kelib chiqish sabablarini tugatish yo'llarini tadqiq etish yo'lida muhim potensialdir. Chunki ichki ishlar organlari xodimlari davlat hokimiyatining vakili sifatida ish ko'rar ekanlar, ularning har bir xatti-harakati odamlarning diqqat-e'tiborida turadi. Bir xodimning qilgan xatosi, qo'polligi yoki pora olishi butun IIO tizimini xalq oldida abgor qilishi, boshqa halol ishlayotgan xodimlarning obro'siga putur yetkazishi mumkin. Shuning uchun kasbiy buzilishning oldini olish, unga yo'l qo'ymaslik bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Kasbiy buzilishning oldini olish tadbirlari. Ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy buzilishlarining oldini olishda asosan qo'yidagi yo'nalishdagi chora-tadbirlarni ko'llash tavsiya etiladi.

Axloqiy-kasbiy buzilishning oldini olishda qo'llaniladigan maxsus tadbirlar.

Ichki ishlar organlari xodimlari axloqiy-kasbiy buzilishlarining oldini olishga qaratilgan mazkur harakatlardan tashqari boshqa aniq chora-tadbirlar ham mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. Professional faoliyatni tashkil etish sohasida:

- har bir xodimni tanlab olishda va ishga tayinlashda ularning qiziqishlarini inobatga olish;
- xodimlarga aniq vazifalar, topshiriqlar berish, ularning bajarilishi uchun barcha chora-tadbirlarni ko‘rish;
- avval sudlangan odamlar bilan muntazam ravishda yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlarni olib borish;
- xodimlarga fuqarolar bilan muomala qilish madaniyatini, ruhiy aloqa o‘rnatish mahoratini o‘rgatish;
- xizmat vazifasini bajarishda ishga ijodiy yondashuvchi, chigal masalalarning yechimini tezlikda topuvchi, muammolarni hal qilishda ilmfan yutuqlaridan unumli foydalanuvchi xodimlarni taqdirlash, izzat-hurmatini joyiga qo‘yish;
- qo‘l ostidagilarni o‘z ishini o‘zi tahlil qilishga, o‘zini o‘zi nazorat qilishga o‘rgatish;
- xodimlarning bo‘sh vaqtlaridan samarali foydalanishlari, oilasining tinchligi, hayotining sermazmun bo‘lishi uchun tinmay g‘amxo‘rlik qilish;
- o‘zgalarga ruhiy ta‘sir o‘tkazish usullarini amalda qo‘llashni o‘rgatish va operativ qidiruv organi xodimini janjalli va qo‘rqinchli holatlarda ishlashga ruhiy jihatdan tayyorlash ishlarini amalga oshirish;
- jismonan chiniqtirish va chidamliligini oshirish.

2. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish sohasida:

- xodimlarda ilmiy dunyoqarashni, axloqiy-huquqiy e‘tiqodni, g‘oya-viy-siyosiy madaniyatni va irodaviy xislatlarni, qisqacha aytganda, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish;
- ularni tanqid va o‘z-o‘zini tanqid ruhida tarbiyalash;
- iroda va xarakter kuchini chiniqtirish;
- jinoyatchilar dunyosining ta‘siriga qarshi tura olish qobiliyatini hosil qilish;
- xizmatda va turmushda shaxsiy namuna orqali ta‘sir ko‘rsatish;
- tarbiyalash jarayonida o‘rgatish va majburlash, rag‘batlantirish va jazolash usul va vositalaridan unumli foydalanish;
- jamoada sog‘lom ruhiy muhitni vujudga keltirish;
- qo‘l ostidagilarning yashash sharoitlarini, dam olishini yaxshilash borasida g‘amxo‘rlik qilish;
- tarbiyaning barcha turlarini, usul va vositalarini, prinsiplarini birga qo‘shib olib borish, ayniqsa, huquqiy va axloqiy tarbiyaning uzviy birligiga asosiy e‘tiborni qaratish;

– xalqimizning asrlar osha yashab kelgan anʼanalari, urf-odatlar va tili bilan bogʻliq boʻlgan qadriyatlardan tarbiya jarayonida milliy gʻururni oʻstirish va milliy ongni shakllantirishda unumli foydalanish.

3. *Jinoyat qidiruv boʻlinmasi xodimlarining axloqiy-ruhiy muhitini shakllantirish sohasida:*

– yangi xizmatga kelgan xodimlarning va yosh mutaxassislarining ishga koʻnikishlarini tezlashtirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berish;

– qoʻl ostidagilar toʻgʻrisida muntazam ravishda ijtimoiy-ruhiy maʼnodagi maʼlumotlarni toʻplab borish, yaʼni ular toʻgʻrisidagi mish-mishlar, gap-soʻzlar va hokazolardan ogoh, boʻlib turish;

– xodim va jamoa, boshliq va qoʻl ostidagi xodim oʻrtasida oʻzaro ishonch va doʻstona munosabatga asoslangan munosabatlarni oʻrnatish;

– jamoa oldida yaqin kunlar ichida va kelgusida qilinadigan ishlar toʻgʻrisida axborot berib turish, bu toʻgʻrida fikr almashish;

– jamoatchilik fikriga quloq solish va undan unumli foydalanish;

– xizmat koʻrsatgan xodimlarni moddiy va maʼnaviy ragʻbatlantirish ishlarini ochiq va oshkora tarzda hal etish;

– professional faoliyat davomida vujudga kelgan ijobiy anʼanalarni oʻrganish va mustahkamlash;

– jamoa va boʻlinmadagi xodimlarning ruhiy holatini, qobiliyatini inobatga olgan holda operativ ishlarga jalb qilish, qoʻyish, ishga tayinlash va hokazo.

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari axloqiy-kasbiy buzilishlarining sabablari va ularni tugatish chora-tadbirlari toʻgʻrisida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shunday degan edi: «Huquqni himoya qilish organlarining ayrim nopok xodimlari oʻz vazifasini suiisteʼmol qilib jinoyatga qoʻl urmoqda... huquqni muhofaza etuvchi idoralar – militsiya, sud, prokuratura xodimlari saflarini malakali, Vatanga va oʻz burchiga sadoqatli, insofli, yosh, iqtidorli va zamon talablariga javob beradigan kadrlar bilan toʻldirish ishlari kuchaytirilishi lozim...

Barcha boʻgʻinlarda insofli, diyonatli, bilimdon, tajribali rahbarlar boshchilik qilmas ekan, mustaqil mamlakatimizning obroʻsi, uning manfaati uchun mardlik, jonkuyarlik bilan ishlamas ekan, ishlarimiz koʻngildagidek boʻlmaydi»¹.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, Ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy buzilishlarining oldini olish asosan ikki yoʻnalishda, yaʼni umumiy chora-tadbirlarni va bevosita chora-tadbirlarni koʻllash asosida olib boriladi.

¹ *Каримов И.А.* Бунёдкорлик йўлидан. Т. 4. – Т., 1996. – Б. 287–288.

Umumiy chora-tadbirlarga jamiyatdagi ziddiyatlarni tadrijiy yo‘l bilan hal qilgan holda huquqni himoya qiluvchi barcha idoralarda qonunga itoatkorligini, hayotning barcha jabhalarida qonunlarning ustunligini ta’minlash kabilar kiradi.

«Qonunning ustuvorligi, – deb yozgan edi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov, – mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo‘nalishlaridan biri bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Bir so‘z bilan aytganda, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo‘lib qolmoqda.»¹.

Shunday ekan qonunga bo‘ysunish yuksak huquqiy onglilik, jamiyat va davlat manfaatlarini chuqur tushunib yetish, ijtimoiy burch, ya’ni o‘z qilmishlari uchun davlat oldida javobgarlik tuyg‘usi bilan uzviydir. Har bir qonunga itoatkor fuqaro qonunlarning talablari jamiyatning yuksak manfaatlarini ifoda etishini, huquqiy qonunlarga rioya qilish faqat xalq manfaatlariga emas, balki uning o‘z manfaatlariga ham xizmat qilishini yaxshi tushunadi. Mazkur ma’noda qonunlarga itoat qilishni xalq birligi va kuch-qudratining manbai deb atash mumkin.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Psixologiyada faoliyat muammosiga izoh bering.
2. Shaxsning ehtiyoji va uning motivatsion sferasi deyilganda nimani tushunasiz?
3. Ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy faoliyatining psixologik xususiyatlarini sanab bering.
4. Ichki ishlar organlari xodimlarining bilish, konstruktiv va tashkilotchilik faoliyatiga izoh bering.
5. Qonun buzilishining psixologik sabablari va sharoitlari nimalardan iborat?
6. Kasbiy buzilishning sabablari va ularni hal etish yo‘llarini aytib bering.

¹ *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. — Т., 2010. — Б. 15–16.

10-mavzu. JAMOA VA JAMOADAN TASHQARI AXLOQ PSIXOLOGIYASI

Psixologiyada jamoa va guruh haqida tushuncha.

Mish-mish gaplar, ularning mohiyati va bartaraf etish usullari.

Olomon psixologiyasi

Psixologiyada jamoa va guruh haqida tushuncha

Jamoa shaxsni kamol toptiradigan va tarbiyalaydigan asosiy omillardan biridir. Mehnat jamoasi o'zining yuksak ko'rinishlarida kishi shaxsini har tomonlama kamol toptirish uchun shart-sharoit yaratadi. Psixologiyada jamoa muammosini, guruhlarni tahlil qilib bo'lgandan so'ng o'rganish mumkin.

Har bir shaxsning fe'l-atvorida, xatti-harakatlarida u mansub millat, xalq, hudud, professional toifa, mehnat jamoasi, yaqin atrofdagi muqim guruhi, oilasining ta'siridan paydo bo'lgan sifat va xususiyatlari bo'ladi. Tarixiy shart - sharoit, davr, davlat tuzimi va o'sha jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy ta'sirlar haqida yuqorida gapirgan edik. Bu ta'sir makro bosqichdagi ta'sirlar deb atalib, yaqin muhitning ta'siri – mikro bosqichdagi ta'sirlar deb yuritiladi. Ikkala bosqichdagi ta'sirlar ham ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan ahamiyatli va tarbiyaviy mohiyatga egadir. Chunki har bir sharoitda shaxs o'ziga xos ijtimoiy rollarni bajaradi va o'zining «qiyofasini» namoyon etadi. Mehnat jamoasida professional rollarni bajarish jarayonidagi xulq- atvori shaxsning ma'naviy va psixologik ko'rinishidagi asosiy omil bo'lib, katta yoshdagi odam psixologiyasini tubdan o'zgartirish uchun uning professional faoliyatini ham o'zgartirish kerak, deyiladi.

Shunday qilib, shaxsga bir vaqtning o'zida turli ijtimoiy guruhlarning ta'siri bo'lib turadi. To'g'ri, ma'lum davrda bir ijtimoiy guruhning shaxsga ta'siri sezilarliroq va ahamiyatliroq, ikkinchisniki esa sal kamroq bo'ladi. Masalan, o'quvchilik yillarida maktabdagi o'quvchilar guruhining ta'siri mahalladagi o'rtoqlar davrasinikidan kuchliroq bo'lishi, yangi xonadonga kelin bo'lib tushgan qiz uchun yangi oila muhitining ta'siri talabalik guruhinikidan kuchliroq bo'lishi tabiiy. Lekin har bir alohida daqiqada biz doimo ma'lum guruhlar ta'sirida bo'lamiz.

Guruh – bu muayyan belgiga, sinfiy mansublikka, birgalikda faoliyat ko'rsatishning mumkinligiga aloqador ijtimoiy jamoa hisoblanadi. Demak,

guruh uchun ikkita asosiy mezon mavjud: biror faoliyatning bo‘lishligi (mehnat, o‘qish, o‘yin, muloqot, maishiy manfaatlar) hamda u yerda odamlarning o‘zaro muloqoti uchun imkoniyatning mavjudligi. Guruhlarning tavsiflanishi ham shunga muvofiq tarzda bo‘lib, kichik va katta guruhlarga o‘z navbatida ular ham shartli formal (rasmiy) hamda noformal (norasmiy) guruhlarga bo‘linadi. Rivojlanish darajasi turlicha bo‘lgan, ya’ni rivojlangan va yetarli darajada rivojlanmagan yoki kam rivojlangan guruhlarga, uyushmalarga, birlashmalarga, aralash guruhlarga ham bo‘linadi.

Guruhlar ulardagi odamlar soniga ko‘ra katta va kichik guruhlarga bo‘linadi. Psixologiyada ko‘proq kichik guruhlar o‘rganiladi. Uni necha kishi tashkil etishi, nechta kishining hamkorlikdagi faoliyati ko‘proq samara berishi masalasi amaliy ahamiyatga egadir. Ko‘pchilik olimlar guruhning boshlang‘ich nuqtasi sifatida miqdor jihatdan ikki kishini – diadani tan olishadi. Polyak olimi Yan Shepanskiy bunga qo‘shilmasa-da (uning fikricha kamida uch kishi – triadadan boshlanadi), har qalay diada o‘ziga xos uyushma sifatida tan olingan. Masalan, yangi oila qurib, birga yashayotgan kishilar, sevishganlar, ikki do‘st – o‘ziga xos kichik guruh. Har qanday kichik guruhga xos sifat shuki, uning a‘zolari bir - birlari bilan bevosita muloqotga kirishish, «yuzma-yuz» bo‘lish imkoniyatga ega bo‘ladi. Har bir kishi uchun shu guruh juda ahamiyatli bo‘lib, uning normalariga o‘zi xohlab - xohlamay bo‘ysuna boshlaydi. Kichik guruhning chegarasi masalasi ham ko‘p muhokama qilinadi.

G. M. Andreyeva bu chegarani 12–15 kishi deb hisoblasa, amerikalik Morono o‘z vaqtida bu chegarani 30–40gacha surgan edi. Lekin bizningcha, uning yuqori chegarasi nechta kishi bo‘lishidan qat’i nazar, o‘zaro bevosita muloqot imkoniyatini berishi va har bir a‘zo bir-biriga ta’sir ko‘rsata olishi kerak.

Har bir o‘ziga xos psixologik tizimga ham ega. Uni tashkil etuvchi elementlar nisbatan barqaror bo‘lib, ular guruh a‘zolari xulq-atvorini muvofiqlashtirib turadi. Avvalo, guruhning maqsadini ajratish kerak. Maqsad – odamlarni jamoa mehnati atrofida uyushtirib, birlashtiruvchi psixologik elementdir. Masalan, barcha talabalarning maqsadi - o‘qish, professional malaka orttirib, mutaxassis bo‘lib yetishish.

Guruhning avtonomligi darajasi ham ma’lum ahamiyatga ega omildir. Chunki har bir a‘zo umumiy maqsad asosida birlashgan bo‘lsa ham, ularning har birining o‘z burch va vazifalari bor va shu nuqtai nazardan har bir odam o‘z imkoniyatlarini o‘zicha ishga solib, o‘zaro munosabatlarga sabab bo‘ladi.

Guruhning psixologik tizimga ta’sir etuvchi omillarga yana ularning jinsiy, yosh jihatdan, ma’lumoti va malakasi nuqtai nazaridan farq qiluvchi va uyg‘unlikni tashkil etuvchi omillar ham kiradi.

Guruhning **uyushganligi** ham dinamik ko'rsatkichlardan bo'lib, shu nuqtai nazardan har bir guruh bir-biridan farq qiladi. Masalan, odamlar hamkorlikda bajarayotgan ishning qiziqarli va hamma uchun manfaatli ekanligi, guruh normalarining a'zolar tomonidan umuman olganda qabul qilinishi, qadriyatlar tizimini tasavvur qilishdagi fikrlar mosligi uyushqoqlikning mezonlaridir.

Guruhning tizimi yana uning katta - kichikligiga ham bog'liq. Masalan, 5–10 kishidan iborat guruhdagi munosabatlar yaxshiroq, uyg'unroq va faoliyati samaraliroq hisoblanadi. Chunki bunday guruhlarda norasmiy muloqot uchun ma'qul sharoit mavjud bo'ladi. Bunday guruhlarda «guruh-bozlik» degan illat ham bo'lmaydi. Guruhning hajmi ortib borgan sari ularda rasmiyatchilik, rasmiy yuzaki munosabatlar ko'payadi va bu odamlar o'rtasidagi insoniy munosabatlarda o'z aksini topadi.

Katta guruhlarda umumiy makon va zamonda hayot kechirayotgan anchagina odamlarni o'z tarkibiga olgan sotsial xususiylikni tashkil qiladigan real guruhlarda shaklida bo'lishi mumkin. Bu xildagi katta guruhlarga korxonaning mehnat jamoasi yoki ko'pgina o'qituvchilar bir-birlari bilan bevosita o'zaro aloqada bo'lsalar ham, lekin ayni chog'da yagona bitta rahbarga (direktorga, ilmiy mudirga) bo'ysunadigan bo'lishi mumkin.

Katta guruhlarda ba'zi bir belgilariga (sinfy, jinsiy, milliy, yosh va boshqa belgilari) binoan ajratiladigan va birlashtiriladigan shartli guruhlarda shaklida bo'lishi ham mumkin. Katta shartli guruhga kiritilgan kishilar hech qachon bir-birlari bilan uchrashmagan bo'lsalar ham, lekin bu xildagi guruhga ajratilgani uchun asos bo'lgan belgilariga ko'ra umumiy sotsial va psixologik ta'rifga ega bo'lishlari mumkin.

Katta guruhlardagi (katta muhit) sotsial-psixologik hodisalar o'rganiladi. Bunga milliy urf-odat, xarakter, turli sinf va sotsial qatlamlarga xos psixologik xususiyatlarni vujudga kelish qonuniyatlarini o'rganish, shuningdek ommaviy axborot vositalarining (radio, televideniye, matbuot, internet va boshqalar) kishilar jamoasiga ko'rsatadigan ta'siri va uning mexanizmlari, ijtimoiy qadriyat, kishilar o'rtasida modalarni vujudga kelishi va uning yoyilishi, turli-tuman mish-mishlarning tarqalishi kabi masalalarni o'rganish kiradi.

Kichik guruhlarda odatda unchalik ko'p bo'lmagan 2 kishidan tortib bir nechta o'n kishilarni birlashtiradi. Kichik guruhlarga: oila, o'quv maskanidagi guruhlarda, ishlab chiqarish korxonalaridagi brigadalarni kiritish mumkin. Kichik guruh birlamchi, va mikro guruh deb ham yuritiladi. Bu guruhda shaxsiy munosabat va aloqalar bevosita mustahkamlik asosida qurilgan bo'ladi. Kichik guruhning jamiyatda tutgan o'rnini haqida gapirganda quyidagilarni gapirish darkor:

1. Inson bolasi o'ziga mansub guruh a'zolari bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishganidagina u shaxs bo'lib voyaga yetadi. Jamiyatdan tashqarida inson shaxs bo'lib voyaga yetmaydi, jamiyat esa kichik-kichik guruhlardan tashkil topgan yirik ijtimoiy organizmdir. Shaxsga xos bo'lgan qaysi bir xususiyatni: saxiylik yoki xasislik, rostgo'ylik yoki yolg'onchilik, kamtarinlik yoki takabburlik va shunga o'xshash yuzlab sharq xususiyatlarini olib o'rganadigan bo'lsak uning barchasi ijtimoiy xarakterga ega ekanligini bilamiz.

2. Guruh doimo shaxs faoliyatiga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatib, uning xulq-atvorini nazorat qilib turadi. Shaxsning guruhda bajaradigan faoliyati bilan tanholikda o'zi bajaradigan faoliyati o'rtasida tafovut mavjudligi eksperiment asosida o'rganilgan.

3. Kichik guruhlarda maqsadlar va faoliyatning umumiyligi mavjud bo'ladi. Birgalikda qilinadigan faoliyat guruhiy ongini paydo qiladi, ya'ni ma'lum guruhga mansublik unda mavjud qoida tartiblariga bo'ysunish, burch, mas'uliyat, vazifalar, rollarni anglash shakllanadi.

4. Kichik guruhga ta'sir etib turuvchi liderning (peshqadam) ajralib chiqishi, tan olinishi guruh faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Qator amaliy va nazariy maqsadlar kichik guruhga xos qonuniyatlarni chuqurroq bilib olishni taqozo qiladi. Bularga:

1. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda va ularning oldini olishda, jamiyatda qonunbuzarlik va jinoyatlarni to'ldiruvchi sotsial-psixologik omillar o'rganiladi;

2. Psixologik mos kelishlik masalalarini o'rganish, qiyin murakkab sharoitlarda ishlash uchun sherik tanlash masalasi;

3. Guruh tuzilishi, uning strukturasi, miqdorini bilish, faoliyat xarakteriga ko'ra guruh miqdori har xil bo'lishi mumkin.

R. S. Nemov kichik ijtimoiy guruhlarning quyidagi klassifikatsiyasini taklif etgan.

KICHIK GURUHLARNING TURLARI	
Shartli (nominal)	real (haqiqiy)
tabiiy	laboratoriya tipli
Formal (rasmiy)	Noformal (norasmiy)
kuchsiz rivojlangan	Kuchli rivojlangan
korporatsiya	Jamoalar
referent	Noreferent

Guruh a'zolari o'rtasida mavjud bo'lgan o'zaro aloqalar maqsad va xarakteriga ko'ra barcha guruhlarni rasmiy (formal) va norasmiy (non-formal) guruhlarga bo'lishimiz mumkin.

Ko'pincha guruhlarni rasmiy va norasmiy turlarga ham bo'lib o'rganishadi. Rasmiy guruhdagi munosabatlar rasmiy normalar va huquq-burch tizimi bilan belgilangan bo'ladi. Masalan, guruhda boshliq bilan xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni ta'minlovchi guruh rasmiy bo'lsa, norasmiy – ichki, bevosita psixologik munosabatlarni ta'minlovchi guruh hisoblanadi. Xususan, do'stlar guruhi, yoki talabalar guruhidagi barcha qizlarning tanaffus paytidagi muloqot guruhi.

Turli guruhlar inson hayotida bir nechta funksiyalarni bajaradilar: 1) ijtimoiylashtiruvchi funksiya; 2) instrumental, ya'ni aniq mehnat funksiyalarni amalga oshirishga imkon beruvchi muhit; 3) ekspressiv – odamlarning o'zgalarning tan olishlari, hurmatga sazovor bo'lish, ishonch qozonishini ta'minlash; 4) qo'llab - quvvatlash, ya'ni qiyin paytlarda, muammolar paydo bo'lganda odamlarni birlashtirish funksiyasi.

Rasmiy guruhda guruhning har bir a'zolarini tutgan o'rni, huquq va burchlari, qat'iy normalari, qoidalari asosida belgilab qo'yilgan bo'ladi. Shu normalar asosida shaxslararo munosabatlar vujudga keladi. Xizmat vazifalarini bajarish xarakteri, mas'uliyat darajasi va guruh faoliyatiga qo'shgan hissasiga qarab guruhlarning har bir a'zosi o'z mavqeiga ega bo'ladi.

Norasmiy guruhda aniq maqsadlar belgilanmagan kishilar o'rtasidagi munosabatlar esa hissiy psixologik tuyg'ular orqali qo'shilgan bo'ladi. Norasmiy guruhdagi munosabatlar ma'lum bir tuzilishga, normalarga ega bo'lishi ham mumkin. Agar norasmiy guruh rasmiy guruh ichida bo'lsa uni jamoadagi guruh deyiladi. Bunday guruh a'zolari aksariyati bir-birlarini yaxshi bilgan kishilar bo'ladi.

Hozirgi kunda Respublikamizda, ayniqsa turli xil jinoiy norasmiy guruhlar mavjuddir. Ularning maqsad va vazifalari guruh lideri tomonidan belgilanadi. Turli xil ekstremistik-terroristik guruhlar, uyushgan jinoiy guruhlar, turli xil diniy-ekstremistik guruhlar bularga misol bo'la oladi. Ularning asl maqsadi har xil terroristik aktlar, omma orasida mish-mishlar tarqatish, ommani turli xil diniy-ekstremistik g'oyalar bilan zaharlash, davlat to'ntarishini uyushtirib, hokimiyatni qo'lga olish, dinlararo va millatlararo adovat va nafratni qo'zg'atish hamda bir qancha jamiyatga qarshi bo'lgan vazifalari mavjuddir. Bu norasmiy guruhlar asosan kichik guruhlarni tashkil etadi.

Birgalikda qilinayotgan faoliyatning mazmuni, maqsadi, vazifalari, prinsip va ahamiyatiga ko'ra guruhlar turlicha bo'ladi. Kichik guruhlarning bir nechta turlari mavjuddir.

Referent guruh. O'z norma va tushunchalari bilan shaxsning sotsial munosabatlarga kirishishda xulq-atvorlarini boshqarishda va namoyon bo'lishida yetakchi ta'sir etuvchi guruhni referent guruh deymiz. Bu termin birinchi marotaba 1942-yil amerikalik psixolog X. Xaymen tomonidan muomalaga kiritilgan. Shaxs tomonidan yuqori baholanadigan guruhdagi norma va munosabatlar, ularning yurish-turishi, xulq-atvori, uning ichki mezoni bo'lib qoladi. Shaxs faqat o'z xulq-atvorlarini emas, boshqalarning xulq-atvorini ham shu andoza orqali baholaydi. Har bir guruhda kishilar o'rtasidagi munosabatlar 2 xil ko'rinishda kechadi:

1. Bevosita, ya'ni bir-birini yoqtirish yoki yoqtirmaslik asosida.

2. Bavositalik asosida, bunda guruhdagi shaxslararo munosabatlar guruh faoliyati maqsadidan kelib chiqqan holda amalga oshadi.

Diffuz guruh – bu stixiyali tasodifan to'plangan va shaxslararo munosabatlar bevositali asosida qurilgan kishilar birligidir. Bu guruhlar miqdori bir nechta kishidan minglab kishini tashkil qilishi mumkin. Masalan: avtobus bekatida to'planib turuvchilar bu diffuz guruh. Diffuz guruhdan boshlab agar u ma'lum vaqt saqlanib tursa guruhiy differentsiatsiyasi boshlanadi, yaqqol lider ajralib chiqa boshlaydi.

Jamoa – maqsadlari jamiyat maqsadiga mos keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhidir. Jamoa o'spirin va yoshlarning shaxsini shakllantirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratiladigan birlik hisoblanadi. Oila jamoasi, maktabdagi o'quv-tarbiya jamoasi, korxonaga jamoasi, nihoyat kechagi maktab o'quvchilari o'rta ma'lumot olganidan keyin borib qo'shiladigan mehnat jamoalari shunday bir sotsial muhit hisoblanadiki, unda shaxsning voyaga yetishi va har tomonlama rivojlanishi yuz beradi.

Jomalarda psixologik o'zaro moslik. Guruh hayoti va undagi a'zolarining o'zlarini yaxshi his qilishlari ko'p jihatdan ularning hamkorlikda ishlay olishlari va bir-birlariga ijobiy munosabatda bo'la olishlariga bog'liq. Bu hodisani tushuntirish uchun psixologiyada psixologik moslik tushunchasi mavjud. *Psixologik moslik deganda*, guruh a'zolari sifatlari va qarashlarining aynanligi emas, balki ular ayrim sifatlarning mos kelishi, qolganlarining kerak bo'lsa, tafovut qilishi nazarda tutiladi. Moslikning mezoni sifatida

N. Obozov quyidagilarni ajratadi : 1) faoliyat natijalari; 2) a'zolarining sarflagan kuch - energiyalari; 3) faoliyatdan qoniqish.

Ikki xil o'zaro moslik farqlanadi: psixofiziologik va ijtimoiy psixologik. Birinchi holatdagi faoliyat jarayonida odamlarning bir xil va mos tarzda harakat qila olishlari, reaksiyalar mosligi, ish ritmi va tempidagi uyg'unliklar nazarda tutilsa, ikkinchisida ijtimoiy xulqdagi moslik – ustunovkalar birligi, ehtiyoj va qiziqishlar, qarashlardagi monandlik, yo'nalishlar birligi nazarda tutiladi. Birinchi xil moslik ko'proq konveyer usulida

ishlanadigan sanoat korxonalarida xodimlarida samarali bo'lsa, bu oliygoh o'qituvchilari, ijodiy kasb egalarida iloji yo'q va bo'lishi mumkin emas. Ularda ko'proq ijtimoiy psixologik moslikning ahamiyati kattadir.

O'tkazilgan tadqiqotlar psixologik moslikning ko'plab qirralari bo'lishi mumkinligini isbot qildi. Asosan shuni unutmaslik kerakki, qaysi faoliyat va uning maqsadi odamlarni birlashtirgan bo'lsa, o'sha maqsadni idrok qilish va birgalikda anglash istagida uyg'unlikning bo'lishi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Mish-mish gaplar, ularning mohiyati va bartaraf etish usullari

Jamoadan tashqari xatti-harakat shaxsning qonun doirasidan chetga chiqishi va jamiyatda o'rnatilgan tartib-qoida va qonunlarni bilib-bilmasdan ularga qarshi zid xatti-harakatlarni sodir etishidir.

Shu sababli har qanday jamoadan tashqaridagi xatti-harakatlar, ya'ni ommaviy ijtimoiy tartibbuzarliklar ijtimoiy qo'rquv, vahima ostidagi delikvent xulq o'zgarishlarini yuzaga keltiradi. Delikventlik – tartib, tarbiyaning izdan chiqishi, ya'ni tartibsizlik, tarbiyasizlik, konformlilik (tashqi ta'sirlarga berilish), madaniyatsizlik kabi psixik kamchiliklarni namoyon etadi. Inson xulq-atvorida konformlilik darajasining kuchayishi oqibatida noadekvat (nomunosib) xatti-harakatlar yuzaga keladi va tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik holatlari kuzatiladi. Natijada shaxs xatti-harakatlarining ma'lum ma'noda qolipdan chiqishi va jamiyatdagi mavjud qonunchilikka mos kelmaydigan, jamiyat uchun zid bo'lgan jamoadan tashqaridagi xulq-atvor yuzaga keladi.

Insonlarning jamoadan tashqaridagi salbiy xatti-harakatlariga oid jinoyatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 244, 277-moddalari asosida huquqiy jihatdan tartibga solinadi.

Insonning jamoadan tashqaridagi xatti-harakatlari doirasi keng bo'lib, biz shundan faqat *mish-mishlar* va *olomon psixologiyasiga* to'xtalib o'tamiz.

Turli jamoalarni harakatga keltiruvchi omillardan bo'lmish mish-mish gaplar hamda olomon doimo huquqshunoslar, psixologlar va sotsiologlar diqqat-e'tiborida bo'lgan. Jamoadan tashqari axloq psixologiyasi haqida bir qator olimlar o'z qarashlarini bayon etganlar. Masalan, fransuz psixologi Le Bon Gyustavning fikriga ko'ra, «insonning ma'lum bir guruh yoki jamoa orasida o'ziga bo'lgan ishonchi, irodaviy kuchining ortishini va intellektual ongining susayishini kuzatamiz. Aksariyat hollarda olomondagi odamda o'z xatti-harakatiga nisbatan nazoratning yo'qolganligini ko'rish mumkin»¹.

¹ Qarang: *Ле Бон Гюстав. Психология масс и народов. – М., 2000. – С. 56.*

Rus olimi F. N. Plevako insonlarning jamoadan tashqaridagi xatti-harakatlarini psixologik jihatdan tahlil etgan va umumiy xulosaga kelgan. Muallifning fikricha, olomon – katta bir devor, undagi odamlar esa ushbu devor elementlaridir. Olomon orasida bo‘lish, undagi instinkt belgilaridir¹. Insonning jamoadan tashqari xatti-harakatlardagi zarur elementlardan biri unda liderning mavjudligidir.

Shu nuqtai nazardan «insonning jamoadan tashqari xatti-harakati» tushunchasi ijtimoiy psixologiya va yuridik psixologiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lib, inson xulq-atvorining ma’lum ma’noda huquqiy normadan chiqishi, unda impulsiv (shartsiz refleks) harakatning namoyon bo‘lishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, inson ruhiyatida kuchli qo‘zg‘alishni, hissiy muvozanatsizlikning ortishini va idrok etish ko‘laminig torayishini sezish mumkin. Jamoadan tashqari xatti-harakatda asosiy rol, ya’ni dominantlik (ustunlik)ni insonlarga rahbarlik, tashkilotchilik qilayotgan yo‘lboshchilar bajaradi. Shuning uchun ham insonlarning jamoadan tashqari xatti-harakatlariga jinoiy-huquqiy nuqtai nazardan baho berilganda yo‘lboshchilar jamoaning tashkilotchisi va rahbari hisoblanadi. Ular asosan mish-mishlarni tarqatishda hamda olomonni harakatga ketirishda katta rol o‘ynaydi. Ijtimoiy psixologiyada shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, turli ijtimoiy ko‘rinishlardagi xatti-harakatlarining ijtimoiy psixologik qonuniyatlari o‘rganiladi. Chunki insonlarning bir-birlarini idrok etishi munosabatlar mexanizmini yaratadi. Shu nuqtai nazardan insonlarning jamoadan tashqaridagi xatti-harakatlarini tartibga solishda bevosita olomon psixologiyasini o‘rganish, ya’ni inson xulq-atvorini huquqiy jihatdan tartibga solish va me’yorlash maqsadga muvofiqdir.

Har bir jamiyatda jamoatchilik fikri, kayfiyati va ichki ma’naviy-ruhiy dunyoqarashi asosida ijtimoiy psixologik ko‘rinishlar, hodisalar, voqealar namoyon bo‘lib, bu dinamik xarakterga egadir. Ya’ni olomondagi insonning xatti-harakatlariga ham biologik, ham ijtimoiy omillar dominantlik (ustunlik) qiladi. Natijada insonda tashqi hodisalar ta’siriga berilish ichki irodaviy boshqaruv va o‘zini o‘zi nazorat qilishning susayishini kuzatish mumkin.

Bu borada atoqli rus olimi M. I. Yenikeyevning «aksariyat jinoiy xatti-harakatlarning zamirida odamlarning ayrim ijtimoiy ko‘rinishlarga bo‘lgan dezadaptatsiyalashuvi (moslasha olmasligi) sabab bo‘ladi»², degan fikrlarida qaysidir ma’noda haqiqat mavjud.

¹ Qarang: *Плевако Ф.Н. Избранные речи.* – М., 1993. – С. 74.

² Qarang: *Еникеев М. И. Юридическая психология.* – СПб., 2005. – С. 65.

Shu nuqtai nazardan ichki ishlar organlari xodimlari o'z kasbiy faoliyatlarida asosiy ijtimoiy-psixologik ko'rinishlar (mish-mishlar, olomon)ga qarshi kurashishda olomonning ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlarini va geografik shart-sharoitlarini chuqur o'rganishi hamda tahlil qilishi muhim o'rin tutadi. Inson hayoti davomida urf-odatlar, etnik va ijtimoiy qadriyatlarga rioya etishga majbur. Bu, o'z navbatida, uning jamoada ichki muhitni yaratishida psixologik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Aksariyat hollarda insonlarning xatti-harakatlarida huquqiy norma-lardan chetga chiqishlarda ularning ayrim ijtimoiy munosabatlarga mos-lasha olmasligi bosh omillardan biri sanaladi. Chunki ijtimoiy moslashuv-chanlikning yo'qligi nafaqat ichki qadriyatlarning, yo'nalishlarning sustligida, balki undagi ijobiy ijtimoiy stereotiplar va ko'nikmalarning shakl-lanmaganligi va o'ziga o'zi bergan bahoning pastligida namoyon bo'ladi. Olomon tarkibiga kiruvchi odamlarning aksariyatida mish-mish gaplarga psixologik yuqimlilik, konformizm (tashqi ta'sirlarga tez beriluvchanlik) holatlari ko'proq kuzatiladi. Shuni aytish joizki, bugungi kunda jamiyatda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar bevosita insonlar ongiga o'z ta'sirini o'tkazadi va bu, qaysidir ma'noda, inson xatti-harakat-larini ma'lum bir me'yordan chiqishiga sabab bo'luvchi bosh omillardan biridir. Har bir inson ma'lum bir jamoada o'zining ichki dunyoqarashlari, ehtiyoj va motivlari asosida qandaydir vazifani bajaradi.

Asosiy ijtimoiy psixologik ko'rinishlar, ya'ni mish-mish gaplar va olomon ichki ishlar organlari xodimlari uchun doimo operativ qiziquv uyg'otgan va hamma vaqt mish-mish gaplar tarqatgan hamda jamoat xavf-sizligi, tartibiga xavf soluvchi shaxslar hisobga olingan.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqadigan bo'lsak, asosiy ijtimoiy-psixologik ko'rinishlardan biri bo'lmish mish-mish gaplar va olomon psixolo-giyasini o'rganish bugungi kunda ichki ishlar organlari xodimlari faoliyati-dagi muhim muammolardan biri sanaladi. Shu sababli ushbu ijtimoiy-psixologik ko'rinishlarga batafsil to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Mish-mishlar odatda asoslarga ega bo'lmagan axborotdir. Ularning obyektiv mazmuni matbuot, radio, televideniye orqali tarqatiladigan axbo-rotga nisbatan nihoyatda kam. Ammo faqat shu asosda ularga e'tiborsizlik ko'rsatish, majoziy qilib aytganda, bola cho'miltirilgan tog'oradagi suvni bola bilan birga tashlab yuborishni anglatadi. Gap shundaki, mish-mishlar mantiqsizligiga qaramay, aholining muayyan tabaqalari ongi va xatti-harakatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayrim hollarda, afsuski, mish-mish gaplar xatti-harakatning rasmiy axborotga qaraganda kuchliroq determi-nanti (omili) bo'ladi.

Shu ma'noda mish-mish psixologik tuzilishga ko'ra ijtimoiy hodisa bo'lib, o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab maxsus o'rganilib kelinmoqda. Buning sababi o'sha yillardagi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy ahvol va aholining savodsizligi bo'lib, bundan ko'pgina shaxslar g'arazli niyatlarda foydalanishgan. Shu davrda mish-mishlar insonlar hayoti va taqdirida katta rol o'ynagan.

Ichki ishlar organlarining mish-mishlarga qiziqishi bejiz emas, albatta. Mish-mishlar ko'pgina holatlarda operativ vaziyatni murakkablashtiruvchi juda xavfli omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Masalan, u yoki bu tovar narxining oshirilishi haqidagi mish-mish xaridorlarning do'konlarga omma-viy «oqib borishiga» hamda oson pul topishga qiziquvchilar foydalanib qoladigan sun'iy taqchillikni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Odamlar orasida tarqatiladigan xilma-xil mish-mishlarning barchasini bir qator asoslarga ko'ra tasniflash mumkin.

Aks ettirilayotgan voqea **adekvatligiga ko'ra**, mutlaqo ishonchsiz, haqiqatga yaqin unsurlari bo'lgan ishonchsiz, haqiqatga o'xshash hamda haqiqatga o'xshamaydigan elementlari bo'lgan ishonchli mish-mishlarga ajratiladi.

Mish-mish tarqatuvchining so'zlaridan aniqlanadigan **pozitsiyalarga ko'ra** quyidagilar ajratiladi: *istak mish-mish*, bunda xabar amalga oshmagan istak tufayli umidsizlik keltirib chiqarish va, binobarin, odamlarni tushkunlikka tushirish maqsadiga ega bo'ladi; *qo'rqituvchi mish-mish* – tashvish, qo'rquv va ishonchsizlik kayfiyati ustunlik qiladigan odamlar orasida eng samarali tur; *tajovuzkor mish-mish*, u muayyan shaxslar yoki muayyan odamlar guruhlariga nisbatan adovat (nafrat) urug'ini sochadi; *ajratuvchi mish-mishlar*, bular odamlarning o'zaro munosabatlarida nizojanjal keltirib chiqaradi, ular o'rtasida shubha, ishonchsizlik kabilarni yuzaga keltirib odatdagi ijtimoiy aloqalarni buzadi¹.

Kelib chiqishiga ko'ra, tartibsiz ravishda yuzaga keladigan yoki atayin o'ylab topiladigan mish-mishlar bo'ladi. Oraliq turlari ham bo'lishi mumkin. Ba'zan mish-mish o'z-o'zidan yuzaga keladi, ammo muayyan zaminga tushgach, axborotni o'z manfaatlaridan kelib chiqib o'zgartirishga tayyor, uning tarqalishidan manfaatdor shaxslar topiladi. Dastlab mish-mish atayin tarqatilgan, ammo stixiyali ravishda amal qiluvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarga tushib, ular tufayli ko'p bora kuchaygan hollar ham bo'lishi mumkin. Masalan, dushmanlarning mamlakatimizga qaratilgan radio eshittirishlarida mavjud bo'lgan ba'zi mish-mishlarni siyosiy va

¹ Qarang: Социальная психология: Краткий очерк / Под общ. ред. Г. П. Предвечного и Ю. А. Шерковина. – М., 1995. – С. 168–190.

axloqiy jihatdan yetarlicha yetuk bo‘lmagan odamlar eshitib, o‘z harakatlarning oqibatlarini o‘ylamay uni yana tarqatgan hollarda ana shunday bo‘ladi.

Odamlar ongiga *ta’sir kuchiga ko‘ra* mish-mishlar quyidagi turlarga bo‘linadi. Ijtimoiy fikrni *qo‘zg‘atuvchi*, ammo aniq ko‘rinib turgan g‘ayri-ijtimoiy xulq sohasiga kirmaydigan mish-mishlar; aholining muayyan qismida *g‘ayriijtimoiy xulqni keltirib chiqaradigan* mish-mishlar; odamlar o‘rtasidagi *ijtimoiy aloqalarni buzuvchi* va jamoat tartibini guruh bo‘lib buzishga (masalan, stadionlardagi tartibsizliklar, tabiiy ofat sharoitidagi sarosimalar va boshqalarga) aylanuvchi mish-mishlar mavjuddir.

Mish-mishlar muayyan psixologik sharoitlar mavjud bo‘lganda yuzaga keladi. Ushbu sharoitlarni tushunish uchun taniqli olim P. V. Simonov hishayajonlar (emotsiyalar) axborot nazariyasiga qiziqish uyg‘otadi¹, degan fikrni bayon qilgan.

Ushbu nazariyaga ko‘ra, vaqtning har bir muayyan daqiqasida dolzarb bo‘lgan ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun inson aniq harakatlar sodir etishi kerak. Lekin u doimiy ravishda o‘zgarib turuvchi ehtimolli muhitda harakat qilgani bois, qo‘yilgan maqsadga erishish uchun unga ehtiyojlarini qanoatlantiruvchi narsalar va shart-sharoitlar haqidagi axborot kerak bo‘ladi. Ehtiyoj qanchalik keskin bo‘lsa, insonning zarur axborotni izlashga qaratilgan faoliyati ham shunchalik jadal bo‘ladi. Agar inson xatti-harakati (xulqi)ni tashkil qilish uchun yetarli axborotga ega bo‘lsa, his-tuyg‘ular (emotsiyalar) amalda yuzaga kelmaydi, yuzaga kelsa ham juda sust ko‘rinishga ega bo‘ladi. P. V. Simonovning yozishicha, agar raqibni yengish usullari yaxshi ma’lum bo‘lsa va unga qarshi kurashayotganlar ana shu usullarni bilsalar, g‘azabning keragi yo‘q; himoya vositalari mavjud bo‘lsa va samaradorligi shubha uyg‘otmasa, tashvish va qo‘rquv uchun sabab yo‘q. Inson tasarrufidagi axborotning yetarli emasligi natijasida aniq vaziyatlarda salbiy hissiyotlar yuzaga keladi. Axborotga bo‘lgan ehtiyojni qanoatlantirish uchun zarur deb bashorat qilinayotgan hajmdan ortib ketganida insonni ijobiy hissiyotlar chulg‘ab oladi.

P. V. Simonov matematik simvollardan foydalanib quyidagi ifodani keltiradi:

$$H=E (Z-M)$$

Bunda **H** – hissiyotlar; **E** – ehtiyojlar; **Z** – ehtiyojni qondirish xulqini tashkil qilish uchun zarur hisoblangan axborot; **M** – mavjud bo‘lgan, ya’ni inson tasarrufidagi axborot.

¹ Qarang: *Симонов П. В. Что такое эмоции.* – М., 1966. – С. 57.

Bizning mavzuga tatbiq etganda mazkur ifodani quyidagicha talqin etish mumkin. Agar ehtiyoj nolga teng bo'lsa (masalan, u yoki bu voqea insonni aslo qiziqtirmasa), u holda shaxs axborotga muhtoj bo'lmaydi va bu masalada hissiyotlar yuzaga kelmaydi. Binobarin, mish-mishlar yuzaga kelishi uchun ham asos bo'lmaydi. Ehtiyojni qondirish uchun zarur deb hisoblangan axborot (Z) mavjud axborot (M)ga teng bo'lganida ham ular yuzaga kelmaydi. Agar muayyan sababga ko'ra odamlarning bunday axborot bilan to'liq ta'minlangan jamoasiga tashqaridan mish-mishlar kirsas, bundan keyin ular tarqalmaydi, balki uning ichida barham topadi.

(M) nolga teng bo'lganida, ya'ni inson o'z xulqini tashkil qilish va dolzarb ehtiyojini qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan hech qanday axborotga ega bo'lmasa, hissiyotlar maksimal ahamiyatga ega bo'ladi, mish-mishlar uchun esa eng qulay zamin yuzaga keladi. Bir tomondan, ehtiyojlarni qondirish uchun harakat qilishdek keskin zarurat, ikkinchi tomondan, buning uchun kerakli har qanday axborotning yo'qligi insonni axborot manbalarini baholashda ularning farqiga yetmaydigan qilib qo'yadi.

Mish-mishlar nafaqat hech qanday rasmiy axborot bo'lmagan sharoitda, balki bunday axborot odamlarning qiziqishlarini qondirmagan, yetarlicha ishonchli bo'lmagan yoki shubhali bo'lgan hollarda ham yuzaga keladi va tarqaladi.

Inson unga kelayotgan axborotni beparvolik bilan qabul qilmaydi. U ushbu axborotni o'z qarashlari va e'tiqodlari, yanglishuvlari va xurofotlari, mayl va xush ko'rmasliklari bilan solishtiradi. Shaxs agar norasmiy yo'llar bilan boshqa xabar olgan bo'lsa, rasmiy axborotga tanqidiy munosabatda bo'ladi. Bunday vaziyatda nafaqat axborot berish, balki qayta ishontirish talab etiladi. Bu esa yanglishayotgan odamning o'zi uchun ham, uni qayta ishontirayotganlar uchun ham juda qiyin bo'ladi.

Psixologiya fanida axborotni odamlar aynan o'z ehtiyojlarini qondirish uchun tarqatadilar va o'zlashtiradilar deb to'g'ri ta'kidlanadi¹. Ushbu ehtiyojlarni ularning mish-mishlar bilan qondirilishi nuqtai nazari bilan ko'rib chiqamiz.

Utilitar effekt odamlar olingan ma'lumotlardan o'z hayotiy muammolarini hal qilish uchun foydalanishlarida namoyon bo'ladi. Bu rasmiy axborot tarqatilgan, ammo mish-mishlar ham muayyan, lekin o'ziga xos ahamiyatga ega bo'ladigan holatlarda eng yorqin ko'zga tashlanadi. Masalan, Ikkinchi jahon urushi davomida ingliz razvedkasi Gitler Germaniyasining harbiy zavodlari ishini izdan chiqarish uchun portlovchi

¹ Qarang: Социальная психология: Краткий очерк / Под общ. рад. Г. П. Предвечного и Ю. А. Шерковина. – М., 1995. – С. 192–196.

moddalar ishlab chiqarilayotgan shaharda sartaroshxonada sochi quritilayotgan zavod xodimalaridan birining boshi portlab uzilib ketgani, bu go'yoki atmosferada porox changi haddan tashqari ko'pligidan aholining sochlariga ilashib qolayotgani va sirli portlashning imkoniyatdagi xavfi yuzaga kelishi sababli kelib chiqqani haqida mish-mish tarqatdi. Inglizlarning aytishicha, bunday mish-mish ta'sirida ko'pchilik zavod xodimalari shahardan qochib ketganlar va oqibatda qo'yilgan maqsadga erishilgan.

Obro' samarasi axborot insonning yoki shaxs o'zini mansub deb hisoblayotgan guruhning obro'sini oshirishidan qoniqish hosil qilishida namoyon bo'ladi. Bu hodisa odamlar ichki jihatdan qabul qilgan maqsad va qadriyatlarni tasdiqlovchi axborot (jumladan mish-mishlar)ni jon deb qabul qilishi va oson o'zlashtirishiga asoslanadi. Bizni qiziqtirayotgan muammo nuqtai nazaridan, masalan, axloqiy jihatdan yetuk bo'lmagan xodimlari uning shuhratparastligini xushomad bilan ko'klarga ko'taradigan, o'ziga bino qo'ygan boshliqning xatti-harakatida yorqin namoyon bo'ladi.

Mish-mishlar taraflardan biriga boshqasiga qarshi qo'shimcha dalillar bergan hollarda *pozitsiya (mavqe)ni kuchaytirishi effektini* yuzaga keltiradi. Bu kabi misollar mamlakatga qarshi olib borilayotgan psixologik urushlarda xohlaganicha topiladi.

Pozitsiyalarning kuchaytirishga mo'ljallangan mish-mishlar ba'zan, afsuski, bizning mehnat jamoalarimizda ham yuzaga keladi. Masalan, axloqan buzuvchi insonning hamkasblariga nisbatan shaxsiy adovati ba'zan halol odamlarning yaxshi nomiga dog' tushirishiga olib keladi. Turli idora va tashkilotlarga kelib tushayotgan anonim xatlar tahlili ana shundan dalolat beradi. Epistolyar janrning bu turi ko'pincha o'ziga yoqmagani odamlarning mavqeini boshqalarning qo'li bilan susaytirish, oqibatida o'z mavqeini mustahkamlash maqsadiga ega bo'lgan mualliflarning eshitgan va o'ylab topgan mish-mishlaridan iborat bo'ladi.

Mish-mishlar darajasida *bilishga bo'lgan qiziqishlarni qanoatlantirish* effekti haddan tashqari qiziquvchan odamlarga xosdir. Bu yerda ham qanoatlanish, albatta, xom-xayol, qiziqishlarning o'zi ham arziyasiz va axloqiy jihatdan umidsizdir. Shunga qaramay, bu jamoani qo'zg'atuvchi mish-mishlar yuzaga kelishi va tarqalishining psixologik sabablaridan biri hisoblanadi.

Bu hodisaning boshqa tomoni ham mavjud. Agar, masalan, shaharda kunduzi odamlar mavzelerdan biri uzra ko'tarilayotgan quyuq tutunni ko'rgan bo'lsalar, nima bo'lganini bilishga intilishning yuzaga kelishi tabiiydir. Agar odamlarning qiziqishi vakolatli organlarning rasmiy axboroti bilan qanoatlantirilmasa, aqlga to'g'ri kelmaydigan mish-mish gaplar yuzaga kelishi muqarrar. Binobarin, odamlarda tushunmaslikdan berilgan savol

yuzaga kelsa, bunday savol qanchalik nozik va achchiq bo‘lmasin, undan qo‘l siltab ketish mumkin emas. Xodimlar jamoalarida ham bunday zarurat yuzaga keladi. Qo‘l ostidagi xodimlarning bilishga oid qiziqishining bahs mavzuiga aylangan muammolarni o‘rganmaydigan, ular yuzasidan rasmiy izoh berish zarur deb hisoblamaydigan rahbar bu bilan nosog‘lom mish-mishlar yuzaga kelishiga sharoit yaratadi.

Mish-mishlardan kelib chiqadigan *hissiy effekt* ijobiy modallikni o‘tkir his etish xususiyatiga ega bo‘lishi mumkin. Hissiyotlar axboroti nazariyasidan kelib chiqadigan bo‘lsak, inson his qilayotgan qoniqish, lazzat mish-mishlardagi xabar (garchi yolg‘on, voqelikka mos kelmaydigan, ammo rostga o‘xshab ketadigan bo‘lsa ham) kutilganidan ortiq axborot berganidagina mavjud bo‘ladi. Qandaydir (moddiy yoki ma‘naviy) qadriyatlarga ega bo‘lishga intilgan hollarda axborotning bunday o‘ziga xos ko‘pligi zavq, xursandchilikni yuzaga keltiradi. Masalan, amalga oshish ehtimoli juda kamdek tuyulgan azaliy orzu kutilmaganda ushalganini ta‘kidlovchi mish-mishning oqibati ana shunday. Ushbu holda hissiy zavqlanishga (razradkaga) bo‘lgan ehtiyoj qanoatlantiriladi, holbuki, albatta, mish-mish bunday maqsadga o‘ziga xos tarzda, inson xabarning chin yoki chin emasligini bilmagan baxtli holatda bo‘ladigan davr mobaynidagina erishadi.

Ko‘rib turganimizdek, mish-mishlarga qarshi kurash – oson ish emas, bu maqsadda turli-tuman usullardan foydalaniladi. Ammo asosiysi – odamlarda mish-mishlarga qarshi ma‘naviy-ruhiy barqarorlikni shakllantirish. Bunga esa butun mafkuraviy ishlar tizimi bilan erisqiladi.

Mish-mishlar o‘zi mohiyatiga ko‘ra ma‘lum ma‘noda tasdiqlagan yoki hech kim tomonidan tasdiqlanmagan xabar (ma‘lum ma‘noda) vazifasini bajaradi, shuning uchun ham ba‘zi shaxslar hayotida va jamiyatda ma‘lum bir ijtimoiy psixologik muammolarni yuzaga keltiradi. Natijada jamiyatni, insonlar turmush tarzini o‘zgartirib yuborish xususiyatiga ega.

Shu nuqtai nazardan mish-mishlar ijtimoiy psixologik xususiyatga ega bo‘lib, jamoatchilik ongiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi va jamiyatga zid bo‘lgan ommaviy tartibbuzarliklarni keltirib chiqaradi. Bu esa ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatini yanada murakkablashtiradi.

Ko‘p hollarda mish-mishlarning kelib chiqishi va tarqalishining asosiy sabablaridan biri shaxslarda kerakli ma‘lumotlarning yetishmasligidir. Buning natijasida shaxslarning ma‘lum muammo, voqea-hodisaga nisbatan talab, ehtiyoj va qiziqishlari qondirilmaydi. Bu esa, o‘z navbatida, xabarlarini tarqatishda unlariga emosional tus beradi, ularni bo‘rttirish va boyitishga olib keladi. Mish-mishlar ma‘lum maqsad va manfaatlarga qaratilib, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-maishiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Ular g‘arazli niyatlarda tarqatiladi.

Mish-mishlarni tarqatuvchi shaxslarning psixologik xususiyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ular hamisha xabarlarini ishonchli manbalardan olingan deb aytishadi va insonlarga o'zlarini bilag'on qilib ko'rsatishga harakat qiladilar. Bunday shaxslar insonlardagi hayajonni ko'rib, voqealarga yanada ko'proq emotsional tus berishga intilishadi.

Albatta, ba'zan mish-mishlarning kuchi haqiqiy axborotdan ham kuchli bo'lishi mumkin va ayrim hollarda ma'lum vaqt xuddi shunday bo'ladi.

Ko'p hollarda mish-mishlar hududdagi operativ vaziyatga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, narx-navoning ko'tarilishi, pulning almashi-shi borasidagi mish-mishlar inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi va bu ko'pchilik holatlarda insonlarning hissiy zo'riqishiga sabab bo'ladi, natijada ular xatti-harakatlarining izdan chiqishiga olib keladi.

Ko'pchilik holatlarda mish-mishlarning tarqalishi va e'tirozli holatlarining paydo bo'lishiga manfaatli shaxslarning xatti-harakatlari va xabarlari sabab bo'lishi mumkin. Masalan, 2004–2005-yillarda shunday mish-mishlar tarqaladi, go'yoki yosh bolalarni o'g'irlyadigan manyak paydo bo'lgan va u bolalarning tana a'zolarini transplantatsiya qilishi haqidagi mish-mish gaplar insonlar ruhiyatida qo'rquv hissini paydo qilgan.

Bunday paytlarda ichki ishlar organlari xodimlari ma'lum vaqtgacha xabarning o'zagini topishga qiynalishadi, oxir oqibat shaharda kuchaytirilgan operativ vaziyat yuzaga keladi.

Demak, mish-mishlar ma'lum bir voqea, hodisalar haqidagi xabar bo'lib, bir kishi tomonidan ikkinchi bir kishiga yetkaziladigan og'zaki xabar-dir. Mish-mishlar ba'zi shaxslar tomonidan o'ylab topilgan bo'lishi ham mumkin.

Mish-mishlarni quyidagicha tavsiflash maqsadga muvofiqdir:

- 1) hodisalarni tasvirlash;
- 2) emotsional ton (tus) berish, izohlash;
- 3) mish-mish gaplarni ta'sir kuchidan foydalanish.

Mish-mishlar o'z ma'no-mohiyatiga ko'ra uch turga bo'linadi:

- 1) umuman haqiqatga to'g'ri kelmaydigan mish-mish gaplar;
- 2) ma'lum ma'noda tasdiqlangan (haqiqat bor) mish-mish gaplar;
- 3) to'liq ma'noda haqiqatga ega bo'lgan mish-mish gaplar.

Umuman, mish-mishlar o'z xarakteriga ko'ra to'g'ri, aynan haqiqatning o'zini tashkil qilmaydi, sababi mish-mishlar bir shaxsdan ikkinchi shaxsga yoki bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tishda qandaydir qo'shimcha o'zgarish bo'ladi, ya'ni «mish» qo'sqiladi.

Mish-mishlar agressiv (ashaddiy) bo'lishi mumkin (1992-yildagi talabalar shaharchasida bo'lgan voqeani ko'z oldingizga keltiring). Bunday vaziyat-

larda odamlar hech narsaga ishonmaydigan bo‘lib qoladi, bu holatlar ayniqsa kichik-kichik guruhlardagi odamlar orasida ko‘p uchraydi. Mish-mishlar o‘z xususiyatiga ko‘ra maxsus tashkil etiladi va birdan yuzaga kelishi mumkin.

Maxsus tashkil etilgan mish-mishlardan ko‘zlangan maqsad yashirin motivlar, g‘arazli niyatlar bilan amalga oshiriladi.

Mish-mish gaplar shaxslar ongiga quyidagicha ta’sir ko‘rsatadi:

- 1) shu muammo bo‘yicha ongda ma’lum tasavvur yuzaga keladi;
- 2) aholi orasida guruh-guruh bo‘lib yurishib, jamiyatdagi mavjud tartibni buzish yuzaga keladi.

Shuningdek, yer qimirlash, tabiiy ofatlar, terrorchilik aktlari haqidagi mish-mishlar insonlar ongida qo‘rquv hissini paydo qiladi.

Mish-mish gaplarga qarshi kurashish uchun:

– ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanish va mish-mishlar haqidagi ma’lumotlarga aniqlik kiritish hamda mazmun-mohiyatini ochib berish;

– mish-mishlarning tarqalish hududini kuzatish va o‘sha hududda profilaktik ishlarni tashkil etish;

– jamoatchilikka mish-mishlar bilan bog‘liq masalalarni to‘g‘ri tushuntirish va aniq axborotlar berish;

– mish-mishlarning oldini olish va unga qarshi kurashishda jamoatchilik kuchlaridan foydalanish lozim.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shunday xulosalarga kelish mumkin:

1) mish-mishlar ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, ichki ishlar organlari xodimlari ishini qiyinlashtiradi, jamoatchilik ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi;

2) mish-mishlar tasdiqlanmagan xabar bo‘lib, o‘z kuchi, mazmuni, xarakteridan kelib chiqqan holda odamlarda emotsional hislarni yuzaga keltiradi;

3) mish-mishlar tarqatishning asosiy sabablari shaxslarning guruhlar, jamoalar, odamlar orasida o‘zini ko‘rsatishi, mish-mishlarni qayoqdan kelishini bilgan holda boshqalarni sodir etilishi mumkin bo‘lgan voqealardan xabardor qilish, o‘zlaridagi mavjud zo‘riqishni tushirishdir.

Olomon psixologiyasi

«Olomon» atamasi ijtimoiy psixologiyaga XIX asrning oxiri va XX asrning boshida yuz bergan ommaning qudratli inqilobiy ko‘tarilishi davrida kirib keldi.

O‘z tabiatiga ko‘ra, olomon harakatdagi, shuningdek *tajovuzkor, qutqarilayotgan, manfaatparast, ekstatik* (masalan, pir, aytaylik mashhur jaz muxlislarining diniy mutaassibliyi yoki aqlsizligi tufayli yuzaga keladigan

olomon) turlarga bo‘linadi. Yuqorida keltirilgan tasnifning muallifi psixolog Yu. A. Sherkovin ta’kidlaganidek¹, bunday ajratish shartlidir. Olomonning bir turi ayni vaqtda boshqasining jihatlariga ega bo‘lishi va yangi turiga aylanishi mumkin.

Sobiq Ittifoq ijtimoiy psixologlari (B. F. Porshnev, B. D. Parigin, Yu. A. Sherkovin, N. F. Fedenko va boshqalar)ning ilmiy ishlarini tahlil qilish asosida olomonning bir qator psixologik xususiyatlarini ko‘rsatish mumkin.

Olomonning eng muhim farqli jihati uni tashkil etuvchi odamlar tarkibining tasodifiy xususiyatlaridir. Bu, albatta, olomonning yuzaga kelishi ijtimoiy hodisalarning sabab-oqibatlarini doirasidan chetga chiqishini bildirmaydi. Olomonning dastlabki o‘zagi oqilona mulohazalar ta’sirida shakllanishi va o‘z oldiga juda aniq maqsadlar qo‘yishi mumkin. Biroq o‘zakning bundan keyingi rivojlanishi shiddat bilan va o‘z-o‘zidan yuz beradi. Olomon bungacha bir-birini mutlaqo tanimagan, umumiy tomonlariga ega bo‘lmagan odamlarni o‘z ichiga olib, o‘sib boradi.

Bunga ishonch hosil qilish uchun spirtli ichimlik iste’mol qilgan va bezorilik qilayotgan o‘smirlar olomoniga murojaat etishning o‘zi yetarli. Bunday olomon tarkibida uni jipslashtirish bo‘yicha faol harakat qiluvchi va sekin-asta uning xatti-harakatini yo‘naltiruvchi *boshlovchilar* ajralib turadi. Bular jamiyatda o‘rnatilgan axloq qoidalarini tan olmaydigan, axloqi buzilgan odamlardir. O‘z qadriyatlarini olomon harakatlarining yo‘nalishi bilan *birday ko‘ruvchi* olomon ishtirokchilari ulardan ajralib turadi. Masalan, ba’zan olomonning tajovuzkor harakatlari qaratilgan obyektidan alamzada bo‘lib yurgan odamlar ham guruhiiy tartibbuzarliklarga tortiladilar. Ular boshlovchi emas, ammo olomonning ta’sir doirasida qolib, unda faol ishtirok etadilar. Olomon ichida unga faqat o‘z «bebosh fe’lini» ko‘rsatib qo‘yish, o‘zining shafqatsizlikdan huzur qiladigan impulslarini chiqarish imkoniyati paydo bo‘lgani tufayligina olomonga qo‘shilgan *tajovuzkor* shaxslar ayniqsa katta xavf tug‘diradi. Eng og‘ir harakatlarni odatda ular sodir etadilar.

Guruhiiy tartibbuzarlik ishtirokchilari orasida halol, ammo *adashganlari* ham mavjud. Ular vaziyatni xato, adolat prinsipini noto‘g‘ri tushunganligi tufayli olomonga kirib qoladilar. Bunday insonning xulqini baholashda uning obyektiv oqibatlarini va subyektiv jihatlarini farqlash zarur. Obyektiv jihatdan u guruhiiy tartibbuzarlik ishtirokchisi bo‘lib qoladi, subyektiv jihatdan esa u o‘zini jamiyatga qarshi unsur deb hisoblamaydi.

Olomonga, shuningdek *obivatellar* (tasodifiy qo‘shilib qolganlar) ham kiradi. Ular katta faollik ko‘rsatmaydilar, ularni, sport sharhlovchilar

¹ Qarang: Социальная психология: Краткий очерк / Под общ. ред. Г. П. Предвечного и Ю. А. Шерковина. – М., 1995. – С. 289–290.

aytganlaridek, hayajonga soluvchi tomosha sifatidagi tartibbuzarlik o'ziga jalb qiladi. Bu tomosha go'yoki ularning bir xil va zerikarli, bema'ni tirikchiligiga qandaydir yangilik kiritadi. Guruhiy tartibbuzarliklarda umumiy kayfiyatga beriluvchan, stixiyali hodisalar hukmiga o'zini qarshiliksiz berib yuboradigan o'ta *ta'sirchan* odamlar ham ishtirok etadilar. Nihoyat, olomonga tashqaridan (ichki pozitsiyasi nuqtai nazaridan) kuzatib turadigan, voqealarning borishiga aralashmaydigan oddiygina *tekin tomoshabinlar* ham kiradi. Biroq ularning hozir bo'lishi ommaviylikni oshiradi, olomon stixiyasining odamlar xatti-harakatiga ta'sirini kuchaytiradi.

Demak, yuqorida ta'kidlanganidek, olomonning tasodifiy tarkibi – uning o'ziga xos psixologik xususiyatlaridan biri bo'lib, buni guruhiy tartibbuzarliklarga qarshi kurash choralarini ko'rishda inobatga olmaslik mumkin emas.

Olomonning keyingi xususiyati odamlar *xatti-harakatining bir xilligini belgilovchi* ijtimoiy-psixologik hodisalarning o'ziga xosligida namoyon bo'ladi. Jamoada, ma'lumki, bir xildagi xatti-harakat ongli ravishda qo'yilgan va barcha e'tirof etgan hamda ijobiy ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarning umumiyliigi bilan ta'minlanadi. Olomon esa asosan odamlarning bunday umumiyliigini norozilik obyektiga qarshi qo'yish evaziga yaratiladi. B. F. Porshinev ta'kidlaganidek, olomoni uning «qarshiligi», «ularga» qarshiligi umumiylikka aylantiradi.

Olomonning keyingi xususiyati – unda, shartli ravishda, *hissiy rezonans* deb atash mumkin bo'lgan o'ziga xos ijtimoiy psixologik hodisaning amal qilishi sanaladi. Guruhiy tartibbuzarlikda ishtirok etuvchi odamlar nafaqat oddiygina bir-biri bilan yonma-yon keladi, balki atrofdagilarni qo'zg'atadilar va o'zlari ham ulardan ta'sirlanadilar. Bir kishining olgan qo'zg'alishi, boshqasining idrok etish obyektiga aylanib, uning qo'zg'alishini yanada kuchaytiradi va bu hol ong tomonidan nazorat qilinishi qiyin bo'lgan hissiy portlashgacha borishi mumkin.

Olomon shakllanishining ilk belgilaridan guruhiy tartibbuzarlikkacha bir qancha bosqichlar bosib o'tiladi.

Bahonaning *yuzaga kelishini* guruhiy tartibbuzarliklarning boshlanishi deb hisoblash mumkin. Odamlarning e'tiborini tortgan va ular noto'g'ri talqin etgan har qanday voqea yoki fakt ana shunday bahona bo'lishi mumkin. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bahonalar nihoyatda xilma-xil bo'lishi mumkin.

Guruhiy tartibbuzarlikning yetilishidagi ikkinchi bosqich dastlabki *xavotirli mish-mishlarning* paydo bo'lishi bilan bog'liq. Tartibbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyat ushbu bosqichda ancha qiyinlashadi.

Odamlar voqeaga nisbatan muayyan qarashni o'zlashtirishga ulgurgan bo'ladilar va har qanday axborotni o'zlarining yanglishuvlari orqali qabul qiladilar. Vaziyatning yanada murakkablashuviga qarshi kurashning yo'li – odamlarni qayta ishontirish, mish-mishlarning yolg'onligini dalillar bilan isbotlashdir. Bu bosqichda voqea yoki fakt manfaatlariga ko'p darajada ta'sir ko'rsatgan odamlarni yakka tartibda qayta ishontirish eng ko'p samara beradi. Bu bosqichda omma oldida mish-mishni rad etish vaziyatni chigallashtirishi, mish-mishlarning yanada ko'proq tarqalishini keltirib chiqarishi mumkin.

Uchinchi bosqichni shartli ravishda *aqllarning achishi* deb atash mumkin. Darhol rad qilinmagan mish-mishlar tarqalishda davom etadi, katta o'zgarishlarga uchraydi va odamlarda hozircha «kar» qo'zg'alishni yuzaga keltiradi. Bu bosqich ham, avvalgi ikkita bosqich ham odamlarning – olomonning to'planishidan avval keladi va uni psixologik jihatdan tayyorlaydi.

To'rtinchi bosqich olomonning shakllanishi bilan bog'liq. Dastlab to'plangan odamlar orasida o'ziga xos *sirkular reaksiya* boshlanadi, ya'ni bundan keyin bir xildagi xatti-harakatga ruhiy asos yaratuvchi fikr va hissiyotlarning jadal almashinuvi ro'y beradi. So'ngra aylanish jarayoni boshlanadi: hissiy qo'zg'alish kuchayadi, odamlar buning oqibatida zudlik bilan harakatga o'tishga tayyor bo'lib qoladilar. Aylanish jarayonida norozilik obyekti aniqlashadi, nafrat obrazi shakllanadi. Nihoyat, odamlarning faollashuvi boshlanadi. Bu jarayonda, masalan, olomon yetakchisi amalga oshirayotgan qo'shimcha rag'batlantirish aylanish jarayonida shakllangan obrazga qarshi qaratilgan impulslarni yuzaga keltiradi¹.

Beshinchi bosqich olomonning *g'ayriijtimoiy xulqining rivojlanishi*, ya'ni guruhiiy tartibbuzarliklarning o'zidir. Tartibbuzarlikni boshlovchilar ig'vosiga uchgan eng tajovuzkor shaxslar boshlab beradilar. So'ngra, taqlid asosida, olomon yomon namunaga ergashadi, beboshlikni rivojlantiradi. Olomonning g'ayriijtimoiy harakatlarining oldini olish va ularga chek qo'yish uchun turli shakl va usullardan foydalaniladi. Ular uchun umumiy bo'lgan jihat – olomon xulqining psixologik qonuniyatlarini chuqur bilish va aniq hisobga olish. Masalan, anonimlik hissi olomon ishtirokchilarini ongsiz harakatlarga undashidan quyidagicha foydalanishi mumkin. Olomon ancha katta bo'lganida ovoz kuchaytirgich vositasi orqali uning aniq ishtirokchilariga murojaat etish to'g'ri bo'ladi. Bu hol eng sog'lom fikrlovchilarni o'z harakatlarini anglashga undaydi, ularga o'zini nazorat

¹ Qarang: Социальная психология: Краткий очерк / Под общ. ред. Г. П. Предвечного и Ю. А. Шерковина. – М., 1995. – С. 291.

qilishdek yo‘qotgan hissiyotini qaytarishda va o‘z xatti-harakati uchun mas’uliyatni his qilishida yordam beradi.

Shu nuqtai nazardan olomon, psixologik jihatdan kelib chiqishiga ko‘ra, maxsus, hech qanday insonlar tomonidan tashkil etilmagan odamlarning xatti harakatlari yig‘indisidir.

Fransuz psixolog olimi Le Bon Gyustavning fikricha, «olomon yig‘ilganda millati, kasbi, tilidan qat’i nazar, ularda maqsad bitta bo‘ladi va ularning ongida to‘la fikrlash yo‘qoladi, hatto o‘lim ham ularga qo‘rqinchli emasdek ko‘rinadi»¹.

Olomon psixologiyasini bilish ichki ishlar organlari xodimlari uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ommaviy tartibsizliklar, namoyishlar, mitinglar kabi salbiy holatlarning oldini olish va jamoat tartibini saqlashda qo‘l keladi.

Ommaviy tartibsizliklar, mitinglar va turli namoyishlar uyushmagan bir guruhning salbiy xatti-harakatlari asosida amalga oshiriladi. Olomonga qo‘shilgan shaxslar ongida taqlid qilishga kuchli moyillik, tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik va ijtimoiy javobgarlik hissining yo‘qligini kuzatish mumkin. Shu sababi olomon ayrim g‘arazli, ig‘vogar shaxslar uchun obyektini yo‘q qiluvchi qurolga aylanadi.

Ommaviy tartibsizliklarning tashkilotchilari yig‘ilgan olomonning salbiy xulq-atvor mexanizmlaridan ustalik bilan foydalanib, ulardagi tajovuzkorlik instinktlarini qo‘zg‘atadilar. Ommaviy tartibsizliklar davlatga, uning yuritayotgan siyosatiga qarshi mish-mishlar uyushtirish, xalq o‘rtasida tajovuzkorlik holatlarini keltirib chiqarish uchun qo‘llaniladi. Bunday vaziyatlarda ommaning xatti-harakatini tartibga solib bo‘lmaydi.

Olomon o‘zi xarakteriga ko‘ra agressiv (ashaddiy) bo‘lishi mumkin, ashaddiy mish-mishlar ommaviy tartibbuzarliklarni yuzaga keltiradi.

Olomon psixologiyasida meniki va ularniki degan fikr albatta mavjud. Ya’ni olomon vaziyatni murakkablashtiruvchi va o‘ziga xos tezlashtiruvchi generatoridir. Olomon psixologiyasida ma’lum o‘zgarishlar ro‘y beradi, bu o‘zgarishlar nimalarda sodir bo‘lishini ko‘rish mumkin.

Olomon xatti-harakatining yuzaga kelish psixologiyasi quyidagi ko‘rinishga ega:

- 1) olomonda ko‘rish va eshitish orqali kuchli emotsional holat yuzaga keladi;
- 2) o‘zining xatti-harakatlariga javob berish ular uchun oxirgi o‘ringa o‘tadi;
- 3) o‘zida qo‘shimcha kuch va ongida o‘zgarish sezadi.

¹ Qarang: *Ле Бон Гюстав. Психология народов и масс.* – М., 2000. – С. 62.

Olomon, sodir bo'lgan voqea va hodisaga qarab, quyidagi turlarga bo'linadi:

- to'satdan yuzaga kelgan olomon;
- ekspressiv (to'satdan yuzaga kelgan) olomon;
- konvensial olomon.

To'satdan yuzaga kelgan olomon birdan to'planadi, voqea-hodisaning mohiyatini tushunishni xohlaydi. Ushbu turga to'y-hasham, xudoyi, janozalardagi olomon – xalq kiradi.

Konvensial olomonga ommaviy sport tadbirlari, masalan, futbol uchra-shuvlariga yig'ilgan odamlar kiradi. Ushbu toifadagi olomonning o'ziga xosligi shundaki, ko'p hollarda ularning axloqi ma'lum qolipdan chiqib ketadi. Bu ularning baqiriqlari, qayg'urishlari, quvonganlarida ko'rinadi.

Ashaddiy olomon hamma yoqni buzadi, sindiradi, o't yoqadi, bu bilan olomonning o'zi ham vahimaga tushadi.

Olomon ham o'z tarkibiga ega, masalan:

- 1) adashib qo'shib qolgan shaxslar;
- 2) ashaddiy harakatdagi shaxslar;
- 3) olomon harakatini qo'llab-quvvatlaydigan shaxslar;
- 4) boshlovchilar (ya'ni o't yoquvchilar.)

O't yoquvchilar olomonning xatti-harakatini, axloqini izdan chiqaradi va bir yo'nalishga qaratadi. Bunday shaxslar o'zlari hech qanday yo'lga yurmaydi, ishni boshlab keyin olomon orasidan qochadilar.

Olomonning xatti-harakatini qo'llab-quvvatlab yuradigan shaxslarning bevosita ishtiroki kam bo'ladi.

Olomon tarkibidagi eng qo'rqinchli shaxslar tajovuzkor shaxslardir, ular o'z axloqini ko'z-ko'z qiladilar.

Ba'zi hollarda ayrim shaxslar o'zlari bilmagan holda shu oqimga qo'shib ketadilar va olomonni to'ldiradi. Ularning shunday ahvolga tushishiga sabab yolg'on xabarga uchishidir.

Olomonning shakllanish bosqichlari:

- 1) sharoitning yuzaga kelishi (sirkulatsiya);
- 2) miyadagi qaynash;
- 3) dushman obrazining shakllanishi;
- 4) olomonning faollashuvi;
- 5) jamiyatga qarshi harakatning avj olishi.

Sirkular, ya'ni aylanma reaksiya olomonning shakllanishiga olib keladi, bunda har xil imkoniyatlar, masalan, faktlar (dalillar), turli xabarlar yaratiladi.

Miyadagi qaynashda odamlar bir-biri bilan faqat xabar almashadi va eng asosiysi ma'lum bir fikrda turishadi. Shuning uchun ham boshqa

xabarni (yangi) eshitganda o'zlarini ma'lum ma'noda adashmagan deb hisoblaydilar.

Dushman obrazining shakllanishi shunday holatki, unda olomon faqat salbiy holatlarni tasavvur qilib, o'zi noroziligini bildiradi. Bularning hammasi olomonning harakatini faollashtiradi.

Bunday tasavvurdagi obyektlar ommani birlashtiradi va bir butun qiladi. Oxirgi bosqich jamiyatga qarshi xatti-harakatni yuzaga keltirish va olomon faoliyatini faollashtirishdir.

Vahima, qo'rquv va sarosimaga solish olomonning asosiy vazifalaridan bo'lib, bunday holatlarda shaxslarning xatti-harakatida o'zini o'zi boshqarish oxirgi o'ringa turishini, javobgarlik hissining yo'qolishini kuzatish mumkin. Vahima, qo'rquv va sarosima asosida mavjud yoki ehtimollik xavfi oldida ojizlik, uni yengib o'tish o'rniga undan qochish fikri paydo bo'ladi. Vahima qo'rquvning psixofiziologik mexanizmi bo'lib, bosh miya po'stlog'ining katta maydonida induksion tormozlanish, anglash faolligining susayishiga olib keladi va tez emotsionallik holatini yuzaga keltiradi. Natijada shaxsda noadekvat (nomos) fikrlash, illyuzion (noto'g'ri) idrok qilish, kuchli emotsional qo'zg'alish oqibatida xavfni bo'rttirish, kuchli ta'sirchanlik, beriluvchanlik holatlarini kuzatish mumkin.

Vahima va qo'rquv guruhiy va individual tarzda yuz beradi. Individual tarzda yuz beradigan vahima yoki qo'rquv harakatlarning noadekvatligida, biror-bir xulosa, qarorga kelish, mavjud xavfdan qochish, undan kutilish uchun xavfsizlik choralari ko'ra olmaslik holatlarida namoyon bo'ladi. Ommaviy tartibsizlik holatlaridagi vaziyat yetakchining individual vahima va sarosimaga bo'lgan aks ta'siri bilan bevosita bog'liqdir.

Vahima, sarosima, qo'rquv asosan ikki turga bo'linadi:

- qaltis vaziyatlarda qo'rqish natijasida o'lim xavfini his etish;
- muddatli xavotirlanishdan so'ng kuchli zo'riqish, asab tizimining buzilishi, diqqatning xavotir predmetiga yo'nalganligi.

Ichki ishlar organlari xodimlari vujudga kelishi mumkin bo'lgan bunday salbiy hodisalarning oldini olish maqsadida oldindan profilaktik chora-tadbirlarni qo'llashlari lozim. Ommaviy tartibsizliklar paytida ommani tarqatish uchun uni kichik guruhlariga ajratish, olomondagi ashaddiy ishtirokchilarni topish va ularni jazolash muhim ahamiyat kasb etadi.

Olomondagi jamiyatga qarshi harakatlarning oldini olishda ichki ishlar organlari xodimlari ijtimoiy psixologiya va uning qonuniyatlarini yaxshi bilishlari, ya'ni ijtimoiy jarayonlar, jamoa va guruhlarining psixologik xususiyatlarini, ularni harakatga keltiruvchi psixologik mexanizmlarni hisobga olishlari muhim ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, jamiyatdagi

ma'naviy-ruhiy muhitni o'rganishlari, ijtimoiy psixologik munosabatlar tizimida jamoa va guruhlarining o'rnini bilishlari zarur.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Jamoatchilik fikri: turlari, shakllari, tuzilishi va shakllanish bosqichlarini sanab bering.
2. Guruhiy kayfiyat va uning psixologik xususiyatiga tavsif bering.
3. An'analar, urf-odatlar, marosimlar va ularning ijtimoiy-psixologik mazmunini izohlab bering.
4. Psixologiyada guruh haqidagi tushuncha va uning tasnifiga ta'rif bering.
5. Jamoa – guruh rivojlanishning eng oliy shakli sifatida deyilganda nimani tushunasiz?
6. Jamoa va shaxs o'rtasida bog'liqlik bormi?
7. Guruh va jamoalarda shaxslararo munosabatlar va ularning rivojlanishi qanday kechadi?
8. Guruhda liderlik muammosini izohlab bering.
9. Guruhiy jipslik deyilganda nimani tushunasiz?
10. Harakatdagi olomonning ko'rinishi va uning psixologik mexanizmlarini aytib bering.
11. Mish-mish gaplarning inson ongiga ta'sirini izohlab bering.
12. Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishda psixologik bilimlarning o'rnini ko'rsating.

11-mavzu. HUQUQBUZAR SHAXS PSIXOLOGIYASI. JINOIY GURUHLAR VA UYUSHGAN JINOYATCHILIKKA PSIXOLOGIK TAVSIF

Huquqbuzar shaxs va uning jinoiy axloqiga psixologik tavsif.

Xulq-atvor aksentuatsiyasi va aksentuallashgan jinoyatchilar xulq-atvorining xususiyatlari.

Jinoiy guruhlar va uyushgan jinoyatchilik haqida tushuncha.

Huquqbuzar shaxs va uning jinoiy axloqiga psixologik tavsif

«Huquqbuzar shaxsi» ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, bir qator fanlarning o‘rganish obyekti hisoblanadi. Uni nafaqat psixologlar, balki yuristlar ham predmet obyekti sifatida o‘rganadilar. Jinoyatchi shaxs psixologiyasi haqida bir qator psixolog (M. I. Yenikeev, O. L. Kochetov, Yu. V. Chufarovskiy, Yu. L. Vasilyev va boshq.) olimlar ilmiy adabiyotlarda o‘z fikrlarini bildirganlar.

Huquqbuzarlik – jamiyatda o‘rnatilgan va qonun asosida belgilangan tartib yoki umuman ijtimoiy yashash qoidalarini buzish. O‘z xususiyatlariga ko‘ra huquqbuzarlik – jinoyat, nojo‘ya harakat, intizomni buzish shaklida bo‘ladi. Ko‘p hollarda huquqbuzarlik qonunbuzarlik so‘zi bilan hamohang bayon etiladi. Barcha huquqbuzarliklar jinoyat emas. Shu bilan birga, qonun-buzarliklarning barchasi ham jinoyat bo‘lmasligi mumkin. Jinoyat deb aytish uchun uning o‘ziga xos belgilari bo‘lishi zarur¹.

Yuridik psixologiyada ham ushbu muammo markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. *Jinoyatchi shaxsi* – jinoyatchining asosiy intellektual-ma’naviy xislatlari, ruhiy va jismoniy holatining majmuidir. Jinoyatchi shaxsini o‘rganish shaxs sodir etgan qilmishni malakali baholashni, jumladan individual bashorat qilishni ta’minlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jinoyatchi shaxsi to‘g‘risida har tomonlama va chuqur tasavvurga ega bo‘lish uchun tahlil nafaqat jinoyat sodir etilgan vaqtni va uni tekshirish davrini, balki tekshiriluvchining rivojlanishini ham qamrab olish kerak. Bunda jinoyat sodir etilishining yashirin motivlarini ham, psixologik-psixiatrik xususiyatlarini ham baravar inobatga olish lozim. Jinoyatchining shaxsi va jinoyat o‘zaro bog‘liq bo‘lganligi bois, kriminalistik ish doirasida

¹ Юридик энциклопедия. Проф. У.Таджихановнинг умумий тахрири остида. – Т., 2001. – Б. 652.

jinoyatchining shaxsi to'g'risida tegishli ma'lumotlarni olish jinoyatni tergov qilish faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki O'zR JK 54-moddasiga binoan, sud jazo tayinlashda jinoyatchi shaxsini boshqa holatlar bilan bir qatorda inobatga olishi lozim¹.

Kriminolog olim Dagel jinoyatchi shaxslarni quyidagicha tavsiflaydi:

- jismoniy baquvvatligi. tashqaridagi qarshi harakatlarni o'z kuchi bilan yengaman deb o'ylaydi;

- sodir etilgan jinoyatning xarakteriga qarab, masalan o'g'irlik, bosqinchilik, qotillik va hokazolar;

- oldingi sodir etgan jinoyatining xarakteriga qarab keyingisini shu jinoyatga o'xshashligi tomonidan yaqinlashishi;

- huquqbuzar shaxsning psixologik o'ziga xosligi, masalan, uning temperamenti, emotsiya, qiziquvchanlik darajasi, eng muhim jihatlaridan biri huquqbuzarlik sodir etishga moyillikning mavjudligi va boshqalar;

- huquqbuzar shaxs psixologiyasining qay darajada tuzilganligi;

- unga huquqiy jazo choralari ta'sir qilganligi yoki yo'qligidandir.

Jinoyatchilarning bunday turlarining mavjudligi jinoyatni oldini olishda bir qancha qulayliklar yaratishi mumkin. Shu bilan birga, huquqbuzar o'zi xohlamagan holda, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir qilib qo'yishi mumkin, lekin jinoyat sodir qilishda shaxslar ko'pgina hollarda ijtimoiy vaziyatni hisobga olishga harakat qiladilar. Chunki ularga imkoniyat tug'ilishi mumkin.

Tadqiqotchi B. Saxarov jinoyatchilarni quyidagicha tavsiflaydi:

- shaxsni shaxsga nisbatan ataylab jinoyat sodir etishi. Bezorilik, nomusga tegish, o'g'irlik, tan jarohati va shu kabi jinoyatlar;

- shaxsni mulkini talon-toroj orqali ataylab jinoyat sodir etishi, masalan, ko'rolmaslik oqibatida, qasddan jinoyat sodir etish holatlari;

- mansabni suiiste'mol qilish orqali. poraxo'rlik yoki biror harakat yoki harakatsizlikni sodir etishdan bo'yin tovlash;

- yengiltaklik oqibatida (irodasizlik, sabrsizlik) natijasida sodir etilgan jinoyat.

Birinchi marta sodir qilinadigan huquqbuzarliklarga quyidagicha tavsif berish mumkin. Huquqbuzar shaxsning o'ziga xos bo'lgan belgilari bilan bog'liq omillar:

- shaxs 16 yoshga to'lganligi;

- aqlli rasolik mezonlari;

- jismoniy shaxsliligi.

¹ Юридик энциклопедия / Проф. У.Таджихановнинг умумий тахририда. – Т., 2001. – Б. 165.

Har bir jamiyat rivojlanishi va o'zgarishiga qarab jinoyatlarining yangi-yangi turlarini o'ylab topadilar. Masalan, bugungi kunda xakkerlar, narkotik moddalar bilan noqonuniy ravishda muomala qilish va hokazo.

Huquqbuzar shaxsning psixologiyasiga xos xislatlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- ehtiyotkorlik, ya'ni har bir qilgan xatti-harakatlariga ehtiyotkorlik bilan yondashadi;
- xavotirlanish–tashqaridagi har bir voqea-hodisalarga xavotirlanish hissi bilan qarash;
- ishonmaslik-atrofdagilarga hatto do'stlariga ham bo'lgan ishonchi yo'qoladi;
- serjahlilik-arzimagan narsa va hodisalarga jahli chiqib atrofdagilarga jirkanch munosabatda bo'ladi;
- tezda xafa bo'lish;
- gumonsirash;
- o'zini kamsitilgan deb his qilish;
- qiynalغانlik, jamiyatdan ajralib qolganday his qilish va hakovolar.

Bu mezonlarni barchasi shaxslarni ozodlikdan mahrum bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan psixologik holatlaridir, bundan tashqari u hamisha o'zini ehtiyotkor sezib yuradi, bundan tashqari huquqbuzar shaxslarning ichida eng ko'p uchraydigan psixologik holat bu o'zini jismoniy kuchli qilib ko'rsatishi, yoki himoyachilariga ishonib boshqa shaxslarni bo'ysundirishga harakat qilishdir.

Jinoyatchi shaxslar ham o'zining ijtimoiy, biologik va psixologik holatlariga qarab turlarga bo'linadi.

- Erkaklar va ularning jinoyat turlari;
- O'g'irlik, bosqinchilik, nomusga tegish, qotillik va hokazo.
- O'spirinlar va ularning jinoyat turlari-o'g'irlik, zo'rlash, bezorilik, talonchilik va hakovolar.
- Qariyalar, maishiy turmush sohasida, yer talashi, mol o'g'irilari.
- Ayollar va ular tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar-bola o'g'irlash, bola o'ldirish, o'g'irlik, firibgarlik, kamomad, buxgalteriya sohasidagi ma'lum jinoyatlarni sodir etish.

Shaxsni faoliyatga undovchi ichki turtkiga motiv deyiladi.

Motivlar 2 xil bo'ladi. Anglanilgan va anglanilmagan motivlar.

Jinoyatchi shaxslar ham ana shu motivlarga suyangan holda huquqbuzarliklarni sodir etadilar.

Jinoyatchi shaxsiga xos jinoiy-huquqiy belgilardan biri uning jinoyatni yakka holda yoki guruh tarkibida sodir etishidir.

Ilk marta jinoyat sodir etganlarning ko'pchiligini huquqiy bilimlari past darajada bo'ladi, lekin retsivistlarniki esa buning aksidir.

Huquqbuzar shaxslarni sodir etgan jinoyat turlari bo'yicha guruhlarga ajratamiz.

Qotillar; zo'ravonliklar; o'g'rilar; firibgarlik; talonchiliklar; bosqinchilar; tovlamachilar; poraxo'rlar va hokazo.

Bu jinoyatlarga qarab yoki surunkali ravishda qilib kelgan jinoyatlariga qarab tavsiflanadi. Ular bir-birlari bilan munosabatda bo'lganlarida juda ehtiyotkorlik bilan harakat qiladilar. Chunki ularning o'z oralarida ham xoinlar bo'lishi mumkin deb o'ylashadi. Shunga qaramasdan ular bir-birlari bilan tez munosabatga kirisha oladi.

Huquqbuzar shaxsning ichki dunyosini anglash uchun uning hayotda tutgan o'rni, atrof muhitdagi voqelik, insonlar, jamiyat, davlat, qonun, mehnat va hokazolarga munosabatini bilish lozim. Buni esa uning ehtiyojlari, ma'naviy yo'nalishlari va faoliyatining motivlarini o'rganmasdan turib amalga oshirish mumkin emas.

Ya'ni har qanday jinoiy faoliyat ko'p jihatdan jinoyatchining o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlariga bog'liq. Jinoyat-prosessual qonuni isbotlash predmetini belgilashda ayblanuvchining javobgarlik darajasi va xususiyatiga ta'sir etuvchi holatlarni, shuningdek ayblanuvchi shaxsini ifodalaydigan boshqa holatlarni aniqlashni talab etadi. Shu bois jinoyatchi shaxsining aniqlanishi lozim bo'lgan belgilarini ishlab chiqish yuridik psixologiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Huquqbuzar yoki jinoyatchi shaxsini psixologik jihatdan o'rganishda uni ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqadorlikda tahlil qilish kerak bo'ladi. Chunki jinoiy xulqni shaxs yoki muhit emas, balki aynan ularning o'zaro aloqasi yuzaga keltiradi. Ijtimoiy muhitning jinoiy xulqqa ta'siri murakkab xususiyatga ega. Boshqacha aytganda, jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatlari jinoyatning modellashtiriladigan mexanizmi shakllanishiga tashqi ta'sir ko'rsatadi, ayni vaqtda, model- lashtiriladigan jinoyatchining psixologik xususiyatlari uning go'yoki ichki mazmunini tashkil etib, uni shakllantiradi.

Shunga qaramay, amaliyotning ko'rsatishicha, jinoyatchilarning psixologik xususiyatlari borasida amalga oshirilgan nazariy tadqiqotlar jinoiy faoliyatning manzarasini yetarlicha to'liq aks ettira olmayapti, ya'ni ko'pgina savollar (masalalar) «kadr ortida» qolib ketmoqda. Masalan, jinoyatni sodir etish usulini tanlashda, jinoyatchi ko'p hollarda nafaqat psixologik xususiyatlarni, balki ruhiy holatlarni ham hisobga oladi. Ma'lumki, ruhiy holat esa, psixologiyaning predmetini tashkil etadi.

Yuridik psixologiyadagi asosiy masalalardan biri, avvalo, shaxsning motivatsion sohasi tashqi muhitdagi muayyan omillar bilan o‘zaro aloqadorlikda ushbu shaxs uchun kriminogen vaziyat yaratishi mumkin bo‘lgan ichki shaxsiy shart-sharoitlarni ajratib olishdir.

Har bir insonga o‘z ehtiyojlarini qondirish, shaxsiy va umumiy maqsadlarga erishish uchun boshqa odamlar bilan birlashishga intilish xosdir. Qonunga itoatkor odamlar, qonunbuzarlardan farqli ravishda, noqulay vaziyatlarda guruhdan chiqish, o‘zlarini qanoatlantirmaydigan aloqadan qochishga qodirdirlar yoxud bunday holatlarga nisbatan o‘z pozitsiyasini o‘zgartirishga harakat qiladilar.

Amaliyotning ko‘rsatishicha, jinoyatlarning har xil (g‘arazli, zo‘ravonlikka asoslangan, ehtiyotsizlik orqasida sodir etiladigan) turlariga jinoyatchilarning motivatsion sohasida bo‘ladigan turli buzilishlar xosdir.

Shaxsning aynan jinoiy harakatni sodir etishi ham tashqi vaziyat (obyektiv omil), ham ichki (subyektiv omil) maqsadlar bilan bog‘liq.

Huquqbuzarlik yoki jinoyatchilik sabablari majmuidagi muhim tarkibiy qismlardan biri iste‘molning aholining to‘lovga qobiliyatli talabidan orqada qolishi bilan bog‘liq bo‘lgan ana shu iste‘mol sohasi ishtirokchilari bo‘lmish odamlar talablarining qanoatlantirilmasligidir. Hozirgi kunda moddiy-tovar boyliklar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o‘rtasidagi uzilish ijtimoiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarayotgani hammaga ma‘lum. Bu o‘rinda jinoiy xulq shakllanishining kamida ikki variantini farqlash lozim.

U biz yuqorida ko‘rib chiqqan mehnat va taqsimot sohalaridagi ijtimoiy ziddiyatning ta‘siriga o‘xshash tarzda yuz beradi, ya‘ni iste‘mol tovarlari va xizmatlarning taqchilligi aholining psixologiyasiga salbiy ta‘sir etadi va noadekvat (nomos) ijtimoiy qarashlarni yuzaga keltiradi, bu esa aholining jinoiy faollik darajasida ko‘rinadi. Xizmat (ish) o‘rinlarining yetishmovchiligi jinoyatchilikning ortib borishiga olib keladi.

Maishiy xizmatlarning yaxshi rivojlanmaganligi odamlar o‘rtasidagi munosabatlarda keskinlikning ortishiga, nizoli ijtimoiy-psixologik muhit shakllanishiga olib keladi. Tadqiqotlar natijalarining ko‘rsatishicha, maishiy xizmatlar kamroq rivojlangan hududlarda ushbu sohadagi nizolar boshqa joydagilardan ko‘proq bo‘ladi¹.

Ta‘kidlash lozimki, taqchilik jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishga shart-sharoit yaratuvchi omillardan biri hisoblanadi. Iste‘mol sohasidagi taqchilik


¹ Алимов С., Антонов-Романовский Г. В. Криминологическое значение изучения конфликтов в основных сферах жизнедеятельности // Актуальные проблемы уголовного права и криминологии. – М., 1999. – С. 61–67.

buyurtma qotilliklar, terrorchilik harakatlari, firibgarlik, odam savdosi, poraxo‘rlik, korrupsiya, narkobizneslarning tarqalishiga sharoit yaratadi¹.

Shu ma’nodagi jinoyatchi shaxsi – individ sodir etgan muayyan turdagi jinoiy qilmishni keltirib chiqargan uning tipologik xislatlari majmui.

Ayni vaqtda jinoyatchining har bir tipi o‘ziga xos «shaxs sxemasi» yo‘nalishiga ega.

Shuningdek, jinoyatchi shaxs o‘zining huquqiy ongi darajasi va jinoyat sodir etishga tayyorligi mezonlari bo‘yicha ham tasniflanadi. Ushbu mezon bo‘yicha quyidagi jinoiy tiplarni ajratish mumkin



Jinoiy qilmishlarni majburan sodir etuvchi, eng zarur ehtiyojlarni qonuniy yo‘llar bilan qondirib bo‘lmaydigan hayotiy vaziyatlar, ijtimoiy shart-sharoitlar qurboni bo‘lgan shaxs tipi. Bunda jinoyatchi o‘zini majburan yo‘l qo‘ygan xatti-harakati uchun qoralashi, ichki ziddiyat holatida bo‘lishi mumkin.

Jinoyatni yuzaga kelgan vaziyatdagi vasvasa ta’sirida, uning uchun qimmatli bo‘lgan natijaga, uning fikricha, hech qanday salbiy oqibatlarisiz erishish mumkin bo‘lgan holatda jinoyat sodir etadigan shaxs tipi. Huquqiy ong darajasi, noijtimoiy xulq bu yerda birinchi holdagiga qaraganda ancha past.

Jinoiy qilmish sodir etishni doimo qonunga itoatkor xulqqa qaraganda afzalroq biladigan shaxs tipi. Bu jinoiy ta’sir yuqqan shaxs tipi.

Jinoyat sodir etgan shaxsni o‘rganishda unda ustunlik qiluvchi, uning qadriyatlari, hayot-faoliyatining mazmuni, mayllari va qarashlarini aniqlash zarur.

Chunki jinoyatchilar o‘zlarining g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarining asl mohiyatini ko‘proq yoki kamroq darajada anglagan holda, o‘zlarini oqlaydigan motivlar, bahonalar tizimini axtaradilar va jinoiy maqsadlariga erishishlariga xalal beruvchi qadriyatlarni rad etadilar. O‘z harakatlarini oqlash maqsadida javobgarlikdan bo‘yin tovlash, o‘zini ruhiy jihatdan himoyalash aksariyat jinoyatchilarga xos bo‘lgan psixologik xususiyatdir.

¹ Чуфаровский Ю. В. Юридическая психология. – М., 2003. – С. 120.

Oldindan rejalashtirilgan va sodir etilgan jinoyatni oqlash turli usullar bilan amalga oshiriladi:

- jinoyat qurbonining aybdorligini bo‘rttirib ko‘rsatish;
- ijtimoiy va huquqiy normalarni g‘ayriijtimoiy guruhlar (banda, o‘g‘rilar to‘dasi)ning qoidalariga qarshi qo‘yib qadrsizlantirish;
- javobgarlikni boshqalarning gardaniga qo‘yish, yuzaga kelgan vaziyat bilan o‘zini oqlash va boshqa.

Jinoyat motivlari jinoyatchining shaxsiy salbiy xislatlari – g‘araz, kek saqlash, rashk, shuhratparastlik, yolg‘on qarashlar tizimi (burch, o‘rtoqlik kabi xislatlarni noto‘g‘ri tushunish) orqali shakllanadi.

Aksariyat jinoyatchilar ko‘p narsaga da‘vog‘ar bo‘ladilar, ammo buni amalga oshirish imkoniyatlari juda kam bo‘ladi. Ushbu holat deyarli barcha jinoyatchilarning ichki shaxsiy nizolari asosida yuzaga keladi.

Ko‘pchilik holatlarda jinoyatchi shaxslarning qadriyatlar va normalar tizimi buzilganini, ya‘ni voqelikni noto‘g‘ri idrok etishini kuzatish mumkin. Ularning xulqini bir daqiqalik, muayyan vaziyat bilan bog‘liq mayllar, eng quyi darajadagi ehtiyojlar egallab turadi.

Jinoyat sodir etgan shaxslarning ehtiyojlari asosan quyidagi xususiyatlarga ega:

- ehtiyojlarning torligi, cheklanganligi, moddiy-utilitar xarakterga ega ekanligi;
- ijtimoiy zarur ehtiyojlarning (mehnat, axloqiy xulqqa bo‘lgan ehtiyojlarning) rivojlanmaganligi;
- shakli buzilgan, o‘rtacha standartdan va qondirishning qonuniy imkoniyatlaridan ortiq bo‘lgan ehtiyojlar;
- buzilgan ehtiyojlar.

Jinoyatchi shaxsning tipologiyasida uch darajani farqlash lozim:

- 1) jinoyatchining umumiy tipi;
- 2) muayyan toifadagi jinoyatchi shaxs;
- 3) muayyan turdagi jinoyatchi shaxs. Bu darajalar bir-biri bilan umumiylik, maxsuslik va yakkalik kabi munosabatda bo‘ladi.

Shaxsning ijtimoiy o‘zagini uning yo‘nalganligi, hayotiy munosabatlari tizimi, motivli, qadriyatli mo‘ljallari tashkil etgani bois, bu o‘zakning o‘zi jinoyatchi shaxsning tipini belgilashi lozim.

Jinoyatchidagi tipik xususiyatning mezoni, avvalo, uning ijtimoiy xavflilik darajasi, g‘ayriijtimoiy buzilganlik me‘yoridir.

Ushbu mezonga ko‘ra jinoyatchilarning uch tipini ajratish mumkin:

- g‘ayriijtimoiy (ashaddiy);
- noijtimoiy (kamroq ashaddiy);
- ruhiy boshqaruv nuqsonlari bo‘lgan jinoyatchi shaxs tipi (tasodifiy).

Ashaddiy jinoyatchilar qadriyatlari va mo'ljallarining yo'nalishi mazmuniga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratiladi.

G'ayriijtimoiy g'arazli yo'nalishdagi jinoyatchilar. Jinoyatchilarning bu guruhi jamiyatning moddiy boyliklariga, sarflangan mehnat miqdori va sifatiga ko'ra taqsimlanishiga tajovuz qiladi. Bunday jinoyatchilarni quyidagi to'rtta kichik guruhga ajratish mumkin:

– xo'jalik sohasida jinoyat sodir etuvchi (tovarlarni soxtalashtirish, soliq to'lashdan, litsenziya olishdan bo'yin tovlash va h.k.) jinoyatchilar;

– xizmat vazifasini suiiste'mol qiluvchi (xizmat lavozimini suiiste'mol qilish, mijozlarni aldash, pora so'rash orqali talon-toroj qilishlar) jinoyatchilar;

– o'g'rilar – mulkni yashirincha talon-toroj qilish bilan bog'liq tajovuzlar qiluvchi shaxslar (o'g'riliklar);

– firibgarlar (hujjatlarni qalbakilashtirish, aldab tovlamachilik qilish va h.k.).

G'ayriijtimoiy g'araz va zo'ravonlik yo'nalishidagi jinoyatchilar – shaxsga nisbatan zo'ravonlik qilish bilan g'arazli tajovuzlar qiluvchi shaxslar (zo'rlik bilan tovlamachilik qilish, talonchilik, bosqinchilik hujumlari va hokazo).

Insoniylikka zid, tajovuzkorona yo'nalishdagi jinoyatchilar – boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va shaxsiy qadr-qimmatiga mensimay munosabatda bo'ladigan shaxslar. Bu guruhda ham quyidagi to'rtta kichik guruh mavjud:

– bezorilar;

– ashaddiy bezorilar;

– haqorat va tuhmat orqali shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga ziyon yetkazuvchi shaxslar;

– shaxsga qarshi tajovuzkorona zo'ravonlik harakatlari – qotillik, nomusga tegish, badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar.

Shu sababli bunday jinoyatlarning psixologik mexanizmini ochib berish muhim vazifa bo'lib, ehtiyotsiz xatti-harakatlarni shaxsning individual xususiyatlari bilan bog'lashga imkon beradi.

Xulq-atvor aksentuatsiyasi va aksentuallashtirilgan jinoyatchilar xulq-atvorining xususiyatlari

Inson xulqi murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, uni o'rganishda tizimli yondashuv va ehtimol tutilgan jarayonlar haqidagi zamonaviy tasavvurlarga ega bo'lish talab qilinadi. Har bir axloqiy hodisaning mohiyati uning shaxs xulqining umumiy tuzilishidagi o'rnini bilan bog'liq. Individual


rivojlanish jarayonida axloqiy tizimlar individual axloqiy strategiyaning murakkab majmuiga aylanadi va shaxsning axloqiy tipini hosil qiladi.

An'anaga ko'ra, g'ayriijtimoiy xulq sabablari ikki guruhga – ijtimoiy va biologik sabablarga ajratiladi. Biroq axloq-odob me'yorlari (qoida)dan og'uvchi xulqning ko'plab ko'rinishlarini tahlil qilish mazkur muammoni boshqacharoq, ya'ni tizimli-integrasiyalashgan (birlashgan) holda o'rganish zarur, degan xulosaga olib keladi.

G'ayriijtimoiy xulq sabablari haqida so'z borar ekan, avvalo, muammoni tahlil qilishning asosiy prinsiplarini keltirib o'tamiz:

1. G'ayriijtimoiy xulq, normadagi xulq kabi, ko'p omilidir, u bir yoki hatto bir qancha sabablarning oqibati emas. Biroq alohida olingan individual axloqiy ko'rinishning ko'p omillar bilan bog'liqligi va ehtimolli xususiyati uni o'rganib bo'lmasligini bildirmaydi. Bu o'rinda shaxsning tipik individual-psixologik xususiyatlari va axloqiy qarashlarini aniqlash ustun ahamiyatga ega. Ijtimoiy va biologik omillar o'z-o'zicha emas, balki jinoyatchi xulqining tipini hosil qiluvchi uning shaxsiy-psixologik xislatlarida birlashgan holda g'ayriijtimoiy xulqning aniqlovchilariga aylanadi.

2. G'ayriijtimoiy xulq ijtimoiy ijobiy xulqdan yo'nalishining mazmuni bo'yicha ham, psixoregulyatsion xususiyatlari bo'yicha ham ajralib turadi. Shaxs xulqi uning ehtiyojlari, anglangan va anglanmagan mayllari tizimi, oldiga maqsad qo'yish va unga erishish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Agar uni sxema tarzida tasvirlaydigan bo'lsak, quyidagicha ko'rinish hosil qiladi.



Aksariyat jinoyatchilarning xulqiga ijtimoiy qadriyatlarga moslasha olmaslik (dezadaptatsiya) va o'zini o'zi boshqarishdagi nuqsonlar xosdir. Individning o'zini o'zi boshqarish imkoniyatlari past darajada bo'lganida, g'ayriijtimoiy mayllari, odatlari nafaqat nazorat qilinmaydi, balki ularning o'zlari xulqning maqsad hosil qiluvchi mexanizmlariga aylanadi.

3. G'ayriijtimoiy xulq individning o'z ijtimoiy mas'uliyatini himoya qilish (o'zini oqlash) motivatsiyasi, umum qabul qilingan ijtimoiy qadriyatlarining qadrsizlanishi asosida amalga oshiriladi. Inson xulqi uning ehtiyojlari va yo'nalganlik sohasi, qabul qilgan qadriyatlar tizimi, umuminsoniy

madaniyatdan bahramandlik darajasi bilan bog'liqdir. Inson hayvondan farqli ravishda qandaydir yagona xulq tizimlariga mahkum emas, u ko'p funksiyalidir. Uning xulqini aniq instinktiv (tug'ma) mayllari emas, balki ijtimoiylashuv darajasi yuzaga keltiradi.

4. G'ayriijtimoiy xulq – mojaroli xulq bo'lib, doimo jamiyatda, ijtimoiy guruhlarda, shaxs bilan ijtimoiy guruh, ayrim shaxslar o'rtasida va, nihoyat, shaxsning o'zidagi ichki ziddiyatlarga asoslangan. Inson xulqidagi tashqi holatlar tizimi unda shakllangan ichki ruhiy shart-sharoitlar tizimi orqali namoyon bo'ladi. Ushbu ichki ruhiy shart-sharoitlarga quyidagilar kiradi:

- qadriyatlar tizimi;
- axloqiy yo'nalganlik;
- xatti-harakatning umumlashgan usullari;
- o'zini o'zi tartibga solishning psixodinamik xususiyatlari.

5. Inson xulqida na obyektiv, na subyektiv omillarni alohida ajratish mumkin. Ijtimoiy omillar odamlar xulqiga bevosita ichki shaxsiy, individual-psixologik hodisalar orqali ta'sir ko'rsatadi (va bu, ba'zan «jinoiy tabiat» illuziyasini yuzaga keltiradi).

6. Shaxs qanchalik kam ijtimoiylashgan bo'lsa (bu, odatda, jinoyatchi shaxsning o'ziga xos xususiyatidir), biologik omillarning ustun (dominanta) bo'lish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Inson ongining rivojlanishi qanchalik cheklangan bo'lsa, uning xulqida iyerarxik jihatdan quyituradigan motivatsiya darajalari shunchalik katta rol o'ynaydi.

Kriminolog olim Z. S.Zaripov va I.Ismailovlar jinoiy xulq shakllanish jarayonini quyidagi toifalarga ajratishadi: 1) shaxs ehtiyoji va manfaatlari buzilishi bilan bog'liq jinoiy xulq shakllanish jarayoni; 2) shaxs ehtiyoji (manfaati) va imkoniyati o'rtasidagi farq (qarama-qarshilik) bilan bog'liq jarayonlar; 3) shaxs ma'naviy va huquqiy tasavvurining, qadriyatlar va ijtimoiy yo'nalishining buzilishi bilan bog'liq jarayonlar; 4) qaror qabul qilish va amalga oshirishdagi nuqson va kamchiliklar bilan bog'liq jarayonlar¹.

Jinoiy xatti-harakat jarayoni quyidagi asosiy qismlarni o'z ichiga oladi: motivatsiya, qaror qabul qilish va uni amalga oshirish. Har qanday ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xatti-harakat bu shaxsdagi o'ziga xos xususiyatlar bilan tashqi muhitning o'rtasidagi aloqaning natijasi degan fikrga asoslangan holda muayyan jinoiy xatti-harakat jarayonini quyidagicha tasvirlasa bo'ladi:

Rus olimi G. A. Avanesov inson xatti-harakatiga salbiy ta'sir etuvchi quyidagi biologik shart-sharoitlarni ajratadi:

¹ Qarang: *Zaripov Z.S., Ismailov I.* Криминология. – Т., 1996 – Б. 130.

– jinsiy buzilish va jinoyatlarning sababiga aylanadigan biologik ehtiyojlar patologiyasi;

– asab tizimining qo‘zg‘aluvchanligini kuchaytiradigan, noadekvat reaksiyani keltirib chiqaradigan va harakatlarni ijtimoiy nazorat qilishni qiyinlashtiradigan asab-ruhiy kasalliklar (psixopatiyalar, nevrosteniyalar, kasallik va sog‘liq chegarasidagi holatlar);

– turli xil psixosomatik, allergik, zaharvandlik bilan bog‘liq kasalliklarga olib keladigan va qo‘shimcha jinoiy omil bo‘lib xizmat qiladigan psixofiziologik zo‘riqishlar¹.

Ruhiy anomaliya (normadan og‘ish)lar esa irsiy (genetik) ildizlarga ega bo‘lib, asabiy-ruhiy buzilishlar faqat noqulay muhit ta‘siridagina jinoiy xulqning sababi bo‘lishi mumkin.

XX asrning 20-yillaridayoq psixiatrlar (Yu. M. Antonyan, S. A. Borodin, M. V. Vinogradov, S. A. Golub va boshq.) jinoiy xulq turi bilan ruhiy anomaliya o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini ta‘kidlaganlar. Masalan, rus olimi Yu. M. Antonyanning fikricha, «...aqli ojizlar, kundalik hayotga moslasha olmaydiganlar o‘zlarining tuban ehtiyojlarini qondirish maqsadida o‘g‘rilik, ba‘zan esa qotillik jinoyatlarini sodir etadilar. Beqaror va tashqi muhit ta‘siriga tez beriluvchan ixtiyorsiz psixopatlar odatdagi o‘g‘rilar safini oson to‘ldiradilar, ma‘nosiz ruhiy his-tuyg‘ular va kuchli tuban mayllarga ega bo‘lgan psixopatlardan esa banditlar, g‘arazli qotillar boshqalarga qaraganda osonroq hosil bo‘ladi, patologik qo‘zg‘aluvchanligi bilan ajralib turadigan psixopatlar arzimagan narsa tufayli atrofdagilar bilan oson aytishib qoladilar, jamoat tartibini buzadilar»².

Ruhiy anomaliyalarga chalingan shaxslarning ulushi (koeffitsiyenti) barcha jinoyatchiliklarning taxminan 70 % ini tashkil qiladi.

Ma‘lum bo‘lishicha, ruhiy anomaliya holatida shaxslar tomonidan jismoniy kuch ishlatish (odam o‘ldirish, nomusga tegish, tan jarohati yetkazish) va bezorilik jinoyatlari sodir etilgan.

Shu ma‘noda aksariyat jinoyatchi shaxslarning xulqida janjalkashlik, tez ta‘sirlanish, salbiy mayllarning o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishi, o‘z xulqini ijobiy qadriyatlar va motivatsiyalar bilan boshqarish mexanizmining sustligini kuzatish mumkin. Mazkur axloqiy ko‘rinishlarning bari genetik anomaliyalar – Klayn Felter sindromi (ortiqcha X-xromosoma – 47/XXY sindrom yoki ortiqcha Y-xromosoma – 47/XYY sindrom) deb nomlanadi. Bunda ortiq-

¹ Qarang: *Аванесов Г. А. Криминология и социальная профилактика.* – М., 1999. – С. 226–230.

² Qarang: *Антонян Ю. М. Преступность и психические аномалии.* – М., 1990. – С. 67.

cha X-xromosoma haddan tashqari tajovuzkorlik bilan, ortiqcha Y-xromosoma esa maqsad qo'yish va unga erishish sohasidagi og'ish (anomaliya)lar, xulqning irodaviy boshqaruvidagi buzilishlar bilan izohlanadi¹.

Shunday qilib, *inson xulqi yagona bioijtimoiy omil bilan bog'liqdir. Biologik jihatdan meros sifatida olingan inson xislatlari muayyan ijtimoiy sharoitlarda uning ruhiy xislatlari rivojlanishi uchun shart-sharoit hisoblanadi.*

Har bir jinoyat g'ayriijtimoiy yo'nalishdagi boshqaruv mexanizmlarga ega xulq natijasidir. Xo'sh, bu subyektiv ruhiy omil jinoyatni keltirib chiqarishga sabab bo'ladimi?

Albatta, ruhiy omillar jinoyat sodir etilishida birinchi o'ringa chiqadi va bu ularning birinchi sababi ekanligi xususidagi fikrni yuzaga keltiradi. Aslida, ruhiy omillarning o'zi jinoyatchi shaxsi shakllanishining haqiqiy sharoitlarida yuzaga keladi.

Inson xulqida tashqi omillar tizimi ichki shart-sharoitlar tizimi bilan belgilanadi. Shu bois har bir jinoyatda obyektiv va subyektiv omillarning birligi ko'rinadi. Hech bir tashqi omil ham, hech bir ichki holat ham o'z-o'zicha axloqiy akti yuzaga keltirmaydi.

Shu ma'noda aksariyat jinoyatchilarda o'z-o'zidan yuzaga keladigan mayllarning tasodifiy vaziyatlarga bog'liqligi xosdir. Shaxsning o'zini o'zi boshqarish tizimining tarqoqligi aksariyat jinoyatchilarni bir-biridan ajratib turuvchi asosiy psixologik jihatlardan biridir. Jinoyatchilarning ayrim xudbinona intilishlari g'ayriijtimoiy tus olganda ularning axloqiy tizimini ong osti mayllari darajasida boshqaradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, huquqbuzarlikni, huquqbuzar shaxsning psixologiyasini o'rganish, bilish, huquqni muhofaza qilish organ xodimlari faoliyatida, jinoyatchilikni oldini olishda, unga qarshi kurashishda hamda tergov jarayonida samarali faoliyat olib borish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Masalan, tintuv, tergov harakati olib borayotganda kerakli obyektни topish uchun huquqbuzar shaxsning xatti-harakatlaridan bilib olish mumkin.

Huquqbuzar shaxslarda xavotirlanish o'ziga xosligini inobatga olib, ushbu shaxs o'zi atrofiga yaqin joyda kerakli obyektни bekitib qo'yishi mumkin. Har bir jinoyatchini o'ziga xos bo'lgan psixologik xislatlari mavjud bo'lib, u boshqa shaxslarning xislatlariga o'xshamaydi. Huquqni muhofaza qilish organ xodimlari har bir huquqbuzar shaxslarning ruhiyatini to'liq tushunishlari kerak. Buni bilish esa faqatgina psixologik bilim va tajribalar yordamida amalga oshiriladi.

¹ Qarang: *Еникеев М.И.* Юридическая психология. – СПб., 2005. – С. 55.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining gullab ravnaq topishi va bugungi taraqqiyoti uchun avvalo huquqbuzarlikni oldini olishda jinoyatchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish huquqni muhofaza qilish organ xodimlari uchun muhim psixologik omil bo‘lib hisoblanadi.

Jinoiy guruhlar va uyushgan jinoyatchilik haqida tushuncha

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida fuqarolar, davlat va, umuman, jamiyatimizga xavf solayotgan, xalqimizning farovonligini ta‘minlash siyosatini amalga oshirishga salbiy ta‘sir o‘tkazishga urinayotgan uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash huquqni muhofaza qilish organlari oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov inson, oila, jamiyat va davlat manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan, ayniqsa uyushgan jinoyatchilikning xavfli ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan terrorchilik tajovuzlaridan himoya qilishga katta e‘tibor qaratib. Shunday ta‘kidlagan edi: «Jinoyatchilik va korrupsiya jamiyatning ma‘naviy-axloqiy asoslarini yemiradi. Jamiyat a‘zolarining fuqarolik mavqeini yo‘qqa chiqaradi. Amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarga salbiy munosabat yuzaga kelishi uchun sharoit yaratadi. Islohotlar g‘oyasining o‘zini obro‘sizlantiradi va eski zamonlarni, shu jumladan «qudratli markazning kuchli qo‘li»ni qumsash hissini tug‘diradi. O‘tmish davrining muayyan qiyinchiliklari sharoitida fuqarolar ongida, ayniqsa yosh avlodning bir qismida, hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog‘lik, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishi va qaror topishi mumkin. Qing‘ir yo‘l bilan boylik orttirishga intilish, basharti u jamiyatning va huquqiy nazoratning e‘tiboridan chetda qolsa, odamlarni, ayniqsa hayotga endigina qadam qo‘yib kelayotgan yoshlarni yomon yo‘lga og‘diradi»¹.

Kasbiy psixologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri guruh bo‘lib jinoyat sodir qiluvchi shaxslar psixologiyasini o‘rganishidir.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunida bir shaxsning ikki yoki undan ortiq jinoyat sodir etishi yoki jinoiy faoliyat yuritishi qonunda aybni og‘irlashtiruvchi holatlar qatoriga kiritilgan (masalan, takroran yoki qasddan yangi jinoyat sodir etish). Haqiqatan ham ushbu ko‘rsatkich shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasini oshiradi. Agar jinoiy faoliyatni ikki yoki undan ortiq shaxslar sodir etgan bo‘lsa, jinoyatlarning hamda guruhning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo‘ladi.

¹ Qarang: *Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида*. Т. 6. – Т., 1998. – Б. 91–92.

Shu ma'noda jinoyatchilar dunyosiga qirib borayotgan jinoiy guruhlar shakllanishining umumiy psixologik sabab va sharoitlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, jamiyatda mavjud iste'mol va taqsimot o'rtasidagi adolatsizlikning mavjudligi bo'lib, bu, o'z navbatida, ayrim shaxslar psixikasida kuchli emotsional zo'riqishlarni keltirib chiqaradi. Natijada ayrim shaxslar jinoiy guruh tuzishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishi;

ikkinchidan, jamiyatdagi ayrim shaxs, guruh va jamoalar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvining doimiy mavjudligi bo'lib, uning keskinlashuvi ham jinoiy uyushmalarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi;

uchinchidan, qonun hukmidan qoniqmaslik, odatda uni «adolatsiz» hukm deb bilish tariqasida his-hayajonning, ichki ruhiyatning jumbishga kelishi, nafrat hissining qo'zg'alishi ham o'z navbatida jinoiy guruhlarining paydo bo'lishiga asosiy motiv bo'lib xizmat qilishi;

to'rtinchidan, jinoyatchilar dunyosining ta'siriga tushib qolish, uni targ'ib qiluvchi g'oyalarga emotsional holatda berilib ketish natijasida ongli va ongsiz tarzda jinoiy guruh tuzilib qolishi;

beshinchidan, mavjud qonunlarni bilmaslik, undan yetarli darajada xabardor bo'lmaslik natijasida, yoshlik, uquvsizlik, shunchaki qiziqish tufayli jinoiy guruh tuzish yoki unga aralashib qolish ehtimolining mavjudligi;

oltinchidan, aniq bir maqsadni ko'zlab, ma'lum reja, motiv asosida jinoyat sodir etish uchun birlashish natijasida paydo bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, jinoiy guruhlarining shakllanishiga olib keluvchi maxsus psixologik omillar ham mavjud, ularga:

- «birlashmay turib» jinoyat sodir etib bo'lmasligi;
- jinoiy manfaatlarning umumiyliigi;
- shaxsiy mayllar;
- umumiy axloq normalari, umumiy e'tiqodlar, huquqiy ongdagi o'xshash nuqsonlar va shu kabilar kiradi.

Jinoiy guruhlariga quyidagi belgilar xosdir (ular ushbu guruhlarining uyushqoqlik darajasiga ko'ra ko'p yoki kam darajada namoyon bo'ladi):

- uyushganlik – qat'iy iyerarxik tuzilishning mavjudligi, qattiq intizom, quyi bo'g'inlarning yuqori bo'g'inlarga bo'ysunishi;
- barqarorlik – uzoq muddatli va barqaror jinoiy aloqalar hamda fosh bo'lganidan va jinoiy ta'sir chorasi qo'llanilganidan keyin tiklanish (butunlay yoki qisman);
- jipslik – guruh a'zolarining aloqa, birlashish darajasi. Jipslikning determinantlari quyidagilardan iborat:

1) a'zolarining bir-biriga tortadigan motivatsion asos, jumladan ularning g'arazli shaxsiy manfaat va ehtiyojlari majmui;

2) jinoiy guruh a'zolarining guruh maqsadlari, dasturi, nizomida o'z ifodasini topadigan motivlari;

– himoyalanganlik – tuzilmada himoya, ta'minot bloklarining, ruhiy ta'sir va jismoniy zo'rlik apparatining mavjudligi.

Ishtirokchilikning uyushgan shakllariga uyushgan guruh va jinoiy uyushmalar kiradi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 29-moddasining 4-qismida «uyushgan guruh» tushunchasi ko'rsatilgan bo'lib, unda «ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashishi uyushgan guruh deb topiladi»¹, deyilgan. Bu bilan qonun «jinoiy faoliyat» uyushgan guruhning zaruriy belgisi ekanligini ko'rsatmoqda. Biroq Jinoyat kodeksida «jinoiy faoliyat»ga ta'rif berilmagan. Xo'sh, unda «faoliyat» so'zining o'zi nimani anglatadi?

Faoliyat – insonning turmush kechirish usuli. Bu tushuncha inson ongli ravishda ishtirok etadigan, maqsadga yo'naltirilgan jarayonni bildiradi. Faoliyat odam ehtiyojini qondirish vositasi sifatida vujudga keladi. Lekin bu faqat vosita va sharoitdangina iborat bo'lmaydi, balki turmushning shakli va usuli hisoblanadi. Faoliyatda insonning o'zi shakllanadi, uning qobiliyati rivojlanadi. Inson faoliyatining boshlang'ich shakli – mehnat, moddiy amaliyot hisoblanadi. Mehnat faoliyati jismoniy mehnat va tafakkurdan iborat bo'lib, bir-birini o'zaro taqozo etadi. Maqsad, predmet, vosita va natija faoliyatning zaruriy jihatlaridir.

«Faoliyat» tushunchasining mazmunidan ko'rinib turibdiki, u insonning turmush tarzini anglatadi. «Faoliyat» tushunchasini jinoiy faoliyat bilan taqqoslab shuni aytish mumkinki, jinoiy faoliyat bir necha ijtimoiy xavfli qilmishlarni doimiy sodir etishda yoki jinoyat sodir etishni «kasb» qilib olishda namoyon bo'ladi.

Uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishi muammosiga ko'pgina olimlar tushuncha berishga harakat qilgan, ammo ularning mulohazalari turlicha bo'lib, hanuzgacha yagona fikr mavjud emas. Jumladan, A. I. Gurov «jinoiy faoliyat jinoyatchilarning asosiy yoki qo'shimcha foyda olish manbai»², deb yozadi

Bu fikr chuqurroq tahlil qilinsa, ayrim uyushgan guruhlariga mos kelmasligi ko'rinadi. Masalan, shaxslarning milliy, irqiy yoki diniy mansubligiga qarab, ularning qonuniy manfaatlariga zarar yetkazish maqsadida tuzilgan uyushgan guruh, genotsid jinoyatini sodir etish uchun birlashgan guruh, doimiy ravishda nomusga tegish jinoyatini sodir etish uchun birlashgan guruh va boshqalar.

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. –Т., 2008. – Б. 13.

² Qarang: Гуров А.И. О некоторые вопросы криминального профессионализма // Советское государство и право. – 1987. – №5. – С. 82 – 86.

Huquqshunos olimlar A. S. Yakubov va R. Kabulov quyidagi belgilarni ajratishgan va ularning yig'indisi guruhni uyushgan deb hisoblash uchun jinoiy-huquqiy asos bo'lishini ta'kidlashgan:

- 1) oldindan til biriktirish;
- 2) jinoiy faoliyat bilan hamkorlikda shug'ullanish uchun birlashish;
- 3) uyushganlik.

Yuqorida keltirilganlar olimlar bergan ta'rif bu borada masalaning mohiyatini aniqroq ifodalaydi. Ya'ni «jinoiy faoliyat – ayrim jinoyat tarkiblari yig'indisidan iborat yagona tizimni vujudga keltiruvchi, tashkil-lashgan bir necha qilmishlardan iborat»¹, deyilgan. Bu ta'rif qisqa bo'lishiga qaramay, bir necha jinoyatlarni sodir etish faqat yagona tizim shaklida jinoiy faoliyatni tashkil etishini anglatadi. Ammo bu ta'rifda bir necha jinoyat tarkiblari haqida so'z yuritilgan. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, uyushgan guruh nafaqat tarkibida bir necha jinoyat bo'lgan qilmishni, balki tarkibida birgina jinoyat bo'lgan qilmishni sodir etish bilan ham ko'zga tashlanishi mumkin.

Uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishining obyektiv va subyektiv belgilari mavjud. Guruhning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanganligini ko'rsatuvchi birinchi mezon sifatida guruh a'zolarining bir necha jinoyatlar sodir etganligini va yana sodir etishga tayyorgarlik ko'rayotganini aytib o'tish mumkin. Shu bilan birga, o'ta puxta tashkillashtirilgan, tayyorgarlik ko'rish uchun ko'p vaqt talab qilinadigan yagona jinoyatni sodir etgan guruhni ham jinoiy faoliyat bilan shug'ullangan deb hisoblash mumkin (bunda jinoyatning va unda ishtirok etgan shaxslarning ijtimoiy xavflilik darajasi hamda boshqa bir qancha omillar inobatga olinadi).

Umuman olganda, jinoiy guruhlar jinoyat sodir etish uchun tashkil etilgan, deb aytish mumkin.

Jinoiy guruhlarining shakllanganlik darajasiga qarab quyidagi turlarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

- 1) jinoiy jamoa;
- 2) jinoiy korporatsiya;
- 3) guruh assotsiatsiyasi;
- 4) amorf (diffuz) guruhlar.

Amorf guruhdagilarda aniq tizim yo'q, vazifa bo'linmagan, aslida jinoyatni sodir qilish niyati yo'q. Masalan, kinoga, samolyotga, poyezdga chipta olishda paydo bo'lib qoladi.

¹ Qarang: *Якубов А. С., Кабулов Р.* Новое в уголовном законодательстве. – Т., 1995. – С. 14.

Assotsiatsiya guruhi uyushgan, boshida ular jinoyat sodir qilish uchun emas, balki ba'zi bir ehtiyojlarini qondirish uchun yig'iladi, lekin yaxshi jinoiy guruh bo'lib shakllanishi mumkin. Lekin bu guruhlarining yadrosini tashkil etadigan, jinoyatga qarshi zid harakat qiladigan shaxslar mavjud, ular baribir jinoyat sodir qilishi mumkin. Shuning uchun ular huquqbuzarlar kompaniyasi deb nomlanadi.

Tez-tez yig'ilib turadigan jinoiy guruhlar mavjud, ular jinoyat sodir qilishdan avval yig'ilishadi, masalan, o'g'irlik, firibgarlik, bularni guruh ichidagi yadro boshqaradi. Ular bilan ishlash ancha og'ir, ularning o'z an'analari mavjud, bu an'analardan chiqishning o'zi bo'lmaydi. Bu yerda vazifalar taqsimlanadi, o'zaro hamkorlikda pog'ona paydo bo'ladi, subyektiv bog'lanish juda to'g'ri va ishonchli bo'ladi. Bunday guruhlar jinoyatni oldindan rejalashtiradi, tashkillashtiradi. Bu *jinoiy korporatsiya* deyiladi. Shaxs bu guruhda qolar ekan guruh axloqini o'zlashtiradi va o'zida shuni sinab ko'radi.

Jinoiy guruh va uyushgan jinoyatchilik psixologiyasi quyidagilarda namoyon bo'ladi. Uyushgan jinoyatchilikka xos asosiy xususiyat yuksak darajadagi o'zini o'zi boshqarish va iyerarxik tuzilishga ega bo'lishdir. U boshqaruv, rahbarlik, bo'ysunish va jinoyatchilar o'rtasida vazifalar taqsimlanishining uchta, bir qator hollarda esa undan ko'proq darajalariga ega. Aksariyat hollarda ushbu jinoiy tashkilotlar piramidasimon tuzilishga ega bo'ladi. Mazkur piramidaning cho'qqisida asosiy yetakchi (lider), uning bevosita atrofida esa asosiy qarorlarni qabul qiladigan kichikroq guruh bo'ladi.

Jinoiy guruh psixologiyasi jinoiy psixologiyaning maxsus bo'limi sifatida tuzilmaning kelib chiqishi, tarkibi, unda vazifalar taqsimoti, shuningdek boshqaruvning psixologik mexanizmlarini o'rganadi.

O'z vaqtida fosh etilmagan va jazolanmagan jinoyatchi juda xavflidir, chunki u surbetlashib boradi va mayda jinoyatlardan ko'pincha katta jinoyatlarga o'tadi, buning ustiga jazosiz qolish boshqa beqaror shaxslarda ham jinoiy maqsadlar shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi va jinoiy guruhlar tashkil etilishiga ko'maklashadi. Jinoiy guruhning tashkil etilishi ijtimoiy xavfning nafaqat miqdor, balki sifat jihatdan kuchayishidir. Bir qator hollarda shaxs yolg'iz o'zi sof texnik jihatdan jinoiy harakatlarning butun rejasini amalga oshira olmasligini ham ta'kidlash joiz.

Jinoiy guruhni tahlil qilishda ishtirokchilari orasidan quyidagilari ajratiladi:

- umuman guruh yoki uning ayrim qismlarining (ishtirokchilarining) tashkilotchisi;
- «mas'ul» joydagi ijrochi;

- ikkinchi darajali ijrochi;
- muxolif, guruhning «bo‘sh bo‘g‘ini» (irodali inson bo‘lishi ham mumkin);
- o‘zi ishtirok etayotgan jinoyatning sodir etilishiga qalban rozi bo‘lmagan subyekt. Ko‘pincha bu bo‘g‘in guruh ichida nizoli vaziyatni yuzaga keltiradi.

Jinoiy guruhlar uyushganlik darajasiga ko‘ra uyushgan jinoiy guruhlar, jinoiy tashkilotlar va jinoiy uyushmalarga bo‘linadi.

Jinoiy guruhning psixologik tuzilishi – qaror topgan, integratsiyalashgan (birlashgan) munosabatlar – jinoiy guruh a‘zolarining atrof muhit bilan munosabatlari. Integratsiyalashgan munosabatlarning psixologik tavsifi guruh ichida shakllangan (shaxslararo, gorizontal va vertikal) munosabatni bildiradi.

Uyushgan jinoiy guruhning integratsiyalashgan munosabatlari (masalan, huquqni muhofaza qilish organlari va hokimiyat organlari bilan munosabatlar) avvalo u jinoiy qilmishlarni sodir etadigan muhitga, uning shakllanishi va rivojlanishiga imkon bergan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va boshqa shart-sharoitlarga (korrupsiya, xufiya iqtisodiyot va sh.k.) bog‘liq.

Integratsiyalashgan munosabatlar guruh a‘zolarining funksional vazifalari tabaqalashuviga, ya‘ni vazifalar taqsimotiga, jinoiy guruh ishtirokchilari o‘rtasidagi jinoiy faoliyatning xususiyati bilan bog‘liq vazifalarga, iyerarxik pog‘onada egallab turgan mavqei, maqomi va shu kabilarga asoslanadi.

Jinoiy guruhning qanday faoliyat ko‘rsatishiga qarab integratsiyalashgan munosabatlarning xususiyati haqida so‘z yuritish mumkin.

Jinoiy guruh faoliyatiga uning faoliyat sohasining zamon va makonda asta-sekin kengayib borishi, sodir etilgan jinoyatlarning ko‘payishi, og‘irroq jinoyatlarga o‘tishi xosdir.

Jinoiy faoliyatning kengayishi jarayonida jinoiy guruh ichida psixologik va funksional tuzilmalarning shakllanishi yuz beradi. Guruhning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning ichki psixologik tuzilishi ham shunchalik aniq ko‘rinishga ega bo‘ladi. Guruh jipslashib boradi, uning tarkibi barqarorlashadi, faoliyati maqsadga yo‘nalgan tus oladi, guruh a‘zolari o‘rtasida vazifalar taqsimlanadi.

Jinoiy guruh rivojlanishining qonuniyatini ushbu guruh ishtirokchilari o‘rtasidagi emotsional (hissiy) munosabatlarning asta-sekin birgalikdagi faoliyatga asoslangan sof ishga, funksional munosabatlarga aylanishi tashkil qiladi.

Uyushgan jinoiy guruhda ishga oid munosabatlar hal qiluvchi xususiyatga ega bo‘lib, hissiy, shaxsiy munosabatlar asta-sekin yo‘qolib boradi,

bir qator hollarda esa bunday munosabatlar umuman bo‘lmasligi ham mumkin. Ishtirokchilari qarindoshlik rishtalari bilan bog‘liq bo‘lgan guruhlarda ham xuddi shunday jarayonlar ko‘zga tashlanadi.

Jinoiy guruh shakllanishi va faoliyat ko‘rsatishining oxirgi qonuniyati – unda doimo ikki qarama-qarshi kuch amal qilishidir. Biri jinoiy guruh a‘zolarini yanada jipslashtirish va yaqinlashtirishga qaratilgan bo‘lsa, boshqasi – ularni ajratishga qaratilgan.

Biroq jinoiy guruh muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatayotgan davrda ruhiy jihatdan jipslashgan tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi. U jinoyatlarni muvaffaqiyatli sodir etishda davom etayotgan, fosh bo‘lmay qolayotgan ekan, uning a‘zolari o‘rtasida birlashish va jipslashish tamoyili ustunlik qiladi. Agar jinoiy guruh qandaydir muvaffaqiyatsizlikka uchrasa hamda fosh bo‘lish va guruh a‘zolarining javobgarlikka tortilish xavfi yuzaga kelsa, uning ajralish tamoyili kuchayadi, yashirin nizolar, ziddiyatlar ko‘rinadi, ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarda keskinlik ortadi.

Jinoyatning guruh tarkibida sodir etilishi jinoyat tarkibining aybni og‘irlashtiruvchi belgisi hisoblanadi. Odatda oddiy, uyushgan jinoiy guruhlar va jinoiy tashkilotlar ajratiladi.

Har bir jinoiy guruh unga xos bo‘lgan guruhiy tashkilot, guruhiy dinamika, a‘zolarining guruhdagi vazifalarining va sotsiometrik maqomlarining funksional taqsimotiga ega bo‘lgan ijtimoiy guruh hisoblanadi hamda jinoiy faoliyatning jamoa subyektini tashkil etadi.

Bir necha shaxsdan tashkil topadigan *oddiy jinoiy guruh* qat’iy iyerarxik tashkilotga ega bo‘lmaydi, bunday guruhda yetakchilik qisqa muddatli xususiyatga ega bo‘lishi mumkin (kvartira o‘g‘rilari, ko‘cha talonchiligi, firibgarlar, voyaga yetmagan huquqbuzarlar guruhlari).

Uyushgan jinoiy guruhga iyerarxik tuzilish, guruhda vazifalarning funksional taqsimlanishi, barqaror jinoiy jipslik, qat’iy yagona boshchilik, jinoiy submadaniyatga egalik xosdir. Bunday guruhda jinoiy «hunar» puxta rejalashtiriladi, keng tarmoq otgan guruhlararo aloqalar mavjud, axborot xizmati, jinoyat izlarini yashirish, niqoblash va yo‘q qilish yo‘lga qo‘yilgan. Bunday jinoiy guruh tarkibida barqaror jinoiy-kasbiy malakalarga ega bo‘lgan professional jinoyatchilardan iborat birlamchi guruh (guruh yadrosi) ajralib turadi. Bunday guruhlar nisbatan mustaqil bo‘lib, odatda korrupsiyalashgan aloqalarga ega bo‘lmaydilar. Ular doimiy daromad keltiradigan maskanlar va doimiy nazorat qilinadigan hududlarga ega bo‘lmaydi. Biroq ularning jinoiy faoliyati yuqori darajadagi professionalizmi, guruhiy jipsligi, shafqatsizligi bilan ajralib turadi (bandalar, shaykalar). Bular odatda an’anaviy jinoiy guruhlar deb ataladi.

Bunday guruhlarning asosiy qismini «janggarilar» – jismonan baquv-
vat, shafqatsiz va guruh boshligʻiga sadoqatli odamlar tashkil qiladi. Ular
muayyan hududni nazorat qiladi (firibgarlik bilan shugʻullanadi, tijorat
tuzilmalariga «homiylilik» qiladi, oʻlpon yigʻadi va dayuslik bilan shugʻul-
lanadi).

Uyushgan jinoiy guruhlar ijtimoiy uyushgan birlik sifatida faoliyat
koʻrsatadilar, keng miqyosdagi ijtimoiy aloqalarga ega boʻlgan umumiy
(yagona) funksional-iyerarxialashgan tizimga birlashadilar, katta miqdor-
dagi pulga ega boʻlgan jamgʻarmalar tashkil qiladilar, huquqni muhofaza
qilish organlarini korrupsiyaga tortish orqali oʻz xavfsizligini taʼminlay-
dilar. Ularning jinoiy faoliyati koʻp hollarda legal (qonuniy) tashkilotlar-
ning faoliyati bilan ham bogʻliq boʻladi. Jinoiy sindikatlar xayriya ishlarini
amalga oshirish, siyosiy aloqalarni yoʻlga qoʻyish orqali oʻzining obroʻsini
mustahkamlashga harakat qiladilar.

Jinoiy guruhni uyushgan deb atash uchun asosiy mezon tariqasida
quyidagi belgilarni hisobga olish lozim:

- guruhning barqarorligi;
- tashkilotchining boʻlishi;
- bir necha jinoyat sodir etish maqsadida tuzilganligi;
- jinoyatni amalga oshirish rejasi va yoʻl-yoʻrigʻi ishlanganligi;
- har bir ishtirokchi oʻrtasida vazifalar taqsimlanganligi;
- texnika bilan taʼminlanganligi;
- jinoyatni yashirish choralari koʻrilganligi;
- umumiy intizomga va jinoiy guruh tashkilotchisining koʻrsatmalariga
itoat qilinishi va shu kabilar.

Uyushgan guruhning yana bir nechta qoʻshimcha belgilari mavjud
boʻlib, ular fakultativ belgilar deb yuritiladi. Bu belgilarning mavjudligi
guruhning ijtimoiy xavfliligini oshiradi, ammo ishtirokchilikni shakllarga
ajratishga taʼsir etmaydi. Bularga quyidagilar kiradi:

Guruhning texnik vositalar bilan taʼminlanganligi. Sud amaliyoti
xodimlari ishini yengillashtirish maqsadida bu belgini biz fakultativ belgilar
qatoriga qoʻshdik. Chunki guruhning jinoiy faoliyat bilan shugʻullanishi
uchun texnika kerak boʻlmasligi mumkin, masalan, buyurtma orqali odam
oʻldirish jinoyatini bajaruvchi uyushgan guruhlarning jinoiy faoliyati
uchun faqat oʻqotar qurol kerak va ular boshqa texnika sotib olmasligi mum-
kin. Texnika bilan taʼminlanganlik deganda, guruhning faoliyat yuritishda
texnikadan, masalan, avtotransport vositasi, ovoz eshitish, suratga olish,
video va boshqa apparatlar, turli ratsiyalar va boshqa shunga oʻxshash
vositalardan keng foydalanishini tushunish kerak.

Vazifalarning taqsimlanganligi. Bu uyushgan guruhning yana bir fakultativ belgisi hisoblanadi. Guruh a'zolari belgilangan vazifalarni bajaradi, ammo ayrim hollarda vazifalar aniq belgilanmaydi va guruh a'zosi keyingi jinoyatni sodir etishda qaysi vazifani bajarishini bilmaydi, jinoiy faoliyat davomida u bir vazifani bajarishdan ikkinchi vazifani bajarishga o'tkazilishi yoki bevosita jinoyat sodir etish vaqtida vazifasi aniq bo'lishi mumkin.

Umumiy pul jamg'armasining mavjudligi. Umumiy pul jamg'arasi jinoyatchilik dunyosida «obshak», «umumiy qozon» deb yuritiladi. Uni tashkil etishdan asosan ikki maqsad ko'zda tutilgan: birinchidan, guruh a'zolarining favqulodda vujudga keladigan ehtiyojlari (qamoqqa olingan paytda uni va oila a'zolarini ta'minlash), guruhning manfaatlari va yo'l boshchining ayrim xarajatlari uchun sarflash; ikkinchidan, guruh a'zolarining barqarorligini ta'minlash maqsadida tuziladi. Guruh a'zolari o'zlarini «ijtimoiy» himoyalangan hisoblaydilar va shu yo'l bilan uyushgan guruh a'zolariga nisbatan g'amxo'rlik qilinayotganligi ko'rsatiladi. Ushbu jamg'arma ayrim uyushgan guruhlarda mavjud bo'lmasligi mumkin.

Guruhda jinoiy faoliyatni kasb qilib olgan shaxslarning mavjudligi. Ayrim uyushgan guruhlar tarkibida jinoiy faoliyat hayot tarziga aylangan shaxslar bo'ladi. Ko'p hollarda bunday shaxslar guruhga yo'l boshchilik qiladi yoki guruhning «obro'mandi» sanaladi. Bunday shaxslar ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanmaydi. Ularni guruh jinoiy faoliyatda uddaburon «malakali kadr» sifatida va jinoiy guruhning boshqa a'zolariga o'rnak qilib ko'rsatish maqsadida saqlaydi.

Guruhning o'qotar qurollar bilan ta'minlanganligi. Uyushgan guruhlar doimiy ravishda katta foyda olish va guruhning barqarorligini ta'minlash, jinoyatlarni «muvaffaqiyatli» sodir etishga intiladi. Ko'pchilik uyushgan guruhlar shu maqsadda o'qotar qurollarni qo'lga kiritadilar va jinoyatlarni sodir etishda bevosita undan foydalanadilar.

Ijtimoiy nazoratni bartaraf etib, jinoiy faoliyatga sharoit yaratib beruvchi tizimning mavjudligi. Uyushgan guruhning mavjudligi va jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishida ushbu tizimning ahamiyati katta. Uni tashkil etuvchi shaxslar bevosita jinoyat sodir etishda qatnashmasalar ham jinoyat sodir etilishiga sharoit yaratib beradilar. Masalan, ayrim davlat nazoratini olib boruvchi mansabdor shaxslar jinoiy guruh faoliyatiga, ma'lum sabablarga ko'ra, to'sqinlik qilmaydilar va buning natijasida davlat hamda fuqarolarga jiddiy moddiy va ma'naviy zarar yetkaziladi.

Uyushgan jinoyatchilikning asosiy belgilari:

- 1) turg'unligi va reja bilan ish qilishi;

- 2) yuqori tashkilotchiligi va lider yadrosining borligi;
- 3) qo‘lga tushmaslik uchun niqoblanishning mavjudligi;
- 4) katta pulga egaligi;
- 5) chuqur konspirativ xarakterga ega ekanligi;
- 6) ta’sir doirasining kengligi;
- 7) faoliyatini yangilab borishi (tajriba asosida);
- 8) jamiyatga qarshi g‘oyasining aniqligi.

Aniq vazifalarning taqsimlanishi, guruhlardagi iyerarxiyalashgan tizimning ichki jipsligi asosida manfaatlar yotadi. Qattiq tartib, topshiriqlarni so‘zsiz bajarish, faoliyatni o‘z qonun-qoidalari asosida olib borish, sukut saqlash guruh uchun muhim rol o‘ynaydi. Mana shu tartibdan qaysidir bandi buzilsa, guruh a‘zosi qattiq jazolanadi, og‘ir jismoniy jazo belgilanadi.

Guruh a‘zolari qo‘lga tushmaslik uchun niqoblanadilar. Bunda organ xodimlarini shantaj qilish, sotib olish va ularning rejalarini oldindan (razvedka qilib) bilish va kerakli choralarni ko‘rish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat apparatidagi mansabdor shaxslarning organ xodimlari bilan bog‘liqligi, organ xodimlarining jinoyat olami bilan bog‘liqligi ularning ishini yengillashtiradi, ular orqali jinoyat olamiga kirib borishadi. Agar korrupsiya bilan ish bitmasa, mansabdor shaxslarni diskriminatsiya (kamsitadi, bolalarini o‘g‘irlyadi) qilish, ularni boshqa shaxslar bilan almashtirishga harakat qiladilar.

Uyushgan guruhda katta miqdordagi pulni mavjudligi mansabdagi shaxsni sotib olishga imkoniyat yaratib, bu bilan faoliyat masshtabini kengaytirishga xizmat qiladi.

Uyushgan jinoyatchilik chuqur konspirativ xarakterga ega. Jinoyat sodir etishga ko‘proq odamlarni jalb qilish uni ochishni ancha mushkullashtiradi. Organ xodimlari jinoyatchilarning bir qismini qo‘lga olsa, ikkinchi qismi jinoyat sodir etadi. Organ xodimlari ular orasiga qancha ko‘p kirib borsa, ish shuncha mushkullashadi. Bu uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashmaslik kerak degani emas, balki kurashning yangi usulini topish demakdir.

Jinoyat sodir etgan guruhni uyushgan deb baholash uchun yuqorida keltirilgan asosiy belgilar mavjud bo‘lishi kerak. Chunki bu belgilar barcha uyushgan guruhlariga xos va shu belgilarning o‘zi guruhning uyushganligidan dalolat beradi.

Qo‘shimcha belgilar uyushgan guruhni kengroq ta’riflab, uning ijtimoiy xavfliligidan dalolat beradi, uning uyushganlik darajasini belgilaydi va shu bilan birga, huquqni muhofaza qilish organlarining amaliy ishlarida guruhni uyushgan deb baholashda ko‘maklashadi. Bu turdagi belgilarning fakultativ deb atalishiga sabab ularning barcha uyushgan guruhlarda mavjud bo‘lmasligidir.

Yuqoridagi bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, uyushgan guruhga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiqdir. «Uyushgan guruh – umumiy maqsadga ega bo'lgan, o'zining mustahkamligi, tarkibining barqarorligi, guruh rahbariga bo'ysunish asosida (doimiy yadroga ega bo'lgan) tashkil etilganligi bilan belgilanadigan ikki yoki undan ortiq shaxslarning bir yoki bir necha jinoyatni sodir qilish uchun bir guruhga birlashishi»¹ dir.

Biz yuqorida sanab o'tgan belgilari mavjud bo'lgan guruhni uyushgan deb atash mumkin. Chunki bu belgilar guruh faqat jinoiy faoliyat bilan shug'ullangandagina mavjud bo'ladi. Jinoyat kodeksida berilgan ta'rifda ham guruhning faqat jinoiy faoliyat bilan shug'ullangan vaqtda uyushgan bo'lishi e'tirof etilgan.

Amaliyotdagi jinoiy ishlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda bevosita jinoyat sodir etgan shaxslarning harakatlarini kvalifikatsiya qilishda huquqni muhofaza qilish xodimlari guruhni uyushgan deb baholaganlar, ammo qaysi belgilariga qarab bunday xulosaga kelganliklarini bayon qilmaganlar.

Demak, jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish maqsadida barqaror yo'sinda birlashgan va norasmiy qoidalarga rioya qilib, tashkiliy tarzda jinoyat sodir etuvchi hamda yagona yo'lboshchiga bo'ysunuvchi guruh uyushgan deb hisoblanadi.

Jinoiy tashkilot – funksional-iyerarxik ko'rinishga ega bo'lgan, guruh ichida tabaqalashgan – rahbar, ijrochilarning turli guruhlari (qo'riqchilar, aloqachilar, kassa saqlovchilar, nazoratchilar va boshqalar), yaxshi yo'lga qo'yilgan razvedka va kontrrazvedka, hokimiyat tuzilmalaridagi o'z odamlariga, juda katta moddiy bazaga ega, nihoyatda uyushgan jinoiy guruh.

Jinoiy tashkilot quyidagi yo'llar bilan faoliyat ko'rsatadi:

– jinoiy faoliyatning foydali yo'nalishlari va barbod bo'lishining imkoniyatdagi yo'llariga oid zarur ma'lumotlarni doimiy to'plash. To'planadigan ma'lumotlar bashorat (prognoz) yo'nalishiga ega bo'ladi. Jinoiy faoliyatni rejalashtirishda bashorat (prognoz) qilish o'zini o'zi tashkil qilish xususiyatiga ega, ya'ni jinoyatchilar uni albatta amalga oshirish yo'nalishida harakat qiladilar. Ushbu faoliyatning barbod bo'lish imkoniyatlarini bashoratlash (prognozlash)da uni «o'zini o'zi buzuvchi» deb ifodalash mumkin: u uyushma yoki uning tegishli bo'linmasi faoliyatini ehtimol tutilgan prognoz amalga oshmasligiga yo'naltiradi;

¹ Пулатов Ю.С. «Уюшган жиноятчилик» тушунчаси хақида айрим мулоҳазалар // Ўзбекистон Республикасининг янги кодекслари: назария ва амалиёт. – Т., 1994. – Б. 97–100.

– huquqni muhofaza qilish organlari va boshqa davlat organlarini zararsizlantirish va doimiy ravishda korrupsiyalashtirish yo‘li bilan. Korrupsiyalashgan mansabdor shaxslar jinoiy tashkilotni zarur ma‘lumotlar hamda kadrlarga oid masalalarni hal qilishda, jinoiy faoliyatning foydali yo‘nalishlarini aniqlash va o‘zini himoya qilishni tashkil etishda haqiqiy yordam bilan ta‘minlaydilar;

– o‘z harakatlariga tashqaridan qaraganda qonuniy tus berish maqsadida mamlakatda amal qilayotgan asosiy ijtimoiy-iqtisodiy institutlar va shart-sharoitlardan mohirlik bilan foydalanish;

– qo‘rquv hamda o‘zining qudrati haqida mish-mishlar tarqatish. Bu jinoiy guruhga ko‘p foyda keltiradi, mish-mishlar va qo‘rquv guvohlar va jabrlanuvchilarni tushkunlikka tushiradi. Ular jinoyatchilarning jazolashidan qo‘rqadilar va huquqni muhofaza qilish organlarining himoya qila olishiga ishonmaydilar;

– jinoiy faoliyatni boshqarishning rahbarlarni muayyan qilmishlarni bevosita tashkil qilish va ularning sodir etilishida ishtirok etish zaruratidan xalos etadigan tuzilmasini tashkil qilish. Bu tariqa ular jinoiy javobgarlikdan qutulib qoladilar. Jinoiy uyushma boshqa shaxslar yoki guruhchalarni jinoiy javobgarlikka tortish orqali o‘zini saqlab qoladi, o‘ziga sodiq odamlarga zarur yordamni ta‘minlaydi;

– g‘arazli maqsadlarga erishish hamda muayyan bir soha yoki qaysidir bir hududda nazoratni, hokimiyatni qo‘lga olishdan iborat yetakchi va ustun motivlarga ega holda turli jinoyatlarni sodir etish.

Uyushgan jinoyatchilik ijtimoiy institutlar faoliyatining mexanizmi hisobiga yashovchi jinoiy tuzilma hisoblanadi.

Jinoiy uyushmalar jinoiy guruhlarining eng xavfli turi bo‘lib, jinoiy maqsadlari yo‘lida guruh uyushganlikning ijtimoiy-psixologik mexanizmlaridan – ijtimoiy nazorat vositasining guruh normalari, guruh ichidagi funksional tabaqalashuv va iyerarxiyadan, rasmiy tuzilmalar bilan qo‘sqilib ketishdan, korrupsiyaga berilgan davlat, ma‘muriy va huquqni muhofaza qilish organlarining himoyasidan foydalanadilar. Uyushgan jinoyatchilikning tarqalishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy beqarorligi bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 29-moddasi 5-qismida «Ikki va undan ortiq uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun oldindan birlashishi jinoiy uyushma deb topiladi»¹, deb ko‘rsatilgan.

Uyushgan jinoyatchilikni ajratib turuvchi jihat uning jamiyat «tanasiga» – davlatning ma‘muriy boshqaruv apparatiga, hokimiyatning eng

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. – Т., 2008. – Б. 14.

yuqori pogʻonalari gacha kirib olganligidir. Bu esa uning ijtimoiy xavfliligini kuchaytiradi, yaʼni davlat boshqaruvining negizlariga zarar keltiradi, ommaviy huquqiy ongga jiddiy taʼsir koʻrsatadi, huquqiy davlatning, madaniy iqtisodiy munosabatlarning amal qilish imkoniyatiga putur yetkazadi.

Jinoiy uyushmalar boshliqlari salobatli turmush tarzi kechirib, rasmiy elita guruhlari tarkibiga kiradilar.

Quyidagilarni jinoiy uyushmaning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin:

- tarkibida ikki va undan ortiq uyushgan guruhlarning mavjudligi;
- uyushgan guruhning hamkorlikda jinoiy faoliyat bilan shugʻullanishi;
- uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shugʻullanish uchun oldindan birlashishi;

- jinoyatchilik olamida yagona yoʻlboshchining boshqarishi va uning atrofida jinoyatchilik dunyosida nom chiqargan «obroʻmand» shaxslarning toʻplanishi;

- umumiy pul fondi («obshak»)ning mavjudligi;
- uyushmada norasmiy tartib-qoidalarining mavjudligi;
- «jazo» guruhi yoki «shaxsiy soqchilar»ning mavjudligi;
- jinoiy faoliyatning maxsus tarzda tashkil qilinishi;
- jinoyatlarni sodir qilishda oʻta uyushqoqlik bilan harakat qilish, yaʼni jinoiy rejani puxta tayyorlash, texnika vositalaridan toʻla foydalanish, jinoyat izlarini yashirish choralarining koʻrilishi va boshqalar;

- «himoya» guruhining tashkil qilinganligi;
- oʻqotar qurollarning mavjudligi;
- jinoiy mafkurani targʻib qilish;
- guruh aʼzolarining barqaror yoʻsinda birlashganligi;
- jinoyatchilik dunyosida yakkahokimlik qilishga qaratilgan harakatlar.

Jinoiy uyushmaning qoʻshimcha belgilariga quyidagilar kiradi:

- jinoiy yoʻl bilan topilgan daromadni qonuniylashtirish;
- ozodlikdan mahrum qilish joylarida uyushmaning «filial»larini tashkil qilish va boshqalar.

Yuqori darajadagi jinoiy uyushmalar oʻz tashkilotining tarmoq otgan tuzilishga egaligi bilan ajralib turadi. Ular boshqaruvning murakkab iyerarxik tizimiga, barqaror, daromad keltiruvchi mulkka (bank hisobvaraqlari, koʻchmas mulkka), rasmiy himoyaga (roʻyxatdan oʻtgan korxonalar, jamgʻarmalar, doʻkonlar, restoranlar, kazinoga) egadirlar.

Bu guruhlar baʼzan bir nechta ming kishidan tashkil topadi, jamoa boʻlib boshqaruvchi markazlarga, katta ijtimoiy guruhlar tipidagi barqaror tashkilotga, maxsus rejalashtirish va nazorat, axborot xizmatlariga, mintaqalararo

aloqalarga, hokimiyatning korrupsiyaga berilgan tuzilmalari bilan o'zaro aloqa ta'minotiga, huquqni muhofaza qilish va sud organariga ega bo'ladi.

Ular juda katta ta'sir zonalariga, ko'plab mintaqaviy va «tarmoq» tuzilmalari (qimor biznesi, fohishalikni nazorat qilish, jinoiy xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi), korrupsiyalashgan rasmiy idoralardagi ildizlariga ega bo'ladilar.

Ushbu guruhlar motivlarining yo'nalishiga ko'ra g'arazli yo'nalishga egadir. Ularning asosiy maqsadlari – qonunga xilof yo'l bilan katta foyda olishdir. Zo'rlik ishlatib amalga oshiriladigan jinoyatlarni ular g'arazli maqsadlariga erishish, kapital to'plash uchun sodir etadilar. Nihoyatda katta daromadlari xorijiy banklardagi hisobvaraqlarda turadi, mamlakatdagi va xorijdagi katta ko'chmas mulkka investitsiya qilinadi.

Jinoiy uyushma jamiyat farovonligiga asosiy xavfdir. U o'sib kelayotgan avlodning ijtimoiylashuviga tahdid soladi. Jamiyat negizlari va iqtisodiyotiga putur, tadbirkorlik va kredit-bank tizimiga, milliy daromadni stixiyali tarzda jinoiy uyushgan holda qayta taqsimlaydi, qonuniy iqtisodiy tuzilmalarga ulkan moddiy zarar yetkazadi.

Jinoiy uyushma jinoiy yo'nalishga ega bo'lgan quyidagi g'ayriijtimoiy funksiyalarni shakllantiradi:

- jinoiy uyushma faoliyatining strategiya va taktikasini ishlab chiqish;
- jinoiy mafkurani targ'ib qilish va tarqatish;
- xavfsizlikni ta'minlash, «elita»ni qo'riqlash, uning yuksak obro'siga ko'maklashish;
- jinoiy yo'nalishga ega bo'lgan razvedka;
- jinoiy yo'l bilan topilgan boyliklarni legallashtirish;
- uyushma a'zolarining individual talablari va manfaatlari amalga oshishiga ko'maklashish.

Jinoiy uyushma asosiy e'tiborini xavfsizlikni ta'minlash, jinoiy tashkilotning fosh etilishiga to'sqinlik qiluvchi sharoitlarni yaratish, ijrochilarni qonuniy (legal) himoya vositalari bilan ta'minlashga qaratadi.

Jinoiy guruhning rivojlanishidagi muayyan bosqichda uning ichki tuzilishida yetakchi siymosi paydo bo'ladi. U odatda guruh tashkilotchisi va rahbari sifatida faoliyat ko'rsatadi. Guruh yetakchisi paydo bo'lishi bilan guruh uyushadi va jipslashib qoladi, uning faoliyati jadallashadi, maqsadga qaratilgan xususiyatga ega bo'ladi va borgan sari ijtimoiy xavfli tus ola boshlaydi. Ichki psixologik tuzilish bilan bir vaqtda jinoiy guruhning funksional tuzilishi ham tashkil topadi. Har bir yangi jinoyat guruh ishtirokchilarining vazifalarini yanada aniqroq belgilab beradi: ayrimlar qilmishni bevosita bajaradi, boshqalar jinoyat obyektini qidirib topadi, yana boshqalari o'g'irlangan narsalarning o'tkazilishini ta'minlaydilar va hokazo.

Funksional tuzilish jinoiy guruhning shaxsiy tarkibi, sodir etilayotgan jinoyatning turi, tajovuz obyekti va boshqa omillar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Yetakchilik qobiliyati va atrofdagilarni boshqarish mahorati yetakchining qayg‘udosh bo‘lish subyektiv imkoniyatlarini jiddiy ravishda cheklovchi yoki bunga to‘sqinlik qiluvchi hissiy sovuqqonlik bilan ta‘minlanadi. Ayni vaqtda bu jihat atrofdagilar bilan zarur ijtimoiy-psixologik masofani saqlab turish, yuzaga kelayotgan vaziyatning barcha muhim jihatlarini inobatga olgan holda tahlil qilish hamda shu asosda oqilona qaror qabul qilishga imkon beradi. Yetakchilarning ushbu guruhlari o‘rtasida raqobat, yashirin dushmanlik mavjud, ammo maqsadlar va unga erishish yo‘llari umumiyliги sababli ular hamkorlik qiladilar. «Yetakchi» ko‘pincha sudlanmagan, juda aqlli, ma‘lumotli, tashkilotchilik qobiliyatiga, maslahatchilar sifatida esa «obro‘mandlar» va hatto «qonundagi o‘g‘rilar»dan iborat tajribali professional jinoyatchilarga ega bo‘ladi¹.

Jinoiy guruhlar yetakchilari qo‘l ostidagilar ustidan ruhiy hokimiyatga egadirlar. Uyushgan jinoiy guruhlar yuzaga kelishi va mavjudligining o‘zi ana shu hodisaga asoslanadi. Psixologiyada «hokimiyat» tushunchasining shunday ta‘rifi mavjud: individ o‘zini o‘rab turgan dunyoga ta‘sir ko‘rsatib hosil qiladigan har bir samara (effekt) uning qobiliyat, kuch, bilimdonlik sifatida tushuniladigan hokimiyati bilan bog‘liqdir. Hokimiyatning manbalari – hokimiyatni qo‘llayotgan subyekt boshqa birovning tegishli motivlari qondirilishini ta‘minlashiga, ushbu qondirilishning ushlab turilishi yoki oldi olinishiga yordam beradigan vositalardir. Mavjud tasniflardan biriga ko‘ra, hokimiyatning oltita imkoniyatdagi manbai ajratiladi².

Jinoiy guruh tashkilotchilari uning a‘zolari o‘rtasida yetakchiligini saqlab qolish uchun foydalaniladigan hokimiyat manbalarini ko‘rib chiqamiz.

Mukofotlash hokimiyati. Uning kuchi guruh talablari hokimiyat obyektlari (jinoiy guruh a‘zolari)ning umidlarini qanchalik qondirishiga, shuningdek yetakchi bunday qondirishni guruh a‘zosining o‘zi uchun istalgan xatti-harakatiga bog‘lab qo‘yishiga bog‘liq. Aslida jinoiy guruh a‘zosining g‘arazli motivlari faqat yetakchi qo‘ygan vazifalar benuqson bajarilgan taqdirdagina amalga oshishi mumkin. Ushbu hokimiyat kutiladigan mukofot miqdori bilan birga oshib boradi.

Majburlash yoki jazolash hokimiyati. Uning kuchi quyidagilarga bog‘liq: 1) ehtimol tutilgan jazolar repertuariga; 2) jazo tahdidi minus itoatkorlik tufayli jazodan qutulish ehtimolligiga. Yetakchi o‘rnatgan va saqlab

¹ Гуров А. Организованная преступность: не миф, а реальность. – М., 1992. – С. 23.

² Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. – М., 1986. – С. 354–362; Политическая психология. – СПб., 2004. – С. 7.

turadigan qattiq intizom, sotqinlar va murtadlar, shuningdek ularning yaqinlariga o‘lim jazosini nazarda tutgan qonunlar hamda eng kichkina jazo sifatida – daromadni taqsimlash chog‘ida ulushini kamaytirish (binobarin – g‘arazli motivini qondirmaslik) – bularning bari hokimiyatning ushbu manbai ega bo‘lgan kuchdan dalolat beradi.

Etalon hokimiyati. U guruh a‘zosining yetakchi bilan identifikatsiyasiga hamda guruh a‘zosining yetakchiga o‘xshashga istashiga asoslangan. Dastlab «yangi kelganlar jamiyat oldidagi majburiyatlardan xoli bo‘lgan go‘zal hayotning o‘g‘rilar romantikasi, odamlar ustidan hukmronlik qilish, ko‘p pul topish kabilar bilan yo‘ldan uriladi»¹. Bularning bari jinoiy guruh tepasida turgan «obro‘mand»da mavjud.

Normativ hokimiyat. Bunda gap yetakchi muayyan xatti-harakat qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish, zarur bo‘lganida esa, buni talab qilish huquqiga ega bo‘ladigan normalar haqida boradi. «Jinoiy tashkilotlarning asosiy belgilaridan biriga norasmiy xulq normalari, an‘analar va qonunlar, ularni buzganlik uchun jazolar ko‘rinishidagi nizomning mavjudligi kiradi (o‘rganib chiqilgan tashkilotlardan ikkitasida yozma nizom mavjud bo‘lgan)»².

Bilimdon hokimiyati. Butun kuch guruh a‘zosi yetakchida bor deb hisoblaydigan hamda guruhning ushbu a‘zosi shug‘ullanadigan jinoiy faoliyat sohasiga doir alohida bilimlar, intuitsiya yoki mahoratlarning kattaligiga bog‘liq. Aytish mumkinki, rahbariyatning strategik xatolari jinoiy faoliyatning fosh etilishiga, o‘ta katta foyda olinmasligiga hamda jinoiy guruhlar o‘rtasida ta’sir doiralari bo‘lishda raqobatbardoshlikning yo‘qotilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yuksak darajada uyushgan jinoiy guruhlarda muayyan yetakchining obro‘si aynan shu hokimiyatga asoslanadi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, jinoiy guruhlar yetakchilari «...ularning ta’lim darajasi ancha yuqori – o‘rta, o‘rta-texnik va oliy ma’lumotga egaligi, aksariyati sudlanmaganligi bilan ajralib turadi»³, ular jinoiy guruhning aqliy markazi hisoblanadi. Guruh yetakchilarining turli sohalardagi mutaxassislarni jalb etishga intilishi ham ana shunday hokimiyat manbaining mavjudligi bilan bog‘liq.

Axborot hokimiyati. U yetakchi guruh a‘zolariga noma’lum bo‘lgan, buning ustiga vaziyatni baholash va xatti-harakatni boshqarish uchun muhim axborotga ega sharoitlarda yuzaga keladi. Uyushgan jinoiy guruhlarda

¹ Гуров А. Организованная преступность: не миф, а реальность. – М., 1992. – С. 31.

² Ўша манба. – Б. 25.

³ Мафия: призраки и признаки // Экономическая газета. – 2009. – №. 48.

hokimiyatning bu turi avvalo yetakchining axborotni guruhning oddiy a'zolariga oz-ozdan berishida, ayni vaqtda to'liq axborotga faqat guruh yetakchisining o'zi ega bo'lganligida ko'rinadi.

Hozirgi zamon jinoiy guruhlarida, maxsuslik qonuniga ko'ra, quyi bo'g'inlar o'z rahbarlarini umuman bilmaydigan tizim tashkil qilinishi ham yetakchilikka yordam beradi. Guruhning oddiy a'zolari yetakchining faqat ko'rishlarini, atributlarini – kuchli qo'riqlanish, qattiq sir tutilishi (axborotning telefon orqali berilishi, rahbarning faqat ovozi eshitish mumkinligi, bu esa fantaziya uchun maydon beradi), operatsiyalarga sarflanadigan katta pul mablag'larini ko'radilar – bularning barchasi guruh a'zolariga psixologik ta'sir ko'rsatadi, yetakchining oldida qo'rqish va izzat-ikrom muhitini yaratadi.

Tashkilotda yetakchi qanchalik yuqori tursa, iyerarxik pillapoya qanchalik yuqori bo'lsa, unda qo'rquv shunchalik kam bo'ladi, qanchalik past bo'lsa, qo'rquv shunchalik ko'p bo'ladi. Nizolarning asosiy sababi – iyerarxik tuzilmadagi tengsizlik, daromadlarning teng taqsimlanmasligida ko'rinadi.

Biroq guruh yetakchisi ishtirokchilar uning jinoiy faoliyati haqida tergov organlariga xabar berishlari, guruh fosh bo'lgan taqdirda guruhning jinoiy faoliyati uchun butun aybni yetakchiga to'nkab, o'zlarining holatini yaxshilashlari, ehtimol tutilgan jazoni yengillashtirishlari mumkinligidan qo'rqadi.

Yetakchi bilan «muxolif» o'rtasidagi nizolar muxolif o'zini guruh yetakchisiga, uning boshqa a'zolariga, ba'zi hollarda esa butun guruhga qarshi qo'yishi natijasida yuzaga keladi. Bunday muxolafatning sabablari turlicha: hokimiyat uchun kurash, yetakchilikni egallab olishga intilish, hasad, rashk, boshqa ishtirokchilarning jinoiy faoliyat usullaridan qoniqmaslik, o'zining guruhdagi mavqeidan, o'g'irlangan narsalardan oladigan ulushidan qoniqmaslik.

Shu ma'noda jinoiy guruhlarining zarur elementlaridan biri yetakchi (lider)ning mavjudligi bo'lib, u ma'lum bir vaziyatda norasmiy rahbar vazifasini bajaradi. Bunday shaxslarda rahbarlik, tashkilotchilik qobiliyati ustun turadi. Shuning uchun ham jinoiy-huquqiy nuqtai nazardan baho berilganda lider guruhlarining tashkilotchisi va rahbari hisoblanadi. Yetakchi (lider)ning asl ma'nosi «tashkilotchi», «rahbar» degan ma'noni bildiradi.

Yetakchi faqat ba'zi bir yuqoridagi sifatlari uchun tanlanadi deyish katta xato bo'ladi. Agar yetakchi o'zining qaysidir tomonlari bilan guruh tashkil etilgan damlarda pand bersa, uni almashtirish choralari ko'riladi. Lekin yetakchilikdan ketish albatta kurashlar, kerak bo'lsa qurbonliklar talab qiladi.

Yetakchining funksiyasiga quyidagilar kiradi:
– tashkilotchilik;

- xabar berish;
- ma'lumotlarni strategik ishlash;
- tartib o'rnatish va boshqalar.

Yetakchining rahbarligi quyidagi holatlarda ko'rinadi: jinoiy guruhni tashkil qiladi, rahbarlik qiladi, jinoyatni amalga oshirishda har bir ishtirokchiga vazifalarni bo'lib beradi. Xabar berish, olish, xabardor bo'lish rahbarning eng asosiy sifatlaridan biridir, ya'ni xabarni tashqaridan olish bilan birga, guruh ichidagi vaziyatdan ham xabardor bo'lib turadi, guruh a'zolari o'rtasidagi munosabatni bilish ham muhim hisoblanadi.

Strategik ishlar guruh yetakchisining g'oyalari bilan amalga oshadi, u oldindagi qiyinchiliklarni ko'ra biladi, guruhga o'zgartirishlar kiritadi, olingan o'ljalarni taqsimlaydi. Yetakchining ko'rsatmalarini bajarmagan yoki bajarishdan bosh tortganlar qattiq jazolanadi, yetakchi jazoning turini aniqlaydi, amalga oshirish yo'llarini taklif qiladi va jazolovchini tayinlaydi.

Yetakchining bu sifati ayniqsa uyushgan jinoiy guruhlariga taalluqlidir. Jinoiy guruhlar sodir etilishi kerak bo'lgan jinoyatni amalga oshirishga ketayotganda, ishtirokchilardan biri operatsiyada ba'zi kamchiliklar bor, rejani aniqlashtirish kerak degan fikrini shipshitib qo'yadi, bu liderning qulog'iga yetgandan keyin shu shaxsni qattiq jazolashni buyuradi, chunki guruh orasida ikkilanish paydo bo'lib, operatsiya muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, boyagi fikrni tarqatgan odam haq bo'lib, qahramonga aylanishi mumkin.

Mazmuniga ko'ra jinoiy guruh rahbari yetakchi tashkilotchi, yetakchi ruhlantiruvchiga, rahbarligiga qarab demokratik va avtoritarga bo'linadi. Demokratik rahbarlikda ham, avtoritarda ham demokratik yo'l tutiladi, avtoritarda barcha vazifa shakllarini shaxsning o'zi hal qiladi, tartibni juda qattiq ushlaydi.

Jinoiy guruhlar ichida quyidagilar o'rtasida ziddiyatlar bo'lgan, bo'lib keladi:

- lider va guruh a'zolari;
- lider va tarafkashlar;
- guruhning yangi va eski a'zolari;
- jinoiy faoliyatini tugatmoqchi bo'lgan shaxs va guruhdagi a'zolar o'rtasida;
- har xil jinoyatlarni sodir etishda turli vazifalarni bajaruvchi jinoyatchilar o'rtasida;
- guruhda yuqoriroq mavqeni egallamoqchi bo'lgan shaxs va guruh a'zolari o'rtasida;
- jinoiy guruh bilan boshqa bir jinoiy guruh va hokazo.

Jinoiy guruhlardagi shaxslar o'rtasida tenglik yo'q, bo'lishi mumkin ham emas, agar tenglik bo'lsa, u guruh bo'lmaydi. Ular o'rtasida yopiq

psixologik bir-birini ko'ra olmaslik yotadi. Guruhning yadrosi, o'zagi bo'lib, u eng faol qatnashchilardan tashkil topgan bo'ladi.

Guruhning yetakchisi jinoyatdagi asosiy xatti-harakati bilan aniq ajralib turadi va ichki tartibni o'rnatadi, boshqaruvchi vazifasini bajaradi. Bunday shaxslar o'ljaning ko'proq qismini olishga harakat qiladi, yetakchilikda asosiy faoliyatni tartibga solish bilan birga, ko'p mas'uliyatni ham o'ziga oladilar.

Shu nuqtai nazardan yetakchi jamiyatga qarshi guruh tuzuvchi yoki tuzilgan guruh tepasiga o'z faoliyati bilan chiqqan jinoiy faoliyat tashkilotchisidir.

Ijtimoiy psixologiya yetakchining ba'zi xislatlarini ajratadi:

- 1) g'oya berishiga ko'ra faolligi;
- 2) tashkilotchilik qobiliyati;
- 3) muloqotga kirisha bilishi, o'ziga jalb qilishi;
- 4) ba'zi masalalarni yechishda kompetentligi.

Kriminogen guruhning asosiy tavsifi:


- 1) jinoiy xatti-harakati;
- 2) jinoiy tajribaga ega ekanligi;
- 3) o'g'rilar an'anasiga rioya qilishi;
- 4) o'g'rilar jargonini va tatirovkalarini yaxshi bilishi.

Hozirgi vaqtda jinoyat olamida yetakchilarning quyidagi ijtimoiy-psixologik tasnifi mavjud:


- harakat dasturini berib, ruhlantiradi;
- murakkab vazifani bajaradi;
- guruhni tashkil qiladi va yo'naltiradi.

Jinoiy guruhni psixologik tahlil qilishda uning a'zolari o'rtasida axborot uzatish usullarini aniqlash juda muhim. Axborot uzatishning quyidagi usullari mavjud:


To'liq tuzilish – kommunikativ aloqalarning bunday turida guruhning har bir a'zosi boshqa a'zolari bilan aloqa o'rnatishi mumkin.



Aylana tuzilishi – axborot aylana bo‘ylab bir yoki ikki yo‘nalishda harakatlanadi.



Uzilgan aylana – axborot guruhning bir a‘zosi boshqasiga o‘tadi, ammo uchinchi a‘zosi ikkinchisiga axborotni kim berganligini, ikkinchisi esa zanjirning to‘rtinchi bo‘g‘inida kim turganligini bilmaydi.




O‘zakdan ajralgan aloqada tashkilotchi guruhning faqat bir a‘zosi bilan aloqada bo‘ladi. Guruh a‘zolari o‘zaro aloqa qilmaydilar va bir-birlarini bilmaydilar.



O‘zakli aylana – tashkilotchi guruhning faqat bir a‘zosi bilan aloqada bo‘ladi. Guruhning bu a‘zosi esa, o‘z navbatida, qolgan barcha a‘zolar bilan aloqada bo‘ladi.

O'ZAKLI AYLANA




Aralash tuzilma – tashkilotchi guruh a'zolariga axborot berish uchun aloqaning ikki yoki undan ortiq turlaridan foydalanadi.

ARALASH TUZILMA




Murakkab tuzilma – tashkilotchi ikki yoki undan ortiq kichik guruhga rahbarlik qiladi, bu guruhlar esa, o'z navbatida, kommunikativ tuzilishga ega bo'ladi.

MURAKKAB TUZILMA



Ko'p blokli tuzilma – guruh yetakchisi mamlakatning turli mintaqalarida jinoyatlar sodir etadigan yoki jinoiy faoliyatning ayrim turlariga ixtisoslashadigan bir necha jinoiy guruhlariga, himoya va ta'minot bloklariga ega bo'ladi.

Ko'p blokli tuzilma



Tashkilotchi faqat asosiy yo'nalishlar (molni o'tkazish, transport, buxgalteriya, muayyan hududdagi jinoiy faoliyatning aniq bir turiga mas'ul

shaxslar) rahbarlari bilan aloqada bo‘ladi. Bu rahbarlar, o‘z navbatida, odatda ijrochilar bilan bevosita aloqalarga ega bo‘lgan vositachilardan foydalangan holda u yoki bu kommunikativ tuzilmani o‘rnatadilar.

Shuni aytib o‘tish joizki, uyushgan guruh yetakchisi ishtirokchilikning boshqa (oddiy va murakkab) shakllaridagi guruh rahbaridan (tashkilotchisidan, yo‘lboshchisidan) farq qiladi. Uyushgan guruh yetakchisi barcha faoliyat ustidan nazorat olib boradi. Jinoyat sodir etishga rozilik beradi yoki bermaydi. Jinoiy rejalarni ko‘pincha o‘zi tuzadi. Jinoyat sodir etish vaqtini belgilaydi va jinoiy faoliyat orqali topilgan moddiy boyliklarni taqsimlaydi. Guruh ichida «norasmiy» tartib-qoidalarga rioya etilishini nazorat qiladi. Uni buzganlarga nisbatan chora ko‘radi. Jinoiy uyushma tarkibiga kiradigan uyushgan guruhlarda yetakchi har bir jinoyatdan tushgan «daromad»dan uyushma a‘zolariga hissa berib turadi hamda uyushma ko‘rsatmalarining bajarilishini ta‘minlaydi. Bundan tashqari, yetakchi bevosita guruh yig‘iladigan joyni tayinlashi mumkin.

Jamiyatimizning bozor iqtisodiyoti munosabatlari va jinoyat qonuniga oid hozirgi liberallashtirish siyosatidan kelib chiqqan holda jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi uyushgan guruh qatnashchilariga jazo va boshqa jinoiy-huquqiy ta‘sir choralari qo‘llashning ikki yo‘nalishini ajratish mumkin.

Birinchisi, jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi uyushgan guruh a‘zolariga jazo tayinlash va ayrim moddalarga jazoni og‘irlashtiruvchi belgilarni kiritish.

Ikkinchisi, uyushgan guruhning ayrim a‘zolari harakatiga yengillashtiruvchi holat tusini berish hamda rag‘batlantiruvchi normalarni qo‘llash.

Huquqshunos olimlar I. Ismoilov va D. Buxarov bugungi kunda uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatini va ular sodir etadigan jinoyatlarning oldini olish sohasidagi hamkorlik quyidagi to‘rt darajada amalga oshiriladi, deb ta‘kidlaydilar:

- ichki idoraviy hamkorlik;
- idoralararo hamkorlik;
- jamoatchilik bilan hamkorlik;
- xalqaro hamkorlik¹.

Jinoiy uyushma va uyushgan guruhlarining a‘zolariga jazo va boshqa jinoiy-huquqiy ta‘sir choralari qo‘llashdan asosiy maqsad – jinoyatchilikning oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarni tez hamda har tomonlama ko‘rib chiqib, aybdorlarni aniqlash va ularga qonunda belgilangan tartibda tegishli, odilona jazo tayinlashdan iborat.

¹ *Исmoilов И., Бухаров Д. Уюшган жиноий тuzилмалар шаклланиши ва фаолиятининг олдини олишда ҳамкорликни ташкил этиш (муаммо ва ечимлар).* – Т., 2007. – Б. 11.

Shu ma'noda uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda psixologiya, sotsiologiya va iqtisodiyot sohasidagi olimlarning uyushgan jinoyatchilikdek salbiy holat yuzasidan olib borgan tadqiqotlarining xulosalariga tayanish katta ahamiyatga ega. Chunki jamiyat hayotidagi mavjud iqtisodiy-ijtimoiy kamchiliklar, qayd etib o'tganimizdek, uyushgan jinoyatchilikni yuzaga keltiradi va uning rivojlanishi uchun sharoit yaratib beruvchi omillardan biri sanaladi.

Ushbu ijtimoiy illatga qarshi olib boriladigan kurash strategiyasi bilan bog'liq huquqiy, psixologik va profilaktik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlash zarur. Bunday tadbirlarning amalga oshirishini ta'minlash esa mavjud xufiyona iqtisodiyot va iqtisodiyot bilan bog'liq barcha jinoyatlarni atroflicha tahlil etish bilan uzviy bog'liqdir.

Shuningdek, hozirgi kunda jamiyatning ijtimoiy tizimini ilmiy jihatdan baholash, aholining turli qatlamlari va guruhlariga nisbatan differensial siyosat yuritishni yo'lga qo'yish talab etiladi.

Shu ma'noda quyidagi toifadagi shaxslarga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir:

– shubhali tarzda daromad topayotgan va ko'p miqdordagi mulk va moliyaviy mablag'larga ega shaxslar;

– kam daromadli, umuman moddiy ta'minotga ega bo'lmaganlar;

– jinoiy va ma'naviy buzuvchi yo'lga kirganlar (jinoyatni kasb qilib olganlar, bir necha bor sudlanganlar, ichkilikka ruju qo'yganlar, giyohvandlar, o'zgaralar hisobiga kun ko'ruvchilar, daydilar va h.k.)¹.

O'tkazilgan tadqiqotlar va jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyoti shuni ko'rsatadiki, oxirgi to'qqiz yilda jinoyatchilik tarkibida bir guruh shaxslar sodir etgan jinoyatlar 15–16 % ni tashkil etgan bo'lsa, talon-torojlik jinoyatlari bo'yicha bu ko'rsatkich 28–30 % ni tashkil etadi. Jinoyatni bir-ikki marta oddiy ishtirokchilik asosida sodir etgan shaxslar, *birinchidan*, sodir etgan jinoyati uchun jazosiz yoki yengil jazo bilan cheklanib qolayotganidan; *ikkinchidan*, jinoyatdan o'zlashtirilgan mablag' hisobiga «yaxshi hayot» kechirayotganligidan; *uchinchidan*, ortiqcha mablag' egasi bo'layotganligidan; *to'rtinchidan*, ayrimlari esa «ruhlanib», bu «yutuqlarni» yanada mustahkamlash uchun asta-sekin jinoiy guruh faoliyatini kuchaytirish, kengaytirish, rejalashtirish, uni qurollantirish va boshqa jinoiy guruhlar bilan aloqa o'rnatishga harakat qila boshlaydilar².

¹ Криминология / Проф. З. С. Зариповнинг умумий тахрири остида. – Т., 2007. – Б. 391.

² Исмоилов. И. Жиноятчиликда уюшганликнинг олдини олишни ҳуқуқий таъминлаш. – Т., 2007. – Б. 19.

Umuman olganda, uyushgan jinoyatchilikning oldini olish va uni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

– huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikning shakl va usullarini yaratish orqali ularning faoliyat yo‘nalishlarini tarmoqlararo tuziladigan muvofiqlashtiruvchi organ olib boradigan hamda ma’lum bir vaqt oralig‘iga mo‘ljallangan dastur asosida zarur vazifalarning bajarilishini belgilash;

– uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishda maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan shaxslarni jalb qilish;

– uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi maxsus guruhlarini zarur moddiy-texnika vositalar bilan ta’minlash.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jinoyat yo‘liga kirgan yoki jinoiy harakatlaridan pushaymon bo‘lib tuzalish yo‘liga o‘tmoqchi bo‘lganlarning ijobiy harakatlarini jazoni yengillashtirish yoki undan ozod qilish yo‘li bilan jinoyatlarning oldini olishga sharoit yaratish yoxud jinoyatni kasb qilib olgan va jinoiy faoliyat bilan doimiy shug‘ullanmoqchi bo‘lganlarning jazosini og‘irlashtirib, ularning yangi jinoyatlar sodir etishiga to‘sqinlik qilish umumiy jinoyatchilikning oldini olishga o‘z hissasini qo‘shadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ijtimoiy axloq va unda «normadan chetga chiqish» nima?
2. Psixik anomalialar inson axloqi va psixikasiga qanday ta’sir qiladi?
3. Psixologiyada jinoyatchi shaxs tushunchasiga qanday ta’rif berilgan?
4. Shaxslarning asosiy kriminal tiplarini psixologik tavsiflang.
5. Huquq normalariga zid axloq dinamikasi va uning tuzilishini ayting.
6. Jinoiy guruhlar shakllanishining psixologik sabab va sharoitlari nimalardan iborat?
7. Jinoiy guruhlar va jinoiy guruh yetakchilarining tipologiyasi qanday ko‘rinishlarga ega?
8. Jinoiy harakat usullari va ularni niqoblash qanday amalga oshiriladi?
9. Jinoiy guruh a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro muloqotning psixologik tavsiflang.
10. Jinoiy hamkorlikning psixologik xususiyatlari nimalardan iborat?

12-mavzu. ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINI TAYYORLASHNING KASBIY PSIXOLOGIK ASOSLARI

Xodimlarning psixologik tayyorgarligi – kasbiy mahoratining tarkibiy qismi sifatida.

Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlashning psixologik mazmuni.

Ichki ishlar organlari xodimlarini psixologik tayyorlashning vositalari.

Xodimlarning psixologik tayyorgarligi – kasbiy mahoratining tarkibiy qismi sifatida

Psixologiyada shaxsning kasbiy mahoratini tadqiq qilishda S. L. Rubinshteyn, A. N. Leontyev, B. G. Ananyev va boshqa psixolog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan hamda rivojlantirilgan ong va faoliyat birligi tamoyiliga fundamental kategoriya sifatida yondashiladi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy kamoloti muammosini tadqiq etishda T. V. Kudryavsev tomonidan ishlab chiqilgan shaxsning kasbiy kamoloti uzoq davom etuvchi, ko‘p jabhali va harakatchan jarayon ekanligi hamda u o‘z taraqqiyoti davomida to‘rt bosqichni bosib o‘tishini e‘tirof etuvchi qarashlar nazariy asos bo‘lib xizmat qildi.

T. V. Kudryavsev nazariyasi bo‘yicha kasbiy kamolotning bosqichlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- 1-bosqich – kasbiy niyat;
- 2-bosqich – ta‘lim va tarbiya;
- 3-bosqich – kasbga kirish;
- 4-bosqich – kasbiy mahorat.

Har qanday mutaxassislikda kasbiy mahoratga erishish davri uzoq va qiyin kechadi. Mazkur muammoning nazariy jihatlari B. G. Ananyev, Ye. A. Klimov, A. I. Alekseyev, R. Z. Gaynutdinov, E. G‘. G‘oziyev, U. Tadjixanov, Z. S. Zaripov, S. V. Asyamov, Ye. Yu. Agzamova, R. M. Mahmudov va boshqalarning tadqiqotlarida ishlab chiqilgan. Mazkur olimlarning tadqiqotlarida kasbiy faoliyatning boshqaruvda bevosita ishtirok etadigan alohida shaxs tuzilmalari hamda ularning ontogenezi, tuzilishi, vazifalari, imkoniyatlari, shakllanish qonuniyatlari, huquqiy madaniyati va boshqa masalalar tahlil qilingan. Bir qator ilmiy ishlarda odam tomonidan o‘z shaxsiy sifati, xususiyatlarini aks ettirishi va anglashining nazariy ahamiyati bilan birgalikda, ularni takomillashtirishda amaliyotning muhim ekanligi, ya‘ni shaxsning kasbiy xususiyatlari va kasbiy mahorati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish ham e‘tirof etiladi.

Xodim kasbiy faoliyatining asosiy psixologik xususiyatlari va tarkibiy elementlarini ko'rib chiqish ham uning faoliyati qanchalik murakkab va serqirraligidan dalolat beradi.

Kasbiy faoliyat xodimga ko'plab turli xil talablar qo'yadi, ular orasida eng muhimlaridan biri – *shaxsda kasbiy xislatlarning rivojlangan bo'lishi*. Bunga birinchi navbatda quyidagilar kiradi:

- shaxsiga xos xislatlarning kasbiy-psixologik yo'nalganligi;
- psixologik barqarorlik;
- rivojlangan irodaviy xislatlar: murakkab vaziyatlarda o'zini tuta bilish, jasurlik, mardlik, oqilona tavakkalga moyillik;
- yaxshi rivojlangan kommunikativ xislatlar;
- turli toifadagi kishilar bilan tezda aloqaga kirisha olish, ishonchli munosabatlar o'rnatish va uni saqlay bilish;
- turli xil profilaktik ishlarni amalga oshirishda fuqarolarga psixologik ta'sir ko'rsatish qobiliyati;
- rivojlangan, kasbiy jihatdan muhim bo'lgan bilish xislatlari: kuza-tuvchanlik va diqqatlilik, rivojlangan xotira, ijodiy tasavvur;
- rivojlangan tafakkur, aqliy ishga moyillik, farosat, rivojlangan intuitsiya;
- ziyraklik, murakkab vaziyatdan chiqib keta olish.

Ushbu xislatlar insonga tug'ilganidan xos emas, ularni shakllantirish va rivojlantirish – davomli va qiyin jarayon, ammo u ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy shakllanishi uchun zarur shartdir. Ushbu xislatlarning xodim shaxsida bo'lmasligi yoki yetarli rivojlanmaganligi o'z funksional vazifalarini me'yorida bajarishiga xalaqit beradi, faoliyatida xatolarga yo'l qo'yishiga, o'z kasbiga moslasha olmasligiga va kasbiy buzilishiga olib keladi. Shu bois xodimlarda ushbu xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan kasbiy-psixologik tayyorgarlik katta ahamiyat kasb etadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat jarayonida o'z holatini boshqarish zarur bo'lgan vaziyatlar tez-tez yuzaga keladi. Ruhiy va jismoniy zo'riqishlar haddan tashqari katta bo'lganda, buning ustiga xodim o'z xatti-harakatlarini yomon boshqarganda asabiylashish yuzaga keladi. Bu esa faoliyat samaradorligini pasaytiradi va uning noto'g'ri tashkil etilishiga, ishda jiddiy xato va kamchiliklarga olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarning takrorlanishi ko'pincha o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga, asabiy depressiyalarga olib keladi. Masalan, o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, jinoyat qidiruv bo'limlarining so'ralgan xodimlaridan 30 % uyqusining buzilishidan shikoyat qilganlar, 80 % dan ko'prog'i nevroitik holat ko'rinishlarining bir necha alomatlarini borligini ta'kidlaganlar. Bu alomatlar ish kunining oxiriga borganda charchash (70 %), diqqatning

pasayishi (30 %), tajanglik (20 %), bosh ogʻrigʻi va aylanishi (10 %), uyquchanlik va darmonsizlik (10 %)larda namoyon boʻladi¹.

Shu bois xodimlarning hissiy-irodaviy oʻzini oʻzi boshqarish yoʻllari va usullarini egallashlari bugungi kunda juda dolzarb vazifadir. Xizmat faoliyatida asablari mustahkamroq boʻlgan, raqib (jinoyatchi) bilan kurashishga yaxshiroq shaylana oladigan, nafaqat jismoniy va aqliy imkoniyatlaridan oqilona foydalana oladigan, balki asabiy-ruhiy faolligini maqbul darajada saqlay oladigan, tezkor xizmat faoliyatining murakkab vaziyatlarida oʻzining irodaviy faolligini namoyon qila oladigan xodimlar koʻproq muvaffaqiyatni qoʻlga kiritadilar.

Xodimdagi hissiy-irodaviy barqarorlikka uning kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorligini koʻrsatuvchi alomatlardan biri sifatida qarash mumkin. Bu, oʻz navbatida, har bir xodimning kasbiy malaka va koʻnikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Hissiy-irodaviy barqarorlik deganda, murakkab vaziyatlarda muvaffaqiyatli ishlash uchun qulay boʻlgan psixik holatni saqlash qobiliyati tushuniladi. Hissiy-irodaviy barqarorlik quyidagilarda namoyon boʻladi:

– ekstremal vaziyatlarda xodimda harakatlarining samaradorligini pasaytiruvchi va noaniqliklar, adashishlar tugʻdiruvchi psixologik reaksiyalarning yoʻqligi;

– psixologik jihatdan murakkab boʻlgan sharoitlarda vazifani bexato bajarish mashqini olganlik;

– kasbiy ziyraklikni saqlash, tavakkal, xavf-xatar, kutilmagan vaziyatlarga nisbatan oqilona ehtiyotkorlik va diqqatni namoyish etish;

– ishlarni qatʻiy qonun asosida yuritishga taʻsir etuvchi shaxslarning ruhiy taʻsiriga berilmaslik;

– jinoyatlarning oldini olishga, ularni ochish va tergov qilishga qarshilik koʻrsatuvchi shaxslarga qarshi psixologik kurash olib borish qobiliyati;

– psixologik jihatdan murakkab, nizoli, igʻvogarona vaziyatlarda oʻzini yoʻqotmaslik.

Hissiy-irodaviy oʻzini oʻzi boshqarish jarayoni quyidagi uchta asosiy prinsipga tayanadi:

– relaksatsiya;

– vizuallashtirish;

– oʻzini oʻzi ishontirish.

Relaksatsiya prinsipining mohiyatini tana va ruhning birgalikda ishlashga tayyorlanishi tashkil etadi. Aynan relaksatsiya paytida oʻz ichki

¹ Асямов С. В., Пулатов Ю. С. Ички ишлар идоралари ходимларининг касбий-психологик тренинги. – Т., 2002. – Б. 35 – 36.

ovozingizni eshitish hamda o'z organizmingiz va tafakkur faoliyatingizning aloqasini his etishingiz mumkin. Relaksatsiya yoki bo'shashish tana va ruhi keraksiz zo'riqishdan va odamni bo'shashtirib yuboradigan jihatlardan ozod qilishni bildiradi, u insonga foydali psixologik va fiziologik ta'sir ko'rsatadi. Bu o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi jarayon: unda miya xotirjamlashgani sayin tana bo'shashadi, tana bo'shashgani sayin miya xotirjam bo'la boradi.

Ikkinchi prinsip – *vizuallashtirish*. Intiutiv tafakkur ongga kirib borishining turli yo'llaridan foydalanadi. Asosiysi manzara hosil qilish yoki miyangizda obrazlarni gavdalantirish yo'lidir. Vizuallashtirish yo'nalgan tasavvurni eshitish, ko'rish, hid bilish, ta'm bilish, teri bilan sezish sezgilari hamda ularning kombinasiyalari yordamida faollashtirishning turli usullarini bildiradi. Aslida inson miyasi obyektiv olam obrazlariga ham, ongda yuzaga keladigan obrazlarga ham bir xilda javob beradi. Shu bois vizuallashtirish ko'nikmalari insonga o'z ichki imkoniyatlaridan yaxshiroq foydalanish, ruhiy jarayonlarning kechishini faollashtirish imkonini beradi.

O'zini o'zi ishontirish prinsipning mohiyati shundaki, biz o'zini o'zi ishontirish yordamida ichki obrazlarimizni ongimizda aks-sado sifatida bir necha marta takrorlanadigan so'zlar bilan ifodalaymiz. O'zining ichki kuchi va qo'llab-quvvatlanishi bilan to'lgan bu so'zlar his-tuyg'ular darajasida chuqur qabul qilinadi. Bunday ichki aks-sadoni «Men buni qila olaman» so'zlarida namoyon bo'ladigan munosabat, niyat va mayl sifatida ifodalash mumkin. O'zini o'zi ishontirish muvaffaqiyatga erishish mumkinligi haqida birinchi shaxs nomidan hozirgi zamonda ifodalangan aniq ta'kididir. Insonning o'ziga qarata aytgan so'zlari o'z maqsadlariga erisha olishiga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi va qaysi yo'nalishda harakat qilish kerakligini ko'rsatadi. Bu so'zlar miyani maqsadga erishish borasida ishlashga va bunda faol ishtirok etishga majbur qiladi. O'zini o'zi ishontirish – obrazlarni so'zda ifodalashga imkon beruvchi faol moyillikdir.

Autogen mashqlar organizmning avvaldan boshqarilmaydigan funksiyalarini boshqarish imkoniyatini oshirishga qaratilgan mashqlar to'plamini o'z ichiga oladi. Autogen mashq – nemis olimi I. G. Shuls taklif etgan o'zini o'zi ishontirish usuli. Ushbu metodda dastlab o'zini o'zi ishontirish orqali mushaklar tonusining bo'shashiga – relaksatsiyaga erisqiladi, so'ngra ushbu holatda organizmning u yoki bu funksiyaga qaratilgan o'zini o'zi ishontirish amalga oshiriladi.

Bugungi kunda xodimning kasbiy-psixologik tayyorgarligi ichki ishlar organlari faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Ichki ishlar organlari xodimining inson va uning ruhiyatini uzviy ravishda qamrab oladigan kasbiy mahorati nafaqat maxsus yuridik bilimlardan, balki kasbiy-psixologik tayyorgarlik-

dan ham tashkil topadi. Agar uning bunday tayyorgarligi bo'lmasa, haqiqiy mahorati ham bo'lmaydi. Shu munosabat bilan xodimlarning kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlaydigan zarur, professional jihatdan muhim xislatlarini rivojlantirish, faoliyatining ishonchligini oshiruvchi, odamlar bilan mohirona ishlashiga yordam beruvchi usullarni o'zlashtirishlari juda muhim. Shu bois kasbiy-psixologik tayyorgarlikning juda istiqbolli yo'nalishi bo'lgan ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy-psixologik treningi bugungi kunda katta qiziqish uyg'otadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlashning psixologik mazmuni

Ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri xodimlarni psixologik jihatdan tayyorlashdir. Har qanday kasbiy faoliyat insonga muayyan talablar qo'yadi hamda uning shaxsi va butun turmush tarzida o'ziga xos iz qoldiradi. Ichki ishlar organlari xodimi kasbiy faoliyat samaradorligini belgilab beruvchi qanday shaxsiy xislatlarga ega bo'lishi lozimligini aniqlash uchun ushbu faoliyatning o'zini psixologik jihatdan tahlil qilish, uning o'ziga xos jihatlarini aniqlash, tarkibiy tuzilishini ochib berish zarur. Kasbiy faoliyatning qonuniyatlarini aniqlash uni nafaqat o'rganishga, balki takomillashtirishga ham qaratilgan tashkiliy tadbirlar tizimini ishlab chiqishga imkon beradi

Ichki ishlar organlari xodimlarini psixologik jihatdan tayyorlashdan ko'zlangan *maqsad* ularda xizmat faoliyatining har qanday murakkab sharoitlarida kasbiy jihatdan to'g'ri, aniq, yuqori ishchanlik bilan harakatlanish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Ichki ishlar organlari xodimlarining shaxsiy, birinchi navbatda, kasbiy jihatdan muhim xislatlariga alohida talablar qo'yiladi. Ushbu faoliyat xodimlarda hissiy-irodaviy barqarorlikni, stress holatlarini vujudga keltiruvchi omillar ta'siriga qarshi psixologik immunitet shakllantirishni talab etadi.

Psixologik tayyorgarlikning asosiy *vazifalari* quyidagilardan iborat:

- xodimlarning ichki ishlar organlari uchun tipik bo'lgan stress omillar va ularning ta'siriga psixologik chidamliligini oshirish;
- xodimlarda psixologik xislatlarni rivojlantirish, har qanday vazifani operativ xizmat faoliyatining turli murakkab va xavfli sharoitlarida ham muvaffaqiyatli bajarishlariga yordam beruvchi uquv va ko'nikmalarning o'ziga xos jihatlarini shakllantirish.

Psixologik tayyorgarlik xodimlar kasb mahoratining tarkibiy qismidir. U xodimning shakllangan va rivojlangan psixologik xususiyatlari majmui bo'lib, operativ xizmat faoliyatining o'ziga xos va muhim psixologik

xususiyatlariga javob beradi va uni amalga oshirishning zarur shart-sharoitlaridan biri hisoblanadi.

Psixologik tayyorgarlik xodimning kasb mahoratini keskin oshiradi. Ilmiy tadqiqotlar va mavjud ijobiy tajriba professional ta'lim tizimiga psixologik tayyorgarlikni maqsadga yo'nalgan tarzda oshirib borishning maxsus vazifalari, shakl va usullarini kiritish zarurligini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda psixologik tayyorgarlik – ichki ishlar organlari kasb tayyorgarligining muhim tarkibiy qismidir. «Shaxsiy tarkib sifati uning kasbiy mahorati darajasi, axloqiy-ruhiy darajasi, jismoniy tayyorgarligi va intizomi bilan belgilanadi»¹.

Ichki ishlar organlari xodimlarining psixologik tayyorgarligi xodimlarga operativ xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli va samarali bajarish uchun zarur sifatlarni shakllantirish, rivojlantirish va faollashtirish bo'yicha maxsus tashkil etilgan maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish jarayonidir.

Psixologik tayyorgarlik xizmat faoliyatining xususiyatlariga bog'liq. Shunga ko'ra, psixologik tayyorgarlikning mazmuni aniq ifodalangan kasbiy yo'nalishga ega bo'lmog'i lozim.

Xodimlar psixologik tayyorgarligining mazmuniga quyidagilarni kiritish mumkin:

- jinoyatchilikka qarshi kurashga psixologik jihatdan tayyor bo'lish xislatlarini shakllantirish;

- maxsus operativ xizmat faoliyatining turli jihatlariga psixologik yo'nalganlikni rivojlantirish;

- kasbiy jihatdan muhim bo'lgan bilish xislatlarini shakllantirish va rivojlantirish;

- turli toifadagi fuqarolar bilan psixologik aloqa o'rnatish uquv va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish;

- operativ xizmat faoliyatining turli vaziyatlarida rolga kirishish ko'nikmalarini ta'minlash;

- fuqarolar bilan muloqotga kirishning murakkab, nizoli vaziyatlarida ta'sir etishning psixologik-pedagogik usullarini qo'llash mahoratini shakllantirish;

- operativ xizmat faoliyatining og'ir vaziyatlarida o'zini tuta olish va psixologik barqarorlikni ta'minlash;

- shaxsning ijobiy hissiy-irodaviy xislatlarini rivojlantirish, xodimlarga o'zini tutish va boshqarish usullarini o'rgatish;

- irodaviy faollikni va irodaviy harakat ko'nikmalarini shakllantirish;

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1998. – Б. 128.

– ishdagi ruhiy zo‘riqlashga tayyorlash.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda psixologik jihatdan tayyorlash. Ma’lumki, bu psixologik tayyorgarlikdagi eng muhim jihatdir. Bu o‘rinda asosiysi xodimlarning kasbiy yo‘nalganligini shakllantirish, ularda faoliyatga nisbatan barqaror kasbiy qiziqishni rivojlantirish hisoblanadi.

Shuningdek, bu tayyorgarlik xodimlarda har qanday qonunbuzarlikka nisbatan kelishmovchilik, huquqiy normalarni so‘zsiz bajarishdan iborat barqaror odatni, kuchli rivojlangan haqiqat, adolat va qonuniylik hissini shakllantirishni taqozo etadi.

Maxsus operativ xizmat faoliyatining turli jihatlariga psixologik yo‘nalganlikni rivojlantirish. Bu xodimlarni psixologiya asoslari bilan tanishtirishni, ularda o‘z ishlarida odamlar, guruhlar psixologiyasini inobatga olish ko‘nikmalari va odatlarini shakllantirishni taqozo etadi. Operativ xizmat faoliyatining psixologik jihatlarini tushunish xodimlarning o‘tkaziladigan tergov, operativ qidiruv va boshqa harakatlardagi psixologik xususiyatlarni bilishlari va hisobga olishlarini nazarda tutadi.

Kasbiy jihatdan muhim bo‘lgan bilish xislatlarini shakllantirish va rivojlantirish. Ushbu xislatlar xodimlar bilish faoliyatining samaradorligini ta’minlaydi. Bilish faoliyatiga kasbiy ziyraklik, idrok, kuzatuvchanlik, xotira, tafakkur va tasavvur xosdir. Ushbu xislatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar xodimlarning kasbiy jihatdan muhim ma’lumotlarni esda olib qolish, esda saqlash va qayta esga tushirish samaradorligini oshirish qoidalarini, mantiqiy fikrlash va ijodiy tasavvurni rivojlantirishning asosiy usullari va ularga doir bilimlarni egallashlariga yo‘naltirilgan. O‘tkazilgan tadqiqotlar (A. M. Stolyarenko, A. A. Volkov, O. Ye. Saporin) mazkur xislatlarni amaliy mashg‘ulotlar va maxsus mashqlar yordamida maqsadli rivojlantirish natijani 2–3 marta yaxshilashga imkon berishini ko‘rsatadi.

Turli toifadagi fuqarolar bilan psixologik aloqa o‘rnatish uquv mahorati hamda ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish. Ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyatini turli toifadagi fuqarolar (jabrlanuvchilar, guvohlar, gumon qilinuvchilar, maxsus hisobda turganlar va h.k.) bilan doimiy muloqotda bo‘lishsiz tasavvur etish mumkin emas. Olinadigan operativ jihatdan muhim axborotning sifati xodimlarning ular bilan muomala qilish, psixologik aloqa o‘rnatish, ishonchli munosabatga kirishish qobiliyatiga bog‘liq. Bu esa, o‘z navbatida, butun faoliyatning samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik tayyorgarlik davomida xodimlar psixologik aloqa o‘rnatish usullari va yo‘llari tizimini egallashlari kerak. Ularda notanish kishilar bilan tezda aloqa o‘rnatish va ularni o‘ziga moyil qilish,

odamlarning fikrini eshita olish, muloqot jarayonida psixologik to'rsiqlarni yenga olish mahorati shakllanishi lozim. Psixologik tayyorgarlik xodimlarning psixologik aloqa o'rnatish jarayonini yengillashtirishga imkon beruvchi muayyan qoidalarni o'zlashtirishlarini taqozo etadi.

Operativ xizmat faoliyatining turli vaziyatlarida rolga kirishish ko'nikmalarini shakllantirish. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy mahoratini tashkil qiluvchi muhim tarkibiy qismlardan biri jinoyatlarni ochish yoki ularning oldini olish uchun zarur axborotni olish maqsadida foydalanadigan rolga kirish ko'nikmalaridir. Shu bois psixologik tayyorgarlik davomida xodimlar o'zlarining ichki ishlar xodimi ekanliklarini, haqiqiy holatlarni, muloqotga kirishishdan ko'zlagan maqsadlarini niqoblay olish mahoratini shakllantirishlari kerak.

Fuqarolar bilan muloqotga kirishishning murakkab, nizoli vaziyatlarida ta'sir etishning psixologik-pedagogik usullarini qo'llash mahoratini shakllantirish. Fuqarolar bilan muomala qilish jarayonida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlar ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida odatiy holdir. Shuning uchun xodimlarda nizoli vaziyatni bartaraf etish mahoratini shakllantirish, ularga nizolarni hal qilish usullarini o'rgatish juda muhim. Xodimlar faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan odamlarga psixologik ta'sir ko'rsatishning ishontirish, majburlash, rag'batlantirish singari muayyan usullaridan mohirlik bilan foydalanishlariga bog'liq. Xodimlarda nizoli vaziyatda o'zini tutishning turli taktik usullarini qo'llash hamda nizoli vaziyatdan operativ maqsadda foydalanish ko'nikmalari ham shakllanishi kerak.

Operativ xizmat faoliyatining og'ir vaziyatlarida o'zini tuta olish va psixologik barqarorlikni ta'minlash. Xodimlar o'zlarining kundalik amaliy ishlarida kasbiy vazifalarini bajarish sifatiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan ko'plab noqulay psixologik holatlar ta'siriga duch keladilar. Psixologik barqarorlik xodimlarning salbiy holatlar ta'siriga tushmaslik qobiliyatida namoyon bo'ladigan psixologik tayyorgarlikning muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida qaraladi. Bu o'rinda operativ xizmat vazifalarini bajarish chog'ida mazkur qiyinchiliklarni oldindan ko'rish qobiliyatini shakllantirish muhim. Psixologik barqarorlikning shakllanishi xodimlarning eng katta psixologik qiyinchiliklar sharoitida o'z vazifalarini kamchiliksiz bajarish mashqini olishiga yordam beradi. Bunga mashqlar va amaliy mashg'ulotlar jarayonida og'ir vaziyatlarni modellashtirish yo'li bilan erishish mumkin.

Shaxsning ijobiy hissiy-irodaviy xislatlarini rivojlantirish, xodimlarga o'zini tutish va boshqarish usullarini o'rgatish. Xodimlarning psixologik barqarorligini va og'ir vaziyatlarda o'zini tuta bilish qobiliyatini shakllantirish ularda mas'uliyat, muvaffaqiyatsizlikka chidash, tavakkalga moyillik

va barqarorlik, o'zini boshqara olish, sobitlik kabi muayyan hissiy-irodaviy xislatlarni shakllantirishni taqozo etadi. Xodimlar o'z xatti-harakatlarini va his-tuyg'ularini nazorat qilish va boshqarish usullarini egallagan bo'lishlari kerak. Ular mashg'ulot va mashqlar jarayonida o'zlarini boshqarish, asabiy zo'riqishni yo'qotish, ichki imkoniyatlarni qo'yilgan vazifani bajarishga safarbar qilish usullarini egallaydilar.

Irodaviy faollik va irodaviy harakat ko'nikmalarini shakllantirish. Ichki ishlar organlari xodimlari o'zlarining amaliy faoliyatlarida vazifani sifatli bajarishni qiyinlashtiradigan, ba'zan esa qo'yilgan maqsadga erishishga to'sqinlik qiladigan turli xil qiyinchiliklar va to'siqlarga duch keladilar. Bunday vaziyatlarda ular ushbu qiyinchilik va to'siqlarni yengishga undovchi irodaviy faollikni namoyish etishlariga to'g'ri keladi. Irodaviy harakat ko'nikmalarini rivojlantirishga mashg'ulotlar jarayoniga qo'yilgan vazifani bajarishga to'sqinlik qiluvchi muayyan elementlar, to'siqlar kiritish yordam beradi. Bunday mashqlar jarayonida to'plangan irodaviy faollik tajribasi shaxs irodasini, irodaviy xislatlarini rivojlantirishga ta'sir etadi.

Ishdagi ruhiy zo'riqishlarga tayyorlik. Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatiga xos xususiyatlardan biri shundaki, ta'sir etuvchi omillar ko'pincha stress holatini keltirib chiqaradi, asab tizimiga haddan tashqari katta og'irlik tushadi. Bu, o'z navbatida, ular amalga oshiradigan faoliyatning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois xodimlar ushbu jarayonlar kechishining asosiy qonuniyatlari hamda qisqa vaqt ichida ish qobiliyatini tiklashga va ortiqcha asabiy zo'riqishni bartaraf etishga yordam beradigan usullar (chunonchi, psixologik boshqaruv mashqlarini bajarish usullari) bilan tanishtirilishi zarur.

Bundan tashqari, xizmat vazifalarni samarali bajarishda maxsus poligonlar, trenajyorlar, har xil to'siqlar, psixologik tayyorgarlik xonalarning xizmati beqiyosdir.

Ichki ishlar organlari xodimlarini psixologik tayyorlashning vositalari

Xodimlar psixologik tayyorgarligining mohiyatini belgilovchi markaziy bo'g'in va o'zak uni o'tkazish usullaridir. Bu o'rinda operativ xizmat vazifalarini samarali bajarishga imkon beruvchi psixologik tayyorgarlik rivojlantiriladigan va uning zarur darajasiga erishishga yordam beradigan usullar nazarda tutiladi. So'nggi vaqtlarda psixologik tayyorgarlikni tashkil etishda ichki ishlar xodimlarining kasbiy psixologik treningidan foydalanish borgan sari ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Kasbiy-psixologik trening xodim

shaxsining kasbiy muhim xislatlarini samarali rivojlantirishga imkon beruvchi maqsadga qaratilgan mashqlar tizimidir. Ushbu trening xodimning kasbiy faoliyati samaradorligini oshiradigan tegishli psixologik usullarni egallashini ham taqozo etadi.

Psixologik tayyorgarlikni amalga oshirish uchun quyidagi *kasbiy-psixologik trening usullari* qo'llaniladi:

- bilish xislatlari treningi;
- kommunikativ trening;
- rolga kirish treningi;
- psixologik boshqaruv mashqlari;
- psixo-texnik o'yinlar.

Kasbiy psixologik trening usullari operativ xodim uchun zarur bo'lgan xislatlar, ko'nikmalar va mahoratni samarali shakllantirish va rivojlantirishga imkon beradi.

Bilish xislatlari treningiga kasbiy xotira, kasbiy kuzatuvchanlikni rivojlantirish va kasbiy idrok tajribasini to'plash bo'yicha treninglar, kasbiy ziyaklikni rivojlantirish bo'yicha mashqlar kiritiladi.

Kommunikativ trening psixologik aloqa va ishonchli munosabat o'rnatish, operativ qiziqish uyg'otuvchi shaxslarga psixologik ta'sir ko'rsatish ko'nikmalarini egallashni o'z ichiga oladi.

Xodimlar operativ xizmat vazifalarini bajarish jarayonida turli rollarni bajarishlariga to'g'ri keladi. Boshqa qiyofaga kirish, o'z xatti-harakatlarini niqoblash va asoslash qobiliyati ichki ishlar xodimlari kasbiy mahoratining zaruriy tarkibiy qismi bo'lib, unda tegishli xislatlarni shakllantirish uchun *rolga kirish treningi* katta ahamiyat kasb etadi. Rolga kirish ko'nikmalari rol gimnastikalari, ya'ni nutqqa va nutqsiz vositalarga tegishli rolga mos tashqi ifodali belgilar bag'ishlash, ushbu vositalarni qo'llashda improvizasiya qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlarni bajarish orqali rivojlantiriladi.

Hissiy-irodaviy jarayonlarni boshqara olish ko'nikmalarini egallash uchun *psixologik boshqaruv mashqlaridan* foydalaniladi. Bu mashqlar shaxsning hissiy holatlarini boshqarishga, ortiqcha asabiylik, zo'riqishni bartaraf etishga, xodimning faoliyatida muayyan ijobiy kayfiyat yaratishga imkon beruvchi o'zini o'zi boshqarishning eng oddiy usullaridan foydalanish ko'nikmalarini egallashga qaratilgan. Ushbu guruhga autogen mashqlar, irodaviy o'zini o'zi boshqarish usullarini egallash ham kiritilgan.

Psixotexnik o'yinlar xodimlarni psixologik tayyorlashning samarali usuli bo'lib, o'yin tarzidagi xatti-harakatlarni bajarish orqali muayyan xislatlarni shakllantirish uchun qo'llaniladi. Psixotexnik o'yinlar psixologik

jihtdan amaldagi vaziyatlarga yaqin, haqiqatda mavjud bo'lgan vaziyatlarni qaror toptirishga asos bo'ladigan muayyan rollarni, o'zaro harakatlarni bajarishni nazarda tutadi.

Psixologik tayyorgarlik usullariga *operativ xizmat faoliyati sharoitlari va qiyinchiliklarini psixologik modellashtirish* ham kiritiladi. Bu operativ xizmat faoliyatining haqiqiy vaziyatlariga yaqin bo'lgan tashqi va ichki (psixologik) sharoitlarni yaratishga imkon beruvchi yo'llar, usullar va vositalar majmuidir.

Psixologik tayyorgarlik usullari orasida *amaliy vazifalarni psixologik tahlil qilish va bajarish usuli* ham ajratilishi mumkin. Ushbu usulning afzalligi xodimlar kasbiy psixologik tayyorgarligining darajasini haqiqatda tekshirish imkoniyatidadir. Amaliy vaziyatlarni hal qilish xodimlarga erishilgan amaliy bilimlar, ko'nikmalar va uquvlarni operativ xizmat faoliyatida qo'llashga imkon beradi.

Kasbiy psixologik trening vazifalari, mazmuni hamda amalga oshirish yo'llarining murakkabligi va mas'uliyatliligi uni o'tkazishni tashkil etishga va usullariga yuqori talablar qo'yilishini belgilab beradi.

Kasbiy psixologik treningni amalga oshirishda uni tashkil etishning muayyan prinsiplariga suyanish zarur.

Quyidagi umumiy prinsiplar mavjud:

- treningning ilmiy asoslanganligi va maqsadga muvofiqligi;
- treningning kasbiy yo'nalganligi;
- uni o'tkazishda muntazamlik va ketma-ketlik;
- ta'lim oluvchilarning ongliligi va faolligi;
- tayyorgarlik ko'rishning barcha uchun osonligi.

Kasbiy-psixologik treningning qo'llaniladigan vosita va usullari majmuining *ilmiy asoslanganligi va maqsadga muvofiqligi* uning psixologik jihatdan nozik jihatlarini chuqur va aniq bilish hamda yuridik psixologiya va pedagogika tavsiyalariga rioya qilish zarurligidan kelib chiqadi.

Treningning kasbga yo'nalganligi tayyorgarlik vazifalari va mazmunining xodimlar kasbiy faoliyatining xususiyatlari va ular duch keladigan psixologik qiyinchiliklardan kelib chiqib maksimal darajada aniqlik kiritilishida ifodalanadi. Shuningdek, ana shundan kelib chiqib o'quv vazifalari, usullari, obyektlarini tanlash, shart-sharoitlar va harakatlarni imitatsiya qilish zarur.

Kasbiy psixologik treningni o'tkazishda *muntazamlik va ketma-ketlik* yangi bilim, ko'nikma va uquvlar avvalgilari asosida egallanganda, avvalgilari esa rivojlantirishni talab etganda psixologik tayyorgarlikni o'tkazishda qat'iy mantiqiy aloqa bo'lishini talab etadi. Bunda oddiydan murakkabga, sinalgandan sinalmaganga tomon borish; mashq qiluvchilarning

haqiqiy bilimlarini va avvalgi mashgʻulotlarda erishgan natijalarini toʻliq hisobga olgan holda katta, ammo bajarsa boʻladigan qiyinchiliklarni yaratish zarur. Ushbu mashgʻulot topshiriqlari (vazifalari, surʼati, sharoitlari va sh.k.)dagi qiyinchiliklar avvalgilaridan biroz koʻproq boʻlgani maʼqul. Agar mashq qiluvchi, harakat qilishiga qaramay, vazifani umuman bajara olmayotgan boʻlsa, qiyinchilikni kamaytirish lozim.

Mashqlar vaqtidagi qiyinchiliklar talabalarning imkoniyatlarini safarbar qiladi, taʼlim jarayoni tezlashadi, natijalar ham oshib boradi. Vazifalar oddiy, oson bajariladigan boʻlsa, mashgʻulotlarga qiziqish pasayadi, taʼlim surʼatlari sekinlashadi.

Taʼlim oluvchilarning ongliligi va faolligi prinsipi xodimlarning oʻz qobiliyatlarini takomillashtirib borishlari, bilim olishlarini faollashtirish, psixologik tayyorgarlik boʻyicha mashgʻulotlarga barqaror qiziqishlarini shakllantirishga qaratilgan ongli faoliyatini taʼminlashdan iborat. Mashq qiluvchi nimani va qanday tartibda bajarish kerakligini aniq tushunib olishi zarur. Bunda harakatni egallash surʼatlari va darajasi hamda amaliyotda bajarish samaradorligi oshadi.

Tayyorgarlik koʻrishning osonligi prinsipi psixologik tayyorgarlikni xodimlarning zarur bilimlar hamda talab etilayotgan koʻnikma va uquvlarni oʻz aqliy va jismoniy kuchlarini muayyan darajada zoʻriqtirish evaziga ongli ravishda oʻzlashtira olishlari uchun qulay tarzda tashkil etish va oʻtkazishni talab etadi.

Kasbiy psixologik treningni samarali tashkil etishning muhim shartlaridan biri xodimlarning oʻz imkoniyatlarini, kasblari uchun muhim shaxsiy xislatlarining rivojlanganlik darajasini bilishlaridir. Bu esa xodimga tayyorgarlik dasturini toʻgʻri belgilash, oʻz kuchlarini kerakli yoʻnalishda jamlash imkonini beradi. Bu borada xodimga oʻz psixologik imkoniyatlarini yaxshiroq bilish imkonini beradigan muayyan oddiy psixodiagnostik usullardan foydalanish katta yordam berishi mumkin.

Ichki ishlar organlarining xodimlari muhim tarkibiy qismi psixologik reallik boʻlmish sharoitda faoliyat koʻrsatmoqdalar. Xodim nafaqat haq boʻlmogʻi, balki odamlar uning talablari adolatli va insonparvar ekanligini tushunishlariga, huquq normalari va oʻz faoliyatining obroʻsi oshishiga erishmogʻi kerak. Operativ xizmat vazifalarini ularning «sof huquqiy» tomoni bilan cheklangan holda samarali hal etib boʻlmaydi. Xuddi shuningdek odamlarning ongi, fikrlari, his-tuygʻulari, xatti-harakatlarini ham turli idoralar oʻrtasida boʻlib boʻlmaydi. Psixologik jihatni eʼtiborga olmaslik yoki yetarlicha inobatga olmaslik xodim harakatlarining samaradorligini pasaytiradi.

Bugungi kunga kelib xodimning kasbiy-psixologik tayyorgarligi – ichki ishlar organlari faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Yuridik ishlarda tajribali inson bo‘lgan ichki ishlar organlari xodimning inson va uning ruhiyatini uzviy ravishda qamrab oladigan kasbiy mahorati nafaqat maxsus yuridik bilimlardan, balki kasbiy-psixologik tayyorgarlikdan ham tashkil topadi. Agar uning bunday tayyorgarligi bo‘lmasa, haqiqiy mahorati ham bo‘lmaydi. Shu munosabat bilan xodimlarning ular kasbiy faoliyatining samaradorligini ta’minlaydigan zaruriy, professional jihatdan muhim xislatlarini rivojlantirishga, ular faoliyatining ishonchligini oshiruvchi psixologik usullarni o‘rganishiga, odamlar bilan mohirona ishlashiga yordam beruvchi usullarni o‘zlashtirishlari juda muhim. Shu bois kasbiy-psixologik tayyorgarlikning juda istiqbolli yo‘nalishi bo‘lgan ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy-psixologik treningini tashkil etish katta qiziqish uyg‘otadi.

Jumladan, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 2006-yilda chop etilgan «Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat» nomli kitobida psixologiya fanining o‘rni va ahamiyatiga quyidagicha tarif berib o‘tgan. «Psixologiya fani biz uchun eng zarur sohalardan biri, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Psixologiyani o‘rganish – hayotni, insonni o‘rganish degani. Kerak bo‘lsa, rahbarlik qilmoqchi ekansiz, yetakchi bo‘lib odamlarga ko‘rsatma bermoqchi ekansiz, oldin ularning psixologiyasini har tomonlama o‘rganish kerak. Buning tagida juda katta ma’no bor»¹ deb ta’kidlagan edi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlashning kasbiy-psixologik asoslari nimalardan iborat?
2. Psixologik tayyorgarlikning asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
3. Xodimlar psixologik tayyorgarligining mazmuniga nimalar kiradi?
4. Kasbiy-psixologik trening nima va uning qanday usullari mavjud?
5. Kasbiy-psixologik treningni amalga oshirish prinsiplarini aytib bering.
6. Kasbiy kamolotning qanday bosqichlari mavjud?
7. Hissiy-irodaviy o‘zini o‘zi boshqarishning relaksatsiya, vizuallash-tirish, va o‘zini o‘zi boshqarish prinsiplarini tushuntirib bering.

¹ *Каримов И.А.* Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари – энг олий қадрият. –Т. 14. – Т., 2006. – Б. 121.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

О‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Т., 2014.

Ўзбекистон Республикасининг “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида”ги қонуни. – Т., 2010.

Ўзбекистон Республикасининг «Бола ҳуқуқлари кафолатлари тўғрисида»ги қонуни. – Т., 2008.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Вояга етмаганлар ишлари бўйича комиссиялар фаолиятини такомиллаштириш ҳақида»ги қарори. – Т., 2000.

Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига шарҳ. – Т., 2001. – Б. 325.

Каримов И. А. Бунёдкорлик йўлидан. Т. 4. – Т., 1996.

Каримов И. А. Жамиятимиз мафқураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин / Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т. 7. – Т., 1999.

Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Т., 2005.

Каримов И. А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. Т. 17. – Т., 2009.

Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Т., 2008.

Каримов И. А. Миллат қудрати – ҳамжихатликда. – Т., 1999.

Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. – Т., 2002.

Каримов И. А. Адолат – қонун устуворлигида. – Т., 2001.

Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010.

Каримов И. А. Миллий истиқлол мафқураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. – Т., 2000.

Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т., 1992.

Абдурасулова Қ. Р. Профилактика – тарбиявий чора-тадбирлар асоси. – Т., 2008.

Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Т., 1993.

Аванесов Г. А. Введение в курс профилактики правонарушений. – М., 1998.

Аванесов Г. А. Криминология и социальная профилактика. – М., 1999.

Алемаксин М. А. Психолого-педагогические проблемы предупреждения педагогической запущенности и правонарушений несовершеннолетних. – Воронеж, 1982.

Антоян Ю. М. Преступность и психические аномалии. – М., 1990.

Антоян Ю. М. Причины преступного поведения. – М., 1992.

Бабаяров М.А. Ёшларни ҳуқуқий тарбиялаш муаммолари // Мустақиллик йилларида юридик фан ва амалиётнинг ривожланиши: Илмий-назарий конференция материаллари. – Т., 2002.

Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция ва унинг факультатив протоколлари / Масъул муҳаррир А. Х. Саидов. – Т., 2009.

Бўриева М. Оила ва унинг вазифалари. – Т., 1998.

Выготский Л.С. Развитие высших психологических функций. – М., 1967.

Горниченко И. И., Хакимов Ш. Ш., Закирходжаев Ш. А. Откровенно о сокровенном. – Т., 1991.

Душанов Р.Х. Жиноятчи шахс психологияси. – Т., 2011.

Еникеев М.И. Юридическая психология. – СПб., 2005.

Зарипов З.С. Вояга етмаганларнинг гуруҳий жиноятчилиги ва унинг олдини олишга қаратилган айрим чоралар // Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши кураш фаолиятини такомиллаштириш: Илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2001.

Зарипов З.С., Исмаилов И. Криминология. – Т., 1996.

Икрамов Ш.Т., Зиёдуллаев М.З. Милиция таянч пунктлари негизида ҳамкорликни ташкил этиш ва бошқариш. – Т., 2013.

Исмаилов И. ва бошқ. Криминология: Дарслик. – Т., 2007.

Йўлдошев М. Оилада руҳий муҳит ва унинг тарбияга таъсири. – Т., 2004.

Каюмов А. А. Вояга етмаган қонунбузарлар ва уларнинг географик тавсифи // Конференция материаллари (2002 йил 14 ноябрь). – Т., 2003.

Клотниекс И.Э. Психология в семье. – М., 1991.

Короткова Т.И. К вопросу о причинах антиобщественного поведения людей и подростков. – М., 1988.

Криминология: Дарслик / Масъул муҳаррир проф. М.Х. Рустамбоев. – Т., 2008. – Б. 71.

Криминология: Дарслик / Профессор З.С.Зарипов таҳрири остида.– Т., 2007.

Манойло А.В., Петренко А.И., Фролов Д.Б. Государственная информационная политика в условиях информационно-психологической войны. – М., 2006. – С. 203.

Матчанов А.А., Ахмедов О.Т., Матлюбов Б.Б., Таджибоев У.Т., Тургунов У.Т. Гиёҳвандлик воситаларининг ноқонуний муомаласига қарши кураш. – Т., 2011.

Махмудов Р. М. Касбий педагогика. – Т., 2003.

Мухторов Ж. С. Ички ишлар органлари профилактика хизматлари фаолиятининг ташкилий-ҳуқуқий асослари. – Т., 2008.

Пахрутдинов Ш. Тараққиётга таҳдид: назария ва амалиёт. – Т., 2006.

Солопонов Ю. В. Основания профилактического воздействия. – М., 1999.

Таджиханов У. Ички ишлар органлари фаолиятида ҳуқуқий маданият ва қонунга итоатгўйлик. – Т., 1995.

Тоҳир Малик. Жиноятнинг узун йўли (Ким айбдор?). – Т., 2004.

Тўлаганова Г.К. Тарбияси қийин ўсмирлар. – Т., 2005.

Умаров Б.М. Ўзбекистонда вояга етмаганлар жиноятчилигининг ижтимоий-психологик муаммолари. – Т., 2008.

Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Т., 2000.

Худойбердиев А. Ижтимоий фикрнинг жамият ҳаётини либераллаштиришдаги аҳамияти // Ўзбекистон Республикаси Суд-ҳуқуқ тизимини либераллаштиришнинг асосий йўналишлари: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2007.

Шоумаров Ғ.Б. Вояга етмаган жиноятчилар билан ишлашнинг психологик масалалари // Таълим тизимида психологик хизмат: муаммолар, ечимлар. – Термиз, 2002.

Юридический энциклопедический словарь. – М., 1987.

Ўзбекистон Республикаси ички ишлар органлари ходимларининг касб маданият ҳақидаги қўлланма. – Т., 2011.

Қорахўжаева М.Х. Ёшларни баркамол инсон қилиб тарбиялашда бой маънавий меросимиздан фойдаланиш // Соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг илмий-услубий асослари: Илмий-амалий ва услубий конференция материаллари. – Т., 2007.

Ҳикматов Ш.М. Аёл, оила ва жамият: Илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2007.

MUNDARIJA

KIRISH	3
--------------	---

1-mavzu.

PEDAGOGIKA FANINING PREDMETI, UNING ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDA TUTGAN O‘RNI

Ichki ishlar organlarida «pedagogik jarayon» tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	5
Profilaktik faoliyatni tashkil etishda pedagogik bilimlarning ahamiyati	9
O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilish siyosati	18

2-mavzu.

FUQAROLARNI HUQUQIY TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI VA HUQUQIY TARG‘IBOT

Aholining siyosiy-huquqiy madaniyatini oshirishda huquqiy tarbiyaning o‘rni	26
Ichki ishlar organlari xodimlari aholi oldida so‘zga chiqishlarining pedagogik asoslari.....	33
Axborot-psixologik xavfsizlik	40

3-mavzu.

YAKKA TARTIBDA HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLIHDA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TA‘SIR ETISH USULLARINI QO‘LLASH

Ichki ishlar organlari faoliyatida psixologik-pedagogik ta‘sir ko‘rsatish mexanizmi	62
Psixologik-pedagogik ta‘sir ko‘rsatish usullari va yo‘llari	65
Psixologik-pedagogik usullarning tanlanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar	70

4-mavzu.

VOYAGA YETMAGAN HUQUQBUZARLAR BILAN ISHLASHNING PEDAGOGIK JIHATLARI VA OILAVIY NOTINCHLIKLARNING OLDINI OLIH

O‘smirlik yoshi va o‘smirlar jinoyatchiligining psixologik xususiyatlari	76
Voyaga yetmaganlarning normadan og‘uvchi xulqi bo‘yicha zamonaviy perventiv-korreksion (oldini olish va tuzatish) amaliyot	84

Oilaviy notinchlik va uning jinoiy xulq shakllanishiga ta'siri.....	89
Nosog'lom, muammoli hamda huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan oilalar bilan ishlashning pedagogik xususiyatlari	98

5-mavzu.

SALBIY IJTIMOYIY HODISALARNING OLDINI OLISH FAOLIYATINING PEDAGOGIK ASOSLARI

Normadan og'uvchi xulqning pedagogik tavsifi va turlari	102
Salbiy-ijtimoiy hodisalar tarqalish sabablarining pedagogik tahlili.....	107
Salbiy-ijtimoiy hodisalarni oldini olishning pedagogik muammolari.....	114

6-mavzu.

PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI.

Psixologiya fani haqida tushuncha. Ong va psixika.....	123
Hozirgi zamon psixologiya fanining asosiy prinsiplari, kategoriyalari va ilmiy tadqiqot usullari	131
Ichki ishlar organlari faoliyatini psixologik ta'minlashning asosiy yo'nalishlari.....	136

7-mavzu.

SHAXS PSIXOLOGIYASI

Shaxsning psixologik tuzilishi va tushunchasi	141
Shaxsning bilish jarayonlari haqida tushuncha.....	156
Shaxsning emotsional-irodaviy holatiga psixologik tavsif	175
Shaxsning individual-psixologik xususiyatlariga tavsif	188

8-mavzu.

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI KASBIY MULOQOTINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida muloqot tushunchasi va uning psixologik o'ziga xosligi	204
Muloqot vositasi va kommunikativ ta'sir etish usullari	207
Ichki ishlar organlari xodimlarining fuqarolar bilan psixologik aloqa o'rnatish usullari	212

9-mavzu.

FAOLIYAT PSIXOLOGIYASI

Psixologiyada faoliyat tushunchasi.....	216
Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatiga psixologik tavsif.....	221
Kasbiy buzilish tushunchasi va ularning oldini olish yo‘llari	226

10-mavzu.

JAMOA VA JAMOADAN TASHQARI AXLOQ PSIXOLOGIYASI

Psixologiyada jamoa va guruh haqida tushuncha	234
Mish-mish gaplar, ularning mohiyati va bartaraf etish usullari.....	240
Olomon psixologiyasi	249

11-mavzu.

HUQUQBUZAR SHAXS PSIXOLOGIYASI. JINOIY GURUHLAR VA UYUSHGAN JINOYATCHILIKKA PSIXOLOGIK TAVSIF

Huquqbuzar shaxs va uning jinoiy axloqiga psixologik tavsif.....	257
Xulq-atvor aksentuatsiyasi va aksentuallashgan jinoyatchilar xulq-atvorining xususiyatlari.....	264
Jinoiy guruhlar va uyushgan jinoyatchilik haqida tushuncha.....	269

12-mavzu.

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINI TAYYORLASHNING KASBIY PSIXOLOGIK ASOSLARI

Xodimlarning psixologik tayyorgarligi – kasbiy mahoratining tarkibiy qismi sifatida.....	293
Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlashning psixologik mazmuni	297
Ichki ishlar organlari xodimlarini psixologik tayyorlashning vositalari	301
TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR	306

Rustam Xo‘janovich DUSHANOV,
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Baxtiyor Nazarovich SIRLIYEV,
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

PEDAGOGIKA.PSIXOLOGIYA

Ma'ruzalar kursi

Muharrir **M. E. Sultonova**
Texnik muharrir **D. R. Djalilov**

Bosishga ruxsat etildi 26.05.2017 y. Nashriyot hisob tabag‘i 21,0
Adadi 100 nusxa. Buyurtma №

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68.